

QOZOQBOY YO'LDOSHEV, VALIJON QODIROV,  
JALOLBEK YO'LDOSHBEKOV

# ADABIYOT

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi  
tomonidan umumiy o'rta ta'lif muktabalarining  
9- sinfi uchun darslik sifatida tavsiya etilgan

*Qayta ishlangan va to'ldirilgan 4- nashri*

TOSHKENT  
“O'ZBEKİSTON” NMIU  
2019

**UO'K 821.512.133.09(075.3)**

**KBK 83.3(5O')ya72**

**Y 75**

**Yo'ldoshev Qozoqboy.**

**Y 75**

Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 9- sinfi uchun darslik. / Q. Yo'ldoshev, V. Qodirov, J. Yo'ldoshbekov. [Mas'ul muharrir: V.Rahmonov]. Qayta ishlangan 4-nashri. —T.: «O'zbekiston» NMIU, 2019. — 368 b.

I. I,2 Muallifdosh.

ISBN 978-9943-25-721-4

**UO'K 821.512.133.09(075.3)**

**KBK 83.3(5O')ya72**

**Mas'ul muharrir:** Vahob Rahmonov — filologiya fanlari nomzodi, dotsent,  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi.

**Taqrizchilar:** O. Musurmonqulova — RTM metodisti;  
M. Zohidova — O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi mutaxassis;  
Sh. Toshmirzayeva — XTV tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan  
maktab o'qituvchisi;  
S. Saidova — XTV tasarrufidagi aniq fanlarga ixtisoslashgan maktab  
o'qituvchisi.

Badiiy adabiyot yoxud ma'lum bir asarning inson ruhiyati va tafakkuriga ta'siri sababi haqida o'ylab ko'rganmisiz? Balki bu savolga badiiy asarlar bilan ilmiy risolalarni solishtirib ko'rish orqali javob izlarsiz. Ammo, Siz, aziz o'quvchilar, mazkur darslikni diqqat bilan o'qib-o'rganib chiqsangiz, yuqoridaq savolga hadis ilmining ustozи Imom al-Buxoriy, so'z mulkining sultonи Mir Alisher Navoiy, mutafakkir shoir va adiblar Xoja, Ogahiy, Furqat va boshqa ijodkorlar asarlaridan to'liq javob topasiz.

**“Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan  
ijara uchun chop etildi**

ISBN 978-9943-25-721-4

© Yo'ldoshev Q. va boshq., 2019

© “O'zbekiston” NMIU, 2019

## RUHIY KAMOLOT VOSITASI

So'z badiiy adabiyotning asosiy ish qurolidir. O'zi ko'zga ko'rinnmaydigan so'z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalar, balki odam boshidagi o'ylar, ko'ngildagi sezimlarni ham ifodalash mumkin. Shuning uchun san'at turlari orasida adabiyot alohida o'rinn tutadi. Insonning o'y-xayollari, istak va armonlari badiiy adabiyotda to'laroq aks ettiriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda tasvirlangan hayot serqirra, qiziq va ta'sirli bo'ladi. Tasavvur qilaylik, Siz "Algomish" dostonini o'qiyapsiz. Bilasizki, asardagi voqealar bundan minglarcha yillar oldin qayerdadir, kimlar bilandir ro'y bergan, ehtimol, hech qachon bo'lmagandir ham. Asar qahramonlari sizga qarindosh emas. Lekin ularning taqdiri sizning taqdiringizga, tuyg'ulari sizning tuyg'ulariningizga qo'shilib ketadi, o'zingizni ulardan ayri tasavvur qilolmaysiz. Doston qahramonlari taqdirining tuyg'ulariningizga bunchalar qattiq ta'sir ko'rsatishi sababi haqida beixtiyor o'ylab qolasiz.

Badiiy adabiyot, umuman, san'at asarlarining inson ruhiyati va tafakkuriga kuchli ta'sir qilishiga sabab nimada ekan? Bu savolla tushunarliroq javob berish uchun badiiy va ilmiy adabiyotlarni bir-biriga solishtirib ko'rish kerak. Siz tabiatshunoslik va geografiya fanlari orqali kecha-kunduzning eng go'zal va so'lim payti bo'lmish tong to'g'risida, yerga hayot baxsh etuvchi Quyosh haqida ancha ma'lumotlarga egasiz. Quyosh bo'lmasa, yerda tiriklik bo'lishi mumkin emasligi va buning sababi ilmiy jihatdan tushuntirilgan. Bu ma'lumotlar sizning bilimingizni oshirgan, tafakkuringizni o'stirgan, ammo tuyg'ulariningizga deyarli ta'sir qilmagan.

Endi shoir Faxriyor tongning otishini qanday tasvirlaganiga e'tibor qiling: "Tong o'rniga qayg'ular otar Kimni?" Shoir o'quvchini tong otishi hodisasidan tamoman uzoqqa olib ketganday bo'ladi. Aslidaku, tong qorong'ilikni "otadi", yorug'likning yoyilishiga sabab bo'ladi. Shu bois, odatda, tong hamisha quvonch va shukronalik bilan birga tasavvur qilinadi. Bu satrlarda odatiy tasavvur buzilib, tong o'rniga qayg'ular otgani aytilishi shunchaki axborot bo'lmagani uchun odamdan darhol fikrashni, munosabat bildirishni talab qiladi va bir qator



savollar paydo qiladi: qayg'ular qanday, nega va kimni otadi? Badiiy so'zning siri shundaki, kishining ruhini bezovta qilib, o'ylashga majbur etadi.

Ijodkor yaratgan asl badiiy asarda doimo fikr bilan tuyg'u qorishib keladi. Yozuvchi hamisha yo nimanidir yoqlaydi, yoki inkor qiladi. Ijodkor betaraf bo'lishi mumkin emas. Chunki chinakam badiiy asar inson tafakkuri va ruhiyatida betaraflik tugagandan so'ng yaratiladi. Adlibning tuyg'ulari nechog'lik kuchli, ko'zi qanchalar o'tkir, tili qanchalik boy bo'lsa, o'quvchi uning asaridan shunchalik qattiq ta'sirlanadi.

Adabiyot atamasi tor va keng ma'nolarda qo'llaniladi. U tor ma'noda badiiy adabiyotni anglatadi, keng ma'noda esa inson tafakkurining mahsuli bo'lmish muayyan qimmatga ega har qanday yozma asarni bildiradi. Ijtimoiy, siyosiy, ma'rifiy, publisistik, memuar, tarixiy, ensiklopedik, lug'atshunoslik va boshqa yo'nalishdagi bitiklar keng ma'nodagi adabiyot tushunchasiga kiradi. Buni ko'pincha ilmiy adabiyot tarzida ham umumlashtiradilar.

Badiiy adabiyot tushunchasi olamni obrazli ko'rish va timsollar asosida aks ettirish mahsuli bo'lmish badiiy asarlarni o'z ichiga oladi. Bu xil asarlar nimanidir o'rganish, bilib olish uchungina emas, balki inson qalbining tovlanishlarini, tuyg'ularining jilvalarini his etish, uning quvonch-u iztiroblarini tuyish uchun o'qiladi. Shu bois kishilarning faqat aqliga emas, balki tuyg'ulariga ham ta'sir qilib, ularning hissiyotini boyitish, ruhiyatini sog'lomlashtirishga xizmat qiladigan bitiklar badiiy adabiyot hisoblanadi va adabiyot atamasi asosan shu ma'noda qo'llaniladi.

Badiiy adabiyotning qachon paydo bo'lganligini aniq aytish qiyin. Chunki ilmiy adabiyot atamasi faqat yozma bitiklarni o'z ichiga olsa, badiiy adabiyot og'zaki ijodni ham qamrab oladi. Xalq og'zaki ijodining qachon paydo bo'lganligini aniqlash esa imkonsiz. Har holda, odamzod paydo bo'lishi bilan uning badiiy ijodi ham dunyoga kelgan bo'lishi kerak. Ayrim manbalarda birinchi she'r Odamato tomonidan aytilgani rivoyat qilinadi.

Badiiy adabiyot san'atning muayyan shakl-shamoyilga ega hamda ushlasa bo'ladigan moddiy materialdan barpo etiladigan boshqa turlaridan imkoniyatining kengligi bilan ajralib turadi. Misol



uchun, haykaltarosh tosh yoki ganch bilan, rassom bo'yoq va mato bilan, musiqachi soz va uning torlari bilan ish ko'radi. Bu san'at asarlарining nima orqali qayerdan vujudga kelganligini ko'rish va ijrochini bevosita kuzatish mumkin.

Adabiyot ulardan jiddiy farq qilib, badiiy asar yaratiladigan maxsus moddiy materialga ega emas. Badiiy asar — xoh og'zaki, xoh yozma bo'lsin — faqat so'z yordamida yaratiladi. Adabiyot shunday san'atki, unda odam hayotining hoziri qanday tasvirlansa, o'tmishi ham, kelajagi ham shunday aks ettirilishi mumkin. Yozuvchi insonning eng murakkab fikrlari, yuksak tuyg'ularini ko'z bilan ko'rib, qulq bilan eshitishning imkonni bo'limgan sezimlarini ham so'z orqali ifoda eta oladi. Chunonchi, hazrati Navoiy qalamiga tegishli:

Azal ham sen, abad ham sen, na avval birla oxirkim,  
Anda yo'q ibtido paydo, munda yo'q intiho paydo

baytida Allohning azalligi, abadligi hamda avvalining boshi bo'limganidek, oxirining adog'i yo'qligi so'zlarning joylashtirilishi va muayyan tovushlarning takrorlanishi tufayli g'oyat jozibali, kishi e'tiborini tortadigan tarzda aks etgan. Shuningdek, bu misralar o'qiyotgan kishidan bir qadar aqliy zo'riqishni ham talab qiladi. Ehtimol, bu satrlarda ifodalangan fikrlar o'zga kishilar tomonidan ham ayttilishi mumkindir. Lekin hozircha boshqa biror ijodkor Navoiy singari hissiyotga kuchli ta'sir etadigan yo'sinda ayta olmagan va ayni shu jihat misralarning mazmundorligini ta'min etgan.

Badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli — xalq og'zaki ijodi (folklor) bo'lib, uning o'zi ham doston, ertak, qo'shiq, maqol, topishmoq singari qator janrlarga ajraladi. Og'zaki adabiyot, nomidan ham anglatib turganidek, og'zaki ravishda yaratilgan bo'ladi. Uning kim tomonidan dunyoga keltirilganligini aniqlab bo'lmaydi. Og'zaki ijod har qanday yozma adabiyotga tayanch vazifasini bajargan.

Badiiy asarlar kuylash, sahnada ko'rsatish yoki o'qish maqsida yaratilgani hamda tuyg'u, voqeа yoki obrazlarning harakatlari ni ifoda etishiga qarab lirik, epik, dramatik kabi turlarga bo'linadi. Bu adabiy turlarning har biri o'z navbatida, bir qancha janrlarga ajraladi.



Har bir millatning madaniy darajasini belgilashda uning adabiyoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki milliy adabiyot milliy ruhni aks ettiradi. Milliy ruhni to'laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror vosita badiiy adabiyotga teng kela olmaydi. Shuning uchun ham adabiyoti bo'limgan millat unutilib ketadi.

Turli bosqinchilar uzoq yillar mobaynida turkiy millatlarni o'zlariga qo'shib olish yo'li bilan yo'qotib yuborishga urinib, chegaralarni buzdilar, yerlarimizni bosib o'tdilar. Lekin tilimizni yo'q qilolmadilar. Chunki turkiy ota tilimiz faqat o'zaro so'zlashuv vositasigina bo'lib qolmay, Yassaviy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Fuzuliy, Maxtumquli, Ogahiy, Abay singari adiblarning asarlari yaratilgan til ham edi. Eng muhimi, turkiy tilda yaratilgan asarlarda turkiy xalqlarning yo'qolmas va bo'ysunmas ruhi ham aks etgandi.

Ma'lumki, ruh mangudir. Milliy ruhi saqlab qolining millatni yo'qotib bo'lmaydi. Negaki millatning yozuvchilari va ularning asarlari milliy ruhning yo'qolishiga yo'l qo'ymaydi. Jonli obrazlar tasviri vositasida millat ruhiyatini aks ettiraveradi. O'zining ruhiyatiga ega millat hech qachon o'zligini boy bermaydi. Demakki, dunyo ayvonida o'zining munosib or'niga ega bo'laveradi.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Badiiy adabiyotga xos xususiyatlarni ayting. Uni ilmiy adabiyotga solishtiring.
2. Badiiy adabiyotning turlarga bo'linishiga asos bo'lgan jihatlarni ko'rsating.
3. Adabiyotda inson hayoti, o'y-fikr va kechinmalari to'laroq aks etishi sababini ayting.
4. Og'zaki adabiyotga xos belgilarga to'xtaling.
5. Millatning ma'nnaviy hayotida badiiy adabiyot qanday o'rinn tutadi?

## I BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI

Aziz o'quvchi!

Endi Siz o'zbek xalqining ulug' dostoni "Alpomish" bilan tanishasiz. Bu dostonni o'zbekning buyuk baxshisi Fozil Yo'Idosh o'g'li aytgan. "Alpomish" dostonining baxshilar tomonidan aytildan qirqdan ortiq nusxasini olimlar yozib olishgan. Lekin Fozil Yo'Idosh o'g'li ijro etgan nusxa voqealarning qiziqlarligi, ifodaning ta'sirchanligi, tasvirning izchilligi, o'zbek xalqining ruhiyatiga xos belgilarni aks ettira olish qudratiga ko'ra ularning barchasidan yuksak turadi.

Fozil shoir 1872- yilda hozirgi Jizzax viloyatining Baxmal tumagina qarashli Loyqa qishlog'ida Yo'Idosh ota oilasida tug'ilgan. Yetimlikda o'sgan bo'lajak shoir cho'ponlik qilgan vaqtlarida do'mbirja jo'rligida terma va dostonlar aytishga qiziqqan. Yigitlik chog'lari da davrining taniqli baxshisi Yo'Idosh shoirdan doston aytish sirlarini o'rgangan. Ulkan iqtidori tufayli o'zbek xalq dostonchilagini yangi bosqichga ko'targan.

Fozil Yo'Idosh qirqdan oshiq xalq dostonlarini to'la yod bilgan va betakror iste'dodi bilan aytgan dostonlarining badiiy jihatdan mukammal bo'lishiga erishgan. "Alpomish" dostoni nafaqat uning ijodida, balki o'zbek xalq dostonchiligidagi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu dostonda o'zbek xalqiga xos eng ezgu sifatlar haqqoniy hamda ta'sirli aks ettirilgan.

"Alpomish" dostonida xalqimizning azal-azaldan iymon-e'tiqod, or-nomus birligi yo'lida o'zini ayamasligi yorqin aks ettirilgan. Siz dostonni o'qib, o'ziga unashtirilgan Oybarchinning qalmoqlar orasida talashda qolmasligi, yurtdoshlarining begonalarga xor bo'imasligi uchun jonini tikkan Alpomish bilan tanishasiz. Yaratganga iymon keltirgani va mo'minga do'st tutingani uchun Hakimbekning yonida turib, o'zining iymonsiz yurtdoshlariga qarshi kurashgan Qorajon holatini anglab yetasiz. Yuksak insoniy fazilatlari bilan er yigitlardan qolishmaydigan Oybarchin va Qaldirg'och timsollariga qoyil qolasiz.

"Alpomish" dostonida o'zbek millatiga xos eng yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, ayni vaqtda, millatdoshlarimizdagи cheklanganlik



va ojizliklar buyuk mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar shunchaki bir doston emas, balki xalqimizning ma'naviy olami va ruhiyat dunyosini ko'satuvchi ko'zgudir. Shuning uchun ham 1999- yilda ushbu doston yaratilganining ming yilligi mamlakatimizda keng bayram qilindi.

Aziz o'quvchi! Agar siz o'zbek degan xalqni yuksaltirgan, uni dunyoga tanitgan axloqiy fazilatlar nimalardan iboratligini tuymoqchi, bobolaringizni olamga mashhur etgan ma'naviy sifatlarning ildizi qayerdanligini bilmochi, ajdodlarning or-nomus, so'zga ega-lik, bag'rikenglik va kechirimplilik kabi xislatlaridan o'rnak olmoqchi bo'lsangiz, dostonni diqqat bilan o'qib chiqing va asarni tushunib yetishga harakat qiling. Bobolaramizning qahramonlik o'tmishiga qiladigan adabiy safaringiz xayrli bo'lsin!

## ALPOMISH

Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' qo'ng'irot elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'i ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakanining otini Boybo'ri qo'ydi, kichkinasining otini Boysari qo'ydi. Boybo'ri bilan Boysari – ikkovi katta bo'ldi. Boysari boy edi, Boybo'ri shoy<sup>1</sup> edi. Bu ikkovi ham farzandsiz bo'ldi.

Ana endi o'n olti urug' qo'ng'irot elida bir chupronto'y<sup>2</sup> bo'ldi. Xaloyiqlarni, elatiyalarni<sup>3</sup> to'yga xabar qildi. Shu to'yga barcha xaloyiqlar yig'ildi. Biylar<sup>4</sup> ham to'yga keldi. To'ydag'i kattalar ilgarigiday izzat qilib, qadimgiday otini ushlamadi. Biylar: "Mazmuni, bu odamlar bizning kelganimizdan bexabar qoldi", — deb otini o'zları bog'lab, ma'rakai majlisga kelib o'tira berdi.

Biylarning ko'nglini xushlamadi, otini ushlamadi, ostiga libos tashlamadi. Osh tortdi — suzgan tovoqni choshlamadi, osh tortganda oshning ketini-betini tortdi. Bu qilgan xizmatni biylar ko'rib, ilgari izzat ko'rib yurgan odamlar aytdi: "Bizlar o'n olti urug' qo'ng'irotning boyi ham shoyi bo'lsak, bizlar kelsak, otimizni ushlar edinglar, ko'nglimizni

---

<sup>1</sup>Shoy – shoh; <sup>2</sup>Chupronto'y – sunnat to'y; <sup>3</sup>Elatiya – chorva bilan shug'ullanadigan qavmlar; <sup>4</sup>Biyl – bek.



xushlar edinglar, bu daf'a bizdan nima o'tdi, bizni bunday behurmat qildinglar?"

Bu so'zni eshitib, o'n olti urug' qo'ng'irot elida paygabetdan<sup>1</sup> turib, bir chapanitob boyvachchasi aytdi: "Ey, Boybo'ri bilan Boysari! Bu to'y o'g'llining o'g'lidan qaytadi, qizlining qizidan qaytadi, sening ni-mangdan qaytadi?! O'zing o'lsang, molingga har merosxo'r chiqadi, og'ziga odam kirib ketadi"<sup>2</sup>.

Biylar bulardan bu gapni eshitib, xafa bo'ldi. Xafa bo'lib, sakson tillani chupronga tashlab, turib ketdi. Borib, chechib mindi bedov otti. Ikkovi uyg'a yetti. Ikkovi qildi maslahatti. Bu so'z ikkoviga juda botib ketdi. Boybo'ri turib aytdi: "Boysari uka, qariganda bizning moli-miz besohibga<sup>3</sup> chiqdi. Endi bizlar bir farzand taraddi qilmaymizmi?" Boysari turib aytdi: "Tortib olib bo'lmasa, sotib olib bo'lmasa, Xudo bermasa, qayoqdan qilamiz taraddi?!" Boybo'ri aytdi: "Shu yerdan Shohimardon pirning ravzasi<sup>4</sup> uch kunchalik yo'l kelar ekan, har kim borib tunar ekan: davlattalab davlat tilar ekan, farzandalab farzand tilar ekan, oxirattalab iymon tilar ekan, qirq kun tunagan kishi murodiga yetib qaytar ekan. Biz ham borsak, nazr-u niyozimizni ber-sak, Shohimardon pirning ravzasini tunlab, biz ham bir farzand tilab ko'rsak".

Shunda bu gap boylarning ikkoviga ham ma'qul tushib, bir-biriga: "Rost aytasan", — deb nazr-u niyozni olib, biylar ikkovi Shohimardon pirning ravzasiga qarab jo'namoqchi bo'lib, mindi bedov otdi, uch kun tinmay yo'l tortdi. Uch kun yo'l yurib, Shohimardon pirning ravzasiga yetdi. Olib borgan nazr-u niyozini shayxlarga berib, biylar ravzani tunab yotdi. Oradan bir kam qirq kun o'tdi. Bir kam qirq kun deganda ravzadan ovoz keldi: "Ey, Boybo'riman Boysari, sen bir kam qirq kundan beri tunab yotibsan. Xudoning yaratgan sheri men bo'lsam, bir kam qirq kundan beri bir oyog'im bilan turib, sizlar uchun oraga tushib, Xudodan farzand tilayman. Yaratgan farzand bermay-man dedi". Biylar bu ovozni eshitib: "Bizlar bir kam qirq kundan beri kelib, sizni tunab yotsak, Xudoning yaratgan sheri siz bo'lsangiz.

---

<sup>1</sup>Paygabet – bo'sag'a, eshikka yaqin joy; <sup>2</sup>Odamni mensimaydi, uni yutib yuborguday bo'ladi ma'nosida; <sup>3</sup>Besohib – egasiz; <sup>4</sup>Ravza – maqbara.



Bizlar uchun oraga tushib, biror farzand tilab olib bermasangiz, bizga pirligingiz yolg'on, Xudoga sherligingiz yolg'on. Bor, unday bo'lsa, biz ham dunyoning bahridan o'tdik", — deb tappa tushib, ravzada, turbatning<sup>1</sup> ostida yotdi.

Qirq kun o'rtadan aniq o'tdi, boz<sup>2</sup> ravzadan ovoz keldi: "Boybo'ri, senga Xudoyim bir o'g'il, bir qiz berdi. Yolg'iz emas, egiz berdi. Boysari, senga Xudoyim bir qiz berdi. Egiz emas, yolg'iz berdi. Bundan borsang, farzandlarni ko'rsang, xaloyiqlarni yig'sang, to'y-tomoshalar bersang, to'uda qalandar bo'lib borib, bolalaringning otini o'zim qo'yib kelaman".

...Oydan oy, kundan kun o'tib, to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat oradan o'tib qoldi. Boybichalarning oy-kuni yaqin yetdi. Biylar ikkovi aytdi: "Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ket-sak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi deb, bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla tanga in'om olsa", — deb bu o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi.

Boybichalarga shunda to'lg'oq vaqtı yaqin yetdi. Ne kampirilar kelib, tulkini inlatgan<sup>3</sup> toziday bo'lib, boybichalarni angnib<sup>4</sup>, o'rta-ga olib turibdi. Biylar shu vaqtida ovdan qaytdi. Bu yoqdan farzandlar yer yuziga tushdi. Bir nechalar biylarning oldiga chiqib, suyunchi oldi. Biylar ziyoda vaqtı xush bo'lib, mazgiliga<sup>5</sup> kelib, joy olib, vaqtı xushligidan har tarafga xabar yuborib, to'y-tomoshalar qilmoqchi bo'lib, chog'lanib, sozlanib, o'n olti urug' qo'ng'irot elining katta-kichik biylarini, oqsoqol, arboblarini yig'dirib, "To'y qilamiz", — deb maslahat qildi. O'n olti urug' qo'ng'irot elining odamlari, eshitgan xaloyiqlar gurros-gurros bo'lib kelaverdi. Shunda katta-kichiklar kelib, biylar og'zidan "To'y qilamiz", — deganini eshitib, to'yning asboblarini tu-zab, qancha so'qim mollarni so'yib, osh-palovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to'yib, shul alpozda o'n olti urug' qo'ng'irotning bor odami to'yni qilib, hammalari jam bo'lib, qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qilib yotdi.

...To'y tarqaydigan kun bo'ldi. Bir vaqt, shunda biylar qarasa, uzoqdan bir qalandar ko'rinib kelaverdi. Xaloyiqlar ham ko'rди: tar-

<sup>1</sup>Turbat – bu yerda ostona ma'nosida; <sup>2</sup>Boz – yana; <sup>3</sup>Inlatgan – inga qamagan;

<sup>4</sup>Angnib – poylab; <sup>5</sup>Mazgil – manzil.



zi gul yuzli, shirin so'zli, bir siyosatli kishi qalandar bo'lib kelayotir. O'zga kishilarga u qalandarning holi-ahvoli ma'lum emas. Ravzadagi so'zlagan ovozni eshitgani sababli: "Shohimardon pirim shul kishi bo'lmasa", — deb biylar o'rnidan turib, oldiga peshvoz chiqib, salom berib, ziyorat qilib, majlisxonaga<sup>1</sup> boshlab olib keldi. Shunda farzandlarning uchovini ham olib kelib, Shohimardon pirning etagiga soldi. Shohimardon pir Boybo'rining o'g'lining otini Hakimbek qo'ydi. O'ng kiftiga besh qo'lini urdi. Besh qo'lining o'rni dog' bo'lib, besh panjaning o'rni bilinib qoldi. Qizining otini Qaldirg'ochoyim qo'ydi. Boysarining qizining otini Oybarchin qo'ydi. Ana shunda Shohimardon pir Hakimbekka Oybarchinni unashtririb, beshikkerti qilib: "Bu ikkovi er-xotin bo'lsin, Hakimbek bilan hech bir kishi barobar bo'lolmasin. Omin, Allohu akbar", — deb fotihani betiga tortdi. Shohimardon pir turib, jo'nab ketdi, odamlarning ko'zidan g'oyib bo'lib ketdi. Ana shuytib, biylarning to'ylari ham tarqab ketdi.

Shunda bolalar kundan kun o'tib, oydan oy o'tib, birdan ikkiga kirib, ikkidan uchga kirib, ularning tili chiqib, elga enib, tili chiqqandan keyin, elga engandan keyin tutib, uchovini ham mакtabga qo'ydi. Ular maktabda o'qib yurib, yetti yoshga kirdi. Burro savodi chiqib, xat o'qib, yozadigan mulla bo'ldi. Shunda Boybo'ribiy: "Endi o'g'lim sаводи chiqib, mulla bo'ldi. O'g'limga endi shohlik, sipohlik ilmini o'rgata-yin", — deb mulladan chiqarib oldi. Boysari ham Boybo'rige taassub qildi. Bul ham Oybarchin qizini maktabdan chiqarib oldi. "Chiqarib olib, qizimga Ko'kqamish ko'lida qo'y sog'dirib, chorvadorlik ilmini o'rgatayin, qo'y sog'moqqa usta bo'lsin", — dedi.

Shunda Hakimbek yetti yoshga kirgan. Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinjdan<sup>2</sup> bo'lган parli yoyi bor edi. Ana shunda yetti yashar bola Hakimbek shul o'n to'rt botmon yoyni qo'liga ushlab, ko'tarib tortdi, tortib qo'yib yubordi. Youning o'qi yashinday bo'lib ketdi. Asqar tog'ning katta cho'qqilarini yulib o'tdi, ovozasi olamga ketdi. Shunda barcha xaloyiqlar yig'ilib kelib: "Dunyodan bir kam to'qson alp o'tdi. Alplarning boshlig'i Rustami doston edi, oxiri bu Alpomish alp bo'lsin. To'qson alpning biri bo'lib, sanaga o'tdi", — dedi. Oxiri

---

<sup>1</sup>Majlisxona – bazmxona; <sup>2</sup>Birinj – bronza.



Alpomishbek alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib, sanaga o'tib, aplifik otini ko'tardi, yetti yoshida Alpomish ot qo'yildi.

Kunlardan bir kun Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiy-dan gap chiqib qoldi. Boybo'ribiy shunda o'g'li Alpomishdan: "Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi?" — deb so'radi. Shunda o'g'li turib aytdi: "Vaqt-bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joy bor bo'lsa, ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joy bor turib, joy yo'q, deb qo'ndirmay jo'natsa, bul odam baxil. Vaqt-bevaqt bir kishi mozorotning qabatidan o'tsa, chap oyog'ini uzangidan chiqarib, mozordagi odamlarning haqiga duo o'qib o'tsa, bul ham saxiylik; agar har kim mozordan o'tganda, chap oyog'ini uzangidan chiqarmay, mozorotning haqiga duo qilmay o'tsa, bul ham baxil. Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham saxiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan".

Bul so'zni Boybo'ribiy Hakimbekdan eshitib, fikr qilib: "Men o'n olti urug' qo'ng'irot elining ham boyi bo'lsam, ham shoyi bo'lsam, men kimga zakot beraman. Mening davlatimda yolg'iz inim Boysari baxilikka chiqib ketmasin", — deb o'z ko'nglida: "Boysaribiy ukam menga zakot berishi kerak ekan", — deb o'yladi. O'ylab: "Boysariga boringlar, Boysari o'z rozichiligi bilan bir chichqoq uloqni zakot deb men-ga bersin. Zakot o'rniغا o'tar-da, Boysari baxil bo'lib, baxillikka chiqib ketmasin", — deb o'n to'rt mahramni buyurdi.

Boysaribiy o'n ming uyli qo'ng'irot eli bilan ko'chib borib, Ko'kqamish ko'lida eliboylik qilib, mollarini semirtirib, yaylovida joylab yotib edi. O'n ming uyli qo'ng'irot elining boyvachchalar bilan yig'ilib, bir yerga jam bo'lib, baxmal o'tovni tikib, shu o'tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, shag'al (*qattiq*) mast bo'lib, o'z kayf-safosi bilan o'tirib edi. Ana shunda otining bo'yniga tilla qo'tos (*oltin tumor*) taqilgan o'n to'rt mahram Boybo'ridan Boysarini so'rab borib qoldi. Shundagi boyvachchalar bularning kelganini bilib, eshik-ka chiqib, mahramlarning otini ushlab qoldi. Mahramlarni ichkariga olib kirdi. Boysari bulardan yo'l bo'lsin, qilib savol so'radi. Mahramlar savolga javob berib aytdi: "Biz akangdan kelgan zakotchi bo'lamiz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. "Zakot qilinglar, bersa, zakotini olib kelinglar", deb yuborgan", — dedi.



Bu so'zlarni mahramlardan eshitib, Boysari ko'ngliga og'ir olib, aytdi: "Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo'Imagan, endi akamiz o'g'illi kishi bo'lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo'libdi-da". Zakot degan gapni eshitib, bu gap botib ketib, oldida-gi o'zining odamlariga buyurdi: "Ushla, bachchag'arlarni!" — dedi. Boyvachchalar mahramlarni bitta-bitta ushlab qoldi. U yettovining quloq-burnini kesib, o'zlariga yegizib, otiga chappa mingizib, otning ustiga tortib boylab, "Mana buni zakot deb aytadi", — deb Qo'ng'irot tarafiga haydab yubordi.

Shunchalik ishni qilsa ham, Boysaribiya zakot degan gap ni-hoyatda o'tib ketgan ekan: "Endi biz o'z yurtimizda sig'indi bo'lib, o'z akamizga zakot berib yuradigan bo'lsak, bu elda bizning turgiligimiz qolmad", — deb, o'n ming uyli qo'ng'irot eliga qarab: "Endigi maslahat nima bo'ldi?" — deb turgan ekan:

Oh urganda ko'zdan oqar selob yosh,  
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh,  
Qo'ng'irot eldan molga zakot kelibdi,  
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!  
Qursin, Hakimbegi mulla bo'libdi,  
Bezakot mollarni harom bilibdi,  
Qo'ng'irot eldan molga zakot kelibdi,  
Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh.  
Dardli qul dardimni kimga yoraman,  
Ayriliq o'tiga bag'ri poraman,  
Mina<sup>1</sup> elda sig'indi bo'p turaman,  
O'z akama qanday zakot beraman?!

Maslahat ber, o'n ming uyli qarindosh!  
Mina elda men ham bekman, to'raman,  
O'z akama qanday zakot beraman?!

O'z akama o'zim zakot berguncha,  
Qalmoq borib juz'ya<sup>2</sup> berib yuraman...

Ana shunda Boysaribiy bu so'zlarni aytdi. Shu turgan xalo-yiqlardan hech bir sado chiqmadi. Shu majlisda bir Yartiboy oqso-

<sup>1</sup>Mina – manavi; <sup>2</sup>Juz'ya – g'ayridinlarga solinadigan katta miqdordagi soliq.



qol degan bor edi. Majlisli kun bo'lsa, to'rda joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo'sag'aning oldida kovushga joy bermay, kovush bilan aralashib, it yiqilish bo'lib, paygabetda yotar edi. To'rda o'tirgan kat-taman deb yurganlarning hech qaysisidan gap, sazo chiqmagandan keyin paygabetdan Yartiboy o'rnidan turib, maslahat shul-da, — deb Boysarining so'ziga javob berib turibdi:

Maslahat bermaymiz Boysariboga,  
Osilmaymiz Boybo'rining doriga,  
Biring — aka, biring — uka, Boysari,  
Maslahatni, shohim, o'zing bilasan.  
...Biz bilmaymiz Boybo'rining ishini,  
Maslahatga yig'ib shuncha kishini,  
Kim maslahat bersa, kesar boshini.  
Maslahat bermaymiz Boysaribiyga,  
Osilmaymiz Boybo'rining doriga.

Boysaribiy Yartiboydan bu so'zni eshitib, tag'i o'zi bu turgan odamlarga qarab, bir so'z dedi:

Qulq soling Boysarining tiliga,  
Ko'chib ketay menam Kashal eliga.  
Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,  
Semurg' qushlar salom berar qoshiga,  
Qulq soling Boysari nolishiga,  
Qalmoq borib qo'nsam Chilbir dashiga.  
Kalma shahodat musulmonning tiliga,  
Azamat bosh berar dinning yo'liga,  
Turarim yo'q Boysin-Qo'ng'irot eliga.  
O'z elim deb yana bunda turgancha,  
O'z akama o'zim zakot bergancha,  
O'z akamdan bunday xo'rlik ko'rgancha,  
Qalmoq borib juz'ya bersam bo'lmaymi?  
Zakot degan gapni akam chiqarib,  
Mening toza ulsizligim bildirdi.



Boysaridan bu so'zni Yartiboy eshitib, Yartiboy ham Boysariyiqa qarab bir so'z dedi:

Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,  
Boshing eson, davlatingni kam dema,  
Sen ketar bo'lsang Qalmoq yurtiga,  
Bul elatni qolar deb ham g'am yema.  
Qayga ko'chsang, bizlar birga boramiz,  
Bolalarni jahongashta qilamiz...

Yartiboy oqsoqolning aytgan gapi o'n ming uyli qo'ng'irot eli katta-kichigining bariga ma'qul tushdi. Hammasi: "Boysari ko'chsa, bizlar ham ko'chib ketayik, Boysari o'lik yerda — o'lik, tirik bo'lsa — tirik; endi Boysin-Qo'ng'irot yurtini Boybo'riga bo'shatib berayik, Boysin-Qo'ng'irot yurtini bir o'zi joylab olsin", — dedi.

O'n olti urug' qo'ng'irot elidan o'n ming uyli ekin ekmoqni bilmaydigan eliboylar ayrilib, Boysariga qo'shildi. Bular hammasi boy — qo'yli, tuyali. Molining soni yo'q edi. Bularning ichida moli yo'q degan kambag'alining qirq ming tuyasi bor, qo'yining sonini, adadini o'zları ham bilmas edi. Bir qo'ra, ikki qo'ra, o'n qo'ra deb, sanagani shul edi. Yilqi, mollarini bir uyur falon to'qayda yuribdi, ikki uyur falon to'qayda yuribdi, der edi. Sonini sanamoqni hech qaysisi bilmas edi. Bular qishdan yozga ekin ekmay, mol boylik qilar edi. Shuning bilan ovqatlarini<sup>1</sup> o'tkazar edi. Boysariboyning yilqisining soni shul edi: to'qson to'qay yilqisi bor edi. To'qson to'qay degani — yilqisi har yerlarda: to'qaylarda, tog'larning darasida, to'qayli yerlarda yoyilib yurar edi. To'qaylarda yilqisi yoyilib yurgani uchun Boysariboyning to'qson to'qay yilqisi bor, der edi. Lekin yilqisining, molining sonini hech bilmas edi.

...O'n ming uyli qo'ng'irot talato'p bo'lib Kashal eliga, Qalmoq yurtiga qarab, "Ha!" — deb ko'cha berdi. Hammasi birdan ko'chib, o'n ming uyli el Boybo'ridan araz urib, ...Boysari bilan birga ko'chib jo'nay berdi. Ayollarga ham yaxshi otlarni olib kelib tortdi. Bu ayollar ham otlarni minib, chog'lanib, jo'namoqchi bo'lib, Barchinoya, enasiga qarab turdi.

---

<sup>1</sup>Ovqatlarini – tirikchiliginı.



Ana shunda enasi Barchinoyni ham jo'natmoqchi bo'lib, Barchinoy uchun to'riq yo'rg'a otni tabladan<sup>1</sup> olib kelib, ustiga mayin, toza, muloyim baxmal parquvlardan solib, tilla yuganlarni boshiga solib, juda choqlab, otning jilovidan ushlab olib keldi. Ana shunda enasining bul otni yetaklab olib kelganini ko'trib, Barchinoy shunday qarasa, o'n ming uyli qo'ng'irot elining hammasi ko'chib talato'p bo'lib, shovqin qilib borayotibdi.

***...O'n ming uyli Boysin-Qo'ng'irot elining jo'nashini Fozil shoir Yo'Idosh o'g'li shunday tasvirlaydi:***

Chechanlar eplaydi gapning epini,  
Shul zamonda oltmisnorni cho'ktirib,  
Orta berdi Barchin suluv sepini.  
Qo'ng'irot elning shundaychaqa ko'pi bor,  
Boysarining ikki jildam to'pi bor,  
Har ko'chkanda to'p bo'shatib jo'nadi.  
Qatorga tirkalgan lo'k<sup>2</sup> bilan norcha<sup>3</sup> ,  
Ustiga yuklangan qirmizi parcha.  
Kamlikni ko'rмаган satta boybachcha,  
Yo'l-yo'lakay uloq chopib boradi.  
Oshiqning fahmidir qorong'u kecha,  
Yig'lasam, holima yig'lar bir necha,  
Xafa bo'lib borar Barchin oyimcha,  
Jafo tortib borayotir bir necha.  
G'am bilan sarg'ayib guldayin diydor,  
Ko'rgani yo'q qanday edi qalmoqlar,  
Orasida to'qson dovon tog'i bor,  
Bellardan<sup>4</sup> oshadi ul zamon boylar.  
Qaba<sup>5</sup> falak boshga soldi zulm deb,  
Eliboylar<sup>6</sup> bundan ko'chib boradi,  
Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.  
Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,  
Borayotir qalmoq elni so'roqlab...

<sup>1</sup>Tabla – ot bog'lanadigan joy, otxona; <sup>2</sup>Lo'k – yuk tashiydigan tuya; <sup>3</sup>Norcha – yosh erkak tuya; <sup>4</sup>Bel – dovon; <sup>5</sup>Qaba – tartibsiz, o'zgaruvchan; <sup>6</sup>Eliboylar – chorvadorlar.



### Savol va topshiriqlar:

1. Aka-uka biylarning to'uda izza qilinishi sababini izohlang.  
Izza bo'lgan biylar qanday holatga tushdilar?
2. Zakot voqeasi tasviriga tayanib, Boybo'ri bilan Boysari munosabatlarini izohlang. Bu aka-ukalarning xarakteri va ichki dunyosini qanday baholaysiz?
3. Boysarining zakotni noto'g'ri tushunishi sababini sharhlang.
4. Yartiboy obrazi sizda qanday taassurot qoldirdi?
5. Doston tasviriga tayanib, eliboy qo'ng'irotlarning boyligi haqida qanday tasavvurga ega bo'ldingiz?
  
6. O'z yurtidan Qalmoqqa ko'chib borayotgan Barchin, umuman, barcha eliboylarning kayfiyati, kechinmalariga diqqat qiling.
7. Doston avvalida berilgan Dobonbiyning avlod shajarasini qaytib o'qing, uni chizma shaklida ifodalang. Kattalar ko'magida o'zingiz mansub bo'lgan ajdodlaringiz shajarasini tuzishga harakat qiling.

\* \* \*

***Qo'ng'irotlarning Boysindan Qalmoqqa ko'chib borganlari-  
ga yetti yil bo'lganda, Oybarchin bo'y yetib, suluv qizga aylana-  
di. Qizning ta'rifini Surxayil kampirdan eshitgan qalmoq alplari  
unga og'iz solishadi.***

...Toychi viloyatinda, Qalmoq muzofotinda bir Surxayil degan kampir bor edi. Juda haddili zo'r kampir edi, bu kampirning yetti o'g'li bor edi. Yettovi ham nomdor alp edi. Kattasini Ko'kaldosh der edi, undan kichkinasini Ko'kaman der edi, Ko'kqashqa der edi, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo'shquloq, kenjatoyini Qorajon der edi. Shu yettoviga tirlashgani qalmoqshoh har mamlakatdan alplarni olib kelib, Kashal g'oridan joy berib, bularni To'qayistonda boqib yotar edi. Ul alplar qanday alp: yoyandoz, mergan alp. Har qaysisi to'qson botmon temir-dansovut kiygan, har kuniga to'qson shirbozning etini tatil qilgan, bosh-boshiga har qaysisi podshohlikdan har oyda besh yuz so'm moyana olgan xo'p zo'r polvonlar. Boysarining qizi Barchinni bular ko'rgani yo'q. Shul vaqtarda Barchin ham barkamol, bo'yi yetgan, har yaq'rimi o'n besh qarich keladi. Bu ham alp. Orqavaron eshitib, shu musofir boylarda bir qiz bor emish, deb bular ham o'zavonda



maslahat qiladi. Goh biri olmoqchi bo'ladi, goh bari olmoqchi bo'ladi, goh hammasi o'rtada xotinli bo'lib qolmoqchi bo'ladi. Necha vaqtlar ko'rmasi shu maslahatni qilib yurdi.

Ko'kaldosh alp turib aytdi: "Bunday dalada chatoq qilib yurganimiz bo'lmas. Yuringlar, to'qsonimiz ham boraylik. O'zbekning qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olaylik<sup>1</sup>. O'rtada javlik<sup>2</sup> xotinli bo'lib qolaylik deb, javlik otlandi. Otini minib, Kashal g'oridan jo'nab, To'qayistonni oralab, Chilbir cho'liga chiqib, ko'p elga qarab, Boysarinikini so'rabb, alplar borib qoldi. Hammasi Boysari uyining tevaragida jam bo'ldi. Alplar to'planib turdi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh: "Kelganboy!" — deb chaqirdi. Boysari uyda o'tirib edi: "Labbay", — deb uyidan chiqdi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh turib aytdi: "Kelganboy, sening bir qizing bor ekan. Qani, birimizga berasanmi, barimizga berasanmi? Birimiz olaylikmi yo barimiz olaylikmi? Shu so'zga nima javob aytasan?"

Bu so'zni eshitib, Boysari nima javob aytarini bilmay, xayoli qochib, nash'asi uchib, o'ylanib: "Hoy alplar, ertan choshkagachayin muhlat beringizlar. Ertan choshkada aylanib kelinglar. Yo biringizga berayik, yo baringizga berayik, biz bir o'yashib ko'rayik", — dedi.

Ertan choshkagachayin muhlat berib, alplar qaytdi.

...Endi Boysari semiz qo'ylarni so'yib, o'n ming uqli qo'ng'irot elining odamman deganini jiyib<sup>3</sup>, sho'rvasiga to'yib, go'shtini korsonga sop, oldiga opkep qo'yib: "Burungi kunimiz ham tuzuk ekan, ishimiz sop zo'rga tushdi. Ertan choshka alplar kelsa, nima javob beramiz?" — deb, qarindoshlariga qarab, Boysari maslahat so'rabb turgan ekan:

Oh tortganda ko'zdan oqar selob yosh,  
Barchinoyim bo'y yetgandir qalamqosh.  
Maslahat ber, o'n ming uqli qarindosh,  
Alplar kelsa nima javob beraman?!  
Tong otgancha muhlat olib turaman,  
Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!  
Yuragim to'lgandir diydai g'amda,  
Barchinoyni o'z tengiga qo'shmasam,  
Mahshar kuni Barchin qo'li yoqamda.

---

<sup>1</sup>Bu yerda haqoratlash ma'nosida aytilgan; <sup>2</sup>Javlik – hamma, yoppa; <sup>3</sup>Jiyib – yig'ib, to'plab.



Bu so'zni eshitib turgan xaloyiqlardan hech sado chiqmadi. Bir Yartiboy oqsoqol degani bor edi. Boysariga qarab, Yartiboy bir so'z deb turgan ekan:

Xon Boysari, eshit aytgan so'zimdi,  
Bu ellarga boshlab kelgan o'zingdi.  
Tortinmay beraber endi qizingdi,  
Hazil bilma, mening aytgan so'zimdi.  
Bu alplarni kuyov qilib olamiz,  
Mina elga toza erkin bo'lamiz.  
Bolalarni tog'a-jiyan qilamiz...

Bu so'zni Yartiboydan eshitib, Boysarining ko'ngli buzilib, bu ham bir so'z deb turgan ekan:

...Yuragimda ko'pdir alamli dardlar,  
Mening qizim — sening singling, nomardlar.  
Qizing ber, deb mening ko'nglim bo'lasan,  
Suyagimni yongan o'tga solasan...

Shu qarindoshlardan nima maslahat chiqar ekan deb, Barchin kelib, tinglab turib edi. Qarindoshlarning so'zlarini eshitib, otasining ko'ngli buzilganini bilib, Barchin ham bir so'z deb turgan ekan:

Juda ham gangidi, boy ota, boshing,  
Maslahat berdi-ku qavm-u qardoshing,  
Ko'p yig'lama, jonim otam, darvishim,  
Eshitmagin qarindoshlar so'zini,  
Qarindoshlar bera qolsin qizini!  
Sen yig'lading, ota, ko'nglim buzildi,  
Diyda giryon bo'lib bag'rim ezildi.  
Xafa qilma, ota, menday qizingdi,  
Qo'ya ber alplarga mening o'zimdi.

Bul so'zni Barchindan eshitib, o'n ming uyli qo'ng'irot hazar qildi: — "Bu ham o'zboshimcha juvormak, alplarga baland-past gapi-  
rar, buning kasofatiga hammamizni oyoqosti qip bosib ketar. Javob  
bergich bo'lsa, bizning ichimizdan chiqib, xolis yerda turib javob ber-  
sin", — dedi. O'n ming uyli qo'ng'irotidan chiqarib, Barchinning o'tovini



ko‘tarib, ho‘, anaday ovloq tapaning boshiga tikib qo‘ydi. Bul o‘tovda qirqin kanizlari bilan Barchin o‘tirdi. Kunning burni bilan ...to‘qson alp yig‘ilib kep turibdi: “Qani, Kelganboy, maslahatni qayerga qo‘yding? Birimizga bermoqchi bo‘ldingmi, barimizga bermoqchi bo‘ldingmi?” Boysari turib aytdi: “Biz maslahat qip, yil ag‘darib ko‘rdik, qizimizning yili chichqon ekan, yoshi o‘n to‘rtga chiqqan ekan. Biz o‘zbekning rasmi shunday bo‘ladi: qiz o‘n to‘rtga chiqqan so‘ng o‘z ixtiyori o‘zida qoladi. Bizning aytganimizga ko‘nmay, tapaning boshiga o‘tovini tikib o‘tiribdi. O‘ziga boringizlar, o‘zidan so‘rangizlar”. Shunda qalmoqlar do‘g‘ilib<sup>1</sup>, Barchinning ustiga qarab bora berdi. To‘qson alpning zo‘ri Ko‘kaldosh: “Yo birimizga teg, yo barimizga teg. Bir javob ayt”, — dedi. Barchin bir so‘z deb turgan ekan:

Eshitgin, qalmoqlar, aytgan tilimnan,  
Meni olar kelmas sening qo‘lingnan.  
Badbaxt qalmoq, qolma kelgan yo‘lingnan,  
Meni olmoqqa hadding bormi, qalmoqlar.  
Mening to‘ram bilsang, Boysinning xoni,  
Unga qurbon menday oyimning joni,  
Oti Hakimbekdir elda davroni,  
Ko‘p aylanma bunda, qalmoq, bema’ni.  
Xabar yetsa, alp Alpomish kelmaymi?  
Qalmoqlarga qiyomat kun bo‘lmaymi?  
Armon bilan senday alplar o‘lmaymi?  
Holing bilib, to‘g‘ri yursang bo‘lmaymi?!

Bu so‘zni eshitib, Ko‘kaldosh alp turib aytdi: “Bu o‘zbakning qizining dami baland ekan. Ko‘kaman! Tushib sudrab chiq bu yoqqa!” Ko‘kaman alp otdan tushib, otni uyning beldoviga ildirib, uyning ichkarisiga kirgan. Barchinning kanizlari qo‘rqib, uyning to‘rida to‘planib turgan. Barchin ibo qilib, teskari qarab turib edi, Ko‘kaman alp Barchinning burumidan<sup>2</sup> ushlab, poygaga torta boshladi. Barchin o‘zini o‘ng‘arib qo‘lini uzatdi. Bir qo‘li Ko‘kamanning yoqasiga yetdi, bir qo‘li bilan belbog‘idan tutdi. “Yo, Shohimardon pirim!”, — deb ko‘ta-

---

<sup>1</sup>Do‘g‘ilib - yig‘ilib, to‘dalashib; <sup>2</sup>Burumi – soch o‘rimi.



rib, chalqaramon qilib yerga qo'ydi. Chap tizzasini ko'kragiga qo'ydi. Og'zi-burnidan dirak-dirak qon ketdi.

Ko'kaldosh alp turib aytdi: Ko'kamanga qaranglar, bu ko'rinnay, bu yoqqa chiqmadi. O'zbakning qizi bilan aylanishib qoldimi? Shunday kelib birovi ot ustidan qarab, Ko'kamanni ko'rib: "Ey, o'zbakning qizi Ko'kamanni bosib o'ldirib qo'yibdi", — dedi. Bu so'zni eshitib, bir kam to'qson alp oddan tashlay berdi. Barchin aplarning achchiq bilan oddan tushganini bilib, qarab ko'rdi. Aplarning zo'ri Ko'kaldosh ekanini bildi: zo'rlik nomiga boshida tilla jig'asi bor, ostida suvoriga minib yuradigan saman yo'rg'asi bor. Boshidagi sarjig'ani ko'rib, aplarning zo'ri ekanini bilib, undan olti oyga muhlat so'rab, bir so'z deb turgan ekan:

Saman otli, sarjig'ali bek yigit,  
Bir oltoyga sizdan muhlat so'rayin.  
Qo'ng'irot elga arza berib ko'rayin,  
Oltoygacha men yo'liga qarayin,  
Kelsa kelar qo'ng'irot eldan Alpomish,  
Kelmasa, men taqdirimdan ko'rayin.  
...Olmadayin so'lgan gulday tarzim bor,  
Mushtiparman, sizga aytar arzim bor.  
...Muhlat so'rab turgan menday gajakdor,  
Oltoy muhlat bergen, davlatli shunqor.  
Bu gap endi Ko'kaldoshga xush kelar...

"Bizda ko'ngli bor ekan", — deb Ko'kaldosh alp vaqtি xush bo'lib: "Aplarning ichida meni xohlaganday bo'ldi, balki mening zo'rligimni ham bildi, bizga ko'ngil qildi", — deb, — "Bor, olti oy muhlat!" — deb yubordi.

...Barchin o'n ming uyli qo'ng'irotning yigitidan o'n yigitni saylab oldi. Otasining to'qson to'qay yilqisidan o'n otni saylab oldi. Otlarni sovutib, tayyor qildi. Shunday arza yozdi Barchin: "Oltoychilik yo'lga keldim, qalmoqning eliga keldim. Zo'r yovning qo'lida qoldim. Olti oyga muhlat oldim, menden umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa, javobimni bersin". Arzani o'n boybachchaga topshirdi. Otlarni egarlab, choqlab, yaxshi bor deb, duo qilib, bir so'z aytib turgan ekan:

Kechani munavvar qilgan to'lgan oy,  
Savashli kun tortiladi parli yoy.  
Bandam desin, rahm aylasin bir Xudoy,  
Kashalda talashda qoldi Barchinoy.  
Borsang, salom o'ynab-o'sgan ellara,  
Ko'kqamishday mazgil joyim, cho'llara.  
Qalmoqlar yig'latdi menday sanamdi,  
Yuragimga to'lgan dog'-u alamdi.  
Albatta, so'ranglar maktab jo'ramdi.  
Mug'oyib so'z aytar menday mushtipar,  
Kecha-kunduz shabgir torting<sup>1</sup>, xizmatkor,  
Jilovdoring bo'lsin imom, chiltonlar.  
...So'z aytar sizlarga mendayin sanam,  
Qalmoqda qolmasin guldayin tanam,  
Qalmoqning zulmidan yig'ladi enam.  
Sen borib ko'rarsan qo'ng'irot elimdi,  
Boshimdan ko'tarsin qayg'u zulmdi...

...Otlar qorsoqday qotgan, to'qson kecha-kunduz yo'l tortgan, balki choparlar bilan bila bitgan. Qo'ng'irot eliga Boybo'rining davlat-xonasiga yetgan. Ot ustida turib, salom berdi. Bularni ko'rib, Boybo'ri aytidi: "Bular qanday odam ekan, beadablik bilan salom berdi men-ga?" Choparlar bog'onog'i arzani chiqarib berdi. Arzani o'qib ko'rib, bildi: kelgan Barchinning chopari ekan. O'n mahramni buyurdi. Choparlarni bitta-bitta otdan ko'tarib oldi. Choparlarga xizmat qildi. Bul arzani hech kimga bildirmay, olib borib sandiqqa solib tashladi. Choparlar yigirma kun yotdi, xo'p izzat-ikrom qilib, qildi ziyoфatti, ko'p qildi xizmatti. Bergan arzasidan hech shobir<sup>2</sup> bo'madi.

...Boybo'rining Qultoy degan yilqichi quli bor edi. Alpomishga enchi biyasi bor edi. Bir yarg'oq qulun tug'di, bul tulpor deb, Boybo'riga op kep bergen edi. Necha yildan beri tablada boquvli tur-gan edi. Choparlar kelib ketgandan keyin tabladagi ot sag'risi toshib, yoli qulog'idan oshib, yulduzni ko'zlab, taraqqos boylab o'ynay ber-di. Boybo'ri: "Shu yomonlagurning o'ynagani ham yaxshilik emas", —

<sup>1</sup>Shabgir tortish – tinmaslik, dam olmaslik; <sup>2</sup> Shobir – xabar, ovoza, belgi.



deb sag'risiga uch-to'rt tayoq tushirib, tabladan chiqarib, Qultoining qoshiga yilqilarga opporib, qo'shib yubordi.

Alpomishning Qaldirg'och degan singlisi bor edi. Qirqin kanizlari bilan bir sandiqni oolib ko'rayotib edi, bir xat chiqdi. Bul xatni o'qib ko'rdi: Barchin chechasining xati.

— Tunovgi o'n chopar bul xatni olib kelgan ekan, buni bildirmay otam sandiqqa solib qo'ygan ekan. Yuringlar, bek akama bora-yik, bu xatni berayik. Qancha g'ayrati bor ekan sinayik, — deb Hakimbekning qoshiga keldi. Bu xatni shunday berdi. Shu vaqtarda Hakimbek o'n to'rt yoshga kirgan, mast bo'lgan norday ko'pik sochib o'tirgan, necha mahramlar xizmatida turgan. Bu xatni o'qib ko'rdi. Xatda aytibdi: "Oltoychilik yo'lga keldim. To'qson alpda toy-talashda qoldim. Olti oyga muhlat oldim. Mendan umidi bo'lsa, Alpomish kelsin, bo'lmasa, javobimni bersin", — degan xat ekan. Bu xatni o'qib ko'rib: "Oltoychilik yo'l bo'lsa, qalmoqning elida bo'lsa, zo'r yovning qo'lida bo'lsa, bir xotin olamiz deb, sandirab o'lamizma", — deb xatni tizzasining ostiga bosib o'tirdi. Qaldirg'ochoyim akasiga qarab bir so'z aytib turgan ekan:

...Aka, senga aytadigan arzim bor,  
Talash bo'pti biyning qizi — zulfakdor.  
...Mard yigitning yori talash bo'lami,  
Er yigitning yorin qalmoq olami?  
...Umid tortib senga arza qilibdi,  
Xat ko'tarib o'n boybachcha kelibdi.  
Anglamay otama xatni beribdi,  
Otam xatni bul sandiqqa solibdi.  
Endi bilib, singling olib kelibdi,  
Qalmoqlardan checham jabr ko'ribdi.  
Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin,  
Narmoda<sup>1</sup> ishini bunda qilmagin...

Bu so'zlarni eshitib, Hakimbek narmoda so'zini ko'ngliga og'ir olib: "Narmoda degan gapning ma'nisi nima?" — deb turgan ekan:

---

<sup>1</sup>Narmoda – erkak-urg'ochiligi noma'lum odam, xunasa, gey.

...Narmoda deb menga so'zlading so'zlar,  
Narmoda ma'nisin aytgin, sen qizlar.  
Narmoda deganga xafa bo'libman,  
Nima gap ekanin bilmay turibman.  
...Narmoda deganing ko'nglima keldi,  
Ko'p qizlardan akang uyalib qoldi,  
Emikdoshim, sening gaping ne bo'ldi?  
Mendayin akangni xafa qilasan,  
Narmoda deb meni silkib solasan,  
Juda ham akangni nomard bilasan.

Buni akasidan eshitib, Qaldirg'ochoyim so'z aytib turgan ekan:

Har kim o'z elida bekmi, to'rami,  
Narmodalar sendan kamroq bo'lami?  
Mardning yori toy-talashda qolami?  
Mard bo'lib maydonli kunda yurmagan,  
Yilqichidan bedov saylab minmagan,  
Olmos po'lat belga qayrab cholmagan,  
Ot asbobin shaylab qalmoq bormagan,  
Qalmoqlarga qattiq kunlar solmagan,  
Toy-talashda qolgan yorin olmagan,  
O'z elida bir xil gapni bilmagan,  
Narmodalar sendan ortiq bo'lami?

Bu so'zni eshitib: "Yayov boramizmi esa?" — dedi. Qaldirg'ochoyim: "To'qson to'qay yilqing bor. Yayov borib, mingani oyoq-ulov topmay yotibsandi? Egar-abzalingni olsang, Qultoyning qoshiga borsang, ko'nglingga yoqqanini xohlab minib keta bersang", — dedi. Bu so'zni eshitib: "Xayr esa", — dedi. Qaldirg'ochoyim egar-abzalni, sovut-qalqonni, yov-yaroq, asbobni ayil-pushtanga solib, o'xshatib bo'g'ib, ko'tartirib yubordi.

***Boybo'ri o'g'li Alpomishni qalmoq yurtiga yuborgisi kel-maydi. O'g'lini niyatidan qaytarish uchun unga ot bermaslikni yilqichi Qultoyga tayinlab qo'yadi.***

Qultoyga aytdi: "Alpomish kelyapti, Kashaldan kelgan xabarni birov bildiribdi. Bul ish yomon bo'pti, lekin o'zi zo'r-ku, zo'r bo'lsa ham



juda qo'rqoq, sal do'qdan ham qo'rqadi. Urib-so'kib, yilqi bermay, do'qlab qaytarib yuborgin". ...Bul gapdan bexabar orqalanib Alpomish boryapti. Qultoya yaqin yetdi. Qultoy Alpomishni ko'rib, ko'nglini xushlab, yilqi boqadigan qayqi<sup>1</sup> tayog'ini qo'lga ushlab, juda shamiyon qaytarib<sup>2</sup>, do'qlab, bu so'zni aytib, Alpomishga qarab aytib turgan so'zi:

Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldimi,  
Oblo sening aql-u hushing oldimi,  
Boybo'ri o'lib, moli senga qoldimi?

Alpomish buni eshitib, Qultoya bir so'z deb turgan ekan:

Bobo, sir-u holim ma'lum qilayin,  
Sendan endi bir bedovni so'rayin,  
...Sen eshitgin menday o'g'ling so'zini,  
Ajratis kelayin biyning qizini.  
Men sachratib borsam minib bir tulpor,  
O'zima yor, bobo, senga xizmatkor...

Bu so'zni eshitib, Qultoy ham bir so'z deb turgan ekan:

...Tur yo'qol, enag'ar, tayin o'lasan,  
Bu yerda serrayib, nima qilasan?  
...Bu so'zdi aytip mardning aqlin oladi,  
Uch-to'rt tayoq qayqaytirib soladi.  
Yegan tayoqlaring — yilqi bo'ladi!  
Hakimbekning ko'zi alanglab qoladi,  
Shunday do'qlab Qultoy qildi siyosat,  
Tayoq yegan bekda qolmadni toqat,  
O'ldirar qaytmasam dedi vallamat.  
...Bul bobosi ko'p siyosat qiladi,  
Juda aylantirib, ancha uradi,  
Bobom urdi dedi, qaytib jo'nadi,  
Ko'tarinib qaytib ketdi yo'liga...

Alpomish Qultoyning qoshidan qaytdi, ko'tarinib borayotib edi.

---

<sup>1</sup>Qayqi – egilgan, qiyshiq; <sup>2</sup>Shamiyon qaytarib – gerdayib, hovliqib, vahima qilib.



“Bulay-shulay deb Qultoy do‘qlasa, akam qaytip kep qo‘yardan ham toymas, o‘z ko‘zimiz bilan jo‘natib yuboraylik”, — deb qirqin kanizlari bilan Qaldirg‘ochoyim kelayotib edi, oldidan chiqib qoldi. Alpomish yerga qarab borayotib edi. Shunday boshini ko‘tarib qaradi: qarshi manglayiga kanizlari bilan singlisi kep qopti. Qizlarni ko‘rib, uyalgan kishi bo‘lib, egar-abzalni tashlab yuborib, yo‘l ustida yonboshlab yotdi. Qaldirg‘ochoyim ustiga borib, bu so‘zni aytib turibdi:

Aytgan so‘zning poyimini<sup>1</sup> bilsang-chi,  
Ko‘z kuyugi, ey narmoda, o‘lsang-chi.  
Kecha-kunduz Haqqa fig‘on etmagan,  
O‘z moliga o‘zin vaji o‘tmagan.  
...Qultoyning do‘qidan qaytib kelasan,  
...Sen ham odamman deb qanday yurasan?..  
Bilsang, Qultoy – yilqiboqar xizmatkor,  
Ko‘p do‘qlabdi ahvoldidan bexabar.  
Sen so‘rasang, ular senga javobgar,  
Bu yurishing, bek aka, qanday bo‘lar?  
Odam ko‘rsa, yurishingga kuladi,  
Bu yurishing elga gap bo‘p qoladi...  
Bu so‘zlarni aytdi shunday mushtipar,  
O‘rnidan turgandir davlatli shunqor.  
Egar-abzalini yig‘ib ushladi,  
Shul zamon egniga qoqib tashladi,  
Qultoyqulga tag‘in yo‘lni boshladi.  
Yo‘Iga tushib, Qultoyqulga qaradi,  
Urgan yerda hali Qultoy turadi.  
Qaytay desa, bul singlisi keladi,  
Tag‘i urarmikin deb, ketib boradi.  
Bu qizlar bilmaydi Hakimbek o‘yin,  
Hakimbek ilgari singlisi keyin...

Qultoyning qoshiga yaqinlashib bordi. Singlisi kanizlari bilan ancha keyin qoldi. Qultoy ham Alpomishni ko‘rdi. Bog‘onog‘i<sup>2</sup> urgan yer-

---

<sup>1</sup>Poyim – fahm, ma’no; <sup>2</sup>Bog‘onog‘i – boyagi.



da Qultoy zinkiyib<sup>1</sup> turdi. Yaqinlab bordi. Qultoy tag'i do'qlab, bu so'zni aytib kela berdi:

Bobongning so'zini hazil bilasan,  
Sen g'arbachcha, nega aynalib kelasan.  
Sen enag'ar, bildim tayin o'lasan,  
Nimishing<sup>2</sup> bor, tag'i nega kelasan?  
Yana birov yo'lda ko'ngling bo'ldimi?  
Tag'i sening tayoq yeging keldimi?  
Siyosat qip Qultoy yaqin keladi.  
...Uzalib, Qultoyning belidan tutdi.  
Chalqaramon qilib, yerga qo'yibdi,  
Tizzasini ko'krakka qo'yib turibdi.

"Bobo, qani ushlab bergin!" "Qo'ya ber, o'g'lim, ushlab bera-yin", — dedi. "Yo'q, yotgan yeringda ushlab berasan!" — dedi. "Turmasam, qaytib ushlab beraman", — dedi. "Esa meni nima-ga buncha urasan?" Qultoy ham zahar chol edi. Yotgan yerida bir "qur-hayt" tortdi: to'qson to'qaydagi yilqi yig'ilib qoshiga yet-di. Hamma yilqilar jam bo'lib turibdi. Dobonbiy bobosidan qolgan qo'riqni<sup>3</sup> Hakimbekning qo'liga berdi. Hakimbek qo'riqni qo'liga oldi. Bu qo'riqni yilqilarga solmoqchi bo'ldi. "Saman soriga tush, yo ola-pocha to'riga tush, shapaqning zo'riga tush", — deb qo'riqni soldi. Yollari eshilgan ipakday bir chipor otning bo'yniga tushdi. Ko'nglidagi bo'lmay, otdan ko'ngli to'lmay: "Ko'p nozik uchradi", — deb, bu otmi qo'yib yubordi. Yana qo'riqni soldi — tag'i shuning bo'yniga tushdi. "Taqdirdagi shul ekan-da", — deb belbog'ini otining bo'yniga solib, egar-abzalining qoshiga yetaklab kela berdi. Egardabzalining qoshiga borib, u yoq-bu yog'ini ko'ra berdi. ...Qaldirg'ochoyim ham kanizlari bilan kela berdi. Akasining tarziga qaradi. Akasining ...otdan ko'ngli to'lmay, xafa bo'lib turganini bildi. Otning tizginini akasining qo'lidan olib, sag'risini silab, u yoq-bu yog'iga qarab: "Xafa bo'lma, bu oting, balki tulpor chiqar, yomon dema. Bul oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko'p yarlarni ko'radi, maqsadini Haqdan topib qoladi", —

---

<sup>1</sup>Zinkiyib – qaqqayib, qayqayib; <sup>2</sup>Nimish – nima ish? <sup>3</sup>Qo'riqi – sirtmoq.



deb akasining ko'nglini ko'tarib, "Qullu bo'lzin" qilib, bir so'z aytib turgan ekan:

O'zi shunday kelgan ekan chovkar ko'k,  
Quyrug'idan berisinda kiri yo'q,  
Minganlarga bo'ladakan ko'ngil to'q,  
Buni minsang, aka, senga dushman yo'q.  
...Chibar ot o'ynatib bundan borasan,  
Buni minsang aka, yo'lli<sup>1</sup> bo'lasan.

...Shunday qilib, kiyintirib, keskir qilichlarni beliga boylab, Arpaliko'lidan ottana berdi. Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birinjidan bo'lgan parli yoyi bor edi. "Mabodo dushmanning yurtida yoy tortishadigan kun bo'larmi, odam bilmaydi, kerak bo'p qolarmi", — deb yoyni egarning qoshiga solib oldi. Qaldirg'och akasini otlantirib, ot-anjomini chog'lab, yaxshi bor deb, bul so'zni aytib turdi:

Qayda borsang, Shohimardon yor bo'lzin,  
O'nikimom<sup>2</sup>, chilton<sup>3</sup> jilovdor bo'lzin.  
Dushmanlaring ko'rsa, seni xor bo'lzin,  
Sog' borib, salomat kelgin, bek og'a.  
Eshitjin, qulq sop aytgan nidoga,  
Ishingni solganman qodir Xudoga,  
Sog' borib, salomat kelgin, bek og'a.

Xudoym saqlagay bandani omon,  
G'arib qulga egam bo'lgay mehribon.  
Xolsanilla duo qildim bul zamon,  
Sog' borib, salomat kelgin, Alpinjon.  
El ko'chirib, Olatovdan oshirdim,  
Ulug'lanib, ostonaga bosh urdim,  
Borgin, emikdoshim, Haqqa topshirdim...

---

<sup>1</sup>Yo'lli – yo'lli ochiq, omadli; <sup>2</sup>O'nikimom – o'n ikki imom; <sup>3</sup>Chilton – qirq avliyo.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Qalmoq alplarining Barchinga xaridor bo'lib Boysarining uyiga borishlari, o'zlarini tutishlarida ularning qanday jihatlari namoyon bo'ladi?
2. **"Qalmoqlarga qizim qanday beraman?! Yuragim to'lgandir diydai g'amda, Barchinoyni o'z tengiga qo'shmasam, Mah-shar kuni Barchin qo'li yoqamda"** degan ota holatini izohlang. Qalmoqlar qaysi jihatdan Barchinoga teng emas edi?
3. Boysarining: **"Mening qizim — sening singling, nomardlar"** so'zlarini aytgandagi holatini sharhlang.
4. Yartiboyning maslahatiga munosabat bildiring va uning asar boshidagi maslahatlari bilan solishtiring.
5. **"... Ko'p yig'lama, jonim otam, darvishim, Eshitmagin qarin-doshlar so'zini, Qarindoshlar bera qolsin qizini!"** so'zları Barchinoy tabiatining qaysi jihatlarını bildiradi?
6. Barchinoyning oqilaligi, jasurligi namoyon bo'lgan o'rirlarni topib, izohlang.
7. Otasining ra'yiga zid bo'lsa-da, akasini xatarli safarga undayotgan Qaldirg'och xatti-harakatlariga munosabat bildiring.
8. Barchin bilan Qaldirg'och obrazlarini solishtiring. Ular o'rtasidagi o'xhash va farqli jihatlarni ko'rsating.

\* \* \*

***Singlisi bilan xo'shlashib, yurtidan chiqqan Alpomishga Shohimardon pir va qirq chilton hamisha homiylik qiladi. Chiltonlar qalmoq yo'lidagi birinchi kechada charchab uxlاب yotgan Alpomish ruhini Barchinniki bilan uchrashadirilar. Alpomish, Qorajon va Barchinga tushlari vositasida taqdirlari bildiriladi.***

...Alpomish cho'ponlarning qo'shxonasida uxlاب yotdi. Fayzi sahar vaqtiga yetdi. Sahar vaqtি cho'ponlarning qo'shxonasida yotib bir tush ko'rди. Izlab borayotgan Barchin yori ham baxmal o'tovda yotib, subhi sodiq tuqqan vaqtda bir tush ko'rди. Kashal g'orida, to'qson qalmoqning ichida Qorajon alp ham bir tush ko'rди. Uchovining tushi oldin-keyin do'g'ilish ko'rди (*namoyon bo'ldi, ko'rindi*). Avval Alpomishning tushi:

...Mast uyquda yotib edi bu shunqor,  
Ko'ziga ko'rindi rasul payg'ambar.  
Bu so'zlarni rasul payg'ambar aytdi:  
"Adashgan ummatim, shafqatdoringman,  
Tanib qolgin: rasul payg'ambariningman,  
Ummatlarni mudom yo'lga solurman".  
..."G'am yema, ummatim, — dedi payg'ambar,  
— Ostida dulduli, belda zulfiqor,  
Jilovida Bobo Qambar jilovdor,  
G'amingda otlandi Shohimardon pirlar.  
G'ayratingdan bo'zlab ketar qalmoqlar,  
Hech kim bo'lmas, sening bilan barobar,  
Senga taqdir qildi Barchin zulfakdor"...

Bu so'zni yotgan yerida ma'lum qilib ketdi. Erta-mertan tong otdi. Barchin ham ko'rgan tushini Suqsuroy kaniziga aytib turibdi:

Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda,  
Ziyon yotib, rahmat toshar bo'lganda,  
Rahmat daryo ayni toshib kelganda,  
Tush ko'ribman fayzi sahar bo'lganda.  
Qibla betdan bir oy tug'ib keladi,  
Oyning girdin to'rtta yulduz oladi,  
Tushimning ta'biri qanday bo'ladi?  
Bu tushni ko'rgandir menday mushtipar,  
Yer yuzini tutib ketdi ajdahor...

Bul so'zni Barchindan eshitib, Suqsuroy kanizi tushining tabgiri-ni aytib turibdi:

Qibla betdan bir oy tug'ib kelsalar,  
Oy emasdир, ul ham rasul payg'ambar.  
Oy girdida to'rtta yorug' yulduz bor,  
Yulduz emas, to'rt choriyor muqarrar.  
Yer yuzini tutib ketsa Ajdahor,  
Mag'ribdan Mashriqqa kulli eranlar<sup>1</sup> ...

---

<sup>1</sup>Kulli eranlar – barcha erkaklar, askarlar. Bu yerda buyuk avliyolar ruhlari ma'nosida.



Bog'onog'i tush ko'rgan Qorajon qalmoq nomoz vaqtı o'rnidan kalima aytib turdi. Qorajonning kalima aytib turganini bir kam to'qson alp ko'rib: "Oshpichoq, qalampir, Qorajon tentak bo'p qopti", — deb bir kam to'qson alp: "Ot tort", — dedi. Ko'lga qarab ovga chiqib ketdi.

Bul Alpomish tarafga qarab boryapti. Qorajon Murodtepaning ostiga kelib qoldi. Shunday tepaning boshiga qaradi. Tepaning boshi-da Yusuf tal'atli, Rustam sifatli, chovkar otli birov yonboshlab yotibdi. "Bu bizning Qalmoq viloyatining odami emas, bunday yigitlar ...bo'lsa, beklikda, podsholikda bo'lar edi. Ilgaridan ham birda-yarim ko'zim tushar edi. Magar qirq chilton bilan rasul payg'ambar meni musulmon qilib, qavm-qarindoshini tushimda ruhima ko'rsatib, meni do'st qilgan, qo'ng'irotdan kelayotgan Alpomish degan komilbachcha shul bo'lmasa", — deb Alpomishga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Ostingda bedoving halloslar qushday,  
Achchig'ing chillali muzlagan qishday.  
Norkalla kelgansan, chuydang<sup>1</sup> qo'shmushday.  
Norkalla polvonim, qaydin bo'lsasan?  
Tepaning boshida senga qarayman,  
Borar joying menam sendan so'rayman.

...Yangi bunda ko'rdim senday mardimni,  
Qorajon deydilar mening otimni,  
Baland bildim sening siyosatingni,  
Xabar ber, bekbachcha, qayda borasan?

Qorajondan bu so'zlarni eshitib, Alpomish ham Qorajonga qarab bir so'z deb turgan ekan:

...Yoz bo'lsa, yaylovim Amu yoqasi,  
Meni bilsang, qo'ng'irot elning to'rasi.  
Ko'kqamish ko'lidan suqsur<sup>2</sup> uchirdim,  
Suqsurni izlagan lochin bo'laman.  
Boylidan bedov otni boyLAGAN,

---

<sup>1</sup>Chuyda – bo'yin sirtidagi yo'g'on tomir; <sup>2</sup>Suqsur – makiyon o'rdak.

Tangqa taylab<sup>1</sup>, Olatovni jaylagan,  
Kambag'ali qirq ming gala<sup>2</sup> haydagan.  
Shul galada bizning bir moya<sup>3</sup> kelgan,  
Moyaning yo'qchisi — nori bo'laman.  
...Asli Boysin deydi mening yurtimdi,  
Laqabim — Alpomish, otim — Hakimdi...  
Qorajon deb xabar berding otingdi...

...Qorajon aytdi: "Men seni ko'rGANIM yo'q. Sening bilan ham-suhbat bo'lGANIM yo'q. Men ham xotiningga talashib yotgan to'qson alpning biri bo'laman. Qulfi dilimni Xudo ochdi — musulmon bo'ldim. Qirg chilton bilan rasul payg'ambar qavm-u qarindoshingni tushimda ko'rsatib, sen bilan meni do'st qildi. UI sababdan bilaman". "Do'st bo'gan bo'sang, yaqin bo'p qolgan ekansan, tepaning ustiga chiqqin, ko'rishaylik". Qorajon aytdi: "Bu tepaning ustiga chiqadigan kamolga yetishGANIM yo'q. Sen tepadan tushgin, men ko'rishayin". Alpomish oti-ni yetaklab tushib kela berdi. Qorajon mahramlariga amr qildi: "Do'stim bilan ko'rishgin", — deb. Mahram xalqi nozik keladi, qo'l uchida ko'rishayotir. "Qalaysan?" — deb, siqinqirab yubordi, mahramlarning panjasи bir-biriga yopishib, qapishib, yanchilib ketdi-yu..."

Qorajon bilan Alpomish yoydi qulochdi, ikkovi xulqi muhabbat bilan ko'rishdi. "Qalaysan, do'stim, omonsanmi?" — deb siqinqirab yubordi. Qorajonning yetti qobirg'asi sindi, ishi tindi, tappa tushib yotib qoldi. Alpomish aytdi: "Nima qildi, do'stim?" Qorajon sir berman-gan kishi bo'lib: "Bola kunda<sup>4</sup> tutadigan quyonchiq<sup>5</sup> kasalim bor edi. Shul vaqt tutib qoldi", — dedi. Alpomish aytdi: "Belgili kasal bo'lsa, tuzalib ol esa".

Qorajon aytdi: "Rostingni aytgin, shul ko'rishganINGMI yo urishganINGMI?" Alpomish aytdi: "Nima qildilaring — urishaman. Ko'rishGANIM edi". "Ko'rishganING shul bo'lsa, urishganING qanday ekan?"...

Qorajon bilan tanishib, do'stlashgan Alpomish unikida meh-mon bo'ladi va do'stini Oybarchin huzuriga xabarchi hamda sovchi qilib jo'natadi. Qorajon turib aytdi: "Qani, Barchin, Alpomish bo'lsa — keldi,

<sup>1</sup>Tangqa taylab – tog'ni egallab; <sup>2</sup>Gala – suruv; <sup>3</sup>Moya – urg'ochi tuya; <sup>4</sup>Bola kunda – bolalikda; <sup>5</sup>Quyonchiq – tutqanoq.



alplarning muhlati bo'lsa — bitib qoldi. Sen nima javob aytasan?" Barchin: "Alpomish kelsa, kepti-da. Alpomish kepti deb, men Alpomishning etagidan ushlab keta berayinmi? Bul alplar ham umid bilan olti oyga muhlat bergen. Har kim maydonga ot soladi, otini o'zdirgan odam oladi. Har kimning o'z ko'ngli o'zida qoladi. Mening to'rt shartim bor. Shul to'rt shartimni qilgan kishiga tegaman. Xohi Alpomish qilib olsin, xohi qalmoqlarning biri qilib olsin. Shul so'zimni xon to'ramga aytib bor", — deb bir so'z aytib turgan ekan:

Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi,  
Botirni ingratar nayza yarasi.  
Kelgan bo'lsa qo'ng'irot elning to'rasi,  
Qirq kunlik yo'l Boboxonning orasi.  
Boboxon tog'idan poyga qilaman,  
Ko'zdan yoshni munchoq-munchoq tizdirsa,  
Qo'shqanotning quyrug'ini so'zdirsa,  
Boboxondan poyga qilib o'zdirsa,  
Oti ildam boybachchaga tegaman.  
Mendayin oyimning holin bilganga,  
Osha yurtdan mehnat tortib kelganga,  
Dushmanlarga qora kunni solganga,  
Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga,  
Men tegaman shul yoyandoz polvonga.  
G'anim ko'rsa, qiyomat kun solganga,  
Osha yurtdan izlab halak bo'lganga,  
Ming qadamdan tanga pulni urganga,  
Men tegaman shul qirag'ay merganga.  
Sabash bo'lsa, bul shibanib<sup>1</sup> chiqqanga,  
Kurash qilib to'qson aljni yiqqanga,  
Men tegaman nor bilakli polvonga.  
Zog' ham bo'lsa, qo'na bersin gulshanga.  
Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga,  
Men tegaman to'rt shartimni qilganga.

---

<sup>1</sup>Shibanib – yeng shimarib, shaylanib.



Bu so'zlarni Barchindan eshitib... Qorajon otlanib borayotib edi. Bir kam to'qson alp kelayotib edi, Qorajonning oldidan chiqib qoldi. To'qson alpning zo'ri Ko'kaldosh turib aytdi: "O'zbakning qizini muhlati bitdi. Uchradiningmi, nima javob aytdi?"

"O'zbakning qiziga uchrab kelayotirman. O'zbakning qizini aytgan so'zi shul bo'ldi: "Poyga qilaman, otini o'zdirganga tegaman. Kurashda alplarning barini yiqqanga tegaman. Yoy tortishsa, yoyi sinmay qolganga tegaman. Ming qadamdan tanga pulni urganga tegaman", — dedi.

Bul so'zni eshitib, Ko'kaldosh aytdi: "O'zbakning qizini ko'ngli menda. Poyga bo'lsa, o'zib kelmoq Ko'kdo'nanning tani. Kurash bo'lsa, to'qson alpning barini qo'ymasdan yiqlmoq faqirning tani. Yoy tortishganda ham mening yoyim sinmay qoladi. Ming qadamdan tanga pulni ursin depti, besh yuz qadamdan tanga pulni uraman. Ming qadamga borgan so'ng, chog'lab qo'yib yuboraman, bu yog'ini mujmal tob qilib olaman. Sen bu ostingdag'i olachani qayoqdan oling?" — dedi.

— Qo'ng'irotidan Alpomish do'stimiz kelgan ekan, bul shuning oti.

— Shul yurtdan shul otni minib, xotin olib ketaman deb, ahmoq bo'lib yuribdimi?

Ko'sa sinchi degan sinchisi bor edi, sinchisiga aytdi: "Tushib, o'zbakning otini ko'r, qani". Tushib, Boychiborni ko'rdi, qarichlab ko'rdi: sag'risining ustidan qulog'inining o'rtasigachayin to'qson olti qarich chiqdi, ayil tortuvi oltmish uch qarich chiqdi. Sag'risini silab, burnidan naycha qo'yib, durbin bilan qarab ko'rdikim, qo'ltig'ida to'rt yarim gaz qanoti taklam-buklam bo'lib yotir.

— Qanday ekan o'zbakning oti? — dedi.

— O'zbakning oti anday<sup>1</sup> ekan. O'zbakning qiziga burilmay qo'yag'o'y, — dedi.

Bu so'zni eshitib, Ko'kaldosh alpning achchig'i kelib: "Menden biror vaqtida sen jodirim<sup>2</sup> bo'lib, o'zbakni ilgaridan ham ko'rib, o'zbakka yo'liqib, siyosatga otimni ta'rif qil deb, senga uch-to'rt tanga bergen ekan-da, choqdan biron narsa olib ta'rif qilding", — deb sinchingin ikki ko'zini o'yib olib qo'ydi. "Hamma vaqt o'zbakning oti

<sup>1</sup>Anday – juda zo'r; <sup>2</sup>Jodirim – jabr ko'rgan.



mening otimdan o'zganda, ko'zingning xunini beraman. Yuringlar, Alpomishning ustiga boramiz", — dedi.

Alpomish chodirda o'tirib edi, shunday qaradi: har qalmoqlar kelyapti kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab otning ostiga aymashib ketgan. Alpomish o'tirgan yerida siyosat bilan qaradi. Bir kam to'qson alp otdan tappa-tappa tashlab, qo'l qovushtirib, ta'zim qildi. Aqli shoshib, dabgiridan adashib<sup>1</sup> qoldi.

...Qalmoqning yurtidan Barchinning poygasiga to'rt yuz to'qson to'qqiz ot bo'ldi. Boychibor bilan to'ppa-to'g'ri besh yuz bo'ldi. Poygachilar har kuniga ot sovutib, yolg'on poyga qo'yib kela-di. Boychibor otlarning changini ham ko'rmay qoladi. "O'yinda o'zgan, chinda o'zadi", — degan gap bor. Hazil poygada otning changini ko'rmay qoladi. Chin poyga bo'lgandan so'ng qanday keladi?" — deb qalmoqlar bog'onog'i ko'r bo'lgan sinchiga izza beradi.

...Hamma poygachilar jam bo'lib, Alpomishning tanidan Qorajon poygaga bormoqchi bo'ldi. ...Poygachilar yo'l yurdi.

...Zil tog'ida bir Ajdahor boridi,  
Ajdahorga alp Qorajon doridi.  
Bunda yotgan Ajdahorni ko'radi,  
Ot tizginin munda tortib turadi.  
Ajdahor ham Qorajonni ko'radi,  
Qorajonga Ajdahor salom beradi.  
(Shoir so'zi shunday yolg'on bo'lami?  
Ajdahor odamga salom berami?)  
Ostida mingani Boychibor edi,  
Minganlarga qutbi zamon<sup>2</sup> yor edi,  
Jilovida chilton, pirlar bor edi,  
Pirga salom bergen Ajdahor edi...  
...Ostdagi Chibor otin o'ynatib,  
Qorajon chiqdi Zil tog'ining ustiga.  
...Qalmoqdan ilgari ketib boradi.  
Ko'rinxaydi qalmoqlarning qorasi,  
Yaqin qoldi Boboxonning orasi.

---

<sup>1</sup>Dabgiridan adashib – aqli shoshib, esini yo'qotib; <sup>2</sup>Qutbi zamon – zamon avliyosi.



Boboxon toqqa yetib, Qorajon otga dam berib yotdi.  
...Qalmoqlarning oldi hafta-o'n kun deganda Boboxon tog'iga yetdi.  
Keyini chuvalib, hali ham kelyapti...

**Ko'kaldosh boshliq qalmoqlar Boychiborning poygada yutishi aniqligini bilib, nomardlik qiladilar. Kimsasiz tog'da Qorajonni toshga bog'lab tashlab, Boychiborning oyog'iga mix qoqishadi.**

...Bari qalmoq bu o'rtaga oladi,  
Qorajon yolg'iz-da nima qiladi?  
Bu qalmoqlar ko'plik qilib turadi,  
Qalmoq bari xasta ko'nglin xushladi,  
Qorajonning bilagidan ushladi.  
O'ldirmoqqa ko'zi qiymay turadi.  
Necha so'zni bu qalmoqlar o'yladi,  
Qorajonni kulaband<sup>1</sup> qip boyladı.  
Harchand chirpinib ko'rdi Qorajon nomdor,  
Qalmoq ko'p-da, bo'lolmadi barobar.  
Xazon bo'lsa, bog'da gullar so'lar deb,  
Ajal yetsa, paymonasi to'lar deb,  
Bo'shalsa, bir kuni o'zi borar deb,  
Shumg'ut<sup>2</sup> bo'ldi bu juvarmak o'lar deb, —  
Bosh bo'lib Ko'kaldosh boylab tashladi.  
...Boylovli qolgandir Qorajon nomdor,  
Boychiborni o'rtaga oldi qalmoqlar.  
Har tarafdan unga arqon soladi,  
Boychiborni endi yiqib oladi.  
Boychiborni shunday tortib boyladı,  
Oyog'idan o'rab, kerib tayladi.  
Ahmoq qalmoq otga zulm qiladi,  
Tuyog'iga gulmixlarni uradi,  
Urgan gulmix yalpoq tizga keladi.  
Chinqirib kishnaydi boylovli Chibor,  
Siyosatman zarb ko'rsatdi qalmoqlar.

---

<sup>1</sup>Kulaband – yechilmaydigan qilib boylash; <sup>2</sup>Shumg'ut – buzuqi, shum.



Qorajon bilan Boychiborni shunday qilib boylab tashladi:  
“...bo’shalsa, bir kunlari borag’oyer, ajali yetsa, o’lag’oyer, ishqip, bizdan keyin qolsa bo’pti”, — deb, poygachilar jam bo’lib, qator turib, poygani qo’yib, jo’nab ketdi. Boboxon tog’ida yolg’iz qolib, Boychibor bilan Qorajon ikkovi boylovli yotib, avliyolarni shafe keltirib, bu so’zni aytib yotir:

...Oblo, sendan boshqa yo’qdir murabbiy.  
...Karimsan, samadsan, rasuling barhaq,  
Rahm aylab yor bo’lgan nochor nullara.  
...Bu so’zlarni aytib yig’lar Qorajon  
Boychiborman munda qolib, bul zamon.  
Armonman boylangan Boychibor edi,  
Bek Alpomish o’z yurtida qo’l bergen  
Rajabxo’ja degan piri bor edi.  
Falak titrar Qorajon nolishiga,  
Banda ko’nar Tangri qilgan ishiga.  
Boboxonda yig’lab edi Qorajon,  
Rajabxo’ja piri yetdi qoshiga.  
Karomatman kelib xabar oladi,  
Qorajonning qo’lin chechib qo’yadi...

Qorajon turib, otning oyog’ini yechdi. Ot o’rnidan turdi. Eshonning ruhunati otning sag’risini siladi, qalmoqlarning solgansovuni jiyirilib yerga tushdi. ...Qorajon otning ustiga mindi. Ot oyog’ini bosolmay turdi. ...Eshonning ruhunati Qorajonga ko’rinmaydi, otning to’shida turib, Qorajonga bir so’zni aytdi:

Dam shu damdir, o’zga damni dam dema,  
Boshing eson davlatingni kam dema,  
Jabr qilgin menday hayvon joniga,  
Qamchi urgin go’sht ko’targan soniga,  
Yetkizarman Boysin-Qo’ng’irot xoniga,  
Qoldim deb, Qorajon, sira g’am yema.  
Qorajonbek, eshit aytgan so’zimdi,  
Egarqoshdan ushlab yumgin ko’zingdi,  
Endi bilsang, mendan xizmat lozimdi...

...Haqning yashiniday Chibor boradi,  
Qalmoqlardan to'sat-to'sat<sup>1</sup> qoladi,  
Besh yuz otning biri bo'lib boradi.  
O'zgan otni sanar Qorajon nomdor,  
Qo'rqib-burkib borayotir qalmoqlar.  
...Necha otdan Chibor o'tib boradi,  
O'tgan otni sanab ketib boradi,  
Otlarning hisobin Qorajon oladi.  
Alp Qorajon otga qamchi uradi,  
Bir kecha-bir kunduz chopib boradi.  
Shunday bo'lib borayotir Boychibor,  
To'rt yuz oltmisht otdan o'zdi jonivor.  
...Jonne sotib Chibor ketib boradi,  
Qorajonbek shunday bo'ylab qaradi,  
Mildiragan bir qorani ko'radi,  
Olis yo'ldan otni qichab boradi.  
Taqimida besh yuz botmon kaltagi,  
Qayqayib boradi badbaxt Ko'kaldosh.  
Alp Ko'kaldosh shunday burilib qaradi,  
“Chu!” — deydi Do'nanga qamchi uradi,  
Yashinday bo'p oqib ketib boradi.  
“Qani endi yetib ol!” — deb boradi.  
Shopirib irg'iysi nazari Chibor,  
“Chu!” — deb qamchi urdi Qorajon qaysar,  
Quvib u Do'nanga yetdi Boychibor.  
Shamolday g'uvullab yetib boradi,  
Ko'kdo'nanning sag'risidan oladi,  
Keyin qarab siltab otib yubordi.  
Ancha yo'lga borib tushdi Ko'kdo'nan,  
Qirq ming qadam o'tib ketdi Boychibor.  
Yana ham o'zini o'ng'ardi Do'nan,  
Chiborning keynidan yetdi ul zamon.  
Qarsillatib dumg'azadan oladi,  
Ustida Qorajon bilmay qoladi.

---

<sup>1</sup>To'sat-to'sat – to'da-to'da, guruh-guruh.



Keyin qarab siltab otib yubordi,  
Ancha yo'iga borib tushdi Boychibor,  
O'n ming qadam o'tib ketdi bu tulpor.  
O'zini o'ng'arib Chibor keladi,  
Ko'kaldosh ilgari ketib boradi.  
...Ikkovi barobar yo'lda boradi,  
Bir-birini musht tashlashib uradi.  
Biri biroviga mushti tekkanda,  
Tog' cho'qqisi qulaganday bo'ladi.  
Qorajon qaytmaydi, navbat oladi.  
Goh yerlarda qamchilashib, savashib,  
Ko'p xarxasha qilar aqli shoshib.  
Bedov otlar borar yo'lda talashib,  
Borayotir bir-biriman tishlashib...



### **Savol va topshiriqlar:**

1. **“Ostida dulduli, belda zulfiqor, Jilovida Bobo Qambar jilov-dor, G’amingda otlandi Shohimardon pirlar”**, — so‘zlari kim tomonidan kimga aytilganini aniqlang.
2. Alpomish nutqidagi **“suqsur”, “moya”, “lochin”, “nor”** timsollari qanday ma’nolarni ifodalaydi?
3. Oybarchinning Alpomishdan sovchi va xabarchi bo‘lib kelgan Qorajonga bergen javobida qizning qanday fazilatlari ko‘rinadi?
4. Barchinoning: **“Shul so‘zimni aytib borgin to‘ramga, Zog‘ ham bo‘lsa, qo‘na bersin gulshanga. Bab-barobar qildim yaxshi-yomonga”**, — degan so‘zlari zamiridagi ma’noni aniqlang.

\* \* \*

“Bularning kelar muddatidan o’tdi”, — deb Alpomish bir baland tepaning ustiga chiqib, durbinini olib, shunday yo'iga qaradi. Ko‘rdi ikki ot yo'l talashib kelyapti. Birini durbini bilan tanidi: Ko‘kdo‘nan. Boychibor to‘riqday bo‘p ko‘rindi. Tuyog‘idagi mixlar ozor bergen, oppoq ko‘pikka botgan, tuyog‘idan chiqqan to‘zon bilan to‘riqday bo‘p qotgan. Boychiborni tanimay: “Ham otimdan, ham yurtimdan ayrildim”, — deb behush bo‘lib yiqildi. Barchin kelib, Alpomishning



holini ko'rib, boshini tizzasiga olib... Barchin ham durbin olib kelayot-gan otlarga qarab, bir so'z aytib turgan ekan:

Qurruyo-qur, hayt-a, to'ramning oti,  
Oq to'shim — yayloving, sochim shibirtki.  
Kuyganimdan gapni gapga ulayin,  
To o'Igancha sayising bo'p yurayin.  
Egam rahm aylasin qonli yoshima,  
Sabab bo'lib qo'shgin teng-u to'shima.  
Qurruyo-qur, hayt-a, to'ramning oti!  
“Qur, hayt!” — degan Barchinoyning dovushi  
Boychiborning qulog'iga boradi.  
Suvluq tishlab o'zin otdi Boychibor,  
Kalta qantarib tashlagandi qalmoqlar,  
Tizgini uzilib ketdi muqarrar,  
Ustidagi alp Qorajon bexabar,  
Ko'kdo'nandan o'tdi endi jonivor.  
...Alp Ko'kaldosh otga qamchi uradi:  
“Bul o'zbakning oti o'zib boradi,  
Bul Qorajon bir baloni qiladi,  
Ukam menga dushman bo'lib boradi”.

Xonning Chibor oti poyganing oldini olib, shashti bilan kelib, baxmal o'tovni yetti marta aylanib, otning tizginini ushlab Qorajon to'xtatdi. Barchinning kanizlari yig'ilib yetdi. Qorajonni otning ustidan olib, gilamning ustiga solib, bardor-bardor qilib ko'tarib, baxmal uyga kirgizib ketdi. Qizlar otni yelpib sovutib turibdi, opkep yakkamixga boyladi, teri qotdi. Barchin kep otni ko'rdi, ko'zlarini ipak ro'mol bilan surtdi, changi, terini ushatdi. Oyog'idagi mixlar ozor berib, xonning Chibor oti tappa tushib yotdi. Tuyog'idagi mixlarni ko'rib, Barchin bir so'z deb turibdi:

Mening uchun hayvon azob ko'ribdi,  
Shu mix bilan Boboxondan kelibdi,  
Po'latni eritar qizlarning dami.  
Barchinoyim ko'rib, o'ylab turadi,  
Urgan mixi yalpoq tizga boradi.



Chorsisini tuyoqqa yozib soladi,  
Gulmixlarni tishlab sug'urib oladi...

...Bu so'zni aytib, otga mehribonliklar qilib, banot<sup>1</sup> to'rvaga yemni ilib, ko'chib borgan qo'ng'irotlar jam bo'lib, yig'ilib, poygaga ketgan qalmoqlar ham kelib, bir kam to'qson alp gurullahib turib, "Alplar bilan o'zbakning polvoni yoy tortishar emish", — deb ovoza bo'lib, hamma tomoshamonlar<sup>2</sup> yig'ilib, shunda Oyna ko'liga, Chilbir cho'liga yoyandozlik qilmoqchi bo'lib, yoy tortishmoqdagi so'zi:

...Olis yo'lga nishonani quradi,  
Nishonani urgan odam oladi.  
Qalmoq alplar bari qator bo'ladi,  
Men urarman deydi, ko'ngil qiladi,  
Shiqirlatib endi yoyni tortadi.  
Yoning o'qi bul g'uvullab ketadi,  
Biri pastdan, biri baland ketadi...  
Ko'kaldoshga endi navbat yetadi.  
Yoyiga Ko'kaldosh o'jni soladi,  
Nishonaga qarab to'g'ri qiladi.  
"Bor urdim", — deb, endi yoyni tortadi,  
Qo'lda yoyi cho'rtta sinib ketadi.  
Endi navbat Alpomishga yetadi.  
Parli yoyni shunday qo'lga oladi,  
Ko'rgan qalmoq bari hayron qoladi.  
"Rabbim!" — deydi, endi yoyni tortadi,  
Nishonaga o'qi to'g'ri ketadi.  
Ming qadam yerni qadamlab ko'radi,  
Tanga puldan bul nishona qiladi,  
Yoyni qo'yib, miltiq otmoq bo'ladi.  
Ko'p deb qalmoqlarga navbat beradi.  
Qalmoqlar nechovi miltiq otadi,  
Saksonman to'qsonga o'qi yetadi,  
Qaysi otsa, yo'lda qolib ketadi.

---

<sup>1</sup>Banot – baxmal; <sup>2</sup>Tomoshamon – tomoshabin.

Alp Ko'kaldosh shunday ko'zlab ko'radi,  
Besh yuz qadam yerga o'qi boradi.  
Ko'kaldoshning ko'nglidagi bo'ljadi.  
Alpomishga tag'in navbat keladi.  
Bek Alpomish xasta ko'nglin xushladi,  
Anjom, miltig'ini qo'lga ushladi,  
Qarab nishonani otib tashladi.  
Ko'rib, bul qalmoqlar hayron qoladi...

Uch shart o'tdi. Kurash taraddisini qip yotibdi. O'n ming uyli qo'ng'iroq odami, qancha qalmoqning odami yig'ilib, Chilbir cho'liga, Oyna ko'liga tomoshamon to'lib, qo'r tortib o'tirdi. ...Ko'kaldosh bosh bir kam to'qson alp bir tarafdan qator bo'lib o'tirdi. Alpomish bilan Qorajon bir tarafdan o'tirdi. Qalmoqlar aytdi: "O'zimizdan chiqib, Qorajon ham balo bo'ldi. Mudom o'zbakning yonini oldi". Bu yoqdan Qo'shqulqoq degan alp maydonga kirdi.

...Qorajonning bir akasi bo'ladi,  
Taraf bo'p Qo'shqulqoq polvon jo'nadi.  
Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan,  
Ichida chichqonlar bolalab yotgan.  
Izdan tushgan pishak oltoyda yetgan,  
Munday qalmoq qo'lin bulg'ab keladi.  
Qorajonbek xasta ko'nglin xushladi,  
Juppay qilib yoqasidan ushladi,  
Dustaman<sup>1</sup> qip uni qoqib tashladi.  
Qo'shqulqoqning endi aqli shoshdi,  
Qumni qopib, endi yerga yopishdi.  
Yana ham bir qalmoq kirdi maydonga:  
Odam tushmas<sup>2</sup> buning aytgan tiliga,  
Besh yuz quloch arqon yetmas beliga.  
Bul qalmoqdir qalmoqlarning ravishi,  
Oh ursa, olamni buzar dovushi.  
To'qson molning terisidan kovushi,

---

<sup>1</sup>Dustaman – yuztuban; <sup>2</sup>Tushmas – tushunmas.



Siyosatman kelib maydonga turdi.  
Qorajon tavakkal Tangriga qildi,  
Bu qalmoqqa endi yaqinlab qoldi.  
Kurashmoq hadisin shunday biladi,  
Alp Qorajon yotibotar qiladi.  
Ang<sup>1</sup> edi ul, sho'rli bilmay qoladi,  
Boshidan oshirib yerga uradi.  
Tushib yerga pora-pora<sup>2</sup> bo'ladi.  
Achchig'lanib, tag'i qalmoq keladi,  
Qorajonning ishin bari ko'radi.  
Qorajonga pirlar quvvat beradi,  
“Xudo!”— deydi, bul maydonda turadi.  
...G'urullahib, qolgani ko'tarilishdi,  
Qorajonbek yolg'iz qiladi ishdi.  
Ikkam to'qson alpni nobud qiladi,  
Bul aplardan bir Ko'kaldosh qoladi.  
Alp Ko'kaldosh yolg'iz o'zi qolibdi,  
Qorajon bariga g'olib kelibdi,  
Kun nomozgar, endi kech bo'p qolibdi,  
Kurashga ul zamon javob bo'libdi.

Shunda ketgan tomoshamon bari yig'ilib: “Kechagidan ham bugun qiziq bo'lar, alplarning zo'ri olishar”, — deb turdi. Kecha qanday bo'lsa, bugun ham shunday bo'p o'tirdi. Qorajonga Alpomish turib aytdi: “Bugun tushmaysanmi maydonga, bugun talab qilmay turibsan?” “Bugun ham tush desang, tushaman. Tushgan bilan bundan omon topmayman, lekin bu haddili zo'r. Bunga tushsam, ikki boshdan o'laman”, — deb turibdi. Alpomish chechinib: “Xayr, unday bo'lsa”, — deb maydonga talab qila berdi. Ko'kaldosh alp turib aytdi: “O'zbak! Sen bunday bo'yni yo'g'onlik qilma, g'aribi go'riston bo'lib o'lma. Hali ham qo'ygin. Halak bo'p kelgan yo'lingdan qolma...” Bu so'zni eshitib, Alpomish Ko'kaldoshga qarab bir so'z deb turgan ekan:

Har kim o'z eliga bekmi, to'rami,  
O'zi o'lmay, kishi yorin berami?

---

<sup>1</sup>Ang – anqov, sodda; <sup>2</sup>Pora-pora – parcha-parcha.

Buncha so'zni lof urmagin, sen qalmoq,  
Kel endi, maydonda turgin, ey ahmoq.  
...Bog'bon bo'lsm, qizil gulni terayin,  
Har na qismat yozilganin ko'rayin.  
Kelgin, qalmoq, birga maydon qilayin,  
Nasib etsa, sening doding berayin...  
Bu so'zni Alpomish aytib turadi,  
Achchiqlanib, bul Ko'kaldosh turadi.  
Chechinib, shu zamon belini buvip,  
Minorday bo'p bul maydonga kiradi.

O'n ming uyli qo'ng'irotning qizlari bilan, Barchin kanizlari bilan  
tomosha qilib, bularning olishganini ko'rib, Hakimbekka qarab bir so'z  
deb turgan ekan:

Qizlar sizni narmoda deb aytadi,  
Qizlarning aytgani menga botadi.  
Mardlar olishmaydi siltab otadi,  
Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi,  
Bo'sh odamning ishi keyin ketadi.  
...Yor so'ziman sherdil bo'lib ketadi,  
Chirpib<sup>1</sup> Ko'kaldoshni ko'kka otadi,  
Ancha yer havoga chiqib ketadi.  
Xaloyiqlar ko'kka boqib qaradi,  
Olchi-chikka bo'lib, shunday aylanib,  
Alp Ko'kaldosh bul osmondan keladi,  
Kallasiman kelib yerga uradi,  
Shunday qilib Ko'kaldosh ham o'ladi.

...Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarları bilan kuyovni  
kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar "kampir o'ldi" bo'lib, o'lganiga  
bir nima olib, "it irillar" degan rasmini qilib, bunda ham bir nima berib,  
har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, chimildiqqa o'tirib, oldiga  
dasturxon solib, ...kuyov navkarlarga to'ppi, ro'mol, sarpoylar berib,  
kuyov navkarlar chiqib ketdi. Barchinni bekning... qoshiga olib kirib,

---

<sup>1</sup>Chirpib – siltab.



xotinlar rasmini qilib, “choch siypatar”, “qo'l ushlatar”ini qilib, bir necha yangalar har qaysisi o'z mazgiliga ketdi.

...Shunday bo'p bul orada qirq kun o'tdi. Qirq kungacha maslahat qip yotdi. Qirq kundan keyin maslahatni bir yerga qo'yib, Boysari qoldi. O'n ming uyli qo'ng'iroq Barchin bilan ketmoqchi bo'ldi. ...bari ko'chib, yo'lga kirib, Boysari qaytib uyiga kelib, yolg'iz qolib, kallasi g'uvullab, musofirligi asar qilib qoldi...



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Otlar va odamlar tasviridagi o'xshashlik va farqlarga e'tibor qiling. Qaysi tasvirda baxshining mahorati yaqqol ko'ringan?
2. **“Egam rahm aylasin qonli yoshima, Sabab bo'lib qo'shgin teng-u to'shima. Qurruyo-qur, hayt-a, to'ramning oti!”** tarzida nola qilayotgan Oybarchin holatini anglating.
3. Qalmoqlarning mubolag'ali tasvirlari berilgan o'rirlarni qayta o'qing va hayotiylik hamda badiiylik jihatidan izohlang.
4. Ko'kaldoshni yiqitolmayotgan Alpomish holati va uning ahvoldidan iztirobga tushgan Oybarchin holatini izohlang.
5. Barchinoyning Alpomishga qarata aytgan achchiq so'zlari alpga bu qadar qattiq ta'sir qilganligi sababini izohlang.
6. “Alpomish” dostoni yana qaysi baxshilar tomonidan aytilgan? Dostonning to'liq variantini o'qib chiqing.

### **“ALPOMISH” DOSTONI TO'G'RISIDA**

Odamlar badiiy asarlarni dastlab og'zaki shaklda yaratishgan va ular og'izdan og'izga ko'chib yurgan. Bu asarlar ulkan ta'sir kuchiiga ega bo'lgani uchun ham xalqimiz xotirasida abadiy muhrlanib bizlargacha yetib kelgan. Shu sababdan xalq og'zaki ijodi badiiy adabiyotning eng qadimgi shakli deyiladi.

O'zbeklar dunyo xalqlari orasida ko'p doston yaratgani bilan ajralib turadigan millatdir. Olimlar XIX asr oxiridan XX asrning ikkinchi yarmiga qadar o'zbek baxshilari tomonidan kuylangan yuz ellikka yaqin doston borligini aniqlashgan va variantlari bilan qo'shib hisoblaganda, ulardan to'rt yuztacha doston yozib olingan. Folklorchi olimlar-



ning aytishlaricha, "Go'ro'g'li" turkumidagi dostonlar yuzdan oshadi, birgina "Alpomish"ning qirqdan ortiq nusxasi borligini esa bilasiz.

"Doston" forscha so'z bo'lib, qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif ma'nolarini bildiradi. Favqulodda xususiyatlarga ega qahramonlarning boshidan o'tgan qaltis voqealar she'r va nasriy yo'lida aralash tasvirlangan yirik hajmli, muallifi noma'lum epik asarlar xalq dostonlari deyiladi.

Xalq dostonlari olimlar tomonidan quyidagi turlarga ajratilgan:  
1. Qahramonlik dostonlari. 2. Jangnoma dostonlar. 3. Romantik dostonlar. 4. Tarixiy dostonlar. 5. Kitobiy dostonlar.

She'r bilan nasrning aralash kelishi xalq dostonlarining muhim belgisidir. Dostonlardagi she'rlar, asosan, o'n bir bo'g'inli bo'lib, barmoq vaznida aytildi. Qahramonlarning o'y-fikrlari, nisbatan tinch ruhiy holati tasviri, o'zaro so'zlashuvlari ko'proq o'n bir bo'g'inli she'r bilan ifodalanadi. Ba'zan dostonlarda tasvir talabiga ko'ra yetti, sakkiz bo'g'inli she'rlar ham uchraydi. Otlar chopishi, jang manzaralari, personajlarning tezkor va shiddatli harakatlari aks etgan o'rinalar yetti-sakkiz bo'g'inli she'rlar bilan ifodalanadi.

Xalq dostonlarida ko'proq ko'chmanchi tarzda hayot kechirgan eliboy o'zbeklar tirikchilik tarzi aks etadi. Shu sababli, xalq dostonlarining tilida asosan, qipchoq lahjasi belgilari yetakchilik qiladi. Shuningdek, dostonlarimizda o'zbek xalqining ruhiy olami, udumlari ham o'z ifodasini topgan bo'ladi. Chunonchi, Alpomishning qiz sha'niga dog' tushirmaslik uchun begona odamlar oldida Oybarchin nomini tilga olmasligi kabi go'zal odatlari namoyon bo'ladi. To'y tasvirida "kampir o'ldi", "it irillar", "choch siypatar" kabi qadim odatlarga amal qilingani tasviri ham xalq turmushiga xos jihatlarni bildirishi bilan ahamiyatlidir.



### Savol va topshiriqlar:

1. Xalq dostonlarining o'ziga xos jihatlarini ko'rsating.
2. Xalq dostonlarining turlarini aytинг.
3. Dostondagi she'rlarda bo'g'inlar sonining oz-ko'pligi sababini tushuntiring.

## II BOB. O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI

### ALISHER NAVOIY (1441—1501)



Sharqda xamsachilikning o'ziga xos tarixi va an'anasi mavjud. "Xamsa" yozishni ozarbayjonlik ulug' shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergen. Lekin u bu asarini avvaldan niyat qilib, ma'lum bir reja asosida yaratmagan. Nizomiy 1173—1179- yillarda Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlab "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinası") nomli pandnoma yozadi. 1180—1181- yillarda Iroq hukmdori To'rg'ul II ning iltimosiga ko'ra "Xusrav va Shirin" dostonini yaratadi. 1188- yilda Shirvonshohlardan Axsatan I Nizomiyga "Layli va Majnun" dostonini yozishni buyuradi. 1196- yilda hukmdor Alovuddin Ko'rpa Arslonning topshirig'i bilan Bahrom haqida "Haft paykar" ("Yetti go'zal") yoziladi. 1196—1201- yillarda "Iskandarnoma" yaratiladi. Shu tariqa 1173—1201- yillar oraliq'ida – 28 yil davomida muallifning besh dostoni dunyo yuzini ko'rdi. Shundan so'ng adibda turli yillarda bitilgan bu dostonlarni jamlab, yagona bir nom bilan atash fikri tug'ilgan va "Panj ganj" ("Besh xazina") nomi bilan mashhur bo'lgan birinchi "Xamsa" vujudga kelgan.

Nizomiydan yuz yildan so'ng asli shahrisabzlik turkiy qavmlar avlodidan bo'lgan Xusrav Dehlaviy (1253—1325) o'zining "Xamsa"sinı 1299—1301- yillarda yozib tugalladi. U "Matla ul-anvor" ("Nurlarning boshlanmasi"), "Shirin va Xusrav", "Majnun va Layli", "Hasht behisht" ("Sakkiz jannat"), "Oyinayi Iskandariy" ("Iskandar oynasi") dostonlari ni yozib, Nizomiy ishini davom ettirdi va natijada adabiyotda xamsachilik an'anasi paydo bo'ldi.



Shunga ko'ra har bir asar "Xamsa" deb atalmog'i uchun: a) besh dostonidan tashkil topmog'i; b) birinchi doston, albatta, pand-nasihat ruhidagi ta'llimiylar-axloqiy, falsafiy bo'lmgan; d) ikkinchi si, Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanmog'i; e) uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olmog'i; f) to'rtinchi doston shoh Bahrom va beshinchisi Iskandar haqida yozilmog'i shart edi.

Dehlaviydan qariyb 200 yil keyin ikki buyuk xamsanavis — Jomiy va Navoiy maydonga chiqdi. Jomiy avval quyidagi besh asarni yozdi: "Tuhfat ul-ahror" ("Erkinlar tuhfasi"), "Sabhat ul-abror" ("Yaxshilar tasbih"), "Yusuf va Zulayho", "Layli va Majnun", "Xiradnomayi Iskandariy". Bu besh asarni 1485- yili yozib tugalladi. Keyin "Silsilat uz-zahab", "Salomon va Absol" asarlarini qo'shib, "Xamsa"sinu yetti dostonga yetkazdi va "Haft avrang" ("Yetti taxt") deb atadi.

Alisher Navoiyning "Xamsa"si boshqalardan farqli ravishda ona tilida – turkiy tilda yozildi. Bunday ulkan, katta jasorat talab qiladigan mas'uliyatli ishga daho ijodkor Navoiygina jur'at qila olardi. Adibning fikricha, xalqqa uning o'z tilida, unga manzur bo'lgan asar yaratishi lozim. Shuning uchun "Layli va Majnun" dostoni xotimasida Nizomiy va Dehlaviyni ta'riflar ekan, turkiy tilda "Xamsa" yozishning sababini shunday izohlaydi:

...Gar nuktalaril' jahonni tutti,  
G'avg'olari ins-u jonni tutti.  
Chun forsiy erdi nukta shavqi,  
Ozroq edi anda turk zavqi.

Ul til bila nazm bo'ldi malfuz<sup>2</sup>,  
Kim forsiy anglar o'ldi mahzuz<sup>3</sup>.  
Men turkcha boshlabon rivoyat,  
Qildim bu fasona<sup>4</sup>ni hikoyat.  
Kim shuhrati jahonga to'lg'ay,  
Turk eliga dog'i<sup>5</sup> bahra bo'lg'ay

---

<sup>1</sup>Nukta – so'z, bu yerda ijod, asarlari ma'nosida qo'llangan; <sup>2</sup>Misraning ma'nosi: Bu (forsiy) til bilan nazm (asar) yaratilsa; <sup>3</sup>Misra ma'nosi: forslargagina tushunarli edi; <sup>4</sup>Fasona – afsona, bu yerda doston ma'nosida qo'llangan; <sup>5</sup>Dog'i – shuning-dek, yana.



Navoiy o‘z salaflarining yuksak san’atkorligini sharaflaydi, ularning adabiy tajribalaridan ta’lim olganligini e’tirof qiladi. Dostonlarning muqaddima qismida ustozlariga bag’ishlab maxsus boblar yozib, ularni ulug’laydi. Mas’uliyatli bu ishda ularga ruhan suyanadi va

Yo’Idasa bu yo’lda Nizomiy yo’lum,  
Qo’Idasa Xusrav bila Jomiy qo’lum, — deb madad tilaydi.

Biroq Navoiy oldingi xamsanavislarni takrorlab, ularga ko’rko’rona taqlid qilmaydi. O‘z oldiga yangi, o’ziga xos “Xamsa” yaratish vazifasini qo’yadi. Buni muallif “Xamsa”ning bir necha o’rnida ochiq-oydin ta’kidlaydi. Jumladan, u “Farhod va Shirin” dostoni muqaddimasida shunday yozadi:

Ani nazm etki, tarhing toza bo’lg’ay,  
Ulusqa mayli beandoza bo’lg’ay.  
Yo’q ersa nazm qilg’onni xaloyiq  
Mukarrar<sup>1</sup> aylamak sendin ne loyiq?

Bu misralari orqali Navoiy “Xamsa” yozishdagi belgilab olgan o‘z yo’riqlarini bayon etadi: Shunday asar (nazm) – doston yozginki, o’zingga xos (tarhing toza) bo’lsin, o’qigan odamlarga (ulusqa) yangi, boshqa asarlarga o’xshamas (beandoza)ligi sezilib tursin. Aks holda (yo’q ersa), asar o’zgalar (xaloyiq) yozgandek bo’lsa, bunday takrorlash (mukarrar) senga loyiq emas. Yaxshisi, bunday asar yozmagan ma’qul.

Lekin bu oson ish emas. Buning uchun Yaqin va O’rta Sharq o’lkalarida qalami mislsizligi e’tirof etilgan Nizomiy va Dehlaviy bilan ijodiy bahsga kirishishi lozim bo’ladi. Bu juda katta bilim va yuksak adabiy didni, iste’dod hamda mashaqqatli mehnatni talab etar edi. Bu haqida “Farhod va Shirin”da yozadi:

Emas oson bu maydon ichra turmoq,  
Nizomiy panjasig’a panja urmoq.  
Kerak sher ollida ham sheri jangi,  
Agar sher o’lmasa, bori palangi.

---

<sup>1</sup>Mukarrar – takror.



Haqiqatan ham, Nizomiydek nazm sheri bo'lgan maydonda turmoq oson emas. U bilan bahslashish (panjasiga panja urmoq) uchun sher yoki hech bo'lmasa yo'lbars (palang) bo'lmos'i darkor. Navoiy sher bilan tenglashadigan sher bo'ldi. U og'ir va mas'uliyatli vazifani muvaffaqiyat bilan ado etdi. Nihoyat, qisqa bir muddat – ikki yil (1483–1485) davomida 51 ming misradan ortiq besh dostonni yozib tugalladi. U 1483- yilda "Hayrat ul-abrор" falsafiy-ta'limiyl dostonini, 1484- yilda uch asarni: "Farhod va Shirin" hamda "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor" ishqiy-sarguzasht dostonlarini, 1485- yili esa "Saddi Iskandariy" qahramonlik dostonini yaratdi. Dostonlar, butun Sharq mumtoz adabiyotida bo'lganidek, an'anaviy muqaddima – hamd va na't qismlari bilan boshlanadi. Hamd – Yaratuvchimiz Alloho ulug'lash, unga shukronalik, na't esa payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) alqovidir.

Navoiy "Xamsa"si yaxlit asardir. Buyuk shoir unda zamonasining barcha dolzarb masalalarini qalamga oladi. Besh doston bir-biri bilan ich-ichidan mustahkam bog'langandir. Masalan, "Hayrat ul-abrор"da shoir umr, uning mazmuni, tabiat, jamiyat va inson munosabatlariiga doir savollarni qo'yadi, keyingi dostonlarda muayyan taqdirlar, voqealar misolida ularga javob berishga harakat qiladi. Beshlikni sinchkovlik bilan o'qigan kitobxon "Hayrat ul-abrор"da berilgan 20 maqolat-dagi diniy-falsafiy, axloqiy, ma'rifiy mohiyat keyingi dostonlar sujet va kompozitsiyasiga yuksak mahorat bilan singdirib yuborilganligiga iqror bo'ladi. Shu nazar bilan "Hayrat ul-abrор" tuzilishi va mavzulariga diqqat qilaylik. Doston o'ziga xos qurilishga ega. U falsafiy-ta'limiyl doston bo'lganligi uchun mavzu biror voqeani hikoya qilish asosida emas, balki muallif fikr-mulohazalarining bayoni tarzida yoritiladi. Shuningdek, maqolatlar shu dostongagina xos bo'lib, adibning boshqa asarlarida uchramaydi. Har bir maqolatda insonning kundalik hayoti bilan bog'liq diniy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy biror mavzu bayon etiladi, uning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Maqolat so'ngida mavzuni dalillash, uni hayotiy asoslash maqsadida hikoya yoki masal keltiriladi. Mazkur hikoya va masallarning bosh qahramoni, asosan, tarixiy shaxslar, mashhur din va davlat arboblaridir. Ularda shoir islomiy mezonlar, umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqib Olam va Odam to'g'risidagi o'z mulohazalarini yuksak badiiy shakl-



da ifoda etadi. Masalan, birinchi maqolat iymon haqida. Maqolatning birinchi baytidanoq shoir iymonning inson hayoti, insoniylik mohiyati-da tutgan o'rnini belgilab beradi:

Kimki jahon ahlida inson erur,  
Bilki, nishoni anga iymon erur.

Ya'ni kim bu dunyoda inson deb atalibdi, insonligining belgisi iymondir. Iymonsizni odam deb atab bo'lmaydi. Inson bilan hayvon orasidagi farqni nutqda – odamni so'zlay bilish qobiliyatidagina deb bilish xatodir. Chunki odamda nutq ham, boshqa maxluq – hayvonlar-da bo'lgan bir qator jihatlar ham bor. Shuning uchun: "...asosiy mezon iymondir", — deydi Navoij.

Hukmdorlarga bag'ishlangan "Salotin bobida" nomli uchinchi maqolat adibningadolat haqidagi qarashlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Maqolatda shoirning tenglik, ozodlik, adolatli jamiyat borasidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Uning fikricha, mamlakatda juda ko'p narsa davlat boshlig'iga bog'liq. Shoh odil, oqil, orif va el-yurtga g'amxo'r bo'lishi kerak. Shuning uchun shoir shohga qarata: raiyat (xalq) poda bo'lsa, sen cho'ponsan, u mevali daraxt bo'lsa, sen – bog'bon, agar cho'pon qo'yalarini asramasa, ular och bo'rilar-ga yem bo'ladi. Podani bo'rillardan asra, bog'ni suv berib yashnatgin, deydi. Hukmdor kim bo'lmasin, mamlakat va xalqning taqdiri uning faoliyati, xatti-harakatiga bog'liq:

Shohki ish adl ila bunyod etar,  
Adl buzuq mulknii<sup>1</sup> obod etar.  
Kofiri odil ani obod etib,  
Mo'mini zolim ani barbod etib.

Karam va saxovat haqidagi beshinchi maqolatda Navoiy bu fazilatlarni baxillik bilan yonma-yon qo'yib, ularning mohiyatini yorita boradi. Saxovat qanchalik yuksak insoniy fazilat bo'lsa, baxillik shunchalar tuban illatligini adib tazod vositasida ochib beradi: "**Buxl erur borcha sifatdin xasis, Lek saxo javhari asru nafis**". Lekin saxovat kim to'g'ri kelsa yoki o'ziga tanish odamlargagina ehson qilish emas. Saxiy kishi ehtiyojmandlarga ko'maklashishi, muhtoj odamlar-

---

<sup>1</sup>Mulk – mamlakat.



ga beminnat qo'l cho'zishi lozim. Zarurati bo'l imagan kishilarga saxiylik qilish aqldan emas. Bunday odamlarga shoir "**O'yla bulutdekki, quruq bog' uza Yogs'may o'tub, suvni to'kar tog' uza**" deb tashbih ishlataladi. Kishilar saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z mehnati bilan kun kechirishni, Navoiy saxovatdan ham ulug' himmat deb biladi.

Keyingi maqolatda odob masalalari yoritilgan. Adib unda kishilar bilan munosabat va muomala madaniyati, o'zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar to'g'risida o'z mulohazalarini bildiradi. Odob, tavozeni alqaydi, o'zini tuta bilmaslik, o'rinsiz kulgi kabi salbiy xislatlarni qattiq qoralaydi. Inson munosabatlarda har bir kishining ahvoliga yarasha muomala qilishi, kattalarga xizmat, kichiklarga shafqat etishi lozim deb uqtirgan shoir: "**Har kishining tavrig'a loyiq kerak, Surati holig'a muvofiq kerak. Kimki ulug'roq anga xizmat kerak, Ulki kichikroq, anga shafqat kerak**", — deb ta'lim beradi. Tanosub san'ati asosiga qurilgan quyidagi misralarni esa har bir farzand o'ziga dasturulamal deb bilishi kerak:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,  
Jismni qil sadqa ano boshig'a.  
Tun-kunungg'a aylagali nur fosh  
Birisin oy angla, birisin quyosh.

Maqolatlardan birini Navoiy elga manfaat yetkazish masalalari ga bag'ishlaydi. Insonning hayoti jamiyatda, odamlar orasida kechadi. Dunyo insonlarning xayriyati (yaxshiliklari) bilan, jamiyat ezgu ishlilar bilan obod bo'ladi. Shuning uchun har bir shaxs qaysi yo'l bilan bo'lmasin: mehnati yo mablag'i bilan, shirin so'zi yoki maslahati bilan el-yurtga foyda yetkazishi kerak. Jamiyat a'zolarining mana shunday umumga keltirgan naflari, ayni paytda, o'zlariga ham manfaatlidir: "**Naf'ing agar xalqqa beshak durur, Bilki, bu naf' o'zungga ko'prak durur**". Aksincha, agar inson jamiyatga, xalqqa zarar yetkizza, yomonlik qilsa, bu ham uning o'ziga qaytadi: "**Ulki zarar shevasini tavr etar, Elga demakim, o'ziga javr etar**". Shuning uchun haqiqiy inson yurt tashvishi bilan, el g'ami bilan yashaydi:

Odamiy ersang, demagil odami,  
Oniki yo'q xalq g'amidan g'ami.



Navoiy har bir tushunchaga mukammal ta'rif va tavsif berar ekan, fikrni go'zal va nafis badiiyat libosiga o'rab, o'quvchiga taqdim qiladi. Uni o'qir ekansiz, ifoda go'zalligi sizni maftun qiladi, so'zlar jilosи uchun adibga tahsinlar o'qiysiz. Birinchi dostonda tilga olingan mazkur mavzular, masalalar keyingi dostonlarda o'ziga xos tarzda va talqinlarda bir-biridan go'zal hamda teran qissalar orqali kitobxon ongi va shuuriga yetkaziladi.

“Xamsa” — Navoiy dahosining mahsuli, ayni paytda, millatimiz tafakkur ko'lami hamda ma'naviy qudratining timsoli. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyat tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasи, millatimiz g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Albatta, Navoiyni bilish — o'zlikni bilish, Navoiyni sevish — millatni sevish, Navoiyga sadoqat — eng ezgu insoniy qadriyatlarga sadoqat demakdir.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Navoiyning hayot yo'li to'g'risida o'rtoqlaringiz bilan fikr almashing.
2. Navoiydan bizga qanday asarlar meros bo'lib qolgan? Ularni lirik, epik, ilmiy hamda biografik asarlar tarzida tasniflab, sanab bering.
3. Xamsachilik an'anasi, xamsanavislar to'g'risida qanday tasavvurga ega bo'ldingiz?
  
4. XV asrda turkiy tilda “Xamsa” yozish o'ziga xos ijodiy jasorat bo'lganligini asoslashga urining.

### **FARHOD VA SHIRIN**

(dostondan parchalar)

“Xamsa”ning bu ikkinchi dostoni ishqiy-sarguzasht mavzusidadir. Hajmi — 5782 bayt. Aruzning hazaji musaddasi mahzuf vaznida yozilgan. Muallif bu asarni “shavq dostoni” deb ataydi. Sababi, unda ishq kuylanadi, ishq talqin qilinadi, ishq ulug'lanadi. Bu shunday ishqki, u insonni poklaydi, ezgulik sari yetaklaydi, unga o'zligini tanitadi, bir so'z bilan aytganda, komillik sifatlarini tarbiyalaydi. Chunki u odamga, olamga, butun borliqqa mehr bilan, muhabbat bilan yo'g'ril-



gan va oxir borib, Yaratganning o'ziga ularshib ketadigan ishqadir. Binobarin, dostonda Navoiyning komil inson haqidagi orzu-o'yłari ifoda etilgan.

Ijodda o'ziga xoslikka intilgan adib o'zigacha bo'lgan bu doston an'anasisiga ijodiy yondashadi. Doston Navoigacha "Xusrav va Shirin" shaklida mashhur edi. Ularda markaziy timsol shoh Xusrav edi. Lekin u komillikdan yiroq, ishqda beqaror, muhabbatdan toj-taxtni ustun bil-guvchi xudbin shaxs. Shuning uchun Navoiy uni Shirinning muhabbatiga ham, yozilajak dostonidagi yetakchi timsol darajasiga ham loyiq ko'rmaydi. U Farhodni bosh qahramon qilib oldi va bu bilan dostonning qurilishini, mazmunini tamomila o'zgartirdi. Mazkur o'zgarish xamsachilikka shoir kiritgan eng katta yangilik edi.

Yozib jon Mus'hafidan ikki oyat,  
Debon Farhod-u Shirindin hikoyat,

degan shoir o'z dostoniga "Farhod va Shirin" nomini beradi.

Dostonning asosiy voqealari ovozasi olamni tutgan, qudrat-u shavkatda, davlat-u shuhratda yagona Chin xoqonining farzandsizligi va bundan uning so'ngsiz izardi tushganligi tasviri bilan boshlanadi. Birdan bir orzusi farzandli bo'lish edti. Maqsadiga yetish uchun ko'p nazrlar qildi, talay tangalar sochdi, o'g'ilisizlarning ko'nglini oldi, otasizlarga otalik qildi. Xayriyalari zoye ketmadi. Alloh iltijolarini ijobat qilib, unga o'g'il ato etdi.

Shabistonida<sup>1</sup> tug'di<sup>2</sup> bir yangi oy<sup>3</sup>,  
Yangi oy yo'qliki, mehri olamoroy<sup>4</sup>.

Ochildi bog'ida bir otashin vard,  
Demaykim vard<sup>5</sup>, balkim shu'layi dard.

Kiyurdi ilgiga davron nagine<sup>6</sup>,  
Nigin o'rnda la'li otashine.

---

<sup>1</sup>Shabiston – tungi yotoqxona; <sup>2</sup>Tug'di – tug'ildi; <sup>3</sup>Yangi oy – istioraviy yo'l bilan Farhodni bildiradi, uning tug'ilishi qorong'u kechada yangi oyning paydo bo'lishiga qiyoslangan; <sup>4</sup>Mehri olamoroy – olamni yorituvchi quyosh; <sup>5</sup>Vard – atirgul; <sup>6</sup>Nigin – uzuk, uzukning ko'zi, muhr.



Yuzinda ishq asrori<sup>1</sup> yozilg'on,  
Ichinda dard ta'vizi<sup>2</sup> qozilg'on.

Nigin-u la'l yo'q, duri shabafro'z<sup>3</sup>,  
Dema dur, gavhare, lekin jahonso'z<sup>4</sup>.

Eshilgan rishtasi<sup>5</sup> tobi vafodin,  
Teshilgan bag'ri haqqoki qazodin<sup>6</sup>.

Ko'zida ashk<sup>7</sup> selidin asarlar,  
Damida<sup>8</sup> oh dudidin xabarlar.

Muhabbat nuri ollinda huvaydo<sup>9</sup>,  
Jamlida vafo tug'rosi<sup>10</sup> paydo.

Falak deb dard elining shohi oni,  
Malak<sup>11</sup> deb dard o'ti ogohi oni.

Tushub ishq ahli ichra har taraf jo'sh,  
Chu tug'di o'tda sayr aylar Siyovush<sup>12</sup>.

Vafo xaylida g'avg'o shodlig'din,  
Biri-birga muborakbodlig'din.

### **Xoqon esa xursandchiligidan:**

Xaloyiq harne qilsa tergamak yo'q,  
Ne qilg'anni yamon qilding demak yo'q.

...Olib kishvar elining ehtiyojin,  
Bag'ishlab elga uch yillik xirojin.

---

<sup>1</sup>Asror – sirlar; <sup>2</sup>Ta'viz – tumor, duo yozilgan varaq; <sup>3</sup>Shabafro'z – kechasini yorituvchi; <sup>4</sup>Jahonso'z – jahonni kuydiruvchi; <sup>5</sup>Rishta – ip; <sup>6</sup>Haqqoki qazo – qismat zargari; <sup>7</sup>Ashk – ko'z yoshi; <sup>8</sup>Dam – nafas; <sup>9</sup>Huvaydo – ayon, ravshan; <sup>10</sup>Tug'ro – davlat ramzi, (gerb) nishona; <sup>11</sup>Malak – farishta; <sup>12</sup>Siyovush – Eron podsholaridan bo'lgan Kaykovusning o'g'li.



***Farhod onadan ishq bilan tug'ildi. Uning ismi ham, Qur'onimda: "Al-asmou tanzilu min-as-samo", ya'ni "Ismlar osmon-dan tushadi", deyilganidek, ishq osmonidan tushgan. Unga nom qo'yish mana bunday qalamga olinadi:***

Jamolidin ko'rungach farri shohiy<sup>1</sup>,  
Bu fardin yorudi mah to ba mohi<sup>2</sup>.

Qo'yib yuz himmat-u iqbol-u davlat,  
Hamul far soyasidin topdi ziynat<sup>3</sup>.

Bu javharlarg'a<sup>4</sup> chun isnod topdi<sup>5</sup>,  
Murakkab aylagach<sup>6</sup>, "Farhod" topdi.

Bu farni hodiyi<sup>7</sup> baxt etgach irshod<sup>8</sup>,  
Ravon shahzoda otin qo'ydi "Farhod".

Harir-u hulla ichra bog'labon chust<sup>9</sup>,  
Murassa<sup>10</sup> mahd<sup>11</sup> ichinda tongdilar<sup>12</sup> rust<sup>13</sup>.

Bu nav' ermas, ato qo'ymodi otin  
Ki, ko'rgach ishq aning pokiza zotin,

Anga farzona<sup>14</sup> Farhod ism qo'ydi,  
Hurufi<sup>15</sup> ma'xazin<sup>16</sup> besh qism qo'ydi:

Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard<sup>17</sup>.

---

<sup>1</sup>*Farri shohiy – shohlik nuri;* <sup>2</sup>*Mah to ba mohi – oydan baliqqacha. Bu yerda "osmondan yergacha" degan ma'noda qo'llangan;* <sup>3</sup>*»Himmat"dan «h", «iqbol"dan «alif" (uni «i" deb ham, «o" deb ham, «a" deb ham ishlatish mumkin), «davlat"dan «d"ni olib, qo'shsak, «hod" paydo bo'ladi, buni «far"ning «soyasi", ya'ni keyiniga olsak, «F a r h o d" so'zi hosil bo'ladi;* <sup>4</sup>*Javhar – gavhar;* <sup>5</sup>*Isnod topmoq – taalluqli bo'lmoq, tegishli bo'lmoq;* <sup>6</sup>*Murakkab aylamak – qo'shish, birlashtirish;* <sup>7</sup>*Hodi – to'g'ri yo'l ko'satuvchi, yo'l boshlovchi, yetakchi;* <sup>8</sup>*Irshod – to'g'ri yo'l ko'satish;* <sup>9</sup>*Chust – mahkam;* <sup>10</sup>*Murassa' – qimmatbaho toshlar bog'langan, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan;* <sup>11</sup>*Mahd – beshik;* <sup>12</sup>*Tongmoq – belamoq, bog'lamoq;* <sup>13</sup>*Rust – mahkam, qattiq;* <sup>14</sup>*Farzona – oqil, dono;* <sup>15</sup>*Huruf – harflar;* <sup>16</sup>*Ma'xaz – biror narsaning olingan joyi, manba;* <sup>17</sup>*Fard – yakka, yolg'iz, ajralgan, alohida.*



Borin ustodi ishq etgach murakkab,  
Tarakkubdin bu ism o'ldi murattab<sup>1</sup>.

*Tangri taolo tug'ilishidan ruhiga payvasta etgan ishq  
Farhodga favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat ato etgan edi. U  
ta'limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda  
Qur'oni karimni yod oldi. Navoiy Farhodning bolalikdagi fazilat-  
larini shunday ta'rif etadi:*

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,  
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.

Ne so'znikim, o'qub ko'ngliga yozib,  
Dema ko'ngliki, jon lavhiga<sup>2</sup> qozib.

O'qub o'tmak, uqub o'tmak shiori,  
Qolib yodida safha-safha bori.

Ko'rub chun ishq-u oshiqlik maqolin,  
Topib oshufta mahzun ko'ngli holin.

Aning sharhini takror aylabon ko'p,  
O'qurda nolayi zor aylabon ko'p.

Bo'lub oshiq g'ami sharhida g'amnok,  
Yaqo chokin o'qub, aylab yaqo chok.

Kim etsa darddin oz-oz rivoyat,  
Qilib ul dard anga ko'p-ko'p siroyat<sup>3</sup>.

Kishi ko'nglin bilib, afgor yig'lab,  
Ne ko'zda ashk ko'rgach, zor yig'lab.

Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,  
Bilib tahqiqini<sup>4</sup> kasb etmagan ilm.

---

<sup>1</sup>Murattab – tartib berilgan, tartiblangan, tuzilgan; <sup>2</sup>Lavh – yoyiq narsa, taxta;  
yozuv taxtasi. So'z bu yerda istiora bo'lib, ko'chma ma'noda kelgan; <sup>3</sup>Siroyat – ta'sir,  
ichiga o'tish, yuqish; <sup>4</sup>Tahqiq – biror narsaning haqiqatini izlash, tekshirib ko'rish,  
haqiqat qilish.



Bo'lub o'n yoshqa umrining mururi<sup>1</sup>  
Yigirmi yoshcha qadd-u jism-u zo'ri.

Ulum<sup>2</sup> avroqi<sup>3</sup> chun bir-bir yopildi,  
Dilovarliq silohi<sup>4</sup> mayli qildi.

... Hamul ilmi balandovoza birla,  
Bu yanglig' zo'ri beandoza<sup>5</sup> birla.

O'zin abjad<sup>6</sup> o'qur eldin tutub kam,  
Dema donishki, zo'ri dast<sup>7</sup> ila ham,

Bo'lub shahlar eshigining gadoyi,  
Va lekin ul gadolar xoki poyi.

Anga teng podsholig' yo gadolig',  
Gadoliqqa teng etmay podsholig'.

Demonkim, ko'ngli pok-u, ham ko'zi pok,  
Tili pok-u, so'zi pok-u, o'zi pok.

Munungdek tiynati pokiga loyiq.  
Duosin aytibon poki xaloyiq.

Aning sori sovug' yel essa nogoh,  
Chekib Chin mulkining xalqi sovug' oh.

Qilib el xonumon oning fidosi.  
Ne xonumonki, jon oning fidosi.

Ato yuzlanmasun deb dard-u ranje,  
Etib har kun boshig'a sadqa ganje.

---

<sup>1</sup>*Murur – o'tish, yurish;* <sup>2</sup>*Ulum – ilmlar;* <sup>3</sup>*Avroq – varaqlar;* <sup>4</sup>*Siloh – qurol-yarog';*   
<sup>5</sup>*Beandoza – cheksiz, chegarasiz;* <sup>6</sup>*Abjad – arab alifbosining maxsus tartibda tuzilgan sirasi bo'lib, bunda har bir harf ma'lum son qiymatiga ega bo'ladi. «Abjad o'qur el» deganda esa endi maktabga borganlar ko'zda tutilgan, chunki boshlang'ich mактабнинг биринчи ўйлда гарф таниш учун дастлаб abjad о'ргатилган;* <sup>7</sup>*Dast – qo'l.*



Vale bir zarra dard o'lg'ach padidor<sup>1</sup>,  
Bo'lub ul ganjlar birla xaridor.

Asiri dard ichi-yu toshi oning  
Ki, to o'n to'rt bo'ldi yoshi oning.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Navoiy nima uchun "Farhod va Shirin"ni "shavq dostoni" deb ataydi? Unda ulug'langan ishq qanday mohiyatga ega edi?
2. Navoiyning mazkur asari qaysi jihatlari bilan xamsachilikdagi yangilik hisoblanar ekan?
3. "**Shabistonida tug'di bir yangi oy, Yangi oy yo'qliki, mehri olamoroy**" baytini izohlang. Undagi "**shabiston**", "**yangi oy**", "**mehri olamoroy**" so'z va iboralarining istioraviy ma'nosini tushuntiring.
4. "**Yuzinda ishq asrori yozilg'on, Ichinda dard ta'vizi qozilg'on**" baytida Farhodga xos bo'lgan qaysi jihatlar ifoda etilgan?
5. "**Muhabbat nuri ollinda huvaydo, Jamolida vafo tug'rosi paydo**" misralarini sharhlang. Baytdagi chaqaloq siymosida qanday fazilatlar namoyon bo'layotganligini aniqlang.
6. "**Qo'yib yuz himmat-u iqbol-u davlat, Hamul far soyasidin topdi ziynat**" misralarini ulardan keyingi bayt bilan birgalikda tahlil qiling. Bu misralarda bo'lajak ishq shahzodasiga xos qaysi jihatlar aks etgan?
7. "**Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard, Biror harf ibtidodin aylabon fard**" baytidagi "Farhod" ismiga asos bo'lgan so'zlarini aniqlang va ismning qanday hosil bo'lishini tushuntiring.
8. Farhodning tahsil olish jarayonini kuzating. Uning o'qishga bo'lgan ishtiyogi baytlarda qanday ifoda etilgan?
9. "**Bo'lub oshiq g'ami sharhida g'amnok, Yaqo chokin o'qub, aylab yaqo choc**" misrasini sharhlang.
10. Qaysi baytda Farhodning jismoniy barkamolligi tasvirlangan?
11. Keltirilgan parchadan Farhodning ma'naviy sifatlari bayon etilgan o'rirlarni topib, izohlang.

<sup>1</sup> Padidor – paydo bo'lgan, ko'ringan.



*Farhod yigit yoshiga yetdi. Lekin tug'ma ishq ta'sirida doimo g'amgin, alam va dardlar bilan ko'milgan edi. Buning sababini o'zi ham tushuntirib berolmas edi. Otasi uning g'amlarini aritmoq uchun turli tomoshalar, bazmlar, ziyofatlar uyushtirdi. Foydasi bo'lmadi. Shunda xoqon Farhodning ko'nglini olish uchun yilning to'rt fasliga moslab to'rt oliy qasr qurdirish fikriga keldi. Farhodning atobegi, ya'ni tarbiyachi-ustozi Mulkoro bu ishga ma'mur etib tayinlandi. Xitoyning mashhur me'mori Boniy, naqqoshi Moniy hamda tosh yo'nuvchi Qoran qurilishga jalb etildilar. Farhod qurilish bo'layotgan yerga kelib ustalarning ishlarini ko'rди. O'z hunarlarini mislsiz san'at darajasiga yetkizgan, toshni ham saryog'dek kesayotgan uch ustod ishidan hayratga tushdi. U shunchaki kuzatuvchi, tomoshabin bo'lib qolmasdan ularning hunarlarini o'rganishga kirishdi. Oxiri shu darajaga yetdiki, bu kasblarni ustozlari darajasida o'zlashtirdi, hatto ba'zisidan o'zib ham ketdi.*

*Nihoyat bahor, yoz, kuz va qish fasliga moslab qurilgan shohona qasrlar bitdi. Xoqon ularda bir yillik bazm tadorigini ko'rishni buyurdi. Maqsad – o'g'lidagi g'amginlikni ketkazish. Farhodda esa o'zgarish yo'q – o'sha-o'sha mahzun edi:*

Biravkim zor yig'lab – yig'lab ul zor,  
Topib ko'ngli el ozoridin ozor.

Chiqorib so'zlig' so'z<sup>1</sup> boshidin dud,  
Sovug' oh aylab ohin otasholud<sup>2</sup>.

Bo'lub el anduhidin ko'ngli g'amnok,  
Yaqo chokin ko'rib, ko'ksin qilib chok.

Biravkim ishqdin qilsa rivoyat,  
So'rub hardam mukarrar<sup>3</sup> ul hikoyat.

---

<sup>1</sup> «So'zlig' so'z» birikmasini ham «yoniq so'z», ham «so'zli yonish» ma'nosida tushunish mumkin, chunki o'zbekcha «so'z» «kalima» ma'nosini bersa, tojikcha «so'z» «kuyish» ma'nosida keladi; <sup>2</sup>Otasholud – yoniq, dardli, otashin; <sup>3</sup>Mukarrar – takror.



Tafahhus aylab<sup>1</sup> andin ko'p nishone,  
Nishonin ko'nglida asrab nihoni.

Visol ichra zamirin<sup>2</sup> shod topib,  
Alamdin xotirin ozod topib.

Yetishgach hajr sharhi zor yig'lab,  
Iki ko'z aylabon xunbor<sup>3</sup> yig'lab.

*Xoqon farzandidagi qayg'uni ketkizmak bo'lib hamda  
uning har tomonlama kamolotga yetishganidan o'zidan shohlik-  
ni qabul qilib, taxtga o'tirishini so'raydi. Farhod esa bu taklifni  
odob bilan, asosli uzrlar keltirib, davlatni boshqarish ishlarini  
o'rganish uchun muhlat so'raydi. O'g'lining oqilona javobidan  
behad xursand bo'lgan shoh unga mamlakat xazinasini ko'rsa-  
tadi. Xazinadagi g'aroyib bir sandiq uning diqqatini jaib etadi.  
Xoqon bu sandiqni ochishlarini istamaydi. Lekin Farhod qattiq  
turib oldi:*

Eshitgach shoh uzrin shahzoda,  
Havas savdosin qildi ziyoda:

Dedi: "Har ishki qilmish odamizod,  
Tafakkur birla bilmish odamizod.

Ulum ichra manga to bo'ldi madxal<sup>4</sup>  
Topilmas mushkile men qilmag'on hal.

Munung ham bilmaguncha asl-u budin<sup>5</sup>,  
Muayyan qilmag'uncha tor-u pudin<sup>6</sup>,

Ne imkonkim qaror o'lg'ay ko'ngulga,  
Tasalli oshkor o'lg'ay ko'ngulga".

---

<sup>1</sup>Tafahhus aylamak – tekshirmoq, surishtirmoq, teran o'rganmoq; <sup>2</sup>Zamir – ko'ngil;

<sup>3</sup>Xunbor – qon yig'lovchi; <sup>4</sup>Madxal – kirish; <sup>5</sup>Bud – borliq, mavjudlik. Bu yerda:  
nimaligini ma'nosida kelgan; <sup>6</sup>Tor-u pud – o'rish – arqoq. Bu yerda: sirr-u sinoatini  
degan ma'noda kelgan.



*Noiloj qolgan xoqon kalitni keltirib, sandiqni ochishni buyuradi. Uning ichidan bir vaqtlar Iskandari Rumiy har biri Aflatundek to'rt yuz olimga yasattirgan sirli ko'zgu chiqdi. Oynaning orqasida uning maxfiy sirlari yozib qo'yilgan. Unga ko'ra, ko'zgu tilsimini ochmoqchi bo'lgan odam xatarli safarga otlanib, Yunonistondagi bir toqqa borishi kerak. Ungacha uch manzil bo'lib, birinchisida ajdahoni, ikkinchisida Ahraman devni, uchinchi manzilda ikkalasidan ham mushkulroq tilsimni yengishi kerak. To'rtinchi manzil – o'sha tog'dagi g'or ichidan donishmand Suqrot topiladi. Farhod bu to'siqlarni mardona yengib, Jamshid jomini, Sulaymon uzugini, Iskandar boyligini qo'lga kiritadi. Suqrot uning, otasi va atobegi Mulkoroning taqdiri haqida bashoratlar beradi, ularga nasihatlar qiladi va jon taslim etadi.*

*Yunonistondan qaytishgach, ko'zgu tilsimidan voqif bo'lgan Farhod xazinadagi sandiqni ochadi. Oynada qandaydir bir yurt, tog' kesish bilan mashg'ul odamlar, o'zining ham ariq qaziyotgani hamda Shirinni ko'radi. Qizni ko'radi-yu, hushdan ketadi.*

*Sevgilisini izlab yo'lga chiqqan Farhod uning Arman yurtidan ekanligini safarda topgan do'sti Shopurdan eshitadi. U yerga borishgach, metindek toshlardan iborat tog'ni kesish mashaqqatiga mahkum odamlarni ko'rishadi. Ular tog'ni kesib, uning narigi yog'idan suv olib o'tishlari kerak edi. Afsuski, uch yil zahmat cheksalar-da ishda siljish bo'lmagan. Bu topshiriqni elning ardoqli malikasi Mehinbonu va jiyani Shirinning orzusini ro'yobga chiqarish uchun sidqidildan bajarayotgan edilar. Navoiy ularning tilidan Shirinning vasfini quyidagicha bayon etadi:*

Harimi iffat ichra shoh ul ermish,  
Sipehri ismat<sup>1</sup> uzra moh ul ermish.

Ani ham vasf etardin bahramiz yo'q,  
Otin dog'i tutarg'a zahramiz<sup>2</sup> yo'q.

Yuzin ko'rmaydur oning odamizod,  
Magar bir necha gulrux sarvi ozod<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup>Sipehri ismat – poklik osmoni; <sup>2</sup>Zahra – had, jur'at; <sup>3</sup> Misraning mazmuni: bir necha sarvdek tik qomatli, gul yuzli qizlardan boshqa.



Kim, oni ko'rsa gasht-u sayr ko'rmas,  
Ani ko'rgan kishini g'ayr ko'rmas.

Yuzi gul, kiprigi derlar tikandur,  
Ne bor andoqki hargiz bor ekandur.

Mehinbonu ko'p aylab ehtiromin,  
Yasabdur jon uyi ichra maqomin.

Yuzi birla qilur bazmini gulshan,  
Aning birla ko'rар olamni ravshan.

Bu tog'ekim aning vasfidadur tul<sup>1</sup>  
Ki, bordurbiz ani qozmoqqa mashg'ul.

Kelubdur bir boshi sharqi shamoyil,  
Yana bir boshi g'arbi sori moyil.

Oqar sharqisida bir chashma holi<sup>2</sup>,  
Suyi ul nav'kim hayvon<sup>3</sup> ziloli.

Debon "Ayn ul-hayot"<sup>4</sup> ul chashmani xayl  
Ki, o'lgon ichsa aylar jon sari mayl.

Gahi ul hur bu sori qo'yar gom,  
Pari sarchashmada tutqondek orom.

Parilar birla aylab azmi ishrat,  
Tuzarlar anda gohi bazmi ishrat.

Erur g'arbida ul mahvash makoni  
Ki, holo Armaniya derlar oni.

Yeridur nazhat ichra jannatoso,  
Aning yonida tog'i charxfarso<sup>5</sup>.

---

<sup>1</sup>Tul – uzun, cho'zilgan; <sup>2</sup>Holi – hozir; <sup>3</sup>Hayvon – tiriklik, hayot; <sup>4</sup>"Ayn ul-hayot" – hayot bulog'i, hayot suvi; <sup>5</sup>Charxfarso – ko'kka ulangan, juda yuksak.

Erur bu nav' ul mahvash xayoli  
Ki, ul manzilda solg'ay qasri oliy.

Muhayyo borchha rang-u bo'yi oning,  
Vale ustida yo'qtur suyi oning.

Muhandislar nechukkim charxi sayyor,  
Yugurtub chashma suyi sori tayyor.

Topibkim bir arig' qozilsa diljo',  
Yetar ul hur qasri ollig'a su (v).

Vale ul chashma to bu qasri ofat,  
Topibdur o'n yig'och<sup>1</sup> chog'liq masofat.

Bu jadvalkim, chekibdurlar aroda,  
Ariq qozmoq qilibdurlar iroda...

Bu xoro tesha birla bo'lmas afgor,  
Nechukkim tesha, metin aylamas kor.

Erur uch yilki jon tortib hamesha,  
Usholmay qolmadi metin-u tesha.

Mashaqqatdin yigitni el qori der  
Ki, qozilmish iki-uch yuz qori yer.

Bu yanglig' birla umri Nuh topsoq,  
Badanda ko'prak ondin ruh topsoq,

Chu mehnatning had-u poyoni yo'qtur,  
Tuganmaklik bu ish imkoni yo'qtur.

### ***Shunda Farhod ularga***

Dedi: Bu necha mazlumi sitamkash,  
Falak bedodidin bo'lg'an alamkash

---

<sup>1</sup> Yig'och – taxminan 10 km.



Ki, vayronlig'larida yuz xalaldur,  
Agar qilsam madad voqe' mahaldur.

Hunarni asrabon netkumdur oxir,  
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir?  
degan so'zlarni aytib, maqsadlariga yetishtiradi.

***Bu yerda u yurtniadolat bilan boshqarayotgan malika  
Mehinbonu mehrini, uning jiyani Shirinning muhabbatini qo-  
zonadi. Oshiq va ma'shuqanining ilk uchrashuvlari va suhbatini  
muallif shunday tasvirlaydi:***

Ki: "Ey nodir yigit ofoq ichinda,  
Yagona charxi nili toq ichinda!

Ayon holingda ko'p-ko'p bul'ajabliq,  
Ajabdin ham ajab ranj-u taabliq<sup>1</sup>.

Ne sen o'xshab jahonda bir kishiga,  
Ne qilg'an ishing o'xshar el ishiga.

Bu ishkim, biz demay bunyod etibsen,  
Bag'oyat ko'nglimizni shod etibsen.

Bo'lur erduk husuli ichra ojiz,  
Hunar ermas, ko'lung ko'rguzdi mo'jiz.

Agar yuz qarn<sup>2</sup> uzroyin bo'loli,  
Netib bir kunchilik uzring qo'loli.

Ishing uzrida yuz bizdek o'tong'ay,  
Ne bizdin, Tengridin ollingga yong'ay"<sup>3</sup>.

***Shirinning bu so'zlarini eshitgan Farhod hayajon aro shun-  
day dedi:***

<sup>1</sup>Taabliq – qiyinchilik, mashaqqat; <sup>2</sup>Qarn – 30 yilni bildiradigan yil hisobi. Ba'zan «asr» ma'nosini ham bildiradi; <sup>3</sup>Yong'ay – qaytgay (ya'ni qaytsin).

Dedi: “Jonparvar anfosingdin<sup>1</sup> o’Idum,  
Unungdin umr ranjidin qutuldum.

Ne anglaykim, qayu mahro<sup>2</sup> ekansen,  
Ichim qon aylagan senmu ekansen?!

Meni g’urbat aro bechora etkan,  
Diyor-u mulkdin ovora etkan,

Chiqib jonio unungdin bo’lg’ach ogoh,  
Yuzungni ko’rmay o’Idum oh, yuz oh!”

Aningdek oh to’fonin chiqordi  
Ki, mahvashning niqobi yelga bordi.

Ko’rungach ul jamoli olamoro,  
Aning matlubi bo’ldi oshkoro.

Hamul erdiki, maftun bo’lmish erdi,  
Ko’rib ko’zguda majnun bo’lmish erdi.

Birovkim aks ko’rgach hushi ketsa,  
O’zin ko’rgach, netong, jon tarkin etsa.

Birovkim bo’lsa mayning zikridin mast,  
Netong, ichkanda bo’lsa yer uza past.

Chu Farhod ul pari erkanni bildi,  
Chekib o’tluq fig’on andoq yiqildi.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Farhoddagi g’amginlikning sababini Siz qanday izohlaysiz?
2. Shahzoda Farhodning ustalar ishidan hayratlanishida, ularning kasblariga ko’ngil berib o’rganishida uning qanday ma’naviy fazilatlari namoyon bo’lmoqda?

<sup>1</sup>Anfos – nafaslar; <sup>2</sup>Mahro – oy yuzli.



3. Bosh qahramonning elparvarligi, oddiy xalqqa mushfiqligi qaysi misralarda o‘z ifodasini topgan?
4. Xoqoning o‘g‘liga taxtni taklif etishi, o‘g‘ilning uni rad etishi tasviri orqali Navoiy qanday fikrni ilgari suradi? Fikringizni shoir yashagan davr voqeliklaridan kelib chiqib asoslang.
5. **“Dedi: Har ishki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod”** so‘zlari orqali adibning inson tafakkuriga munosabati sharhlang.
6. Farhodning noma'lum ko‘zgu tilsimini bilish uchun hayotini xavf-xatarga solib bo‘lsa ham safarga chiqqanligini qanday baholaysiz? Sizningcha, u to‘g‘ri ish tutdimi?
7. Shirinning go‘zalligi vasf etilgan o‘rirlarni qayta o‘qing. Shoir uni qanday tasvirlaganini o‘z so‘zlarining bilan bayon eting.
8. **“Hunarni asrabon netkumdur oxir, Olib tufroqqamu ketgum-dur oxir?”** bayti orqali inson o‘zi egallagan hunarga qanday munosabatda bo‘lishi lozimligi to‘g‘risida fikr yuriting.
9. Shirinning Farhodga murojaatini o‘qing. Qizning sinchkovligi, insonni qalb bilan taniy bilishi uning qaysi so‘zlarida ko‘rinadi?

Shu paytlarda Ajam bilan Arabda hukm surayotgan Xusrav Parviz degan shoh bor edi. Uning bir o‘g‘li bo‘lsa-da, shohlikka yaraydigan emas edi. Shoh shuning uchun ham yana bir tag-tug‘li qizga uylanib, o‘g‘il ko‘rish orzusida edi. Shirinning go‘zalligi-yu Farhodning unga oshiqi beqaror bo‘lgani ovozasi Xusravgacha yetib bordi. Xusravning Buzurg Ummid degan vaziri maslahati bilan Mehinbonuga Shirinni so‘ratib sovchi yuborildi. Mehinbonu davlatni o‘ylasa-yu, rozi bo‘lsa ham, Shirin ko‘narmikan? Farhodning holi ne kechadi unda? Mehinbonu sovchilar fikrini Shirinka aytganda, u shunday dedi:

Ki: “Ey na’layning<sup>1</sup> o‘rni qiblagohim!  
Harimi nazhating<sup>2</sup> g‘amdin panohim!

Necha yetgay senga mendin malolat,  
Necha kelgay manga ondin xijolat.

<sup>1</sup> Na’layn – bir juft kovush; <sup>2</sup> Nazhat – ko‘ngil ochish, huzur qilish.



Boshimg'a tig'i g'am sursang ne bo'lg'ay,  
Bu so'z deguncha o'Itursang ne bo'lg'ay!?

Meni hindudek otashgahga boshla,  
Uzorim xolidek o't ichra tashla

Ki, jismim bo'lsa ul o't ichra nobud,  
Sochimdek chiqqay ondin chirmanib dud.

Malolimdin bari olam qutulsin,  
Tanim yuz ming balodin ham qutulsin.

Manga Farhod ishqji tuhmati bas  
Ki, chehram ko'rmayin ul zor-u bekas.

Yiqilmoqdur shiori oh tortib,  
Ko'nguldin nolayi jonkoh tortib,

Qulog'i mustami<sup>1</sup> bo'lmay so'zumga,  
Ko'zi oylar o'tub tushmay yuzumga.

Tog' ichra sel yanglig' oqizib yosh,  
Urub tosh uzra hardam seldek bosh.

Xayolim birla ko'nglin qone' aylab,  
Firoqim ichra umrin zoye' aylab.

Yuzimdin didayi giryoni<sup>2</sup> mahrum,  
Visolimdin balokash joni mahrum.

Qolib men ham yiroq ul notavondin,  
Nechukkim mendin – ul, men dog'i – ondin.

Bu bizga hol-u yuz nav' elda shuhrat,  
Ne yuz shuhratki, yuz ming nav' tuhmat.

---

<sup>1</sup>Mustami'bo'lmoq – qulog solmoq, eshitmoq; <sup>2</sup>Didayi giryon – yig'loqi ko'z, yoshlangan ko'z.



Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o'lsam, ushbu basdur!

Agar Bonu iloje bilsa, qilsun,  
O'zimni o'ltururmen yo'qsa, bilsun!"

*Mehinbonu sovchilarni yaxshi ziyofat qilib, sovg'a-salom-lar berib, podshohga duoyi salomlar yo'llab, bir bahona to'qidi. Aytdiki, Shirinning fe'li o'g'il bolalarnikidek, o'q otib, ov qilib yuradi. Unga turmush qurish haqida gapirishning hech iloji yo'q, bu haqda gap boshlaguday bo'lsangiz, o'zini o'zi nobud qilishi ham ehtimoldan xoli emas.*

*Xusrav sovchi keltirgan bu gaplarga ishonmadi, avval-gidan ham bir tundroq sovchi yuborsa, u ham shu javob bilan qaytdi. Bu bir necha bor takrorlandi. Xusrav g'azab otiga mindi. Dostonda bu holat mana bunday tasvirlanadi:*

Dedi: "Holim mening ul yerga yetti  
Ki, bu nav' el so'zumdin nafrat etti.

Yaqindurkim, bu bema'ni fasona,  
Erur boshtin-ayog' makr-u bahona.

Manga bas ermas erdi bu qadar nang<sup>1</sup>  
Ki, qilg'aymen alarg'a o'zni hamsang<sup>2</sup>.

Eshitmaklik kerak bu mojaro ham  
Ki, qilg'aylar alar so'zdin ibo ham.

Erur o'z baxtig'a bermak nigunluq<sup>3</sup>,  
Zabunlarg'a ayon qilmoq zabunluq.

Nega xud chiqmasun sung'ur<sup>4</sup> jahondin,  
Ko'rub shavkat sadosi mokiyondin?

G'azanfar<sup>5</sup> xud netar changol-u yolin,  
Chekar bo'lsa tishi uyning<sup>6</sup> maholin.

<sup>1</sup> Nang – or, uyat, nomus; <sup>2</sup>Hamsang – og'irlilikda barovar; <sup>3</sup>Nigunluq – egilishlik, egiklik;

<sup>4</sup>Sung'ur – lochin, shunqor (qush); <sup>5</sup>G'azanfar – sher, arslon; <sup>6</sup>Uy – sigir.

Agar umr o'lsa ul ayyoralarg'a,  
Demay ayyorakim, makkoralarg'a.

Sitamdin yetkuray andoq sazoye,  
Solay kishvarlari ichra baloye

Ki, qayda bor esa bir hiylapayvand,  
Qiyomatg'a dekin bo'lg'ay anga pand".

Bu so'zlarni debon azm ayladi bot,  
Sipahlar<sup>1</sup> tortibon hayhot-hayhot!

Kerak ishq ahli qul bo'lmoq bu so'zga  
Ki: "Shahliq o'zgadur, oshiqlik o'zga".

*Xusrav Arman yurtiga lashkar tortdi. Lekin Farhodning bir o'zi uning lashkariga bas kelib, dushmanning biror askarini shahar qal'asiga yaqinlashtirmadi. Uzoqdan Xusravga tanbeh ham berdi:*

Bu bo'lg'ay dard-u ishq oyini, vah-vah?!  
Vafo-u mehr sharti, ollah-ollah?!

Kishi ishqida zor o'lmoq bu bo'lg'ay?!  
G'amidan beqaror o'lmoq bu bo'lg'ay?!

*Ma'nosi: kishida dard-u ishq (oshiqlik) taomili, odati (oyini) shundaymi, ya'ni yorning yurtiga lashkar tortib keladimi? Yo Alloh, vafo, mehr sharti shumi? Ma'shuqa (kishi) ishqida zor, g'amida beqaror bo'lish, seningcha, shunday bo'ladi?*

*Bu savollarga javoban g'addor shoh hech narsa deyolmaydi. Raqibini kuch bilan yengolmagan Xusrav uni hiyla bilan qo'lga tushiradi. U o'z qarorgohida Farhod bilan mubohasaga kirishadi:*

Dedi: "Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!"<sup>2</sup>  
Dedi: "Majnun vatandin qayda ogah?"

<sup>1</sup> Sipahlar – askar, qo'shin; <sup>2</sup>Majnuni gumrah – yo'lini yo'qotgan jinni.



Dedi: “Nedur sanga olamda pesha?” <sup>1</sup>

Dedi: “Ishq ichra majnunluq hamesha”.

Dedi: “Bu ishdin o’lmas kasb ro’zi!” <sup>2</sup>

Dedi: “Kasb o’Isa basdur ishq so’zi”.

Dedikim: “Ishq o’tidin de fasona!”

Dedi: “Kuymay kishi topmas nishona”.

Dedikim: “Kuymagingni ayla ma’lum!”

Dedi: “Andin erur joh ahli<sup>3</sup> mahrum”.

Dedikim: “Qay chog’din o’ldung ishq aro mast?”

Dedi: “Ruh ermas erdi tang’a payvast”.<sup>4</sup>

Dedi: “Bu ishqdin inkor qilg’il!” <sup>5</sup>

Dedi: “Bu so’zdin istig’for qilg’il”.

Dedi: “Oshiqqa ne ish ko’p qilur zo’r?”

Dedi: “Furqat<sup>6</sup> kuni ishqি balosho’r” <sup>7</sup>.

Dedi: “Ishq ahlining nedur hayoti?”

Dedi: “Vasl ichra jonon iltifoti”.

Dedikim: “Dilbaringning de sifotin!”

Dedi: “Til g’ayratidin tutmon otin!” <sup>8</sup>.

Dedikim: “Ishqig’a ko’nglung o’rundur?”

Dedi: “Ko’nglumda jondek yoshurundur!”

Dedi: “Vaslig’a borsen orzumand?”

Dedi: “Bormen xayoli birla xursand”.

---

<sup>1</sup>Pesha – kasb, hunar; <sup>2</sup>Misraning ma’nosи: Bu ish bilan kasb-kor qilib, tirikchilik o’tkazib bo’lmaydi-kul!; <sup>3</sup>Joh ahli – mansab ahli, podsholar; <sup>4</sup>Bu misrada Farhod ishqning unda tug’ilmasidan burun, ya’ni ruh jonga bog’lanmagan paytdayoq paydo bo’iganini aytyapti; <sup>5</sup>Inkor qilmoq – qaytmoq; <sup>6</sup>Furqat – firoq, ayrılıq, judolik, yordan yiroqlik; <sup>7</sup>Balosho’r – balo keltiruvchi; <sup>8</sup>Misraning mazmuni: tildan rashk qilib,(yorimning) otini aytmayman.



Dedi: "No'shi labidin<sup>1</sup> topqay el bahr?"

Dedi: "Ul no'shdin el qismidur zahr"<sup>2</sup>

Dedi: "Joningni olsa la'li<sup>3</sup> yodi?"

Dedikim: "Ushbudir jonim murodi".

Dedi: "Ko'ksungni gar chok etsa bebok?"<sup>4</sup>

Dedi: "Ko'nglum tutay ham ayla deb chok!"

Dedi: "Ko'nglung fido qilsa jafosi?"

Dedi: "Jonimni ham aylay fidosi".

Dedikim: "Ishqdin yo'q juz ziyan bud"<sup>5</sup>

Dedi: "Bu keldi savdo ahlig'a sud".

Dedi: "Bu ishq tarki yaxshiroqdur!"

Dedi: "Bu sheva oshiqdin yiroqdur!"

Dedi: "Ol ganj-u, qo'y mehrin nihoni!"

Dedi: "Tufroqqa bermon kimyon!"

Dedi: "Joningg'a hijron kinakashdur"<sup>6</sup>

Dedi: "Chun bor vasl ummidi xushdur".

Dedikim: "Shahg'a bo'lma shirkatandesh"<sup>7</sup>!

Dedi: "Ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!"

Dedi: "Joningg'a bu ishdin alam bor".

Dedi: "Ishq ichra jondin kimga g'am bor?!"

Dedi: "Kishvar<sup>8</sup> beray, kech bu havasdin".

Dedi: "Bechora, kech bu multamasdin!"<sup>9</sup>

---

<sup>1</sup>No'shi lab – lab shirinligi; <sup>2</sup>Misraning mazmuni: U shirinlikdan elga faqat zahargina tegadi; <sup>3</sup>La'l – qip-qizil tosh. Bu yerda so'z istiora tarzida yorning labini anglatib kelgan;

<sup>4</sup>Bebok – beparvo; <sup>5</sup>Bud – borlik, mavjudlik; <sup>6</sup>Kinakash – kek saqlovchi, dushmanlik qiluvchi, o'ch oluvchi; <sup>7</sup>Shirkatandesh – sheriklik qiluvchi, sheriklikni fikr qiluvchi;

<sup>8</sup>Kishvar – mamlakat, viloyat, yurt; <sup>9</sup>Multamas – iltimos.



Dedi: "Ishq ichra qatling hukm etgum!"

Dedi: "Ishqida maqsudumg'a yetgum!"

Dedi: "Bu ishda yo'q sendin yiroq qatl".

Dedi: "Bu so'zlarining yaxshiroq qatl".



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Sovchilar munosabati bilan Shirinning Mehinbonuga aytgan rad javobini qayta o'qing. Undagi qizga xos nazokat, madaniyat va ayni paytda, qat'iyatga diqqat qiling.
2. Qizning qaysi so'zlarida ayrılıqdagi Farhodning ruhiy holati bayon etilgan?
3. **"Manga ne yor-u ne oshiq havasdur, Agar men odam o'lsam, ushbu basdur"** baytidagi yuksak ma'naviy dunyoqarashni izohlang.
4. Xusravning so'zlaridan uning shaxsiyatiga xos bo'lgan qaysi jihatlarni angladингiz?
5. Farhodning Xusravga bergen tanbehiga qo'shilasizmi? Uning so'zlariga munosabat bildiring.
6. Farhod va Xusrav dialogidagi har bir aytishuvni o'rtoqlaringiz bilan tahlil qiling. "Majnun", "majnunluq" so'zini qanday izohlaysiz? Ularning ma'nodoshini keltiring.
7. **"Dedi: – "Qay chog'din"** tarzida aytilan baytdan kelib chiqib, Farhodning oshiqligi qachondan boshlanganligi haqida fikr yuriting.
8. **"Dedi: – Vaslig'a borsen orzumand? Dedi: – Bormen xayoli birla xursand"** dialogi orqali ifodalangan ishqda tama va beg'arazlik, ishqibozlik va oshiqlik ziddiyatini sharhlang.
9. Farhodning javoblarini eshitgan Xusravning **"Bu ishq tarki yaxshiroqdur"** degan xulosaga kelganligi sababini tushuntiring.
10. Xusrav va Farhod dialogini yod oling.

*O'zini Farhoddan ishqda zabun, kuchda ojiz va ma'naviyatda tuban ekanligini anglagan Xusrav uni yuzma-yuz olishuvda hech jihatdan yengolmagach, makr-hiyla bilan mahv etmoqchi bo'ladi. Bir hiylagar kampirni yollab, Farhodning oldiga yuboradi. U yigitning ishonchini qozongach, shunday yolg'on xabarni yetkazadi: "Mehinbonu bilan Xusrav yarashdi. Xusrav uylanish*



*haqida og'iz ochgan edi, Mehinbonu jiyanini unga berishga rozi bo'ldi. Lekin Shirin bundan norozi bo'lib, o'zini o'zi o'lirdi. Chunki Farhod degan yigitni sevar ekan. Oxirida ham "Farhod! Farhod! deya jon berdi".*

*Bu xunuk xabar Farhodning bag'riga go'yo o'tkir pichoq urdi. Fig'on tortib, o'rnidan turmoqchi bo'ldi, lekin holsizlanib yiqildi. Toshlar uzra talpinmoqqa – emaklashga tushdi, badanidagi suyaklar qisirlab, sinmoqqa tushdi, boshlarini toshlarga urib, yig'ladi. Uning holiga hatto tog' bilan vodiy ham majnunvor yig'ladi.*

*Shundan keyin Farhod bu o'tkinchi dunyoning o'zi bilan bog'liq barcha jihatlari: sahro, vodiy, tog', osmon hamda ular atrofidagi darrandalar-u parrandalar bilan vidolashdi, ulardan bergen azoblari uchun uzr so'radi, hamdardlik, hamnafaslik qilganlari uchun ularga minnatdorchilik bildirdi. Umri tugab borayotganini fahm etib, yurtini, ota-onasi-yu yaqinlarini yod etdi:*

Tugangan fahm etib umri baqosin,  
Sovug' oh urdi yod aylab atosin.

Anosi ham ko'zi oldig'a keldi,  
Ko'zidin ikki qonlig' rud<sup>1</sup> ochildi.

Falak boshig'a urdi bir katora<sup>2</sup>  
Ki, to ko'ksiga – bo'ldi ikki pora.

Dedi: – "Ne hol erur, hayhot-hayhot,  
Netar jonimni olsang, ey ajal, bot<sup>3</sup>?!"

O'lardin burna<sup>4</sup> yuz o'lmak nedur bu?!

Boshim yuz tig' ila bo'lmaq nedur bu?!"

Kuyuk tang'a yolin<sup>5</sup> urmoq ne erdi?!

Momug'<sup>6</sup> uzra choqin urmoq ne erdi?!"

Bular fikri ichimdin urmayin bosh,  
Boshim tufroq aro kiryay edi, kosh.

<sup>1</sup>Rud – ariq, soy; <sup>2</sup>Katora – o'tkir qilich; xanjar; <sup>3</sup>Bot – tez; <sup>4</sup>Burna – burun, ilgari;

<sup>5</sup>Yolin – yolqin, alanga; <sup>6</sup>Momug' – chigitsiz paxta, chigit olingan paxta.



Buzug'luq, ey falak, ko'rguzdung oxir!  
Buzulg'an xotirimni buzdung oxir!

Bu ne insof edi, ey soqiyi dahr,  
O'lar chog'da qadah tutmoq to'la zahr?!

O'luk boshig'a tig' urmoq ne ya'ni,  
Bir-o'q bas, bedarig' urmoq ne ya'ni?!

Chu bu sho'robag'a yetti nihoyat,  
Dedi achchig'-achig' yig'lab bag'oyat.

Ki: "Ey bodi sabo, Tengri uchun qo'p,  
Yetib Chin-u Xito mulkiga, yer o'p!

Deman, xoqon qoshida bu o'g'uldin  
Ki, g'urbat ichra o'Igan xasta quldin.

Quyundek sadqa qil avval o'zungni,  
Chu bo'lding sadqa, mundoq de so'zungni:

Kim, ul ovorai bexonumoning,  
Bag'ir xunobidin bir qatra qoning,

Itib, olamda hirmon<sup>1</sup> birla o'ldi,  
Yuzungni ko'rmay armon birla o'ldi.

Ne qonlar yuqtı bag'ridin yoshig'a,  
Ne ishlar tushdi gardundin boshig'a.

Bo'lub afsun-u makr-u hiylatangez,  
Anga ne zulmlarkim qildi Parvez.

Agar tuzluk bila topsa hisobin,  
Berur erdi ming andoqning javobin.

Va lekin egrilikni aylab oyin,  
Yasab yuz nav' yolg'on, o'ylakim chin.

---

<sup>1</sup>Hirmon – mahrumlik, bebahralik.

Birovkim xilqatin qildi qazo rost,  
Qilur bovar<sup>1</sup>, necha so‘z bo‘lsa norost.

Manga, ne deyki, ul kofir ne qildi,  
Qazodin erdi qildi har ne qildi.

Budur komimki, Bahromi dilovar  
Ki, bor erdi manga ul yor-u yovar<sup>2</sup>,

Cheriklar jam’ aylab bemadoro<sup>3</sup>,  
Bu yon qilsa azimat oshkoro.

Qilichi to‘yg‘arib Xusravni jondin,  
Tilasa begunah qonimni ondin!

Eshitgach shoh bu o‘tlug‘ fasona,  
Agar boshidin ursa o‘t zabona,

Yamon ahvolima aylab yaqo chok,  
O‘zin tufrog‘larg‘a ursa bebok,

Qo‘shub yig‘losa bu ovorasini,  
Qayu ovora, bag‘ri porasini,

“Bo‘tam!” – deb goh bo‘zlab, goh o‘kursa,  
Jafo toshin sinuq ko‘ksiga ursa,

Yer uzra tojini urmoqqa qo‘yma,  
Tepib taxtini sindurmoqqa qo‘yma!

Degil mendinki: – Ey shohi jahongir,  
Topilmas tengri taqdirig‘a tadbir.

Mening ishq ermish avvaldin sirishtim<sup>4</sup>,  
Yana g‘urbatda o‘lmak sarnavishtim<sup>5</sup>,

---

<sup>1</sup>Bovar qilmoq – ishonmoq; <sup>2</sup>Yovar – yordamchi, madadkor; <sup>3</sup>Bemadoro – murosasiz, kelishmasdan, tortinmay; <sup>4</sup>Sirisht – yaratilish, tabiat, xulq; <sup>5</sup>Sarnavisht – taqdir, peshonaga yozilgan.



Ne haq yozganni ko'rmay chora bormu?!

Davoyi bo'lmayin ovora bormu?!

Bu ishga ollinga hukmi qazo ber,

Ne ish haqdin qazo bo'lmish, rizo ber!

Meni gar umrdin charx etti navmid,

Jahon mulkida bo'lsun shoh jovid.

Yiqilsa hujra, bo'lsun qasr obod,

Qurusa sabza, bo'lsun sarv ozod.

Anomg'a bu xabardin tushsa oshub,

G'amimdin xora uzra bo'lsa sarko'b<sup>1</sup>,

Jahong'a o't solib g'avg'osi har yon,

Yetardek bo'lsa vovaylosi har yon,

Bu vahshiyg'a xitob etsa: "qo'zum" – deb,

Bu bekasni sog'unsa: "yolg'uzum" – deb.

Aningdek bo'lsa sho'r-u izardobi

Ki, bo'lsa bartaraf burqa<sup>2</sup> hijobi<sup>3</sup>.

Qilibon yod g'amparvardasidin,

Yugursa – chiqsa to'qquz pardasidin,

Debon: – Ey, rishtayi jonimg'a payvand!

Uzorin aylasa parkand-parkand.

Sochidin bo'lsa yulmoq birla mahjur<sup>4</sup>

Ki, Chinda bo'lsa mushk o'rnida kofur.

Damimdin dud olib ketgaysen oxir,

Xaloyiqqa hijob etgaysen oxir!

---

<sup>1</sup>Sarko'b – bosh yanchuvchi, uruvchi; <sup>2</sup>Burqa' – yuzga tutiladigan parda, niqob;

<sup>3</sup>Hijob – parda; <sup>4</sup>Mahjur – hajrda qolgan, ayriliqda qolgan.

Degaysen: – Ey, yuzung ruhum g'izosi<sup>1</sup>,  
Izing gardi ko'zumning to'tiyosi!

Manga bas erdi bu dardi g'amandud  
Ki, to Tengri vujudum qildi mavjud.

Bukim, sen behad erding orzumand  
Ki, bo'lg'ay munising bir turfa farzand.

G'amimdin bo'lmaiding bir lahza dilxush,  
Hamisha bor eding zor-u mushavvash.

Gar atfol<sup>2</sup> etsa mayli sabza-vu bog',  
Kichikdin erdi qismim dard ila dog'.

Mening dardimg'a qolib jismi zoring,  
Mening dog'imdin o'rtanmak shioring.

Tilab yoqut, laxti xora<sup>3</sup> topting,  
Tilab xurshid, otashpora<sup>4</sup> topting.

Ulug' bo'lg'on soyi bechora bo'ldum,  
Diyor-u mulkdin ovora bo'ldum.

Manga ovoralig' to charx berdi,  
Firoqimdin ishing o'rtanmak erdi.

Bas, ermas erdi umre kuymaking bas,  
Kuyub-kuyub, kul o'ldung o'ylakim xas.

Bu xusron<sup>5</sup> baski, chun g'am rudi tuzdum,  
Sirishkim selidin ka'bamni buzдум.

Bukim men – men, manga o'lmak dag'i hayf,  
Ulus ahvolima kulmak dag'i hayf.

---

<sup>1</sup>G'izo – ovqat, oziq, yegulik; <sup>2</sup>Atfol – bolalar; <sup>3</sup>Laxti xora – qattiq tosh bo'lagi; <sup>4</sup>Otashpora – olov parchasi; <sup>5</sup>Xusron – zarar, ziyon.



Sen ar<sup>1</sup> dardimdin o'lsang ranjfarsoy,  
Manga ul ranj-u g'amdin voy-u yuz voy!

Meni roziligidin qilma navmid,  
Manga do'zax o'tini solma jovid..."

*Farhodning o'limidan quvongan Xusravning xursandchiligi ham, umri ham uzoqqa bormadi. Uning noqobil o'g'li Sheruya nogahon Shirinni ko'rib oshiq bo'lib qoladi. Qizga yetishish uchun o'z otasini o'ldiradi. Navoiyning fikricha, Sheruya emas, davron Xusravdan Farhodning xunini talab qildi! Bu dunyoda hech narsa javobsiz qolmaydi. Shirin ham Farhodning ketidan bu dunyoni tark etdi. Mehinbonu bu musibatni ko'tarolmay jon berdi. Bu muhabbat mojarolari Chinga ham borib yetgan edi. Farhodning ko'kaldoshi (emikdoshi) Bahrom Armaniyaga keladi vaadolat, tartib o'rnatadi. Uning talabi bilan Sheruya otasi mamlakatga yetkazgan ziyonlar uchun xazinasidan tovon to'lab, yurtiga qaytadi.*



### Savol va topshiriqlar:

1. Farhodning o'limi oldidan butun borliq, tabiat bilan vidolashishi, ulardan uzr so'rashi, minnatdorchilik bildirishini qanday izohlash mumkin?
2. Farhodning ajalga, falakka, dunyo (dahr)ga murojaati berilgan baytlarga diqqat qarating, ularni tahlil qiling.
3. Qaysi misralarda Vatanga bo'lgan mehr, sog'inch o'z ifodasini topgan?
4. O'lim oldidagi o'g'ilning bodi sabo orqali otasi bilan vidolashuvi Sizda qanday taassurot qoldirdi?
5. "Manga, ne deyki, ul kofir ne qildi, Qazodin erdi qildi har ne qildi" baytida inson taqdiriga qay tarzda yondashilgan? Bu masala yana qaysi misralarda yoritilganligini toping.
6. Farhod o'zidan ayrilgan onasining holatini qayday tasavvur qiladi? Xuddi otasiga bo'lgani kabi onasiga ham xayolan taskin, dalda beradimi? Buning sababini izohlashga urining.
7. "Men ishqni qanday angladim?" mavzusida uy inshosi yozing.

<sup>1</sup>Ar – «agar» so'zining qisqartirilgan shakli.

## “FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI HAQIDA

Aziz o’quvchi! Mana, Siz Navoiy dahosining mahsuli bo’lmish “Xamsa”ning ikkinchi dostoni – “Farhod va Shirin”dan keltirilgan parchalar bilan tanishdingiz. Agar dostonning voqealar tizimi, ya’ni sujeti bilan tanishibgina qolinsa, ishqiy mavzuda yozilgan ertakmonand hikoya o’zlashtiriladi, xolos. Aslida bu sujet ortida, asosan, ramziy, shuningdek, majoziy ma’nodagi irfoniy (so‘fiyona) haqiqatlar yashiringan. Har bir obraz, lavha ortidagi ana shu haqiqatlarni anglabgina dostonning asl ma’nosiga yo’ll topish mumkin. Lekin biz oldiniga mazkur mohiyatni yoritishdagi adibning poetik mahoratiga e’tibor qaratamiz. Chunki doston, avvalo, badiiy adabiyot namunasidir. Navoiy dostondagi mazmunni, har bir fikrni go’zal badiiyat qobig’ida berishga intiladi. Siz o’rgangan parchadagi dastlabki baytlarga diqqat qilaylik.

Shabistonida tug’di bir yangi oy,  
Yangi oy yo’qki, mehri olamoroy.

Tushunilishi qiyin, izohtalab so’z va birikmalar ma’nosini aniqlab olamiz: shabiston so’zini ikki ma’noda tushunish mumkin: kechasi va yotoqxona, tug’di – tug’ildi, yangi oy – Farhod nazarda tutilmoxda, mehri olamoroy – olamni yorituvchi quyosh. Ularga tayangan holda quyidagi mazmunni uqish mumkin: ***Kechasi (yotoqxonada) yangi oy tug’ildi, uni yangi oy demaki, olamni yorituvchi quyosh edi.*** Ko’rinadiki, *shabiston* so’zi orqali iyhom (lutf) san’ati (bir so’zni bir o’rinda ikki ma’noda qo’llash) yuzaga kelgan. “Shabiston” va “yangi oy” so’zlari orasida mantiqiy aloqadorlik bor: oy tunda (shabistonda) chiqadi. Ayni paytda, bu ikkisida istiora san’ati ham qo’llangan. Istiora shunday she’riy san’atki, misralarda o’xshayotgan narsa ishtirot etib, o’xshatilayotgani tushib qoladi. Misolimizdagi baytning birinchi misrasi to’liq holda quyidagi fikrni nazarda tutadi: ***Shabiston (tun)dek xo-qonning hayotida yangi oy kabi Farhod tug’ildi.*** Xoqonning hayoti (o’xshatilayotgan narsa) Farhod tug’ilgunga qadar farzandsizlik tu-fayli qorong’u kechadek qayg’uli bo’lganligi shabistonga o’xshaydi. Ana shu o’xshatilayotgan narsa tushib qolib, uning ma’nosи o’xshayotgan (shabiston)ga, misra davomida *Farhod* so’zi tushib qolib, uning ma’nosи *yangi oyga* yuklangan va istiora orqali go’zal badiiy ifoda yuzaga kelgan.



Ochildi bog'ida bir otashin vard,  
Demaykim vard, balkim shu'layi dard.

Vard – atirgul. Qolgan so'zlar sizga tushunarli. Baytning mazmunini uqishga harakat qilamiz. Zohirda ko'rinish turgan ma'nosi quydagicha: Bog'ida bir alvon atirgul ochildi, atirgul demaki, u bir dard shu'lesi edi. Atirgul deyilganda Farhod nazarda tutilar ekan, "bog'ida" deyilganda xoqonning oilasi nazarda utilayotganini, "ochildi" esa tug'ildi so'zining matndagi ma'nodoshi ekanligini anglagan bo'lsangiz kerak. Yuqoridagi kabi bu baytda ham istiora qo'llangan. Shu yerda savol tug'ilishi mumkin: nega Farhod ikkinchi misrada "shu'layi dard" deb ta'riflanyapti? Buni, yaxshisi, keyingi bayt sharhlangandan so'ng izohlash to'g'ri bo'ladi.

Kiyurdi ilgiga davron nagine,  
Nigin o'rnila la'li otashine.

Farhod bebaho bir uzukka qiyoslanadi: davron xoqonning qo'li (ilgi)ga uzuk (nigin) taqdi, yo'q, uzuk deya yonib turgan otashin la'lni barmog'iga "kiyurdi". Bu o'xshatish bejiz emas. Yuqorida biz muallif bu asarni "shavq dostoni" deb ataganini, buning sababi unda ishq kuylanganligini, ishq talqin qilinganligini, ishq ulug'langanligini aytgan edik. Demak, dostondagi asosiy tushuncha – bu ishq. Ishq esa otashga, olovga o'xshatiladi. Uzukning bag'riga otashin la'l joylanganidek, Farhodning qalbiga otashdek ishq tashlangan. La'l qimmatba-ho toshdir. Bu – ishq tuyg'usining bebaholigi ifodasi. Oldingi baytdagi "shu'layi dard" ana shu ishq olovining asari ekanligi ma'lum bo'ladi. Shuning uchun chaqaloqning

Yuzinda ishq asrori yozilg'on,  
Ichinda dard ta'vizi qozilg'on.

Navoiy chaqaloqqa nega "Farhod" ismi qo'yilganligini ikki yo'l bilan kitobat san'ati orqali izohlaydi. Kitobat – arab alifbosi harflari, yozuvi asosida o'ziga xos tashbih (o'xshatish) yaratishni yoki aytidayotgan fikrni ifodalashni ko'zlaydigan she'riy san'at. Adibning birinchi izohi shunday:

Qo'yib yuz himmat-u iqbol-u davlat,  
Hamul far soyasidin topdi ziynat.

"Himmat"dan "h", "iqbol"dan "alif" (uni "i" deb ham, "o" deb ham,



“a” deb ham ishlatish mumkin), “davlat”dan “d” ni olib, qo’shsak, “- hod” paydo bo’ladi, buni “far”ning “soyasi”, ya’ni keyiniga olsak, “Far- hod” so‘zi hosil bo’ladi.

Farhod ismining ikkinchi izohi:

Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,  
Hurufi ma’xazin besh qism qo‘ydi:  
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,  
Biror harf ibtidodin aylabon fard.

“Firoq” so‘zidan “f”, “rashk” so‘zidan “r”, “hajr” so‘zidan “h”, “oh”dan “o”, “dard” so‘zidan “d” harflarini jamlab, donolar chaqaloqqa “Farhod” ism berdilar. Qo‘yilgan ismda Farhodning ma’naviy va jismoniy fazilatlari aks ettirilgan.

Farhodning ta’rifiga bag‘ishlangan yana bir shohbayt:

Demonkim, ko‘ngli pok-u, ham ko‘zi pok,  
Tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pok.

Mazmuni: Farhodni faqat ko‘ngli pok-u, ko‘zi pok demayman, ayni paytda, uning tili pok-u, so‘zi pok-u, o‘zi pokdir. Baytda takrir – bir so‘zni davomli qo’llash orqali ma’noga, ya’ni bosh qahramonning ham tashqi, ham ichki olami pok ekanligiga urg‘u beradi. Ayni paytda, so‘z takrori satrlarga ajib bir musiqiylik ato etgan. Shirin vasf qilingan baytlar ham o‘zgacha jozibaga ega. Mana bu baytda Shirinning yuskak ma’naviy qiyofasi hamda beqiyos tashqi go‘zalligi tashbih san’ati vositasida tasvirlangan:

Harimi iffat ichra shoh ul ermish,  
Sipehri ismat uzra moh ul ermish.

Muallif iffatni haramga o‘xshatar ekan, Shirinni shu haramning shohiga mengzaydi. Ismat (nomus, poklik)ni sipehr (osmon)ga o‘xshatib, Shirinni bu osmonning oyiga qiyos qiladi. Ayniqsa, undagi turkiy qavm ayollariga xos eng baland ma’naviy fazilatlar kishini maftun etadi. Uning uchun martaba, boylik, hashamat kabi o’tkinchi dunyo matohlarining hech qadri yo‘q, aksincha, muhabbat va pokiza inson shaxsiyati – eng oliy qadriyat. Qizning:

Manga ne yor-u ne oshiq havasdur,  
Agar men odam o‘lsam, ushbu basdur! —  
so‘zlari uning hayotdagisi shiori edi.



Asarni o'qib, shu tarzda tahlil qila borsangiz, Navoiyning fikrni berish, so'z qo'llash, holatni ifodalash mahoratini kashf qila borasiz, undan zavq olasiz, hayratingiz ortadi.

Endi yuqorida biz tahlil qilgan go'zal badiiy shakl libosi ostidagi mazmunga va uning mohiyatiga to'xtalamiz.

Bilmox kerakki, asardagi Farhod va Shirin shunchaki bir-biriga ko'ngil qo'ygan yigit va qiz timsollarigina emas. Dostonda Farhod poklanish matlabi ila komillik sari intilayotgan solik (mo'min, muslim banda)ning timsoli. Uning tasavvuf yo'li – tariqat orqali haqiqiy mahbub – o'z Yaratuvchisi tomon intilishi, bu yo'ltagi mashaqqatlari ramziy va ma'joziy shaklda tasvirlangan.

Mazkur bosh qahramonning yurti bo'lmish Chin mamlakati ham ramziy bir makon. Negaki o'tmishda Chin (Xitoy)da musulmon dinida bo'lgan xoqon o'tganligi, yolg'iz o'g'il farzand ko'rib, uni Qur'on yod oldirgani haqida gapirish, badiiy asarda bo'lsa-da, tarixiy haqiqatga zid bo'lar edi. Unda daho adib nega bosh qahramon Vatani deb aynan shu yurtni tanladiykin? Chin qadimdan ajdodlarimiz tomonidan donishlik, san'at, naqsh va nafosat olkasi sifatida qabul qilingan va e'tirof etilgan. Navoiy e'tiqodining asosi bo'lgan naqshbandiylik ta'limotiga ko'ra iyomon va islom deya atalmish haqiqiy (ya'ni ko'ngilga solinadigan go'zal ma'naviy) naqsh, nafosat va donishlik inson qalbida bo'lmog'i dar-kor. Ko'rindiki, ana shu fazilatlar bilan bezangan makongina haqiqiy Chin hisoblanadi. *Chin* so'zining ona tilimizda asl, haqiqiy so'zlari bilan ma'nodoshligini Siz bilasiz. Navoiy bu bilan pokiza islomiy e'tiqod, iyomon ustuvorligi, haqiqat vaadolat hukmron bo'lgan yurt, jamiyat va insonning ko'ngil olami asl Chin mamlakati (haqiqiy insoniy davlat) bo'ladi degan fikrni ilgari suradi. Aks holda u soxta, chirkin, tanazzuli muqarrar bir muvaqqatlik (vaqtinchalik)dan boshqa narsa emas.

Farhod visol yo'lida yovuz kuchlar, zolim shaxslarga duch kela-di. Shirin ham bu yovuz va zolimlardan omonda emas. Ular ilohiy vi-solga yetishishdagi to'siqlar, mashaqqat va sinovlarning ramziy ifoda-laridir. Ayni paytda, bosh qahramonlarning o'zlari ham ramziy ma'no kasb etadi. Shirin Farhod uchun jismda jon kabi asraladigan nihoyatda go'zal, o'ta nafis va nozik **iymon** ko'zgusidir. Shunday ko'zguki, unda Yaratganning jamoli jilva qiladi. Farhodning Arman yurti (bu



ham ramz) – Shirinning huzurigacha bo‘lgan yo‘ldagi tortgan azoblari bir insonning komil iymon yo‘lida chekadigan mashaqqatlarining timsollari edi.

Ha, aziz o‘quvchi! Komil iymonga yetishish oson emas, nihoyatda qiyin, og‘ir. Sizga qattiq ranj yetishiga sabab bo‘lgan bir insonni tezda kechirib yuborish, ya’ni gina, nafratni yengish osonmi? Yoki nafidan zarari ko‘p, zarari bo‘lmasa-da, foydasi yo‘q o‘tkinchi hoy-u havas (u moda bo‘ladimi, zamonaviylik niqobi ostidagi millatimizga yot kiyinish, yurish-turish shakllarimi va h.k.)lardan tiyilish-chi? Qiyinligini, albatta, e’tirof etasiz. Insonning iymoniga bolta uradigan ana shu gina-kudurat, nafrat tuyg‘ulari, jaholatga, o‘zlikni yo‘qotishga sabab bo‘ladigan havaslar dostonda Xusrav deb atalgan shayton, nafs hukmronligining lashkarlari bo‘ladi.

Hayotda komillikka erishgan har inson Farhoddir. U aslo xayoliy, romantik to‘qimagine emas. Uning darajasi faqat kitoblarda bo‘ladigan qo‘l yetmas, ko‘z ilg‘amas maqom ham emas. Qaysi inson jism qal‘asida (xuddi Farhod Arman yurti qal‘asidagi kabi) Shirin yanglig‘ go‘zal iymonining himoyasida bo‘lsa, u shu maqomga ko‘tarila oladi. Aksincha, qaysi kimsa gina, nafrat domiga cho‘mgan bo‘lsa, amal, boylik, shuhrat kabi dunyo matolari orqasidan o‘zligini yo‘qotsa (ya’ni shularni deb o‘zgalarning haqiga xiyonat qilsa, kimningdir dili og‘rishi-ga, uning og‘rinishiga sabab bo‘ladigan biror ish qilsa, Yaratganning amriga xilof amallar qilsa) shayton tiynatidagi Xusravga yoki uning lashkarlaridan biriga aylanadi.

Endi anglagan bo‘lsangiz, dostonidagi Farhodning Shirin istiqomat qiladigan qal‘ani, yurtni himoya qilishi tasviri, aslida, komil iymonli shaxsning qalb qal‘asi ichidagi dunyodagi eng bebaho, go‘zal ne’mat – Yaratganning iymon tuhfasini asrashi, unga tajovuz qilayotgan shayton lashkarlaridan, nafs qutqalaridan himoya qilishining ifodasidir.

Demak, inson har bir xatti-harakati, aytayotgan so‘zi, muomalasi va amali bilan o‘zaro ikki qarama-qarshi kuchlardan biri – yo iymon, yo shayton tomonida bo‘ladi. Navoiy saboqlaridan xulosa shuki, har birimiz uchun Farhod yo‘li – ishq, iymon yo‘li mashaqqatli, ammo oxiri xayrli, sharaflı, aksincha, Xusrav va Sheruya timsollarining topgan qismatlari bizga bir ibratdir.



## ***Nazariy ma'lumot***

### **KOMIL INSON**

Tasavvuf – musulmon olamida (mamlakatlarida) keng tarqal-gan, butun dunyoda mashhur bo'lgan Islom diniga asoslanuvchi buyuk ta'lilot. Tasavvuf orqali insoniyat Islom dinining ichki va tash-qi go'zalligini, uning buyuk insonparvarlik mohiyatini anglab yetdi. Tasavvufning maqsadi insonni ruhiy, ma'naviy jihatdan poklash, ya'ni komil insonni tarbiyalashdir. Qalb pokligiga erishgan, yuksak ma'naviyatli, aqlan va jismonan barkamol shaxs komil insondir. Aksariyat adabiyotlarda komil inson ruhiy poklangan inson tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Demak, ruhni poklash zarur. Poklanishning yo'li esa bitta, u nafsni yengishdir.

Nafs deganda yemoqlik, ichmoqlik, kiymoqlikdan tashqari yana johillik, ilmsizlik, manmanlik, kibr-u havo, dunyoparastlik, zulm, o'g'rilik, tanballik, tama, ko'rolmaslik, baxillik, mansabparastlik, ko'ngli torlik, g'azab, umuman, inson ruhini, qalbini bulg'aydigan, uni Allohdan uzoqlashtiradigan barcha illatlar yig'indisi tushuniladi.

Qur'oni karimning bir qator oyatlarida ochiq yoki ishora bilan nafsni jilovlash, yengish lozimligi mazmunida hukmlar bor. Shuningdek, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislari-da ham bu borada ko'rsatmalar talaygina. Misol tariqasida, Hazrati Aliga aytgan ushbu nasihatni (hadisi)ni keltirish mumkin: "Yo Ali, valoyat (avliyolik) maqomiga yetishgan zotlar ko'p-ko'p ibodat qilgan-laridan emas, o'z nafslarini yengganliklaridan bunday ulug' darajaga erishganlar". Nafs – insonning juda qudratli, xavfli dushmani. Unga tobe inson ma'naviy va jismoniy tubanlikka, halokatga mahkum.

Shuning uchun Navoiy: "Nafs itin qilsang zabun, olamda yo'q sendek shujo" — deb yozsa, "Qissasi Rabg'uziy"da bir nafsning ishini yetmish shayton qilolmaydi deb ta'kidlanadi.

"Farhod va Shirin"ga qaytaylik. Dostondagi Farhod olishib yeng-gan ajdaho, Ahraman dev, temir odam shunchaki xayoliy, afsonaviy obrazlar emas, balki har bir inson (masalan, Farhod)ning botini (ichki



olami)dagи nafsoniy istak, shaytoniy intilishlarning ramziy timsollaridir. Farhodning oshiqligi uni bu nafs lashkari bilan kurashga otlantirdi, ishq unga kuch, sabot va iroda ato etdi. Ko'rinadiki, nafsnи yengish quroli — bu ISHQ ekan.

Tasavvufda ishq deganda faqat mehr, sevgi kabi tuyg'ulargina emas, ulardan tashqari yana iroda, sabot, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g'ayrat, kamtarinlik,adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalik, shirinso'zlik, shafqat, umuman, inson qalbini, ruhini poklashga xizmat qiladigan, uni Allohga yaqinlashtiradigan barcha ezguliklar, pokliklar yig'indisi tushuniladi. Ishqning o'rni ko'ngilda bo'ladi. Ko'ngil ishq tufayli poklanadi. Ko'ngil poklansa, ishq yanada o'tli, nurli bo'ladi, ilohiy mohiyat kasb etadi. Tasavvufga ko'ra ko'ngilni poklash ham bir ilmdir. Ilm esa ustozlardan o'rganiladi. Farhodning ustozlaridan kasb o'rganishini eslang. Ular shunchaki hunarmand ustalar obrazi emasdi.

Bonyi – ko'ngilga ishq binosini qurgan va qurishni o'rgatgan piri komil. Moniy – Alloh ishqini qalbga naqshlash sirlarini anglatgan ustoz. Qoran – ko'ngildagi toshdan ham qattiq nafsoniy istaklarini parchalash ilmini bildirgan murshid. Shular kabi yana Suhaylo, Suqrotdek ulug'lardan ishq sirlarini, poklanish ilmini o'zlashtirgan insongina hayotlik davrida o'z botinida dev, ajdaho, arslondek bo'lgan nafsoniy illatlarni yenga biladi, kundalik hayotda duch keladigan o'z nafsigi qul Xusrav, Sheruya kabi odam qiyofasidagi shaytonlarga bas kela oladi. Bir so'z bilan aytganda, u insoniy o'zligini yo'qotmay, poklanish yo'lida davom etadi. Poklanishga erishgan komil inson, ayni paytda, yuksak axloq va odob timsoliga aylanadi. Shu ma'nda Farhod o'zbek adabiyotida mukammal yaratilgan komil inson obrazidir.





## XOJA

(1480—1547)

Xojaning to‘liq ismi Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxoja bo‘lib, millatimiz tarixida davlat va din arbobi, lirik va epik janrlarda bir-dek barakali ijod qilgan betakror adib sifatida alohida o‘rin tutadi. Toshkentlik mashhur avliyo Zangi Ota avlodlaridan. 1480- yilda Ashxobod yaqinidagi qadim Niso shahrida shayxulislom Abdulvahhobxoja oilasida tug‘ilgan.

Dastlab otasidan, so‘ng e’tiborli murabbiylardan tahlil ol-gan Poshshoxoja yigitlik bo‘sag‘asidayoq davlat xizmatiga kirishadi, ya’ni 16 yoshida temuriylar saroyida ishlay boshlaydi. Keyinchalik shayboniylar hukmronligi davrida Nisoga tegishli Darun viloyatiga hokim, Karmana hokimi Jonibek Sulton hukumatida saroy mulozimi vazifalarida ishlaydi. 1529- yilning kuzidan Navoiyning kindik qoni to‘kilgan Hirotning, 1534- yildan esa Balx shahrining shayxulislomi vazifasiga tayin etiladi. Umrining so‘nggi yillarda davlat ishlaridan iste’fo bergen adib Buxoroga qaytadi va butun borlig‘ini badiiy ijodga, xalqning ma’naviy tarbiyasiga bag‘ishlaydi. Xoja 1547- yilda Buxoroda vafot etadi va Bahouddin Naqshband qabri yonida dafn qilinadi.

Xoja XII asrda Buxoroda Abduxoliq G‘ijduvoniy asos solgan mashhur “xojagon” silsilasining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan edi. Bu silsila dunyoga Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy, Abdurahmon Jomiy kabi ko‘plab dovruqli murshidlarni yetkazib bergen.

Xojaning o‘g‘li Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahbob” asarida otasining qilgan ishlari, hayot tarzi, axloq-sajiyasi haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan. Darhaqiqat, Xojaning mavqeyi zamonasida baland bo‘lgan. Bu birgina uning nasl-nasabi sababidan emas, ilmi, fe’li,adolati tufayli ham edi. XVI asrning mashhur shaxslaridan “Maxdumi a’zam” nomi bilan shuhrat qozongan Xojagi Kosoniy Xoja haqida fikr yuritib, “shahbozi balandparvoz” (baland uchuvchi lochin) deb baholagan ediki, bu bejiz emas. “Muzakkiri ahbob” muallifi Xojaning fazilatlari haqida so‘z yuritib, she’r ilmini, insho (yozishma san’ati)ni mukammal bilganini xabar qiladi. Jumladan, podsholikning chet ellarga jo‘natiladigan xatlarini ham ko‘pincha shu kishi yozgan ekan.



**Adabiy merosi.** Nisoriy uning turkcha va forscha devon tarib qilganini xabar beradi. Biroq bu devonlar bizgacha yetib kelgan emas. Taqdiri noma'lum. Nisoriy keltirgan turkiy va forsiy baytlar, haqiqatan ham, Xojaning iste'dodli shoirlardan bo'lganini ko'rsatadi. Xususan, bir g'azalini Zahiriddin Boburga yuborganini va she'r unga ma'qul bo'lib, maqtaganini qayd etib o'tadi. Mana o'sha she'r:

Kunduz avqotim<sup>1</sup> sening hajringda nolon kechadur,  
Kecha ham zulfung kabi holim parishon kechadur.  
Anbarin zulfung xayolidin ko'zumga, ey pari,  
Yil-u oy-u soat-u kun bori yakson kechadur.  
Ulki, jondin kechadur, sham'i visolingni ko'rub.  
Vah, na xush vaqt-u na xush soat na oson kechadur.  
Ravshan o'lg'ay davlati vaslida hijron oqshomi,  
Gar gunohimdin bilib, ul mohi tobon kechadur.  
Xoja yanglig' nola qil, zulfi g'amidin kechalar  
Kim, mahali nola-vu faryod-u afg'on kechadur.

Darhaqiqat, she'r yuksak san'atkorlik bilan yozilgan. Shoир so'zlarning ma'no va ohang tovlanishlaridan juda ustalik bilan foydalangan. Masalan, g'azalda radif bo'lib kelayotgan "kechadur" ko'p o'rinnlarda ikki ma'noda kelyapti. Uchinchi-to'rtinchi baytlarda bular yoniga "voz kechmoq", "gunohini kechmoq" ma'nolari ham qo'shilyapti. Bir so'z bilan aytganda, butun she'rni birgina so'z — "kechadur" har maqomga solib o'ynatmoqda. Bu juda nozik, yuksak mahorat tablab qiladigan ishdir. Dastlabki baytlariga ko'z tashlaylik.

She'rning har bir misrasi bir necha xil ma'no ifodalaydi. Jumladan, matladagi ilk misraning birinchi ma'nosи: kunduzi vaqtim sening hajringda nola bilan o'ta (kecha)di. Ikkinchi ma'nosи: kunduzi kunim sening hajring tufayli nolalarga to'la qora tun (kecha)dir. Birinchi misrada oshiqning kunduzgi holati ifodalangan bo'lsa, keyingi misrada tun (kecha)dagi to'lg'onishlari aks etgan. Misraning birinchi ma'nosи: Bu kecha zulfiq kabi holimni parishon qilgan kecha (tun)dir. Ot so'z turkumiga mansub "kecha" so'zi misraning boshi va oxirida ega va ot ke-

<sup>1</sup>Avqot – vaqtlar.



sim munosabatida takror qo'llanyapti. Shu misraning ikkinchi ma'nosi: kechasi mening holim zulfiq kabi parishonlikda o'ta (kecha)di. Misra boshidagi "kecha" – ot so'z turkumi, misra oxiridagi so'z esa – fe'l, ega va fe'l kesim munosabatida. Misrani boshqacharoq, ya'ni kechasi holim zulfiq kabi parishonlikda o'tadi ma'nosida talqin qilsak, bu so'zlar orqali hol va fe'l kesim munosabati yuzaga keladi. Bu yerda zulf so'zi o'ziga salmoqli badiiy yukni olmoqda: qora zulf kabi kecha qorong'u, yoyilgan zulf kabi oshiq holi parishon. Radif bo'lib kelayotgan "kechadur" so'zlari orqali yuzaga keltirilayotgan badiiy san'atlarga e'tibor bering: bu so'z ifodalayotgan ikkala misradagi birinchi ma'nolar ham, ikkinchi ma'nolar ham o'zaro shakldosh bo'lib, tajnis san'atini yuzaga keltirmoqda. Aynan bir so'zni ifodalagan birinchi va ikkinchi ma'nolar-da esa takrir san'ati hosil qilingan.

Ikkinci baytning birinchi ma'nosi: ey pari, anbar hidli qop-qora sochlaring xayolida yil, oy, soat, kunning bari ko'zim oldida bir xil (yakson), ya'ni qop-qora kecha (tun)dir. Ikkinci ma'nosi: ey pari, anbar hidli qop-qora sochlaring xayolida yil, oy, soat, kunning hammasi ko'zimga bir xil (yakson), ya'ni vayrona kabi kechadir (o'tadi). Shu baytning uchinchi ma'nosi: "yakson" (bir xil) so'ziga "yil, oy, kun, soat birdek o'tadi", degan ma'no ham berish mumkin. Shunda birinchi aniqlovchi so'z "yil" bo'lganligi uchun hammasi birdek, ya'ni yildek o'tadi degan mazmun kelib chiqadi. Shu tariqa g'azalning har bir baytidan ko'pdan ko'p ma'nolarni uqish mumkin.

Xojaning "Maqsad ul-atvor" nomli bir dostoni ham yetib kelgan. Doston 1514–1520- yillarda Jonibek Sulton nomiga bitilgan bo'lib, Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sining birinchi dostoni "Maxzan ul-asror"ga nazira shaklida (ergashib) yozilgan. Xoja adabiyot tarixida ko'proq hikoyalar muallifi sifatida qoldi. Uning bizgacha ikki hikoyalalar to'plami – Temur Sultonga bag'ishlangan "Miftoh ul-adl" ("Adolat kaliti"), Kistan Qaro Odilga bag'ishlangan "Gulzor" asarları yetib kelgan. "Miftoh ul-adl" 1508–1510- yillarda, "Gulzor" 1538- yilda yozilgan. Har ikkisining birgalikda muqovalangan bir necha nusxasi saqlanib qolgan bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti Qo'lyozmalar fondida saqlanadi. 1962- yilda ulardan ayrim namunalar chop etilgan.



### Savol va topshiriqlar:

1. Yuqorida berilgan ma'lumotlardan Xojaning oilaviy muhiti haqida sizda qanday tasavvur uyg'ondi?
2. "Kechadur" g'azalining yuqorida sharhlanmagan keyingi uch baytini tahlil qiling, shoirning mahoratini izohlang.
3. Xojaning adabiyotimizda tutgan o'rni, ijodining ahamiyati haqida fikr yuriting.

### HIKOYAT

Bir podshoh bor edi. Bisyor odil erdi.

Bir kun vazirina aydi:

– Haj tavof qilmoqqa borurman, san borurmusan?

Vazir aydi:

– Ey podshohim, taxtni bo'sh qo'yub, Ka'bag'a borsangiz, el-xaloyiq boshtoq bo'lmasmu?! – tedi.

Podshoh aydi:

– Boshtoq bo'lmas, yo'q ersa, manga haj qilg'on hojining savobin sotg'un olib bering, qiyomatda hojilar birla turgayman.

Vazir: "Podshoh uchun haj sotg'un olmoq kerak" — deb istab yurur erdi, bir kimarsag'a yo'luqti. Ul kishi aydi:

– Falon yerda bir zohid borturur. Yigirma qatla Ka'bag'a yayog' boribturur va taqi haj qilibturur va hech kishining oshin yemas, anga boring. Ul bir haj sotsa, podshoh uchun oling.

Borib ul zohidni podshohga olib keldilar. Podshoh aydi:

– Ey zohid, bir yo'li qilg'on hajining savobin bizga soturmisani?

Zohid aydi: – Nega olursiz?

Sulton aydi: – Ming qizil tanga berayin.

Zohid aydi: – Ming qizil tanga oz turur.

Sulton aydi: – Ey zohid, oz bo'lsa, o'n ming qizil tanga berayin.

Zohid aydi: – Oz turur.

Sulton aydi: – O'zing na tilasang tilagil.

Zohid aydi: – Ey podshohim, bir haj na bo'lg'ay, yigirma hajimning savobini sizga berayin, siz bir soat adl qilg'oningning savobini manga bering.



Sulton aydi: – Ey zohid, bir soat adl qilg'onning savobi na bo'lur?

Zohid aydi: – Bir soat adl qilg'onning savobi odamlarning va farishtalarning va hurlarning ibodatidin ortuq turur.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Podshohning adolatli hukmdor ekanligi qaysi o'rinnlarda aks etgan deb o'ylaysiz?
2. **"Yigirma qatla Ka'bag'a yayog' boribturur va taqi haj qilib-turur va hech kishining oshin yemas"** jumlasini o'qib, sizda zohid haqida qanday taassurot uyg'ondi?
3. Yigirma hajning savobidan ko'ra bir soatlilik adolatning savobi ortiqligi haqidagi fikrga o'z mulohazalariningizi bildiring.

## **HIKOYAT**

Kunlardan bir kun Iskandar Zulqarnayn Hamadon shahriga kelib xiroj talab qildi. Hamadon begi bahodir erdi, xiroj bermadi, urushsti. Taqi bekning odi Doro erdi. Nechakim urushtilar, Doroni yenga bilmadilar. Iskandar aydi: ne hiyla qilib Doroni tutg'aymiz? Vazirlar aydi: Doroning bir inoq quli<sup>1</sup> bor, alarga elchilar yiboring, taqi aytsunlar: sizlar Doroni o'ldursangizlar, harna<sup>2</sup> murodlaringiz bo'lsa oni qilurmiz. Iskandar elchi yibordi. Shul so'zni aytib elchi borgandan so'ng shul xabarni aytibdur. Ondin so'ng ul inoq ikki qul bir kecha Iskandarning yoniga kelib va'dani bir yerda qo'yub, o'ldurmaqchi bo'ldular. Ondin so'ng Iskandarning bir oti Zulqarnayn erdi. Yana Iskandar aydi: siz ikkingiz Doroni o'ldursangizlar, lashkarda barchadin yuqori o'runk bero-yin, deb va'da qildi ersa, bu qullar bosh urdilar<sup>3</sup>. Tonglosi<sup>4</sup> ikki lashkar bir-birisiga saf tortib ro'baro' bo'ldilar. Ondin so'ng ul ikki inoq qul Doroni o'ldurub, boshini olib keldilar ersa, Iskandar Doroni buyurdikim, yaxshi qilib e'zoz qilib ko'munglar, ondin so'ng Doroni ko'mg'on yerda ikki dor qiling, bu ikki inoq qulni o'ldurung, dorg'a osing, deb amr qildi. Ul qullar aydilar: ey Iskandar, bizga ne va'da qilib erding?

<sup>1</sup>Inoq quli – hukmdor qattiq ishongan saroy mulozimi ma'nosida; <sup>2</sup>Harna – har qanday; <sup>3</sup>Bosh urdilar – bosh egdilar, ya'ni rozi bo'ldilar; <sup>4</sup>Tonglosi – ertasi.



Odilturursan, nechun zolim sultonlartek va'dani buzarsan? Iskandar aydi: man va'dani buzmasman. Doro sizlarni muncha tarbiyat qilib, sizlarga o'run berdi, shartimga butunman, vale sizlar xointurursizlar, muncha vaqtdan beri Doro sizlarni tarbiyat qilib asradi, sizlarga o'run berdi, aning haqini bilmadingiz, anga yamonlik qildingiz, o'Iturdingiz. Emdi maning haqimni taqi bilmassizlar. Emdi bu lashkarda sizlarga yuqori o'run berurman – dorturur, man shartimda tururman. Sizlarning joyingiz bu turur.



### Savol va topshiriqlar:

1. Iskandar maqsadiga yetishishda nechta hiyla qo'lladi? Uni hukmdor va lashkarboshi sifatida qanday baholaysiz?
2. Doroning saroy mulozimlari (ikki quli)ga berilgan jazoni adolatlideb bilasizmi?

### HIKOYAT

Ayturlarkim, Sulaymon alayhissalomg'a pashsha<sup>1</sup> kelib yeldin shikoyat qildi, aydi: yel jihatidin bir lahza bu olamda farog'at bila ucholmon, rizqimiz uchun bisyor tashvishga qolibmiz. Yel saning farmoningda turur, hukm qilg'ilkim, bizg'a mazohim<sup>2</sup> bo'lmasun. Sulaymon alayhissalom aydilar: san so'zingni arz qilding, emdi yeldin so'rak'aylukkim, ul ne so'z der. Yelni chaqirdilar. Yel kelgach, pashsha qochib ketti, har necha qaradilar, mavjud bo'lmasdi. Sulaymon alayhissalom aydilar:adolat qoidasi butururkim, dodxoh<sup>3</sup> muddai-yu mud-dao alayh<sup>4</sup> ikkisini barobar turg'uzub so'romoq kerakdur, har so'zları bo'lsa bir-bir aytg'oymalar, to hokim alarning so'zin bilib hukm qilg'oy.

### G'AZAL

Bo'l adolat masnadi<sup>5</sup> uzra Sulaymoni zamон,  
Toki sandin mustafid<sup>6</sup> o'lg'ay bari ahli jahон.  
Gar Sulaymondek bo'lub xalq ichida qilsang maosh,  
Bilki, farmoningda bo'lur olam ichra ins-u jon.

<sup>1</sup>Pashsha – bu yerda chivin ma'nosida; <sup>2</sup>Mazohim – zahmat yetkazuvchi; <sup>3</sup>Dodxoh – arz tinglaguvchi; <sup>4</sup>Muddai-yu muddao alayh – da'vo qiluvchi va da'vo qilinuvchi (aybdor); <sup>5</sup>Masnad – taxt; <sup>6</sup>Mustafid – bahramand.



Gar rafiq o'lsa bu tavfiq-u<sup>1</sup> muyassar bo'lsa adl,  
Shaksiz, o'lur ul kishining manzili bog'i jinon<sup>2</sup>.  
Yaxshi avsot<sup>3</sup> ila qil ushbu jahon ichra suluk<sup>4</sup>,  
To saning avsotining o'lg'ay olam ichra doston.



### Savol va topshiriqlar:

1. Hikoyatning mavzusini aniqlang. Uni ijtimoiy hayot voqealariga bog'lab tushuntiring.
2. Hikoyatdagi obrazlar qanday insonlarni gavdalantiryapti deb o'ylaysiz? Ularning xatti-harakatiga munosabatingiz qanday?
3. Adolat tushunchasini izohlang. Kim, qachon va qayerda qanday adolat qilishi mumkinligi haqida fikrlaringizni bildiring?



## HIKOYAT

Ayturlarkim, bir jamoat xaloyiq bir kishtiga<sup>5</sup> minib daryoga kirib erdilar. Nogoh bir muxolif yel turub, ul kishtini daryoga g'arq qildi. Ul jamoatdin bir kishi taxtaga yobushub qirg'oqqa chiqti va g'arq bo'lmoq-din xalos bo'ldi. Ondin so'ng o'zini bir obodonlikka yetkuroy deb borur erdi. Nogoh ko'rdikim, yiroqdin bir shaharning qarosi ko'rundi. Ul tarafga jahd qilib borg'ondin so'ng ko'rdikim, ul shaharning jami odamlari chiqibdurlar va uni ko'rgandan so'ng uning tarafiga kela boshladilar. Alqissa, bu kishini eltib hammomga kiyurib, podshohona liboslar kiydurub, otga mindurub, o'ng-so'lindin beklar va arkoni davlat ko'runush qilib, eltib, ta'zim va takrim<sup>6</sup> birla taxt ustida o'Iturgizdilar. Taqi podshohona osh kelturub, shulonlar tortdilar. Ondin so'ng arkoni davlat va beklar haram sari ishorat qildilar. Ul kishi taxtdin tushub, haramga mutavajjih bo'ldi<sup>7</sup>... (Shu tariqa to'rt kun o'tdi) Hosilkim, to'rtinchchi haramga ishorat qilg'onda borib ko'rdi, bir huriliqoyi yori sohibjamol, farxundafol<sup>8</sup>, noz masnadida sarafroz va husn taxtida sarvnozdek bo'lub o'Iturubdur. Aning birla suhbatи bisyor xush keldi. Andin so'rdikim: ey

<sup>1</sup>Tavfiq – ko'mak, yordam, bahramandlik; <sup>2</sup>Bog'i jinon – jannat bog'i; <sup>3</sup>Avsot – vasflar, ta'riflar; <sup>4</sup>Suluk – yo'l; <sup>5</sup>Kishti – kema; <sup>6</sup>Takrim – ikrom; <sup>7</sup>Mutavajjih bo'lmoq – yuzlanmoq; <sup>8</sup>Farxundafol – baxtiyor.



yori aziz, dilpazir<sup>1</sup> va ey dilraboyi noguzir<sup>2</sup>, man faqir kishi erdim, o'z hojatim uchun bir jamoa xaloyiq birlan bir kishtiga minib, safar ixtiyor qilib erdim. Nogoh muxolif yel kishtini g'arq qilib erdi.

Ul jamoa barcha halok bo'ldilar va man salomat qutulib, bu diyorga tushtum ersa, bu turluk davlat manga muyassar bo'ldi. Hech bilmasmankim, bu ne holdur. Bu mushkulni mang'a hal qilg'il. Ul pari chehra aydi: bu xaloyiqning dasturi<sup>3</sup> budurkim, har yilda saningdek bir g'arib kishini podsho qilurlar va tarixini yozib saqlarlar. Yilkim tamom bo'ldi ersa, ul kishini kishtiga solib, bir jaziraye<sup>4</sup> bordur, eltib, ul jazirada qo'yarlar. Taqi kelib, borchal xalq chiqarlar shahardin, dag'i istarlar: har qayda bir saningdek g'aribni toptilar ersa keltirurlar. Dag'i oni yana bir yilg'acha podshoh qilurlar. Har yilda bularning dasturi buturur.

...Filhol hukm qildikim, me'morlar va ustolar borib ul jazirada bir shahri-maqbul bino qildilar. Andog' ehtimom<sup>5</sup> qildilarkim, olti oyda ul shaharning qal'a va bozor va evlari tamom mukammal bo'ldi. Andin so'ng muxtari'ot<sup>6</sup> birla xazoyin va dafoyn<sup>7</sup> va haramlarni daf'a-daf'a<sup>8</sup> ul shaharga yibordi. Uch oyda har matoki bor erdi, bu shahardin ul shaharga yibordi... Barcha xaloyiq o'tru kelib, yuz shavq-zavq birlan ani eltib, masnadi aysh farog' ustida o'lturg'uzdilar va to tirik erdi, ul gulruh parichehralar birlan umr o'tkardi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Hikoyatning ramziy xarakterda ekanligidan kelib chiqib javob bering: shahar qanday ma'noni ifodalamoqda? Musofirni kutib olgan odamlar kim va u o'tqazilgan taxt nimani bildiradi?
2. Bosh qahramonning shahardagi farog'at, ayshga to'la hayotidagi to'rt kun nima uchun alohida qayd bilan ta'kidlanmoqda?
3. Shahardagi bir yillik hukmdorlik, sizningcha, nimani anglatadi?
4. Bosh qahramon orolda bino qilgan saroylar, xazina va boyliklar aslida nima ekanligini tafakkur qiling.



<sup>1</sup>Dilpazir – yoqimli, go'zal; <sup>2</sup>Dilraboyi noguzir – oldidan ketib bo'lmaydigan go'zal;

<sup>3</sup>Dastur – odati; <sup>4</sup>Jazira – orol; <sup>5</sup>Ehtimom – diqqat qilish; <sup>6</sup>Muxtari'ot – topish, kashf (ixtiro) qilish; <sup>7</sup>Xazoyin va dafoyn – xazina va ko'milgan boyliklar; <sup>8</sup>Daf'a-daf'a – biring-ketin, qayta-qayta.



## MUHAMMAD RIZO OGAHİY

(1809—1874)



Shoir, tarjimon, tarixnavis hamda davlat va jamoat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy xalqimiz tarixida o'ziga xos o'rniqa ega bo'lgan serqirra iste'dod sohibidir. U ijodining ko'lami, she'riyatining ko'rkarligi va badiiy salmog'i bilan Navoiydan keyingi o'rinda turuvchi sermahsul va serqirra shoir hisoblanadi. Ayni paytda, xalqimiz o'tmishini haqqoniy aks ettirgan bir necha nodir asarlari bilan tarix ilmi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, uning juda ko'plab tarixiy va badiiy asarlarni fors tilidan ona tilimizga o'girib, ularni xalqimizning ma'naviy merosiga aylantirishdagi xizmatlari tahsinga loyiqdir.

Ogahiy 1809- yili 17- dekabrda Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tavallud topdi. Shu yerda boshlang'ich ma'lumotni oladi. Yoshligida otasi vafot etib, adabiyotimizning yana bir yorqin siyoshi bo'lmish amakisi Munisning tarbiyasida bo'ldi. U maktab, keyinchalik madrasa tahsili davomida arab va fors tillarini, tarix ilmini puxta o'rgandi. 1829- yilda Munis vafot etgach, hukmdor Olloqulixon uning o'rniqa Ogahiyni mirob (suv ishlari boshqaruvchisi) etib tayinlaydi. Suv tanqis bo'lgan Xorazmda miroblik nihoyatda mas'uliyatli vazifa bo'lib, uni ishonchli va halol odam boshqarishi lozim edi. Shu davrdan Ogahiyning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyati boshlanadi. U davlat ishlari bilan mashq'ul bo'lar ekan, badiiy ijod hamda ilmiy faoliyatini to'xtatmadı. Saroy tarixchisi vazifasini ham olib borayotgan Ogahiy 1839- yilda Munis boshlab qo'ygan "Firdavs ul-iqbol" (Iqbol bog'i) asarini davom ettirib, Xiva xonligining 1825- yilgacha bo'lgan tarixini yozib tugatdi. 1844- yilda xonlik tarixini shu yil-



gacha bo'lgan voqealarini o'z ichiga olgan "Riyoz ud-davla" (Saodat bog'lari) kitobini tamomladi.

1845- yildan Ogahiy hayotidagi og'ir va musibatlari davr boshlanadi. Shu yili miroblik ishlari bilan safarda yurganda tasodif tufayli oyog'i qattiq shikastlanadi va hali yigit yoshidayoq to'shakka bog'lanib qoladi. Shu dard azobini tortayotgan shoir umr yo'ldoshidan ham ajraladi. 1857- yilda miroblikdan iste'fo berishga majbur bo'ladi. Lekin bu musibatlar oldida u chekinmadi. Kuchli iroda, hayotni sevishi Ogahiyni ijodga, izlanishga undadi. 1846- yilda "Zubdat ul-tavorix" ("Tarixlar qaymog'i"), 1847–1855- yillarda esa "Jome ul-voqeoti sultoniy" ("Sultonlik voqealarining yig'indisi") tarixiy asarlarini yozdi. Tarjimalar bilan shug'ullanib, Kaykovusning "Qobusnama", Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar", Sa'diy Sheraziyning "Guliston", Badriddin Hiloliyning "Shoh va gado", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" va boshqa qator asarlarni o'zbekchalashtirdi. XIX asrning oltmishinchiligi yillarda "Gulshani davlat" va "Shohidi iqbol" ("Baxt shohidi") tarixiy asarlarini yozdi.

Ogahiy 1874- yilda vafot etdi.

Ogahiyning asosiy she'riy merosi ona tilida yozilgan bo'lib, "Ta'viz ul-oshiqin" devonida to'plangan. "Ta'viz ul-oshiqin" – "Oshiqlar tumori" degani. Devon ma'rifikatparvar shoh va shoir Feruz – Muhammad Rahimxon Soniy (ikkinci)ning taklifi va talabi bilan tuzilgan. Bu devon XIX asr o'zbek she'riyatining benazir namunasi hisoblanadi. "Ta'viz ul-oshiqin"da shoirning yigirmadan ortiq janrdagi sal-kam yigirma ming misrali lirik merosi jamlangan. Ularning bir ming uch yuz misradan ortig'i fors tilida bitilgan bo'lib, bu Ogahiyning zulisonaynlik an'anasi munosib davom ettirganligining yorqin dalilidir.

Ogahiy devonidan turli: ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri va boshqa mavzudagi she'rlar joy olgan. Lekin ularning aksariyati ishqiy mavzudadir. Shoir ijodida tabiat tasviriga bag'ishlangan bir qator g'azallar bor. Qish va bahor tasviri chizilgan bu she'rlarda Ogahiyning peyzaj ustasi, o'tkir nigoh egasi ekanligi namoyon bo'ladi. Fasl tarovati, go'zalligini berishda shoir tashbih, tashxis, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi. "O'yла yetkurdy jahong'a ziynat-u oro bahor" g'azalida o'qiymiz: "**Obi hayvondek suzuk suv har taraf aylab ravon, Qildi sahrog'a tarovat o'zgacha paydo bahor**".



Suvni “obi hayvon” – tiriklik suviga o’xshatish qadimdan bor. Lekin uni suzuk deb sifatlash adabiyotda yangilik edi. Tashxis san’ati ni mohirona qo’llagan shoir tog'lardan mayin oqib kelayotgan suvni noz bilan suzilib borayotgan go’zalga o’xshatadi. Bahor ana shu suzuk suvi bilan sahroga o’zgacha tarovat bag’ishlagan. Keyingi misralarda bahoriy yel rayhonlarga Masihdek “toza jon” ato qilgani, gul yuzi ochilib, qumri-yu bulbullarning unga vola-yu shaydo bo’lganlari, lola soqiysi qo’llidan ishrat ahliga qadah tutilgani kabi tasvirlar orqali bahor ko’tarinki zavq, hayajonli shavq bilan vasf qilinadi. Bu go’zaliliklarni madh etgan shoir uni g’animat bilib, qadrlashga chorlaydi: **“Gulshan ichra bazm etib jomi tarab no’sh aylali Kim, g’animat-dur necha kun, ey qadi ra’no, bahor”**. Shuningdek, “Baland aylab quyoshg’a poya navro’z”, “Bahor ayyomi bo’lmish o’ylakim bog’i Eram sahro” g’azallarida ham bu ko’rkam faslning beqiyos nazokatlari kuylanadi. “Ilohi, har kuning navro’z bo’lsin” g’azalida bu she’r yaratilgandan buyon barchanining diliqa jo bo’lgan ohorli yangi yil tilaklari izhor etilgan:

Ilohi, har kuning navro’z bo’lsun,  
Hamisha tole’ying feruz bo’lsun.

Bo’lub ayyomi navro’zing muborak,  
Zamiring inbisotanduz bo’lsun.

“Ta’viz ul-oshiqin”dagi ishqiy g’azallar nafaqat Ogahiy ijodining, balki butun o’zbek mumtoz adabiyotining sara namunalari hisoblanaadi. “Yuzung ochkim, quyosh sadqang bo’lub boshingdin aylansun”, “Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina”, “Ey sho’x, ko’zi qoshinga olam gado, man ham gado” g’azallari Ogahiyning yuksak badiiy mahoratini, chinakam san’atkor shoir ekanligini tasdiqlaydi. E’tiborli jihat shundaki, asosan, ishqiy mavzudagi bunday g’azallar bag’riga falsafiy, axloqiy, ijtimoiy-siyosiy mazmun ham ustalik bilan singdirib yuboriladi. Ba’zan g’azallarda yor timsoli orqali, xususan, lirik qahramonning unga murojaatida shohga xos xususiyatlar aks etadi. Masalan: **“Ey shah, karam aylar chog’i teng tut yamon-u yaxshini Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina”** yoki “Aylansun” radifli g’azalidagi:

Chu bergung non ila osh, ey saxiy, sidq ahlig'a bergil,  
Riyo-vu kizb ahli noning-u oshingdin aylansun,

kabi baytlarda buni kuzatish mumkin.

Shoir lirikasi mundarijasidan muqaddas Islom dinimiz ko'rsatmalari, tasavvuf ta'limotiga oid qarashlar ifoda etilgan she'rlar ham salmoqli o'rinn tutganini kuzatamiz: "**Mulk-u millatg'a amin o'Isa agar ogohlar, ikki olam obro'yini hosil etgay shohlar**". Baytda islamiy qarashlar jamiyat va davlat ijtimoiy-siyosiy tartibi, boshqaruviga omixta holda bayon etilgan. Shoir aytmoqchiki, mulk (mamlakat) va millat uchun dunyo va oxirat mohiyatidan, voqeliklaridan ogoh zotlar amin (ya'ni vakolatli amaldor qilib tayinlangan) bo'lsa, bu tartibotni yo'lga qo'ygan shoh (mamlakat rahbari) ikki dunyo obro'yini hosil qiladi (ya'ni xalq va Xoliq – Alloh rizoligini topadi). Har millatning o'zligi ikki qismdan – milliy qadriyatları va diniy e'tiqodidan tashkil topuvchi yaxlit bir butunlik ekanligini, agar ularning biri bo'lmasa, ikkinchisi ham qulab, o'zlikdan asar qolmasligini anglagan shaxslargina ogoh zotlar maqomida bo'lishiga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, shoirning ijtimoiy-siyosiy qarashlari devondagi muxammas, musaddas, ruboiy, tarji'band va qasidalarida ham u yoki bu darajada o'z aksini topgan. Xususan, "Dahr uyi bunyodkim, suv uzradur, mahkam emas", tarji'bandi tasavvufiy mazmunga yo'g'rilgan ijtimoiy-falsafiy ruhda-gi asardir. Tarji'bandda dunyo omonat binoga, bo'yi, vafosi yo'q gulshanga o'xshatiladi, insonni unga ko'ngil berib, aldanib qolmaslikka chaqiradi.

"Qasidayi nasihat" esa Ogahiyning siyosat va davlatga munosabati, hukmdor fazilatlari, burch va vazifalari borasidagi mu-lohazalari bayon etilgan pandnomadir. Odatda, qasidalarda biron-bir voqeа yoki shaxs ulug'lanadi, har tomonlama vasf qilinib, benuqson, ideal qiyofada tasvirlanadi. Ogahiyning qasidasi esa odatdagi maqtovlardan iborat bo'lib qolmadi. U mazkur asarni yozishda o'z oldiga aniq maqsad qo'ygan edi. Shunga ko'ra adib qasida vositasida ko'pni ko'rgan donishmand, umr mazmunini anglagan faylasuf sifatida yosh xonga nasihatlar qiladi, davlatni boshqarish san'atidan saboq beradi. "Qasidayi nasihat" adabiyotimiz tarixidagi siyosiy-didaktik lirikaning yorqin namunasi bo'lib qoldi.



Ogahiyning kichik she'riy janrlar: ruboiy, tuyuq, fard kabi shaklarda ham benazir ekanligiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, musoviyat-tarafayn (ikki tomonlama teng, bir xil) shaklida yozilgan she'ri adabiyotimiz tarixida juda kam uchraydigan hodisalardan deyish mumkin. She'rni ikki xil – odatdagи yon tarafga hamda yuqoridan pastga tomon o'qisangiz, bir xil matn hosil bo'laveradi. Bu she'r bilan tanishing.

|            |           |                 |         |
|------------|-----------|-----------------|---------|
| Ul sho'xki | ochildi   | xat-u           | ruxsori |
| Ochildi    | rayohinda | yuzi            | gulnori |
| Xat-u      | yuzi      | besabr-u qarori | man man |
| Ruxsori    | gulnori   | man man         | zori    |

Ogahiy salaflari Lutfiy, Navoiy, Bobur, Fuzuliy hamda Munis kabi mumtoz adabiyotimiz yorqin siymolari an'analarini davom ettirdi, rivojlantirdi, yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitdi. Uning ijodi shoirlarimizning bir necha avlodи uchun mahorat maktabi bo'lib xizmat qildi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ogahiyning yetuk inson va iste'dodli adib bo'lib yetishuvida u voyaga yetgan muhitning ahamiyati to'g'risida mulohaza yuriting.
2. Shoirning devoni nima uchun "Ta'viz ul-oshiqin" – "Oshiqlar tumori" deb atalishini izohlang.
3. Ogahiyning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rnini qanday baholaysiz?

## OGAHIY LIRIKASIDAN

### G'AZALLAR

Baland aylab quyoshga poya<sup>1</sup> navro'z,  
Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z.

Kelib fayz-u nishot-u<sup>2</sup> aysh birla,  
Muhayyo qildi elga voya<sup>3</sup> navro'z.

<sup>1</sup>Poya – qadr, daraja; <sup>2</sup>Nishot – shodlik; <sup>3</sup>Voya – 1) muqaddima; 2) bahra.

Tarab tiflin<sup>1</sup> tug'urdi dahr zoli<sup>2</sup>,  
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

Qilibdur mahliqolarning yuzini  
Latofat Mus'hafiq'a oya navro'z.

Kiyib ahli g'ino<sup>3</sup> yuz rang xil'at,  
To'lo boshdin ayoq pero ya navro'z.

Hama o'ynab olib qo'lga yumurta<sup>5</sup>,  
Mening ilgimda yoqtur xoya<sup>6</sup> navro'z.

Diramdu<sup>7</sup> moyai ishrat ulusg'a,  
Vale men bo'lmisham bemoya navro'z.

Janobi shahg'a keldim bu jihatdin,  
Ko'zim yoshig'a toya-toya navro'z.

Ki shoyad o'zgalardek Ogahiyni  
Tarabnok aylagay beg'oya navro'z.

Mana, shoirning "Navro'z" radifli g'azali matni bilan tanishdik. Bu she'r tabiat lirkasining go'zal namunasi sanaladi. Unda tashxis san'atidan foydalangan holda shoir bu bahoriy ayyomni madh etadi. Oldingi mavzularni o'rganish, lirk asarlarni tahlil qilish asnosida tashxis haqida yetarli tushunchaga ega bo'ldingiz.

Dastlabki ikki baytda navro'z ayyomi jonlantirilib, u quyoshni baland qadr va martabaga yuksaltirdi va bu bilan yer yuzidan soyani ko'tardi, deb tasvirlanadi. U yurtga uch narsa: fayz, shodlik (nishot) va aysh bilan kirib keldi-da, bu uch xushbaxtlikni muhayyo qilib, ular dan elni bahramand qildi. Mazkur baytlarda navro'z o'zidagi bor yaxshi narsalarni boshqalarga chin ko'ngildan ularshayotgan va bundan o'zi ham g'oyat zavqlanayotgan tanti va saxiy kishiga qiyoslangan. Keyingi baytdagi tashxis ham yanada o'ziga xosdir:

<sup>1</sup>Tifl – go'dak, chaqaloq; <sup>2</sup>Zol – kampir; <sup>3</sup>G'ino – boylik; <sup>4</sup>Peroya – ziynat, bezak;

<sup>5</sup>Yumurta – tuxum; <sup>6</sup>Xoya – tuxum; <sup>7</sup>Diram – tanga (pul).



Tarab tiflin tug'urdi dahr zoli,  
Ango bo'ldi magarkim doya navro'z.

Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar ma'nosi aniqlab olinadi: tarab – shodlik; tifl – bola, go'dak; tug'urdi – tug'di, dunyoga keltirdi; dahr – dunyo; zol – kampir. Demak, ushbu misralardan quyidagicha ma'noni uqish mumkin: Dahr (dunyo) kampiri shodlik chaqalog'ini tug'arkan (dunyoga keltirar ekan), navro'z unga doyalik qildi. Tashxis uchun tabiatdagi o'zgarishlar asos qilib olingan: dunyo otliq kampirning tug'ishi va unga navro'zning doyaligi. Shuningdek, tashbih bu san'at bilan baqamti (bir-biriga yaqin) qo'llangan. Shodlik – chaqaloq, chun-ki u bosqlanayotgan bahor tufayli kishilar ko'nglida tug'ilib kelayotibdi. Dunyo – kampir, chunki u yaratilish jihatdan eng qadimi. Navbatdagi baytda ko'klam go'zalligi islomiy tushunchalar vositasida ochiladi:

Qilibdur mahliqolarning yuzini  
Latofat Mus'hafiga oya navro'z.

"Mus'haf" — Qur'onning boshqa nomidir. Ikkinci satrdagi "oya" esa oyat (Qur'on oyati) ning talaffuzdagi shaklidir. Shoир navro'ziy latofatni Mus'hafga tenglashtiradi. Bu – tashbih, lekin uni mubolag'a deb qabul qilish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki Qur'on ham, tabiat go'zalligi, jumladan, bahor latofati ham Yaratganning ijodidir. Ularning har ikkisi birday go'zal va muqaddas. Bir xil qimmatdagi voqelikni qiyoslashda bo'rttirish bo'lmaydi. Shunday qilib, navro'z latofati Mus'haf bo'lsa, mahliqolarning yuzi undagi oyatlardir. Tasavvufga ko'ra inson go'zalligi ilohiy husnning jilvasi yoki soyasi ekan, mahliqolarni oyatga meng-zashda hech qanday shakkoklik yo'q.

Keyingi baytlarda peyzaj (tabiat tasviri) ijtimoiy mavzuga almashti. Ularda badavlat odamlar (ahli g'ino)ning bu ko'ngilli ayyomda "yuz rang xil'at" (turli xil kiyimlar) kiyishi, boshdan oyoq ziynatlanishlik, turli ko'ngilocharliklar bilan zavqlanishlari bayon etiladi. Ishrat uchun moya bo'lgan dirham ularning qo'lida o'ynasa, shoирning qo'lida bu moya yo'q. Shu bois o'tinch bilan shoh huzuriga kelishi mubolag'a bilan tasvirlanadi.

Janobi shahg'a keldim bu jihatdin,  
Ko'zim yoshig'a toya-toya navro'z.

Moddiy yordam so'rab shoh huzuriga kelayotgan lirik qahramon o'z zabun ahvoliga shunchalar yig'laydiki, hatto o'zining ko'z yoshlari-ga toyib-toyib ketadi (Ko'z yoshlar tufayli oyoqosti loy bo'lgan). Shu o'rinda savol paydo bo'lishi mumkin: bir vaqtłari yuqori davlat vazi-falarida ishlagan, xonga yaqin bo'lgan shoир shu qadar qashshoqla-shib, ko'z yoshlariga toyib ketadigan darajada notavon bo'lib qolgan-mi? Davlat ishlaridan ketgach, Ogahiyning moddiy ahvoli oldingiday bo'limganligi tabiiy. Lekin uning g'azalda aytilganiday qashshoq, notavonligi bu shoirona mubolag'adir. Shu o'rinda **lirik qahramon** tushunchasiga to'xtalib o'tamiz. Ba'zan lirik qahramon shoирning o'zi bo'ladi. Masalan, Boburning hasbi hol xarakteridagi she'rlarida bo'lGANI kabi. Lekin ko'p hollarda lirik qahramon shoирning o'zi bo'l-may, balki kechinmalari, ruhiy holati tasavvur qilinib, shoирning "men"i orqali tasvirlanayotgan ijodkor fantaziyasidagi qahramon bo'ladi.

Ushbu she'rdagi nochor ahvoldagi lirik qahramon ham Ogahiyning o'zi bo'lmay, jamiyatdagi kambag'alligi tufayli hamhard-likka loyiq bo'lgan odamlardir. Bunday tasvirdan shoир ikki maqsadni ko'zlagan bo'lishi mumkin. Birinchisi, mubolag'a bilan o'z holini bayon etib, xondan yordam olish bo'lса, ikkinchisi, xonning e'tiborini jamiyat-dagi nochor qatlamga qaratish, ularga ko'mak berishni uyushtirish. Shoyad o'zgalardek Ogahiy va Ogahiydek o'zgalar tarabnok (xur-sand) bo'lса. Shu o'rinda ham shoирning ijoddagi o'ziga xosligi, betak-rorligi ko'riniib turibdi.

\* \* \*

Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun,  
Hamisha tole'ying feruz bo'lsun.

Bo'lub ayyomi navro'zing muborak,  
Zamiring inbisot anduz<sup>1</sup> bo'lsun.

---

<sup>1</sup>Inbisot anduz – quvonch tarqatuvchi.



Qilib partavfikanlik<sup>1</sup> ayni adling  
Quyoshoso jahonafruz<sup>2</sup> bo'lsun.

Sango doyim bo'lub davlat qushi rom,  
Shikorandoz-u<sup>3</sup> dastomuz<sup>4</sup> bo'lsun.

Aduv vahshilarini sayd etarg'a  
O'q-u tig'ing uqob-u<sup>5</sup> yuz bo'lsun.

Kishikim istasa sarkashlik etmak,  
Boshi yo'lingda oning tuz<sup>6</sup> bo'lsun.

...Ko'rub lutfingni har tun Ogahiyning  
Nasibi ishrati navro'z bo'lsun.



### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Shoir "***Ilohi, har kuning navro'z bo'lsun***", — der ekan, kundalik hayotingda faqat bayramlardan iborat bo'lsin degan tilakdan boshqa narsani ham ko'zda tutganmi?
2. ***"Qilib partavfikanlik ayni adling Quyoshoso jahonafruz bo'lsun"*** misralarini tahlil qiling. Bayt mazmunidan ushbu so'zlar kimga qarata aytilayotganini bilishga urining.
3. ***"Sango doyim bo'lub davlat qushi rom, Shikorandoz-u dastomuz bo'lsun"*** baytidagi mazmunan aloqador so'z birikmalarini aniqlang va ularni sharhlang.
4. Hukmdorning dushmanlari hamda unga itoat etmovchilarga bildirilgan tilaklarni o'qing va izohlang.
5. Navro'z haqidagi oldingi g'azalning oxirgi ikki bayti bilan ushbu g'azal maqtasini solishtiring va ulardagи umumiylikni izohlang.
6. G'azalni yod oling.

<sup>1</sup>Partavfikan – nur, shu'la taratuvchi; <sup>2</sup>Jahonafruz – jahonni yotiruvchi; <sup>3</sup>Shikorandoz – ov qiluvchi; <sup>4</sup>Dastomuz – qo'lga o'rnatilgan; <sup>5</sup>Uqob – burgut; <sup>6</sup>Tuz – 1) to'g'ri, rost; 2) dala.



\* \* \*

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun "nas" kelturur "nun" eltibon "sod" ustina.

Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.

Noz-u ado-u g'amzasasi qasdim qilurlar dam-badam,  
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.

Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,  
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar,  
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.

Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'limg'ay,  
Gardun<sup>1</sup> agar ming Besutun<sup>2</sup> yog'dursa Farhod ustina.

Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini  
Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil,  
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod<sup>3</sup> ustina.

Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim,  
Yuz xayli g'am qilmish hujum ul zor-u noshod ustina.

---

<sup>1</sup>Gardun – falak, taqdir; <sup>2</sup>Besutun – afsonaviy tog' nomi; <sup>3</sup>Bod – shamol.

## “Ustina” radifli g‘azal tahlili

Ushbu g‘azal o‘zbek mumtoz adabiyotidagi eng mashhur asarlardan biri sanaladi. G‘azalning birinchi baytidayoq Ogahiyning an‘ana zaminida o‘ziga xos yangilik, badiiy kashfiyotga erishish iste’dodi namoyon bo‘ladi. Keling, buni birgalikda kuzataylik.

Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina,  
Qatlim uchun “nas” keltirur “nun” eltibon “sod” ustina.

Maqtada ma’shuqaning qoshi va ko‘zi ta’rif etilmoqda. Mushkin “mushk” so‘zidan yasalganligini bilasiz. U ham qoralik, ham xushbo‘ylikni ifodalaydi. Arab alifbosida “nun” qoshga, “sod” ko‘zga o‘xshashligidan foydalananib, shoир yor go‘zalligining o‘ziga xos tasvirini yaratadi. “Nun”ni “sod”ning ustiga qo‘yilsa (ya’ni avval “nun”, keyin unga qo‘shib “sod” yozilsa), “nas”, ya’ni “hukm” so‘zi hosil bo‘ladi. Bu hukm (nas)ga ko‘ra oshiq qatl etilishi kerak. Chunki “nun”ga o‘xshash mushk rangli qosh hamda “sod”ga o‘xshash ko‘z o‘zlarining yor yuzidagi ko‘rinishi (hay’ati) bilan bu hukmni chiqarganlar. Ogahiygacha ko‘z-u qoshni mazkur harflarga tashbih qilish, chashm (ko‘z)ni jallod deyish an‘anaviy tasvir bo‘lgan. Lekin harflardan so‘z yasab va uni mazmunga, tasvirga tatbiq etish – bu yangilik, Ogahiyning mahorat chizgilaridan biridir. Baytda mumtoz she’riyatda mazmuniy aloqadorlik asosida yuzaga keladigan badiiy san‘at – tanosubdan mohirona foydalanilgan. Sifatlovchi bo‘lib kelayotgan “mushkin” so‘zi sifatlanmish qoshning ranginigina bildirib kelmasdan, ayni paytda, uning qilmishi ham qoraligi, ya’ni oshiqning boshiga qora kunlar solishiga ishora qiladi. U bilan “nas” (hukm)da ittifoqdosh chashm – ko‘z ham qora. Baytda ko‘zning bu sifati ochiq aytilmasa ham, asrlar davomida shakllangan va davom etib kelayotgan Sharq she’riyati an‘anasiya ko‘ra ko‘z deyildimi, qora rang esga tushaveradi. Bu ko‘zning ham qosh kabi qilimishi, niyati qora – qatl. U bilan yonma-yon kelgan sifatlanmishi bo‘lgan “jallod” so‘zi bunga dalolat qiladi.

Shuning uchun ham u qosh bilan til biriktirgan. Birinchi misrada qora rang atrofida tanosubiy munosabat shakllantirilgan bo‘lsa, baytning ikkinchi misrasida bu ikki fitnachining shakliy o‘xhashi



bo'lgan harflar bilan qiyosi yangi bir aloqadorlikni yuzaga keltiradi. Shuningdek, "jalod", "qatl", "nas" uyadosh so'zlar bo'lib, yana bir tanosubiy munosabatni hosil qilgan.

Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,  
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.

Birinchi baytda qosh va ko'zning vasfi, "qilmishlari" bayon etilgan bo'lsa, ikkinchi baytda navbatdagi ikki qahramon – yorning qomati va orazi (yuzi) "maydonga chiqadi". Avvalo, baytning ma'nosini uqib olishimiz kerak. Siz, ona tili darslarida ergash gapli qo'shma gaplarni o'rganyapsiz. E'tibor bering-a, u hol ergash gapli qo'shma gap. Odatdag'i tartibda gar (agar) bog'lovchisi bilan boshlangan ergash gap avval, bosh gap undan keyin kelishi kerak. Bu yerda poetik talab bilan ularning o'rni almashgan. Baytdan ma'no chiqarishda ularni o'z joyiga qo'yib o'qiyimiz va shoirning mahoratidan zavqlanishda davom etamiz. Go'yo shoir avval bizdan so'rayotganday: "Biror joyda (ya'ni tabiatda) doimo yam-yashil va tik o'sadigan shamshod daraxti ustiga gul payvand qilinganini ko'rganmisan?" Xayolan bizdan "yo'q" javobini olgach, u aytadi: "Unday bo'lsa, sen yorimning zebo qomati bilan orazi (yuzi)ni tomosha qil. Yaratganning O'zi uning shamshod-dek ko'rkar, tik qomati ustiga gul yuzini payvand qilib qo'yibdi". Ushbu baytga ham tanosub san'atidan bezak berilgan: "qomat", "zebo", "oraz", "gul", "shamshod" so'zlaridagi ma'noviy bog'liqlikni sezib, his etib turgan bo'lsangiz kerak.

Noz-u adov-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam,  
Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.

Oldingi ikki baytning har birida ikkitadan "qahramon" yor go'zalligi (portreti) vasfida ishtirok etgan bo'lsa, uchinchi baytda go'zalning xarakterini ochib beruvchi uchtasi – noz, ado, g'amza harakatga keldi. Ular oldingi ikki juftlikning ishini davom ettiradi. Davom ettirib qolmay, jabrni yanada kuchaytirishadi: biri qo'yib boshqasi dam-badam (navbatma-navbat va to'xtovsiz) qasd qiladilar. Uzoq davom etgan qiyonoqlardan oshiq oxiri "Vah" deb yuboradi-da, "Bir odamning usti-



da shuncha ofatlar bo'lishi mumkinmi?" degan faryod bo'g'zidan otilib chiqadi. Qaysi so'zlar bayt matnida mazmuniy bog'lanib, tanosubni hosil qilayotganini topgan bo'lsangiz kerak. Bundan tashqari holat va kechinmalarni shoir birmuncha orttirib va bo'rttirib tasvirlayotganini ham sezish qiyin emas. Bu keyingi uch baytda ham yetakchilik qiladigan mubolag'a she'riy san'atidir.

Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,  
Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.

Oshiq yuqoridagi baytlarda aytilgan zug'umlardan xasta bo'lgan. Shunday xastaki, tuzalish tugul unga jon asrash dushvor, negaki oldin jallod deb ta'riflangan yorning qotil ko'zi har lahza zulm ustiga zulm qilaveradi.

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar  
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.

Jon qo'ldan boy berilmoxda, uni asrab qolishdan umid uzgan oshiq yupanch istab o'zining doimiy sirdoshi va suyanchig'i ko'ngilga yuzlanadi. Lekin gul yuzli yor shavqi bilan shaydo ko'ngil shomdan to sahargacha bulbul kabi ming turli faryod ustiga yuz xil navo qilish bilan ovora – oshiqqa taskin berolmaydi.

Boshimg'a yoqqan g'am toshin mingdin biricha bo'limg'ay  
Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.

Bu baytda mubolag'a o'zining haddi a'losiga – eng yuqori chegarasiga ko'tarilgan. Farhod – ishq yo'lida cheksiz zahmatlar chekkon, g'am-alamlar tortgan, musibatlarga yo'liqqan obraz. Mana shu jafokashligi bilan u mashhur. O'z ko'rguliklarini chamalar ekan, oshiq mening boshimga tushgan aziyatlar oldida Farhod tortgan azoblar hech narsa emas deydi. Afsonaviy Besutun tog'idan mingtasini gardun (dunyo) Farhodning ustiga yog'dirsa ham, oshiqning boshiga yog'gan g'am toshining mingdan biricha bo'lolmaydi.

Qadrli o'quvchi. Mana, g'azal tahvilini bir muncha tushunib ham oldingiz. Qolgan uch baytni o'zingiz yoki sinfdosh o'rtoqlaringiz bilan birgalikda tahlil qilib ko'ring. Faqat keyingi yettinchi baytda "Ey shah" deb



kim(lar)ga va nima uchun shunday murojaat qilinishini o'ylab ko'ring. Sakkizinchı baytni sharhlashtan oldin Sulaymon payg'ambar haqidagi rivoyatni bilishingizga to'g'ri keladi. Shunda bayt tahliliga yo'l ochiladi.

\* \* \*

Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a ushbu qishdin qish,  
Ki aql-u hisg'a yaksar<sup>1</sup> mone' o'ldi borchcha ishdin qish.

Agarchi asradim ojiz tanim qat-qat libos ichra,  
Sovuq yel birla lekin qoltiratdi ko'b qamishdin qish.

Burudat<sup>2</sup> shiddati ostida qaddim xam qilib yodek,  
Zaif-u notavon-u nozik yetti ham kirishdin qish.

Chiqorg'a har nechakim ko'rguzub ko'b sa'i tish qisdim,  
Ushotib sangi shiddatdin ayirdi borchcha tishdin qish.

Qabob kulbam aro, qo'ymay chiqorg'a sarsar afvoji<sup>3</sup>,  
Mani mahrum qildi el bila borish-kelishdin qish.

Manga mushkuldurur topmoq ilojinkim, g'ino ahli  
Iloj aylar sovuqqa qoqim-u sinjob-u kishdin<sup>4</sup> qish.

Yetishdi, Ogahiy, qish mavsumi, vah, emdi naylarsan  
Ki, qottig'dur qari-yu ojiz elga borchcha ishdin qish.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. “*Qotig'roq kelmadi hargiz jahong'a ushbu qishdin qish*” misrasida ham qofiya, ham radif bo'lib kelayotgan “qish” so'ziga qanday badiiy vazifa yuklanganligini tushuntiring.
2. Ikkinci baytda qishdagi nochor odamning holati berilgan tasvirni izohlang.
3. Ushbu she'rni yozishdan Ogahiy qanday maqsadni ko'zlagan deb o'ylaysiz?

<sup>1</sup>Yaksar — bir boshda; <sup>2</sup>Burudat — sovuqlik; <sup>3</sup>Afvoji — to'dalar; <sup>4</sup>Qoqim-u sinjob-u kishdin — silovsin, olako'zanak va qunduz terisidan po'stin.

### **LIRIKA HAQIDA**

Lirika – badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan biri. Bu atama yunoncha “lira” so‘zidan olingan. Lira musiqa asbobi bo‘lib, qadimda she’rlar uning jo‘rligida aytilgan. Epik va dramatik turdan farqli o‘la-roq lirika voqelikni emas, balki inson ichki olamining suratlari bo‘lgan ruhiy kechinma, his-tuyg‘ularni tasvirlaydi. Ayni paytda, bu turdagи asarlarning yaratilishida hayot hodisalarining ham o‘rni borligini ta’kidlash zarur. Negaki odamning tuyg‘ulari o‘z-o‘zidan qo‘zg‘olib, harakatga kelavermaydi. Unga ijtimoiy, siyosiy, maishiy yoki tabiiy hodisalar sabab bo‘ladi. Odam bekorga xursand bo‘limgani kabi behudaga iztirob chekavermaydi. Hodisalar ruhiyatda kechinmalarga sabab bo‘la-di, sabablar tuyg‘ularni ifodalashga turki beradi va buning natijasida shoirlarning ong-u shuurida she’r tug‘iladi.

Lirik asarlar, ya’ni she’riyatning qator o‘ziga xos xususiyatlari bor. Avvalo, lirik asarlar, asosan, she’riy shaklda yoziladi. She’riy shakl deyilganda, vaznga solinishi, qofiyalanishi, ma’lum satrlar yig‘indisi bo‘lmish bandlardan iborat bo‘lishi nazarda tutiladi. O‘zbek she’riyatida barmoq, aruz, erkin (sarbast) vaznlari keng qo’llab kelinmoqda. Ikkinchisi, eng asosiysi, unda insonning ruhiy holat va kechinmalari qalamga olinadi. Uchinchisi, ko‘p hollarda poetik maqsad talabi bilan inversiya (gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibi)ga murojaat qilinadi. Shuni ham ayтиb o‘tish kerakki, shoirlarning ijodiy izlanishlari natiasi o‘larоq XX asr boshlaridan adabiyotimizda nasrdagi she’rlar (nasrdagi nazmlar, mansuralar) paydo bo‘ldi. Bunday she’rlar Fitrat, G‘afur G‘ulom, Oybek, Mirtemir, Omon Muxtor, Omon Matjon kabi shoirlar ijodida uchraydi.

Lirik tur o‘z ichida janrlarga bo‘linadi. Janr ma’lum bir she’riy shaklni ifodalaydi. Masalan, mumtoz adabiyotda lirik turning g‘azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, murabba’, muxammас, tarji’band kabi bir necha shakllari, ya’ni janrlari bo‘lsa, boshqa xalqlar she’riyatida sonet, oda, elegiya, oktava, yokku kabi janrlarni uchratamiz.

She’riy asarni baholashda unda **nima** va **qanday** aytilayotgani g‘oyat muhim sanaladi. Buni quyidagi bayt tahlili bilan tushuntiramiz:

Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo manga,

Kelsun agar yuzumni evursam, balo manga.

(Bobur)



Baytda lirik asarga xos barcha xususiyatlar jamlangan. She'riy shaklda, ya'ni vaznga solingan (aruz o'Ichovida), qofiyalangan (bevafo – balo). Shuningdek, "keltursa" fe'l sintaktik vazifasiga ko'ra kesim bo'lib kelayotgan bo'lsa ham, gapning oxirida emas, boshida kelmoqda. Ega va boshqa bo'laklar undan keyin joylashgan, demak, inversiya bor.

Voqelik – lirik qahramonning ishqqa giriftor bo'lishi va ma'shuqaning bevafoligi. Lekin she'rda mazkur holatni bayon qilish asosiy maqsad emas, balki ishq tufayli oshiq boshiga tushgan ichki iztiroblarni tasvirlash muhim. Ma'shuqaning bevafoligi tufayli oshiq ichki qynoqlar girdobida qoladi (yuz balo boshiga kelayotgan oshiq holatini tasavvur qiling). Ko'rayotgan shuncha jafosiga qaramay yorga gina-kudurat qilmaydi, yozg'irmaydi, undan voz kechmaydi, aksincha, u keltirayotgan balolarga quchoq ochadi. Sababi oddiy: suyuklidan kelayotgan azoblar ham sevimli. Bu, yuqorida ta'kidlanganidek, **nimani** aytayotgani.

Endi shu kechinma va tuyg'ular **qanday** aytilayotganiga e'tibor qaratamiz. Birinchi va ikkinchi misralardagi "yuz" so'zlari omonim (yuz soni va inson tanasining qismi) bo'lib, ularning qo'llanilishi tajnis san'atini yuzaga keltirmoqda. Ikkinchi misradagi "yuz" so'zini ikki ma'noda tushunish mumkin: birinchisi, yordan kelayotgan balolardan yuzimni o'girsam, menga balolar bo'lsin ma'nosida. Ikkinchisi, birinchi misradagi "yuz balo" iborasidagi "yuz"ni ayirsam, menga qolgani balo bo'ladi ma'nosida. Keyingi "yuz" bir o'rinda qo'sh ma'noni berayotgani iyhom san'atini hosil qilmoqda. Ayni paytda, baytni yaxlit holda a) to'rtta gapdan; b) uchta gapdan iborat murakkab qo'shma gaplar tarzida tahlil qilsa bo'ladi. To'rtta gap tarzidagi tahlili: 1) o'sha bevafo menga yuz baloni keltirsa; 2) kelsin, ya'ni o'sha balolar kelaversin (to'liqsiz gap); 3) agar balolardan yuzimni o'girsam (nomustaql kesimli gap); 4) balo manga bo'lsin. Uchta gap tarzidagi tahlili: 1) o'sha bevafo menga yuz baloni keltirsa; 2) agar ularidan yuzimni o'girsam; 3) menga balo kelsin. Ikkinchi misra boshidagi "kelsun" misra oxiridagi ega va to'ldiruvchidan iborat "balo manga" uchun kesim vazifasini o'tamoqda.

Ko'rinaridiki, lirkada nimaning qanday aytilayotganini tahlil qilish uning san'at asari sifatidagi qimmatini, o'ziga xos badiiyatini, shuningdek, shoir mahoratini ochishning omili bo'lib xizmat qiladi.

---

## ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O'G'LΙ FURQAT (1859—1909)

---



Zokirjon Xolmuhammad o'g'lι Furqat o'zining lirik she'riyati bilan adabiyotimiz xazinasini boyitgan, ma'rifatchilik adabiyotining darg'alaridan biri bo'lgan hamda o'zbek publitsistikasiga tamal toshlarini qo'ygan zabardast ijodkordir. Shoир 1859- yilda Qo'qonda savdogar oilasida tug'ilgan. Otasi Mulla Xolmuhammad she'riyatga oshno, badiiy ijodga moyil kishi edi. Bo'lajak shoир dastlabki ta'limni mahallasidagi mакtabda oladi. Bir yilga yetmay "Haftiyak" va "Chor kitob"ni o'qib tugatadi. Sakkiz yoshida Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod oladi, sal o'tib, Navoiy mutolaasiga tutinadi. Kichik yoshidan qalam tutib, she'r mashq qila boshlaydi. Keyinchalik o'zining eslashicha, husnixat ta'limini bolaligidanoq puxta egallagan Zokirjon quyidagi baytni to'qqiz yoshida yozgan ekan: "**Mening mакtab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim**".

Favqulodda iste'dod egasi, tabiatan tirishqoq va izlanuvchan Zokirjon o'n to'rt yoshida madrasa talabasi bo'ladi. Ruslar istilosini tufayli Qo'qon xonligi tugatilib, madrasalar yopiladi. O'qishi nihoyasiya yetmay qolgan bo'lajak shoир 1879- yilda Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona)ga do'kondor tog'asi huzuriga boradi. Uning qo'lida bir muddat ishlab, so'ng o'zining mustaqil do'konini ochadi. Shu bilan birga muallimdan dars olib, bilimini takomilga yetkazadi va tez orada o'zi ham boshqalarga dars bera boshlaydi. Husnixat sohibi bo'lganligi uchun mirzalik, xattotlik ham qiladi. Lekin eng sevimli mashg'uloti badiiy ijod edi. Mutaxassislar fikricha, Yangi Marg'ilonda ekanligidayoq yozgan she'rlarida u "Furqat" taxallusini qo'llagan.



1880- yilda otasining qistovi bilan Qo'qonga qaytadi va butun iste'dodi, bor kuchini ijodga yo'naltiradi. She'rlari adabiyot ixlosmandlari orasida shuhrat qozonadi. Muqimiyydek zabardast shoir uning g'azallariga muxammas bog'lagani Furqatning ijod ahli orasida ham e'tibor topganligidan darak beradi. Furqat shu davrda "Hammomi xayol" nomli risola yozadi. Sharqda mashhur bo'lib kelgan "Chor darvesh" asarini fors tilidan o'zbek tiliga o'giradi. Shuningdek, "Nuh manzar" nomli she'riy kitob yaratadi. Biroq bu uch asar bizgacha yetib kelmagan. Yigitlik shijoatini ijodga yo'naltirgan shoir she'rlarini to'plab devon tuzadi. Furqat kabi ijodining dastlabki davrida, ya'ni 21—22 yoshida devon tartib bergen shoirni o'zbek kitobxoni ko'rgan emas edi.

Furqat 1890—1891- yillarda Toshkentda yashaydi. Bu yerda u Toshkent erlar gimnaziyasini direktori, "Turkiston viloyatining gazeti" muharriri Nikolay Ostroumov bilan tanishadi. Bu tanishuvdan so'ng Furqat shu gazetaga tarjimon bo'lib ishga kiradi va shundan uning jurnalistlik, publitsistik faoliyati ham boshlanadi, deyish mumkin.

1891- yilning sentabrida Furqat Samarqandga yo'l oladi. Xat orqali tanishgan do'sti savdogar va etnograf olim Mirzo Buxoriy huzurida bo'ladi. Iyul oyida Buxoroga borib, Kogondan poyezdga o'tirib, Marv, Ashxabod, Boku, Botumi orqali Istanbulga keladi. Bu yerda bir muddat yashagan shoir butun vujudi bilan ijodga berilgandi. 1892- yilda Iskandariya, Misr, Shom, Makka va Madina bo'ylab sayohatda bo'lgan Furqat sentabr oyida Hindistonning Bombay shahrida edi. 1893- yilning bahorida Kashmir, Tibet va Xo'tan orqali Yorkentga keladi va umrining oxirigacha shu yerda yashab qoladi.

Furqat Qashqardagi Rusiya musulmon idorasida kotib bo'lib ishlaydi. Ilmi nujum, tabobat bilan shug'ullanadi. Ra'no ismli ayolga uylanib, farzandlar ko'radi. U to 1906- yilgacha Turkiston bilan, "Turkiston viloyatining gazeti" bilan aloqani uzmaydi.

Furqat 1909- yilning kuzida Vatandan yiroqda vafot etadi.

Furqatning merosiga nazar tashlasak, adibning serqirra ijod sohibi ekanligiga amin bo'lamiz. Uning ijodi quyidagi asarlarni o'z ichiga oladi:

- 1) lirikasi;
- 2) publitsistikasi, nasriy asari;

- 
- 3) tarjimalari;
  - 4) ilmiy asarlari.

Adibning turli yillarda “Turkiston viloyati gazeti”ga yozgan qator xabarlari, maqolalari uning publisistikasini tashkil etadi. 1891- yili “Turkiston viloyatining gazeti”da bosilgan “Xo‘qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoloti. O‘zi yozg‘oni” deb nomlagan tarjimayi holi uni bizga jurnalist va nosir sifatida tanitadi. Adabiyotshunoslikda bu esdaliklar shartli ravishda “Furqatnoma”, ba’zan “Sarguzashtnoma” nomlari bilan yuritiladi.

Furqat ijodiy merosida to‘rt ilmiy asar uchraydi. Ularning uchtasi etnografik xarakterda bo‘lib, “To‘y tavsifi”, “Gap ta‘rifida”, “Aza tavsifi” deb ataladi. To‘rtinchisi “Ilmi ash‘orning qoidayı avzoni” (She‘r ilmining o‘lchov qoidalari) atalib, adabiyot havaskorlari uchun qo’llanma sifatida tuzilgan, unda aruz vaznining qoidalari bayon etilgan.

Furqatning mana shunday keng ko‘lamli ijodi bo‘lishiga qaramay, xalq uni, asosan, lirk shoir sifatida e’tirof etadi. Lirikasi g‘azal, masnaviy, muxammas, musaddas, mustazod kabi janrlardan iborat. She‘rlarining salmoqli qismi g‘azallar bo‘lib, ularning soni 200 atrofida. Shoirning yuksak badiiy mahorati, she‘riyatining nafosati ham aynan g‘azallarida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, oshiqona kechinmalar bayonida, ma’shuqa jamoli tasvirida yangi, o‘ziga xos tashbihlar ni, ifoda vositalarini qo’llaydi. Tilining jozibadorligi, uslubning ravonligi, ifodaning soddaligi shoir g‘azallarining xalqqa yaqin va suyumli bo‘lishini ta’minladi.

Chaman sahnida derlar sarv birla yosuman nozik,  
G‘alatdur, qomating oldida guldan pirahan nozik.

Qachon ul Yusufi Misriyda bu husn-u malohat bor?  
Fasohatda, sabohatda, hama to‘g‘rida san nozik.

Oshiqqa chamanzorda sarv daraxti bilan yosuman gulini nozik va ko‘rkam deyishlari g‘alati tuyuladi, chunki yorning qomati sarvdan, ko‘ylagi (pirahani) guldan nozik, ya’ni go‘zaldır. Ma’shuqasining husni ni bashariyat tarixidagi eng go‘zal inson bo‘lmish misrlik Yusuf (a.s.) dan ustun qo‘yadi. Bunga uning asosi bor: mahbubasi fasohatda,



sabohatda (xushro'ylikda), bir-bir sanashning hojati yo'qki, har to'g'rida nozik — go'zal!

Kalomgingdin halovat topmog'i jonlarni ondinkim,  
Dahon nozik, zabon nozik ki lab nozik, suxan nozik.

Baytdagi yor go'zalligi belgilarining sanog'i mazmunni bo'rttiradi, ifodaga musiqiylik bag'ishlaydi. Bunday mubolag'ali tasvir ostida shoirning har tomonlama mukammal — ham jismonan, ham ma'nani go'zal insonni targ'ib etish maqsadi yotadi. Shuning uchun ham Fuzuliy g'azaliga nazira sifatida yaratilgan "Surmadin ko'zlar qaro" g'azali yoki "Muncha zolim bo'lmish ul xunrez qaro ko'zlarining" kabi ko'plab g'azallarida yor go'zalligi, oshiqning unga sadoqati, cheksiz muhabbatni avj pardalarda zavq bilan kuylanadi.

Furqat lirikasida g'urbat va hasrat ohanglari salmoqli o'rinni egal-laydi. Bu uning hayot yo'li bilan bevosita bog'liq. 1892-yilda Vatandan chiqib ketgan shoir umrining oxirigacha yurtga qayta olmadi. Shuning uchun Vatan ishtiyoqi va g'urbat iztiroblari turli mavzudagi she'rlarda dardli va ta'sirchan ifoda etilgan. Shoirning "Fig'onkim, ul buti siymin zaqandan ayrilib qoldim", "Hasrato, kel-kel beri, ul sho'xi jonondin gapur" g'azallarining maqtasida yuqorida eslatilgan "Bir qamar siymoni" g'azalida bo'lgani kabi taqdirning unga bergen sinovi — yurt judoligi bayon qilinadi:

O'z diyordin adashgan, Furqatiy devonaman,  
Chug'zi har vayronadurmen, baytul ehzondin gapur.

Shoirning Istanbulda yozgan "Sabog'a xitob" she'rida Vatanni qo'msash, do'stlar sog'inchi Navoiydagi kabi maktub shaklida ifoda etiladi. U Istanbuldagi "nasimi fayzi rab" bo'lgan Milliy bog'da sayr qilar ekan, undagi xurram "mardum" (odamlar) chehrasini ko'rib, olis Toshkentdagi yor-u do'stlarini esga oladi:

Alar chun aylagach sayr-u safolar,  
Esimg'a tushti yor-u oshnolar...  
Ayo bodi sabo, Alloh uchun tur,  
O'zingni Toshkand shahriga yetkur.



Furqatning g'urbat ruhidagi she'rlari sinchiklab o'rganilsa, undagi ayriliq va judolikning ma'nosi ancha kengligiga amin bo'lamiz. "Manam sho'rida bulbul" muxammasida birinchi bandidan shoir o'zini bo'stonidan adashgan sho'rida bulbulga o'xshatadi. Keyingi bandlarda "Nihoni kuydirib hajr o'ti po'st-u ustuxon aylar", "Boshimda hushim yo'q", "Yetim qo'zi kabi nolonlig'im", "Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli yodida" kabi misralar orqali holini sharh etgach, maqtada bu bayonlarni umumlashtirib, taxallusiga ham izoh berib o'tadi.

Zamon g'avg'osidan adashish — bu dunyodan qo'l yuvish, tariqat yo'liga kirish, o'zini Allohga bag'ishlash demakdir. Bu yo'lga kirganlar biladiki, inson bu dunyoda o'zining haqiqiy vatani — ilohiy dargohdan uzoqda, haqiqiy Yor — Allohdan ayriliqda. Demak, hayotning o'zi furqat, ya'ni ayriliqdir. Vatanga, Yorga yetishish uchun esa riyoza chekish, poklanish zarur. Buning yo'li, aytilganidek, zamon oshubidan yiroq bo'lishdir. Oldin ko'rilgan g'azallarda furqat, g'urbat tushunchalari yurtdan judolik mazmunida qo'llangan bo'lsa, shoir bu she'rida o'zining taxallusini tasavvufiy ma'noda izohlamoqda.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Furqat umr yo'lining qaysi jihatlari uning ijodida aks etganligini so'zlang.
2. Shoirning ma'rifatchilik yo'nalishidagi asarlari vujudga kelishi omillarini aytинг.
3. Furqat she'riyatidagi g'urbat tushunchasi qanday ma'nolarni anglatishi to'g'risida fikrlaringizni bildiring.

## **G'AZALLAR**

Fasli navbahor o'ldi ketibon zimistonlar,  
Do'stlar, g'animattdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushib shabnam, bo'ldi sabzalar xurram,  
Gul uza tomib kam-kam, yog'di abri naysonlar<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Abri nayson – ko'klam buluti.



Nastaran<sup>1</sup> yuvib yuzni, yosuman<sup>2</sup> tuzib o'zni,  
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,  
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar<sup>3</sup>.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,  
Sarv-u gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,  
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar<sup>4</sup>.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutib savsan<sup>5</sup>,  
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar.

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog'imkim,  
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

\* \* \*

Furqatning “***Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar***” g'azali – tabiat lirikasining namunasi. Unda ko'klam kelishi bilan tabiatda ro'y berayotgan go'zal o'zgarishlarni g'oyat sinchiklab kuzatgan shoirning qalb kechinmalari aks etgan. Birinchi baytda shoir bahor kelib, zimistonlar ketgan ekan, do'stlarini g'animat bu damlarda gulistonlarda sayr etishga chaqiradi.

Mumtoz adabiyotda uzoq intiq kutib, orzuga yetgan damlардан oldingi intazorlik davrini qorong'ulik sifatida tasvirlash o'ziga xos an'ana. Masalan, Navoiy Farhodning tug'ilishini “Shabistonida tug'di bir yangi oy” deb tasvirlaydi. Misrada “shabiston” so'zi xoqonning o'g'il ko'rguncha bo'lgan davrdagi farzandsizlik hasratida o'tkazgan yillarni ifodalaydi. Ogahiy bahor kelgunga qadar hukm surgan azobli qish kunlarini soyaga mengzaydi: “Ko'tardi yer yuzidin soya navro'z”. Shuning uchun ham shoir o'tkinchi umrni go'zallik qo'ynida ezgu lik bilan kechirishni istaydi. Chunki bahorgina emas, umr ham o'tkinchi –

<sup>1</sup>Nastaran – gul turi; <sup>2</sup>Yosuman (jasmin) – gul turi; <sup>3</sup>Biyobon – dasht, cho'l; <sup>4</sup>Giribon – yoqa; <sup>5</sup>Savsan – gulsafsar, qo'g'agul.



“g’animat”. Matladan so’ng shoir o’zini muvozanatdan chiqargan, hajajonga solgan ko’klam manzarasini chizishga tutinadi. Ko’z oldingizda dilbar bahor tongining latif manzarasi namoyon bo’ladi: subhiy shabnamlardan ko’m-ko’k maysalarning yashnab turishi, bahor buluti onda-sonda tashlab turgan tomchilar va Yaratganning san’atiga lol-u qoyil oshufta ko’ngil... O’zbek tilining ifoda imkoniyatlardan mahorat bilan foydalangan shoir shunchaki axborot berib qolmay, g’azalxonda kuchli his-tuyg’u uyg’otishga erishadi:

Subhidam tushib shabnam, bo’ldi sabzalar xurram,  
Gul uza tomib kam-kam, yog’di abri naysonlar.

Furqat ko’klam manzarasini o’z holicha tasvirlamaydi, uni jontantiradi. U atrofdagi har bir unsurni – masalan, nastaran, yosuman va nargis gullarini dilga yaqin kishiga munosabati nuqtayi nazariдан tasvirlaydi. Ularda “yoronlar”, ya’ni yor-jo’ralarga intazorlik, intiqlik ko’radi. Kishi ko’zini quvontirayotgan bahoriy ko’katlar shunchaki go’zal emas, balki yaqinlarni kutib olishga hozirlik ko’rayotganligi sabbab go’zaldir:

Nastaran yuvib yuzni, yosuman tuzib o’zni,  
Nargis ochibon ko’zni intizori yoronlar.

Ko’klamning eng sara chechaklari sara odamlar – yoronlarni kutib olishga hozirlik ko’rishadi. Furqat tabiatni tinimsiz harakatda ko’rsatadi. Ko’klam manzarasi, undagi o’zgarishlarni, almashinishlarni jonli tasvirlaydi:

Bir sahar edim uyg’oq: o’t tutashdi olamga,  
Tog’lar chekibon larza, titradi biyobonlar.

Tabiat go’zalligiga oshufta lirik qahramon uyg’oq bir saharda chaqmoq chaqdi – butun olamga o’t tutashganday bo’ldi. Ketidan momaqaldoiroq gumburlab tog’lar larzaga keldi, biyobonlarni titratib yubordi. Shoir jontantirish orqali g’oyat go’zal lavha yaratgan.



She'rning beshinchi baytida qo'llangan taqlidiy so'zlar g'azal musiqiyligini oshirgan, oldingi misralarni kuchaytirishga, yangi tafsilotlar bilan mustahkamlashga xizmat qilgan. Unda jonli narsalar holati tilga olinadi. Furqatdan oldin o'rganilgan siymo – Ogahiyning ishqiy g'azallari tahlilida ko'rildiki, maqtadan oldingi ikki bayt ijtimoiy, falsafiy mazmun kasb etardi. Sakkiz baytli mazkur she'rda ham oltinchi bayt dan g'azalga ijtimoiy ma'no kirib kela boshlaydi:

Bulbul o'qug'och yig'lab, subhidam xazon faslin,  
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Baytda g'unchaning gul bo'lib ochilishi jarayoni husni ta'lil san'ati vositasida o'ziga xos tarzda tasvirlangan. Husni ta'lil biror tasvir yoki holatni unga, umuman, aloqasi yo'q boshqa narsa bilan dallash, yolg'on bo'lsa-da, chiroyli sabab keltirish. Ko'klamning shundeq farahli ertasida bulbul xazon faslini eslab nola qilgach, u qo'ngan gulning g'unchasi ham qon yutib, yoqasini yuz joyidan yirtib yuboradi. Yoqasi yirtilgan g'uncha yozilib ketadi, ya'ni ochiladi (Aslida g'unchaning yozilishi bulbulning nolasiga aloqasi yo'q edi). Nima uchun bulbul subhidamda xazon faslini eslaydi? Buning sababi yettinchi baytda ochiladi. Chunki dunyodan vafo ahli kechganlar. Xalqimizdagи azadorlarning ko'k kiyish udumidan shoir bu baytda unumli foydalangan. G'azalning maqtasida shoirning vafo ahlining nohaq ranjitelishiga, qadr topmaganligiga kuyinchak munosabati aks etadi:

Kuymasun bu savdodan ne uchun dimog'imkim,  
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

Albatta,adolatparvar shoir donolarning g'ussa chekib, nondonlarning shod yashashidan ozorlanadi va buni murakkab ramzlar vositasida jozibali ifodalaydi. Shoir o'z davri uchun g'oyat dolzarb bo'lganadolat va ma'rifat muammolarini faqat faslning go'zalligini kuylashga bag'ishlanganday tuyuluvchi she'rning zamiriga ustalik bilan singdirib yuborgan.



\* \* \*

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar hinodin lolarang,  
G'ozadin<sup>1</sup> yuzlarda tob-u<sup>2</sup>, o'smadin qoshlar tarang.

Za'faronyi ko'yak uzra arg'uvoniy<sup>3</sup> kamzihur,  
Ro'ymol og'ushidin peshonaning ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok<sup>4</sup>,  
Qo'l bilakuzukdin muzayyan<sup>5</sup>, nuqradin og'izda chang.

Gavhar osqon halqalar siymin banogo'shinda<sup>6</sup> band,  
Ko'rinur zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

G'amza birla o'lturur, gah jilvalar birla yurur,  
Turfa bir noz, ofarin, purishva tannoz-u satang.

Aql-u hush eltar agar tursa paritek silkinib,  
Odamizod ichra ham mundoq bo'lurmi sho'x-u sha'ng<sup>7</sup>.

Yo'q qutulmoqliq manga ul ofati jon dastidin,  
Qasdima qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadang<sup>8</sup>.

Ul parivash ishqidin goh telbadurman, goh sog',  
Chunki bordur oramizda gohi sulh-u gohi jang.

Javrarkim, Furqat, ul sho'xi jafojo<sup>9</sup> ayladi,  
Muncha bedod-u sitam qilmas musulmong'a farang<sup>10</sup>.



### Savol va topshiriqlar:

1. G'azal matlasini sharhlang. Ayollarning milliy oroyish ashyolariga diqqat qiling va bugungi pardoz buyumlariga taqqoslang. Siz qaysi birini afzal bilasiz?

<sup>1</sup>G'oz - qizil rangli elik; <sup>2</sup>Tob - nur, jilo; <sup>3</sup>Arg'uvoniy - qizil; <sup>4</sup>Zebnok - yasangan;

<sup>5</sup>Muzayyan - bezangan; <sup>6</sup>Banogo'sh - quloq teshigi; <sup>7</sup>Sha'ng - o'ynoqi; <sup>8</sup>Xadang - oq; <sup>9</sup>Jafojo' - jafo qiluvchi; <sup>10</sup>Farang - yevropalik, bu yerda g'ayri din nazarda tutilgan.

- 
2. ***“Za’faroniy ko’ylak uzra arg’uvoniy kamzihur, Ro’ymol og’ushidin peshonaning ahvoli tang”*** baytidagi tasvirdan kelin-chakning qanday kiyiganligini izohlang.
  3. ***“Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok, Qo’l bilakuzukdin muzayyan, nuqradin og’izda chang”*** baytiga suyanib, o’zbek kelinchagini nafosati to’g’risida fikr yuriting.
  4. G’azaldan olgan tasavvurlaringiz asosida kelinchakni o’z so’zlarining bilan tasvirlab bering. Uni, albatta, yod oling.

“O’zbek kelinchagi Furqat tasvirida” deb nomlangan quyidagi jadvalning har bir xonasini g’azaldagi ularning mazmuniga mos kela-digan so’z va birikmalar bilan to’ldiring.

| Milliy oroyish ashyolari<br>va zeb-ziynatlar | Tashqi ko’rinishi va<br>kiyimlari         | Ma’naviyati va<br>xarakter xususiyatlari              |
|--|---|---|
| Surma...,<br>oltun uzuk....                  | Ko’zlar qaro...,<br>Za’faroniy ko’ylak... | Nuqradin og’izda chang..,<br>g’amza birla o’lturur... |

\*\*\*

Biz istig’no<sup>1</sup> eli, qichqirmag’on ma’vog’a bormasmiz,  
Agar chandeki<sup>2</sup> xirman aylasa, dunyog’a bormasmiz.

Agar labtashna qolsak filmasal<sup>3</sup> sahroyi olamda,  
Malolat zohir etsa mavj uran daryog’a bormasmiz.

Umid etgonimiz aksar saodat bo’tayi Haqdin<sup>4</sup>,  
Agarchi mis erurmiz, qimmati tillog’a bormasmiz.

Hamisha lof urarmiz xalq aro Farg’ona mulkida,  
Bag’oyat ta’bimiz ozoda deb, har jog’a<sup>5</sup> bormasmiz.

---

<sup>1</sup>Istig’no – noz. Bu yerda tortinish, o’zni tortish ma’nolarida qo’llangan; <sup>2</sup>Chandiki – shunchalar; <sup>3</sup>Filmasal – masalan; <sup>4</sup>Bo’tayi Haq – Haqning sovg’asi; <sup>5</sup>Jo – joy.



Havo loyig'a botqan moumanlik do'sti xudbinkim,  
O'shandoq kamzarofat<sup>1</sup> maskani a'dog'a<sup>2</sup> bormasmiz.

Biz ellar — faqr elimiz, parcha nong'a sabr aylarmiz,  
G'araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog'a bormasmiz.

Emasdur oncha asbobi jahong'a fikrimiz, Furqat,  
Vale ketguncha juz<sup>3</sup> andishai fardog'a<sup>4</sup> bormasmiz.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Matlani tahlil qiling. Uning mazmunidan kelib chiqib, "istig'no eli" birikmasining ma'nosini izohlang.
2. "*Umid etgonimiz aksar saodat bo'tayi Haqdin, Agarchi mis erurmiz, qimmati tillog'a bormasmiz*" baytidagi Haqning sovg'asi (bo'tayi Haq) deganda nima nazarda utilgan? Bu sovg'a-dan umid etganlar qaysi maslak (ta'lilot) asosida yashaydilar?
3. "*Biz ellar — faqr elimiz, parcha nong'a sabr aylarmiz, G'araz dunyo uchun Iskandar-u Dorog'a bormasmiz*" misralarida aks etgan qanoat tuyg'usini izohlang.

### **MUSADDAS**

Sayding<sup>5</sup> qo'yaber, sayyod<sup>6</sup>, sayyora ekan mendek,  
Ol domini<sup>7</sup> bo'ynidin, bechora ekan mendek,  
O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek,  
Iqboli nigun<sup>8</sup>, baxti ham qora ekan mendek,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek.

Kes rishtanikim, qilsun chapaklar otub jasta,  
Hajrida alam tortib, bo'ldi jigari xasta.

<sup>1</sup> Kamzarofat – bu yerda nopok ma'nosida; <sup>2</sup>A'do – yovlar; <sup>3</sup>Juz – bo'lak, qism; oz, mayda; <sup>4</sup>Fard – bitta, biror; yakka, yolg'iz; <sup>5</sup>Sayd – ov; <sup>6</sup>Sayyod – ovchi; <sup>7</sup>Dom – tuzoq;

<sup>8</sup>Nigun – egilgan, bukilgan.

Tog'larg'a chiqib bo'lsun yori bilan payvasta,  
Kel, qo'yma balo domi birla oni pobasta,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek.

Besh kun seni davringda bechora xirom<sup>1</sup> etsun,  
Ohular ila o'ynab, ayshini mudom etsun,  
Yomg'ur suvi to'Iganda tog' lolani jom etsun,  
Haqqingga'a duo aylab, umrini tamom etsun,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek.

Tog'da ochilib lola, yer sabza bahor o'lsa,  
Oxir bu nechuk bedod<sup>2</sup>, olam anga tor o'lsa,  
Chiqmay desa joyidan, uzlatda<sup>3</sup> figor<sup>4</sup> o'lsa,  
Gar chiqsa banogohi domiga duchor o'lsa.  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek.

Sargashta bu vodiyda bir boshig'a rahm etgil,  
Yoq toqati bandingga, bardoshiga rahm etgil,  
Rahm etmasang o'ziga, yo'ldoshiga rahm etgil,  
Yig'lab senga termulur, ko'z yoshig'a rahm etgil,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek.

Bechorani zulm aylab, qo'l, bo'ynini bog'absan,  
Har sori chekib-sudrab, o'ldurgali chog'absan,  
Ko'ksini jafo birla lola kabi dog'absan,  
Sot menga, agar qasding olg'uvchi so'roqlabsan,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek.

Yo'q hushi, pari tekkan devonag'a o'xshaydur,  
Ko'z yoshi yana to'igan paymonag'a o'xshaydur,

---

<sup>1</sup>Xirom – yurishi; <sup>2</sup>Bedod – zulm; <sup>3</sup>Uzlat – yolg'izlik; <sup>4</sup>Figor – yarali.



G'am seli bilan ko'ngli vayronag'a o'xshaydur,  
Furqatda bu Sa'dullo hayronag'a o'xshaydur,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,  
Kuygan jigari, bag'ri sadpora ekan mendek.



### Savol va topshiriqlar:

1. Musaddasning to'la matnnini o'qib, unda ifodalangan voqeа mazmunini so'zlab bering. Unda qanday ruh, kayfiyat yetakchilik qiladi?
2. She'rda qaysi obrazlar ishtirok etmoqda? Ularga ta'rif bering.
3. "**O'z yorini topmasdan ovora ekan mendek**" misrasini shartlang. Nima uchun shoir sayd — ohuni o'ziga o'xshatayapti?
4. Sayd obrazи she'rda faqat ovlangan ohuni ifodalaydimi yoki majoziy ma'hosи bormi?
5. Sayyod obraziga munosabat bildiring. U kimlarning timsolini gavdalantiradi?
6. Lirk qahramon Sizda qanday taassurot qoldirdi? Ohuga munosabatiga ko'ra uni o'zingizga yaqin sezyapsizmi?
7. Ushbu she'rغا Siz qanday nom (sarlavha) qo'yardingiz?

## KASHMIRDA

Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda,  
Ko'zlari mas'hur-u<sup>1</sup> yuz jodu erur tasxirda<sup>2</sup>.

Zarra-zarra zar sochar boshig'a har kun oftob,  
Subh kelgach kecha yotib chashmai Iksirda<sup>3</sup>.

Bir ko'rib chohi zaqan Horut ila Morut<sup>4</sup> ikov,  
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo'lak tadbirda.

Lam'ayi<sup>5</sup> quyg'och ko'zidin aning barqi nigoh,  
Tezlik javharlari gar bo'lsa har shamshirda.

<sup>1</sup>Mas'hur – joduli; <sup>2</sup>Tasxir – zabit etish, qo'liga olish; <sup>3</sup>Iksir – jannatdagи bir buloq; <sup>4</sup>Horut va Morut – rivoyatga ko'ra ko'kdan ingan farishtalar bo'lib, gunohlari uchun Bobil qu-dug'iga tashlanganlar; <sup>5</sup>Lam'a – porlagan nur.



Qoshi uzra xolining asrорidin bir nuqtadur,  
“Surayi Nun” о‘quдум payvasta har tafsirda.

Forig’ ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,  
Zulfiga dilbastalig’ har bir juvon-u pirda<sup>1</sup>.

Aytdim: “Ey jon ofati, zulfiningga bo‘lmishman asir!”  
Aydi: “Bu savdoni qo‘y, umring o’tar zanjirda!”

“Nuqta lab ustida bejodur”, — dedim, aydi kulib:  
“Sahv<sup>2</sup> qilmish kotibi qudrat magar tahrirda”.

Aydi: “Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?”  
Man dedim: “G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda!”



### Savol va topshiriqlar:

1. Matladagi “Kashmir”, “mas’hur”, “jodu” va “tasxir” so‘zlari orasi-dagi ma’noviy bog‘liqlikni sezyapsizmi? Izohlang.
2. Kechasi bilan tiriklik suvi qaynab chiqadigan buloq bo‘yida tunagan oftobning tongdan ma’shuqa boshidan zarra-zarra zar (nur) sochishini qanday sharhlaysiz?
3. Ma’shuqa tasvirlangan baytlarni sharhlab, uning portretini tasvirlab bering.
4. Oshiq va ma’shuqa dialogini tahlil qiling, sakkizinch baytdagi mutoyibani tushuntirishga harakat qiling.
5. Maqtadagi “Furqat” so‘ziga diqqat qiling. U qanday ma’nolarda kelyapti?

---

<sup>1</sup>Juvon-u pir – yosh-u qari; <sup>2</sup>Sahv – xato.



## **Nazariy ma'lumot**

### **G'AZALDA BADIY TASVIR VOSITASINING O'RNI**

Adabiyot san'at turlaridan biri ekanligidan xabardorsiz. Bu san'at turi haqidagi ilm adabiyotshunoslikdir. Quyi sinflardan o'tmis adiblarning eng sara, tanlangan vakillari ijodini aks ettiruvchi mumtoz adabiyot namunalari bilan tanishib kelmoqdasiz. Asosiy ijod shakli she'riyat bo'lgan mumtoz adabiyotni ilmiy o'rganadigan soha mumtoz adabiyotshunoslik deyiladi. Mumtoz adabiyotshunoslik uch qismidan iborat — aruz ilmi, qofiya ilmi, badiiyat ilmi. Aruz she'rning vazni (o'Ichovi) haqida, ikkinchisi qofiya tuzilishi, ahamiyati, unsurlariga ko'ra turlari to'g'risidagi bo'lsa, oxirgisi ilmi badi' deb ham ataladi. Ilmi badi' arabcha birikma bo'lib, chiroyli so'zlash, nodir, ajoyib ifoda ilmi degani. Badiiy tasvir vositalarining she'r badiiyatini ta'minlashdagi o'rnini tushunish uchun Atoyi g'azallariga murojaat qilamiz:

*Jamoling vasfini qildim chamanda,  
Qizordi gul uyottin anjumanda.*

Baytni tushunishni osonlashtirish uchun undagi gap bo'laklari ni odatdagagi tartibga keltirib olamiz hamda misralarda ochiq ishtirok etmay, yashirin kelayotgan bo'laklarni qavs ichida beramiz: (Men) chamanda jamoling vasfini — ta'rifini qildim, (shunda) anjuman, ya'ni chamanzordagi gul uyatdan qizarib ketdi.

Endi o'ylab ko'ring, oddiy til bilan aytganda, shoir nima demoqchi o'zi? Bilib turganingizdek, u: "Mening yorim juda ham chiroyli", — deyapti, xolos. Ana shu oddiy fikrni shoirona badiiy ifodalamoqda. Tahlilda Siz xayolga, fikrlaringizga erk bering, tasvirlangan lavhani, matnni kengaytirib oling. Yuqoridagi baytni quyidagicha sharhlash mumkin: gullar yig'ini — anjumanida bir gul: "Dunyoda eng go'zal menman", — deya maqtanardi. Buning ustiga kelib qolgan oshiq o'z ma'shuqasini ta'rif qilgan edi, o'zidan bir necha marta go'zalroq jamol egasi borligini eshitgan gul maqtanchoqligidan sharmanda bo'lib, qizarib ketdi va shundan keyin dunyoda qizil gul paydo bo'ldi. Ko'rib turganingizdek, shoir gulni insonlardek jonli qilib tasvirlayapti. Demak, baytda ***jonlantirish*** san'ati qo'llangan. Bu tasvir vositasi mumtoz



adabiyot ilmida **tashxis** (shaxslantirish) san'ati deb ataladi. Yana bir holat. Dunyoda qizil gul paydo bo'lishiga mazkur baytda aytiganidek, oshiqning chamanda ma'shuqa ta'rifini qilishiga aloqasi bormi? Yo'q, albatta. Aslida, bu go'zalgacha ham chamanzorda qizil gullar bor edi. Shoir esa men sevgilimning ta'rifini ovoza qilganididan keyin gulning uyalishidan borliqda qizil gul paydo bo'ldi deydi. Yo'q joydan shoirona lutf bilan aloqadorlik tiklangan. Bu kabi bir narsa (tasvir, holat)ni unga aloqasi bo'limgan boshqa narsa bilan izohlash **husni ta'lil** (chiroyli dalillash) deyiladi.

Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum,  
Kishi bilmas onikim, qoldi qanda?

Avvalo, lug'at yordamida notanish so'zlar ma'nosi aniqlab olindii: tamanno qilmoq — orzu qilmoq; la'l — lab, la'lning o'zi qimmatba-ho qizil toshdir; qanda — qayerda. Misralardagi gap bo'laklarini odad-dagi tartibga keltiramiz: Ko'nglim la'l kabi qizil labingni orzu qilgan edi, (lekin hech bir) kishi labingning qayerda ekanligini bilmaydi.

O'ylang-chi, shoir ma'shuqaning labi qayerda ekanligini hech kim bilmasligini aytish bilan nima demoqchi bo'lyapti? Sharq mum-toz she'riyatida noziklik — go'zallikning belgisi. Bu baytda "Yorning og'zi juda ham tor", — degan oddiygina fikr bildirilayapti. Lekin Atoyi uni shoirona tarzda yorning og'zi shu qadar kichikki, kishi har qancha tikilsa ham, labi qayerdaligini topa olmaydi shaklida ifodalamoqda. Yorning og'zi tor degan ma'no bo'rttirib, o'ta kuchaytirib berilmoqda. Adabiyotshunoslikda juda bo'rttirish yoki o'ta kuchaytirib tasvirlash **mubolag'a** deyiladi.

Solib borma meni, ey Yusufi husn,  
Bu kun Ya'qubtek baytul hazanda.

Baytdagi "baytul hazan"ni arabchadan so'zma-so'z tarji-ma qilsak, "g'am uyi" degan ma'noni anglatadi. Bu yerda kuchli iz-tirob, qayg'u ma'nosi ifodalanmoqda. Baytda "Ey husni Yusuf (kabi yor), bukun sen meni Yoqubtek (Ya'qubtek) qilib qayg'u uyiga solib qo'yimagin" tarzidagi mazmun berilayotganini sezgan bo'lsangiz ker-ak. Misralardagi Yusuf, Yoqub obrazlari ishora qilayotgan ma'noni tushungan kishi baytni to'la idrok eta oladi.



Rivoyatga ko'ra, Yoqub payg'ambarning o'n bir o'g'li bo'lib, kenja o'g'li husnda tengsiz Yusufni jonidan ortiq suyar, bir dam bo'lsa ham oldidan jildirgisi kelmas ekan. Otasining Yusufni o'zlaridan ortiq ko'rayotganiga hasad qilgan o'gay akalari uni o'ynatib kelamiz deb dashtga olib chiqishadi va uni o'ldirish maqsadida quduqqa tashlab yuboradilar. Ukalarining yechib olingan ko'ylagini qonga botirib, otalariiga: "Yusufni bo'ri yeb ketdi", — deb ko'rsatadilar. Yoqub alayhissalom o'g'li qaytib kelguncha necha yillar davomida ayriliq tufayli kecha-kunduz qon yig'laydi. Demak, shoir: "Ey yor, o'zingni yiroq qilib, meni ayriliqda qiynamagin", — degan fikrni ifodalash uchun Yoqub va Yusuf alayhissalom haqidagi rivoyatga ishora qilmoqda. She'riyatda tarixiy voqeа va shaxslar, adabiy qahramonlarga ishora qilish **talmeh** (arabcha "nazar solmoq") san'ati deb yuritiladi.

Uzun sochingdin uzmashmen ko'ngulni,  
Ayog'ing qanda bo'lsa, boshim anda.

Bu baytda barcha gap bo'laklari o'z joyida. Faqat "uzmasmen" bilan "ko'ngulni" so'zlarining o'rni almashgan xolos. Gap nima uchun baytning birinchi misrasida yorga: "Uzun sochingdan ko'ngulni uzmayman", — degan oshiq ikkinchi misrada: "Ayog'ing qayerda bo'lsa, boshim o'sha yerda", — deyotgani sababini aniqlashda. Bu gaplarning bir-biriga qanday bog'liqligi bor? Ma'lumki, mumtoz she'riyatda ma'shuqa sochlari uzunligidan uning oyog'igacha tushib turishi tasvirlanadi. Xalq orasida uzun sochli ayollarga nisbatan "...sochi tovoniga tushadi", — degan ibora qo'llanishini ham eshitgandirsiz, hoynahoy. Buning ustiga, qadimda qushlar qildan yasalgan tuzoq bilan ovlangan. Oshiqning ko'ngil qushi ham ma'shuqaning sochidan qilingan to'rga ilingan, albatta.

Demak, ko'ngilni bog'lab olgan soch oyoqqacha tushar ekan, shu sochga shaydo bo'lib, uning domiga tushgan oshiqning boshi yana qayerda bo'lsin!? Shuningdek, ikkinchi misraning "Sen qayerda bo'lsang, men ham o'sha yerdaman" degan ma'nosi ham bor. Oshiq ko'ngli yorning uzun sochlariга bog'langan va bu bog'liqlik uzilmas ekan, u ma'shuqaning izidan qolmaydi.

"Uzun" va "uzmasman" so'zлari o'zakdoshlarga o'xshab keta-



digan “uz” so‘zi bilan boshlanib, baytga ajib ohangdorlik bag‘ishlaydi. Ayni paytda, bu ohangdorlik shu so‘zlar ifodalayotgan ma’noni kuchaytiradi ham. She’rda o‘zakdosh so‘zlarning qo‘llanishi **ishtiqoq** (arabcha “so‘zdan so‘zni ajratish” ma’nosida) tasvir vositasi hisoblanadi. Shu g‘azalning uchinchi baytidagi “Chu jonimdan aziz jonona sensen” misrasida qo‘llangan “jon” va “jonona” so‘zları o‘zakdosh bo‘lib, ishtiqoqni hosil qilgan. Tahlil etilayotgan g‘azalning “Ayog‘ing qanda bo‘lsa, boshim anda” misrasidagi “ayoq” va “bosh” o‘zaro qarama-qarshi ma’noli (antonim) so‘zlardir. She’rda bu xildagi qarshilantirish asosiga qurilgan badiiy tasvir vositasi **tazod** (arabcha “zid qo‘yish” ma’nosida) deyiladi. “Ko‘ngul olding, begin, yoshurmog‘ing ne?” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalda boshqa bir she’riy san’atni uchratish mumkin:

Raqiblарg‘а qilur la’ling tabassum,  
Qonimni g‘ussadin toshurmog‘ing ne?

Ko‘ngul shishasida mehring mayidir,  
Jafo birla anga tosh urmog‘ing ne?

Xalq orasida “qoni qaynadi” degan ibora bor. U iztirob tufayli tuyg‘ulari junbishga kelgan kishi holatiga mos keladi. Avvalgi baytda oshiq yorga qarata “La’ling (labing) raqiblarga tabassum qilyapti, g‘ussadan (mening) qonimni toshirmog‘ing (qaynatganing) nimasi?” demoqda. Keyingi baytda oshiqning ko‘ngli shishaga, yorga muhabbat esa mayga mengzatilgan. Ma’shuqaning jafo qilishini ana shu ishq mayi quyilgan ko‘ngil shishasiga tosh urishga o‘xshatilmoqda. “Toshurmoq” hamda “tosh urmoq” so‘zları omonim (shakldosh) so‘z ekanligini payqagan bo‘lsangiz kerak. She’rda shakldosh so‘zlarni qo‘llash orqali san’at yaratish **tajnis** (“jinsdosh” ma’nosida) deyiladi.

Eslab qoling: mumtoz she’riyatda ko‘p qo‘llanadigan “shisha”, “ko‘za”, “ayog” (idish), kosa kabi timsollar zamirida, aksariyat hollarda, **ko‘ngul** (qalb, yurak) tushunchasi, “may”, “sharob”, “boda” so‘zları ostida *ishq*, *muhabbat*, *mehr* ma’nolari yashiringan bo‘ladi. Demak, ular ramziy ma’noga ega.



## IMOM AL-BUXORIY

(810—870)

Biz, o'zbeklar, dunyo ahliga ilm-u ma'rifat, iymon, e'tiqod sabo-g'ini ularshgan buyuk ajdodlarning vorislarimiz. Bunday buyuklik asosi, hech shubhasiz, muqaddas dinimizdir. "Islom dini bizni ezgu-lik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat eta-di. Markaziy Osiyo Uyg'onish davrining ko'plab yorqin namoyanda-lari islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan beba ho hissasini alo-hida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalarimizdan biri Imom al-Buxoriy o'z ahamiyatiga ko'ra islom dinida Qur'oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan "Sahihi Buxoriy"ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan. Bu ulug' zotning boy merosi-ni asrab-avaylash va o'rganish, islom to'g'risidagi ma'rifiy ta'llimotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom al-Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida qa-ror qabul qildik. Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi"<sup>1</sup>.

Yurtboshimiz faxr bilan tilga olgan bu zot butun islom dunyo-sidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan *oltita ishonchli hadislар to'plamining mualliflaridan biri, aniqrog'i, boshqa muhaddislar ustozi, imomidir.* Uning to'liq ismi Abu Abdullah Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy hisobda 194- yil shavvol oyining 13- kuni (810- yil 21- iyul)da Buxoro shahrida tug'ilgan. Boshqa ko'pgina olimlardan farqli o'laroq al-Buxoriy tug'ilgan sana aniq ko'rsatilishiga sabab shuki, uning otasi Ismoil o'z davrining ilmli odamlaridan bo'lib, o'g'lining tug'ilgan kunini o'z qo'li bilan yozib ketgan qog'oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yet-

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 19- sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida so'zlagan nutqidan.



gan va shu xususda ham uning aniqligiga hech shubha yo'q. Imom al-Buxoriy yoshligidayoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehnli va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi.

Manbalarda ko'rsatilishicha, u o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli roviylardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustozи Shayx Doxiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan. 825- yili o'n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hijozga qarab yo'l tutadi, muqaddas shahlar — Makka va Madinani ziyyarat qiladi. Olti yil Hijozda yashab, hadis ilmidan o'z bilimini yanada oshirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblangan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashaydi. U joylardagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslar-u munozaralarda qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom al-Buxoriy hayotining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tadi.

Yana bir vatandoshimiz termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o'zaro munosabatlari ibratli bo'lган. Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilgandan keyin umrining oxirlarida al-Buxoriy besh (863–868) yil Nishopurda yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergen. O'sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biriga aylanganligi sababli ko'p mashhur olimlar shu shaharda to'plangan edilar. Imom al-Buxoriyning at-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyormizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o'rtasida unutilmas, qizg'in ilmiy bahslar, ko'pdan ko'p ijodiy, do'stona uchrashuvlar bo'lib o'tadi. At-Termiziyning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimini yuqori baholab: "Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq", — deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan. At-Termiziy o'z ustozи va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda



bo'lgan. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning "Tazkirat ul-Hufoz" ("Hofizlar haqida tazkira") nomli asarida yozishicha, at-Termiziyl o'z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg'uga botib "ko'p yig'laganidan hatto ko'zlari ko'r bo'lib qolib, uzoq yillar ko'zi ojiz holda yashadi".

Imom al-Buxoriy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atori, odamoxunligi, muruvvatliligi, himmatliligi va beqiyos saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g'oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yodbilgani qayd qilingan.

Imom al-Buxoriy xorijdan qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Ko'pchilik uni hurmat qilgan, ammo ba'zi hasadgo'y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko'rolmas edilar. Natijada, hasadgo'ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhaliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab shuki, amir olimning huzuriga kelib "Al-jome' as-sahih", "At-ta'rix" kitoblarini o'qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy "Men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa, o'zi izlasin. Lekin Allah oxirat kuni ilmni yashirmay, uni toliblarga sarf qilganim uchun meni kechiradi", — degan javobni aytadi. Amirga javob yoqmay, fitnachi, bo'htonkor shaxslarning gapiga kirib, al-Buxoriya shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo'l oladi. Birmuncha muddat Xartang qishlog'ida o'z shogirlari va qarindosh-urug'larinikida yashagandan keyin, og'ir kasalga chalinib, hijriy 256- yil (milodiy 870- yil 31- avgust) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumotga ega bo'ldingiz. Shu bilganlaringiz asosida bu zotning insoniyat oldidagi xizmatlari haqida mushohada yuriting.
2. Boshqalarga yaxshilik qilish mavzusida hadis toping va uning mazmuniga mos keladigan maqol, she'riy parcha yoki ajodolarimizning hikmatlaridan topishga harakat qiling.

- 
3. Oilaviy kutubxona, axborot-resurs markazlarida saqlanayotgan kitoblardan yoki internet tizimidan foydalangan holda Imom al-Buxoriy hayoti haqida qo'shimcha ma'lumotlar toping. Ularni do'stlaringiz bilan o'zaro o'rtoqlashing, ma'lumot almashing.
  4. Oilangiz yoki do'stlaringiz davrasida Imom al-Buxoriy hayoti va hadislar to'g'risida suhbat quring.

## HADISLARDAN NAMUNALAR

### *ONANI ROZI QILISH HAQIDA*

Bahz ibn Hakim raziyallohu anhu (r.a.) otasi va bobosidan rivoyat qildi, bobosi aytди: "Rasulullohdan: "Ey Rasululloh, men yaxshiligidimni kimga qilsam bo'ladi?" — deb so'radim. "Onangga", dedilar. Men shu savolimni uch marotaba qaytarsam ham, Rasululloh: "Onangga", — deyaverdilar. To'rtinchi marotaba so'raganimda: "Otangga va yaqin bo'lgan qarindoshlaringga", — dedilar.

### *OTA-ONA HAQINI ADO QILISH HAQIDA*

Abu Muso Ash'ariy (r.a.)ning o'g'li Abu Burda (r.a.)ning aytishlaricha, Abdulloh ibn Umar (r.a.) bir yamanlik odam o'z onasini opichlab, xonayi Ka'bani tavof qildirib yurganini ko'rdilar. U odam quyidagi baytni ohang bilan o'qirdi:

Onayi zorim uchun bo'ynimni eggan tevaman,  
Tevaga mingan onam horsalar ham men charchamam.

U shuni o'qib turib Abdullohga qaradi-da: "Ey Abdulloh ibn Umar, mana shu xizmatim bilan men onamning haqini ado qila olmadimmi?" — deb so'radi. "Yo'q, bu xizmating seni tug'ish vaqtida onangni qiynab tutgan to'lg'oqlarining bittasiga ham barobar emas", — dedi. Keyin Abdulloh ibn Umar (r.a.) xonayi Ka'bani tavof qildilar va maqomi Ibrohimga borib, ikki rakaat namoz o'qib olib, menga qarab: "Ey, Abu Muso Ash'ariyning



o'g'li! Mana shu yerda o'qiladigan ikki rakaat namoz o'zidan ilgarigi gunohlarga kafforat bo'ladi”, — dedilar.

### **ODAM OTA-ONASINI HAQORAT QILMAYDI**

Abdulloh ibn Amri rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam (s.a.v.): “Odam qiladirgan gunohi azimlardan biri — ota-onasini haqorat qilmoqdir!” — dedilar. Shunda: “Yo Rasululloh, odam o'z ota-onasini qanday qilib haqorat qilmog'i mumkin?” — deyishdi. Janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Birovning ota-onasini so'kkan odam o'z ota-onasini haqorat qilgan bo'lur”, — deb javob qildilar”.

### **QARINDOSH-URUG'LARIGA MEHR-OQIBATLI ODAMNING RIZQI ULUG' BO'LMOG'I HAQIDA**

Abu Hurayra raziyallohu anhu: “Men Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning “Kimki rizqim ulug’, umrim uzoq bo'lsin desa, qarindosh-urug’lariga mehr-oqibatli bo'lsin!” deganlarini eshitganmen”, — deydilar.

### **BEMORLIK KAFFORATI VA ALLOH TAOLONING “KIMNING QILMISHI YOMON ERSА, JAZO TORTG'USIDIR!” DEGAN KALOMI SHARIFI XUSUSIDA**

Hazrati Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning zavjalari Oyisha onamiz raziyallohu anho bunday degan ekanlar: “Musulmon kishiga yetadirgan har bir musibat, hattoki badanning biror yeriga kirgan tikan ham uning gunohiga kafforat bo'lg'usidir”.

\* \* \*

Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyat qilishlaricha, Janob Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bunday debdirlar: “Mo'min odam balo-qazolarga toqat etmoqlikda sabza giyoh monanddir. Chunki mo'min har tarafdin shamol esganda egilib, so'ng yana



qaddini tiklab olg'uvchi sabza giyoh yanglig' balo-qazolarga chidab, yengilmag'aydir. Fojir (osiy) odam ersa, mo'rt arz (kedr) og'ochi<sup>1</sup> kabidir, Alloh taolo uni, istasa, birdaniga sindira olur!".

\*\*\*

Abu Hurayra raziyallohu anhuning rivoyat qilishlaricha, Hazrat Rasululloh sallallohu alayhi vasallam bunday degan ekanlar: "Alloh taolo qaysi bandasiga yaxshilikni ravo ko'rsa, o'shangan biror musibatni yuborgaydir".

### **MAST QILUVCHI ICHIMLIKLER HAQIDA**

Ibn Umar raziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam shunday marhamat qilganlar: "Har bir mast qiladigan narsa xamrdir va har bir mast qiladigan narsa haromdir. Kim dunyoda xamr ichsa va vafot etsa va u unga mukkasidan ketgan bo'lsa, oxiratda ichmaydi"<sup>2</sup>.

\*\*\*

Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Kimki bu dunyoda mast qilguvchi ichimlik ichgan bo'lsa-yu, keyin ichganiga tavba qilman bo'lsa, oxiratda tavba qilmoqdan mahrum qilingaydur!" — dedilar.

### **MO'MIN KISHI O'ZINI BIR INGA<sup>3</sup> IKKI MARTA CHAQTIRMASLIGI HAQIDA**

Abu Hurayra raziyallohu anhu aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): "Mo'min kishi o'zini bir inga ikki marta chaqtirmaydi", — dedilar.

---

<sup>1</sup>Og'och – daraxt; <sup>2</sup>Jannatga kirmaydi, jannatdagi nasibasini ichmaydi ma'nosida;

<sup>3</sup>Inga chaqtirish – ya'ni zaharli hasharotlarga (yoki ilonga) chaqtirishdir. Bu o'rinda to'g'ri ma'no ham, majoziy ma'no ham bor, binobarin, aqlli odam bir xatoni ikki bor takrorlamaydi.

## **GUMON QILISH HAQIDA**

Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.): “Gumondan saqlaning, zero, gumon so‘zlarning yolg‘onidir. Josuslik qilmang, bir-biringiz bilan raqobatlashmang, o‘zaro adovat qilmang, bir-biringizga hasad qilmang va g‘azab qilmang, Allohning solih bandalari bo‘ling!” — dedilar.

\* \* \*

Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu aytdilar: “(Narsasi) o‘g‘irlangan odam gumon qila-qila hatto o‘g‘ridan ham (gunohi) katta-roq bo‘la boshlaydi”.

## **MARHAMATSIZ KISHIGA MARHAMAT QILINMAYDI**

Abu Said raziyallohu anhu rivoyat qildi: Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: “Marhamat qilmagan kishiga marhamat qilinmaydi”, — dedilar.

## **QO‘SHNICHILIKNING AHAMIYATI HAQIDA**

Hazrati Oyisha raziyallohu anho aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): “Hazrati Jabroil qo‘shni haqiga<sup>1</sup> rioya qilish to‘g‘risida menga shu qadar ko‘p vasiyat (topshiriq) qildilarki, men uni hatto molimga ham merosxo‘r qilib qo‘ysalar kerak, deb o‘yladim”, — dedilar.

\* \* \*

Hazrati Oyisha raziyallohu anho aytdilar: Men Rasululloh (s.a.v.) dan: “Yo Rasululloh! Mening ikkita qo‘shnim bor, hadyani shulardan qaysi biriga berishim kerak?” — deb so‘raganimda, “Qaysi bittasining eshigi senga yaqinroq bo‘lsa, o‘shanga berasan”, — dedilar.

---

<sup>1</sup>Qo‘shni haqi – qo‘ldan kelgancha unga yaxshilik qilish, masalan, hadyalar berish, ko‘rganda ochiq yuz bilan muomala qilish, ahvoldidan xabar olib turish, iloji boricha moddiy yordam berishdan, agar moddiy yordam qo‘ldan kelmaganda, unga ozor beradigan ishlarni qilmaslikdan iborat. Rasululloh (s.a.v.) bergen ta‘limotga ko‘ra, qo‘shnichilikda din va millat tanlanmaydi, barcha tengdir.

## **YAXSHILIKKA YAXSHILIK QILISH HAQIDA**

Jobir ibn Abdulloh raziyallohu anhu aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): “Kim moddiy jihatdan birovga yaxshilik qilsa, unga ham yaxshilik qaytarilsin. Yaxshilik qilishga qurbi kelmasa, u kishini g’oyibona maqtasin, chunki maqtash tashakkur o’rnida o’tadi. Ammo u kishining yaxshiligini yashirsa, undan tongan, yaxshilikni bilmagandek bo’ladi. Kim o’zida yo’q narsani men-da falon narsa bor deb maqtansa, ikki qavat kiyim bilan o’ral-gan hisoblanadi”, — dedilar.

### **YAXSHI XULQ SAMARASI**

Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.): “Islom jihatidan saviyasi balandlaringiz xayrli bo’lganidek, axloq jihatidan esa eng yaxshilaringiz xayrlidir”, — dedilar.

\* \* \*

Muoviya ibn Abu Sufyon raziyallohu anhu aytdilar: “Men Rasululloh (s.a.v.)dan bir so’z eshitdim. Shu so’z tufayli Alloh taolo menga manfaat yetkazadi. Rasululloh (s.a.v.): “Sen kishilarning aybi va kamchiligini surishtirib yursang, ularni bu-zib qo’ysan”, degan edilar. Shuning uchun men ularni buzib qo’ymay deb kamchiliklarini tekshirib yurmayman”<sup>1</sup>.

### **KISHI SEVGAN ODAMI BILAN BIRGA BO’LISHI HAQIDA**

Anas ibn Molik raziyallohu anhu aytdilar: “Bir kishi Rasululloh (s.a.v.)dan: “Ey Allohning payg’ambari! Qiyomat kuni qachon bo’ladi?” — deb so’raganda, Rasululloh (s.a.v.): “Sen qiyomat kuni uchun qanday amallarni tayyorlab qo’yding?” — deb so’radilar. U: “Men qiyomat kuni uchun deyarli katta bir amal

---

<sup>1</sup>*Kishilar aybini qidirib, uni fosh qilinsa, oshkora qilinib yuradigan gunohlar maxfiylashadi. Unda bir gunoh o’rniga ikki gunoh qilib, axloq tanazzulga yuz tutadi.*



tayyorlaganim yo'q, faqat Alloh taoloni va uning Rasulini sevaman”, — dedi. Shunda Rasululloh (s.a.v.): “Har bir kishi o'zi sevgan kishisi bilan birga bo'ladi”, — dedilar”. Anas ibn Molik raziyallohu anhu: “Bu so'zni eshitgan musulmonlar shu qadar xursand bo'ldilarki, buning tasviriga qalam ojiz”, — dedilar.

### **KISHI ESHITGAN NARSASINI GAPIRAVERMASLIGI HAQIDA**

Abdulloh ibn Umar raziyallohu anhu otalari hazrati Umar (r.a.)dan naql qildilar: “Kishi eshitgan narsasini gapiraverishi yolg'onchiligi uchun yetarlidir”.

### **MASXARA QILISH HAQIDA**

Hazrati Oyisha raziyallohu anho aytdilar: “Boshiga musibat tushgan odam bir to'da ayollarning oldidan o'tayotganida, ayollar uning ustidan kulib masxara qildilar. (Oqibatda) ulardan ba'zilarining boshiga ham musibat tushdi”.

### **HAYO, UYATCHANLIK HAQIDA**

Abu Mas'ud Aqaba ibn Amr Ansoriy raziyallohu anhu aytdilar: Rasululloh (s.a.v.): “Sen xudodan va bandalardan uyalmasang, xohlagan ishingni qilaver, deyilgan so'z o'tmish payg'ambarlardan meros bo'lib kelgan va keyin kelgan kishilar ham uni o'zlariga dasturilamal qilib olgan bir nasihatdir”, — dedilar”.

\* \* \*

Anas ibn Molik (r.a.)dan rivoyat qilinganiga ko'ra, Rasululloh (s.a.v.): “Hayo qayerda bo'lmasin kishini bezaydi, chirkin<sup>1</sup> so'z har qayerda kishini jirkanch ko'rsatadi”, — dedilar.

---

<sup>1</sup>Chirkin – uyatsiz.



## **MUSULMONNING ARAZLAB YURISHI HAQIDA**

Anas ibn Molik raziyallohu anhudan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.): “Bir-biringiz bilan achchiqlashmang, hasad qilmang, teskari qarab ketmang. Ey, Alloh taoloning bandalari! Bir-birlaringiz bilan aka-uka bo’linglar. Hech bir musulmon kishi o’z birodaridan uch kechadan ortiq arazlab yurishi joiz emasdir”, — dedilar.

## **TO’G’RILIK VA NOMUSNI SAQLASH HAQIDA**

Uboda ibn Somit rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Siz menqa olti narsaga kafolat bering, men ham sizga jannat kafolatini berayin: rost so’zlang, va’dangizni bajaring, omonatga rioya qiling, nomusingizni saqlang, haromga nazar qilishdan tiyiling va qo’lingizni haromdan torting”.

## **INFOQ QILISHNING FAZILATI HAQIDA**

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilindi: Rasululloh (s.a.v.) dedilar: “Bandalar tong ottirgan kun borki, unda ikki farishta tushib, ulardan biri: “Allohim! Infoq qiluvchiga<sup>1</sup> o’rnini qoplaydigan narsa ato et”, — deydi. Ikkinchisi: “Allohim! Xasis, ziqnalarga talafot bergin”, — deydi.

## **EZGULIK VA OLIYJANOBLIK QILUVCHILARNING AZIZ QILINISHI HAQIDA**

Umar ibn Xattob raziyallohu anhu aytadilar: “Biz Alloh Islom dini bilan aziz qilgan qavmmiz. Agar azizlikni Islomdan boshqa narsadan qidirsak, Alloh bizni xor qiladi”.

<sup>1</sup>Infoq qiluvchi – o’z yaqinlari yoki boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirish uchun yordam beruvchi, nafaqa qiluvchilar.



## **YOLG'ON – ENG BUYUK GUNOH**

Rib'iy ibn Hiroshdan rivoyat qilinishicha, u Ali raziyallohu anhu xutba qilayotib: “Rasululloh (s.a.v.): “Sizlar menga yolg'on to'qimanglar. Zero, kim menga yolg'on to'qisa, albatta, jahannamga kiradi, deb aytganlar”, — deganini eshitgan.

### **INSON O'Z AYBIGA QARASHI LOZIMLIGI HAQIDA**

Ali raziyallohu anhu shunday degan ekanlar: “Ey, odamlar! Kim o'zining aybiga qarasa, boshqalarning aybi bilan ishi bo'lmay qoladi. Kim Alloh bergen rizqqa rozi bo'lsa, boshqalarning qo'lidagi narsaga afsus chekmaydi. Kim xiyonat qilichini yalang'ochlasa, o'zi o'sha qilich bilan o'ldiriladi. Kim birodariga chuqur qazisa, unga o'zi qulaydi. Kim birovning aybini ochsa, o'z xonadonidagi ayblari ochilib qoladi. Kim o'zining toyilganini unutsa, boshqalarning toyilishini ulkan sanaydi. Kim o'z fikriga lol qolsa, adashadi. Kim aqliga ishonsa, toyiladi. Kim odamlarga kekkaysa, xor bo'ladi. Kim odamlarni beaqqlikda ayblasra, so'kiladi. Kim ulamolarga aralashib yursa, viqorli bo'ladi. Kim pastkashlarga aralashib yursa, uni mensishmaydi. Kim toqati yetmaydigan narsani bo'yniga olsa, ojiz qoladi”.

### **HADISLAR HAQIDA**

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan “Al-jome' as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-ta'rix as-sag'ir”, “At-ta'rix al-avtos”, “At-ta'rix al-kabir”, “Kitob al-ilal”, “Barr ul-volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, “Al-jome' as-sahih”dir. Bu asar “Sahih al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhur. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay



qatorasiga kiritaverганлар. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitган hadislarni tabaqlarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.

Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat.

Sahih hadislar to'plamiga tartib berishdek sharaflı ishni birinchi al-Buxoriy boshlab bergen bo'lib, keyin qator olimlar unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to'plamini yaratganlar. Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi. O'sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha insoniyatni ezgulikka, ikki dunyo saodatiga yetaklovchi bosh manbalardan biri sifatida iymonli qalblar ehtiromi va e'zozidadir.

Shu o'rinda hadisga berilgan ta'rifga e'tibor qaratamiz. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning aytganlari, ko'rsatmalari, bিrор masala (narsa, voqea-hodisa, xatti-harakat) yuzasidan bergen qarorlari hadis sanaladi. Hadislarning ahamiyatini ham chuqur idrok etishimiz lozim. Ma'lumki, tarixan g'oyatda qisqa muddatda nozil bo'lgan Qur'oni karim oyatlari ba'zi hollarda umumlashtirilgan, murakkab holda keltirilgan. Payg'ambarimiz hadislari ushbu oyati shariflarni kengroq talqin etadi, ularni oddiylashtirib bayon qiladi. Ayni paytda, keltirilgan voqea va hodisalarini ko'pchilikka tushunarli qilib, mufassal sharhlaydi. Hadis sanad va matndan iborat bo'ladi. Sanad hadisning kimning huzurida, qachon va qay sharoitda aytilganligi haqidagi ma'lumot bo'lsa, matn uning mazmunidir. Hadislarni ishonchli kishilar dan olib, o'zidan keyingilarga yetkazuvchi zotlarni roviylar deymiz. Roviyning ismi hadisning sanadida keladi.

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) hadislari u zoti shariif yashagan davr uchun haqiqiy bir ko'zgu vazifasini ham o'taydi. Chunki ular sarvari olamning hayotlari, husni axloqlari, adolatli jamiyat qurish yo'lida ko'rsatgan beqiyos sa'y-harakatlari, yaxshilig-u xayr-barakotga asoslangan faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Mana shularga binoan oldin o'tgan hech bir payg'ambarlar va ulug'larga ko'rsatilmagan alohida bir e'tibor bilan ilm ahllari hadislarni to'plashga kirishdilar. Hadis ilmi bilan shug'ullanish eng aziz va sevimli mashg'ulot hi-



soblandi. Ularni to'plash uchun olim-u ulamolar butun aql-zakovati-yu qalb qo'ri bilan kirishganlarini alohida ta'kidlash zarur.

Shunday bir davrlar bo'ldiki, milliy-siyosiy ixtiloflar, o'z qarashlariga foyda keltirish maqsadida payg'ambarimiz nomidan yolg'on hadislar to'qish hollari uchragan, amir va hokimlarga xushomad qilish maqsadida ko'plab ishonarsiz hadislar yuzaga kelgan. Ana shunday bir sharoitda o'zining butun hayotini, bilim hamda iqtidorini to'g'ri hadislarni aniqlab, yig'ish va umumlashtirishga bag'ishlagan payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning xos ummati maydonga chiqdi. Sahoba va ularning izdoshlari bo'lmish tobeinlar ichidan yetishgan zukko, yuksak iqtidor egalari bo'lmish bu zotlar sa'y-harakatlari, izlanishlari natijasida hadisshunoslik ilmi vujudga keldi. Hadis ilmi bilan shug'ullangan kishilarni muhaddislar deb ataganlar. Muhaddislar sahih (ishonchli) hadislarni nosahih (ishonchsiz)laridan ajratganlar. Har bir asrda zamonasining yetuk muhaddislar yetihib chiqdi, lekin ularning bar-chasi Imom al-Buxoriyni ustoz, ilmda o'z imomi deb bilganlar.

Hadislarning mavzu qamrovi hayot muammolari, turmush masalalari qadar keng va turfadir. "Al-jome' as-sahih" asarining birinchi kitobida dastlabki bob iymon haqida bo'lsa, uning ikkinchi bobi ilm haqida. Bu dinimizda iymondan keyingi mavqe ilmga tegishli ekanligiga ishora qiladi. Kitobga kiritilgan ilk hadisga e'tibor qarataylik: *Allah taolo oyati karimasida*: "*Allah taolo sizlarning orangizdag'i iymon kel-tirganlarni va ilmni yuksaltirganlarni bu dunyoda yarlaqab, martabasini ulug' qilg'aydir, oxiratda jannatga kirmoqlikni nasib etgusidir*, *Allah taolo qilayotgan ishlaringizdan xabardordir*", – deyilgan. Yana boshqa oyati karimada esa: "*Yo robbiy, ilmimni ziyoda qilg'aysen, deb ayt!*" – deyilgan. Bundan dunyo va oxirat omonligi, farovonligi ilm bilan bo'lishi, Yaratgandan eng avval ilm so'rash lozimligi anglashiladi. Ilm olish osonlik bilan kechmaydi: o'ziga xos mashaqqati, turli murakkabliklari bo'lishi tabiiy. Ilm tolibi buni oldindan bilgan, ularni bo'yniga olgan holda bilim olishga kirishmog'i lozim. Ana shuni nazarda tutib boshqa bir hadisda: "*Ilmni Chinga borib bo'lsa ham olinglar*", deyilgan. Hadisdagi "Chin" faqat Xitoy yurtinigina bildirmaydi, ayni paytda u ramziy ma'nda ham masofa jihatdan uzoqlik, ham vaqt jihatdan uzoqlik – davomiylik va bu jarayonlardagi qiyinchilik, mashaqqatlarni ifodalaydi. Demak,



qayerda, qachon va qay muddatda bo'lishidan qat'i nazar, zahmatlar chekib bo'lsa ham ilm egallahsga astoydil bel bog'lash lozim. Hadis mazmuniga e'tibor bergen holda mumtoz adiblarimiz o'z asarlarida ilm ahamiyatiga alohida to'xtalganlar.

Ahmad Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq" asarida yozadi: "*Bilik birla bilinur saodat yo'li, Bilik birla saodat yo'lini bula*"<sup>1</sup>. Ogahiy ilmdan keladigan naf haqida yozadi: "*Ilm andoq ganji nofe'dur, bani odamg'a kim, Kimda ul bo'lsa, ikki olam bo'lur obod ango*". Furqat esa: "*Ko'ngullarning sururi ilmdandur, Ko'rар ko'zlarni nuri ilmdandur*" baytini bitadi. Shuningdek, xalqimiz orasidagi mashhur "Baxt belgisi – bilim", "Bilagi zo'r birni yiqaq, bilimi zo'r – ming-ni", "Bilim – aql chirog'i" kabi maqollar shu mavzudagi hadislarga mazmunan mushtarak ekanligini payqash qiyin emas.

Hadislarda ota-onani e'zozlash, qarindoshlarga, qo'ni-qo'shnilarga yaxshilik qilish, umuman, jamiyatga manfaat yetkazish, ta'llim-tarbiya, odob-axloq kabi mavzular keng yoritilgan. Masalan, Abdulloh ibn Abbas (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda shunday deyildi: "Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Alloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi. Bola ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha Alloh taolo undan rozi bo'lmaydi", — dedilar.

Shunda bir kishi: "Agarda ota-onalar bolaga zulm qilsa, bola nima qilishi kerak?" — deb so'radi. Abdulloh: "Agar ular bolaga zulm qilsalar ham bola ularni ranjitmasligi kerak", — dedilar. Bu hadis orqali islom dinida farzandlarning ota-onasiga munosabati qat'iy belgilab qo'yilganligini ko'ramiz: har qanday holda ota-onani rozi qilishga intilish, ularga itoat qilish lozim. Faqat boshqa bir hadisda aytilganidek, gunohga, zulmga (ya'ni jinoyatga) buyursalargina itoat qilinmaydi. Bu mavzuda yana ko'plab hadislар mavjud.

Yusuf Xos Hojib bu kabi hadislardan ta'sirlanib "Qutadg'u bilig"-da: "*Atangni, anangni sevundir tushi, Yanut berg'a tapg'ing tuman ming asig*" (Otangni, onagni doim xursand qil, Xizmatlaring evaziga

---

<sup>1</sup>Bula – top.



ming hissa foyda topasan) deb yozgan edi. Alisher Navoiy ular haqidagi: "Birisin oy angla, birisin quyosh", — deb uqtiradi.

Hadislarni o'qib, ularning yuzada qalqib turgan ifodasidan teran ma'nolarni anglaymiz, o'zimizga ibrat, pand-nasihatlar olamiz. Shuningdek, tarixiy sharoit, dunyoqarash, ijtimoiy qatlamlarga munosabatdan kelib chiqib ularning zamirida ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy mazmun ham jo bo'lganligiga amin bo'lamiz. Misol tariqasida quyidagi hadisga diqqat qaratamiz.

Jobir ibn Abdulloh (raziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: Rasululloh (sallallohu alayhi vasallam): "*Kimning uchta qizi bo'lsa, ularga odob bersa, mehrli bo'lsa va kafolatini olgan bo'lsa, unga jannat vojib bo'ladi*", — dedilar. "Yo Allohning Rasuli? Agar ikkita bo'lsa hammi?" — deyishdi. "*Ikkita bo'lsa ham*", — dedilar. Qavmdan ba'zisi "*Bitta bo'lsa-chi?*" deyilganda, "*Bitta bo'lsa ham*", — derdilar. Bir qarashda qiz farzand(lar) ko'rib, u(lar)ni o'stirgan ota-onan jannati bo'ladi degan fikr ko'zga tashlanib turibdi. Lekin uni tahlil qilganimizda tari-xan ijtimoiy-siyosiy, ayni paytda, hamma davrlar va barcha xalqlar uchun birdek ahamiyatli ma'naviy-ma'rifiy mohiyati oydinlashadi. Islomiyatga qadar arablarda qiz farzandga past nazar bilan qarash, qiz tug'ilishidan or qilish odatiy hol edi, hatto otalar o'z qizlarini tiriklayin ko'mib yuborardilar. Ana shunday bir sharoitda qiz bolani jannat vositachisi deb e'lon qilinishi uning jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirdi, unga qarashni tubdan o'zgartirdi.

Hadisning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati alohida e'tiborga molik. Qizi bor odamning jannatga tushishi uchun uchta shart qo'yilyapti. Birinchisi, "*odob bersa*". Qiz bolani tarbiyalash g'oyat nozik, murakkab va mas'uliyatli ish. Uni iboli, hayoli, har qanday vaziyatda ham or-nomusini saqlaydigan qilib o'stirish ota-onaning birlamchi vazifasi. Bu sifatlarga ega bo'lgan qiz oilaning, qolaversa, millatning sha'ni, iftixoridir, aks holda, u o'z xonadonini ham, xalqini ham isnodga qoldiradi. Ikkinchisi, "*mehrli bo'lsa*". Ota-onan o'g'il farzandiga bo'lgani kabi qiziga ham birdek mehrli bo'lsa, unda hech qanday o'ksiklik bo'lmaydi, ko'ngli butun, ruhi baland, o'zini to'laqonli his etadi. Shunda odo-bi ham, ma'naviyati ham ibratli bo'ladi. Uchinchisi, "*kafolatini olgan bo'lsa*". Kafolatini olish – bu yetarlicha uni moddiy ta'minlash: yedi-



rib-ichirish, o'rtacha kiyintirish, dunyo va oxiratiga kerakli ilmlar berish hamda muvofiq keladigan hunarli qilish.

Mumtoz adiblarimiz, ma'rifatparvarlik hamda jadid adabiyoti namoyandalari ijodida farzandga ilm berish, xususan, qiz bola tarbiyasi borasida teran fikrlar bor. Bu fikrlarni o'qib, ular, asosan, yuqoridagi kabi hadislardan mazmunan oziqlanganligiga iqror bo'lamiz<sup>1</sup>.

Payg'ambarimiz (s.a.v.)ning mukarram axloqi, har ishdagi komil ibrati soyasida tarbiya topgan va o'zlarining buyukligi bilan e'tirof qozongan sahabalar tomonidan aytilgan hikmatlar asarlar (osor) deyildi. Asar (osor)larda hadislар bilan mazmuniy uyg'unlik kuzatiladi.

Hadislар adabiyotimiz, dunyoqarashimiz, turmush tarzimizda chuqur iz qoldirgan ibrat, hikmat va donishmandlik asosidir. Hadislarni o'qish, uqish, yodlash, eng asosiysi, ularda jo bo'lgan yuskak axloq me'yordi bilan zohir-u botinimizni, umuman, hayotimizni ma'nан bezamog'imiz darkor.



### Savol va topshiriqlar:

1. Ota-onan mavzusidagi hadislardan o'zingizga qanday xulosalar chiqardingiz?
2. Insonning boshiga tushgan musibat, tashvishlar nima uchun uning gunohiga kaforat bo'lishini mulohaza qiling. Ular har qanday holatda ham kaforat bo'ladimi yoki buning shartlari bormikan?
  
3. Mast qiluvchi ichimlik (xamr)ning harom qilinishi sababini qanday izohlaysiz? Uning jamiyat, xususan, oilaning ma'naviy asoslarini yemirishini hayotiy misollar bilan asoslang.
4. Oxirgi hadisga diqqat qiling. Sanalgan olti narsaning nechtasi so'z va nechtasi amal bilan bog'liq? Har biriga to'xtaling. Omonat nima? Kishi bo'ynidagi boshqa kishilar, oila, millat va davlatning omonatlari haqida o'ylab ko'ring.
5. Keltirilgan boshqa hadislarni sinfdoshlaringiz bilan tahlil qiling. Ularni hayotda ko'rgan, kuzatgan, kitoblarda o'qigan voqeliklar bilan solishtirgan, asoslagan holda tushuntirishga harakat qiling.

<sup>1</sup>"Ma'naviyat yulduzları" (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, T.: 1999) kitobidagi ma'lumotlardan foydalanildi.



## OYBEK (1905—1968)



Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905- yilning 10- yanvarda Toshkentning Govkush mahallasida tug'ildi. Ota-onasi uni juda yoshligidan eski mакtabga o'qishga berishgan. Oybekda adabiyotga muhabbat ko'rкam so'zga mehri baland onasi Shahodatbonu tufayli paydo bo'ldi. Muso o'n to'rt yoshga to'lganda "Namuna" nomli boshlang'ich maktabda o'qishni davom ettiradi. O'n olti yoshga yetganda, Navoiy nomidagi ta'lif-tarbiya texnikumiga o'qishga kirdi. Texnikumdagи o'qish unda mumtoz adabiyotga muhabbat uyg'otishdan tashqari, rus adabiyotiga yaqinlashtirdi.

Oybek o'z xotiralarida: "Xayol daryosi keng edi menda. O'qtin-o'qtin o'zimcha mashq qilib, bitta-yarimta she'r yozib ham qo'yardim. Xotirama bor, ilk she'rim texnikumning "Tong yulduzi" nomli devoriy gazetasida chiqdi. Keyin shu gazetaga o'zim mas'ul muharrir bo'ldim. Sekin-sekin respublika gazetalarida she'rlarim bosila boshladi", — deb yozadi. Shu tariqa Oybek adabiyot olamiga kirib keladi.

Shu texnikum talabasi, Oybekning bo'lajak umr yo'ldoshi Zarifa Saidnosirova o'z xotiralarida shunday yozadi: "Oybek oriq va novcha yigit bo'lib, qo'ng'ir... qalin sochlari do'ppisidan toshib turardi. Yirik qora ko'zlari shogirdlik davridayoq teran ma'noli va xayolchan edi... Oybek "Tong yulduzi" devoriy gazetamizning muharriri edi. U ba'zan yo'limni to'sar, gazetaga biror narsa yozib berishim yoki rasm solishimni so'rар edi. U bir kuni she'rga liq to'la, qalingina, sariq muqovali daftarni qo'limga tutqazdi-da, she'rlarning boshi va oxiriga kichik-



*kichik rasmlar chizib berishimni so'radi. Yo'q deya olmadim va eng nozik mo'yqalam va akvarel bo'yoqlar ila rasmlar chizdim... ”.*

1925- yilda texnikumni tugatgan Oybek O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)ga o'qishga kirdi. 1927- yilda o'qishini Sankt-Peterburgdagi Plexanov nomli xalq xo'jaligi institutiga ko'chirdi. Namxush va zax Peterburgda tahsil bilan o'tgan ikki yil shoirning salomatligiga yomon ta'sir ko'rsatdi va u 1930- yilda o'zi o'qigan universitetga qaytib keldi.

Adabiyotga Cho'lpon hamda rus simvolistlarining ta'sirida shoir sifatida kirib kelgan Oybek tez orada o'ziga xos ovozga ega ijodkor ekanligini ko'rsatdi. 30- yillarda u "Dilbar davr qizi", "O'ch", "Baxtigul va Sog'indiq", "Navoiy" singari o'nga yaqin doston yaratdi. Hikoyachilikda ham o'zini sinab ko'rdi.

1937- yilgi qatag'on shamoli Oybekni ham chetlab o'tmadi. U Til va adabiyot institutidagi ishidan haydaldi. Yozuvchilar uyushmasi safidan chiqarildi. Matbuot eshiklari yopildi. Lekin shoir umidsizlikka tushmay, butun kuchini ijodga bag'ishladi. Tinmay yozdi. Eng mashhur asari "Qutlug' qon" romani hayoti xavf ostida turgan tahlikali davrda yozildi.

Oybek ikkinchi jahon urushi yillarida ham samarali ijod qildi. Shu yillarda adibning mashhur "Navoiy" romani hamda milliy ozodlik yo'lidagi kurash aks etgan "Mahmud Torobiy" tarixiy dramasi yozilgan. 1943- yilda tashkil etilgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi sifatida Oybek va G'afur G'ulom qabul qilingan. Oybek o'sha yillardan to 1951- yilga qadar akademianing gumanitar bo'limi boshlig'i lavozimida ishladi.

Ikkinci jahon urushi tugagach, Oybek O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi qilib ham saylandi va 1949- yilgacha shu lavozimda mehnat qildi. Adib "Oltin vodiydan shabadalar" romanini yozdi. Oybek 1951- yilda og'ir xastalikka chalindi. Gapirolmay qolgani, harakatlari cheklangani, xotirasi susayganiga qaramay, u umrining keyingi yillarida "Quyosh qoraymas", "Ulug' yo'l" romanlari, "Nur qidirib", "Bolalik", "Bola Alisher" qissalarini yaratdi. Talaygina she'r va dostonlar bitdi.

Mashhur ximik olima, Oybekning umr yo'ldoshi professor Zarifa Saidnosirova shunday yozadi: "1968- yilning 1- iyulida, oltmish uch



yoshida Oybek vafot etdi. Men hayotimning birdan bir ma’nosи bo’lgan ulug’ insondan judo bo’ldim. Men hozir Oybekning o’limi oldi kunlарини yozishga qanchalik shaylanmay, qo’lim qaltirab, nafasim tiqilib qolmoqda... ”.

Siz quyida Oybekning mashhur “Navoiy” romanidan olingan parcha bilan tanishasiz.

## NAVOIY

(romandan parcha)

\* \* \*

Mirzo Yodgor erka o’sgan, ziynatli hayotning lazzatiga, may, musiqiy olamining yoqimli, orombaxsh hislariga berilgan yigitcha edi. Uning ixtiyori beklari, jahongashta tarbiyachilari qo’lida bo’lganidan ular mirzoning nozik, xayolchan ko’nglini qonli mojaro, tanta-na va hokimiyat havaslari bilan yoqishga tirishadilar. Davlat ishlari-da tadbirli ayol va umuman, bilimdon, oqila hisoblangan ammasi Poyanda Sultonbegim ham uni Xuroson taxti uchun kurashga unday-di. Buning ustiga, u turkman sultoni Hasanbekdan katta ko’mak oladi. G’ururlangan shahzoda Jurjon hokimi amir Zohid Tarxiyining ustiga yurish qilib, uni qulaygina yengadi. Jurjoni qo’lga olib, poytaxt Hirotni bosish, toj kiyish umidi bilan urinadi...

Mirzo Yodgor isyonи to’g’risida Hirotda xabar olinishi bilan Navoiy Husayn Boyqaroni ildam otlanishga undagan edi. Xurosonda Husayn Boyqaro hokimiyatining barqaror bo’lishini orzu qilishi u bilan go’daklik zamonlarda boshlangan do’stlik xotirasi uchungina emas-di. Navoiy Husayn Boyqaroda shoirlik, ilmparvarlik sifatlarini ko’rdi. So’ngra Husayn Boyqaro harbiy san’atni durust bilar edi. Jang may-donlarida bir necha dapqir ro’y-rost urushib, bahodirlik ko’rsatgan edi. Yurtdaadolatli davlat, odil va ilmparvar hukmdor ko’rmoq orzusida bo’lgan Navoiy Husayn Boyqarodan ko’p narsa umid qilar edi.

Shoir chodirda tinch yashagandek ko’rinsa ham, haqiqatda shovqin-suronsiz, katta g’ayrat bilan qo’shinni mahkamlash-ga harakat qilardi. O’ziga yaqin yigitlar orqali dushman kuchlarining



vaziyati haqida, Mirzo Yodgorning qay turda harakat qilish maqsadida ekanligi va boshqa ma'lumotlar olishga tirishar edi. Bu bema'ni, behuda qon to'kishlarning tezroq to'xtatilishini sabrsizlik bilan kutar-di. Nihoyat, qat'iy, hal qiluvchi kunlar keldi. Husayn Boyqaro kengash chaqirdi.

Tongga yaqin Sulton Husayn atrofi maxsus posbonlar bilan qo'riqlangan hashamatli shohi chodirdan chiqdi. Uzoqda, ko'kimtir tuman ichida mudragan tog'lar ustida siyrak yulduzlar xira ko'zlarini horg'in qisadi, dalaning salqin shamoli tinib, chodirning ipagini yengil mavjlanadiradi. Podshoh ishbilarmon beklari bilan rusumoti jang<sup>1</sup> haqidagi so'zlashdi. Rusumoti jangni yaxshi biluvchi beklar o'z mulohazalalrini bildira boshladilar: Mirzo Yodgorga qilinajak hujumni qay yo'sinda olib borish, turli qismrlarga kimlarni sardor tayinlash to'g'risida takliflarni o'rtaga otdilar. Husayn Boyqaro ularning chora-tadbirlarini ma'qulladi. O'tirganlarga ko'zlarini bir-bir tikib, qandaydir ichki shavq va yengillik bilan dedi:

— Endilikda so'z osmon kitobida qoldi! Yoki xato qilurmenmi?

Chorpaxil, beso'naqay Islim barlos qalpoqli boshini og'ir tebratdi-da, osmonni ko'rmasa ham, qahrli ko'zlarini yuqoriga — ipak chodirning ko'rkm uqalari, rang-barang ipak shokilalari osilib turgan shipga tikdi va salmoqlanib, dedi:

— Albatta... Yulduzlar ne der ekanlar?..

— Munajjimni qoshimizg'a chorlaylik. Shoyad safarimizga tole yulduzining intizorligini bizga e'lon qilsa, — dedi podshoh Navoiyga qarab.

— Munajjim aksini so'zlasa, ul chog' hazratlari ne qilurlar? — tabassum bilan so'radi Navoiy.

Husayn Boyqaro taraddudlanmadni.

— Tole soatini kutmoqdan o'zga ilojimiz yo'q. Toleimiz o'z yulduzini egallagan kun biz ham otlarimizga minurmiz.

Beklar goh podshohga, goh Navoiyga qarab, jim o'tirishardi.

— Podshoh hazratlari, — nazokat bilan murojaat etdi Navoiy, — bizning fikrimizcha, har bir ishda aqlni rahnamo qil-

---

<sup>1</sup>Rusumoti jang – jang rusumlari, jang usullari.



moq lozimdir. Zeroiki, insonlar haq yo'lini hamisha aqlning nuri bilan topmishlar. Har turli mushkulotlarni ham aql bilan hal etmishlar. Zafaringiz uchun barcha holat muhayyo ekan, yulduzlar bilan mashvaratni zarur, deb bilmasmen. Ma'lumingizki, men harb kishisi emasmen, ammo har ikki tarafning kuchini, har ikki yoqdagi sharoitni uzoq mulohaza etdim. Taraddudga aslo hojat yo'q. Tong chog'i quyosh bayrog'i bilan bir vaqtida zafar bayroqlaringizni ko'tarishingiz kerak.

— Janoblariga maxfiy emaski, — ishonch bilan gapirdi Husayn Boyqaro, — jangning vaqtি-soati tayin etilmagan taqdirda, zafar o'z yuzini teskari o'girur, har qadamda mushkulotlar kelib chiqur. Shu jihatdan jang arafasida munajjimlarning maslahati bilan ish ko'rmoqni arbobi jang farz, deb bilurlar.

— Tarix ko'rsaturkim, — dedi Navoiy hammani bir-bir ko'zdan kechirib, — munajjimlar bilan bahamjihat bo'lgan ko'p safarlar benihoyat foje oqibatlar tug'dirmushdir. Munajjimlarning mulohazasida haqiqatdan ko'ra xurofot ziyodaroqdir. Yana takror aytamenki, tong bilan dushmanga shikast bermoq kerak.

Oz so'zlovchi, sodda bahodir Zunnun Arg'unbek yo'g'on barmoqlari bilan keng, qahrli yuzidagi dag'al soqolini qashib, muzokaradan zerikkanday, azamat gavdasini tikeladi, keng ko'kragi bilan og'ir so'lish oldi-da, odati bo'yicha, zarda qilgan kabi, keskin gapirdi:

— Hazrat shoirning so'zida ma'ni ko'p... Ko'p topqir sinaganmiz, yulduzlarning tilida qaror yo'q. Ko'p vaqt kulgisi yig'iga aylanadi!

Husayn Boyqaro ikkilanib, o'ylanib turarkan, Navoiyning mulohazalarini muvofiq topgan boshqa beklar ham podshohga dalda bera boshladilar. Alloh taoloning madadiga sig'inib, shu bugun dushmanga bosqin yasash kerakligini uqtirdilar. Majlis tarqaldi.

Mulozimlarning yordami bilan Husayn Boyqaro egnigasovut, boshiga dubulg'a kiydi. Qini oltin va rango-rang qimmatbaho toshlar bilan ishlangan, ajoyib nafis san'at namunasi bo'lgan qilichni taqdi. Yana shunday chiroyli sadog'ini, o'q-yoyini osdi. Qadamlarini tetik bosib, dabdaba bilan chodirdan chiqdi. Maxsus mulozimlar egar-jabduqlari oltin, la'l, yoqutdan ishlangan o'ynoqi ot ni ehtiyyot bilan yetaklab keltirdilar-da, podshohni qo'ltiqlab mindirdilar.

Quyosh chiqarkan, urush tartibotini olgan katta qo'shining turli



qismlari keng dalani qoplab, dushman bilan uchrashgali asta siljimoqda edi. Dubulg'alar,sovutlar, nayza-qalqonlar, oyboltalar quyosh bilan oltinlangan havoda porlaydi. Jangga o'rgangan otlar, sabrsizlanganday boshlarini silkib, kishnashib, yugurishga intilar edilar. Navkar va beklarning ko'zlari qahrlı, yuzlari sovuq, jiddiy edi.

...Qorovullar o'qday uchib kelib, Mirzo Yodgor oshig'ich ravishda o'z sipohlarini tartibga solib, qarshilik ko'rsatishga hozirlik ko'rayotganini bildirishdi. Husayn Boyqaro fursatni qo'ldan bermaslik uchun hujum boshlashga buyurdi. Karnay, surnay, nog'oralar havoni yangratdi. Uzoqda dushman qo'shini ko'zga chalinganda, burong'ordan<sup>1</sup> Islim barlos, Valibek Mirzo Yodgorning jurong'origa<sup>2</sup> zo'r suron bilan ot solishdi. Shayx Temur va Zunnun Arg'unbek qo'l ostidagi qism dushmanning orqasiga o'tishni mo'ljallab, yo'lni chap berib, yugurdi. Amir Badriddin o'z burong'ori bilan dushmanning burong'ori ustiga dadil yopirildi. Mirzo Yodgorning amir Ahmadali barlos sardorligi ostida bo'lgan qismlari Valibek va Islim barlos yigitlarini kuchli, muttasil o'q uzish bilan daf etishga urindi. Lekin qilichbozlikda mohir Valibek, hamisha jangda o'zini arslonsifat tutadigan Islim barlos urib-surib, dushmanni bosib kelaverdi. Suron avjga chiqdi. Amir Ahmadali barlos yigitlariga dalda bersa ham, lekin yigitlari g'uj-g'uj siqilib, oldinga otlishga imirsilanib qoldilar. Oldingi qatordagilardan o'nlab suvori o'lib, ko'p otlar yiqilgandan so'ng buzilish, parishonlik kuchaya boshladidi. Yigitlar qilichlashishdan bosh tortib, zARBalar dan o'zlarini olib qochishga urinib qoldilar... Buning ustiga, Mirzo Yodgorning qo'shinida bo'lgan mo'g'ullar fursatdan foydalanib, har vaqtdagi kabi o'lja olishga, talonchilikka kirishdilar. Ular dushmanidan ko'ra ko'proq o'z odamlarini urib, otdan yiqib, kiyim-boshini, qurollarni shilib ola boshladilar.

Mirzo Yodgorning burong'ori chang, to'zon, kuchli chuvvos ichida qattiq jang olib borar edi. Lekin qatorasiga yetti ot ustidan sakrab o'tganligi bilan dong chiqargan, chittakday yengil, chaqqon, qar-chig'ayday olg'ir Amir Badriddin kuchli hamlalar bilan dushmani as-ta-asta harakatdan mahrum qilishga tirishardi.

---

<sup>1</sup>Burong'or – qo'shining o'ng tomoni; <sup>2</sup>Jurong'or – qo'shining so'l tomoni.



Nogahon Mirzo Yodgorning g'o'lidan<sup>1</sup> turkman otliqlari bo'ron dahshati va sur'ati bilan to'ppa-to'g'ri Husayn Boyqaro ustiga otilishi di. Bu tomondan qalin o'q yog'dirildi. Biroq g'izillab uchgan minglarcha o'q galalari turkman botirlarini to'xtatishdan ojiz qoldi. Turkmanlar qilich o'ynatib, o'q uzib, ustma-ust hamlalar bilan oldingi qismlarni bosa-bosa siljib kelar edilar. Bir to'da turkmanlar kutilmagan yoqdan Husayn Boyqaroga yaqinlashib qolgan edi. Podshoh atrofini qurshagan bahodir yigitlar goh qilich, goh nayza ishlatib, dushmani uloqtirishga astoydil g'ayrat ko'rsatdilar. Odamlar yiqildi, qilichlar sindi, egasiz otlar, egarlari qiyshaygan, jilovlari oyoqlariga o'ralishgan holda, ko'zlarini chaqchaytirib, parokanda kezardilar.

Husayn Boyqaro urushning oqibatidan tashvishlanar, g'azab bilan har yoqqa qarar, chang, to'zon ichida jangning ketishini kuza-tishdan ham ojiz edi. Nihoyat, g'azabiga chidolmadi. Qilichini sug'urdi. Boshdan oyoq sovut kiygan shoh o'zining xos botirlari bilan dushmanga hujumga otildi. Uning zo'r, haybatli oti qirg'in ichiga yorib kir-di. Husayn Boyqaro jang qilishni bilar edi. Jangda zarbaning shiddati bilan tadbirni juda mos ishlatar edi. Toj-taxt dag'dag'asida yillarcha olib borgan to'xtovsiz, davomli, katta-kichik urushlarda, to'qinishlarda, qilichbozlikdagi mahoratini ko'p daf'a ochiq namoyon qilgan edi. Hozir ham xavf-xatarni unutib, yaxshi, zabardast qilichlasha bosh-ladi. Botirlar ham o'lgan-yitganiga qaramay, podshoh atrofida qattiq jonbozlik ko'rsatdilar. Bular dushmani orqaga tebratishga muvaf-faq bo'lsalar ham, lekin butun holda jangning oqibati bu yerda hal bo'lmadi. Mirzo Yodgorning o'ng va so'l qanotlari qattiq shikast yeb, butunlay bebosh-betartib qochishga yuz tutgan edi. Bu hodisa turkmnlarning ruhini tushirdi. Ular endi dushmanga yopishish emas, o'zlarini qirg'in ichidan mumkin qadar tez olib qochishga tirisha bosh-ladilar. Boyqaroning zafar g'ururi bilan ruhlangan yigitlari dushmani yanchib, dahshatli suron bilan uni ta'qib etdilar. Nafasni bo'g'adigan, ko'zlarni ko'r qiladigan chang-to'zon buluti havoni tutdi.

Husayn Boyqaro lashkari Mirzo Yodgorning parokanda yigitlarini bir necha farsang masofagacha shiddatli quvib, kechga tomon har xil o'ljalar, asirlar bilan qaytdi.

---

<sup>1</sup>G'o'l – qo'shinning o'rta qismi.

II

Shoir tevaragini Shirim qorovul boshliq maxsus posbonlar qo'riqlagan hashamatli ipak chodirga kirdi. Zarrin to'shakda o'tirgan Husayn Boyqaroga ko'zi tushishi bilan uning vaziyatini allanechuk boshqacha sezib, hayratlandi-da, rasmiy ta'zimdan so'ng, podshohning ishorati bilan unga yaqin o'tirdi. E'timodli<sup>1</sup> beklar, vazirlar yo'q. Muqovasi ajoyib, go'zal yangi bir kitobni tizzasiga qo'yib, shoir Hasanali Jaloyir o'tirardi. Har xil bahona bilan podshoh qoshiga kirishga, u bilan suhbatlashishga tirishgan Majididdin Muhammad undan quyiroqda gerdayib, tiz cho'kkani. Bulardan tashqari, vazifasi har vaqt podshoh huzurida hozir bo'lish, ham uni zeriktirmaslik uchun har nav latifa va hikoyalar to'qishdan iborat bo'lgan ikki-uch ham-suhbat endi podshohning g'azabli ko'zlarini uchratmaslikka tirishar edi. Navoiy bunda anglashilmas bir sir ko'rmasdi. Chunki vaziyatning og'irligini bilar edi. Mirzo Yodgor jangda qattiq mag'lub bo'lgan esa-da, Husayn Boyqaroning g'alaba shodliklari uzoq cho'zilmadi. Keyingi vaqtarda har kun bir-biridan sovuq xabarlar eshitila boshlandi: "Mirzo Yodgor ko'p lashkar to'plagan emish, Amir Hasanbek unga munka ming navkarni ko'makka yuborgan emish, Xurosonga hujum uchun Sulton Mahmud qo'shin bilan Amu yoqasida turgan emish...". Bundan tashqari podshohga gina saqlaganidanmi yoki Mirzo Yodgor bilan zimdan til biriktirganidanmi, bir ko'p beklar va yigitlar o'rdugohdan qocha boshlagan edi.

Navoiy g'amgin va g'azabli podshohga dadil qarab, hol-ahvol so'radi. Husayn Boyqaro Hirotdan chopar kelganini aytib, jig'ali boshini allaqanday ma'nodor silkib, ahvolning og'irligini ifodaladi. So'ng zarrin to'shak ostidan bir maktub chiqarib, shoirga uzatdi. Navoiy diqqat bilan qog'ozga ko'z yogurtib, keyin maktubni sekingina tizzasi-ga qo'ydi. Boshini quyi soldi, ikki qosh o'rtasi tugunchak bo'lib, yana qog'ozga tikildi. Voqeani butun ildizi bilan tasavvur etgach, maktubni bukib, yoniga, atlas ko'rpachaga qo'ydi-da, podshohga qaradi. Uning ko'zları har vaqtgi ishonch va fikrchanlikni saqlar edi. Podshoh o'z haya-jonini yashirolmay, achchiq shikoyat bilan dedi:

— Dorissaltanatda<sup>2</sup> bir guruh razil avboshlarning fitnasini daf

---

<sup>1</sup>E'timodli – ishonchli; <sup>2</sup>Dorissaltanat – poytaxt, boshkent.



etmoq uchun ne chora buyursak ekan? Bu xususda umaromizning ra'ylarini bildik. Ma'qul va maqbul tadbirni shoyad siz janobdan eshitgaymiz...

Navoiy o'ziga xos ulug'vorlik, nazokat, muloyimlik bilan dedi:

— Podshoh hazratlari, mulki Xurosonning taqdiri va hayoti sizning qo'lingizdadir. Sizning muborak xotiringiz, bu alamangiz hodisa xususida ne fikr bayon qilur?

— Bu toj-u davlatni qilich bilan olibmiz, — bir nafas sukutdan so'ng keskin gapirdi Husayn Boyqaro, — uni yana ayni qilich bilan poydor qilmoqqa harakat qilg'umizdir.

Bu so'zlar shoirni cho'chitmadи. Dunyoning yarmi ustida qilich o'ynatgan oqsoq jahongirning bu avodi qilich tutishni yaxshi bilsa, qilich bilan faxrlanishni sevsа ham, lekin qilichdan ko'ra mayga, jang maydonlaridan ko'ra chaman bog'larda tuzilgan sho'x bazmlarga ko'proq moyil edi. Shoир aqlli kengash bilan uni to'g'ri yo'lga solib yuborish mumkinligiga ishonardi ham. Lekin arzimagan bir bahona goho uning g'azabiga, olovni birdan gurullatgan shamolday ta'sir qilar edi. Navoiy vazminlik bilan murojaat etdi:

— Xoqon, yaralik ko'ngillarning shifosi uchun siz hakimi hoziq<sup>1</sup> bo'lmoqlig'ingiz kerak. Kaminaning fikricha, bu yerda qilichning aslo hojati yo'qdir!

Husayn Boyqaro, xayol surganday, chodir shipiga qarab qoldi. Hamsuhbatlar, yelkalaridan bir nima bosganday, past cho'kib o'tirdilar.

O'rtadagi og'ir jimjitlikni Majididdin Muhammad buzdi:

— Darhaqiqat, — dedi u gerdaygan bir turda Navoiyga qarab, — podshohi olam hazratlarining fikrlari aqli salim mevasidir. Johil olomonni tarbiyalamoq uchun tig', loaqal tayoq lozimdir. Olomon shafqat va marhamatning qadriga yetmas.

Navoiy titrab, kinoyali kuldi.

— Masalaadolat va haqiqat masalasidir, — javob berdi Navoiy o'zini tutishga tirishib. — Haqiqat olomon tarafidadir. Haq so'zni aytgan og'izlarni tosh bilan qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa ko'tarilgan qo'llarni kesmoq zarur. Zakot yig'moq davlat ishidir, lekin bir necha badnafs, chirkin maxluqlar uchun boylik manbayi emas!

---

<sup>1</sup>Hakimi hoziq – mohir, usta tabib.



Bundan so'ng butun Xurosonda jamiki fuqaro tirikchiliginu nazarda tutib, zakotni isloh etmoq kerak. Bu idorani shiraga o'ch chirkin pashshalardan tozalamoq zarur! Takror aytamanki, elning qahri, g'a-zabi asoslidir. Uning ovoziga qulq solmoq, shikoyatlarini sabr-toqat bilan tinglamoq vazifamizdir.

Majididdinning rangi quv o'chib, tili kesildi. Hamsuhbatlar yer ostidan bir-birlariga ma'nodor qarab olishdi.

— Ish siz degan haddan o'tibdir! — keskin e'tiroz qildi Husayn Boyqaro, — Bizning xizmatimizda bo'lgan zotlarni sangbo'ronga tutmoqni sultanat tojiga otilgan haqorat, deb bilgumizdir. Ariza bilan shikoyat qilsinlar, nainki, poytaxtda g'alva ko'tarmoq!..

— Bizga qolsa, aslo! — yashirin bir kinoya bilan kulimsirab gapirdi Navoiy. — Sultanat tojini quyosh yanglig' samovot doirasi-da biling. Nainki Xo'ja Abdullo Xatibdek bir xomtama, ajdarnafsning boshiga tushgan toshni sultanatga nisbat berursiz. Bir zolimning boshi shikast topgani uchun el ustida tig' o'ynatmoq faqirning xotiri-ga andog' keladirkim, davlatingizda har nav darranda va gazandalar-ning quyrug'ini ko'tarur... Modomiki, xaloyiq qo'lga tosh olibdir, uning ko'nglida dardi bordir. Bu dardni tahqiqlamoq, adl suvi bilan yuvmoq, davolamoq lozimdir.

Husayn Boyqaro sukut qildi. U taraddudda edi. So'ng qiyiq, tez o'ynaydigan ko'zlarini shoирга tikib, g'amgin holda dedi:

— Xo'ja Abdullodek ko'rnamakni jazoga tortg'umizdir, bunga zarra shubha qilmangiz. Ammo poytaxt osoyishtaligini buzgan ahli fit-na va fasod ham jazodan xoli qolmasligi lozim... Loaql siyosat yuza-sidan bir nima jarimaga tortilsalar, istiqbolda bu kabi g'alayonlar tak-ror bosh ko'tarmagay...

Navoiy yashirin, ichdan xo'rsindi. Podshohning bema'ni o'jarligi-ni sindirish uchun jasur bir ohang bilan dedi:

— Shoho, xalqning molini, jonini bo'rilar ixtiyoriga topshirilsa, ular bu qonxo'r maxluqlar dastidan fig'on ko'tarsa, ularga qulq solmaslik adl-insofdan emas. Tahdid va siyosat emas, mehribonlik dar-kor. Xalq bilan bo'lg'usi muomalada qilichga emas, adl kuchiga su-yanmoq, xalqni jabr-zulmdan qutqarmoq lozim. Zero, xalq shundog' bir daryoyi azimki, u toshsa, aning mavjidan na shohning qasri, na darveshning kulbasi qolur, u shundog' bir o'tki, uning bir uchquni tu-



tashsa, na xashakni qo'yar, na falakni... Bas, yaxshilik qilmoq kerak: elning, yurtning baxti barqaror bo'lsa, sultanat ham bexatar bo'lur.

Shoirning mantiqi qarshisida podshoh har qanday e'tirozdan ozod qolgan edi. Lekin ba'zi beklar va kengashchilarning ra'yiga ters bo'lgan bir qarorni chiqarishga botinqiramas edi. Ikkinchisi tomondan, Mirzo Yodgor kabi dushman bartaraf qilinmagan va uning tarafdorlari ko'payib turgan bir sharoitda, davlatning yuragi bo'lgan Hirotdagi g'alayonni ildamlik bilan tugatish zarur edi. Husayn Boyqaro yana bir qancha vaqt masalani muzokara qildi. Shoir o'z fikrida mustahkam ekaniga qanoat hosil qilgach, nihoyat, qat'iyat bilan dedi:

— Mulohazalariningizni batamom qabul qildik. Bu nozik vazifaning uhdasini sizga havola etmoqchimiz. Inshoollo, siz kabi kordon<sup>1</sup> va sohibi tadbir<sup>2</sup> bir zot poytaxtimizda sukut va osoyishtalikni tez kunda barpo qilur. Hozirdan safarga otlanmoqqa sizga ijozat berdik.

Navoiy el foydasi va davlat manfaati uchun bo'lgan bu vazifaga, o'z odati bo'yicha, e'tiroz qilmadi. Yengil ta'zim bilan o'z roziligini bildirib, tabassum qildi-da, sekingina dedi:

— Poytaxtdagi alamdiyda xaloyiq uchun bu faqir na sovg'a bilan borur? Elning jarohatlarini ne malham bilan davolar?

— Jumla olamga ma'lumki, men podshohmen, tabib emasmen! — hazil yo'sin javob berdi Husayn Boyqaro.

Navoiy hazil-mutoyibani sevguvchi, zavq bilan tinglab, chechanlik bilan chuqur javob berishga mohir bo'lsa ham, hozir kulibgina qo'ydi ham so'zini jiddiy davom ettirdi:

— Ko'ngilga shunday muqarrar bo'ldikim, dorilxalofat<sup>3</sup> fuqarosi qoshiga yetgach, faqir ularni hech narsa bilan quvontirmoqdan ojiz qolgaymen. Maqsadimizni ravshan qilib aytsak, bizni farmoni humoyun bilan sarafroz qilsangiz ekan.

— Mazmuni qanday bo'lmog'i kerak? — qiziqli podshoh.

— Shul mazmundakim, — dedi Navoiy, — farmoni oliyning har bir so'zi ko'ngillarga quyoshdek hayot bag'ishlagay. Har bir nuqtasiда, qatorida, daryo pinhon bo'lgani kabi sizning daryoyi adolatingiz jil-valangay. Yana ul farmonda shunday so'zlar bo'lmog'i kerakkim, ular

---

<sup>1</sup>Kordon – ish biladigan; <sup>2</sup>Sohibi tadbir – tadbir egasi, tadbirli; <sup>3</sup>Dorilxalofat – poytaxt.



zolim, munofiq amaldorlar, ulus molini g'asb etuvchilar boshiga sang-bo'ron bo'lib yog'ilgay.

Husayn Boyqaro indamasdan, ayyorcha kulib qo'ydi. Keyin yengillanib, Hirotda bajarilishi kerak bo'lgan boshqa ishlar to'g'risida so'zladi. Nihoyat, shoir ruksat tilab, o'rnidan qo'zg'alar ekan, u dedi:

— Yo'l tadorikiga kirishing. Farmonni tezda muhayyo qilib, sizga topshirurmiz.

Navoiy asta-asta yurib, o'z chodiriga keldi. To'nini yechib, bir nafas istirohat qilmoqchi bo'ldi. Lekin u butun borlig'i bilan hozir Hirotda edi. Uning boshini turli fikrlar, rejalar qopladi.

Xizmatchi hammaga qaynatilgan yalpi qozondan taom keltirdi. Shoир ozgina et yeb, kosani chetga surdi. Sharbat orniga bir kosa sovuq ayron talab qildi. Kitoblar taxlangan pastak kursida yotgan va kitoblar ichiga suqib qo'yilgan shaldiroq, oqsimon va rangli qog'ozlarni to'plab, tartibga solib, kichkina, har yoni oymakor tasvirlar bilan muzayyan fil tishi qutiga soldi. Bular safarda bitilgan, hali oqqa ko'chirilmagan g'azallar, muammolar, tuyuqlar edi.

Yo'l jabdug'i tayyor bo'ldi. Farmonni shoир ko'zdan kechirib, uning mazmunidan rozi bo'ldi. So'ng uni naychaday buklab, ustini muhrlatib, sallasining bir chekkasiga qistirdi. Mulozimlar uning yuvosh, lekin jussasi juda kelishgan yo'rg'a qorabayir otini ko'ndalang qilishdi. Shoир bilan birga borishi tegish bo'lgan hamrohlar ham tayyor bo'ldi. Bularning orasida shoirning sadoqatli navkari Boboali — barvasta qomat, aqlii, boadab yigit ham bor edi. Navoiy duxoba ko'rpa-chacha tashlangan egarga o'tirishi bilan ot boshini chiroyli silkib yurib ketdi. Uning orqasidan Boboali va bir necha saroy mulozimlari, mansabdorlar yo'lga tushdilar.

Shoир otda yurishni, sokin dala manzaralarini tomosha qilishni sevar, hatto ba'zan ot ustida ilhomga berilib, g'azallar to'qir edi. Uzoqdan mayin, ko'kintir tuman pardasida sokin jilvalangan tog'lar, havoda bir to'p ko'lanka kabi g'ira-shira ko'ringan daraxtzorlar, qumliklarning qizg'inidan oyog'i kuygan kabi zir yugurgan shamollar, mayda toshliqlar orasidan mildir-mildir qaynab chiqqan tiniq suvlar hamma narsa shoirning ko'nglini to'lqinlantirar, u hamma narsada ulug', lekin yashirin bir kuchning go'zal va azamat ohangini tuyganday bo'lar edi.



Navoiy obod joylardagi ekinlarga, mevazor bog'chalarga diqqat qildi. Adirlardagi podalarga, dahshatli qoyalar va cho'qqilar ustida sakrab, toshlar orasida o't chimdib yurgan echkilarga suqlanib qaradi. Ko'chmanchi afg'on va boshqa qabilalarning chodirlariga, sahroyi, sodda hayotning xususiyatlariiga razm soldi. Bu qabilalarning tillari, maishatlari, odatlari haqida hamrohlari bilan so'zlashdi.

Navoiy Hirotga kirishi bilan uning maxsus farmon olib kelganligi butun shaharga yashindek tarqaldi. Hamma uni tezroq eshitish orzusi bilan yondi. Hirot, tashdan qaraganda, avvalgiday tinch, hamma o'z tirikchiligi bilan mashg'ul bo'lгanday ko'rinsa ham, lekin kosib-hunarmandlar, dehqonlar hali g'azabdan tushmagan edilar. G'alayon avvalgidan-da dahshatliroq va keskinroq bir miqyos va shiddat bilan har lahma mavjlanishga tayyor edi.

Shoir devonga kelib tushdi. Voqeanning qanday ro'y berganligini mufassal o'rgandi. Xo'ja Abdullo ham boshqa ma'murlar tomonidan xalqqa solingan zakotni bekor qildi. Bu ishda aybdor mansabdorlarni mansabdan bo'shatdi. Keyin arz-dod qilg'ali eshikda to'plangan kambag'al aholini qabul qilishga kirishdi. Yoshmi, keksami, ayolmi, tojik, o'zbek — har kimning shikoyatini sabot-matonat bilan tingladi. Shikoyatchilarning hol-ahvollariga doir savollar berdi, ularni yupantirdi, da'volarini hal qildi. Shoirning qoshiga yig'lab kirganlar tabassum bilan, bukchayganlaradolat kuchi bilan ruhlanib, qadlarini rostlab chiqdilar.

Hirotning ulug' masjadi jomening xonaqosi, qulochga sig'mas yo'g'on ustunli naqshkor ayvonlari, katta, tekis hovli sahni, jomening uch tomonini o'ragan qator hujralarning tomlari, minoralar xalq bilan liq to'la edi. Juma namozidan so'ng shoir asta, ulug'vor yurib, minibarga chiqdi. Hamma birdan "guv" etib o'rnidan turdi. Tiq etgan tovush yo'q. Hamma ko'zlar chuqur hayajon bilan bir nuqtaga tikilgan. Navoiy minbarda turib, bir tuyg'u, bir hayajon bilan jim qotgan xalqqa darddosh ko'zlarini yogurtirib chiqdi. Shoir farmonni ochdi, sezilar-sezilmas titragan qo'lida tutib, kuchanmasdan, ovozini odatdagidan balandroq qo'yib, asta-vazmin o'qidi. Birdan yalpi g'ovur-g'uvur ko'tarildi. Xalq o'z taassurotini, ko'ksida siqilgan his va fikrlarini ifoda etishga kirishdi: "Yo,adolat!", "Inshoollo", "Zolimlarga la'nat!", "Ofarin!" sadolari hamma yoqni tutdi.



Farmoning mazmuni bir zumda og'izdan og'izga o'tib, orqadagilarga, hatto jome tomidagilarga ham yetgan edi. Shoир to'lqinlanib, qisqa, ma'nodor, samimiy nutqini bitirgan hamon minglarcha qo'llar — dehqonlarning g'adir-budur baquvvat qo'llari, bo'yoqchilarning ko'm-ko'k panjalari, bo'zchilar va boshqa hunarmandlarning ingichka suyakli barmoqlari havoga ko'tarildi. Navoiy haqiga aytilgan duo va tilaklar gumburlab, jomening azamat peshtoqlarini yangratdi...

Odamlar quvонч bilan ko'chaga oqdi. Elning umumiyl xur-sandchiligi bilanadolat so'zining kuchiga chuqurroq ishongan shoир hammadan keyin qolib, madrasalar va mullabachchalarning ahvoli to'g'risida shaharning ulug' olimlari, mudarrislari bilan suhbatlashdi-da, yolg'iz o'zi devonga qaytdi. Xalqqa jabr-sitam yetkazgan mansabdorlarni ro'yxatga olib, har birini o'z gunohi va jinoyatiga yarasha jazo va jarimaga tortmoqqa tayyorlandi.

Butun Hirot shoирning haqiqati bilan yashar edi.



### Savol va topshiriqlar:



1. Jangdagi ishtirokiga qarab, Husayn Boyqaroning tabiatiga xos jihatlarni qanday izohlaysiz?
2. Navoiy Boyqaroning el manfaatiga xizmat qilishiga nima sababdan ishonardi?
3. Shoирning: "*Haqiqat olomon tarafidadir. Haq so'zni aytgan og'izlarni qonatmoq emas, haqiqat tamalini qulatmoqqa ko'tarilgan qo'llarni kesmoq zarur*" so'zları podshohga qanday ta'sir qildi?
4. Asarda Yodgor Mirzo tabiatiga xos belgilar tasviriga e'tibor qiling. Undan Navoiy orzu qilgan hukmdor chiqmasligiga asos toping.
5. Shoирning Boyqaro hukmdorligi mustahkamlanishini istashi sababini izohlang.
6. Asarda tongning go'zal tasviri nima uchun berilgan deb o'ylaysiz?
7. Jang vaqtini munajjim bashoratiga emas, balki aqlga tayanib belgilash kerakligi to'g'risidagi shoир fikriga munosabat bildiring.
8. Matndan amir Badriddinning chaqqonligi tasvirlangan o'rirlarni topib, izohlang.
9. Navoiyning xalq qudrati haqidagi fikrlarini qayta o'qing va munosabat bildiring.



Navoiy Husayn Boyqaro qarorgohiga qaytib, Hirotda tinchlik-osoysishtalik barpo qilganini bildirgach, podshoh oshig'ich ravishda poytaxtga otlandi. Lekin birinchi mag'lubiyatdan keyin yana ko'p quvvat to'plab, hatto Astrobodni ishg'ol etgan Mirzo Yodgor endi ko'zlarini Hirotg'a tikkan edi. Uning odamlaridan bir qismi Hirot tevaragida yashirin harakat qila boshlagan edi. Husayn Boyqaro tashvishda edi. Navoiy mumkin qadar ildam Hirotg'a yetishni, unda yangi kuchlar yig'ib, dushmanning butun kirdikorlarini behuda qilishni maslahat ber-gach, Husayn Boyqaro lashkari bilan poytaxtga oshiqdi.

Voqealar barq<sup>1</sup> sur'ati bilan davom etdi. Husayn Boyqaro tun-kun yo'l bosdi. Poytaxtga ikki-uch rabotlik masofa qolganda to'xtadi. U odad bo'yicha, Hirot ulug'larining istiqbolga chiqishlarini, tantana bilan shaharga kirishni orzu qilar edi. Lekin poytaxt go'yo uning kelishidan butunlay xabarsizdek ko'rindi. Hirot kar va sovuq. Husayn Boyqaroning rangi o'chdi. Lashkar orasida duv-duv gap ketdi. Voqeani o'rganmoq uchun yuborilgan odamlar shumshayib qaytishdi; ular poytaxtga yo'l berk ekanini, qal'aning beklari Mirzo Yodgor tarafiga o'tganliklarini bildirishdi. Lashkarda hayajon va sarosima yana kuchaydi.

Navoiy podshohning chodiriga kirdi. Rangsiz, g'amgin, bo'-shashgan podshohga dalda berishga tirishdi.

— Bu qanday xiyonat! — boshini dard bilan chayqab dedi Husayn Boyqaro. — Bevafo nonko'r maxluqlar mening yuzimga qal'ani yopdilar!

— Xiyonatkorlar o'z chuqurlariga o'zlari yiqilurlar, — dedi Navoiy ishonch bilan. — Jasoratni qo'ldan bermaslik kerak. To'g'ri, ish g'oyat mushkullashdi. Lekin umid, g'ayrat va iymon bilan qadam qo'yilsa, maqsad yo'lidagi har qanday mushkulotni bartaraf qilmoq mumkin. Endi lashkarga yaxshi qaramoq kerak.

— Bundan so'nggi harakatlarimizni nechuk tasavvur qilursiz? — so'radi Husayn Boyqaro o'ychan boqib.

— Hozir bu yerdan chekinmoq lozim, — javob berdi Navoiy ik-kilanmasdan. — Poytaxtda sadoqatli odamlar ko'p. Ularning ko'magi bilan butun ahvolni o'rganursiz. Qulay fursat kelganda, qat'iy bir harakat bilan bu falokatlarni daf etmoq mumkin...

---

<sup>1</sup>Barq – chaqmoq, yashin.



Husayn Boyqaro ko'zlarini bir oz yumib, xomush o'yga botdi. Dastro'moli bilan peshonasini artdi — bu dahshatli haqiqatning sovuq teri edi. Keyin xo'rsinib o'rnidan turdi-da, titroq ovoz bilan beklariga ildam otlanishga buyruq berdi. Butun lashkar bilan kechalab, kunduzlab yo'l bosib, Sartoq o'langi degan mavzega borib tushdi.

Bu asnoda Balx atrofida Sulton Mahmud Mirzo harakatining kengayib borganligi haqida xabarlar keldi. Husayn Boyqaro endi o'z mulkida ikki ofat — ikki yong'in o'rtasida qoldi. Endi u o'z tojiga chovut solgan ikki ofatning qo'llarini kesib tashlamog'i kerak! Lekin unda kuch, g'alabaga ishonch yo'q. U endi dushman bilan ochiq maydonda uchrashishdan qo'rqedi. Bir yerda qaror topishdan xavflanib, uyasiz qushday sargardon kezmoqqa majbur. Sartoq o'langidan Soqilmon dashtiga o'tdi. Bu yerda bir guruh sipohlardan ayrilib, to'qqiz rabotlik yo'Ini ildam bosib, Naratog'ga keldi. Lekin sal o'tmasdan, bu qal'aga ham e'timodi qolmadi. Nihoyat, Maymana qasabasiga o'zini urdi.

Maymananing Chahor bog'ida Husayn Boyqaro dilgir yashaydi. Shohona ziyofatlar, dabdabali, suronli bazmlar qayoqda? Bog'ning bir chetida naqshlari eskiringan, kattagina chorxari uyda ko'pincha yolg'iz o'tiradi, g'azallar ham yozmaydi. Butun boshli sultanatdan ayrılgan hukmdor allaqanday go'zalning qalam qoshlari, ohu ko'zları haqidagi oh chekadimi?! Toj-u taxt dag'dag'asi uning qoniga ona suti bilan kirgan. Uning kuchini, dardini bu kunlarda Husayn Boyqaro hamma vaqtdagidan ko'ra chuqurroq, o'tkirroq sezadi.

Sargardon podshohning orqasidan sudrala-sudrala intizomi buzilgan va kurash tushib, bir-birlari bilan yoqalashib, ermak qidirgan navkarlarning shovqinlari uzoqdan, bog'ning narigi burchagidan eshitilar edi. Husayn Boyqaro ichidan xo'rsinib, kimnidir sabrsizlik bilan kutar edi. Eshik og'asi kirdi.

— Keldilar. Kirishlariga ijozat berursizmi? — so'radi u bukilib.

Husayn Boyqaro boshini qimirlatib tasdiqladi. Navoiy kirib, odadagi ta'zimni bajo qilgach, podshoh shoshib-pishib o'rin ko'rsatdi-da, so'zlay boshladi:

— Xotirga bir fikr kelgan edi. Eng avval, bu xilvatda sizning ra'yингизни ko'ngil orzu qildi. Bilamenki, bu dardisar voqealar sizni ko'proq tashvishga solmoqdadir.



— Iltifotingizdan ko'p mammunmen. Hazratlaridan xushxabar eshitgali keldim, — dedi Navoiy.

Husayn Boyqaro, bu yerda o'zga kishi bo'lmasa ham, ovozini pasaytirib, o'zining voqeanavislari orqali deyarli har kun olib turgan ma'lumotlarini so'zladi. Mirzo Yodgorning shavkati mustahkam emasligini tasvirladi. Hirotdagi vaziyat to'g'risida Navoiy ham o'z eshitganlarini gapirib, so'radi:

— Ne qarorga keldingiz?

— Asli mushkulot shu qarorda... Bu xususni yaxshi mulohaza qilmoq darkor. — Boyqaro bir zum to'xtab, davom etdi. — Agar biz bu mayjud lashkarimiz bilan dorilxalofat ustiga yursak va hech kutilmagan onda barq sur'ati bilan Yodgorbekni bossak, sizningcha, maqsudga yetgaymizmi?

Shoir javob berishga oshiqmadi. Ko'zlarini ma'nodor suzdi, ingichka hislarini ifodalagan bir tabassum birdan uning yuziga yoyildi. So'ng g'oyat jiddiy ohang bilan dedi:

— Bu andishani menga aytmasangiz, yaxshiroq bo'lur edi!

Husayn Boyqaro fikrim ma'qul tushmadi, shekilli, deb o'yladi-da, shosha-pisha so'radi:

— Nechun? Ajabo...

Navoiy birdan kulib yubordi.

— Yo'q, bu fikrni sir tutmoq kerak, sir... — ta'kidlab dedi u.

Husayn Boyqaro ham iljaydi, lekin boshini chayqab, e'tiroz yo'sinli gapirdi:

— Arbobi jang bilan kengashmaslikka choramiz yo'q-ku!

— Albatta. Ulardan bemashvarat ish qilinmagay, — dedi Navoiy. — Ammo bir xavfdan saqlanmoq zarur: sipohlaringiz orasidan qochib borg'uvchilar bu harakatdan dushmanga xabar berurlar. Mirzo Yodgor ham uning umarosi, beklari g'aflat uyqusidan ko'z ochurlar. Bu yo'lda g'ayrat va himmatingiz aslo uzilmasun. Ammo barcha tadbirni pinhon tutmoq ma'qul. Hirotda Miroxur yashaydi. U bizga bu ish uchun muqarrar bir kunni tayin qilsin. Keyin, o'z fursatida, arbobi jangni bu sirdan voqif qilursiz.

— Mulohazangizga zarracha gumonimiz yo'qdir. Ma'lum bo'ldikim, siz janob bu xususda biz bilan hamfiksiz? — Navoiyga tikildi Husayn Boyqaro.





— Zafaringiz uchun kamina qo'ldan kelgani qadar jahd-u jadal ko'rsatgusidir. Tangrim yurtga, ulusga osoyishtalik va farog'at baxsh etgay! — dedi Navoiy.

— Omin! — soqolini siladi Husayn Boyqaro.

Bu rejani amalga oshirish uchun bir necha vaqt yashirin tayyor-garliklar ko'rildi. So'ng, kutilmagan paytda, Maymanadan Murg'ob daryosi tomoniga otlanildi. Tog'kun degan mavzeda Husayn Boyqaro eski shon-shavkatini eslatadigan katta majlis tuzdi. Ziyofatdan keyin Husayn Boyqaro ko'rilmagan bir sur'at bilan yo'lga tushdi. Pilpoyon degan mavzeda unga Muhammad Arlot, Amir Sarbon va boshqa bir necha e'tiborli kishilar qo'shildi. Boyqaro Murg'ob suvi bo'ylab, o'zi-ning sakkiz yuz elliq suvorisi bilan kechalab ham yurib ketdi. Tongga yaqin bir manzilga qo'nilib, ozgina istirohatdan so'ng yana otlanib, Bobo Xokiy yo'li bilan harakat qilindi.

Bobo Xokiy degan mashhur darvesh shu atrofda bir tog'ning g'ori ichida yashar edi. U yoshligidan boshlab dunyodan etak silkib odamlardan uzoqda, vahshiy tosh maskanida ibodat bilan mashg'ul edi. Husayn Boyqaro uning avliyoligiga ishonganidan bunday og'ir kunlarda undan duo olishni lozim bildi. Faqat Bobo Xokiy o'z oda-ti bo'yicha qabul qilmasligi mumkin, degan shubha bilan kelar edi. Ammo bu shubha tamom o'rinsiz bo'lib chiqdi. Podshohnning daragini eshitib, umuman, odamlardan qochgan bu darvesh o'z xohishi bilan podshohni yo'lda qarshiladi.

Husayn Boyqaro otdan tushib, ta'zim qildi va yaqin kelib, uning etsiz, ingichka qo'lini o'pdi. Darvesh o'z maskaniga taklif qildi. Husayn Boyqaro har bir daqiqani o'ziga g'animat bilsa ham, le-kin darveshning ra'yini qaytarishga botinmay, mammuniyat bilan tak-lifni qabul etdi. Chamasi, sakson yoshlarga yetgan, chillakday oriq, ingichka va yelkasi turtib chiqqan Bobo Xokiy hali juda tetik edi. U atrofga cho'kib yotgan cho'ng, qo'pol, qirrali katta toshlar orasida, xuddi echkiday soqolini selkillatib, ajoyib bir chaqqonlik bilan baland g'orga yo'l boshladi.

G'orning ustidan naq bosib tushayotganday vahimali qoyalar osilib turar edi. G'or ichi uch-to'rt bo'yra sahnga ega; g'adir-budur tosh devorlar isdan qop-qora edi. Yerda poxol ustiga solingan eski



bir sholcha, buzoq terisidan taqir po'stak, bir chekkada paxtasi oqqan ko'rpa taxlog'li turardi.

Podshoh darveshning ko'nglini olishga tirishdi. Uning taqir po'stagiga ixlos bilan o'tirdi. Butun borligi toj-u taxt g'avg'osi bilan kemirilgan, dunyoning sonsiz lazzatlari, ne'matlarining daryosini butun umr qamrashga intilgan Husayn Boyqaro shu topda o'zini darveshlikka soldi. Uzlatda kechirilgan faqir hayotning pokligi, dunyo qayg'u-mashaqqatining shaytoniy bir manbadan tug'ilganligi, bu g'orning shoirona go'zalligi haqida gapirdi. Chol darvesh podshohning unga chindan ixlos qo'yganligini sezdi. Ulug' zotning yusakkligi to'g'risida o'zining beparvo harakati va kimga aytgani ma'lum bo'limgan so'zları bilan ta'kidlashga tirishdi. So'ngra bir parcha kir bo'zni podshoh oldiga yozib, bitta qattiqroq nonni ushatdi. Sirti olapes qovoq idishdan bir sopol tovoqqa quyuq qatiqni lim-lim quyib uzatdi. Podshohning orqasidan chiqqan va g'or ichiga kirmasdan chetroqda, toshga suyanib turgan ikkita xos mulozimga ham bir sopol piylada galma-gal qatiq tutdi. Husayn Boyqaro tovoqni ko'tarib, qatiqni chinakam ishtaha, to'g'risi, samimiyl niyat bilan "Xo'r-xo'r" ichar ekan, darvesh g'or og'ziga cho'qqayib, javray boshladi:

— Bu maskanning ichi men gunohkor bandaning ko'ngli yanglig' qora bo'lsa ham, uni shahansohlarning oltin qasrlaridan afzal ko'ramen. Bu yerda qushlar bilan hamrohmen, toshlar bilan dard-kashmen. Yo, Ollo! Jamoling tug'yoni bo'lgan bahor sellari sening shafqat daryoyingga meni sudramadi. Qishning bo'ronlari vujudimdag'i zang bosgan zanjirlarni uzib, meni sening aslingga qaytarmadi... Yohu!

Husayn Boyqaro qatiqni ichib bo'lib, soqol, miyiqlarini artdi. Darvesh so'zdan to'xtagach, ta'zim bilan ketishga ijozat so'radi ham o'zi haqida duo qilishni o'tindi. Chol o'rnidan turib, qo'llarini yoyib, qibлага yuz o'girdi. Podshoh ham o'rnidan sapchib turdi-da, darveshning orqasidan qo'l qovushtirib, boshini quyi soldi. Duodan so'ng darvesh podshohga andak to'xtalishga ishorat qildi, g'orning bir burchagiga qalangan shox-shabba orqasidan eski, uchi zanglagan bir nayzani olib, g'ordan tashqari chiqdi va uni nayzaboz jangchilarday tutib, ko'zlarida g'azab yongan holda Hirot tomonga o'qtaldi, dushmanni



sanchganday, uch marta havoni sanchdi-da, Husayn Boyqaro qo'liga tutqizdi. Podshoh juda mutaassir bo'ldi. Ko'zlariga quyilib kelgan yoshni bazo'r to'xtatib, cholning ingichka, suyak qo'llarini ko'zlariga surtdi.

Husayn Boyqaro mulozimlari bilan otini qattiq haydab, lashkarga yetdi. Ba'zi beklarga o'z taassurotini quvonch bilan so'zladi. Darveshning nayzasini dunyoda eng muqaddas narsa kabi qo'lida mahkam tutgani holda Hirota yo'l soldi. Qo'nimsiz yurish bilan yarim kechada Hirota yaqin Juzduq chashmasiga yetib, shunda to'xtadi. Bir parcha kemtikli oy jimjit mudragan xaroba qishloq uylarining qashshoqligini ko'rsatmoqchiday, xiragina nurlanadi. Goho uzoqlarda itlarning uvillashi eshitiladi.

Kun qoraygandan beri podshohning ko'ngli g'ash edi. Hozir esa o'z tojining dushman qo'liga o'tgan eng yirik duri — Hirota qarshisida, eng mas'ul paytda, unda shubha va taraddud kuchaydi: nima bo'ladi? Dushman g'aflatda bo'lmay, suron ko'tarib qarshilasa, yana sharmanda bo'lib qoladimi?! Shuning singari qo'rqinch, ezuvchi fikrlar, bir zum bo'lsin, boshidan uchib yo'qolmadi. U hayajonlandi. Sipohilar bu yerda sovutlarini kiyib, jangga tayyor bo'la boshladilar.

Navoiy otda podshohga yaqin keldi. U juda ehtiyyot bilan harakat qilish, oldindan ba'zi tadbirlar ko'rish, masalan, "til" tutmoq uchun kishilar yuborish kerakligini uqtirdi. U charchagan ko'rinaridi. Lekin ovozi ishonchli jaranglardi. Husayn Boyqaro shu onda Shirim qorovulni chaqirdi. Shirim ziyrak qorovul edi. Chaqqonlik va hiylada o'zini Mehtarbod Yaldodan aslo tuban hisoblamas edi. U yoniga ikki-uch chapdast yigitlarni olib, bir zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Sipohilar jangga tayyorlanib, yurishga amr kutar edilar. Go'yo vaqt tez o'tib, tong otib qoladiganday tuyulardi. Otlar charchoq, odamlar bezovta edi. Shirim qorovul chala mast bir kishini oldiga solib keldi. Bu — Mirzo Yodgorning odamlaridan bo'lib chiqdi. Beklar sarosimada o'zini yo'qotayozgan bu odamdan ba'zi muhim ma'lumot olishga tirishishdi. Shirim qorovul: "Hirotda g'aflatdan o'zga bir xabar ola bilmadim", — degach, Husayn Boyqaro yuz kishini ajratib, Muzaffar barlos, Ibrohim barlos, darvesh Arlotlarning qo'l ostida Bog'i Zog'onning katta darvozasini ochishga yubordi. Yana til tutmoq uchun kishilar belgiladi.



Hirot tomonidan hech qanday shovqin ko'tarilmaganiga ishongach, o'zi qolgan navkarlar bilan harakat etdi. Xiyobon ko'chasini bosib, Imom Faxriy mozoriga yetganda Sulton Xo'ja O'zbekni uning o'ziga qarashli jamoa yigitlari bilan Bog'i Zog'onning Gavharshodbegim madrassasiga yopishgan darvozasini o'rashga yubordi. Boshqa darvozalarga ham dasta-dasta navkarlarni tayinladi. Uning yonida saksonga yaqin kishi qoldi. U Muzaffar barlos ish ko'rayotgan darvozaga qarab yurdi. Yo'lda uning dushman ichidagi sodiq kishi si Miroxurdan darvoza buzilib, ichkari kirilganini eshitdi. Husayn Boyqaro yengillanib, ildam ot surdi, to'ppa-to'g'ri Bog'i Zog'onga kirdi. Nimqorong'ilikda daraxtlar, xiyobonlar orasida Husayn Boyqaro yigitlari tovush chiqarmasdan, dushman kuchlarini axtarishdi. Hech bir tomonda Mirzo Yodgor sipohilari, navkarlarining izi ko'rinas edi. Bu yerdan Husayn Boyqaro Bog'i Shimolga — Mirzo Yodgorning xobgohi bo'lgan boqqa o'tdi. Bu yerda to'satdan uyg'ongan ayrim navkarlar kutilmagan bosqindan es-hushlarini yo'qotib, qarshilik ko'rsatish, o'zlarini mudofaa etish emas, ish qo'ldan ketganiga tan berib, hatto "churq" etib ovoz ham chiqarmadilar.

Yigitlar soddadil shahzodani qidirar edilar. Mana, qo'rg'onday baland muazzam qasr. Uning yonida xirgoh<sup>1</sup>. Xirgoh bo'm-bo'sh... Husayn Boyqaro baland tepalikning ustidagi ko'shkning atrofini uzoqdan o'radi. Buning orqasidagi ko'shkda Mirzo Yodgor bo'lishini chamalar edi. Faqat u ko'shkka kirish uchun tepalikni oshib o'tish kerak edi. Hamma shunday qilish kerakligini anglaydi. Ehtimol, dushman tepe panasida so'nggi qat'iy jangga tayyorlanib, katta kuch bilan pisib yotgandir! Nimqorong'ilikda qasrning, xo'mraygan tepaning mash'um jimjitligi yurakni titratardi...

Husayn Boyqaro sabrsizlanib, boshdan oyoqsovut kiygan ba'zi sipohilarga tepaga ko'tarilib, ko'shkni bosishga farmon berdi. Lekin ularda na harakat, na sado! Keyin ular, go'yo farmonni tushunmagandek, bir-birlariga qarashib, imirsilandilar. Shu onda shoir otandan askarday keskin, chaqqon harakat bilan tushdi-da, jilovni navkari Boboaliga tutqizdi. Podshohga yaqin kelib, dadil so'zladi: "Bizga ijozat beringiz!" Hech bir bek, hech bir navkar Navoiydan buni kutmagan

---

<sup>1</sup>Xirgoh – chodir.



edi. Ko'plar uyatdan boshlarini egib, bo'shashib, titray boshladilar. Lekin endi vaqt o'tgan, har kim qancha orzumand bo'lmasin, shu topda o'z mardonalignini ko'rsatishdan ojiz edi...

Husayn Boyqaro bir daqiqqa taradduddan so'ng atrofdagi yigitlarga o'qraygan ko'zlarini yuritdi-da, shoirga ijozat berdi. Navoiy qilichini qinidan sug'urdi (qilichning birinchi va so'nggi marta sug'urilishi edi!), dadillik bilan odim otib ketdi. Lekin u tepaga ko'plar mo'ljallagan yo'ldan emas, boshqa yo'ldan chiqqa boshladidi. Shu vaqtda kimdir bir dasta shamni yoqib, baland ko'tardi. Hammaning ko'zi qilichini hassa kabi yerga qadab, tepaga ko'tarilayotgan shoirda edi. Uning ko'lankasi ko'zdan g'oyib bo'lar-bo'lmas, navkari Boboali orqadan qilich yalang'ochlab yugurdi. Dam o'tmay, o'nlab yigitlar qo'rg'onga hujum qilganday, shijoat va ildamlik bilan shoir chiqqan yo'ldan tepaga otishdi.

Navoiy qilichni hassa kabi tutib, yotiqliga tepadan ildam pastga tushdi. To'ppa-to'g'ri ko'shkka qarab yugurdi. Shu onda ko'shk orqasidan bir necha qurolli navkar shoshqin va sarosima holda yugurib chiqdi, oldindagisi qahr bilan qichqirdi: "Kim? Hozir bo'!" — va bir necha odam narida hamla uchun qilich ko'tardi. Navoiy qilichni ko'tarmasdan, lekin zARBAGA tayyor holda sovuqqonlik bilan to'xtadi-da, buyuruvchi keskin tusda so'zladi: "Qilichlarni qingga joylangiz, shu lahzada taslim bo'lingiz!" Ikkinci navkar yaqin kelib, bo'ynini cho'zib tikildi: "Siz kimsiz? Nega taslim bo'lamic?" — so'radi u. Shoir zarda bilan: "Men — Alisher Navoiy!" — deyishi bilan navkarlarning nafaslari ichlariga tushib qoldi. Navoiy keskin ravishda ularga orqa o'girib, ko'shkka otildi. Dahlizda, qorong'ida yo'l axtarib, katta xonaning eshigiga yetganda, orqadan Boboali hayajon bilan yetib keldi. Eshikni asta ochib, oldin-ketin ichkari kirishdi. Darichalar ochiq, katta xona o'rtasida yumshoq gilamlar, baxmal-kimxob ko'rpachalarda to'rt kishi turli tomonga qarab, turli vaziyatda dong qotib yotardi. Bularning ichida, naq daricha ostida, oppoq yostiqqa parishon sochlarni to'zg'itib, yosh ayol jimgina uxlardi. Navoiy engashib, yotganlarga qaradi-da, past tovush bilan buyurdi: "Tuting buni!" Boboalining oyoqlari ostida qadahlar, ko'zachalar sindi, u shahzodaning qo'llaridan siltab tortib turg'izarkan, boshlarini bir-birlariga tegizib, qarshi yoqqa oyoq uzatib



yotgan ikki sipoh birdan cho'chib o'rinalidan turishdi va uy ichi haya-jonli, sarosimali shovqinga to'ldi. Yosh ayol "voy!" deb sakrab, o'zini darichadan pastga otdi. Boboalining temir panjasida Mirzo Yodgor garang edi, hansirab, tuturiqsiz nimalardir so'zladi. Uyni, dahlizni yigitlar to'ldirdi.

Navoiy boshliq Boboali va bir dasta yigitlar Mirzo Yodgorni sudrashib, tepadan tushishdi-da, Husayn Boyqaroning oti oyog'i os-tiga tashladilar. Shohona kiyimlari bilan tungi bazmda uchib qol-gan shahzoda bazo'r ko'zini suzib, atrofga hushsiz javdirab qaradi. Keyin boshiga yetgan baloni anglab, kalovlanib o'rnidan turdi, qo'lla-rini ko'ksiga qo'yib, qaltirab, o'z dushmaniga tikildi. Uning ko'zlarida ma'nosiz bir qo'rquv, ojiz bir yolvorish ifodalananar edi. Husayn Boyqaro otta turib, asiriga bir necha achchiq, tikanli so'zlar otdi-da, qo'li bilan navkarlarga "olib jo'nanglar", degan ishorat qildi.

Hirot qal'alardan, arklardan yangragan karnay, nog'ora sadolari bilan uyg'ondi. Mirzo Yodgorning boshi kesildi. Uning tarafdorlari jon-larini hovuchlab, in-iniga kirdi...

\* \* \*

Shoir el-ulus ishidan qutulgan damlarda bekor o'tirmas edi. Yo o'qir, yo yozar, yo xattotlikda mashq qilar, yo musiqiyda yangi kuylar yaratishga urinar, hatto ba'zi vaqtlarda rasm solish, fikrini bo'yoqlar ila ifodalash bilan mashg'ul bo'lar edi. Tafakkur, amal, harakat uning mangu hamrohlari edi. U "bir soatlik tafakkur bir yillik toatdan afza" degan dasturni ko'p vaqt takrorlashni sevardi.

Darichalari yopiq va jihozlari zavq bilan saranjom top-gan xonaning o'rtasida manqal to'la qip-qizil cho'g' yolqinlanadi. Darichalarning tepasidagi rangli oynalarda qish quyoshi o'ynaydi. Navoiy manqal (ko'chma o'choq, sandal)ga yaqin o'tirib, kitob ustiga qo'yilgan yengil, shaldoiroq qog'ozni tizzasida tutib, ijodga berildi.

Ijod dardini tug'uruq dardi bilan qiyos etadilar. Ijod dardi — qalbning qa'rida uyg'onib, butun vujudni larzaga solgan og'riq Navoiy uchun eng shirin lazzat, ona allasi kabi yupantiruvchi, quyosh kabi hayot va quvonch bag'ishlovchi bir kuch edi. Shuning uchun u samimiyl, tabiiy bir shavq bilan yengil yoza olar edi. U chinakam so'z sehrbozi! U har qanday o'jar fikrni, ruhning eng ingichka, eng tutqich



bermas jilvalarini, yurakdag'i hislarning mavjlarini so'z orqali yorqin tajassumlanadir, qatrada daryolarni mavjlanadir, uchqunda qu-yoshlarni aylantirar, ishqdan hayot yasar, oddiy hayotdan esa ulug', tiyran afsonalar to'qur... U minglarcha yilgi madaniyatni, asrlarning fikr boyligini qamragan shoir edi. Uning she'riy dahosi arab, eron va turkiy xalqlarning san'at xazinasiga, fikr zaminiga chuqur ildiz otib, uning abadiy kuchidan gullagan edi.

U turli shoirlarning turli-tuman asarlaridan o'n minglarcha baytni yod bilar edi. U uch-to'rt yoshdan boshlab jiddiy go'zal she'rlarni yodlagan. Sakkiz-to'qqizda butun-butun ilmiy, falsafiy, she'riy asarlar ni o'zini unutajak ravishda zavqqa berilib mutolaa etgan. Bir qarich bolalikda keksa shoirlar bilan she'r haqida munozara qilgan!

Qalam ravon yugurardi. So'zlar she'rning oltin ipiga erkin terildi. Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, yangi ranglar, yangi jilvalar bilan porlaydi. Shoir o'z ota-bobosi tilining sodda va toza go'zalligini chuqur sezib quvonadi. Mana, misralar qog'oz betini to'ldirdi. Ona tilda she'rning yangi bir guldasasini bog'ladi. Shoir g'azalni kitob orasi-ga soldi. Yengillanib, o'rnidan turdi-da, qalam va dovotni tokchaga olib qo'ydi. Tokchalardagi chiroyli xitoy idishlarga, fil tishidan ishlangan ajoyib, mo'jaz qutichalarga razm soldi. U chiroyli narsalarni, in-gichka san'at namunalari bo'lgan buyumlarni sevar edi.

Sovuqdan badani jimirlashdi. Manqal oldiga o'tirdi. Ustini yupqa kul bosa boshlagan cho'g'ni mis kurakcha bilan yengilgina titib, qo'llarini tutdi. Yana shoirona xayolga, tafakkurga berildi. U o'z ona tili ning qudratini, go'zalligini namoyishlantira bilajak katta dostonlar yaratmoqni orzu qilardi. Uning xayoli afsonalarning go'zal bog'lariga sayr etdi. Nega bu bog'chalarning oltin darvozalari uning xalqi uchun yopiq?! Arablardan, eronliklardan uning xalqining qay yeri kam?! Yo'q, u o'z xalqi uchun she'rning o'lmas gulzorlarini yaratishi kerak!

Eshik asta ochildi, yaqinda shoirga xizmatga kirgan Shayx Bahlul paydo bo'ldi. Bu — ancha tahsil ko'rgan, har vaqt mutavoze, yuvosh tabiatli, kamtarin yigit edi. Shayx Bahlul o'z xo'jasining fazlu kamolotini taqdirlab, unga xizmat qilishni o'zi uchun bir sharaf, deb hisoblar edi.

— Buyuring, ne demoqchisiz? — parishonlik bilan so'radi Navoiy.



— Tarabxonada<sup>1</sup> sulton hazratlari sizni yo'qlamishlar, — javob berdi Shayx Bahlul.

Navoiy bir muddat boshini quyi solib, sukut etdi. Keyin ran-jiganlikni ifodalovchi tovush bilan: "Ayting, tez yetib borurmen", — dedi. Shayx Bahlul boshini qimirlatib, "xo'p", deb chiqdi. Shoir uzil-gan xayollariga yana bir muddat berildi. Keyin shohi to'n ustidan og'ir bo'lмаган qunduz pochali po'stinni kiydi. Ko'cha eshigi oldida otga minib, saroya jo'nadi.

Tarabxonada saroy mulozimlari uni, har vaqtdagi kabi hurmat bilan qarshiladilar. Tarabxona — katta bog'chalarning o'rtafiga solin-gan kichikroq, lekin juda kelishgan ikki oshyonli, bu yerni o'z ko'zi bi-lan ko'rgan Zahiriddin Muhammad Boburning ta'bıricha, shiringina imorat edi.

*Husayn Boyqaro Navoiyni uning qarshiligiga qaramay, muhrdorlik lavozimiga tayinlaydi. Ko'ngli ijodga moyil shoir shohning taklifiga ko'nishga majbur bo'ladi. El-ulus ishlari bilan band bo'lishiga qaramay, ijod ahliga homiylik qilish, ularga imkoniyat yaratishga e'tibor qaratadi.*

Muhammad Sayid saroy pahlavonlarining eng zo'ri va mohi-ri edi. U keng yag'rinli, quloch ko'krakli, butun dov jussasidan quvvat barq urardi. Husayn Boyqaro unga "Pahlavoni olam", degan laqab bergen. Hech bir Xuroson pahlavoni, chet ellardan pahlavonlik dag'dag'asi bilan kelib turadigan zo'rlardan birontasi hali uning yon-boshini yerga tegizgan emas. Lekin Navoiyning qalin do'stlaridan bo'lgan bu shaxsning fazilati bundagina emasdi. Muhammad Sayid ayni zamonda turli ilmlar sohasida uncha-muncha olimlarga so'z bermasdi. Musiqiyni chiroyli chalar, yangi kuylar to'qirdi. Goho-goho uning qudratli qo'llari qalam ushlab, chiroyli g'azallar, ruboiylar yara-tardi. Pahlavonning bu xislatlarini uzoqda eshitganlar ishonmas, lekin yaqindan tanuvchilar uning qobiliyatlarini ehtirom qilardilar.

Pahlavon qalin lablari bilan so'zni asta o'lchab kesib, gushtgirlik<sup>1</sup> ilmi haqida qiziq ma'lumotlar berdi. Hozir o'zining o'n sakkiz yashar jiyanini vaqtincha madrasadan olib, ilk bahorda chetdan kelishi kutil-

---

<sup>1</sup>Tarabxona – bazm qilinadigan joy; <sup>2</sup>Gushtgirlik – kurash.



gan mashhur pahlavonlar bilan kurashga solmoq uchun uni tayyorlayotgani, qanday usullar qo'llayotgani to'g'risida gapirdi. Keyin so'z, she'r, musiqiy, darveshlik falsafasi va hokazoga o'tdi.

Xo'ja Afzal kirib, Navoiyni podshohning yangi qarori bilan tabrikldi. Pahlavon va boshqalar Navoiyning amir bo'lgani haqidagi xabarni katta quvonch bilan qarshiladilar. Bu gapning darrov tarqalganiga Navoiy taajjublanib qoldi. Pahlavon dag'al, baquvvat soqolli keng yuzidagi samimiy tabassum va hayajon bilan dedi:

— Bu — ko'hna Xuroson tarixining oltin sahifasidir!  
— El baxtining tug'ilgan kuni, — dedi Xo'ja Afzal.

Har kim o'z quvonch ham orzularini bildirib turarkan, Majididdin, Nizomulmulk, Amir Mo'g'ul va bir ko'p beklar va a'yonlar kirishdi. Ular shoir bilan go'yo hech nimadan xabarsiz kabi ko'rishdilar. Lekin ko'zlarining ma'nosi, tashvishli yuzlari, bo'shashgan harakatlari voqeadan ularning ogoh ekaniga guvohlik berardi. Parvonachi Majididdin hozir, hamma vaqtdagidan ko'ra, ortiqroq kekkayishga tirishardi. Qimorboz Amir Mo'g'ul parvonachiga qarab, mast ko'zlarini ma'nodor qisib qo'ydi. Majididdin ham unga imo bilan javob berdi. Har vaqt yasanib-tusanib, tovusday tovlanib yuradigan, sersavlat, ayyor Nizomulmulkkina o'zini Navoiyga sirdosh ko'rsatishga tirishdi, unga yaqin kelib, shivirlab tabrikldi.

Shoir kinoya bilan kului-da, hammaga eshittirib, dedi: "Fikrimcha, rutbalarning, mansablarning past-balandi yo'q. El xizmatida hamma rutbalar sharaflidir. Yurt uchun hatto navkarlikni ham iftixor bilan bo'ynimga olar edim!" Nizomulmulkning ko'zlarini atrofga ayyorcha javdiradi. Yirik yoqut ko'zli uzuklar taqqan barmoqlari bilan ko'rakam soqolini silab, boshini vazmin chayqadi:

— Albatta, shunday bo'lmos'i kerak!

Ko'p o'tmasdan, mulozimlar kelib, chog'ir bazmiga taklif etdilar. Hamma "gur" etib qo'zg'aldi.

### III

Uchinchi kun Navoiyning uyida katta tantana bo'ldi. To'rdagi katta oq uyda odam ko'p, xizmatkorlar o'z yumushlarini iftixor bilan bajaradilar. Uy sohibi — shoir, o'z odaticha, bir nafas qo'nmaydi. Keluvchilarni ochiq yuz bilan kutib oladi. Dam sekingina oshxonaga





kirib, oshpazlar ishini ko'zdan kechirib chiqadi, uni-buni o'rgatadi, eslatadi. Dam hujralarga bosh suqib, tayyorlanayotgan halvo va har nav shirinliklarni surishtiradi; yaxshiroq va mo'lroq tayyorlashni uqtiradi. O'z uyida xalq to'plangan vaqtarda u aksari shunday kuyinchaklik ko'rsatar, qo'ldan kelgancha mehmondo'stlik qilishga, iltifoti, muomali bilan har kimning ko'nglini ko'tarishga tirishar edi.

Yasog'liq katta oq uyda beklar, yuqori mansabдорлар, dongdor shoirlar, Hirot, Iroq, Ozarbayjon olimlari o'tirishar edi. Odam ko'p bo'lganidan suhbat umumiy mavzuga ko'chmagan; har kim o'z atrofidagi odamlar bilan dilkashlik qilar edi. To'rda bosh bek Muzaffar barlos bilan Muhammad Burunduq barlos va Jahongir barlos jang ham ov haqida so'zlashardi. Navoiyning yordami bilan moddiy ahvoli yaxshilanib, endi ilm dunyosiga ancha tanilgan Sultonmurod bir Iroq olimi bilan arab tilida sekin suhbatlashardi. Dovdirab qolgan, kichkina keksa munajjim bilan dov gavdali Muhammad Sayid pahlavon juda inoq gaplashardi.

Podshohning bu qari munajjimi baxt va falokat, yaxshilik va yomonlik, omad va omadsizlik — hammasining vaqt-soatini yulduzlarning sirli va tekin maslahati bilan, mashaqqat chekmashdan, tez tayinlab, belgilab berardi. Ulug'bek o'z tekshirishlari bilan, Navoiyning ta'biricha, osmonni pastga tushirgan, ya'ni sayyora-larning harakat qonunlarini insonlarga tanitgan bo'lsa, bu chol osmonning cheksiz uzoqligiga yana benihoyat uzoqlik qo'shib, uni qalin sir pardasiga chulg'agan edi. Kambag'al bo'z ishtonini qay soatda bichishi, qay soatda kiyishi kerak? Podshoh oltin taxtga qay kun, qay soatda o'tirishi kerak, sevikli qizga qay soatda muhabbat-noma yozmoq kerak? Dushmanni o'ldirmoq uchun qay soatda zahar tayyorlamoq kerak? Chol bularning hammasiga yulduzlarning javobini olib beradi. Saroyda katta tantanali ishlar eskidan buyon munajjimlarning ko'rsatgan vaqtida bajarilishi bir an'ana bo'lib qolganidan, bu kun Navoiyning amir sifatida muhr bosish kun va soatini ham u tayinlagan edi.

— Bizning ilmimizda tangrining har kuni uchun bir yulduz podshoh, bir yulduz vazir bo'lur, — dedi ko'rsatkich barmog'i bilan ta'kidlab munajjim. — Bu kun koinotda Shams — podshoh, Qamar



vazirdir. Asli mohiyatiga diqqat etingiz, barcha shuhratli ishlarning kuni ushbudir. Alisher Navoiy janoblarining muhr bosmoqlik soatiga Zuhroni tayin qildim.



### Savol va topshiriqlar:

1. Hirotgaga yaqinlashgan Boyqaroning orzusi bilan haqiqiy holat o'rtaсидаги зиддиат унга қандай та'sир qildi?
2. Romandagi "*Ijod dardi — qalbning qa'rida uyg'onib, butun vu-judni larzaga solgan og'riq Navoiy uchun eng shirin lazzat, ona allasi kabi yupantiruvchi, quyosh kabi hayot va quvonch bag'ishlovchi bir kuch edi*" tasviri ulug' shoir tabiatidagi qaysi jihatlarni ko'rsatadi?
3. Har қандай mushkul holatda ham Navoiyning umidsizlanmasligi sababini o'ylab ko'ring.
4. Shoirning: "*Ne qarorga keldingiz?*" — degan savoliga shohning: "*Asli mushkulot shu qarorda*" tarzida javob berishi sababini tushuntiring.
5. Navoiyning sir saqlash borasidagi hazili ma'nosini anglating.
6. Boyqaroning tarki dunyo qilgan darveshga munosabati, uning qo'lini o'pib, duosini olishga urinishi sababi haqida fikrlang.
7. Matnni qayta o'qib, shoirning harbiy ishdan xabardorlik darajasiga baho bering.
8. Shuncha ish ko'rgan jangchilar botinmagan ishga Navoiy dadillik bilan kirishgani sababini izohlashga urining.
9. Yodgor Mirzo soqchilarining shoirga munosabati tasviriga e'tibor qiling.
10. Asardagi: "*Hammaning ko'zi qilichini hassa kabi yerga qadab, tepaga ko'tarilayotgan shoirda edi*" tasvirini izohlang.
11. Munajjim cholga doir tasvirdagi hajviy ohang sababini izohlang.



\*\*\*

Saroydan maxsus mulozimlar yetib kelishdi. Saroydan kelganchardan biri qog'ozni dastlab boshidan yuqori ko'tarib, keyin ta'zim bilan Navoiyga topshirdi; bu — “Abulg'ozи Sulton Husayn Boyqaro so'zimiz”, — deb boshlangan va viloyat hokimlariga yuborilishi kerak bo'lgan rasmiy bir yorlig' edi. Yangi amir tantanali majlisda birinchi marotaba o'z muhrini bosishi kerak edi. Hamma jum, lekin haya-jonli. Barcha ko'zlar — turli ma'no va hislarni ifodalagan ko'zlar — boshini bir oz quyi solib, qandaydir parishondek, qisilgandek o'tirgan Navoiyda edi. Beklarning, mansabdorlarning ko'zлari, go'yo kimdir ishora qilgandek, bir onda uchrashib qoldi. U ko'zlar, bir-birining va-himasidan cho'chigandek, darrov ajralishdi. Bir vaqtlar ko'rsatgan xizmatlari uchun podshoh qoshida o'zini o'ta erka, juda kuchli sezgan, hatto ko'p ishlarda unga bo'y sunishga tixirlik etadigan mag'rur Muzaffar barlosning ham rangi o'chdi. “Ajabo, bu shoir muhrni barcha amirlardan yuqori bosadimi?” — degan andisha uning borlig'ini ke-mirmoqda ekani butun vaziyatidan barq urib turar edi.

Har bir amir, bek o'z muhrini davlatda o'z darajasiga yarasha ma'lum o'ringa bosishi kerak edi. Navoiy yorliqqa o'z muhrini bosishi bilan hamma tikilib turgan ko'zlar bir zumda allaqanday katta ochilib ketdi. Hamma favqulodda hayrat va hayajon ichida qoldi. Tillar go'yo so'zlashdan ojiz edi. Hamma bir-biriga qaraydi, xolos. Navoiy o'z muhrini yorliqning shunday bir joyiga bosgan ediki, hech bir amir Navoiy muhridan pastga muhr bosishga imkon topolmas edi!

### O'NINCHI BOB

Shoirning odatda suhbat quradigan xonasiga kirganda gap chortang edi. Sultonmurod kechikkani uchun uzr so'rab, hamma bilan ko'rishdi. Navoiy unga o'z yonidan joy berdi. Har xil taomlar, shirinliklar, yaxshi asralgan anor, olma, noklar bilan to'la dasturxonga taklif etdi. Majlisda butun Xuroson va o'zga mamlakatlarga dong'i ketgan bir necha ulug' olimlar ham ko'p vaqt shoir bilan birga bo'ladigan shoir Shayxim Suhayliy, shoir Hofiz Yoriy, Hiloliy, darvesh tabiatli qari Hasan Ardasher va Navoiy xizmatida bo'lgan fazilatli ba'zi mulozimlar bor edi.



Majlis ahlining aksari uch tilda: o'zbekcha, forscha, arabcha — qay biri qulay kelsa, bab-baravar, bemalol so'zlashardilar. Olimlarning deyarli hammasi, o'z ilmlaridan tashqari, yana bir ko'p ilmlarni chuqur bilar edi. Ularning orasida ilm bilan san'atni birlashtirganlar, masalan, go'zal raqs etuvchilar, musiqiyda kuylar yaratganlar, mohir naqqoshlar ham bor edi.

Navoiy, o'z odatiga muvofiq, mehmonlardan quyiroqda o'tirdi. U sokin, kamtarin, muomalada nozik, lekin ulug'sifat; butun olimlar uning jamiki ilmlarda juda chuqur ekaniga qoyil bo'lalar, har yerda tasdiqlasalar ham, Navoiy ilm sohasida ko'proq o'z nuqsonlaridan gapiradi. U har kimning fikrini sabr va diqqat bilan tinglaydi.

Majlisga yangi mehmonlar keldi. Bular mavlono Shahobiddin bilan shoir mavlono Binoiy edi. Mavlono Shahobiddin — Xuroson olimlari orasida ilmdan eng benasibi, lekin eng mutakabbiri. U ilm dun-yosiga yolg'iz shallaqilik bilan kirgan. Binoiy iste'dodli shoir, lekin tili achchiq, o'jar.

Mavlono Shahobiddin yarqiroq to'nini halpillatib, yuqoriga o'tdi. Go'yo shogirdlarning o'Itirishiga kirib qolgan domladay, kekkayib o'tirdi. Past bo'yli, kichik, lekin miqtqi gavdali, botiq ko'zlari besaranjom o'ynagan, paxmoqsoqol, pala-partish kiyangan mavlono Binoiy lab-laridagi istehzoli kulgi bilan hammaga bir qarab qo'ydi-da, soxta bir kamtarlik bilan kichik qaddini bir oz bukib ko'rishdi va quyiga, to'g'ri kelgan joyga o'tira qoldi. Navoiy hammaga ko'rsatgan xushmuomasi bilan uni mehmon qilishga tirishdi. Binoiy ham xiyla vaqtgacha umumiy gapga qulq solmasdan, saralab-saralab taom yemoq bilan ovora bo'ldi. Mavlono Shahobiddin, aksincha, dasturxonga qijo boqmadi. Go'yo masalani oxirda yolg'iz o'zi yechib berishga ishongan odamday, "churq" etmasdan, donishmand bir tur bilan munozara-ga qulq soldi. Lekin majlis yangi-yangi masalalarga o'tdi. Mavlono Shahobiddin labini ham qimirlata olmadi.

Kimdir mavlono Lutfiying sho'x-o'ynoq bir g'azalidan ba'zi baytlarini o'qib, maqtay boshladi. Boshqa biri Navoiyning butun Hirot kuylaydigan bir g'azalini va uning kuyini maqtadi. Mavlono Shahobiddin bu so'zlardan zerikkandek, og'zini katta ochib, homuza tortdi.



— Bilmadik, turkiy she'rnning istiqboli ne bo'lur ekan? — dedi u endi oq tusha boshlagan ko'r kam soqolini selkillatib, kulib. — Har hol-da ba'zi shuaroning bu boradagi harakatlarida oz ma'no ko'rurmen... Sopalak tosh bilan Badaxshon la'li va aqiqi boshqa-boshqa narsadir.

— Xayr, taqsir! — murojaat etdi unga darvesh tabiatli Hasan Ardasher. — Turkiyning balog'at va kamoloti mavlono Lutfiyning, xususan, Alisher janoblarining g'azaliyotida oftob kabi namoyon bo'ldi. Bu yangi so'zning sehrli sadolari forsiygo'ylnari, filhaqiqat, hayrat-ga solmoqdadir. Zavq va idrok sohibi bu haqiqatni aslo inkor qila ol-mag'ay.

— Firdavsiy ham Nizomiylarning zaboni asli zotida ilhom va she'r uchun yaratilmishki, bu haqiqatga butun tarix guvohdir, butun ja-hon unga qoyildir. Bu da'vo hech vaqt isbot talab qilmas, — dedi kek-kayib mavlono Shahobiddin.

Mavlono Binoiyning botiq ko'zlarida kinoya, nash'a yonib ketdi. U beo'xshov o'ralgan, katta sallali boshini ko'tardi.

— Ulug' zotlar, — dedi u so'zini chertib. — Hammalaringiz Chorsu orqasidagi bizning chapdast temirchilar ko'chasidan o'tgan-sizlar, ularning "taraq-turug'i" quloqlarga mix qoqqandan battar azob berur. O'zbek g'azallarini tinglaganda ham ayni azobni his eturmen!

Binoiy o'zbek tili va she'ri haqida so'z borganda, hamisha shu ravishda gapiradigan bo'lgani uchun ham odamlar undan yana dag'alroq, behayoroq gap kutganlaridan, ahamiyatsiz kulibgina qo'yishdi. Umuman, butun Xuroson, Movarounnahr olimlari va shoir-lari kabi, majlisdagilarning ham o'ndan to'qqizi forsiyaparastlar edi. Ular uchun o'zbek tili go'yo qalamga yot edi. Fors tilining go'zal-ligi, boyligi, shirinligi haqida e'tiqod ularning qonlariga singib ket-ganda. Hatto Navoiy g'azallarini har qanday ulug' fors shoirinikidan yuqori qo'yadigan va Navoiyning sozida o'z ona tilining jonli, qudratli musiqisini tuygan Sultonmurod ham qo'liga har vaqt qalam olarkan, beixtiyor ravishda fors yoki arab tiliga murojaat etardi.

Yaqindagina Hirotga kelib, hali Navoiy asarlari bilan yaxshi tanish bo'Imagan olim mullo Usmon, hamma ko'zlardan o'ziga "ofarin!" qidirib javdiragan mavlono Binoiyga jirkanib qaradi-da, Navoiyga murojaat qildi:



— Alisher janoblari, siz zullisonaynsiz, siz uchun “Foniy”mi, “Navoiy”mi dilbardir?

— Haq so‘zni aytsak, — dedi Navoiy jiddiy, lekin ingichka tabassum bilan, — biz uchun o‘z tilimiz dilbardir, demak, “Navoiy” dilbardir.

— Ne uchun? — shoshilib so‘radi mullo Usmon.

— “Foniy” go‘zal, “Foniy!” — qichqirib qo‘ydi mavlono Binoiy og‘zidan ovqatini sachratib.

Navoiy o‘tkir istehzo bilan mavlono Binoiyga bir qarab qo‘yida, so‘zida davom etdi:

— Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlarning husni va salobatini hech vaqt inkor etmadik. To go‘daklikdan boshlab fors tilida ham qalam surmoqdamiz. Ammo tilimizning afzalligi biz uchun ulug‘ haqiqatdir. Biz go‘daklikda bu haqiqatning ishqini ko‘nglimizga jo qilganmiz, o‘lganimizgacha bu ishqni saqlaymiz! Shaharlarni, qishloqlarni, sahro va tog‘larni to‘ldirgan el-ulusimiz, urug‘-aymog‘imiz bor, uning o‘z zavqi, fahmi-idroki bor. Biz elimizning zavqini, tabiatini nazarda tutib, uning o‘z tilida qalam suraylikki, uning ko‘ngli fikr gullari bilan to‘lsin. Turkona so‘z bilan tarannum etaylikki, elning yuragi mavjga kelsin. So‘z gulshanida o‘zga ellar qatorida bizning elimiz ham bahramand bo‘lsin. Fors ash’ori elimizning zavqi uchun begonaroqdir. Endi otalarimiz, bobolarimiz, enalarimiz tiliga nazar solsak, uning forsdan bag‘oyat baland darajada ekani bir haqiqatdir. Tilimizda daqoyiq<sup>1</sup> ko‘p. Ammo bu kungacha hech kishi uning haqiqatiga nazar tashlamabdir. Afsuski, yulduzlardan yorug‘roq gavharlari yashirin qolib, balki unutilish darajasiga yetibdur. Elimizning shoir yigitlari oson yo‘lni ko‘zlab, yolg‘iz fors tili bilan tarannum etdilar. Tilimizda nozik ma’nolarni, ruhning butun jilvalarini ifoda qilg‘uvchi so‘zlar va shakllar shunday ko‘pdirkni, forsiyda ularning biri ham topilmas.

Navoiy katta faxr bilan, ruhlanish va dard bilan so‘zladi. Gapini bitirgandan so‘ng ham ko‘p kishilar, so‘zning davomini kutgan kabi, undan ko‘z uzmay, mahliyo bo‘lib turdilar. Forsiyaparastlarning nafaslari ichlariga tushib ketdi. Hatto tili hamisha qayrog‘lik bo‘ladigan

---

<sup>1</sup>Daqoyiq – nozik ma’nolar.



mavlono Binoiy naq labida tutib turgan yangi bir askiyani aytishga botinmay qoldi. Forsiyparastlar fors tilining shirinligini xuddi shu tilda bolalikdayoq ajoyib she'rlar aytgan Navoiyga madh etadilarmi?!

Darveshona xayolchan, sokin, yumshoq Hasan Ardashev Navoiyning fikrlarini quvvatladi. Keyin Sultonmurod turkiy tilidagi she'rlarning rang, ma'no va xayol ingichkaligi jihatdan fors shoirlarining asarlaridan tuban emasligi haqida gapirib, bir necha namunalarida isbot etmoqqa tirishdi.

— Bukungi fors she'rlarining, — dedi Sultonmurod, — ulug' us-todi mavlono Jomiy hazratlarining muborak ko'ngillarini o'zbek she'ri asir etmoqdadir. U janobning fikrlari, iltifotlari tilimizning g'alabasidir!

Majlisni munoqashadan<sup>1</sup> qutqarib, do'stona ruhlantirish uchun Navoiy ustalik bilan suhbat mavzuini o'zgartib yubordi. U soxta bir qalandar haqida juda mazmunli, maroq bir hikoyacha aytib berdi. Navoiy behisob ko'p hikoyalar bilar edi. Kundalik hayot voqealaridan ajoyib latifalar, ibratli hikoyalar to'qiy berardi ham ularni shunday jonli, shunday iliq aytib berar edikim, har kim zo'r maroq bilan tinglar edi.

Naq yarim kechada odamlar uy-uylariga tarqalarkan, Navoiy Sultonmurodni to'xtatdi.

— Men sizga biron madrasada dars aytmoqlikni taklif qilurmen, ne deysiz?

Sultonmurod javob berishga qiynalib qoldi.

— Hali vaqt kelmagandir... — dedi ikkilanib.

— Hirotning eng peshqadam va iste'dodli tolibi ilmlari sizdan dars olmoqni orzu qiladilar.

— Siz lozim bilsangiz, u taqdirda e'tirozim yo'q, — dedi yerga qarab Sultonmurod.

— Xo'b, bu yaxshi ish bo'ldi, — dedi quvonib Navoiy. — Ikkichun mobaynida tayin qilurmiz. Yolg'iz aytar so'zim shuki, vazi-fangizga tamom ixlos bilan kirishgaysiz, shogirdlaringizning ko'ngliga ma'rifat ishqini solg'aysiz, mol-davlat uchun ilmingizni sotmangiz. Inson uchun ko'ngilning sofligi, boyligi kerak.

Gulning to'ni qirq parcha bo'lsa ham, u guldir! Ilmni xalqqa beringiz va tafakkur bilan ilmni kengaytimoqqa harakat qilingiz! Ilm

---

<sup>1</sup>Munoqasha – janjal, tortishuv.





ko'mig'liq xazina emas, jonli daraxtdir, o'smog'i, gullamog'i, meva bermog'i kerak!

— Bu kamina ham yolg'iz shu orzular bilan yashaydi, — dedi Sultonmurod hayajonlanib.

— Xayr, ko'rishguncha!

Sultonmurod qorong'i tunda, qanotlanganday, madrasaga uchdi.

\* \* \*

Devonning qatorasiga solingan ziynatli xonalarining biri yonida qurama xalqdan anchagina to'plangan edi. Katta tekis, chorburchak sahnni chol qorovul qunt bilan, chang ko'tarmasdan supurardi. Uning soqoli taralib tekislangan, lekin rangi kunduzning mashaqqatlarini xayol bilan beparvo kechirish uchun har kuni ertalab "chize"<sup>1</sup> taryok iste'mol qilib, ustidan ko'proq shirinlik yeguvchi chollarning rangi kabi sarg'ish, qonsiz edi. U supurgining dastasiga suyalib, odamlarga yer ostidan ko'z tashladi. Qandaydir bir tanishini ko'rib, yaqin keldi. U taajjublanib, dedi:

— Ha, bizning dargohga bosh suqubsan, tinchlikmi? — so'radi chol.

— Dardsiz, g'alvasiz odam bu yerda nima qiladi? Mirga ikki og'iz arzi hol qilg'ali keldim.

— Hay, ishing o'ngidan kelsin! — Chol birin-sirin yangidan keelayotganlarni ko'zdan kechirib, dedi:

— Tavba, Alisher janoblari bir haftadan buyon Childuxtaronda edilar, u yerda yangi rabot bino qilmoqdalar. Hirotga bukun tunda qaytdilar. Xo'sh, xaloyiqni kim ogohlantirdi?

— Ehtimol, o'zlari tushimizda bashorat bergandirlar, — kulib dedi bir dehqon.

— Ajab emas... Chunki Navoiyning dili bilan xalqning dili hamisha payvanddir, — dedi ishonch bilan ko'm-ko'k qo'lli bo'yoqchi.

Shu vaqtida kimdir, burunaki otgandek, qayta-qayta apshurdi.

— Haqqast rost! — bo'yoqchiga qaradi chol qorovul va jiddiy dedi: — Bu zamonda Navoiy janoblaridek pok odam hargiz topilmas, — u ishiga kirishdi.

---

<sup>1</sup>Chize – jinday, ozgina.



Odamlar o'zaro shivirlashib, Navoiyning ishlari, hayoti, sifatlari haqida so'zlasharkan, amirlarga xos jubbaviy tillodo'zini kiygan shoir hovlida paydo bo'ldi. Hamma qo'l qovushtirib ta'zim qildi. Navoiy xalqning salomiga javob qaytarib, tezgina yurib, katta xonaga kirdi. Odamlar eshik oldini o'rab, kissalaridan, sallalari orasidan qog'ozlari ni qidira boshladilar. Yondosh xonalarning biridan yosh, mag'rur kotib chiqdi-da "Sabr! Sabr!" dedi xalqqa qarab, keyin Navoiy kirgan xonaga qarab yurdi.

— Bu kun xalq juda ko'p, — dedi yosh kotib salom bergandan keyin, — barchasini qabul qila bilurmusiz?

— Anglamadim, ne demak istaysiz?

— Agar vaqtłari musoida qilmasa, bir qism xaloyiqqa boshqa kun kelmoqni taklif etsam, degan fikr xotiringma keldi.

— Barakallo g'ayrangingizga! — istehzo bilan xitob qildi Navoiy.

— Bizda shunday odatni biron vaqt ko'rganmidingiz?

Yosh kotib ko'zlarini yerga qadadi, bir nafasda ham oqardi, ham qizardi.

— Siz hali yosh yigitsiz, — dedi Navoiy endi muloyim, lekin jiddiy, — mansab poyasida, balki, yuqorilashursiz. Shu so'z xotiringizga naqshlanib qolsinki, elga bu yo'sinda muomala va xizmat qilmoq oqillarning ishi emas.

Kotib boshini bazo'r ko'tardi. Uzr tilab, chiqmoqchi bo'ldi. Navoiy uni to'xtatdi. Yordamchilari yetib kelguncha, bu yerda o'tirib, unga qarashmog'ini so'radi. Kotib bir oz tetiklandi. Quyida, yozuv ashyolari turgan pastgina kursi oldida tiz cho'kdi.

Dastlab juldur kiyimli, kir qalpog'ini ko'ziga qadar tushirgan, o'rta yashar dala kishisi qo'l qovushtirib kirdi-da, salobat bosib, dovdirab qoldi.

— O'tiring, muddaongizni so'ylang, — dedi Navoiy xushmu-malik bilan.

Dehqon eshik oldida cho'qqaydi, qalpog'ini sal ko'tardi.

— Boshimga bir falokat tushib, Isfizordan keldim... — dedi-da, birdan so'radi: — Hammasini aytaymi, uzun gap?

— So'ylang, — kulib javob berdi Navoiy.

— Bisotimda birgina otim bo'lardi. Yomon emas, korimizga yarab turardi. Bir kun, ne bo'ldi-yu qishlog'imizga bir otliq sipo-



hi kirib keldi. Orqasida xushsurat bir bola... Men otimni sug'orib, yuvib turgan edim. Qarshimda to'xtadi. "Otingni egarlab ber, manov inimni mindirib olayin, tez orada Hirotdan qaytamen, shunda tashlab ketamen", dedi. Men yalindim: "Bek yigit, ayni ish chog'i, iloji yo'q. Boshqalardan so'rab ko'ring, topilmasa, shunday ketavering, bu arg'umog'ingiz bilan Daryoyi Sho'rgacha yetasiz". "Yo'q, — dedi. — Ovda yurib, otim ko'p urindi. Barcha Hirot meni taniydi. Qozizodalardanmen", — dedi. Hukumatga ot-ulov bermoq eskidan bir taomil. Otni egarlab, jilovini unga tutqizdim... xullas, ikki oydan buyon u qozizoda qurg'urdan domdarak yo'q. O'n kun burun eshakka minib, Hirotda keldim. Kirmagan ko'cham, so'ramagan odamim qolmadi. Topish qayda! Bu yetmaganday, yana bir falokat oyog'imdan chaldi: uch kun burun eshagimni o'g'irlatib qo'ydim. Mahkamalarga kirsam, arzimni tinglamadilar. Sizga sig'inib keldim, taqsir.

Dehqon og'ir xo'rsindi. Navoiy asta tebrandi.

— Birodar, sizga bir balo yo'liqibdi, mayli, kim bo'lmasin, qozizodami, sipohimi — u bir ofat... Bu yanglig' ovchilar ko'p, ularning o'zlarini ovchining itiga arzimaydilar. Ismini bilmaysizmi?

— Aytdi, Tojiddin...

Navoiy kotibga qarab, Qilichbekni chaqirishni buyurdi. Keyin kulib, dehqonga murojaat etdi:

— Otingiz topilur. Chin ismini yashirgan bo'lisa, qiyofatini aytursiz. Ammo eshakni oqtarmoqdan foya chiqmasa kerak. Qaysi sho'razorda, qaysi og'ilda! Faqat eshakni yo'qotganingizni bizga isbot qila olasizmi?

— O, nahotki bu qilingiz yolg'on so'zlasa! Karvon saroyda yuz kishi desangiz ham guvohlikka o'tur.

— U holda eshakning bahosini biz to'laymiz, — dedi Navoiy. — Lekin bundan keyin ehtiyyot bo'lmoq kerak. Elning bir so'zi bor: o'zinga ehtiyyot bo'l, qo'shningni o'g'ri tutma!

Dehqon, Navoiy so'zlarini aqlga sig'dirmaganday, dovdirab qoldi.

— Qanday gap? Kim to'laydi? Siz? Yo'q, jabrini o'zim ko'taray, — qo'lini ko'ksiga qo'ydi u.

Baland bo'yli, keng yag'rinli, qirg'iy burun yigit — Qilichbek kirdi. Navoiy bir necha so'zda dehqonning muddaosini tushuntirdi. Keyin



buyruq yo'sinda dedi: "Bu dardakashni qoniqtirmaguncha, hargiz orom olma, jahannam ostida bo'lsa ham, u zolimni top va jazosini ber!"

Qilichbek dehqonni yupantirdi:

— U odam bizga otning qashqasiday ma'lum. Yuring biz bilan.

Navoiy ularni to'xtatdi. Eshakning bahosini so'radi. Keyin o'zining xususiy mulozimlariga uchrashib, dehqonga pul olib berishni Qilichbekka yukladi. Dehqon shodlik va hayajon bilan to'la qulluq qila-qila chiqdi.



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Muhr bosish voqeasi tasviri hazrat Navoiy xarakteridagi qaysi jihatni ko'rsatadi?
2. Shoirning o'z ilmida kamchiliklar borligi to'g'risida gapirishini qanday izohlaysiz?
3. Roman matniga tayanib, Navoiyning ona tilida ijod qilishga bunchalar mehr qo'yanligi sababini izohlang.
4. Yozuvchining mavlono Shahobiddin va Binoi timsollariga munosabatini izohlashga urining.
5. Shoirning "**Gulning to'ni qirq parcha bo'lsa ham, u guldir!**" gapiga o'z fikringizni bildiring.
6. Navoiyning: "**Ilm ko'mig'liq xazina emas, jonli daraxtdir, o'smog'i, gullamog'i, meva bermog'i kerak!**" — degan fikrini bugungi hayotga bog'lang.
7. Kotibning arz bilan kelganlarning bir qismini qaytarib yuborish to'g'risidagi fikriga shoir munosabatiga tayanib, uning shaxsiga baho bering.



## **"NAVOIY" ROMANI TO'G'RISIDA**

Ushbu roman buyuk mutafakkir shoir haqida dunyo adabiyotida yaratilgan ilk yirik nasriy asar edi. Bu romanga qadar Oybek Navoiy haqida she'r, doston va bir qator ilmiy maqolalar yaratgan edi. Yirik badiiy asarda daho ijodkorning shaxsiyati, ruhiyat dunyosi, ichki ola-mi, ijod va ijodkorlarga munosabati butun serqirraligi bilan ko'rsatib berildi.




Yozuvchi faqat buyuk Alisher Navoiyning ijodi va shaxsiyatiniiga emas, balki u yashagan tarixiy davr, ijtimoiy-siyosiy sharoit hamda u bilan muloqotda bo'lgan shaxslarni ham puxta o'rganib chiqqan. Shuning uchun romanda daho ijodkor el-ulus hayotidan uzilmagan holda jamiyatdagi katta-kichik voqealar tasvirida ishonarli va hayotiy aks ettirilgan.

Siz tanishgan kichik parchaning o'zidayoq Navoiy shaxsiyatiga xos porloq jihatlar bor bo'yicha aks ettirilgani ko'zga tashlana-di. Shoirning ona tili mavqeyi uchun kurash yo'lida tinim bilmasligi, odamlarga beg'araz yaxshilik qilishga hamisha tayyor ekani, doim el-yurt manfaatini o'ylashi singari jihatlar g'oyat ta'sirli aks ettirilgan.

Shuningdek, asarda buyuk shoirning tadbirkor, siyosiy arbob, uzoqni ko'ra oluvchi donishmand, har qanday holatda ham e'tiqodi-ga xiyonat qilmaydigan iymoni mustahkam shaxs ekani yorqin tasvir-langan. Shoirning harbiy ishlar sohasida ko'p sarkardalar, hatto, umri jang-u jadallar ichida o'tgan Husayn Boyqaroga nisbatan ham bilgirlik qilishi asarda mahorat bilan jonli misollar asosida hayotiy ifoda qilingan. Alisher Navoiy hazratlarining dovyurak, tadbirkor, o'rni kelsa, xavf-u xatarga tik qaray biladigan shaxs ekani uning Yodgor Mirzo qarorgohiga yolg'iz borishga jazm qilganida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Asarda shoirning o'z qadrini biladigan, ayni vaqtida o'ta kamtar odam ekanligi lavozimdon odam sifatida ilk muhr bosish holati tasvir-langan lavhada yorqin namoyon bo'ladi. Navoiyning cheksiz adolati, el-yurtga g'amxo'rliги, ulusning hayotini yengillatish, turmushini faro-von qilish uchun tinim bilmasligi kabi jihatlar romanda o'ta ta'sirli aks ettirilgan.

Oybek romandagi har bir obrazning o'ziga xos jihatini ko'r-satishga erishgan. Shuning uchun ham asardagi deyarli barcha tim-sollarning nutqi individuallashtirilgan. Unda tasvirlangan ijodkorlar, navkarlar, sarkardalar, saroy amaldorlari, dehqonlar, kosib-u hu-narmandlarning har biri o'zigagina xos til bilan ta'riflangani asarning o'qishli bo'lislini ta'minlagan. Romanni o'qish mobaynida o'quvchi ko'z oldida buyuk Navoiy yashagan davrdagi sharoit, odamlar, ular-ning o'ziga xos turmush tarzi, ruhiy olami, quvonch-u tashvishlari gav-dalanadi. Bu hol yozuvchining yuksak tasvir mahoratidan dalolatdir.



## **ODIL YOQUBOV**

(1927—2009)

Odil Yoqubov o'zbek adabiyotidagi yetakchi yozuvchilardan biridir. U tabiatan faol, jamoatchi shaxs bo'lgan. Odil Yoqubov jamiyat ishiga butun hayotini tikib, shu yo'lda qurban bo'lgan kishining farzandi hisoblanadi.

Hujjatlarda Odil Yoqubovning 1926- yilning 20- oktabrida Turkiston viloyatining Qarnoq qishlog'ida tug'ilgani qayd etilgan. Aslida esa, u 1927- yilda dunyoga kelgan. Otasi – ishchan tashkilotchi, tadbirdor va o'qimishli ziyoli Egamberdi Yoqubov o'z vaqtida mustabid tuzumning ishongan kishilaridan bo'lib, Qozog'istonda mas'ul lavozimlarda ishlagan. Keyinroq shaxsga sig'inish avj olgan davrda avval amalidan pastlatilgan, so'ng 1937- yilda qamoqqa olinganicha, qaytib kelmagan. Bo'lajak adib ikkinchi jahon urushi ketayotgan 1944- yilda o'rta maktabni bitiradi.

Odil Yoqubov 1945- yili o'n yetti yoshda bo'lsa-da, o'zini o'n sakkizga kirgan qilib ko'rsatib, o'z arizasiga ko'ra ko'ngilli ravishda ikkinchi jahon urushiga jo'naydi. U avval Uzoq Sharqda xizmat qilgan, so'ng Mo'g'ulistonning cheksiz Gobi cho'lini askar safdoshlari bilan piyoda bosib o'tib, Yaponiyaga qarshi olib borilgan janglarda qatnashgan. Insoniyat erki va ozodligi uchun bo'lgan janglarda shaxsan qatnashishni or-nomus masalasi hisoblagan romantik yigit urush tugagandan so'ng ham yurtga tezda qayta olmaydi. Uni 1950- yilga kelibgina uyg'a jo'natishadi.

O. Yoqubov 1951—1956- yillarda O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)



Filologiya fakultetining rus tili va adabiyoti bo'limida o'qiydi. O'qishni tutgandan keyin 1959- yilgacha O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ishlaydi. Bolalikdan rus adabiyoti bilan tanish bo'lgan, besh yillik harbiy xizmatda, yana besh yil universitetda rus tili va adabiyotini puxta o'rgangan Odil Yoqubov 1959—1963 va 1967—1970- yillarda butunittifoq miqyosida bosilib chiqadigan "Literaturnaya gazeta"ning O'zbekistondagi muxbiri sifatida faoliyat ko'rsatadi. 1970—1982- yillar orasida "O'zbekfilm" kinostudiyasida, Respublika Kinematografiya qo'mitasida bosh muharrir, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o'rinnbosari lavozimlarida mehnat qiladi.

1982- yildan 1989- yilgacha "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" haftaligining bosh muharriri bo'ladi. 1989—1996- yillarda esa O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Bu davrda adib shaxsiyatiga xos kengfe'llik to'la namoyon bo'ldi. U o'zbek yozuvchilariga tegishli sharoit yaratish, ularga ijod erkinligi berish borasida katta ishlarni amalga oshiradi.

Odil Yoqubov 1996—2004- yillarda Atamashunoslik qo'miasi raisi, 2005- yilgacha Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati Assambleyasining vitse-prezidenti vazifalarini ado etgan. Odil Yoqubov 2009- yilning 21- dekabrida Toshkent shahrida vafot etdi.

Adibning ilk asari "Tengdoshlar" qissasi harbiy xizmatda ekani-da yozilgan va 1951- yilda "Sharq yulduzi" jurnalida bosilib chiqqan. Keyinroq adib "Chin muhabbat", "Aytsam tilim kuyadi, aytmasam, dilim", "Yurak yonmog'i kerak", "Olma gullaganda" kabi qator dramatik asarlar yaratgan. Uning bu asarlari Hamza nomidagi O'zbek davlat akademik drama teatri (hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri)da sahnalashtirilgan. 1956- yilda "Ikki muhabbat" nomi bilan nasriy asarlar kitobi bosildi. Keyin birin-ketin "Muqaddas", "Bir felyeton qissasi", "Tilla uzuk", "Larza", "Qanot juft bo'ladi", "Billur qandillar", "Izlayman", "Matluba", "Qaydasan, Moriko" singari ko'plab qissalari chop etildi.

Adib dramaturgiya, hikoya va qissachilikda qalamini charxlagach, roman janrida ham bir qator asarlar yaratdi. Uning "Er boshiga ish tushsa", "Diyonat", "Ulug'bek xazinasi", "Ko'hna dunyo", "Oqqushlar, oppoq qushlar", "Adolat manzili", "Osiy banda" kabi ro-



manlarida turli davrlarda yashagan turfa odamlarning ruhiy olami, ma'naviy dunyosi, iztirob-u quvonchlari mahorat bilan o'ta ta'sirli aks ettirilgan.

## ULUG'BEK XAZINASI

(romandan parchalar)

Mirzo Ulug'bek qirmizi poyandoz to'shalgan xiyobondan ohista yurib orqaga qaytarkan, darvozaning yonida oq ko'pikka cho'milgan bir necha otlarni ko'rdi. Koshonadan chiqqan shahzoda Abdulaziz bilan qo'lida maktub ushlagan shayxulislom Burhoniddin shosha-pisha unga tomon yurishdi.

“Tag'in noxush xabar!” — xayolida dedi Mirzo Ulug'bek.

— Qayda yuribsiz, hazratim? — dedi shayxulislom hansirab. — Amir Iskandar barlosdan chopar kelibdur.

— Tag'in ne mujda? — Mirzo Ulug'bek to'xtab nomaga qo'l cho'zdi. Bir parcha sariq qog'ozga pala-partish yozilgan nomada amir Iskandar shahzoda Abdullatifning hirovul<sup>1</sup> qo'shinlari pistirmadan chiqib, uning qalb<sup>2</sup> qo'shinlariga hamla qilganini yozgan edi. Amirning xabar berishicha, shahzodaning qo'shinida fillar ham bor. Bu fillar uning suvoriylariga dahshat solgani boisidan u dorussaltana tomon chekinmoqni lozim ko'rgan...

Mirzo Ulug'bek ko'zlarini nomadan uzib, o'g'li bilan shayxulislomga qaradi. U endigina koshona yonida turgan bir guruh saroy mahramlariga ko'zi tushdi. Mahramlar orasida jiyanlari: shahzoda Abdulla bilan Abu Said Mirzo ham turar, zarbof to'n ichidan suvoriy sovut, boshlariga tilla hoshiyali dubulg'a kiygan bu ikki shahzodaning ham ko'zlarida taraddud, harakatlarida toqatsizlik sezilib turardi.

Mirzo Ulug'bek jo'rttaga ovozini ko'tarib:

— Shahzoda lashkari yurish boshlabdur, — dedi. — Lashkarlarida fillar bor er mish.

Shayxulislom Burhoniddin rangi o'chib, boshini sarak-sarak qildi:

— Davlatpanoh ne farmon bergaylor?

---

<sup>1</sup>Hirovul — qo'shining old tomoni; <sup>2</sup>Qalb — qo'shin markazi.

Mirzo Ulug'bek miyig'ida kulumsiradi.

— Ollo taolo peshonaga neni yozgan bo'lса, shu bo'ladi, taqsir.

— Inshoolloh, peshonangiz yorug' bo'lg'ay. Va illo...

— Jang-jadal qilmoq!..

Shayxulislom cho'qqi soqolini ushlab, bosh chayqadi va go'yo saroy ahli eshitishini istamaganday:

— Dorussaltanaga qaytmoq darkor, onhazratim! — dedi sekin. — Qal'a mustahkam...

Mirzo Ulug'bek asabiy harakat qilib:

— Hayhot! — dedi. — Shahzodada tosh otg'uvchi arrodalar<sup>1</sup> bordur, taqsir! Butkul shahar zer-zabar bo'ladi! Butkul shahar!

Chol yana asabiylashib boshini sarak-sarak qildi.

— Vallohi a'lам bissavob! Va lekin shaharni ololmas, sultonim! Jamiki masjidlarga xutba o'qiturmen. Barcha fuqaro oyoqqa turadur, davlatpanoh!..

— O'ylab ko'rmoq darkor, taqsir! — Mirzo Ulug'bek qovog'ini uyanicha koshona tomon yurdi. Yo'lda turgan shahzodalar shosha-pisha yo'l berishdi. Koshonaning ikkinchi oshyonidagi devorlari firuzarang sopol parchinlar bilan bezatilgan katta xonaga shohi ko'rpačhalar to'shalib, xontaxtalar qo'yilgan, xontaxtalar yog'liq patirlar, meva-cheva, qovurilgan g'oz va kaboblarga to'la edi.

Mirzo Ulug'bek ichida kulib qo'ydi: "O'lim oldidan bazmi jashid!". U to'rga, bir mahallar bobosi Amir Temur o'tirgan joyga o'tirrakan, poygakda ta'zim qilib turgan bakovulga yuzlanib: — Boda keltir! — deb buyurdi. Lekin bodani bemalol ichish nasib etmadi.

Bakovul chiqib, Mirzo Ulug'bek joylashibroq o'tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi chopar keltirgan nomani tutdi. Bu noma suyukli navkari Bobo Husayndan bo'lib, birinchisidan ham vahimali edi. Shahzodaning o'ng va chap qanot lashkari yurishni jadallatib, amir Sulton Jondor bilan amir Iskandar barlos qo'shinlarini qopqonga tushirmoq harakatida ekan. Lekin eng yomoni — amir Sulton Jondor qayoqqadir qochgan, qo'shinda yolg'iz amir Iskandar barlos qolgan emish! Bobo Husayn buni xabar qilib, Mirzo Ulug'bekka Samarqandga chekinishni maslahat bergen, o'zi esa amir Iskandar

<sup>1</sup>Arroda – tosh otadigan qurol, manjaniq.



barlos bilan Damashq atrofida jang qilib, shahzoda lashkarlarini to'xtatib turish niyatida ekanini yozgan edi.

Nomaga qaraganda shahzoda qo'shinlari ikki-uch farsax joyga kelib qolgan, Mirzo Ulug'bek qanday qarorga kelmasin, bu qarorni darhol qabul qilmog'i lozim edi! ...U hamon jang qilish, shahzoda bilan yuzma-yuz kelish istagi bilan yonar edi. Lekin Bobo Husayn yo'llagan nomani o'qirkan, xayoliga bir fikr keldi: dorussaltanaga qaytib va uning darvozalarini berkitib olib, shahzoda bilan sulh-saloh tuzsa ne qiladi? Yo'q, shahzoda uning taxtda qolishiga ko'nmas. Lekin Mirzo Ulug'bekka minba'd toj-u taxt kerak ermas! Shahzoda uning rasadxonasi-yu madrasalariga tegmasa, ma'rifat yo'lidagi ishlarini man etmasa, u tinchgina ilm-u idrok bilan mashg'ul bo'lsa — bas! Unga shundan boshqa ne kerak?

Lekin shahzodani bu shartlarga ko'ndirish uchun fuqaroni safar-bar qilib bo'lsa ham, mudofaaga o'tmoq darkor.

Mirzo Ulug'bek barcha ikkilanishlarga chek qo'yib, to'rda "churq" etmay o'tirgan amir Idris tarxonga yuzlandi.

— Siz Damashqda qolib, Iskandar barlos suvoriylariga ko'mak bergaysiz, amir! Boshingiz ketsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini to'xtatgaysiz. Farmoni oliy ayonmi?

— Ayon, davlatpanoh! — Amir Idris tarxon to'n ichidan kiygan sovutining halqachalarini shing'irlatib, ta'zim qildi.

Mirzo Ulug'bek uyqusizlikdan qisilgan ko'zlari yonib, o'g'ilii Abdulazizga qaradi.

— Sen ikki shahzodani olib, darhol dorussaltanaga chopgaysen. Dorug'a Mironshohga amri oliyni yetkazgaysen: barcha a'yon-u boyonlar darhol Ko'ksaroyga yig'ilsin. Mashvarat qilurmen.

Mirzo Ulug'bek shitob bilan o'rnidan turdi. Boda to'la kosasini bir sipqarishda bo'shatdi-da, hech kimga qaramay koshonadan chiqdi.

\* \* \*

Qorong'i tusha boshlaganidan bezovtalangan Mirzo Ulug'bek otiga qamchi urdi. Shu payt oldinda, Qohira bog'lariga kiraverishda, ot tuyoqlarining dupuri eshitilib, allaqanday g'alayon ko'tarildi, ilgarilab



ketgan navkarlarning qattiq-qattiq tovushlari eshitildi. So'ng bir guruh suvoriylar ot choptirib kelib, Mirzo Ulug'bekka yetmay to'xtadi. Mirzo Ulug'bek qilichini qinidan sug'urib oldi.

— Bu kim?

— A'lolahazratlari, afv etsinlar! Biz dorussaltanaga borib qaytdik!..

Ketma-ket ot choptirib kelgan shahzoda Abdulaziz bilan tund yuzli saroybon arg'umog'ini niqtab oldinga o'tdi.

— Davlatpanoh...

— So'zla!

— Darvozalar yopilgan. Salohdorlar darvozalarni ochmoqdin bosh tortadur, hazratim...

— Yolg'on! — Mirzo Ulug'bek xayolida baqirib yuborganday bo'ldi, lekin uning ovozi xirillab eshitildi-yu, bir zum og'ir jimlik cho'kdi. Qorong'ida shayxulislom Burhoniddinning: "Yo, Parvardigor!.." — deb pichirlagani va Mirzo Ulug'bekning hansirab nafas olgani eshitildi.

— Dorug'a Mironshoh qayda? Darvozada bormu?

— Yo'q, onhazratim! Dorug'a darvozaga kelmoqdin bosh tortibdi.

— Bo'shat yo'lni! — Mirzo Ulug'bek shunday deb baqirdi-da, betoqat pishqirgan oq bedoviga qamchi bosdi. Achchiq qamchiga o'rganmagan arabiq arg'umoq osmonga sakradi-yu, shamolday uchib ketdi...

Uning tuyoqlari ostidan otilib chiqqan tosh va kesaklar har tomon vizillab otilar, osmonda uchgan xazonlar ayovsiz savalar, lekin u hech narsani sezmas, qalbida tug'yon urgan alam og'riqni bosib ketgan edi. Xayolan u hamon ko'kka tavallo qilar, osiy bandangni kechir-gaysen, qarigan chog'imda bu xo'rlikni ravo ko'rmagaysen, deb iltijo etardi.

Bog'lar chekinib, atrof xiyol yorishdi. Sal o'tmay, oldinda osmon bilan tutashgan dorussaltanat qo'rg'oni ko'zga chalindi. Qorong'ida qo'rg'onning kungurador devori shunday yuksak va mustahkam ko'rinar ediki, uni hech bir kuch zabit etolmaydiganday tuyulardi.

Suvi ko'klamdayoq qurib qolgan chuqur xandaq yonida Mirzo Ulug'bekni yana bir guruh navkarlar qarshi oldi. Ular orasida



shahzoda Abdulaziz bilan jiyanlari Abdulla va Abu Said Mirzo ham bor edi. Uchala shahzoda ham asabiy holatda u yoqdan-bu yoqqa ot o'ynatib yurishar edi. Mirzo Ulug'bek shahzodalarga e'tibor bermay, chuqr xandaqdan ot choptirib o'tib, do'nglikdagi darvoza oldida to'xtadi.

Otini niqtab borib, qilichi bilan darvozani "shaq-shaq" urgan edi, tepadagi minoradan:

— Bu kim? — degan ovoz eshitildi.

— Bu men! — dedi Mirzo Ulug'bek, yana qoni qaynab. — Sohibi toj Mirzo Ulug'bek Ko'ragoniy!

— "Darvozaiohanin" namozi asrdan so'ng shoh-u gado — bar-chaga yopiqdir!

— Och darvozani, mal'un!

Mirzo Ulug'bek go'yo darvozani ag'dara oladigandek, ot soldirib bordi, asov oq bedov osmonga sapchib, oldingi oyoqlari bilan temir darvozani qarsillatib urdi-yu, orqaga tisarildi. Yuqorida bir daqiqa jimmilik cho'kkach:

— A'lo hazratlari afv etsinlar! — dedi boyagi ovoz. — Dorug'a Mironshoh janoblari farmon qilmishlar, darvoza ochilmaydur!

— Sohibi sultanat men bo'lurmen. Barcha farmonlarim amri vo-jib erur!.. Darvozani och yo dorug'ani chaqir, yoxud boshing ketadi, salohdor!

Mirzo Ulug'bek gapini tugatmagan ham ediki, devor tepasidagi minoradan qiqirlab bo'g'iq ovoz eshitildi:

— Salohdorning boshini olishga qo'ling kaltalik qiladur! Buning boshi emas, o'z boshingga ehtiyot bo'lg'il, Muhammad Tarag'ay!

Mirzo Ulug'bek bir daqiqa tili kalimaga kelmay garang bo'lib qoldi. Bu ingichka xirilloq ovozning egasi, har bir so'zidan zahar tomchilab turgan bu odam... amir Sulton Jondor edi!..

Voajabo! Bu mal'un lashkarni tashlab qochganda... dorussaltanaga kelgan ekan-da! Lekin qachon, qaysi yo'ldan o'tib keldi? Unga darvozani kim, nechun ochdi?.. Bu beimon kazzoblar qachon til biriktirgan? Bu diyonatsiz insonlar, bu amir-u umarolar, arkoni harb va arkoni davlatlardan hazar, alhazar! Qayga bormang, hamma yoqda makkorlik, razolat va riyokorlik!



Mirzo Ulug'bek oyoqlarini uzangiga tirab, qaddini rostladi, vujud-vujudini larzaga solgan tug'yonni zo'rg'a bosib:

— Amir Sulton Jondor! — dedi. — Humo qushi kimning boshiga qo'nur, buni yolg'iz Haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa — sening baxting! Va lekin falakning gardishi bilan toj-u taxt qo'limda qolsa... esingda bo'lsin: oyog'ingdan dorga osib, ostingdan o't qo'yamen! — Mirzo Ulug'bek shunday dedi-da, amir Jondorning javobini kutmasdan, otining boshini orqaga burdi.

Mirzo Ulug'bek handaqdan ot choptirib o'tishi bilan uni shahzodalar o'rabi olishdi. Xayoli alg'ov-dalg'ov bo'lib ketgan Mirzo Ulug'bek shahzodalarning hayajonli so'zlaridan faqat bir narsani, "Shohruhiya qal'asi", — degan so'zni tushundi-yu, "mayli!" deb, qo'l siltadi. U qayonna, nima maqsadda ketayotganini bilmas, xayolini faqat bir fikr — insonlarning riyokorligi, manfurlik va kazzobligi band etgan edi. Sal o'tmay, Shohruhiya qal'asiga ot choptirib ketgan shahzoda Abdulaziz qaytib keldi. U og'ir hansirar, g'uldirab allanimalarni aytar, lekin gapini tushunish qiyin edi.

Mirzo Ulug'bek Shohruhiya qal'asi ham yopilganini, qal'a boshlig'i turkmanbegi Ibrohim Po'lat o'g'li ham sotqinlik qilganini uning g'uldirashlaridan arang ilg'ab oldi. Aqli bilan emas, allaqanday ichki tuyg'u bilan ilg'ab oldi-yu, labini qattiq tishlaganicha o'ylanib qoldi. U bir daqiqagini ikkilandi, ko'nglidagi g'alayon bilan bir soniqagina olishdi, so'ng, arg'umog'ining boshini orqaga burdi. U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo'lsa-da, yomonlik bo'lsa-da, o'z surriyotidan ko'rishga ahd qildi.



### Savol va topshiriqlar:

1. Shahzoda Abdulla va Abu Said Mirzolarning ko'zlaridagi taraddud, harakatlaridagi toqatsizlik nimadan darak deb o'ylaysiz?
2. Mirzo Ulug'bekning Abdullatif Mirzo bilan yuzma-yuz kelishga intilishi uning shaxsiyatining qayjihatini ko'rsatadi?
3. Mirzo Ulug'bekning ruhiy holati tasvirini o'qib, tahlil qiling.
4. Yuragi tug'yonga kelgan hukmdorning Samarqand qal'asini ko'rgach, birdan bo'shashib qolgani sababini topishga urining.



5. Amir Jondorning andishasiz gapidan so'ng Ulug'bek Mirzoning tili bir zum kalimaga kelmay qolgani sababi nimada?
6. Mirzo Ulug'bekning Shohruhiya ham qo'ldan ketganligini o'g'lining gapidan emas, balki ichki tuyg'u bilan anglab yetgani sababini izohlang.
7. *"U bir daqiqagina ikkilandi, ko'nglidagi g'alayon bilan bir soniyagina olishdi, so'ng, arg'umog'inining boshini orqaga burdi. U Mirzo Abdullatifga bosh egishga, yaxshilik bo'lsa-da, yomonlik bo'lsa-da, o'z surriyotidan ko'rishga ahd qildi".* Mirzo Ulug'bek taqdirini hal qilgan bu harakat sababini tushuntiring.

\* \* \*

*Bir paytlar uzoq Yassidan haqiqat izlab, Ulug'bek taxtiga bosh urib kelgan va undan ko'p yaxshiliklar ko'rgan iste'dodli shoир, arslonyurak jangchi Qalandar Qarnoqiy joni ni xatarga qo'yib, toj-u taxtidan ayrılgan hukmdorning qimmatbaho xazinasi bo'lmish kitoblarni asrab qolishda Mirzo Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchiga yordam beradi...*

Qattiq uxlab yotgan Ali Qushchi eshik ohista g'ichirlab ochilganini sezib, uyg'onib ketdi. Rasadxona zimiston bo'lsa ham, Ali Qushchining o'tkir ko'zlari darrov ko'rdi: poygakda devqomat bir kimsa gavdasi bilan eshikni to'sib, qaqqayib turardi.

Ali Qushchi beixtiyor yostig'i ostidagi xanjarga qo'l yogurtirdi.

— Kim bu?

Eshikdagi kimsadan sas chiqmadi.

— So'zla. Kimsen, ey bandai gung?

— Bu men, faqirmen...

Ali Qushchi xanjarini ushlaganicha o'rnidan sakrab turdi.

— Qalandar Qarnoqiy?

— Balli sizga, mavlono, yodingizdan chiqarmabsiz.

— Joningda qasding bo'lmasa, o'rningdan jilmagaysen!

— Qalandar Qarnoqiy birovning ixtiyorli bilan yurmaydur, mavlono. Oltin qidirib keldim bu dargohga! Shamni yoqing, mavlono!

Ali Qushchi xanjarini qinidan shartta sug'urib oldi. Xayolidan: "Yoningda sheriklaring bo'lmasa, sen bilan olishib ko'ramen!" — degan fikr o'tdi. O'zini bosib:



— Ne deb aljiraysen, Qalandar? — dedi. — Ilm dargohida oltin ne qilur, tentak?

Qalandar qorong'ida sekin kului:

— Bu ilm dargohida Jahongir tillalari ko'milmishdur, mavlono!

Ali Qushchi nima qilishini bilmay bir zum lol bo'lib qoldi. "Bu junsifat devona tillaning daragini qaydin eshitdi? Uni bu yerga kim yubordi? Yonida kimlar bor?"

Qalandar qorong'ida gumbazga o'xshagan kulohlik boshini chayqab:

— Mavlono Ali Qushchi, — dedi istehzo bilan. — Kim sizni yo'lbars bilan olishgan sheryurak Ali Qushchi deydi! Shamni yoqing! Shoir Qalandar bu dargohga qora niyatda kelsa, boyta pichoqlab tashlar edi sizni!

Qalandarning so'zida jon bor: rasadxonaga bildirmasdan kirgan odam, g'aflat uyqusida yotgan mavlononing boshini tanidan judo qiliishi hech gap emas edi.

Ali Qushchi qorong'ida paypaslab, tokchaga o'tdi va kechasi o'chib qolgan shamni yoqdi. Uning zaif shu'lasida kutubxonaning devorlaridagi zarhal naqshlar, javonlardagi kitoblarning tillakori jildlari yaltillab ketdi. Qalandar Qarnoqiy egnida quroq janda, boshida uchlik eski kuloh, devsifat qomati bilan hamon eshikni to'sib turardi.

...Uning boshiga tushgan savdolar Ali Qushchining esiga tushib, ko'ngli sal yumshadi.

— Kel, ollo gadoyi, o'Itir!

Qalandar tez yurib kelib uning qo'lini oldi va labiga bosdi.

"Bunga ne bo'ldi? Nечун bunday qiladi?"

— Yuqori o't, o'Itir, Qalandar...

Qalandar og'iр xo'rsinib:

— Faqir bu chappa dunyodan haqiqat izlab topolmagan, adashgan bandadurmen, ustod! — deb xitob qildi. — Avvalam sohibi toj Mirzo Ulug'bekdan elimga madad istab kelib, madad topmadim. Yurtimdan ayrilib, bevatan bir musofir, kulbasiz bir daydi it bo'ldim. Haqiqat deb kirmagan ko'cham, bosh urmagan eshigim qolmadi, axiyri ahli ollo gadolariga ixlos qo'ydim. Va lekin... ne chora? Gadolar emas, tilida hamd-u sano, dilida fisqi-fujur gumrohlarni ko'rdir. Emdi,



xoh inoning, xoh yo'q, haqiqat izlab, tag'in dargohi ilmga keldim, ustod!

Qalandar to'satdan ovozi darz ketib, jim qoldi. Uning samiyligiga shubha qilish qiyin edi. Lekin... Ali Qushchi zo'raki kuldi.

— So'zingda mantiq yo'qdur, Qalandar, haqiqat qidirib keldim, deysan va lekin haqiqat emas, oltin qidirasen!..

— Buning boisi shulkim, bu oltin boshingizga yetib, yostig'ingizni quritadur, mavlono!

— Menda oltin borlig'ini qaydan bilasen? Ayt, darvesh!

— Yo'q, avval siz so'zlang, ustod: bu dargohga Amir Temur oltinlari ko'milganini birovga aytgan edingizmu?

Ali Qushchi beixtiyor:

— Xoja Salohiddin zargar! — deb yubordi. — Nahot?..

Qalandar labini tishlab, boshini sarak-sarak qildi:

— O, mavlono, mavlono! Sizday yetuk donishmand bu ishda sabiylik qilibdur. U qari tulki bu sir-asrorni hazratlariga yetkazgandur. Oltinni yashirib, darhol qochmog'ingiz darkor. Bil'aks, oltinni tortib olib, o'zingizni yo'q qiladilar, ustod!

— Sen tilla va javohirlarni aytding, Qalandar. Va lekin tilladan aziz bu boylikni ne qilamiz? Kamina bosh olib ketsam, bu noyob xazinaning taqdiri ne bo'ladi?

Qalandar boshini ko'tarib, javonlarga uzoq tikildi. Janob Nizomiddin Xomushning makruh kitoblar to'g'risida aytgan tahdidli so'zlari esiga tushdi.

— Yashirmoq kerak!

— Bu hisobsiz xazinani qayga yashiramen? Qanday yashiramen, Qalandar?

— Har nechuk bu dargohdan olib ketmoq darkor, — Qalandar boshidagi kulohini to'g'rilib, bir daqiqa o'ylanib turdi, so'ng Ali Qushchiga qaramay:

— Rasadxonada tashqari chiqadurgan lahim bormi? — deb so'radi.

Ali Qushchi xiyol ikkilanib turgach: — Bor, — deb javob berdi.

— Oltinlarni olib, men bilan yuring, — dedi Qalandar buyruq ohangida. — Bir joyga boramiz, ustod.

— Qayga?

— So'ramang. Oltinlarni oling!

Qalandarning amri Ali Qushchining ko'ngliga yana g'ulg'ula solsa ham, u tavakkal qilib, javonga narvon qo'yib, kitoblar orqasiga yashirgan tilla va javohirlarni ola boshladи.

— Bu boylikni yashirgan xufiya joyingiz shumi? Borakallo sizga, mavlono! — deb kulib qo'ydi. U oltinlarni joylab bo'lib:

— Lahim qayda? Boshlang, mavlono! — deb amr qildi.

Lahimni butun Mavarounnaharda faqat ikki kishi — Mirzo Ulug'bek bilan Ali Qushchi bilar, lekin Ali Qushchi ham unga umrida bir marotabagina tushgan edi.

— Bismillahir rohmanir rohim!

Og'iz-burnini shohi qiyiqcha bilan o'rab olgan Ali Qushchi beliga arqon bog'lab quduqqa birinchi bo'lib tushdi. Suvi tizzadan keladigan quduq zax, muzday sovuq edi. Nihoyat, zimiston tor yo'lak tugar, katta g'adir-budur tosh yo'llarida ko'ndalang bo'ldi-yu, ular taqqa to'xtashdi.

Qalandar bilan Ali Qushchi oyoqlarini yerga tirab, kiftlari bilan toshni azod ko'targan edi, u ohista qo'zg'alib, to'satdan "gurs" etib ag'darildi-yu, dimoqqa "gup" etib musaffo havo urdi...

Lahim terak bo'yi keladigan jarga chiqqan, jar tagi toshloq soy edi. Ular soyga tushib, ikkovlashib katta toshni joyiga qo'yishdi-da, jar yoqalab ketishdi.

Ali Qushchi hayron edi: Qalandar Qarnoqiy Samarqandga emas, bil'aks, Urgut tomonlarga yo'l oldi. Sal o'tmay, o'ngga burilib, "Obirahmat" arig'ini yoqalab ketdi... Pastda, soy bo'yida, tegirmon novlardan quyilgan suvning bir maromda shovullashi eshitildi. Ular tegirmonga yetmay, katta bir bog'ga kirishdi va allaqanday tokzorlardan, hali ko'milmagan anorzorlardan o'tib, qir yonbag'rida joylashgan qishloqqa kirishdi. Keyin yana o'ngga burilib, tor ko'cha bo'ylab ketishdi.

"Nog'oratepa!" — xayolida dedi Ali Qushchi.

Ular borayotgan tor ko'cha kichikroq maydonchaga olib chiqdi. Maydonchaning qibla tomonida balandgina tepalik bo'lib, uning etagida ikki tup sada ko'zga chalinardi. Qalandar Qarnoqiy u yoq-bu



yoqqa qarab olgach, Ali Qushchiga “yuring” deb imo qildi-da, may-donchadan chopqillab o’tib, sadalar ostida to’xtadi.

Qirning old tomoni go’yo pichoq bilan kesilganday tikka cho-pilgan bo’lib, o’rtasida ungurday bir narsa qorayib turardi. Qalandar oyoq uchida yurib borib, ungurning temir qoplangan eshigini uch marta sekin qoqdi-da, o’zini yana sada panasiga oldi. Sal o’tmay, eshik g’ichirlab ochilib, lahimning tuynugiday zim-ziyo tuynuk ko’rindi.

Qalandar Ali Qushchining qo’lidan ushlab, ikki bukilganicha qorong’i ungurga sho’ng’idi.

— Assalomu alaykum, otaxon...

Ungurning tupkarisidan allaqanday vazmin va yo’g’on ovoz eshitildi:

— Vaalaykum assalom!..

Ali Qushchi Qalandarning orqasidan qorong’i tuynukka kirarkan, xayolidan: “Bir lahimdan chiqib, boshqa lahimga kirdikmi? — degan fikr o’tdi. — Bu jununsifat devona qay go’ristonga boshlab keldi?”

Ular chindan ham lahimga o’xshagan kambargina zimiston yo’lkaga kirgan edilar. Yo’lkaning oxirida milt-milt yongan shu’la ko’ri-nardi. Ular shu’laga qarab yurdilar va uzun, tor yo’lakdan o’tib, shifti qubbasimon qilib yasalgan katta g’orga kirdilar. Tokchadagi moy-chiroqning xira shu’lasida ulkan g’or qandaydir vahimali tuyulardi. Oldinda borayotgan Qalandar to’xtab:

— Mana, kamina aytgan mavlono Ali Qushchi huzuringizga qadam ranjida qildilar, hazrati Temur bobo! — dedi.

Nimqorong’i g’orning bir burchidan boyagi vazmin tovush eshitildi:

— Assalomu alaykum, mavlono! Faqir kulbamizga xush kelibsen, o’g’lim Alouddin!

Hayratga tushgan Ali Qushchi ko’ngli g’alati bo’lib oldinga o’tdi.

— Vaalaykum assalom, buzrukvor!

— Borakallo, mavlono! Qani, yuqori o’t!

Ko’zlari qorong’iga o’rgangan Ali Qushchi atrofiga qiziqsinib qaradi.

Ular kirgan joy baland tepalikning yonbag’riga o’yib kirilgan



katta g'or bo'lib, ikki yonida yana ikkita kichikroq ungurlar ko'rinar edi. Yo'lakdan kirgan joydagi ungurda temirchilik asbob-uskunalari, bosqon va sandon, uning tagida og'ir bolg'a va cho'kichlar, uzun temir qisqichlar, omburlar yotar, chap tomondag'i g'orda qozon-tovoq, qumg'on, choydish, har xil obdastalar va boshqa ro'zg'or buyumlari terib qo'yilgan edi. Katta g'orning to'rida, po'stak yozilgan supada, boshiga chambarak kigiz qalpoq kiygan, ko'pdan beri qaychi tegmagan qalin soqoli ko'ksiga tushgan bir chol... qo'y terisidan tikilgan keng po'stinga o'ranib, chordana qurib o'tirardi.

Cholning orqasidagi, tekis chopilgan devorga ikkita qilich va qalqon osilgan, qilichlarning o'rtasidagi tokchada qandaydir eski kitoblar ko'rinaridi... G'orga hayrat bilan tikilib qolgan Ali Qushchining esiga... nogahon Urgut tog'larida Mirzo Ulug'bek bilan ov qilib yurganlarida ko'rgan bir g'or tushdi. U ham xuddi mana shunga o'xshar, zimiston, kambar Iahimdan qo'rqlmay o'tib borilsa, xuddi shunday keng g'orga kirilardi. G'orning devorlari va qubbasimon shifti go'yo inson qo'li bilan yasalganday silliq, oppoq marmar toshlardan barpo bo'lgan edi. To'satdan Ali Qushchining miyasida bir narsa "yarq" etganday bo'ldi:

"Xazinani o'sha g'orga yashirmoq darkor!"

Uning xayolini cholning:

— Nechun talmovsirab qolding, mavlono? — degan ovozi bo'ldi. — Qani, o't buyoqqa! — Chol o'ng tomonidagi ustiga po'stak tashlangan katta to'nkani ko'rsatdi. — Tortinmay o'Itirgaysen, mavlono. Bu to'nkada osiy bandaning adashi, sohibqiron Amir Temur o'Itirib, mana bu kosada... — chol qo'lini cho'zib kitob terilgan tokchaning ostidan katta mis kosani oldi, — mana shul kosada faqirga boda tutgan. Faqir esam...

Ali Qushchi endigina usta Temur Samarcandiy degan mashhur temirchining g'orida turganini tushundi. Amir Temur lashkarida xizmat qilgan bu odam to'g'risida Ali Qushchi ko'p g'alati hangomalar eshitgan, lekin o'zini ko'rmagan edi.

Ali Qushchi tavoze bilan qo'l qovushtirib, chol ko'rsatgan to'nka-ga o'tirdi. Qalandar esa cholning yoniga cho'nqaydi.

— Ha, mavlono Ali Qushchi, — dedi chol, — siz muzaf-



far fotih Amir Temur Ko'ragoniy o'Itirgan to'nkada o'Itiribsiz. Amir Temurdan so'ng bul to'nkada uning farzandi Xoqoni Said Shohrux Mirzo o'Itirgan edi... — Chol siyrak, lekin o'siq qoshlarini silab miyig'ida kulumisiradi. — Ul zoti sharif quyma oltin olib kelibdurkim, qiblagoh Amir Temurga yasagan qilichday qilich yasab berarmishmen. Bilmaydurlarkim, qilich yasamaslikka ont ichganmen...

Bu to'g'rida ham Ali Qushchining qulog'iga allaqanday mishmishlar chalingan edi. Go'yo Shohrux Mirzo Samarcandga tashrif buyurganida mashhur bir temirchiga qilich buyurgan, temirchi esa qilich yasashdan bosh tortgan. Shohrux Mirzo darg'azab bo'lib, uni dorga osishga buyurgan, lekin Mirzo Ulug'bek aralashib, temirchini o'limdan olib qolgan...

Ali Qushchi cholning qora qurum bosgan serajin yuziga, paxmoq qoshlari ostidagi tiyrak ko'zlariga hayajon bilan tikildi. Cholning keng yuzi, ko'ksiga tushgan oppoq soqoli, kuch yog'ilib turgan baqvavat jussasi, tizzasiga tirab o'tirgan qoqsuyak qo'llari xuddi cho'ng qoyadan o'yib yasalganga o'xshar, vujudidan bo'lakcha bir mardona-vorlik, iroda, kuch yog'ilib turardi...

— Mavlono Ali Qushchi, — dedi chol, — ollo gadoyi Qalandar sir-asrorning bir chetini ochdi. Faqir ilm dargohidan suv ichmaganmen, ammo Hirot-u Bag'dod-u Damashqda ko'p madrasai oliylarda hovli supurib, ko'p donishmandlarning xizmatlarini qilganmen, purhikmat suhabatlaridan bahramand bo'lganmen. Alqissa, ne xizmat darkor bo'lsa — ayamasmen, bolam!..

Ali Qushchi qo'llarini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qildi.

— Ming-ming rahmat sizga, vallomat. Siz shahzoda Mirzo Abdullatif taxt-u toj ishqida Movarounnahrga bostirib kirganidin voqif-dursiz?

Chol bosh irg'adi.

— O'z padariga qilich ko'targan surriyot, inshoollo, Haq taoloning qahriga yo'liqur, mavlono...

— Inshoollo, duoingiz mustajob bo'lg'ay. Ammo davlatpanoh Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda qirq yil hukm surganida rasadxonaday jamiul-ulum barpo etib, ko'p purhikmat kitoblar, ko'p noyob qo'l-yozmalar, ko'p ilm durdonalarini to'plagan erdi. Endi bu nodir xazina



xavf ostida turibdur. Bu ilm xazinasini johil-u gumrohlardin saqlamoq-ni Mirzo Ulug'bek kamina zimmasiga yuklagan erdi...

— Mirzo Ulug'bek! — Chol ko'zlarini yumib, uf tortdi. — Hay attang! Shunday zukko odam, quzg'un sarkardalariga inonib, qarigan chog'ida ko'p pand yedi. Ko'nglingizga kelmasin, mavlono, ammo urush bahona, bu amir-u umaro kafangado qildi biz bechoralarni. Javr bo'lganda bizday kambag'al hunarmandlarga javr bo'ldi, o'g'lim.

Ali Qushchi qizarinqirab yerga qaradi. Ne chora, usta haq: bu urush yolg'iz fuqaro emas, ustodning o'z boshiga ham ko'p musibat soldi. Qalandar o'rnila bir qo'zg'alib: — Otaxon! — dedi. — Hozir bu so'zdan foyda yo'q. Ilm xazinasи xavf ostida qolgandir.

— Bas! — usta kaftini uning tizzasiga qo'ydi.— Qancha sandiq lozim deding?

— O'n besh-yigirma sandiq bo'lsa kifoya.

— Qachon tayyor bo'lmos'i kerak?

— Qanchaki tez bo'lsa, nur ustiga a'lo nur! — dedi Qalandar va xurjunga imo qilib qo'shib qo'ydi:

— Tillani ayamasmiz, otaxon!

“Tilla” so'zini eshitgan chol ijirg'anib yuzini burishtirdi. U o'siq qoshlarini silab xiyol o'ylangach, Qalandarga yuzlanib:

— Ertaga shomdan keyin bir xabar olursen, o'g'lim, — dedi.

— Rahmat, buzrukvor... Buni ne qilurmiz? — Qalandar xurjunni ko'rsatib kuldi. — Ichi to'la oltin!

— Ko'mmoq darkor, — chol shunday deb, qibla tomondagi qorong'i xonaga ishora qildi. — Olib kirib ko'mgaysen. Faqirga oltin ne, temir ne farqi yo'qdur.

...Ali Qushchi usta Temur Samarcandiy bilan xayrlashib, Qalandar ikkovlon g'ordan chiqarkan, go'yo yelkasidan tog' qulagandyengil tortdi. Tashqarida hamon sovuq bo'ron uvullar, quturar edi. Shamol kuchayib, bulutlar tarqagan, osmon g'uj-g'uj yulduzlarga to'lib ketgan edi. Tong yaqin bo'lsa kerak, har joy-har joyda xo'rozlar qich-qirar, itlar hurar, eshaklar hangardi.



## Savol va topshiriqlar:

1. Olim Ali Qushchining sirli ishlarga uquvi yo'qligi aks etgan o'rirlarni sharhlang.
2. Asar matnidan Qarnoqiyning niyati yomon emasligini ko'rsatuvchi dalillarni topib, izohlang.
3. Mo'ljali aniq, harakatlari dadil Qalandar ovozining to'satdan darz ketishi boisi nimada deb o'ylaysiz?
4. Qarnoqiyning Ulug'bek Mirzo hurmati uchun Ali Qushchiga yordam ko'rsatishi sababini tushuntiring.
5. Ali Qushchi shubhalansa-da, xazina, kitoblar va hatto o'z hayotini Qalandar ixtiyoriga topshirishi sababini anglating.
6. Usta Temur Samarqandiy harakatlari, so'zlash yo'siniga qarab, uning shaxsiyatiga tavsif bering.

\* \* \*

Mirzo Ulug'bek Ko'ksaroyning chekkasidagi bir xonada o'z yog'iga o'zi qovrilib yotibdi. Eshikdagi yasovul, hatto, tahoratga ham chiqarmaydi, tahorat suvini ichkariga beradi. Mirzo Ulug'bek Ko'ksaroymda yarim asr istiqomat qilib, bu xonani ko'rmagan ekan. Xona sovuq va nimqorong'i. Faqat shiftdagи tuynukchadan bir ho-vuchgina nur tushadi. Xonada gilam-u bir-ikkita ko'rпacha. O'rtadagi xontaxtada sovib qolgan kabob va meva-cheva. Bejirim chinni ko'zachada — boda. Lekin ovqatdan shubhalangan Mirzo Ulug'bek hanuz tuz totgani yo'q. Faqat qumg'ondagи suvdan bir-ikki qultum ich-di, xolos. Mana endi ochlik va uyqusizlikdan xayoli chuvalib, shiftdagи tuynukka tikilib yotibdi.

U kecha shahzodaga ikkita maktub yo'llab suhabatga chaqirishni so'radi. U toj-u taxtdan o'z idroki va ixtiyori bilan voz kechmoqqa azm qilganini shahzodaga aytmoqchi va undan yolg'iz bir narsani — qolgan besh kunlik umrini ilm-ma'rifikatga bag'ishlashiga imkon berishini so'ramoqchi edi. Keyin, agar shahzoda qulq solsa, otalik nasihatini bermoqchi, insof vaadolatga chaqirmoqchi edi. Yo'q. Har ikkala maktub ham javobsiz qoldi. Bu oqpadar o'g'ilning muddaosi ne? Yana qanday shumlikni boshlamoqchi? Taxt azmida hech narsadan tap tortmagan bu ko'rnamak o'z padarining joniga qasd qilmoq niyati-



da emasmu? Yo'q, Mirzo Ulug'bek o'limdan qo'rqlmaydi! O'lim haq, Parvardigori olam! Va lekin yomon bo'lса-da, o'z pushtikamaridan yaralgan bu johil farzandining taqdiri ne bo'ladi? O'z qiblagohining joniga qasd qilib, padarkush degan mash'um nom olib, abadulabad badnom bo'lmasmu? Xonaga birov kirdimi yo eshik g'ichirladimi?

Mirzo Ulug'bek ko'zini ochdi. Ostonada paydo bo'lgan yasovul orqaga chekinib, tanish semiz bakovulga yo'l berdi. Bakovulning qo'lidagi og'ir barkashda qip-qizil pishgan ikkita patir, bir tovoq osh va bir choynak choy bor edi. Bakovul bosh egib, ta'zim qildi-da, barkashni xontaxtaga qo'ydi. Shoshilmay sovib qolgan kaboblarni yig'ib oldi, so'ng, indamay orqasiga tisarilarkan, patirga imo qilib ko'zini qisdi. Mirzo Ulug'bek uning imosiga tushunolmay bir patirga, bir bakovulga qaradi. Lekin bakovul indamadi, "ayg'oqchi bor" degan ma'noda eshikka imladi-da, yana patirga ishora qilib chiqib ketdi.

Mirzo Ulug'bek patirni olib ushatdi, ushatdi-yu, hayron bo'lib qoldi. Patirning orasidan naycha qilib o'ralgan bir qog'oz chiqdi. Mirzo Ulug'bek yuragi "shig'" etib, qog'ozni ochdi. Imzo chekilmagan. Noma'lum kimsa unga Haq taolodan inoyat tilab, dorussaltanada bo'layotgan hodisalardan voqif qilgan va bir maslahatni o'rtaga tash-lagan edi.

Uning yozishicha, shahzodai valiahd dorussultanani zabit etib, Ko'ksaroya kirishi bilan qiyomat-qoyim boshlangan, kecha masjidi jomeda xutba o'qilib, Mirzo Ulug'bek Movarounnahr g'animi deb atalgan va toj-u taxtdan judo qilingan. Xutbada Movarounnahr sultoni deb, shahzodaning ismi zikr qilingan va uning nomida pul zarb etilmoqqa fatvo berilgan. Shahzoda bu kunlarda ko'p zoti shariflarni, Mirzo Ulug'bekning ko'p navkarları va sarkardalarini hibsga olgan. Qarshilik qilganlar esa qatl etilgan. Shahzoda uni, Mirzo Ulug'bekni, Makkayı mukarramaga hajga yubormoqqa jazm qilgan. Lekin xutbada Sayid Abbas degan bir kimsa xonga yukunib, a'lohzaratlaridan xun dovLAGAN. Zero, Ulug'bek hazratlari uning padari buzrukvorini begunoh qatl qildirgan emish. Bu diyonatsiz kimsaning soxta dovin ni qoziyul quzzot Xoja Miskin janoblaridan boshqa bir kimsa, hatto shahzodaning o'zi ham rad qilmagan. Alqissa, uning hayoti qil ustida turibdi, shu bois noma'lum kimsa unga qochmoqni maslahat qilgan.



Basharti onhzazratlari bu maslahatni maqbul topsa, bakovulga ishora qilmog'i lozim. Bakovul posbonni dori bilan uxlatib, Mirzo Ulug'bekni Ko'ksaroy tagidagi lahimdan olib chiqadi.

Mirzo Ulug'bek maktubni o'qib tugatmasidanoq o'rnidan turib ketdi. Uning ko'ngliga kelgan birinchi fikr "tuzoq" bo'ldi. Shahzoda, yo'q, amirlar qo'ygan azozil tuzog'i!.. Mirzo Ulug'bek hayajon ichida xonani bir aylanib chiqdi. Banogoh ko'zi ushatilgan patirga tushib, ko'nglidan yana o'sha fikr o'tdi: "Og'u"...

— Ha, bu ovqat, non, chinni ko'zachadagi boda — hammasi zaharlangan! Hammasiga og'u solingen! Niyatlari uni zaharlab o'ldirmoq! — dedi Mirzo Ulug'bek, dedi-yu, xayoliga yana bir fikr kelib ma'yus jilmaydi:

"Alhol unga baribir emasmu? Kindik qoni to'kilgan suyukli yurtidan judo bo'lib, yot ellarda, olis musofir yurtida darbadar kezganidan yoxud boshini Sayid Abbas qilichi kesganidan og'u ichib o'lgani maqbul emasmu?"

Mirzo Ulug'bek bir piyola bodani to'ldirib ko'tarib yubordi-da, bir burda non chaynab, xonani sekin aylana boshladi...

\* \* \*

Mirzo Ulug'bek qalbini chulg'ab olgan alamli duddan bo'g'ilib, xonaning o'rtasida to'xtadi. U endigina xonaga qorong'i tushganini, shiftdagi tuynukchadan quyilib turgan bir hovuchgina nur so'nib, kaft-dekkina osmonda milt-milt yulduzlar yonganini ko'rdi.

— Yulduzlar!.. — Mirzo Ulug'bek ko'ngli bir xil bo'lib osmonga tikildi. Yo tavba! U yulduzlarni yaxshi tanimadi. Qorong'i tuynukda milt-milt etgan qaysi sitora? Dubbi akbarmi yoki boshqa yulduzmi?.. Osmondagi har bir yulduzni nomma-nom biladigan munajjim... unga ne bo'ldi? Ko'zining nuri so'nib qoldim-u yo zehni xiralashdimu?

Mirzo Ulug'bek xayoli chuvalib ketayotganini sezib, joyiga borib yonboshladi. Yonboshlashi bilan eshik ochilib, boshlarida dubulg'a, qo'llarida yalang'och qilich, ikki sipoh kirib keldi. Ikkovi ham ot yuzli, o'ng quloqlariga isirg'a taqqan balxiy sipohlardan edi. Sipohlardan keyin surmarang salsa o'ragan zanjiday qop-qora notanish yasovul kirib ta'zim qildi va jimgina eshikka imladi. Mirzo Ulug'bek zanjisifat



yasovulning betakalluf harakati uyg'otgan g'azabni ichiga yutib, egniga suvsar po'stinini tashladi...

Salomxona charog'on edi. Gir aylantirib qo'yilgan baland kursilarda hammasi birday movut-u zarbof to'n ustidan oq shoyi rido kiygan, boshlariga simobiylar oq salsa o'ragan ulamo o'tirardi. Eshikda Mirzo Ulug'bek ko'ringanda ulamolardan ba'zilari shosha-pisha o'rinalidan turishdi, lekin to'rda, boshqalardan balandroq kursida tasbeh o'girib o'tirganlar, qilich taqqan amirlar hazrat Xomushning qahrqli nighohi ostida qayta joylariga cho'kdilar.

Mirzo Ulug'bekning xayolidan: "Shayxulislom Burhoniddin qayda? Dorussaltana qoziyul-quzzoti Xoja Miskin janoblari-chi?" — degan fikr o'tdi.

Hazrat uzun, nozik barmoqlari bilan go'yo har bir tolasiga jilo berganday yaltillagan oppoq soqolini silab:

— Bandayi ojiz Muhammad Tarag'ay, — dedi, "onhazratlari" so'zini qo'shmay. — Dorussaltana ulamo va amirlarining bu dargohga yig'ilmog'idin murodi Olloning inoyati bilan Movarounnahrga sultonin bo'lgan shahzodai valiahdning amri oliylari va ulamolarning fatvolarini...

Mirzo Ulug'bek kinoyali kulmoqchi bo'ldi, lekin kulolmadi, yuragini larzaga solgan ichki tug'yon uning irodasidan ustun kelib, yuzi burishib ketdi.

— Ha, hazratim. Fatvo mubohara qilmoq<sup>1</sup> uchun ilmdan ogoh bo'imloq darkor. Nadomatlar bo'lg'aykim, bu murofaaga<sup>2</sup> aqli zukko ulamolar emas, ilm-u ma'rifikatdan yiroq johillar yig'ilibdur... Zerokim, o'gil bilan ota o'rtasiga nifoq solib, farzandni o'z padariga qayrash... Gunohi kabir emasmu, hazratim?

Rangi o'chgan, allaqanday ichki bir g'ururdan ko'zlari chaqnab ketgan Mirzo Ulug'bek oldini to'sgan ulamolarni yorib o'tib, to'rdagi eshikka tomon yurdi. Dag'-dag' qaltiragan a'lolahazratlarining vajohati shunday qo'rquinchli ediki, eshik oldida turgan ulamolar beixtiyor chekinib, unga yo'l berishdi.

Mirzo Ulug'bek ularning yonidan o'tib, chetlariga tilla tasma qoqligan o'ymakor eshikni shitob bilan o'ziga tortdi. Eshikning o'ng

---

<sup>1</sup>*Mubohara qilmoq – fatvo bermoq, ruxsat etmoq;* <sup>2</sup>*Murofaa – bahs-munozara, muhokama.*



tabaqasi sharaqlab ochildi-yu, devorga tegib yana yopildi. Mirzo Ulug'bek qayta yulqib ochib, ichkariga kirdi.

Shiftdag'i oltin qandilga terilgan o'nlaracha shamlar shu'lasi-da shahzodaning so'nik yuzi go'yo ganchdan yasalgan niqobday sovuq tuyular, chuqur botgan ko'zlari bejo charaqlar, qo'sh-qo'sh til-la uzuk taqilgan ingichka qoramtil barmoqlari asabiy titrardi. Mirzo Ulug'bek allaqanday yengil tortib, taxt yonidagi oq kursiga borib o'tir-di. Shahzodaning ganch niqobni eslatgan yuzi, qaltiloq qo'llari, ayniq-sa, bejo javdiragan ko'zlari uning dilida mehrga o'xshash bir tuyg'u uyg'otgan, faqat qandaydir g'urur, temuriylarga xos bir iftixor gap boshlashga qo'ymas edi.

Mirzo Ulug'bek ko'zini undan uzib shiftga, sham terilgan chambarak tilla qandilga tikdi. "Yo tavba! Bu toj-u taxtda ne sehr, ne sir-asror bor ekankim, unga o'Itirgan har bir kimsa darhol o'zgaradi? Odamiylikni, umri bebaqo bir faqir-u haqir ekanini darhol unutadi? Bu toj-u taxt, bu sultanat hech bir kimsaga vafo qilmasligini yodidan chiqaradi? Nainki shahzoda, bu taxt hattokim... Amir Temurga ham vafo qilmaganini tushunmaydi? Ana, go'yo bobosi Amir Temurday gerdayib o'Itiribdi! Bilmaydikim... Yo'q, to'xta, Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen? Bu vafosiz toj-u taxt, insonlar ustidan hokimlik qilmoq lazzati o'zingni ham aqli hushingdan ayirma-gan edimu? Shahzoda yaxshi bo'lsun, yomon bo'lsun — o'z farzan-ding, o'z pushtikamariningdan bo'lg'an zurriyoting emasmu?.. Ot tep-kisini ot ko'taradur. Uni qarg'ab, yomonlik tilagandan yaxshi so'zingni so'zlab, nasihatingni qilganing maqbul emasmu, ey osiy banda?"

Mirzo Ulug'bek ko'ngli yumshab, shahzodaga yuzlandi, dilidagi iztirob aralash g'ururni bosib:

— Shahzodayi juvонbaxt! — dedi sekin.— Taxtimning valiahdi sen eding. Ollo taolo faqirni o'z rahmatiga chorlasa, bu taxtga sen o'Itirar eding. Olloning inoyati bilan ko'zim tirigida bu taxt senga nasib bo'libdi, men bunga rozimen...

Shahzoda qo'llarini oltin taxtning suyanchiqlariga tirab, sovuq kulumtsiradi:

— Balli sizga, qiblagoh! Va lekin men bu taxtni sizning ixtiyo-ringiz bilan emas, birlamchi, Haq taolonning inoyati, ikkilamchi, o'z kuch-qudratim ila qo'lga kiritdim!

Mirzo Ulug'bek lablarini qattiq qimtib:  
“Burgut! — dedi ichida. — Qora burgut!”

Uning ko'ngliga yopirilib kelgan mehr izg'irin tekkan shamday so'nib, yuragi yana muzladi. U, avvalo, shahzodani o'g'lim deb, qolaversa, egilgan boshni qilich kesmas deb, hamiyatini bukib kelgan edi, bu quzg'un esa... Mirzo Ulug'bek jismini qaqshatgan alamli tug'yonni arang bosib:

— Kuch-qudratingga inonib, — dedi, — Movarounnahr sarhadiga qadam qo'y may qiyomat-qoyim qilasenmu?

Shahzodaning rangi o'chib, bejo ko'zlari tungi alangaday yaltillab ketdi.

— Nechun qadam qo'y magaymen? Movarounnahr ulusi oyog'im ostidadur!

— Esingda bo'lgay, bu tuproqni oyoq osti qildim, degan ne-ne fotihlar, ne-ne jahongirlar o'tgandur. Ularning xoki qayda, tirik banda bilmaydi va lekin bu el, bu tuproq abadulabad turajakdur!

Mirzo Abdullatifning yupqa lablariga kinoyali tabassum yugurdi... ...o'rnidan turib ketdi, lekin taxtdan tushgisi kelmay, joyiga qayta o'tirdi.

— Suhbatdan muddaongiz shu bo'lsa, men bunday nasihat-larga muhtoj emasmen! — dedi u past, lekin tahdidli ovoz bilan. — Boshqa kalomingiz bo'lsa aytинг, yo'qsa...

“Yo'q, bundan shafqat tilab bo'lmas. Bundan shafqat tilamoq, aj-dahodan jon tilamoq bilan barobar!..”

— Yo'qsa...

— To'xta! — dedi Mirzo Ulug'bek uning so'zini bo'lib. — Senga aytadurg'on yolg'iz tilagim bor. So'nggi tilagimdur bu... O'z padaringni Movarounnahr sarhadidan haydamoqni niyat qilibsen... Meni bu mas-kandan haydagandin qatl qilganing a'lodur! Qatl!

\* \* \*

“Bog'i maydon”ni bir sayr qilib kelish niyatida chiqqan Mirzo Abdullatif, bog'ni ko'rgach, Ko'ksaroya qaytgisi kelmay qoldi...

Shahzoda munaqqash<sup>1</sup> chinni idishdan yana bir piyola may

---

<sup>1</sup>Munaqqash – naqshli.



quyib ichdi-da, xontaxtadagi noz-ne'matlardan bir-ikki cho'qilab, ipak ko'rpa chaga yonboshladi... Shahzoda tush ko'rdi. Go'yo u Ko'ksaroyda, haramxonaga yondosh o'rdaday keng, muhtasham xo-nada katta bazmi jamshid qurayotgan emish. Bazmga barcha amir-lar va nufuzli beklar, devon va saroy mahramlari, shahzodaning eng yaqin muqarrablar<sup>1</sup> yig'ilgan emish. Bakovullar oltin barkashlarda taom ustiga taom tortishar, may daryo bo'lib oqar emish. Poygakda o'tirgan mashhur sozandalar jon oluvchi dilrabo kuylar chalarmish, xonaning to'ridagi harir parda orqasida esa yarim yalang'och noza-ninlar zeb-ziynatlarini yoqimli jaranglatib, noz-u karashmalar bilan ming maqomda xiromon qilarmish... To'satdan eshikda amir Sulton Jondor tarxon kirib, sajdaga bosh egarmish. Shahzoda amir Jondorni ko'rib, o'rnidan turib ketarmish-u:

— Ushlanglar bu fitnachini! — deb baqirarmish. — Bu kazzob dorussaltanada yashirinib, bizga choh qazib yurgandur!

— Sadoqati zohir qulingiz sizday valine'mat pushtipanohimga kiyik ovlab, tog'larda yurgan edim. Bukun bir kiyikning boshini keltir-dim! Uni yesangiz barcha g'urbat, barcha xastalikdan forig' bo'lib, qushday yengil tortasiz, davlatpanoh! — Amir Jondor shunday deb, eshikdan kimnidir imlab chaqirarmish. Xonaga dasturxon yopilgan katta oltin barkash ko'tarib, notanish bir navkar kirib kelarmish. Amir Jondor uning qo'lidan barkashni olib, shahzodaga uzatarmish:

— Barcha dardingizga davo bo'ladur, tatib ko'ring, davlatpanoh!

Shahzoda barkashni olib, dasturxонни ocharmish. Oltin bar-kashda... qonga bo'yagan uning o'z boshi tirjayib yotarmish!.. Barkash qo'lidan tushib, qonga bo'yagan boshi yerga yumalab ketarmish...

Shahzoda dod solib qichqirganicha... uyg'onib ketdi. U tushida-gina emas, o'ngida ham dod solib baqirib yubordi, chamasi, chang va setor ovozi kelayotgan yondosh xonadan balxlik saroybon bilan yana bir mahram yugurib chiqdi.

— Siz... sizga ne bo'ldi, davlatpanoh?

...Shahzoda qaltiroq bosib, unga tomon yurdi.

— Choparning ilkiga yorliq bitib, muhr bosib ber! Yoxud o'zing

---

<sup>1</sup>Muqarrablar – yaqinlar.



birga bor! Bas! Mavlononi yer ostidan bo'lsa-da, darhol topib kelasen. Uqdingmu?

Saroybon jimgina bosh egganicha pastga tushib ketdi.

Shahzoda nigohi oldidagi sovuq manzarani quvish umidida ko'k charm jildiga zarhal bezak solingan qalin kitobni oldi: Nizomiy Ganjaviy!..

Yo, Rab! Hozir kitobni ochganda daf'atan ko'zi tushgan ilk misralar... tushida ko'rgan qonli kalladan ham dahshatli edi... Shahzoda yuragini changallaganicha ko'zini yumdi, lekin zarhal harflar bilan bitilgan sirli misralar xuddi boyagi qonli kalladay ko'z oldidan ketmay, olovday lovullab turardi. Shahzoda diliga dahshat solgan bu ikki baytni oxirigacha o'qidimi, yo'qmi, o'zi ham bilmas edi. Lekin undagi "Padarkush, toj-u taxt, olti oy..." degan so'zlar xuddi qizdirilgan temir bilan o'yib yozilganday miyasini jaz-jaz kuydirib, nigohi oldida yal-yal yonib turardi. "Padarkush... toj-u taxt... olti oydan oshmaydur..."

"Uning taxtga o'tirganiga necha oy bo'ldi?.. Sha'bon oyi edi. Bukun rabbial avval<sup>1</sup> ... olti oy... bo'l mish!"...

Shahzoda yer o'pganicha ko'kka tavallo qilib, rahm-shafqat tilar, yum-yum yig'lab, telbalanib allanimalarni so'zlar edi...



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Ulug'bekning o'g'li qo'lida o'lishdan emas, balki farzandining "padarkush" degan nom olishidan qo'rqliki aks etgan tasvirlarga munosabat bildiring.
2. Hozirgi holatidan ko'ra zaharlanishni afzal ko'rgan Ulug'bekning tuyg'ulari haqida mulohaza yuriting.
3. Bir umr yulduzlar bilan shug'ullangan kishining tuynukdan ko'ringan yulduzlarni tanimasligi sababini izohlang.
4. "...kinoyali kulmoqchi bo'ldi, lekin kulolmadni, yuragini larzaga solgan ichki tug'yon uning irodasidan ustun kelib, yuzi burishib ketdi" tasviriga asoslanib, Mirzo Ulug'bekning o'sha ondagi sezimlarini sharhlang.

<sup>1</sup>Rabbial avval – 1450- yilning may oyiga to'g'ri keladi.

- 
- 5. Mirzo Ulug‘bekning ma’naviy qudrati aks etgan tasvirlarni o‘qib, sharhlang.
  - 6. Ulug‘bekning o‘g‘li bilan bahsi tasviridan ularning shaxsiga xos belgilarni ko‘rsating.
  - 7. Ulug‘bekning so‘nggi so‘zlarini izohlang.
  - 8. Abdullatifning ko‘ngliga yorug‘ tuyg‘ular solgan vaziyat tasvirini izohlang.
  - 9. **“Oltin barkashda... qonga bo‘yalgan uning o‘z boshi tirjayib yotarmish!.. Barkash qo‘lidan tushib, qonga bo‘yalgan boshi yerga yumalab ketarmish...”** tasvirining ta’sirini ayting.
  - 10. Abdullatif ruhiyatidagi tiyiqsiz va tushunarsiz o‘zgarishlarning sababi nima?

### **Nazariy ma’lumot**

### **BADIY ADABIYOTDA RUHIYAT TAHLILI**

Ruh — o‘ta murakkab tushuncha. Ruhiyatga daxldor narsalarni bilish qiyin, ko‘ngil bilan tuyish mumkin, xolos. Demak, ruh odamning ko‘ngliga tegishli hodisa ekan. Inson aqli ruhni to‘la tushunishga ojizlik qiladi. Qur’oni karimda ham ruhning izohini odam tushunolmasligi ta’kidlangan.

Qachondir qilingan ish, bildirilgan fikr, so‘zlangan so‘z es-kirishi mumkin, lekin inson ruhiyatining xususiyatlari hech qachon eskirmaydi. Shuning uchun ham badiiy ijodda odam ruhiyati tasviriga katta e’tibor qaratiladi. Siz badiiy asarlarda inson ruhiyatining tushuntirish mumkin bo‘lмаган jihatlari tasviriga ko‘p marta duch kelgansiz. Chunonchi, raqibini yiqitolmagan Alpomishga qarata Oybarchin tomonidan aytilgan: **“Qizlar sizni narmoda deb aytdi, Qizlarning aytgani menga botadi. Mardlar olishmaydi, siltab otadi, Maydon bo‘lsa, ish ko‘rsatib ketadi”** so‘zları yigit ruhiyatini ostin-ustun qilib yuborgani va shu vaqtgacha yiqitolmagan dushmanini ko‘kka otgani sizga ma’lum. Yoki umrida ko‘zidan bir tomchi yosh chiqmagan Qo‘chqor Alomatning so‘zları ta’sirida o‘zini



tutolmay, o'kirib-o'kirib yig'laganidan "Temir xotin" komedyasi orqali xabardor bo'lasiz.

Siz tanishgan "Ulug'bek xazinasi" romanidagi har bir personajning qilgan ishi, aytgan gapi uning ruhiy holatiga muvofiq keladi. Qanchalar yovuz va shuhratparast bo'lmasin, otasiga tig' ko'tarish Abdullatif uchun ham oson kechmaydi. Asarda o'g'liga qarshi kurashtishga majbur otaning ham, ota halokatiga sabab bo'lgan bolaning ham ruhiyati juda ta'sirli va ishonarli ko'rsatilgan. Yozuvchi o'tmishda qanday yomonlik bo'lganini aytibgina qo'ymaydi, balki o'tmishdagi yovuzlikni sodir etganlar yoki undan jabr ko'rganlar qanday tuyg'ularni kechirganliklarini, qanday ruhiy holatga tushganliklarini ham ishonarli ko'rsatib beradi. Ayni shu holat bu romanning ta'sirchanligini ta'minlagan.

Badiiy asarni qiziqarli voqealarning o'zi qimmatli qilolmaydi. Sababi, qaydadir va qachondir yuz bergen voqealar, qanchalar muhim va qiziqarli bo'lmasin, eskiradi, lekin o'sha voqealarni kechirgan obrazlarning ruhiy holatlari hech qachon eskirmaydi. Ularning haqqoniy tasviri barcha davrlardagi kishilarga ta'sir ko'rsataveradi.





## ABDULLA ORIPOV (1941—2016)



Abdulla Oripov 1941- yilning 21- mart — ayni Yilboshi bayrami kuni Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko'z qishlog'ida tug'il-di. Qishloq Qo'ng'irtov etagiga o'rashgan, oqar suv taqchil bo'lsada, seryomg'ir kelgan yillarda ko'kat-u maysalarga ko'milib qoladigan kengish joyda edi. Ana shunday go'zal maskanda tug'ilib o'sgan bo'lajak shoirning otasi Orifboy Ubaydulla o'g'li ishbilarmon dehqonlardan bo'lib, jamoa xo'jaligi raisi edi. Onasi Turdixol momo ko'pchilik o'zbek ayollari singari sarishta, mehnatkash, mehribon, g'oyat ta'sirchan va ezzulikka tashna ayol bo'lgan. Oilada to'rt o'g'il, to'rt qiz bo'lib, Abdulla o'g'llarning kenjasи edi.

Bolaligi qishloqdagи boshqa tengdoshlariniki qatori o'tdi: qo'y boqdi, suv tashidi, pichan o'rdi, yantoq chopdi, somon to'pladi. Ayni vaqtida, u boshqacharoq ham edi: qandaydir xayolchan, ta'sirchan, o'ychil, kitobga haddan tashqari ko'ngil qo'ygan. Abdulla hali maktabga bormay turib, qandaydir so'zlarni bir-biriga uyqash qilib aytib yurishni xush ko'rар, so'zning mazmunidan ko'ra ohangi uni qattiq bezovta qilardi. Buni shoir keyinchalik shunday eslaydi: "...birinchi she'rlar yoza boshlaganimga nima turki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda so'zlarni qofiyalashga ishqiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib nimadir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Yozmaslikning ham iloji yo'q".

Abdulla o'z qishlog'idagi yetti yillik maktabda o'qiy boshladi. 1958- yilda qo'shni Tayzan ovulidagi o'rta maktabni oltin medal bilan bitirgan o'spirin Toshkent Davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek



nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti) O'zbek filologiyasi fakulteti journalistika bo'limiga o'qishga kirib, uni 1963- yilda imtiyozli diplom bilan bitirdi. A.Oripov oliy maktabni tugatgach, Toshkentdagi "Yosh gvardiya" nashriyotiga muharrir bo'lib ishga kiradi. Bu yerda to'rt yil ishlagach, 1967—1974- yillarda G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda dastlab muharrir, so'ng katta muharrir bo'lib xizmat qiladi. 1974—1976- yillarda "Sharq yulduzi" jurnalida nazm bo'limini boshqaradi.

Muxlislari mehrini qozongan shoir 1976 — 1982- yillar orasida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi sifatida adabiyotga endi kirib kelayotgan yosh ijodkorlarga rahnamolik qildi. 1982—1983- yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo'limida mas'ul kotib bo'lib faoliyat ko'rsatdi. 1983- yilda shoir "Gulxan" jurnalining bosh muharriri bo'ldi va u yerda 1985- yilgacha, ya'ni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kobi lavozimiga o'tguncha ishladi. Uyushmaga uch yil kotiblik qilgan A.Oripov 1988- yilda O'zbekiston Respublikasi Mualliflik huquqini himoya qilish qo'mitasi raisi lavozimiga o'tkazildi. 1996- yilning mart oyidan 2009- yilning mayiga qadar shoir O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasida ishlab keldi.

Birinchi marta Respublika matbuotida "Qushcha" degan she'ri chiqqan paytda A.Oripov talaba edi. Shoirning birinchi she'rlar to'plami "Mitti yulduz" esa 1965- yilda chop etilgan. Undan keyin "Ko'zlarim yo'lingda" (1967), "Onajon" (1969), "Ruhim" (1971), "O'zbekiston", "Qasida" (1972), "Xotirot" (1974), "Yurtim shamoli" (1974), "Jannatga yo'l" (1978), "Hayrat" (1979), "Hakim va ajal" (1980), "Najot qal'asi" (1981), "Yillar armoni" (1983), "Haj daftari" (1992), "Saylanma" (1996), "Sohibqiron" (1996), to'rt jildlik "Tanlangan asarlar" (2000 — 2001) singari qator kitoblari bosilib chiqdi.

A.Oripov xalqini jahon adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirgan. U Dantening "Ilohiy komediya" asari, L. Ukrainka, T. Shevchenko, N. Nekrasov, Q. Quliyev, R. Hamzatov singari atoqli shoirlar asarlari ni o'zbekchaga o'girgan.

Abdulla Oripovga 1989- yilning 25- avgustida "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berilgan. 1994- yilda shoir Alisher Navoiy nomi-



dagi Davlat mukofotiga loyiq ko'rildi, 1998- yilda esa "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi.

Buyuk shoir, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi mualifi Abdulla Oripov 2016- yilning 5- noyabrida vafot etdi. Yurtimizda A.Oripov xotirasini mangulashtirish bo'yicha bir qator ishlar qilingan. Toshkent va Qarshi shaharlariда унга haykallar о'rnatilgan, ko'chalarga nomi qo'yilgan, Qarshi shahrida shoir nomida ona tili va adabiyot fanlari chuqurlashtirib o'qitiladigan maktab-internat ochilgan.

Otashin shoirning she'riyatiga xos jihatlar 10- sinfga o'tganingizda atroflicha o'rganiladi. Hozir esa A. Oripovning "Sohibqiron" dramatik dostonidan kichik parcha bilan tanishasiz.

## SOHIBQIRON

### I SAHNA

*Parda ochiladi. Samarcand. Temur saroyi. Sohibqiron soch oldirayotgan manzara.*

**Sartarosh:** Sartaroshning kasbi-kori hammaga ma'lum:

Soch-soqolni qirtishlayman. Tamom-vassalom!  
Biroq Tangri xo'p inoyat aylamish menga,  
Temurdayin buyuk Amir mening mijozim.  
Olampanoh, necha yilki, mahramingizman,  
Xizmat qilib kelmoqdaman dargohingizda.  
Hatto hazil-huzulni ham iltifot aylab  
Qulingizdan ayamaysiz.

**Temur:** Qul ko'p, sen – yolg'iz!

**Sartarosh:** Sohibqiron boshingizni sal quyi eging,  
Ustaramning tig'i o'tkir, dami ko'p tezkor.

**Temur:** Sartaroshga bosh egar, ha, jahongirlar ham,  
Boshqalarga egilishdan asrasin Xudo!  
Biroq senga oddiygina bir gapni aytay:  
Sohibining xohishiga bo'ysunadi tig'.  
Zarur bo'lsa kesgaydir u yomon yarani,  
Jaholatda uzar lekin tilla boshni ham.  
Marhamating uchun esa tashakkur senga.



Har qandayin bandaga ham kerakdir sirdosh,  
Senga ko'ngil ochsam bo'lar...

**Sartarosh:** Qulluq, Hazratim!

**Temur:** Gap yurarmish, go'yo Temur tabassum qilmas,  
Go'yo menga xursandchilik, shodlik begona.  
Har qadamda bilintirmay og'u sochguvchi  
Mansabparast, g'ayur, battol, o'g'ri, firibgar,  
Xushomadgo'y kimsalarni mahram sanaymi?  
Yo ularga yaldoqlanib, tabassum aylab,  
Ko'ngullarni ovlash uchun muqom qilaymi?  
Odamzotni bir daqiqa bejilov qo'ysang  
G'ajib tashlar, yeb bitirar bir-birlarini.  
Qo'ni-qo'shni uluslarning hukmdorlari  
Shamshirimdan qo'rqedilar, shonimdan emas.  
Sartaroshsan, mana senga boshimni egdim.  
Biroq meni afv etgaysan, tiz bukolmayman...

**Sartarosh:** Oyog'ingiz shikast topgan muhorabada,  
Shu boisdan afv etadi sizni qulingiz.

**Temur:** Biroq uzoq kechmishimni solding yodimga,  
Men onamdan shamshir bilan tug'ilmagandim.  
Kesh shahrining sarhadida, Voha bag'rida  
Xo'ja Ilg'or degan joy bor.

**Sartarosh:** Olam biladi!

**Temur:** Ko'kka boqib, adirlarda yayrardim shodon,  
Bahor chog'i sel toshqini, turfa chechaklar  
Xo'p g'aroyib tuyg'ularni tuhfa etardi.  
Yulduzlarga boqib goho baytlar bitardim.  
Shoir ahli g'azallarin qog'ozga yozsa,  
Men she'rimni o'chmas qilib shamshirga o'ydim.  
U bitikning mazmuni shul: "Kuch – adolatda!"  
Yosh boshimdan qismat menga qilich tutqazdi.  
Chingiziylar mo'r-malaxday bosgan bir paytda,  
Necha-necha sher yurakli barlos yigitlar  
Yovlariga yem bo'lganda boshi birikmay,  
Tog'-u toshda sang'ib yurgan erksevarlarni



O'z tegramga to'pladim-u yalov ko'tardim.  
Dovonlarda maskan qurdim, kezdim cho'llarda.  
Hisor tog'in betkayida, yiroq-yiroqdan  
O'pqon kabi g'or ko'rinar, ko'zing tushgaymi?

**Sartarosh:** U – Sizning g'or!

**Temur:** U joyda men jon saqlaganman,  
Tulporimning tezaklari to'zmagan hamon.  
Yog'iy meni yo'lto'sar deb anglatdi elga,  
Pistirmalar qo'yishardi yo'limga doim.  
Parvardigor marhamati g'olib keldi-yu  
Qara, omon o'tiribmiz, ikkov tig'doshlar.  
Ishing bitdi, jo'na endi, Senga tashakkur!  
Eshikbon kirsin.

***Sartarosh chiqadi.***

**Eshikbon:** Olampanoh,  
Xuttalondan hokim Kayxisrav  
Bir bandini keltirmishdir.

**Temur:** Bandi kim u?

**Eshikbon:** Amir Husayn!

**Temur:** Amir Husayn? Olib kirishsin!  
Hozir bo'lsin Shayxulislom, amirlarim ham  
Va albatta, piri komil Said Baraka

***Eshikbon chiqadi. Amir Husaynni ahli devon qurshovida olib kiradilar.***

Qo'l-oyog'in yeching buni! Marhabo amir!  
Kishan sendan xalos bo'lsin!

**Amir Husayn:** Taqdirga la'nat!

Tiriklayin sen iblisga ro'baro' qildi.

**Temur:** (Mir Said Barakaga)

Eshitdingiz, muhtaram pir Said Baraka,  
Siz bu bilan Balx shahrida suhbatdosh bo'lib  
Yashagansiz, sinagansiz. Taqdir deydi u.  
Axir men ham tobemasimi o'sha taqdirga?

**Mir Said Baraka:** Odamzodni yaratibdi Alloh serkaram,  
Taqdirin ham belgilamish. Biroq ayni payt



Odamzodni ozod qo'ymish sinamoq uchun,  
Bu sinovdan o'tolmagay Amir Husayn.

**Amir Husayn:** Pirim, sizga ne qilibmen? Gunohim nedur?

**Mir Said Baraka:** Gunohingdan bittasini aytayin, amir,  
Balx shahrida saroy qurding kayf-safo uchun.  
Masjidlarning mablag'larin sarf etding unga.  
Yana yig'lab taqdir deysan...

**Temur:** Umr chopag'on!  
Bizlar mingan bedovlardan ko'ra uchqur u.  
Yo Husayn! Eslaysan-a, birga o'sgandik.  
Sen Qozog'on nabirasi! Men – barloszoda!

**Amir Husayn:** Bir qibлага bab-baravar yuzni bursak ham,  
Sen o'zga bir xonadondan, men – Chingiziyman!

**Temur:** Xotirangdan chiqmagandir u o'smir yillar,  
Ikkimizni qo'yishgandi bir payt poygaga.  
Mendan ortda qolib ketding, biroq past tushmay  
O'shanda ham degan eding: "Men – Chingiziyman!"  
O'rtamizga qo'yib hatto Kalomulloni  
Necha marta qasam ichding, esla, Husayn!  
Oxirgi payt seni bog'lab keltiray desam  
Qochib qolding.

**Amir Husayn:** Omad mendan yuzin o'girdi.  
Yo'qsa sening toj-u taxting bo'lardi menda!  
Madrasaga bekingandim, ablah Kayxisrav  
Tanib qolmish egnimdag'i zarbof to'nimdan.

**Temur:** Kayxisravning otasini sen o'ldirganding,  
O'sha xun deb seni tutib keltirmishdir u.  
Omadsizlik emasdир bu – qilmish-qidirmish.  
Endi sening kimligingni aytay, Husayn,  
Lashkarini siylamagan sen – xasis amir!  
Sirdaryoning bo'ylarida Jetega qarshi  
Ikkalamiz chiqqan edik o'sha mash'um kun.  
Osmon go'yo teshildi-yu jami bulutlar  
Suvlarini to'kkan edi jang maydoniga.  
Ust-boshi ho'l, holdan toygan sening lashkaring



Och-u nahor bo'lgani-chun ortga chekindi.  
Loy jangida sen sababli nochor qolganman.  
O'n ming askar nobud bo'ldi, afsus, o'shanda.

**Amir Husayn:** Temur, menga to'nkama u mag'lubiyatni,  
Firibingni ko'rsat edi, sarkarda bo'lsang!

**Temur:** Ko'rmagansan firibimning mingdan birin sen,  
Atrofimni zanjir kabi o'rab tursa ham  
Jetelarni tumtaraqay quvdim Vatandan.  
Bir jang chog'i muhtaram pir Said Baraka  
Egildi-yu yerdan siqim tuproqni olib,  
"Yog'iy qochdi!" – deya nido qilganlaricha  
Yov tomonga sochdi uni, yov-chi, ha, qochdi!  
Bu ham firib, shundoqmasmi?

**Mir Said Baraka:** Avval Xudodan!  
Gar muzaffar qilar bo'lsa, madadin bergay.

**Shayxulislom:** Qiblagohning unvonlari Sohibqirondir.  
Allohimning karami-la sakkiz yuz yilda  
Yulduzlarning holatlari ayricha bo'lgay.  
Jadiy burji ko'ringaydir kiyik shaklida.  
O'sha yili tug'ilgayadir bir Sohibqiron.  
Eng avvali shoh Iskandar, undan so'ng esa  
Tug'il mishdir Rasul Akram – payg'ambarimiz.  
Uchinchisi hazrat Temur sohibqirondir.  
Avliyolar allaqachon bashorat qilib  
Aytmishlarkim, Sohibqiron dunyoni olgay.  
Jahongirga abadiyan xudo yor bo'lgay.  
Ilohi omin!

*(Qolganlar ham "Omin", "Omin" — deya yuzlariga fotiha tortadilar)*

## II SAHNA

*Ulug' Amir Temur tengsiz kurashlar, o'tkir aql va tadbirkorlik bilan tiklagan sultanatini adolat bilan boshqarish hamda imkon boricha ezgu ishlar qilishga hamisha intiladi.*

**Temur:** ...Bolalarim, unutmangki, davlat ishida  
Har qanday yumushning ham o'z o'rni bordir.

Minglab xufiya xizmat qilar bizga, masalan,  
Ammo ular tanishmagay bir-birlarini.  
Xabarlarni shoshilmasdan tinglab, o'rganib,  
Barchasidan chiqargaymiz zarur xulosa.  
Yurish qilish lozim bo'lsa, yiroq ellarga  
Tadorigin ko'rmoq kerak uch-to'rt yil avval.  
Siz, chunonchi, sarhadlarda yaylov tayyorlang.  
Yilqilarni ko'paytiring o'sha joylarda.  
Toki sizning horg'in otlar yetib borgan payt  
Tulpor bo'lib, kishnab tursin minglab toychoqlar.  
Yov qo'shinin tahlikaga solmoqlik uchun  
Tunda uning atrofida gulxanlar yoqing.  
Necha yuzlab miltillagan cho'g'larni ko'rgach,  
Yog'iyliz sizning lashkarlarni ko'p deb o'ylagay.  
Shabxon deya ataladi, tungi hujumlar.  
To'rtta otning biqiniga shox-shabbalardan  
Oddiygina supurgini bog'lab qo'ysangiz —  
Chunon to'zon ko'tarilgay, deysiz qiyomat!  
O'rni kelsa to'rt suvoriy to'rt ming otliqning  
Vahimasin yaratadi qiyqiriq bilan.  
Bayrog'ingiz egilmasin maydonda sira,  
Jangda yolg'iz qolsangiz ham bayroq tik bo'lsin.  
Hujum qilish arafasi: "Allohu akbar!" — deb  
Nido aylang. Parvardigor kuch ato etgay.  
"Suring!" — degan na'ra esa bosqinka da'vat,  
Bizning oddiy: "Ur-ho-ur"dan yov juda qo'rqrar.  
Endi jahon yaxshi bilar qudratimizni,  
Pinhon joyi qolmagandir hiylalarning ham,  
Biroq Temur firiblarin adog'i yo'qdir!  
Endi ruxsat, Mashvaratning mehmonlariga...

***Bir qism ishtirokchilar chiqib ketadilar.***

**Eshikbon:** Olampanoh, kutib turar ikkita chopar.

**Temur:** Kirsin ular!

***Ikkita chopar oldinma-keyin kiradilar.***



**Ikkinchichopar:** A'lohzrat, men Rumodan

yetib kelmishman,

Qaysarimiz Boyazidning elchisidurman,

Sulton Shabli erur mening ismi sharifim.

**Temur:** Ko'pdan seni kutmoqdaman, xabar ber, elchi,  
O'z-o'ziga qanday hukm chiqarmish Sulton?

***Chopar maktubni uzatadi. Temur uni o'qiy boshlaydi.***

"Urush bilan hal bo'lajak bu mojarolar".

"Agarda sen biz tomonga kelmasang, Temur,

Bilib qo'yki, xotinlaring uch taloq bo'lgay.

Agar seni yenga olmay chekinsam ortga

Unda mening xotinlarim bo'lsin uch taloq".

O'h, Boyazid, maqsadingni aytibsan, ammo

Shart edimi xotinlarni qimorga tikmoq.

O'z ismini yozmish Sulton oltin hal bilan,

Bizning ism quyiroqda, oddiy siyohda...

Tag'in Sulton emish bu zot. Bachkana qiliq.

Amir Temur irodamiz, farmon shul erur:

Rum Sultoni chorlabdimi jang maydoniga.

Borajakmiz! Bu shumoyoq choparni esa,

Eson-omon kuzatingiz kelgan yo'liga.

Barchangizga ruxsat. Meni yolg'iz qoldiring.

***Hamma chiqib ketadi. Temur orqadagi parda tarafga qarab...***

Buqalamun, sen qaydasan, bu yoqqa kel-chi.

***Parda ortidan ...Buqalamun — Temurning xufiyasi chiqib keladi.***

**Buqalamun:** Olampanoh, hozir bo'ldim, ne buyurgaysiz?

**Temur:** Yana yumush topshiraman senga ishonib,

Zero, har ne mushkulni ham eplab kelgansan.

Xufiyalarim orasida epchili o'zing,

Xohlasang gar o'zgaradi butkul qiyofang.

O'zgaradi va hattoki ko'zingning rangi,

Sen bilmagan til ham yo'qdir yetti iqlimda.

**Buqalamun:** Olampanoh, shu sababdan laqabimni ham

Juda topib qo'ygandingiz, Buqalamun deb,



Asl ismim bir zamонлар Iтолмас bo'lgan.

**Temur:** Endi mag'rib kishisiga aylangaydирсан.

Mutakabbir va hiylakor farangiylarni

O'rgangaysan, og'izларин hidlab ko'rgaysan.

Shohларining maqsadларин obdan anglagach,

Elchilarin chodirimga boshlab kelgaysan.

**Buqalamun:** Samarqандга, shu yergами?

**Temur:** Yo'q, Buqalamun!

Nasib etsa Angoraning atroflarida,

Olis Rumo mamlakatin qoq yuragida

Tug' ko'tarib, g'olibona chodir tikkayman.

**Buqalamun:** Olampanoh, shu daqiqа, shu soniyadan

Meni farang deb hisoblang!

**Temur:** Javobing tuzuk.

***Buqalamun g'oyib bo'ladi. Temur eshikbonni qars urib chorlaydi.***

Taklif eting malikani — Bibixonimni.

Bibixonim! Agarda u bo'lmasa edi,

Kurashлarning va janglarning dolg'alarida,

Qayroq toshga aylanardi balkи bu yurak.

Ig'vo, fitna, g'araz to'la yolg'on dunyoda

Sabrim tugab, goho-goho o'ylab qolaman:

Zarurmikan barchaga teng yaxshilik qilmoq?!

Mehr bilan birortasin boshin silasang,

G'ayur itdek qo'ling tishlar, talab tashlaydi.

Xudparastdir quldan tortib shohlarga qadar.

Bunday holning boisi ne? Sababi nima?

Men bildim-ki, bu qurama inson zuryodi

Taxt talashib, shon talashib, boylik talashib,

Alloh bergen dil gavharin unutib qo'ygan.

Tinglamasa, qamchin bilan urib va haydab,

Insof tomon qaytarmoqlik kerak ularni.

Jondan to'yib nokaslarning kirdikoridan

Darvesh bo'lib ketar ekan goho donolar.

Xo'sh, men-chi, men?!

Axir men ham asli yolg'izman,



Bugundan-u kelajakdan malomat bilan  
Minglab ko'zlar tikiladi bitta o'zimga.  
Chunki mening qismatimga janglar yozilgan...

### ***Bibixonim kiradi.***

**Bibixonim:** Chorlamishsiz, olampanoh...

**Temur:** Bibixon, bibi...

Kengash bilan band bo'libman...

**Bibixonim:** Olampanoh, yana yurish, yana safarmi?

**Temur:** Hisoblashmas qismat bizning istaklar bilan,  
Bamisoliquyosh botgach, oy chiqqanidek,  
Hodisalar silsilasi oqar bardavom...

Turkiylardan cho'chib farang mamlakatlari

Rumo bilan ikkimizni gijgijlab qo'ydi.

Bu nayrangni tushunmaydi, afsus, Boyazid,  
Boz ustiga kimki qochsa bizning g'azabdan,  
Boyazidning saroyidan topmoqda pano...

**Bibixonim:** Uning asl maqsadi ne? Murodi nima?

**Temur:** Sulton bizning sultanatga bepisand boqib,  
Hasadini bildirmoqda yosh bola kabi.  
Endi jangga chorlabdi u oshkora, ochiq.  
Men — Temurman! Oriyat ham bor-ku dunyoda.  
Yetar endi! Kuno'g'longa egar urgayman,  
Rum tarafga yuzlanadi tulporim jadal.

**Bibixonim:** ...Sizga zafar tilamoqdan boshqa choram yo'q,  
Balki men ham yoningizda bo'lay, amirim.

**Temur:** Yo'q, azizam, Samarqandning sultanatida,  
O'zingiz-u nabiramiz Muhammad Sulton.  
Hukmfarmo bo'lib turing. Yumushlar talay.  
Qurilishlar, bog'-u rog'lar, bola-baqralar...

### **Parda**

### **III SAHNA**

*Angora yaqinidagi tepalikda Temur chodiri. Tashqaridan g'ovur-g'uvur, otlar kishnashi, fillar na'rasi eshitilib turadi. Chodir ichida taxtda Amir Temur. Uning atrofida shahzodalar, amirlar, lashkarboshilar.*



**Shayxulislom:** Olampanoh, izn bering.

**Temur:** Gapiring, hazrat.

**Shayxulislom:** Kecha tunda munajjimlar — axtarshunoslar

Yulduzlarning holatiga obdan boqishib,

Xosiyatli topishibdi bugungi kunni.

**Temur:** Qutlug' ta'bir. Ammo bugun Boyazid bilan

Amir Temur jangga kirar. Munajjimlarmas.

Shayxulislom, bilib qo'ying hasratimni Siz,

U ham muslim, men ham muslim. Bu ne ko'rgulik?

...U ham turkiy, men ham turkiy. Bu ne gustohlik?

Samarqanddan yetib kelgan mening lashkarim

Ot suradi akasi yo ukasi tomon.

Yuragimni o'rtar bu hol, lekin majburman.

Har qandayin muhoraba oldidan doim

Allohimdan madad so'rab, yolboraman men.

Shayxulislom, zafar tilab tilovat qiling.

**(Shayxulislom tilovat qila boshlaydi.) Shahzodalar, amirlarga:**

— Shunqorlarim, ulug' jangga kirayotirsiz.

O'ng qanotni topshirgayman senga, Mironshoh,

So'l qanotni boshqarasan Shohruh Mirzo, Sen!

...Obong'orni faqat o'zim nazorat qilgum.

Hozirgacha ma'lum bo'lgan xabarga ko'ra

Jangga chiqmish yov tarafdan to'rt yuz ming lashkar.

**Shahzodalar:** Olampanoh, Allohdan-u Sizdan kuch olib,

**Amirlar:** Har qandayin yog'iyni ham tor-mor etgaymiz.

**Temur:** Bolalarim, bu og'ir jang. Biling, bu jangda

Rumoning o'z lashkarlari himoyadadir.

Ular axir o'z yurtlarin qo'riqlagaylar.

...Ammo Rumo yerida men o'zga emasman,

Men musulmon amiriman! Nasabim turkiy!

Adolat va dini Islom posbonidirman.

Farmonimga quloq tuting:

Bizkim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz.

Bizkim, millatlarning eng qadimi va eng ulug'i

Turkning bosh bo'g'inimiz.



Alloh Sizga madad berib, zafar yor bo'lsin!  
Naqoralar chalinsin, to yer-u osmonni  
Bizning lashkar suronlari chulg'ab olsinlar.  
Yog'iylarni tahlikaga solsin bu suron.  
...Yasovullar har daqqaq menga paydar-pay  
Yetkazishib turadilar jang tafsilotin.  
Sarkardalar, Sizga ruxsat  
Allohu akbar!

***Amirlar, sarkardalar chiqadilar***

**Temur:** (yasovulga) — Endi esa chorlang buyon Aloviddinni.  
U betimsol bir iste'dod, shatranj ustasi.  
Samarqanddan atay uni olib kelganman.

***Aloviddin kiradi.***

**Aloviddin:** Olampanoh, chorlamishsiz...

**Temur:** Ha, Aloviddin,  
Sen bilan biz necha yilki shatranj suramiz.  
Ammo bilki, bu galgisi boshqacha o'yin,  
Bu — boshqa jang! Donalarni ter, Aloviddin.

***Aloviddin shatranj donalarini teradi. Temurda oq donalar.***

Eshitgansan, Aloviddin. Yoshlik chog'imdan  
Men shatranja ishqibozman. U nozik o'yin.  
Uni tengsiz san'at deya ta'rif etarlar.  
Biroq shatranj o'xshar ko'proq jang san'atiga.

**Aloviddin:** Qani, yuring, olampanoh.

**Temur:** Yurdi, sipohim.  
Qani olg'a, piyodalar, zafar yor bo'lsin!

***Chodir tashqarisidan jang sadolari baralla eshitila  
boslaydi.***

**Aloviddin:** Shoh sipohin bizga qarshi yo'naltirdingiz,  
Kaminaning sipohi ham anoyi emas.

**Temur:** Hozir nechuk jang qilmoqda piyodalarim,  
...Juda og'ir jang ketmoqda chodir ortida.  
Inshoollo, yengajakman! Sen — Aloviddin,  
Faqat shatranj sohasida jahongirdirsan.  
Bizning esa chekimizga boshqa yuk tushgan,



Bizning uchun ulkan zamin shatranj taxtasi...

**Aloviddin:** — Sizning buyuk iste'dodga taraf yo'q aslo,  
Shatranjda ham betimsolsiz. Iqrorman, Hazrat,  
Ammo menga, izn bering, bir savolim bor.  
...Sizning g'olib bo'lmoq'ingiz garchi muqarrar.  
Lekin, Hazrat, Siz men bilan chodir ichida  
Shatranj o'ynab, jang maqomin kuzatmoqdasiz.  
Bir qarashda beparvodek, hatto, sovuqqon.

**Temur:** Men bilaman, Aloviddin, o'z qudratimni,  
Raqibimni dovdiratar bu usulim ham.  
...Odamlarim allaqachon Rum sultoniga  
Mening shatranj o'ynay turib jang qilishimni  
Yetkazdilar! Boyazidni tahlika bosdi!  
Dushmaningni bundan ortiq kamsitib bo'lmas.  
**Yasovul:** (kiradi) A'lohzrat, piyodalar nobud bo'lmoqda.  
**Temur:** Attang, attang, o'z kuchiga ortiq ishonsa,  
G'aflat bosib qolgusidir, hatto filni ham.

**(Ham yasovulga, ham Aloviddinga)**

To'lq'amo deb atalguvchi bir yo'llimiz bor,  
Yetkazingiz o'ng qanot-u ham so'l qanotga.  
Mironshoh-u Shohrux Mirzo ikki tarafdan  
Yog'iylni o'rab olsin! Obong'orda men!  
Aloviddin, shohga qarshi hujum boshladim.  
**Yasovul:** (yana kiradi) Olampanoh! Yov lashkari  
To'p-to'p bo'lishib, biz tomonga o'tayotir.  
**Temur:** Shoyon yaxshi gap!  
Ular asl musulmondir, ziyon yetkazmang.  
**Aloviddin:** A'lohzrat, har ikkala maydon ichra ham  
G'oyat qizg'in tus olmoqda jangovar san'at.  
**Temur:** Lashkarlarim "ur-ho-ur" deb jang maydonida  
Nayza bilan, qilich bilan va kamon bilan  
Yov saflarin qirib borar hozir ayovsiz.  
Men ham hozir ular bilan ruhan birkaman,  
Shu gap haqqi, senga qarshi tashlayman ruxni...  
Eshittingiz, rux haqiqat qilichidek keskir, beomon.



Men rux bilan jang qilishni sevaman juda.

**Aloviddin:** Ruxingizning na'rasiga javobim shu-da.

**Yasovul:** Olampanoh, orqadagi yov o'r dasini  
Halqa kabi o'r ab oldi bizning lashkarlar,  
Biroq o'rda ustuvordir!

**Temur:** Bizning qo'lda naftandoz deb atalguvchi bir  
Aj dahodek o't purkagich yarog'imiz bor.  
Bamisol osmon dan tushgandek quyun,  
U o't-olov purkay boshlar zamin ustiga.  
O'rda tomon yo'naltiring naftandozlarni.  
O'rda chilim sarxonasi kabi yonsin-u  
Tamakidek tutab ketsin tubida yog'iy.

**(Aloviddinga)**

Aloviddin, qay yo'sinda yo'limni to'sma,  
Mana endi ishga tushar sarkardam farzin  
Va ortidan ikkinchi rux chiqar maydonga.  
Endi qayga qochib borgay sho'rlik qorashoh?  
Endi kimdan madad kutsin yo kimga arzin  
Bayon etsin?

**Aloviddin:** Chirolyi mot! Mot!

**Temur:** Bu — ruxning ishi...  
Shoyad ruhlar menga mudom bo'lgay madadkor.

**Yasovul:** A'löhazrat, a'löhazrat, yaxshi xabar bor!  
Shu asnoda Rum sulton i asir olin mish!

**Temur:** (yasovulga) — Isming nedur?

**Yasovul:** A'löhazrat, ismim Qosimbek.

**Temur:** Qayerdansan? Nasabing kim?

**Yasovul:** Men shahri Keshdan. Otam sizga sarboz bo'lgan.  
Dehli jangida shahid ketgan,  
Bugun mening o'zim sarbozman!

**Temur:** Bizning uchun g'oyat qutlug' mujda keltirding,  
O'g'lim, seni siylagayman bu mujda uchun.  
Inshoollo, Samarcandga qaytib borgan chog'  
Nikohingga berajakman bir nabiramni.

**Yasovul:** Olampanoh, o'gunimcha Sizga sodiqman.



**Aloviddin:** O, Allohning marhamati bunchalar kengdir,  
Bir bandasin daqiqada ko'kka ko'tardi.

**Temur:** Shukur, deyman, yaratganga — Parvardigorga,  
Biroq zafar nashidasin totmasdan burun  
Ruhiyatim amri bilan bir gap aytaman:  
Hech bir shohning boshiga bu kulfat tushmasin.  
Olib kiring Boyazidni!

***Boyazidni oyoq-qo'li bog'liq holda olib kirishadi.***

Evoh, bu ne hol? Oyoq-qo'lin yeching darhol,  
U, axir, shoh-ku!  
Chumolilar xor qilishsa arslon rutbasin,  
Buzilgaydir o'rmonning ham qonuniyati.  
(*Boyazidga*) Men taassuf bildiraman, tushungin, sulton.

**Boyazid:** Asir bo'lib tursam hamki qoshingda, Temur  
Zor emasman iltifoting, taassufingga.

**Temur:** Oddiygina bir voqeа yuz berdi, axir,  
Sen yildirim laqabli bir qudratli chaqmoq  
Cho'ng temirga urilding-u chilparchin bo'lding.

**Boyazid:** Sen ustidan kulmoqdasan, masxara qilma!  
Botirlarning ishi emas yotganni toptash.

**Temur:** Toptamasman va inchunin, kulmasman aslo.  
Biroq taqdir deb atalmish buyuk hukmdor  
Kulgan ekan ikkimizning ustimizdan ham...

**Boyazid:** Bu gapingni qay yo'sinda anglamoq kerak?

**Temur:** Men bir langu, sen esa ko'r, notavon so'qir,  
Bu dunyoda butun odam topilmaganday,  
Ikkimizga yer yuzining jilovin bermish.  
Tavba qildim, tavba qildim, ming bora tavba!  
Sen bilan men ne qadarli qudratga molik,  
Qamchisidan qon tomguvchi podshoh bo'lmaylik,  
Yaratganning huzurida ojiz bandamiz.  
Alalxusus, bunga misol sening qismating.



## Savol va topshiriqlar:

1. Amir Temurning sartarosh bilan suhbati tasviriga tayanib, shaxsiga baho bering.
2. Buyuk Temurni amir Husayn bilan solishtiring. Shaxsiyatlari orasidagi farqni toping.
3. Amir Husayndan omad yuz o'girishi sababini izohlang.
4. Sohibqironning biror yurtga qilinadigan yurishga uch-to'rt yil oldin tayyorgarlik ko'rish kerakligi borasidagi o'gitini sharhlang.
5. Asardan Amir Temurning harbiy hiylalari aks etgan o'rirlarni topib, sharhlang.
6. Sohibqironning: "**O'z-o'ziga qanday hukm chiqarmish Sulton?**" — degan so'rog'i tagidagi ma'noni anglating.
7. Matnga tayanib, Boyazidning xati Amir Temurga qanday ta'sir qilganini tushuntiring.
8. "**Men — Temurman! Oriyat ham bor-ku dunyoda. Yetar endi!..**" tarzidagi gapiga asoslanib, jahongir shaxsiga baho bering.
9. Temurbekning yomonlarni insof sari "kaltak bilan haydash" haqidagi to'xtamiga munosabat bildiring.
10. Amir Temurning: "**Bizning uchun ulkan zamin shatranj taxtasi**", — degan iqrorida, sizningcha, afsus ko'pmi, iftixor?
11. Sohibqironning shaxmat taxtasidagi o'yin va maydondagi jangni birday boshqara olgani sababini izohlashga urining.
12. Temurning Qosimbekka qilgan saxovati darajasini izohlang.

## “SOHIBQIRON” ASARI TO‘G‘RISIDA

“Sohibqiron” dramasida Amir Temur janglar ichida emas, balki ko'proq o'ylar girdobida aks ettiriladi. Asarda Temurning murakkab tabiatи uning sulton Boyazid, amirlar, o'g'llariga munosabatini ko'rsatish mobaynida yorqin aks etgan. Amir Temur tajribali hukmdor va o'ychil mutafakkir sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarini: "**Mo'l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar**", — deya belgilaydi. Uning jahongirlik tabiatи suruvda bitta cho'pon bo'lganiday, xalqni ham bir podshoh boshqarishi kerakligi borasidagi qanoatida namoyon bo'ladi. Dramada jahongirning fuqarolarga munosabati:

**“Hukmdorlar seva turib fuqarolarni, Umid hamda qo’rquv ichra saqlashi darkor”,** — degan qarashida aks etadi.

A. Oripov Amir Temurni hamisha o’z yo’lining to’g’ri-noto’g’-riligini aniqlashga urinadigan, bosgan har bir qadami xususida fikr yuritadigan kishi sifatida ko’rsatadi. Shuning uchun ham Temurning: “Unutmagil, muzaffarman haqligim uchun”, — degan so’zlari o’quvchiga jahongir fikrlash tarzining mantiqiy hosilasiday ta’sir qiladi.

Asarda Amir Temurning o’z dushmanlari gunohlarini ham kechiра oladigan shaxs ekani sulton Boyazid, ezgu amallি kishilarni taqdirlashi Qosimbek timsollari orqali aks ettirilgan. Dostonda Boyazidning Amir Temurga yozgan xatidagi haqoratlar uni jang qilishga majbur etgani ishonarli tasvirlangan: **“Agarda sen biz tomonga kelmasang, Temur, Bilib qo’yki, xotunlaring uch taloq bo’lgay. Agar seni yenga olmay chekinsam ortga Unda mening xotunlarim bo’lsin uch taloq”**. Muallif hech bir musulmon chidashi mumkin bo’Imagan bunday odobsizlikka Temurning jang bilan javob berishi tabiiyligini tarixiy haqiqatga ham mos holda ko’rsatadi.

Asar bosh qahramoni Amir Temur xato qilib, birovlarining umriga zomin bo’lishdan qo’rqadi. Ammo o’zini buyuk bir tarixiy missiyaning ijrochisi deb biladi: **“Nega ko’pdir nayrangboz-u kaz-zob kimsalar? Nega bosgan yer yuzini buncha ko’p illat? Men zaminni tozalashim kerak ulardan”**. Jahongir jangovar yurishlarida doim biror xalqqa qarshi emas, balki yovuz hukmdorga qarshi qo’shin tortadi. Shu tariqa, muallif Sohibqiron faoliyatining axloqiy asoslarini aks ettiradi.

Drama bilan to’liq tanishgan kitobxon Amir Temurning Ahmad Yassaviy bilan uchrashuvi asarning eng ta’sirli lavhalaridan biri ekanligiga amin bo’ladi. Hazrat Yassaviyning: **“Ayt-chi, Temur, sen be-sabab qon to’kkamisan?”** — degan so’rog’iga javob berish jahongirga oson kechmaydi. Sohibqiron islomiy tartiblar o’rnatish, adolatni qaror toptirish uchun qon to’kkani haqida o’ylaydi. Olamni kuch bilan bosib olgandan, odamlar dilini haq so’z bilan zabit etish to’g’riroqligi haqidagi fikr Yassaviy hazratlarining shaxsiyatini ifoda etadi. Xullas, asarda Amir Temur timsoli o’zi va eli haqida tinimsiz o’ylaydigan odam sifatida puxta talqin etilgan.

## ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI

Aziz o'quvchi! Bilasizki, Abdulla Oripov jahon miqyosidagi shoir. Siz hozir uning dramatik dostoni bilan tanishdingiz. U xalqning ko'ngidan shoir sifatida joy olgan. Shu bois A. Oripovning she'riyatiga xos ayrim jihatlarga qisqacha to'xtalamiz.

Abdulla Oripov lirkasi orqali o'zbek she'riyatiga ko'ngil dardlarining suvratlari, ruhiy iztiroblar manzarasi, armonga aylangan orzularning inson sezimlarida qoldirgan izlar tasviri kirib keldi. Bu she'riyat yuzaga kelgan davrda, shaldiroq so'zlarni qofiyaga solish, baxtiyorlik haqida ko'tarinki, ammo yolg'on satrlar tuzish odat edi. Mavzuni she'r emas, balki she'rni mavzu mukarram qiladi, deb hisoblanar, shuning uchun she'rning qanday yozilishidan ko'ra uning nima haqda ekanligi muhimroq sanalardi.

Abdulla Oripov tuyg'ulari quruqshagan o'zbek she'riyatiga o'ychil g'am va g'amga qorishgan o'y olib kirdi. Shoir alohida bir odam va uning dardlari haqida o'yga botdi, qalam surdi. Bu odam shoirning o'zi edi. Binobarin, bir odam to'g'risida hayqirish, baqirish noqulay bo'lardi, u haqda pichirlab she'r o'qish lozim edi. Chunki shovqin, baland tovush odamni o'zga odamlardan yiroqlashtiradi, samimiylididan mahrum etadi.

O'tgan asrning 60—70- yillarida Abdulla Oripov she'riyati o'zbek millatini tuyg'ularning qurib qolishidan saqlab qoldi. Shuning uchun ham shoirni o'zbek she'riyatida o'z davrini yaratgan ijodkor deyish mumkin. Chunki chinakam iste'dodgina davrning to'siqlari, cheklovlarini yengib o'ta oladi. Har qanday zamon va har qanday sharoitda ham asl iste'dod davridan marhamat kutmaydi, balki unga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Abdulla Oripov she'rlaridagi beedad samimiyat, tuyg'ular chinchini beixtiyor o'ziga asir qiladi. Shoir she'rlari kayfiyat va hissiyotning yaxlit obrazlaridir. U inson tuyg'ularini, hissiyotini shu qadar chuqr bilgani va ifoda eta olganidan butun she'r emas, balki ayrim misralarning o'ziyoq she'rxonda muayyan kayfiyat hosil qiladi.

Masalan, shoir odamlarning zilzila paytidagi ruhiy holatini: **"Asablar tuproqqa cho'kkан edi tiz"** tarzida beradi. O'zining



pokiza yoshlik davrini esa “*Yiroq-yiroqlardan mungli va uzun Turnalar tovushin tinglardim faqat*”, — deya ifodalaydi. O’zbek xalqining yig’ma obrazи: “*Sonsiz egatlarga sochilmish, ana, Mening orzularim, mening o’ylarim*” tarzida umumlashtiriladi. Shoiring: “*Qaro sochlaringda oppoq alanga*”, — degan tashbihi aniqligi bilan ham, ta’sirchanligi bilan ham ko’ngilni rom etadi. Uning she’riyatida Vatan timsoli qanday chizilganiga e’tibor qiling: “*Shabnam shovullaydi bog’lar qo’ynida Salqin tuman ichra bo’zarar tonglar, Quyoshning erinchak yog’dularida Nafis yaltiraydi bargi xazonlar*».

Abdulla Oripov she’riyatini millat ruhining timsoliga aylantirgan sifatlardan yana biri — undagi obrazlarning teran xalqchil tomirlarga egaligida. Eng murakkab holatlarni ham g’oyat ulkan nazokat va yuksak madaniyat bilan ta’sirli qilib, o’zbekcha ifodalay bilish shoir she’rlarining qimmatini oshiradi.

Uning: “*Oyoqlangan qo’ziday dovdirar yelda maysa, Ko’m-ko’k moviy osmonda kezib yurar oq bulut*” kabi satrlarida qo’llanilgan tashbihlar hayotiy asosi chuqur hamda hissiy qudrati tengsizligi bilan kishini hayratga soladi. A. Oripov ko’z oldiga keltirish mushkul, ifodalash undan-da og’ir bo’lgan sezimlarni, mavhum tuyg’ularni tuyimli qilib chizish borasida tengsiz mahoratga egadir: “*Yorilmagan yaraday sevgi!*” — deydi u.

A. Oripovning san’atkorligi shundaki, u hodisalarning boshqalar payqamagan jihatlarini o’ziga xos tarzda aks ettira oladi. Shoir iste’doi nazarining o’tkirligi, tuyg’ularining nozikligi, hissiyotining teralligida ko’rinadi. Ko’klamda o’rik g’o’ralarini hamma ko’rgan, barcha bolalar, ayniqsa, qizlarning unga ishqibozligi azaldan ma’lum. Ammo faqat chin shoргina unda hayotni davom ettirish nishonasi borligini ko’ra biladi: “*Dilbar kelinchakning ko’ksida g’ulu Zardoli shoxiga tashlar ko’z qirin*”. Sal e’tibor qilgan o’quvchi yosh kelinchaklarning ko’pincha o’rik dovuchchasini xush ko’rishini eslaydi. Zero, har qanday hayotiy hodisada chin san’atga xos belgini ko’ra olish asl shoirlilikning belgisidir.



**OMON MATJON**  
(1943- yilda tug'ilgan)



*Men she'r yozsam, endi uni qog'ozga emas,  
Anov yal-yal yonayotgan o'tga yozaman.*  
Omon Matjon

Zamonaviy o'zbek she'riyatining yirik vakili Omon Matjon 1943- yilning 14- fevralida Xorazm viloyati Gurlan tumanining Bog'olon qishlog'ida tug'ilgan. Otasi — Matjon Jumaniyoz o'g'li qishloq pochta bo'limi boshlig'i bo'lgan. Katta bobolari Jumaniyoz yirik savdogar boy bo'lgan. Oktabr to'ntarishigacha Rossiya savdo ishlari bilan bir necha marta borib kelgan. XX asrning 20- yillarda boshlangan quloqlashtirish siyosatining oqibatini o'ylab, bor mol-mulkini hukumatga topshirgan. Omonning onasi Xotira opa go'zal va oqila ayol bo'lib, bo'lajak shoir hali go'dak ekanida dunyodan o'tgan.

Omon Matjon o'z bolalik xotiralaridan birida quyidagicha eslaydi: "Otam pochtada ishlaganlaridan uyda non bo'lmasa-da, gaza-ta-jurnal bo'lar edi. Esimda, 1953- yilning 5- martida maktabda ertalab, hovlida majlis bo'lib, maktab o'quv bo'limi mudiri Stalinning o'lganini yig'ilganlarga ma'lum qildi. Bolalar, muallimlar dod-faryod solib qoldilar, tuproqqa yiqliganlar bo'ldi. Men yig'lab uyga keldim. "Ota, Stalin otamiz o'libdi!.." U kishi mollarga xashak solib yurgan edilar: "Nishatiyin, mening otam ham o'lgan!", — dedilar beparvo!"

Tabiatan iste'dodli, ta'sirchan va g'oyat ko'p o'qiydigan Omon Matjon uchinchi sinflarda o'qib yurgan paytlarida she'rlar, ertaklar yozgan. Ilk she'ri 1958- yilning 15- martida Yangibozor tuman gazetasida bosilib chiqqan. O'n olti yoshida o'rta maktabni tugatgan



Omon so'zga mehr qo'ygani sabab adabiyotni tanlamoqchi bo'ladi. Ammo otasining istagiga bo'ysunib, Aloqa institutiga hujjat topshiradi. Imtihonlardan o'tolmagach, radio-telefon tuzatish kursida o'qib, montyorlik qiladi. Keyingi yili Samarqand universitetining Filologiya fakultetiga o'qishga kiradi. O'qish o'rtasida harbiy xizmatga boradi. Harbiy qismning katta kutubxonasiagi deyarli barcha asarlarni o'qib chiqadi. Askarlikdagi uch yil bo'sh ketmasin deb, har kuni kamida bit-tadan she'r yozadi. Xizmatdaligida yozgan she'rlaridan bir turkumini o'zidan bir yil oldin uyiga ketgan do'stidan berib yuboradi. "Sharq yulduzi" jurnalining 1965- yil 5- sonida askarning she'rlari bosilib chiqadi.

Shundan buyon shoirning "Ochiq derazalar" (1970), "Karvon qo'ng'irog'i" (1973), "Quyosh soati" (1974), "Yonayotgan daraxt" (1977), "Yarador chaqmoq" (1979), "Haqqush qichqirig'i" (1979), "Seni yaxshi ko'raman" (1981), "Daraxtlar va giyohlar" (1984), "Gaplashadigan vaqtlar" (1986), "Ming bir yog'du" (1989), "O'rtamizda birgina olma" (1990), "Qush yo'lli" (1993), "Imon yog'dusi" (1994), "Saylanma" (1997), "Ardaxiva" (2001) singari o'ttizga yaqin kitobi dunyo yuzini ko'rgan.

O. Matjonning ish faoliyati ham havas qilgulik. Shoir oliy maktabni bitirgach, Toshkentga kelib, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda muharrir, bo'lim mudiri, so'ng "Yoshlik" jurnali bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, O'zbekiston davlat Matbuot qo'mitasi raisi o'rinnbosari, "Cho'lon" nashriyoti direktori lavozimlarida mehnat qilgan. Omon Matjon 1993- yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoniga sazovor bo'ldi.

Omon Matjon — zamonaviy o'zbek she'riyatining yetakchi va-killaridan biri. She'riyatning turli janrlarida muvaffaqiyat bilan ijod qilayotgan shoir tuyg'ularining samimiyligi, tilining shiradorligi, ifoda-sining ta'sirchanligi bilan boshqa ijodkorlardan ajralib turadi. Omon Matjonning tuyg'ular olamiga ta'sir qilgan insoniy fazilatlar ko'pincha Xorazm vohasida yashayotgan kishilarga mansubdir. Uning barcha asarlarida chin insoniy sezimlar, yetuk insonlarning orzu-intilishlari ti-niq ranglarda tasvir etiladi.

## VATAN MEHRI

Parvoz etdim men qushlarga qo'shilib erkin,  
Oq bulutlar peshonamni o'pdilar silab.

Zamin sehrin shunda qalbga jo etgan edim,  
Oq xirmondan har yoqamga tolalar ulab.

O'zbekiston, zo'r tabarruk ma'volar yurti,  
Beruniylar, xorazmiylar, kubrolar yurti,  
Yetti iqlim maftun bo'lgan navolar yurti,  
Vatan birla millatga jon fidolar yurti!

Yangraganda chamanlarda bulbul ovozi,  
Gullar abad raqsda bunda, kapalaklar mast.  
Sir va Amu – onam mehri tutash daryolar,  
Qayga bormay, aziz nurlar jonimga payvast.

O'zbekiston, zo'r tabarruk ma'volar yurti,  
Buxoriylar, farg'oniyalar, sinolar yurti,  
Yetti iqlim maftun bo'lgan navolar yurti,  
Bizga mangu ijobatli duolar yurti!

Vatan mehri – xayollarim uzra billur toj,  
Vatan mehri – orzularim ramzi bebaho,  
Vatan mehri – iqbolimning oltin kaliti,  
Vatan mehri – yurt ko'kida charx urgan humo!

O'zbekiston, zo'r tabarruk ma'volar yurti,  
Ulug'beklar, termiziylar, daholar yurti,  
Yetti iqlim maftun bo'lgan navolar yurti,  
Vatan birla millatga jon fidolar yurti!



### Savol va topshiriqlar:

1. Naqarot o'rnida kelgan banddag'i qaytariluvchi: "**Yetti iqlim maftun bo'lgan navolar yurti, Vatan birla millatga jon fidolar yurti!**" misralari mazmunini sharhlang.
2. "**Yangraganda chamanlarda bulbul ovozi, Gullar abad raqsda bunda...**" satrlarida Vatanimizga xos qaysi jihatlar aks etgan?
3. "**Vatan mehri – iqbolimning oltin kaliti, Vatan mehri – yurt ko'kida charx urgan humo!**" satrlarini tushuntiring.

## AVVALGILARG'A O'XSHAMAS

(Alisher Navoiy g'azaliga Omon Matjon muxammasi)

Charx avzoyi bu dam avvalgilarg'a o'xshamas,  
Kotib-u davr-u raqam avvalgilarg'a o'xshamas,  
Endi inson qadri ham avvalgilarg'a o'xshamas,  
Ko'nglum ichra dard-u g'am avvalgilarg'a o'xshamas,  
Kim ul oyning hajri ham avvalgilarg'a o'xshamas.

Ne uchar yulduzlar o'tdi chalg'itib elni juda,  
Necha avlod yo'li-yu umidin aylab behuda,  
Davr mezoni bilan tortay bu kun o'zimni-da,  
Ne sitamkim qilsa rahm, maxfiy erdi zimnida,  
Emdi qilsa ne sitam avvalgilarg'a o'xshamas.

Bul jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim,  
Voh, quyosh savdosig'a shamlar nechuk bo'ldi hakim,  
Ishq, bu - o'z umrim, anga nechun qasamlar ichmakim,  
Demangiz Shirin-u Layli oncha bor ishq ichrakim,  
Xo'blikda ul sanam avvalgilarg'a o'xshamas.

Qay kishikim bir ulug' ishga etibdi jon nisor,  
Shiddati past-u baland kelganda ham qilmaydi or,  
Ey falak, hech kimni etma besamar yo'llarda xor,  
Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o'zga yor,  
O'lmishamkim, bu alam avvalgilarg'a o'xshamas.

Ona Sharq tojin kiyur! Zulmatda ushlatmang meni,  
Bodayi haq mastiman, yolg'onga uyg'atmang meni,  
O'z xayolimg'a qo'ying, o'zgaga ishlatmang meni,  
Ishq aro Farhod ila Majnung'a o'xhatmang meni,  
Kim bu rasvoyi dajam avvalgilarg'a o'xshamas.

Har kima har xil yozur bu Arshni Mirzosi sana,  
Aylanur oyina bu, hech bitta ish topmas pana,  
Nafs ipiga bog'lidur ruh iplarin uzgan tana,  
Ko'yining ehromidan ko'nglimni man etmang yana,  
Kim anga azmi haram avvalgilarg'a o'xshamas.



So'kmak o'tganlar ishini notavonlar rasmikim,  
O'z zamonin rost etar qavmi marddir aslikim,  
Shu hayot tilsimlarin ochmoq Omonlar kasbikim,  
Ey Navoiy, qilma Jamshid-u Faridun vasfikim,  
Shoh G'oziyga karam avvalgilarg'a o'xshamas.



### Savol va topshiriqlar

1. Buyuk Navoiyning "avvalg'ilarga o'xshamas" radifli g'azaliga yozilgan ushbu taxmisni diqqat bilan o'qib, janr belgilarini aniqlang.
2. "**Charx avzoyi bu dam avvalgilarg'a o'xshamas, Kotib-u davr-u raqam avvalgilarg'a o'xshamas**" satrlari ma'nosini o'qituvchingiz yordamida sharhlang.
3. Shoir: "**Davr mezoni bilan tortay bu kun o'zimni-da**" misrasi orqali nima demoqchi?
4. Taxmisning dunyoning murakkabligi aks etgan: "**Bul jahon tun birla tong bahs etar bir hujrakim, Voh, quyosh savdosig'a shamlar nechuk bo'ldi hakim**" baytidagi "**tun birla tong**", "**hujra**", "**quyosh**", "**sham**" timsollari ma'nosini sharhlang.
5. She'rning: "**Bodayi haq mastiman, yolg'onga uyg'atmang meni, O'z xayolimg'a qo'ying, o'zgaga ishlatmang meni**" zamiridagi ma'noni sharhlang.
6. O'qituvchi ko'magida "**Aylanur oyina bu, hech bitta ish topmas pana, Nafs ipiga bog'lidur ruh iplarin uzgan tana**" bayti mazmunini izohlang.
7. "**So'kmak o'tganlar ishini notavonlar rasmikim, O'z zamonin rost etar qavmi marddir aslikim**" bayti zamiridagi mazmunni toping.
8. "**Shu hayot tilsimlarin ochmoq Omonlar kasbikim**" satrida shoir nimani ko'zda tutgan deb o'ylaysiz?

### ENG SO'NGGI XAZINA

(Xudoyerdi Doniyorovga)

|

Ko'p qiziqdir ko'hna moziy taqriri,  
Ko'p qiziqdir unda xalqlar taqdiri.  
Agar kimdir mashhur esa qadimda,



Yo'qdir bugun u hech kimning yodinda.  
Kimdir kecha xor-u xasga yursa teng,  
Bugun uning shon-shuhrti ko'kda deng.  
Nahot hech kim boqiy umr olmasa,  
Nahot hech bir zot ustuvor qolmasa?!  
Savol ko'kdir, ammo charxda tinim yo'q,  
Go'yo unda hech narsaga qo'nim yo'q!  
Shu taxlitda zamin-zamon do'nibdi,  
Hamma shunga ko'nibdi.

## II

Biri katta, biri esa kichikroq,  
Ikki urug' o'tgan ekan eski choq.  
Yeri, eli behad katta birining  
Va har jihat qo'li kalta birining.  
Xalqning fe'li o'z yeriga o'xsharkan:  
Katta urug' yalqov, loqayd yasharkan!  
Kichigi-chi, qaynagan qon, ishchan er,  
Mehnatidan zar tugarkan har kaft yer.  
Yondosh yashab, doim ol-ber qilishib,  
Hech beg'araz borishib ham kelishib,  
Bul ikkovi chin qo'shniga do'nibdi,  
Hamma bunga ko'nibdi!

## III

Katta mulkka, katta yerga o'chlар ko'p,  
Zimdan qarab, tish qayrovchi kuchlar ko'p.  
Bir kun ulli urug'ni yov bosibdi,  
Naq g'oz uzra qirg'iy qanot yozibdi.  
Ko'p qiribdi yov beparvo elatni,  
Boshiga ham solibdi xo'p kulfatni.  
Xo'sh, kichkina qo'shni-chi, u tiyran, qurch,  
Jim turdimi, yo'q, yordamni bildi burch!  
Shunday qilib ikkov bir saf bo'ldilar,  
Yovni birga olqon-talqon qildilar.



Urush tugab, qo'shni do'stga do'nibdi,  
Hamma shunga ko'nibdi!

#### IV

Mana bazm! Ichar ikki oqsoqol,  
Katta quchib kichkinani, aytar hol:  
“Zo'r sinovdan birga o'tdik, berdik dosh,  
Og'a-ini bo'ldik endi qarindosh!  
G'alabada so'zsiz ulkan hissang bor,  
Kam-ko'stlar ko'p... yana sal-pal qarashvor...”  
Bu maqtovdan kichik boshliq jo'shibdi,  
Tilni tilga, elni elga qo'shibdi!  
“E, ol!”, — debdi topgan-tutgan borini,  
Ayamabdi hatto siym-u zarini.  
Ul og'aga, bul ukaga do'nibdi,  
Hamma shunga ko'nibdi.

#### V

Og'a urug' katta-da! Hech to'ymas, deng,  
Inicha ham “iltifot”ni qo'ymas, deng!  
Bog'in tashir, donin tashir, chorvasin  
To'ydirmoqning lekin topmas chorasin!  
Ish ne holga yetibdi deng, alqissa,  
Ukasiga zahmat ort mish to'rt hissa.  
Ko'rgani ham, bilgani ham dalasi –  
Shunda o'tar endi har bir pallasi.  
San'at, bilim, kamol qayda, unutdir,  
Orzu-armon, xayol qayda, unutdir.  
Axir nechuk ini qulga do'nibdi,  
Hamma shunga ko'nibdi!

#### VI

Elning butun ahvoldidan xabardor  
Yashar ekan bir donoyi buzruk vor.  
Uni olib el boshliqqa boribdi,  
Borib barcha dardi holin yoribdi.

Boshliq dermish: “Biz kichkina – u katta,  
Yovlar ko‘pdir, himoya yo‘q, qo‘l kalta!”  
Dono debdi: “Yurtga bir boq, oqsoqol,  
Unda hali o‘zi bilmas zo‘r ganj bor!  
Bu g‘ururdir! U – har qalbning qa‘rida!  
Shuni uyg‘ot hali imkon borida!  
Uyg‘otolsang – xalqing xalqqa do‘nadi,  
Yo‘qsa, butkul so‘nadi!”

## VII

Ko‘p qiziqdir ko‘hna moziy taqriri,  
Ko‘p qiziqdir unda xalqlar taqdiri.  
Agar kimdir mashhur esa qadimda,  
Bugun yo‘qdir u hech kimning yodida.  
Kecha kimdir xor-u xasga yursa teng,  
Bugun uning shon-shuhrati ko‘kda deng!  
Xo‘s, ne bo‘ldi kichik urug‘ taqdiri,  
Bugun qanday uning holi taqriri?!  
Ul el o‘zda g‘urur paydo etganmi  
Yo eng so‘nggi xazina ham bitganmi?!  
Kim biladi?! Shuncha zamon do‘ngandir!  
Balki bordir, balki butkul so‘ngandir...



### Savol va topshiriqlar:

1. Tarixning beqarorligi bilan she’lda tasvirlanayotgan ikki xalq taqdirining qanday bog‘liqlik jihatni borligini ko‘rsating.
2. **“Yeri, eli behad katta birining, Va har jihat qo‘li kalta birining”** satrlarini izohlashga urining.
3. **“Xalqning fe‘li o‘z yeriga o‘xsharkan: Katta urug‘ yalqov, lo-qayd yasharkan!”** misralarida kimlar ko‘zda tutilayotir deb o‘lay siz?
4. **“Kichigi-chi, qaynagan qon, ishchan er”** sifatlashi qaysi xalqqa qaratilganini matnga tayanib, ayting.
5. Katta urug‘ga dushmanlar hujumi va kichik urug‘ yordamida bu ofatning yo‘q qilinishi xalqimiz tarixidagi qaysi voqeaga o‘xshaydi?

- 
6. She'rning to'rtinchi bandini tahlil qiling.
  7. Beshinchi band mazmuni va ifoda yo'sinini anglating. Bandning eng ta'sirchan o'rinalarini toping.
  8. Donishmand xalqdagi qaysi boylikni saqlashga chaqirdi va uning sababi nimadaligini matn asosida anglating.
  9. She'rning so'nggi bandi mazmuni va ifoda tarziga e'tibor qiling.

## OMON MATJON SHE'RLARI HAQIDA

Chinakam shoir o'zining kayfiyatini, kechinmalarini o'zgalariga yuqtira oladi. Omon Matjonning siz o'rganib chiqqan she'rlarida ayni shu holat yaqqol seziladi. Har uch she'rni o'qiganingizda o'zingiz sezib yo sezmay, shoir ifoda qilayotgan tuyg'ular ta'siriga tushib qolasiz. Chunki shoir she'rxonlarning ruhiy dunyosini yaxshi biladi. Uning yuragini to'lqinlantiradigan, tuyg'ularini uyg'otadigan tasvirni beradi. Bu tasvirlar she'rxonning badanini jimirlatadigan, ruhini bezovta qiladigan tarzda amalga oshiriladi.

Siz xalqning qudrati, uning buyukligi, uning hayotini yaxshilash zarurligi haqida juda ko'p gaplar aytilganini, hozir ham aytilayotganini bilasiz. Ammo xalq oddiy odamlardan iborat ekanligini, uning orasida oliyanob-u buyuklar ham, pastkash-u qalloblar ham borligini, shu bois xalqni muqaddaslashtirish o'rniga uning ma'naviy darajasini ko'tarish kerakligi shoir she'rlarida yorqin ifodalangan. Haqiqiy she'r hamisha yolg'ondan yiroq bo'lgan chin insoniy tuyg'ularni aks ettiradi.

Shoir xalqini chin yurakdan sevadi. Uning kelajagi uchun qayg'uradi. Shu bois uni kamchiliksiz, buyuk ko'rgisi keladi. Aynan yaxshi ko'rgani sabab xalqiga chin so'zni aytta oladi.

Shoирning mustabid tuzum hukmonligi avjiga chiqqan bir zamonda yozilgan "Eng so'nggi xazina" deb nomlanadigan she'ridagi insoniy jasorat va badiiy joziba kishini hayratga soladi. She'rda millatning o'zligini tayin etadigan eng so'nggi va bebaho xazina – milliy g'urur ekani voqeaband yo'sinda aks ettirilgan. She'rda Omon Matjonning o'sha paytlardayoq o'z millatining tenglar ichra teng bo'lishini istagani yaqqol ko'zga tashlanadi. U xalqining yeb to'ymas



katta og'aning quliga aylanib qolishini istamasligini ochiq aytadi. Katta urug'ning surligi, ustamoni ligi tufayli shunchaki yondosh yashayotgan kichik elat oldin qo'shniga, keyin do'stga, so'ng iniga, oxiri qulga aylanib qolganligi juda ta'sirli va mardona ko'rsatilgan.

She'rda donishmand tomonidan aytildi: **"Dono debdi: "Yurtga bir boq, oqsoqol, Unda hali o'zi bilmas zo'r ganj bor! Bug'ururdir! U – har qalbning qa'rida! Shuni uyg'ot hali imkon borida! Uyg'otolsang – xalqing xalqqa do'nadi, Yo'qsa butkul so'nda!"** so'zlarida asarning bosh g'oyasi aks etadi. Shoир milliy g'ururni yo'qotmay asrash kerakligini, usiz milliy erkka erishib bo'lmasligini tasvirlaydi. She'rning jumboqsimon tugallanishi ham poetik samara keltirib, o'quvchini fikrlashga undaydi.

Hazrat Alisher Navoiyning "Avvalgilarg'a o'xshamas" radifli g'azaliga Omon Matjon bog'ilagan taxmisdagi ko'plab tasvirlar buyuk shoирга berilgan munosib javobday taassurot qoldiradi. Shoир zamon o'zgarishi, vaqt o'tishi bilan olamdag'i barcha narsada evrilish yuz berishini o'ta ta'sirli ko'rsatib bergen. O. Matjon ulug' ustozning tafakkur tarzi, ifoda yo'siniga mos tasvir vositalarini qo'llay bilgan.

Omon Matjon she'rlarida Xorazm vohasiga xos so'z boyligidan, o'sha yurting afsonalaridan, xorazmliklarning shirin lafzidan o'rinni foydalanadi. Shoир xalq ijodiga tez-tez murojaat qiladi. Shuning uchun ham uning she'rlari yengil o'qiladi, kuchli ta'sir qiladi va oson yodda qoladi. Shoирning she'rlarini mehr qo'yib, sinchiklab o'qish, ularni yoddab olish kishi ma'nnaviyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu she'rlar she'rxonni hayot, odamlar, ularning ichki olami haqida jiddiyroq o'ylash va o'ziga yarasha xulosa chiqarishga yo'naltiradi.





## HALIMA XUDOYBERDIYEVA

(1947—2018)



Halima Xudoyberdiyeva 1947- yil 17- mayda Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida tug'ildi. Otasi — Ummatqul Xudoyberdi o'g'li bog'bon edi. Onasi — Sharofat Xonnazar qizi bo'lajak shoira endi ikki yoshga to'Iganida vafot etadi. So'ng unga xolasi — qishlog'inining faol ayollaridan bo'Igan Qarshigul Xonnazar qizi onalik qiladi. Otasi ham, onasi ham go'zallikning, ezgulikning, badiiy so'zning qadrini biladigan kishilar edi. "Mening anchagini asarlarim, jumladan, "Bir o'rim soch tarixi", "Sayram baxshi aytimlari", "Hindiqushdan nola keldi" she'rلарим, "Илин" дostonim aynan onayizorim ta'sirida bitilgandir", — deb eslaydi shoira. Bo'lajak shoira bolaligida barcha yoshlarga xos "chini-qish maktabi"ni o'tadi: maktabda o'qidi, g'o'za yaganasi va chopig'iga chiqdi, pilla qurti boqdi, paxta terdi, jamoat ishlarida faol qatnashdi...

Tabiat ato etgan iste'dod intiluvchan, urinchoq va tirishqoq qishloq qizini poytaxtga olib keldi. Halima Toshkent Davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti)ning talabasi bo'ldi. 1972- yili dorulfununning Jurnalistika fakultetini bitirdi. Davr bilan yelkadosh bo'lismi istagan yosh shoira Toshkentda olgan bilimlari bilan qanoatlanmay, 1975—1977- yillarda Moskvadagi Oliy Adabiyot kursida saboq oldi.

O'quvchilik yillaridayoq she'rilar yoza boshlagan va o'ziga xos iste'dodi, ifoda tarzining bo'lakcha tarovati bilan Halima Xudoyberdiyeva Sharof Rashidovday ulkan arbob va ijodkorning e'tiboriga tushdi. Sh. Rashidov Sirdaryo viloyatining o'sha paytdagi rahbarlariga yosh shoirani nazardan qochirmaslikni tayinladi. Sh. Rashidov keyinchalik ham iste'dodli shoirani qo'llab turdi.



Halimaning dastlabki she'riy majmuasi — “Ilk muhabbat” hali tala-  
ba chog'ida — 1969- yili chop etildi. Birinchi kitobi o'zbek she'riyatiga  
tamomila o'ziga xos shoira kirib kelayotganidan dalolat berdi. Yosh  
Halima ijodga ko'ngil ermag'i emas, hayot-mamot masalasi deb qarar-  
di. U bir she'rida: “Shunchaki yozmoqlik shoirga o'lim”, — deb yozadi.

Shoiraning “Oq olmalar”, “Chaman” kitoblari ketma-ket chop  
etildi. “Suyanch tog'larim”, “Bobo quyosh”, “Issiq qor”, “Sadoqat”,  
“Muqaddas ayol”, “Yuragimning og'riq nuqtalarini” singari she'riy  
to'plamlari birin-ketin nashr etildi.

Shoiraning she'rlari qator chet tillariga tarjima qilingan. Uning  
ruschaga o'girilgan she'rlari “Gordost” (1976), “Beliye yabloki” (1979),  
“Reshimost” (1985) nomlarida Moskva va Toshkentda bosildi. Halima  
Xudoyberdiyaning “Bu kunlarga yetganlar bor” va “Turkiston ona-  
si” she'riy kitoblari xalqimiz mustaqillikka erishgandan keyin chop etil-  
gan. Shoira qirg'iz, tojik, rus, yapon, tatar shoirlari va dramaturglari-  
ning bir qancha asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

Halima Xudoyberdiyeva 1990- yili “Muqaddas ayol” to'plami  
uchun Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan.

U 1985- yildan boshlab salkam o'n yil mobaynida “Saodat”  
jurnalining bosh muharriri lavozimida ishladi. 1991- yilda Halima  
Xudoyberdiyevaga “O'zbekiston xalq shoirasi” unvoni berildi.

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida inson ko'nglidagi murakkab  
his-tuyg'ular, ruhiyatning g'oyat murakkab manzaralari ta'sirchan aks  
etadi. Shoira “Begin, sizni tabiat...” she'rining yaratilishi haqida shun-  
day deb yozadi: “Shunday rivoyat ko'nglimda yurardi. Buni bir joydan  
eshitganmanmi, o'zim o'ylab topganmanmi, aniq bilmasdim. Bir-biriga  
o'ta ko'ngil qo'ygan, mehr-u sadoqatda tengi yo'q er-u xotin uzoq yil-  
lar yashab, farzand ko'rishmabdi. Uchramagan tabibi, sirlashma-  
gan habibi qolmabdi. Turli ta'sirlar, uzoq maslahatlardan keyin xotin  
erining uylanmog'iga rozi bo'libdi. Xotin o'z uyining to'g'risidagi yan-  
gi uyga kelin kelib tushgach, shom aralash, odamlarning ko'zini xato  
qilib, ikki uy oralig'idagi katta masofada butun hovli yuziga mix qoqib  
chiqibdi. Zora, oyog'iga mix kirib qiynalib, hovlida yurolmasa... Zora,  
bu fojiali tunni yostiqni tishlab yotib bo'lsa-da, o'z xobgohida o'tka-  
zolsa... Tongda uyg'onib hovliga chiqqanlar o'z uyida behush yotgan



ayolni va ayol oyog'idan oqqan qondan qip-qizil lolazorga aylangan hovli yuzini ko'radilar. Dastlabki turtki shu — "Mixning, tig'ning zahri-ni sezmay yonib boraman" satri bo'lib, ko'nglimni qizdirdi. Qolgani ijodkorning xayoloti..."

Halima Xudoyberdiyevaning deyarli barcha she'rlarida chuqur insoniy va ijtimoiy iztiroblar, dardlar, sevinchlar, olıyanob xayollar, mardona o'ylar juda ta'sirli, yorqin aks ettirilgan. Shoira she'rxonni chin va samimi tuyg'ular tasviri yordamida o'ziga tuyg'udosh qiladi. Quyida, Siz Halima Xudoyberdiyeva ijodining namunalari bilan tanishasiz va umid qilamizki, ularni yoqtirib qolasiz.

O'zbek shoirasi Halima Xudoyberdiyeva 2018- yilning 17- avgustida Toshkent shahrida vafot etdi.

### DORILOMON KUNLAR KELDI...

Onaginam!

Dorilomon kunlar keldi, shafaqlari ol,

Qayon boqsang, shaylanishar va sozlashar tor.

Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol:

"Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor".

So'lg'in-so'lg'in lablaringdan ucharkan shu so'z,

Otaginam xayolimda rostlay boshlar qad.

Dorilomon kunlarga qayt, ona, yumib ko'z,

O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat.

Bu tabiat suyumlidir ham ko'zları ko'r,

Goh sharobdan, goh og'udan qilar bizni mast.

Belginangga tirkak bo'lay, onajonim, tur,

Dorilomon quyoshga boq, unga qasdma-qasd.

Yuzing ardoqli quyoshday issiq va mahvash.

Ko'zlaringda umid yonar tikilgan oni.

Qorli kunlar bilan ketsin dilingdag'i g'ash.

Qizg'ish lolarang qoplayadir bu kun dunyonи.

Bu dunyoning qir-darasin xosiyati mo'l,

Yerni yalangoyoq bossang, yayraydi taning.

Yashamoq — bir tansiq taom, unga ursang qo'l,

Borgan sari ochiladir ishtahang saning.

Bog'lardagi yetilgusi har mevali shox,  
 Rizqdir bizga, rizqqa doim dil ilinjlikdir.  
 O'g'lonlaring kelar ana ochishib quchoq,  
 O'g'lonlaring meva qadar bir shirinlikdir.  
 Onaginam!  
 O'zing tortma davralardan el chorlaganda,  
 "Tiriklikning bayrami", — deb sozlaganda tor.  
 O'zing so'lg'in lablar bilan pichirlaganday:  
 "Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor".



### **Savol va topshiriqlar:**

1. She'rda: "**Dorilomon kunlar**" deganda shoira nimani ko'zda tutgan deb o'ylaysiz?
2. "**Olcha gulin ko'zlaringga surtasan behol: "Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor"**" satrlarida onalarimizga xos qanday odad aks ettirilganini ayting.
3. Onaning lablari "...so'lg'in-so'lg'in" ekani sababini izohlang.
4. Onaga nisbatan farzandlik muhabbat qaysi satrlarda yorqin ko'zga tashlanadi?
5. "**Dorilomon kunlarga qayt, ona, yumib ko'z, O'ksik dilda boshlanmasin desang qiyomat**" satrlarini izohlang. "Yumib ko'z" birikmasi chaqiriqmi yoki holat ifodasimi? "O'ksik dil"da boshlanishi mumkin bo'lgan "qiyomat"ning sabablari haqida mulohaza qiling.



6. "**Bu tabiat suyumlidir ham ko'zlari ko'r, Goh sharobdan, goh og'udan qilar bizni mast...**" satrlari mazmunini sharhlang.
7. "**Qorli kunlar bilan ketsin dilingdagi g'ash**" satri zamiridagi ma'noni ilg'ab olishga urining. "**Qorli kun**" deyilganda nima nazarda tutilyapti deb o'ylaysiz?
8. She'rdagi: "**Qizg'ish lolarang qoplaydir bu kun dunyonı**" satri orqali ifodalanayotgan holat, vaziyat va mazmunni anglashga intiling.
9. "**Yashamoq bir tansiq taom, unga ursang qo'l, Borgan sari ochiladur ishtahang saning**" satrlari mazmunini izohlang. Lirik qahramon onasida shu holatni sezayotirmi?

- 
10. “*O‘g‘lonlaring meva qadar bir shirinlikdir*” satrining mazmuni va badiiy ifoda tarzini sharhlang.
  11. “*Onaginam! O‘zing tortma davralardan el chorlaganda*” misrasni orqali shoiraning qanday istagi ifoda etilayotir?
  12. She’rni yod oling.

### BEGIM, SIZNI TABIAT...

Begin, sizni tabiat raso qilib yaratgan,  
Kimi larnidir o‘ychan-u, sizni kulib yaratgan.  
Nogahon berib qo‘yib bu husnni, kamolni  
O‘zi ham rashk, hasadga to‘lib-to‘lib yaratgan.

Qiya tushgan nigohni armonga yo‘ymagaysiz,  
Qiz qalbiga sevmoqni osonga yo‘ymagaysiz.  
Qiynamangiz, u o‘zi o‘rtanguchi bir bag‘ir,  
Bu bag‘irni kenglikda osmonga yo‘ymagaysiz.

Siz xuddiki Farhodsiz, Shirin qaydadir, begin,  
Orzularim dilda-yu, nolam naydadir, begin.  
Siz desam, bar tutqazmay sochilgan o‘ylarimday,  
Bu tong qaro sochlarim mayda-maydadir, begin.

Sizni men o‘zimga ham loyiq ko‘rmam, rosti gap,  
O‘zgaga bermoq esa tushimga kirmas uxlاب.  
O‘zga bilan ketsangiz, ravon yo‘llar qolmasin,  
Begin, ikkilanmasdan yer yuzin tashlang mixlab.

Mixning, tig‘ning zahrini sezmay yonib boraman,  
Ishq zardobli sharobdir, qonib-qonib boraman.  
Hech kim bilan sirlashmay, hech kimsaga tutmay may,  
O‘z qonim bilan o‘zim alvonlanib boraman.

Hayratlarda qotgaysiz meni ko‘rganda ul dam,  
Yoningizdagи sovuq suluvdan sovirsiz ham,  
Sizni obdon muzlatgach, o‘zim qaytarman chunki  
Bungacha yo‘q sadoqat, bundan so‘ng ham bo‘lar kam.

O'zga tortmam cheksam ham shuncha jabr-u jafoni,  
O'zgaga ham bermasman, Sizdek bir bevafoni!

Begim, Sizni tabiat raso qilib yaratgan.



### Savol va topshiriqlar:



1. She'rni sokin va ta'sirli ohangda o'qing.
2. Qiz qalbining nozik tebranishlari she'rning qaysi satrlarida, ayniqsa, go'zal tasvir etilgan?
3. She'rning dastlabki baytiga e'tibor berib, ma'nosini tushuntiring.
4. **"Nogahon berib qo'yib bu husnni, kamolni, O'zi ham rashk, hasadga to'lib-to'lib yaratgan"** misralaridagi ko'tarinki badiiy tasvirga e'tibor qiling.
5. **"Qiya tushgan nigohni armonga yo'ymagaysiz"** satrining ma'nosini tushuntirishga urining. Suygan qiz ruhiy holati ifodasining ta'sirchanlik darajasiga e'tibor qiling. **"Qiya tushgan nigoh"** kimniki?
6. Oldingi davrlarda qiz suykli yigitini, ayol turmush o'rtog'ini ehtirom bilan **"begin"** deb atagan. Bu so'z she'rdagi milliylik, samimiylikni chuqurlashtirishga qay darajada xizmat qilyapti?
7. She'rdagi: **"Siz xuddiki Farhodsiz, Shirin qaydadir, begin? Orzularim dilda-yu, nolam naydadir, begin?"** satrlaridagi go'zal, alamlı tashbihlarni izohlab bering.
8. She'rdagi: **"Siz desam, bar tutqazmay, sochilgan o'ylarimday, Bu tong qora sochlarim mayda-maydadir, begin?"** satrlari orqali ayttilayotgan fikr va ifodalanayotgan ruhiy holat to'g'risida o'ylab ko'ring. Sochning "mayda-mayda"ligi nima va u kim uchun?
9. She'rdan yorga erishish yo'lidagi qat'iylik aks etgan satrlarni toping.
10. Lirik qahramonning: **"O'z qonim bilan o'zim alvonlanib boraman"** tarzidagi iqrori zamiridagi ulkan insoniy dard va g'urur to'g'risida shoira holatiga tushib, mulohaza yuritishga urining.

- 
11. She'rnning birinchi misrasi bilan so'nggi misrasi shunchaki takrormi yoki yozilishi bir xil-u, mazmuni boshqachami?
  12. She'rni yod oling.

## SHUNCHAKI

Mening shunchaki yig'lagim kelmas,  
Xayol sharob misol qilsin sarxush, mast.  
Mening shunchaki kuylagim kelmas,  
Ovoz pardalarim chidab bersa bas.

Qo'lingga tusharkan jajji chaqaloq,  
Shunchaki suymoqda qanday lazzat bor?  
Kerak chinqirtirib o'pib, tishlamoq,  
Biz ham go'daklikda topganmiz ozor.

Shunchaki sevilmoq — baxti qoralik,  
To'la tole uchun bu kemtik, bu kam.  
Mening qalbim shunday sevgiga molik,  
Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham.

Ohangga shunchaki solmasdan qulog,  
Tarjima qilib yoz sim sadolarin.  
Axir buloqmasmish tog'dagi buloq,  
Ko'z yoshlaramish ishq gadolarin.

Shunchaki kulmoq ham istehzodek gap,  
Birdan qah-qah uray, cho'chib ketsinlar.  
Boshlariga osmon tushganday qulab,  
G'aflat bandalari yoqa tutsinlar.

Shunchaki yig'lash ham yarashmas bizga,  
Uni eplar faqat yuragi toshlar.  
Shunday yig'lay, hojat qolmasin sizga,  
Qurg'oq ko'zlardan ham quyilsin yoshlar.

Shunchaki yozmoqqa ko'ngil to'lmaydi,  
Shunchaki yozmoqqa bormaydi qo'llim.  
Shunchaki yozganga chidab bo'lmaydi,  
Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'llim.



### Savol va topshiriqlar:

1. She'rning birinchi bandi ilk bayti ma'nosini chaqishga urining.
2. **"Mening shunchaki kuylagim kelmas, Ovoz pardalarim chidab bersa bas"** misralari mazmunini izohlang.
3. Ikkinchi banddan kelib chiqadigan qarama-qarshi ma'noga e'tibor qiling: **"suymoq"** va **"ozor bermoq"**qa munosabat bildiring va shoira ko'zda tutayotgan ruhiy holatni izohlang.
4. **"Shunchaki sevilmoq — baxti qoralik, To'la tole uchun bu kemtik, bu kam. Mening qalbim shunday sevgiga molik, Bir charsillab yonay, so'ngra so'nsam ham"** tarzidagi iqror shoira shaxsiyatiga xos qanday jihatlarni ko'rsatadi?
5. **"Tarjima qilib yoz sim sadolarin"** shaklidagi da'vat mazmunini izohlang.
6. Shoiraning chinakam kulish va astoydil yig'lash borasidagi talablari haqida fikr yuriting.
7. She'rning obrazli ifodalari so'nggi bandda qay darajada kuchayganiga e'tibor qiling. Shoiraning bu usulni qo'llashdan kuzatgan maqsadini izohlang.
8. **"Shunchaki yozmoq bu – shoirga o'llim"** qanoatini tushuntiring va shunga tayanib, shoira ijodi haqida fikr yuriting.





## **SHAVKAT RAHMON**

(1950—1996)



XX asr o'zbek she'riyatining o'ziga xos vakili, millatparvar shoir Shavkat Rahmon 1950- yilning 12- sentabrida O'sh shahrida tug'ilgan. Shoirning otasi Rahmonberdi asli Shahrixon tumanidagi Saroy qishlog'idan bo'lib, taqdirning taqozosi bilan O'sh shahriga kelib, turg'un bo'lib qolgandi. Onasi Oftobxon ham asli Shahrixon tumani-dan edi. Shavkat Rahmonning otasi ham, onasi ham savdo ishlari bilan shug'ullanib, erta ko'klamdan to kech kuzga qadar Pomir tog'i etaklaridagi Sarmo'g'ul yaylovlaridagi chorvadorlarni kerakli oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlari bilan ta'minlashar edi. Savdo xodim-lari bo'lishgan ota-onas uzoq tog' yaylovlarida haftalab qolib ketishar, uydagi barcha yumushlar xayolchan, ammo tirishqoq, mehnatsevar to'ng'ich farzand Shavkatning zimmasida bo'lardi.

Bolalikdan tinib-tinchimas, baquvvat va g'ayratli Shavkat mustaqil ishlar qilishga intilardi. O'n uch yoshida ta'til chog'i g'isht zavodi-ga ishga kiradi. Tajribali ishchilardan g'isht quyishni o'rganib olgach, kelasi yili hovlidagi pastqam eski devorlarni buzib, o'rniga oldida havoli ayvoni bo'lgan ikki xonali uy quradi. Oradan o'n yillar o'tib, ayni shu uyga ayoli — Manzura kelin bo'lib tushadi. Shuningdek, Shavkat hovlidagi tomorqaga turli-tuman ko'chatlar ekishni yoqtiradi. Ularni erinmay parvarish ham qildi.

1966- yilda o'rta muktabni a'lo baholarga bitirgan Shavkat oliy ma'lumot olishni istagani bois, Toshkent Davlat universitetining Filologiya fakultetiga ketma-ket ikki yil hujjat topshiradi. Imtihonlardan



o'tadi, lekin kerakli ballni to'play olmaganligi uchun tanlovdan o'tolmaydi.

O'zbekiston poytaxtida o'qish orzusiga erisha olmagan Shavkat O'sh viloyati gazetasida harf teruvchi, so'ng xatoni to'g'rilovchi — musahhih bo'lib ishlaydi. O'sh gazetasida o'sha paytlari nomi O'zbekistonda ham ancha tanilib qolgan shoir, dilkash va samimiy inson Tursunboy Adashboyev xizmat qilardi. Shavkat Rahmon Tursunboy aka bilan tanishib, yozgan she'rlarini u kishiga ko'rsatadi. Tortinchoq, qaysar, indamas va talantli yigitchaning she'rлari shu tariqa viloyat gazetasi sahifalarida birin-ketin bosila boshlaydi.

Shunday kunlarning birida, matbuotda Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot institutiga ijodiy tanlov e'lon qilinadi. Toshkent universitetiga kirolmay, o'z yog'iga o'zi qovrilib yurgan, she'riyatga doir ko'plab kitoblarni o'qigan Shavkat she'rлarini rus tiliga o'zi tarjima qilib, Moskvadagi tanlovga jo'natib yuboradi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach: "Siz ijodiy tanlovdan o'tdingiz, tezda Moskvaga yetib keling" degan mazmunda telegramma oladi. Begona shaharga borib, kirish imtihonlarini ham yaxshi topshirgan Shavkat Adabiyot instituti talabasi bo'ladi. U yerda tengdoshlari Halima Xudoyberdiyeva, Murod Muhammad Do'st, Sobit Madaliyev kabi o'zbek adabiyotining bo'lajak mashhur adiblari bilan yonma-yon sa-boq oladi.

Moskvadagi tahsilni tamomlagan Shavkat Rahmon Toshkentga keladi. U bir qator nashriyotlarda muharrirlik qiladi. Deyarli hamisha qizg'in ijod bilan mashg'ul bo'lgan talabchan shoir shu yillarda "Rangin lahzalar" (1978), "Yurak qirralari" (1981), "Ochiq kunlar" (1983), "Gullayotgan tosh" (1984), "Uyg'oq tog'lar" (1986), "Hulvo" (1988) singari she'riy kitoblarini chop ettiradi.

Dunyo she'riyatidagi yangi va ilg'or tajribalarni o'zbek poeziyasi-ga kiritish yo'lida izlangan Sh. Rahmon 1979- yilda atoqli ispan shoiri Federiko Garsia Lorka she'rлaridan iborat kitobni rus tilidan o'zbek-chaga ag'darib, "Saylanma" nomi bilan chop ettirdi. Otashnafas ispan shoiri she'riyatiga oshiq bo'lib qolgan Shavkat Rahmon mustaqil ravishda ispan tilini o'rganib, 1986- yilda Ispaniyada ijodiy safarda bo'ladi.



U Lorka she'rlarini bevosa ittifoqchadan o'zbekchaga o'giradi. 1989-yilda Lorkaning "Eng qayg'uli shodlik" she'riy kitobi shu tariqa o'zbek tilida nashr etiladi. 1996-yilda shoirga "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni berildi.

Shoir Shavkat Rahmon nafaqat o'z she'rlari, balki tarjimalari- ga ham g'oyat ulkan mas'uliyat bilan yondashar, har qanday badiiy ijodning quruq gap yoki chiroyli zamzama emas, balki chinakam JASORAT bo'lishiga intilardi. Uning e'tiqodi bo'yicha "shoirlik – jasorat so'zining tarjimasi" edi:

Nahot she'rlar aytdim  
bo'shliqqa qarab,  
nahotki sovrildi olov so'zlarim,  
nahotki haq bo'lsa, el-u yurt asli  
quruq so'zlar degan gumroh do'stlarim?

Sh. Rahmon ijodida hamisha millatning dard-u armonlarini ifodalashga intilardi. U o'z kayfiyatlarini tasvirlash bilan kifoyalanadigan shoirlar sirasiga kirmas, o'z taqdirini millatinikidan ayri tasavvur etmasdi. U har bir millatdoshining ko'ngil mulkiga kirib borishni orzu etib, shu yo'lda tinimsiz dard chekib yashagan shoir edi. "Bir qo'shiq bo'laman daryoday yurakning eng chuqr yerida" deya orzu qilgan shoir hamisha samimiy tuyg'ularni beqiyos badiiy yuksaklikda o'ta kuyinchaklik bilan kuyladi:

Zulfiqor ruh kerak,  
kerak chin yog'du,  
chin ishq yolqinlari bag'rimga to'lsin,  
jismimni toblasin faqat chin og'riq,  
chechaklar qop-qora bo'lsa-da, bo'lsin.

Zabardast shoir Shavkat Rahmon qisqa umr kechirdi. U 1996-yilning 2-oktabrida uzoq davom etgan og'ir kasallikdan vafot etdi. U Toshkent shahridagi Yalang'och qabristoniga dafn etilgan. Vafotidan so'ng shoirning "Saylanma" kitobi (1997) nashr qilindi.



O'sh shahrida shoir tug'ilgan mahallaga hamda shaharda-gi o'rta maktablardan biriga Shavkat Rahmon nomi berilgan. Siz otashin millatparvar shoirning g'oyat o'ziga xos va o'tli she'rlaridan ayimlari bilan tanishasiz.

### TONG OCHAR KO'ZLARIN...

Tong ochar ko'zlarin erinib,  
sevinchdan yig'laydi qiyoqlar,  
chechaklar jilmayar sevinib,  
shamolda cho'milar giyohlar.

O'ynoqi shu'lalar — bolalar  
jimgina tarqalar sayhonga,  
o'rgimchak to'qiydi tolalar,  
xonqizi boradi mehmonga.

Qurbaqa varaqlar bayozin,  
guldan bol so'radi arilar,  
chigirtka qayraydi ovozin,  
parvozda ninachi — parilar.

Chumoli, mehnatkash chumoli,  
kuyinma, atrofga bir qara —  
maysalar, oh, qanday himoli,  
dunyon niqlma ko'p masxara.



#### Savol va topshiriqlar:

1. She'rnning birinchi misrasini hayotiy va badiiy mantiq nuqtayi nazaridan izohlang.
2. "**Sevinchdan yig'laydi qiyoqlar**" misrasidagi ifodani sharhlang.
3. "**Chechaklar jilmayar sevinib**" ifodasining mazmuni haqida so'zlang.
4. She'nda nima uchun "**O'ynoqi shu'lalar — bolalar**" deyilgan?
5. "**O'rgimchak to'qiydi tolalar, xonqizi boradi mehmonga**" misralari mazmuni va ifodasi haqida fikrlang.
6. "**Chigirtka qayraydi ovozin**" satrida tasvirlangan holatni tushuntiring.

- 
7. Lirik qahramonning chumoliga qarata: “...***dunyoni qilma ko'p masxara***” tarzidagi murojaati ma'nosini tushuntiring.
  8. Faqat ishlashni bilib, go'zallikka befarq kishini to'laqonli shaxs deyish mumkinmi?
  9. She'rnı yod oling.

## TURKIYLAR

Qilichin tashladi beklar, nihoyat,  
bosildi tulporlar, tig'lar suroni,  
urhoga o'rgangan tillarda oyat,  
turkiylar tanidi komil Xudoni.  
Qilichlar zangladi...  
falokat hushyor,  
turkiylar quvvatin berdi yerlarga.  
Hiylagar do'stlarday yaqinlashdi yov  
komillik qidirgan jasur erlarga.  
Ilvasin yigitlar,  
bobir yigitlar,  
sajdaga bosh qo'ydi yovga ters qarab,  
g'ullarni kemirib yig'ladi itlar,  
buyuk boshni kesdi qilich yaraqlab.  
Turkda bosh qolmadi...  
qolmadi dovlar,  
xotin-xalaj qoldi motam ko'tarib,  
“Bizga tik qarama” buyurdi yovlar,  
yovlarga ters qarab yashadi bari.  
Talandi samoviy tulpor uyuri,  
talandi zarlari, zeb-u zabari,  
“Ters qarab o'ling” deb yovlar buyurdi,  
yovlarga ters qarab jon berdi bari.  
Lahadga kirdilar o'zlarin qarg'ab,  
qolmadi arabiy,  
turkiy xatlari,  
“Tug'ingiz, — dedi yov, — teskari qarab”,  
yovlarga ters qarab tug'ildi bari.

Tug'ildi,  
tug'ildi,  
tug'ildi qullar,  
qirqida qirilgan – imdodga muhtoj,  
yovlarga ters qarab itlarday hurar,  
bir-biriga dushman,  
bir-biridan koj.

Jo'mardlar qirilgan Turon zaminda  
do'zaxiy tajriba pallasin ko'rdim:  
eshak suvrati bor qay bir qavmda,  
qay birida to'ng'iz kallasin ko'rdim.

Bu holda buvaklar bo'g'ilib o'lar,  
qul Bilol ezilib yig'lar falakda...

O'zlarin yondirar borliqdan to'ygan  
Badaxshon la'liday asl malaklar.

Mo'minlar besh bora Allohoi eslar  
sajdaga bosh qo'yib jallod toshiga.  
O'grilib sal ortga qarayin desa,  
boshiga urarlar,  
faqat boshiga.

Bormi er yigitlar,  
bormi er qizlar,  
bormi gul bag'ringda jo'mard nolalar,  
bormi bul tufroqda o'zligin izlab,  
osmon-u falakka yetgan bolalar.

Bor bo'lsa,  
alarga yetkarib qo'ying,  
bir boshga bir o'lim demagan emas,  
shahidlar o'lmaydi,  
bir qarab tuying:

Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!  
Yovga ters qaragan musulmon emas!



## Savol va topshiriqlar:

1. She'rning birinchi besh qatorida aks etgan fikr va ruhiy holatni ilg'ab olishga urining.
2. "**Qilichlar zangladi... falokat hushyor, turkiylar quvvatin berdi yerlarga**" so'zlarining uch qatorga bo'lib berilishi sababini o'ylang. Har bir qatorda ifodalangan fikrning ikkinchisiga qanday aloqasi borligini aniqlang.
3. Tarixda jangovarligi, yovqurligi bilan nom qozongan turkiylarning asl fazilatlaridan mahrum bo'lganligi ifodalangan: "**Ilvasin yigitlar, bobir yigitlar, sajdaga bosh qo'ydi yovga ters qarab**" satrlari ma'nosini chaqishga urining.
4. She'rdagi: "**Turkda bosh qolmadi...**" tarzidagi hukmga munosabatingizni bildiring. Shoir nega shunday xulosa chiqaryapti?
5. Lirik qahramonni o'rtagan armon: "...**bizga tik qarama**" buyurdi **yovlar, yovlarga ters qarab yashadi bari**" yoki "**ters qarab o'ling**" **deb yovlar buyurdi, yovlarga ters qarab jon berdi bari**" yoxud "**tug'ingiz, — dedi yov, — teskari qarab**", **yovlarga ters qarab tug'ildi bari**" satrlarida qay tarzda aks etgani haqida o'ylang.
6. She'rdagi: "**Tug'ildi, tug'ildi, tug'ildi qullar**" satrlarida oqibat butun dahshati bilan ifodalangan. Shu oqibatning sababi haqida mulohaza yuriting.
7. She'rdagi: "...**yovlarga ters qarab itlarday hurar, bir-biriga dushman, bir-biridan koj**" satrlaridagi adadsiz alam sababini anglatring.
8. She'nda: "...**boshiga urarlar, faqat boshiga**" tarzidagi ta'kid aks etgan misralar ma'nosini izohlang.
9. Lirik qahramonning: "**Bormi er yigitlar, bormi er qizlar**" shakldagi murojaatida mantiqsizlik yo'qmi? "Er qiz" tarzidagi birikmani qo'llashning o'rinni yoki o'rinsiz ekani haqida o'ylab ko'ring.
10. "**Bor bo'lsa, alarga yetkarib qo'ying**" tarzidagi ifodaga e'tibor qiling. "**Ularga**" emas "**alarga**", "**yetkazib**" emas "**yetkarib**" ekanligi sababi haqida fikr yuriting.
11. "**Yovga ters qaragan musulmon emas**" hukmining asl manbasi haqida o'qituvchингиз bilan fikrlashib, bunday qat'iy fikr qanday asosga egaligini bilib oling.

## JANGDA O'LGAN EMAS BIROR BAHODIR

Jangda o'lgan emas biror bahodir,  
bari halok bo'lgan xiyonatlardan,  
toshday uxlaganda to'shlarin ochib  
yo zahar qo'shilgan ziyofatlardan.  
Biror asotirda bahodirlarni  
hattoki, yuz boshli ajdar yemagan,  
ming bir sinoatli yalmog'izlar ham  
tog'larni o'ynagan devlar yengmagan.  
Bari halok bo'lgan xiyonatlardan,  
bariga orqadan sanchilgan xanjar.

Shunday bo'lib kelgan azal-u azal,  
mana shu jafokash, ko'hna Vatanda.  
Har gal bahodirlar yiqilar ekan  
kurakka sanchilgan nomard tig'idan,  
qayta tirilganday bo'lardi nogoh  
har bir bolakayning qorachig'ida.  
Ishongil, hech qachon seni aldamas  
sofdil elatlarning asotirlari,  
birorta bahodir o'lganmas jangda,  
qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni.



### Savol va topshiriqlar:

- She'rning boshidagi: "**Jangda o'lgan emas biror bahodir, bari halok bo'lgan xiyonatlardan**" to'xtamiga qo'shilasizmi? Nega?
- Nima uchun shoir: "**bariga orqadan sanchilgan xanjar**", — degan?
- "Har gal bahodirlar yiqilar ekan kurakka sanchilgan nomard tig'idan, qayta tirilganday bo'lardi nogoh har bir bolakayning qorachig'ida"** to'rtligini izohlang. Bahodirlarning bolakaylar nigohida tirilganday bo'lishi sababini anglating.
- She'r so'nggidagi "**qo'rqoqlar o'ldirgan bahodirlarni**" xulosasini sharhlab bering.

## BAXT SO'ZI

Baxtiyorman degan birgina so'zni  
aytish uchun kerak qancha kuch-chidam,  
garchi "baxt" so'zlarning eng yoqimligi,  
garchi tursa hamki tilning uchida.  
Og'ir botmasmikin bu so'z kimgadir,  
tegib ketmasmikin oh-vohlariga,  
qandoq bardosh berib yashayman keyin  
baxtsiz kimsalarning nigohlariga.  
Avvalo, bu so'zni o'zgalar aytsin,  
aytsinlar ko'zları quvonchga to'lib.  
elning baxti uchun umrini tikkan  
shoirlar aytmasin birinchi bo'lib.  
Bu so'zni bir umr aytmay yashadim,  
har shodlik kelganda yurdim sekinoq.  
G'am so'zin elimdan avvalroq aytdim,  
baxt so'zin aytaman eldan keyinroq.



### Savol va topshiriqlar:

1. Shoirning: "**garchi "baxt" so'zlarning eng yoqimligi**" tarzidagi iqroriga munosabat bildiring.
2. Lirik qahramon nega: "**Og'ir botmasmikin bu so'z kimgadir**" demoqda?
3. Shoirni: "**qandoq bardosh berib yashayman keyin baxtsiz kimsalarning nigohlariga**", — deyishga majbur qilgan sababni toping.
4. Nega shoir: "**Avvalo, bu so'zni o'zgalar aytsin**", — deydi?
  
5. "**Bu so'zni bir umr aytmay yashadim**" deyishi sababi to'g'risida o'ylang.
6. Shoirning: "**G'am so'zin elimdan avvalroq aytdim, baxt so'zin aytaman eldan keyinroq**", — deyishi sababini anglating.

## SHAVKAT RAHMON SHE'RLARI TO'G'RISIDA

Lirik turga mansub asarlarda shaxsning ichki tuyg'ulari, hissi-yoti, ruhiy kechinmalari, sezimlari asosiy o'rinda bo'ladi. Bu turdag'i asarlarda hayotda ro'y bergan voqealar emas, balki ular tufayli inson-da paydo bo'ladigan tuyg'ular tasviri muhim hisoblanadi. Odamning tuyg'ulari o'z-o'zidan bezovta bo'lavermaydi. Kishining ruhiy dunyo-sini muvozanatdan chiqaradigan ijtimoiy-hayotiy sabab bo'lgandagina hissiyotlar harakatga keladi.

Shavkat Rahmon she'rlari kishining tuyg'ulariga kuchli ta'sir ko'rsatish xususiyati bilan ajralib turadi. Shoirning "Tong ochar ko'zlarin" she'rida tabiatning kishi ruhiyatida umidbaxshlik uyg'ot-gan holati aks etgan. Garchi she'r tong manzarasini chizish uchun yozilganday tuyulsa-da, shoir tabiat orqali inson shaxsini tadqiq etadi. Sevinchdan yig'layotgan qiyoqlar, ovozini qayrayotgan chigirtka va mehnatkashligi bilan dunyonи masxara qilmoqchi bo'lgan chumoli timsollarida, lirik qahramonning olam hamda odamlar haqidagi murakkab va o'ziga xos qarashlari aks etgan. She'rning so'nggi bandida-gi chumoliga murojaat shundan dalolat beradi. Chumoli – faqat ish-lashni bilib, atrofdagi go'zallik va ezgulikdan bexabar qolayotgan in-son timsoli. Ko'rindiki, ijodkor uchun tabiatning holatlarini tasvirlash yagona maqsad bo'lomaydi, balki u odamga xos qandaydir jihatni aks ettirish maqsadi yo'lidagi vosita bo'lishi mumkin.

Shoirning "Turkiylar" she'rida esa shonli bobolarga munosib bo'lomagan turkiy xalqlarga xos illatlar ayovsiz fosh etiladi. Shavkat Rahmon bu she'rida xolis tasvir yo'lidan bormay, asarga bevosita aralashganday bo'ladi. Chunki qalamga olinayotgan holat xolislikni taqozo qilmaydi. Butun bir millatning hayot va borliqqa munosabat yo'sinini tubdan o'zgartirish kerakligi shoirni muvozanatdan chiqaradi. Shoir lirik ifodaning ta'sir kuchini oshirish uchun imlo qoidalariga o'zgarish kiritadi. Chunonchi, "yetkazib" so'zini "yetkarib" shaklida ishlataladi. Bunda "z" tovushini "r" sonori bilan almashtirish qilinajak ishning zalvorini oshirganday bo'ladi. Shoirning darslikdan o'r'in ol-gan barcha she'rlari ham o'qigan kishini olam, odamlar va o'zi haqida o'ylashga undaydigan otashin bitiklardir.



## **SHAROF BOSHBEKOV**

(1951- yilda tug'ilgan)

---



Sharof Boshbekov adabiyotga XX asrning 70- yillarda kirib keldi. U badiiy adabiyotning eng murakkab turi bo'lgan dramaturgiyada ijod qiladi. Shu paytgacha adibning "Taqdir eshigi", "Tikansiz tiprati-kanlar", "Eski shahar gavroshlari", "Eshik qoqqan kim bo'ldi?", "Temir xotin", "Tushov uzgan tulporlar", "Charog'bonlar", "Tentak farishtalar" kabi sahna asarlari chop etilgan. Yozuvchi o'z ssenariysi bo'yicha suratga olingan "Masxaraboz" filmiga rejissorlik qilgan. Shuningdek, adib "Charxpak" teleseriali, "Ma'rif va Sharif", "Tilla bola", "Yuzsiz", "Doka ro'mol qurishi", "O'yin" singari filmlarga ssenariy yozgan. Dramaturgning "Mehr va mauzer", "So'qmoq", "Falakning gardishi", "Vafodor", "Musofir bo'Imaguncha" yanglig' kinoqissalari mashhur.

Dramaturgning "Tushov uzgan tulporlar" asari respublikalararo ko'rik-tanlov sovrindori bo'lgan "Temir xotin" komediyasi hozirgi kungacha tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda. Sharof Boshbekov ssenariysi va rejissorligida qo'yilgan "Charxpak" teleseriali teletomoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olingan.

### **O'ZIM HAQIMDA**

Bizning oilamizda hech kim san'at yoki adabiyot bilan shug'ul-lanmagan. Ota-onam oddiy xizmatchi bo'lishgan. Men o'qigan qish-loq maktabida qiziq bir qoida bor edi: chet tili o'qituvchisi yo'q bo'lsa, o'rniga ashula darsi o'tilardi, fizika muallimi kelmay qolsa ham, ko'pincha shu tarzda "o'qitilardi".

Bilmadim, yo o'qituvchilar yetishmasmidi, yo ashula muallimimiz shunaqa zo'rmidi... Endi eslasam, ashula darsini "Yallama yorim"dan



boshqasini bilmaydigan bir amaki o'tar ekan. Xullas, o'n yil ashula aytdik. Endi bu ovoz bilan qayerga borish kerak? Artistlikka-da! Shunday qilib, Toshkent Teatr va rassomlik san'ati oliyohining tala-basi bo'lib qoldim.

San'at olamiga kirib kelishimning tag'in bir yashirin, o'zimdan boshqa hech kim bilmaydigan sababi bor. Doim ichimda gaplarim ko'p-u, lekin uni eshitadigan odamlarning kamligi meni qiynab kelardi. O'y-xayolimda faqat bir narsa charx urardi — qaysi kasbni tanlasam, meni ko'proq odam eshitadi? Televideniya va radio suxandon-lariga havasim kelardi. Ularni million-million odam eshitadi. Men-chi? Uydagilar, to'rt-beshta jo'ralar-u, qo'ni-qo'shnilar. Menday odamga bu kamlik qiladi, albatta.

Talabalik yillarimda suxandonlik qilmoqchi ham bo'ldim. Olishmadi. Radioga ovozim to'g'ri kelmadi. Oliyohni bitirib, Muqimiy nomidagi teatrda aktyor bo'lib ishlay boshladim. Avvaliga shuncha tomoshabin gaplarimni eshitayotganidan mast bo'lib yuraverdim. O'n yillar ishlaganimdan keyin birdaniga aqlim kirib qoldi. Bilsam, aktyorlar ham o'zining emas, birov yozib bergen gaplarni gapirarkan. Hafsalam pir bo'lib ketdi va o'zim ularga gap yoza boshladim. Bu hunar bilan shug'ullanadiganlarni "dramaturg" deyishar ekan. Dramaturg bo'lsa, dramaturg-da! Ana shu tariqa adabiyotning sirli va mashaqqatli olamiga kirib keldim.

Oliyohga kelib, domlalarimiz men ism-sharifini ham bilmaydigan odamlarning nomlarini alohida bir hurmat bilan tilga olishayotganini sezib qoldim. Qarang, biz qishloqda ketmon ko'tarib yuraver-gan ekanmiz-u, bu yodqa Esxil, Seneka, Sofokl, Aristofan degan allomalar bor ekan. Zamondan orqada qolib ketibmiz deb, shularning asarlarini mutolaa qilishga tushdim. Qadimgi yunon dramaturgiyasi-dan tortib, dunyo, Ovrupo, o'ris dramaturgiyasigacha varaqlab chiqildi. Shu darajada jiddiy Kirishilibdiki, bu yodqa milliy adabiyot degan narsalar ham bor ekanligi xayoldan sal faromush bo'pti. Shuning sababi o'laroq, ilk asarlarimda voqealar, munosabatlar, vaziyatlar bir do'stressing ta'biri bilan aytganda, "o'risbashararoq" bo'lib qolgan edi. To "osmondan yana yerga qaytib tushgunimcha" juda ko'p ter to'kishga to'g'ri keldi.



Har bir yozuvchining qandaydir o'zigagina xos jihatni bo'ladi. Kimdir sujet topishga usta, kimdir noyob xarakterlar yaratishga mo-hir, boshqalari asar voqealarini zargarona terishda tengi yo'q. Mening eng yaxshi ko'rgan qurolim — humor. Asar qanday janrda yozilmasin, voqealar qanchalik jiddiy, qahramonlarning taqdiri qay dara-jada fojiali bo'lmasin, humor, hazil-mutoyiba, askiya unsurlari, so'z o'yinlaridan unumliroq foydalanishga harakat qilaman. Bu birinchidan, asarni o'qishli qiladi, tomoshaviyligini oshiradi, ikkinchidan, boshqa nuqsonlarni "yopib" ketadi. Masalan, "Temir xotin" asarimda aytildi-gan "gap" jiddiy, lekin vaziyat, qahramonlarning so'zi kulgili yoki ak-sincha bo'lishi mumkin.

Ko'pincha, u yoki bu asarning qanday yozilgani haqida so'ra-shadi. Kimdir aytgan ekan, avval toza qog'oz olasiz, so'ng chapdan o'ngga qarab yozib ketaversiz, deb. "Temir xotin" ham shunday yo-zilgan. Jumladan, siz quyida o'qiydigan parcha ham...

## TEMIR XOTIN

(jiddiy komediya)

### **Ishtirok etuvchilar:**

**Qo'chqor** — traktorchi

**Alomat** — robot

**Olimjon** — olim

**Qumri** — Qo'chqorning xotini

**Sharofat** — qo'shni ayol

**Turobjon** — Qo'chqorning o'g'li

## BIRINCHI SAHNA

*Qishloqdagi oddiy, kamtarona hovli. To'g'rida bir necha ustunli peshayvon, o'ngda pastakkina ko'cha eshik, oldinroqda yog'och karavot. Sahnadagi har jihoz, har bir buyumda nimadir yetishmaydi: eshik-deraza romlarining yarmi bo'yalgan, qol-ganining rangi o'chib ketgan, yog'och karavotning bitta oyog'i yo'q, ko'rpa-yostiqlarga yamoq tushgan, piyolalarning labi uch-gan yoki chegalangan, choynakning jo'mragiga tunuka kiygizil-gan va hokazo. Peshayvon ustuniga Qo'chqor arqon bilan chan-*



*dib tashlangan, usti-boshi, aft-angori bir ahvolda. Shu ko'yi uxlab qolgan bo'lsa kerak, avval sekin qimirlab qo'yadi, so'ng ko'zini ochmay esnaydi. Oyoq-ko'lining o'ziga bo'ysunmayot-ganiga hayron bo'lib, bir-ikki chiranib ko'radi.*

**Qo'chqor:** — (*Uy tomonga*) Ho'-o', tirikmisan?.. (*Yana chiranib ko'radi.*) Yechib qo'y darrov, ho'!.. Qumri, deyapman! Jahlim chiqsa, nima bo'lishini bilasan-a? (*O'zicha*) Iye, bir balo bo'lganmi bunga?.. (*Baqirib*) Oxirgi marta aytayapman: agar hozir yugurib kelib, qo'limni bo'shatmasang...

*Ichkaridan Qumri chiqadi. U o'ttiz-o'ttiz bech yoshlarda, lekin yoshiga nisbatan ancha katta ko'rinadi.*

**Qumri:** — (*Arazli.*) Nima qilasiz?

**Qo'chqor:** — Qo'yvoraman!

**Qumri:** — (*Xo'rligi kelib.*) Nima?

**Qo'chqor:** — Pattangni qo'lingga tutqazaman!

**Qumri:** — (*Eriga birpas ta'na aralash qarab turadi-da, dordagi kiyim-kechaklarni yig'ishtira boshlaydi.*) Hozir eridan patta so'rab o'ti-radigan zamon emas.

**Qo'chqor:** — Iye, bepatta ketaveraman, de hali? Hech bo'lmasa bitta qo'limni bo'shatib qo'y, nomard!

**Qumri:** — Bitta qo'lingizni bo'shatganim bilan foydasi yo'q.

**Qo'chqor:** — Nega foydasi bo'lmas ekan? Qashinib olaman...

**Qumri:** — Qayeringiz qichishyapti? Ayting, o'zim qashib qo'yaman.

**Qo'chqor:** — (*Bu gapni kutmagan edi, dovdirab qoldi.*) Sening bo'ying yetmaydi...

**Qumri:** — Ixtiyorningiz... (*Kiyim-kechaklarni katta ro'zg'or sum-kasiga joylay boshlaydi.*)

**Qo'chqor:** — Menga qara, o'zing bog'ladingmi yo bitta-yarim-tasi qarashvordimi?

**Qumri:** — (*Yig'lamsirab.*) Sizga bas kelib bo'larkanmi!.. Bunaqa vaqtda traktor bo'p ketasiz-ku.

**Qo'chqor:** — Kim keldi?

**Qumri:** — Qishloqning yarmi keldi. Baqirib dunyoni boshingizga ko'tardingiz. Olti kishi arang epladi-ya! (*Ichkariga kirib ketadi.*)



**Qo‘chqor:** — Ko‘pchilik yaxshi-da, ko‘pchilikdan o‘rgilay... (*Uy tomonga baqirib.*) Safar ham bormidi? A? Sendan so‘rayapman, ga-rangmisan?!

**Qumri:** — (*Ichkaridan.*) Ha, bor edi.

**Qo‘chqor:** — Tag‘in kim chiqdi?

**Qumri:** — Nima farqi bor?

**Qo‘chqor:** — Farqi bor! Ertaga kimdan uzr so‘rashimni bilishim kerakmi? E... bugun, deganim.

**Qumri:** — Muhiddin akaning o‘g‘li ikkita o‘rtog‘i bilan armiyadan otpuskaga kelgan ekan, avval uch kishi bo‘lib o‘shalar chiqishdi. Hech bo‘y bermadingiz.

**Qo‘chqor:** — Armiya ham bas kelolmadi, degin?

**Qumri:** — (*Boshqa ko‘ylak kiyib chiqib.*) Keyin Muhiddin aka bilan Safar akalar chiqishdi.

**Qo‘chqor:** — Yana?

**Qumri:** — Shu.

**Qo‘chqor:** — Olti kishi deding-ku!

**Qumri:** — Men ham sal-pal qarashvordim...

**Qo‘chqor:** — “Sal-pal” mish! Yechilmayotganidan ham biluv-dim, sening qo‘ling tekkanini! Mol arqonlab o‘rganib qolgansan-da, bog‘lagan tuguningni matroslar ham yecholmaydi! E, qarashmay ket!.. Bo‘pti, kechirdim, qo‘lni yech. (*Qumri yo‘q deganday bosh chayqaydi.*) Yo‘q, men kimman o‘zi? (*Baqirib.*) Qo‘chqormanmi yo Qo‘chqormasmanmi? Qo‘chqorman! Qo‘chqor ekan deb bog‘lab tashlayveradimi? A-a, sho‘ri bor odam ekanman o‘zi... Hech bo‘lmasa, suv olib kelib ber, ichim yonib ketyapti! (*Qumri dastasi yo‘q kruj-kada suv olib chiqib, ichirib qo‘yadi.*) ...Ha mayli, bo‘lar ish bo‘pti. Ke, yechib qo‘y.

**Qumri:** — Muhiddin aka “peshingacha yechmang, kelin” deb ketdilar.

**Qo‘chqor:** — Nima, peshingacha meni oftobda quritib kap-chonka qilmoqchimisan? (*Bechorasifat bo‘lib.*) Sen quritmasang ham Xudo quritib qo‘ygan o‘zi — jasadni qara, shaqir-shuqur suyak... Yo‘q, bunaqada peshinga bormayman, Qumri...

**Qumri:** — (*Achinib.*) Yecholmayman, dadasi, mendan xafa



bo'lmang... Qishloqning oqsoqollari tushlik payti kelamiz, bo'lmasa dumini ushlatmaydi, deb ketishdi...

**Qo'chqor:** — Nima, mening dumimni ushlashdan boshqa ishlari yo'q ekanmi? Kap-katta odamlar-a!..

**Qumri:** — (*Ichkariga.*) Turobjon, bo'la qol, bolam!

**Qo'chqor:** — (*Xotinining boshqa ko'ylik kiyib olganini endi payqadi.*) Ha, yo'l bo'lsin?!

**Qumri:** — Kecha nima dedingiz?

**Qo'chqor:** — Nima debmiz?

**Qumri:** — (*Xo'rligi kelib.*) Aytadiganingizni aytdingiz...

**Qo'chqor:** — Aytadiganimiz nima ekan?

**Qumri:** — Hali odamlar kelsa, tushuntirib berishadi. Men bolalarimni olib, oyimlarnikiga ketdim.

**Qo'chqor:** — Iye, jinnimisan, veys? Ozgina sho'xlik qilsak qilib-miz endi, yigitchilikda nimalar bo'lmaydi.

**Qumri:** — (*Yig'lamoqdan beri bo'lib.*) Bu sho'xliklaringiz o'n olti yildan beri (tomog'ini ko'rsatib) mana bu yerimga kelgan...

**Qo'chqor:** — Nolima, ho', nolima! Bola-chaqang oldingda bo'lsa, yeb-ichishdan kaming bo'lmasa! Bundan ortiq nima kerak?

**Qumri:** — Birov sizga "och qoldim" deyaptimi?

**Qo'chqor:** — Nega bo'lmasam, "U yerimga kelgan, bu yerimga kelgan", deyaverasan? Kelgan bo'lsa, kelgandir...

(*Shu payt besh-olti yoshlар chamasidagi Turobjon yugurgani-cha hovlining narigi betiga o'tib keta boshlaydi. Dadasiga ko'zi tushib, suyunchi olmoqchiday, hovliqib axborot bera boshlaydi.*)

**Turobjon:** — Dada, biz-chi, buvimlarnikiga ko'chib ketarkanmiz! (*Dadasining bog'liq turganiga hayron bo'lib.*) Iye, nima qilib turibsiz, dada?

**Qo'chqor:** — Kim?.. Menmi?.. Ha, endi, buvingnikiga ko'chib ketadigan bo'lsak, uyni tashlab ketamizmi, orqalab olib ketamizda, o'g'iltoy. Hozir, birpas nafas rostlab olay, keyin "yo pirim" deb ko'taramiz-u, ketaveramiz.

(*Turobjonning ishi shoshilinch shekilli, dadasining gapini oxirigacha eshitmay, yuguranicha chiqib ketdi.*)



**Qo‘chqor:** — Bolaning oldida sharmanda qilding-ku odamni!

**Qumri:** — Meni el-u yurt oldida sharmanda qilganingiz-chi?

**Qo‘chqor:** — Ichgan men, sen nega sharmanda bo‘lasan?

**Turobjon:** — (*Qaytib kelib, uyga qaraganicha.*) Kuchingiz yetmaydi-yov, dada.

**Qo‘chqor:** — (*Ma'yus.*) Bu nima bo‘pti, o‘g‘ilttoy, yelkamiz qanaqa yuklarni ko‘tarmagan...

**Qumri:** — Bo‘laqol, bolam. (*Sumkani olib, o‘g‘lini yetaklaganicha.*) Yaxshi-yomon gap o‘tgan bo‘lsa, xafa bo‘lmang, dadasi... (*Ketadi.*)

**Qo‘chqor:** — Ketsang, yechib ket, ho‘! Insofing bormi, o‘zi, qanaqa odamsan? (*Alam bilan.*) Mastligimda urib, mayib-payib ham qilib qo‘ymagan ekanman — jimgina uyda o‘tirardi...

(*Atrofga chorasisz alanglaydi. Asabiylik bilan qandaydir kuyni xirgoyi qiladi... Tashqarida mashinaning kelib to‘xtagani eshitildi. Ko‘p o‘tmay Olimjon bilan shofyor yigit odam bo‘yi keladigan yog‘och yashikni ko‘tarib kirishdi.*)

**Olimjon:** — E-e, Qo‘chqor aka, assalomu alaykum! Mana tag‘in keldik-da. (*Ko‘rishmoqqa qo‘l cho‘zadi.*) Iye?.. Kim bunaqa qildi?

**Qo‘chqor:** — Kim bo‘lardi, bunaqa bema‘ni narsa faqat bizning xotindan chiqadi.

**Olimjon:** — E-e, chatoq bo‘pti-ku! Ketib qoldilar, deng? Attang... Nega bog‘ladilar o‘zi?

**Qo‘chqor:** — E, Olimtoy, surishtirib nima qilasan, avval qo‘lni yechsang-chi! Kechadan beri onamni Uchqo‘rg‘ondan ko‘rdim!

**Olimjon:** — Ha-ya... (*Yechadi, Qo‘chqorning belidan olib karavotga o‘tqizadi.*) Kechadan beri turibman, deng?

**Qo‘chqor:** — Voy, jonim-ey!.. Shu, xotin zotini kim o‘ylab chiqargan ekan-a, Olimtoy?

**Olimjon:** — (*Kulib.*) Birovni birov o‘ylab chiqaradimi, qiziqmisiz, Qo‘chqor aka.

**Qo‘chqor:** — Yo‘q, shu xotinlarni ataylab birov o‘ylab chiqargan, bog‘lab tashlasin, deb!

**Olimjon:** — Xo'sh, sog'liqlaringiz yaxshimi, Qo'chqor aka?

**Qo'chqor:** — Zo'l! Otday! (*Arqonga ishora qilib.*) Ana, otga o'xshab tikka turib uxbayapmiz...

**Olimjon:** — (*Hovlini ko'zdan kechirib.*) Xafa bo'lmang-u, Qo'chqor aka, lekin kennoyimga ham qiyin-da. Ahvolni qarang: hali-yam o'choq, haliyam tezak yoqiladi. Progress yo'q.

**Qo'chqor:** — Nima-gress?

**Olimjon:** — Progress.

**Qo'chqor:** — Progress bor. Ilgari tezak yoqilardi, hozir tezakni solyarka bilan yoqayapmiz. Yaxshi yonayapti. To'g'ri ovqatdan sal-pal hidi keladi-yu, lekin o'rganib ketar ekan odam.

**Olimjon:** — (*Qo'chqorga achinganday bosh-oyoq qarab chiqib.*) Bir hisobda, sizgayam qiyin — shuncha bola-chaqa... Sakkiztamidi?

**Qo'chqor:** — (*Uh tortib.*) Ha, qolgani shu. Beshtasi peshonamga sig'madi, Olimtoy...

**Olimjon:** — Hechqisi yo'q, Qo'chqor aka, yaqinda hammasi yaxshi bo'lib ketadi. Mana, hozir "oilani planlashtirish" degan bir gap chiqib turipti.

**Qo'chqor:** — Nimalashtirish?

**Olimjon:** — Planlashtirish. Menimcha, shu yaxshi gap, Qo'chqor aka. Tushunmadingiz-a? Buning ma'nosi shuki, yaxshi yashash uchun bolani to'rtta-beshtadan oshirmaslik kerak.

**Qo'chqor:** — Iye?.. Xudoning o'zi berib tursa nima deysan?

**Olimjon:** — (*Kulimsirab.*) Ha, endi, Xudo bermaydigan qilinadi-da.

**Qo'chqor:** — (*Go'yo tushunganday.*) Ha-a, gap buyoqda degin? U... qanaqa bo'ladi o'zi?

**Olimjon:** — "Oilani planlashtirish" degan gap bekorga chiqqani yo'q. Axir, ne-ne olim-u fozillar rosa o'ylab, hamma tomonini hisobga olib, keyin gapirishyapti. Mana, siz va sizga o'xshaganlarning bola-chaqa deb umri o'tib ketmasin, bular ham odamga o'xshab yashasin, degan gap bor buning tagida, bildingizmi?

**Qo'chqor:** — Yo'q, tagidagi gap yaxshi ekan-u, lekin boshimizga qo'ylarning kuni tushmasmikan, deyman-da.

**Olimjon:** — Qaysi qo'ylar?

**Qo'chqor:** — Sening ham esingda bordir, bir paytlar SJKmi, PJKmi degan bir balo chiquvdi. Qo'ylarni sun'iy urchitib, ko'proq qo'zi olish uchun-da. Keyin qo'yning zoti aynidi, qorako'lidan sifat qochdi, har xil kasallikka chalindi. Shu, turib-turib olimlariningga ham tushunmay qolaman-da, Olimtoy. Bir qarasang, qo'ylarga qarab "ko'p tug" deydi, bir qarasang, o'zbekka qarab, "kam tug", deydi...

**Olimjon:** — Ana shunaqa gaplarni gapirmang-da, Qo'chqor aka! Siz bilasizmi, yo yuqoridagilar biladimi? Gapingizni qarang! Qo'y qayoqda, o'zbek qayoqda?! Bu yerda gap xalqning turmushini yaxshilash haqida boryapti. Axir, o'zingiz mundoq bir qarang, ayniqsa, qishloqlarimizda turmush darajasi nihoyatda past. Chidab bo'lmaydigan darajada past!

**Qo'chqor:** — (Asabiyroq.) Past, degin? Senlarning turmushlaring balandmi? Davlat o'qitdi, odam qildi, olim degan noming bor, ko'tar-da past bo'lsa! "Prigres-mrigres" qilasan bu yerga kelib olib! Xotinlarning qorniga osilguncha paxta teradigan mashinani to'g'rla!

**Olimjon:** — Nima, bizni hukumatning pulini shundoq yeb yotipti deb o'layapsizmi? Biz ham qidiryapmiz, izlanyapmiz, o'layapmiz.

**Qo'chqor:** — E, bitta paxta teradigan mashinani ellik yil o'laydimi! Goh rulini o'zgartirasanlar, goh kabinasini, goh o'tirg'ichini — bo'ldi! Biz "Yangi mashina kelar ekan", — deb do'ppimizni osmonga otib yuramiz. Qarasak, o'sha-o'sha — Xolxo'janing tayog'i!

**Olimjon:** — Ana bu gapingizda jon bor. Mashina masalasida ishimiz yurishmayapti. Lekin bu muammoni asosiy maqsaddan kelib chiqib, kompleks hal qilish kerak.

**Qo'chqor:** — Nima-pleks?

**Olimjon:** — Kompleks. Asosiy maqsad nima? Paxtani yaxshi sifatli terib olishmi? Ana shu maqsaddan kelib chiqish kerak. Mashina qanaqa shaklda bo'ladi — buning ahamiyati yo'q. Muhimi, yaxshi ter-sin. Men bu borada butunlay boshqa yo'ldan ketayapman, Qo'chqor aka. Ko'proq masalaning estetik tomoniga ahamiyat beryapman. Bir tasavvur qiling-a: paxtazordan xotin-qizlarning quvnoq kulgusi eshitilib turipti! Qiychuv, hazil-huzul. Kechqurunlari qishloq ko'chalari-



ni to'ldirib qiz-juvonlar o'tishyapti! Ko'rib ko'z quvonadi, dil yayraydi! "Tar-tar-tar" qilib, ko'chadan traktor o'tgani qayoqda-yu, qo'ng'iroq-day ovozlari bilan ko'ngillarni entiktirib, qizlar o'tgani qayoqda! Farqi bormi? Shuning uchun men paxta teradigan mashina emas, paxta teradigan biorobot ustida ishlayapman. Tashqi ko'rinishi odamdan farq qilmaydi. Ko'radi, eshitadi, gapiradi! Xatti-harakati, imo-ishoralari, gap-so'zi odamga maksimum darajada yaqinlashtirilgan.

**Qo'chqor:** — Nima-simum?

**Olimjon:** — Maksimum. Masalan, boshqaruv blokiga humor hissi bilan bog'liq mikrosxema o'rnatilsa...

**Qo'chqor:** — Nima-sxema?

**Olimjon:** — Mikrosxema. Yumor hissi bilan bog'liq mikrosxema o'rnatilsa, hazilkash, quvnoq, biroz shaddodroq ayolga aylanadi. Lirik hisli mikrosxema o'rnatilsa, ayollarga xos nazokat, ibo paydo bo'ladi.

**Qo'chqor:** — Nega ayollarga xos?

**Olimjon:** — Iye, boyadan beri nima deyapman? Robot ayol shaklida bo'lishi kerak-da, bo'lmasa, nima qizig'i bor? Ko'ryapsizmi, bir o'q bilan ikki quyonni uramiz: ham xotin-qizlarimizni og'ir qo'l mehnatidan xalos qilamiz, ham paxtazordan qiz-juvonlarning kulgisi jaranglab turadi.

**Qo'chqor:** — Kuladiyammi?

**Olimjon:** — Bo'lmasam-chi? Kuladi, baqiradi, shivirlaydi! Bu — mikrosxemalarning xarakteriga bog'liq.

**Qo'chqor:** — Ah-ha... Xo'p, o'sha... ayol-robotlaring ishdan keyin garajga borib yotadimi?

**Olimjon:** — Shunaqa desayam bo'ladi. Lekin garaj yotoqxona tipida quriladi. Eng asosiysi, Qo'chqor aka, bu robotlar arzonga tu-shadi. Yoqilg'i kerak emas, batareyalarda ishlaydi. Ikkinchidan, ularni tinimsiz ishlatish mumkin. Issiq demaydi, sovuq demaydi, kechasimi, kunduzimi — ishlayveradi!

**Qo'chqor:** — Oylik ham so'ramaydimi?

**Olimjon:** — Albatta-da! Foydali ish koeffitsiyenti juda yuqori.

**Qo'chqor:** — Nima-senti?

**Olimjon:** — Koeffitsiyenti. Bu hali hammasi emas. Men yaratadigan robotlar buyruqni so'zsiz bajaradi. "G'idi-bidi" qilib o'tirmaydi.



Masalan, "Hamma paxta terimiga!" — deb buyruq berilsa, har qanday ishini tashlab, dalaga chiqib ketaveradi!

**Qo'chqor:** — Iye, unda chindan ham odamga o'xshar ekan. Mana, biz ham "paxta terimiga" degan gapni eshitishimiz bilan hamma ishimizni yig'ishtirib qo'yib, dalaga chiqib ketamiz. Bolalarimiz o'qishini tashlaydi, xotinlarimiz emizikli bolasini...

**Olimjon:** — Ana shuning uchun ham robotlar kerak-da! Robot bunaqa narsalarni o'ylab o'tirmaydi. Mana, siz o'ylayapsiz. Bolalarimizning o'qishi nima bo'ladi, deysiz, ayollar yosh bolalarni qayerga qo'yadi, deysiz. Robotga buning ahamiyati yo'q. Tushundingizmi? U faqat ishlaydi! Ishlayveradi, ishlayveradi!

**Qo'chqor:** — Biz ham ishlayveramiz...

**Olimjon:** — Lekin siz odamsiz! U robot, tushunyapsizmi, robot! Mashina!

**Qo'chqor:** — Ha, unda buni durust o'yabsan, Olimtoy. Lekin u mashinang qachon tayyor bo'ladi, tuyaning dumি yerga tekkandami?



### Savol va topshiriqlar:

1. Qo'chqorning ro'zg'oridagi har bir jihozda nimaningdir yetishmasligiga e'tibor berib, sababini izohlang. Bu holat tasvirining badiiy vazifasini tushuntiring.
2. Asar qahramonining o'z ayoliga qanday muomala qilayotganiga e'tibor qiling. Asarda o'zbek oilalaridagi munosabatlarning qanchalik hayotiy aks ettirilganini izohlang.
3. Birinchi sahnadagi xatti-harakati va gap-so'zlariga qarab Qo'chqor timsoliga tavsif bering. Uning sodda, topqir, gapga chechan, hazilkash, maqtanchoq va boshqa jihatlarini matndan aniqlang.
4. Qo'chqor tomonidan aytilgan: "**Bo'pti, kechirdim, qo'lni yech**" degan gap personajning o'sha paytdagi holatiga qanchalik mos kelishi haqida fikr aytинг.
5. Komediyada Qo'chqorning: "**Qo'chqor ekan deb bog'lab tashlayveradimi?**" tarzidagi noroziligi nimaga xizmat qildi deb o'ylaysiz?
6. Qumrining: "**Aytadiganingizni aytdingiz...**" degan gapini qanday tushundingiz? Bu gapning nima ekanligini topishga urining.

- 
7. Xotini to'g'risida Qo'chqorning: “***Mastligimda urib, mayib-payib ham qilib qo'yagan ekanman — jimgina uyda o'tirardi***” tarzida fikrlashi milliy turmushimizga qanchalik aloqadorligi borasida o'ylab ko'ring.
  8. Qo'chqorning nutqiga e'tibor bering. So'zlash tarziga tayanib uning ichki dunyosini tushunishga urining.

\* \* \*

**Olimjon:** — Siz, Qo'chqor aka, olimlarni ja yerga uraver mang. Biz ham bir nimalar qilib yurgandirmiz. Mana, men yetti yil umrimni ana shu robotga bag'ishladim. Yetti yil-a! Nihoyat, Qo'chqor aka, birinchi tajriba nusxasi tayyor bo'ldi. Laboratoriya sinovidan yaxshi o'tdi, endi tabiiy sharoitda, ya'ni dalada sinab ko'ramiz.

(*Yashikning atrofida ham hayajon, ham faxr bilan aylanadi. Olimjon yashikning qopqog'ini ochadi, u yerda qo'g'irchoqqa o'xshab ketadigan, nihoyatda go'zal qiz qotib turardi. Badaniga silliq yaltiroq mato tortilgan.*)

**Qo'chqor:** — (*Hayratdan og'zi ochilib.*) Vo-o... Nima bu?

**Olimjon:** — Qalay?...

**Qo'chqor:** — (*Yaqinroq borib tikiladi, ushlab ko'radi.*) Alomat, alomat!..

**Olimjon:** — Yashang, Qo'chqor aka! Qarang, bunga nom topolmay yuruvdim! Demak, “Alomat — I”! E, bormisiz, Qo'chqor aka!

**Qo'chqor:** — Nega “bir”?

**Olimjon:** — Keyin “ikki”, “uch”, “to'rt”lari ham bo'ladi-da! Butun respublika uchun, bilasizmi bunaqasidan qancha-qanchasi kerak?

**Qo'chqor:** — Ha-a... Xuddi tirikday-a, tavba!.. Gapiradi, dedingmi, Olimtoy?

**Olimjon:** — Hozir... (*Diplomatidan gugurt qutisidek keladigan bir qancha yupqa plastinkalarni oladi.*) Mana, manavilar — mikrosxemalar. Hammasi har xil maqsadda ishlatiladi. (*Robotning yelkasidagi qopqoqni ochib.*) Mana bu yeriga kerakli mikrosxema o'rnatamiz, keyin munday qilib qopqoqni yopib qo'yamiz. Ana tayyor. Endi manavi tugmachasini bosamiz. E, xudo, sharmanda qilma! (*Bosadi. Alomat avval ko'zlarini pirpiratib qo'yadi, so'ng bir necha qadam oldinga yurib, to'xtaydi.*)



**Alomat:** — (*Soxta tabassum bilan.*) Allo, allo! Voy, o'rtoq-jon, o'zingmisan? Ovozingni eshitadigan kun ham bor ekan-ku! Biram sog'indim, biram sog'indim, o'lib qolay deyapman!.. Ha, ke-cha-chi o'sha sen aytgan zormandani Muqaddasning qulog'ida ko'rdim. Quloq o'Igur supraday bo'lгandan keyin hamma narsa ham yarashavermas ekan-da, o'rgilay!

**Olimjon:** — (*O'chirib.*) E, bu sekretar-mashinistkalarniki-ku... (*Boshqa mikrosxema olib.*) Bu nima ekan? Ko'ramiz... (Qo'yib, tugmachasini bosadi.)

**Alomat:** — (*Jiddiy.*)... shunday xulosa kelib chiqadiki, xalq xo'jaligi organlari va planlashtirish tashkilotlari davlat planlarini ishlab chiqishda respublikamizdagi suv resurslarini hisobga olishlari zarur.

**Olimjon:** — (*O'chirib.*) Buyammas... Shu, yozib qo'yish kerak ekan-da. (*Boshqa mikrosxema o'rnatadi.*)

**Alomat:** — (*Avval biroz qitirlab turib, keyin jarangdor, le-kin g'ashga tegadigan darajada baland ovoz bilan kuylaydi.*) "Yana o'ynaylik, yana kuylaylik, iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik, yana o'ynay..." (*Olimjon uni o'chiradi. Qo'chqorning hayratdanmi, qo'rquvdanmi, og'zi ochilib qolgan edi.*)

**Qo'chqor:** — Olimtoy, buyam, haligi... magnitofonday gap ekan-da, qanaqa kasseta qo'ysang, o'shanaqasidan aytsa-a?

**Olimjon:** — Ha, prinsip deyarli bir xil.

**Qo'chqor:** — Nima-sip?

**Olimjon:** — Prinsip.

**Qo'chqor:** — Ha-a... Sheralidan yo'qmi?

**Olimjon:** — Yo'q. Radiodan tajriba uchun duch kelgan ashulaning ikki satrini yozib qo'yuvdik-da. (*Yana sxema o'rnatadi.*)

**Alomat:** — (*Kutilmaganda.*) Ha, og'zingdan qoning kelsin sening! Sochingni bittalab yulib, boshingni koptok qilib qo'yaymi? Qirilibgina ket sen! "G'ing" deb ko'r-chi, nima qilar ekanman!

**Qo'chqor:** — (*Esxonasi chiqib.*) Yo'-yo', "g'ing"mas... Unaqamas, haligi.

**Alomat:** — E, qo'ng'izga o'xshab g'ing'illamay o'!!

**Olimjon:** — Gap qaytarmang, Qo'chqor aka, gap qaytarmang!



**Alomat:** — (*Olimjonga.*) Voy, sho'rtumshuq-ey, sen nega buringni tiqasan?!

**Olimjon:** — (*Shosha-pisha shartta o'chirib.*) Bu yigitlarning hazili bo'lsa kerak, doim bir balo qilib yurishadi. Yaxshiyam komis-siya-pomissiyaning oldida qo'yib yubormadik, sharmanda bo'larkanmiz.

**Qo'chqor:** — (*Haliyam o'ziga kelolmay.*) Shunaqa hazildan yana bitta bo'lsa, Qo'chqorvoy akang yo'q-dal!.. (*Olimjon robotga boshqa sxema o'rnatadi.*)

**Alomat:** — (*Odob bilan.*) Assalomu alaykum!

**Qo'chqor:** — (*Qo'rqa-pisa.*) Va... Vaalaykum...

**Olimjon:** — Sening isming — Alomat. Tushundingmi?

**Alomat:** — Tushundim. Mening ismim — Alomat.

**Olimjon:** — Bu kishi — Qo'chqor aka.

**Qo'chqor:** — (*Arang jilmayib.*) Shundoq, shundoq...

**Alomat:** — Qo'chqor aka.

**Qo'chqor:** — Labbay?..

**Alomat:** — Ko'nglingizga kelmasin-u, nega endi sizga hayvonning nomini qo'yishgan, qo'chqor deb?

**Qo'chqor:** — Iye?..

**Alomat:** — Qo'chqor — qo'yning erkagi-ku.

**Qo'chqor:** — Haligi... nima deydi... Ha, endi biz odamning erkagimiz-da, Alomatxon...

**Alomat:** — Bizga nima xizmat bor, odamning erkagi?

**Olimjon:** — Alomat, "Qo'chqor aka", de, "Qo'chqor aka". Tushundingmi?

**Alomat:** — Tushundim. Xo'sh, nima xizmat bor, Qo'chqor aka?

**Qo'chqor:** — Xiz...mat yo'q. (*Karavotga ishora qilib*) Qani, bu-yoqqa o'ting, Alomatxon... Ko'rpachaga o'tiring, ko'rpachaga...

**Alomat:** — (*Karavotning bir chetiga qimtinibgina o'tirib.*) Rahmat, yaxshi o'tiribman.

(*Noqulay sukunat.*)

**Olimjon:** — Bo'limasa, Qo'chqor aka, siz bemalol gaplashib o'tiravering, men narsalarimni joylashtiray. O'sha hujra bizniki-da, a?

**Qo'chqor:** — Iye, bo'limasam-chi? O'zingizni uyingiz-da,



Olimtoy! (*Olimjon yig'ma karavot, sumka va boshqa anjomlarini ko'tarib ichkariga kirib ketadi.*) (*Anchadan keyin.*) Ha-a... zap kelibsiz-da... (*Biroz dovdirab.*), ichkarida muzday ayron bor, bir kosagina olib chiqaymi?

**Alomat:** — Ayron? Uni nima qilaman?

**Qo'chqor:** — Ha-ya, esim qursin. Xo'-o'sh, ishlaringiz yaxshimi o'zi?

**Alomat:** — Qaysi ishim? Hali hech ish qilganim yo'q-ku!

**Qo'chqor:** — Ha endi, gap-da... (*Biroz sukutdan so'ng.*) Obbo, Alomatxon-ey, shunaqa deng? Ha-a, ishqilib, omon bo'laylik... Bu, Olimtoy ja ajoyib yigit-da lekin. Shu deng, shaharda, qaysidir bir institutda ishlaydi. Olim. Kolxozimizda o'sha institutning tajriba uchastkasi bor. Qirq gektar, Qudrat quyonchiqning brigadasiga shundoq tutashib ketgan. Olimtoy har kelganida biznikida turadi. Uy ko'p. O'zimizning ukaday bo'lib qolgan. Yaxshi bola. Ha... (*birpasdan keyin*) Bugun deng, kennoyingiz bilan sal g'ijillashib qoldik. Endi ro'zg'or ekan-da, goh unday, goh bunday... Bolalarini olib onasiniqiga ketib qoldi. Keladi-da, qayoqqa ham boradi, shuncha bola bilan, nima dedingiz? Ha, o'zingizning bolalarining yaxshi yurishib... Ha-ya... Yo'q, o'zi durust ayol. Endi ja sizchalik bo'lmasayam xotin-da, ishqilib. Lekin ayt-dim, oldidan o'tib qo'ydim-da, agar dedim, yaxshilikcha qaytmasang, dedim, shartta boshqasiga uylanvoraman dedim. To'g'ri-da, qattiqroq yo'talsang ham onasiniqiga ketib qoladigan xotin kimga kerak, nima dedingiz? E-e, hayot shunaqa ekan-da... Choy qo'yvoraymi? Eh-ha... Siz ham gapirib o'tiring mundoq, Alomatxon.

(*Alomat nigohini bir nuqtaga qadaganicha jim o'tirardi.*) Olimtoy lekin ja savob ish qilyapti-da. Rakatopsin. Mana, xotin-xalaj, bala-chaqa olti oy lab daladan beri kelmaydi. Na dam olish bor, na bayram bor, ertadan-kechgacha — ish, ish, ish! Qor demaydi, yomg'ir demaydi. Buyoqda issiq qirq bo'lsa, g'o'zaning ichida ellik! E, temir bo'p ket-e, haliyam chidar ekan odamzod! (*Xijolatli.*) "Temir" deganimga xafa bo'lmanq tag'in, og'zimdan chiqib ketdi-da... Olimtoy shulurni ko'rib chidolmadi. Odamlarning og'irini yengil qilaman, deb kechalari uxlamaydi. O'ziga-o'zi gapiradimi-ye, bir balolarni chizadi, o'chiradi, yirtib tashlaydi, yana chizadi. Qanaqadir idoralarga qatnaydi, kimlar



bilandir janjallashib, asabi buzilib keladi. Uyga kelib alamini yana ish-dan oladi. E, rakanopsin (*Olimjon chiqadi*.)

Olimtoy, seni gapi rayapman. Hech tinib-tinchimaydigan bola, deyman.

**Olimjon:** — (*Alomatga qarab turib*.) E, bu o'chib qopti-ku. (*Alomatning yelkasidagi blokni kavlashtira boshlaydi*.)

**Qo'chqor:** — Iye, o'chib qopti, deganing nimasi? Men shuncha gapni kimga gapirdim bo'lmasam! Butun o'zbekning dardini das-turxon qilib o'tiribman. Doim shu, bizga o'xshagan odam gapirsa, yo hech kim eshitmaydi, yo eshitadigani temir chiqadi...

**Olimjon:** — Shu blokni almashtirish kerak ekan-da, qayerdadir kontakt bo'lmayapti.

**Qo'chqor:** — Nima-takt?

**Olimjon:** — Kontakt. O'qtin-o'qtin tutib qolayapti. (*Boshqa sxe-ma o'rnatadi*.)

**Alomat:** — (*Noz bilan*.) Unaqa qaramang odamga... Biram nigohingiz o'tkirki!

**Qo'chqor:** — (*Dovdirab*.) Kim. Menmi?.. Yo'q... Qaraganim yo'q... Men tomga qarayapman...

**Alomat:** — Doim shunaqa deysiz, odamni xijolat qilib qo'yib... Yomonsiz, Qo'chqor aka...

**Qo'chqor:** — (*Jonholatda*.) Shunisini qo'y, Olimtoy, shunisini qo'y, uka! O'chirma, o'chirma!.. Alomatxon!.. Gapiring, Alomatxon!.. Shunaqa gaplaringizdan gapiring...

**Alomat:** — Voy, anavi kishimni... Nima deyman?

**Qo'chqor:** — Mayli nima desangiz ham, Alomatxon!.. Ishqilib, ovozingizni eshitsam bo'ldi!..

**Alomat:** — E, boring-e...

**Qo'chqor:** — Olimtoy! Sen dahosan! Yaratib qo'yaningdan aylanay! Endi mundoq o'tir.

**Olimjon:** — (*O'tirib*.) Xo'sh?

**Qo'chqor:** — Olimtoy, jigarim! Gap mundoq... Shu... (*Alomatga qarab qo'yib*.) Alomatxonning oldilarida noqulayroq bo'layapti-ku, a?

**Olimjon:** — Unda o'chirib qo'yamiz. (*Robotni o'chiradi*) Gapiravering. (*Qo'chqor o'chdimi-yo'qmi deb Alomatga tikiladi, keyin*



uning ko'zi oldida qo'lini uyoqdan-buyoqqa o'ynatib ko'radi. Alomat tek qotib turaveradi.)

**Qo'chqor:** — Gap mundoq, Olimtoy, ukammisan?

**Olimjon:** — Albatta.

**Qo'chqor:** — Qiyomatlik ukammisan?

**Olimjon:** — Ha.

**Qo'chqor:** — Agar qiyomatlik aka-uka bo'lsak... (*Alomatga qarab qo'yib.*) Eshitmaydi-a?

**Olimjon:** — Eshitmaydi.

**Qo'chqor:** — Agar qiyomatlik aka-uka bo'lsak, bitta ukalik qilasan, Olimtoy.

**Olimjon:** — Xo'sh.

**Qo'chqor:** — Bilasan, kennoying ketib qoldi! Shu, desang, xotsinsiz uy uymas-da. Na kiyinishingda tartib bor, na issiq-sovug'ingda tayin bor, qidirgan narsang topilmaydi, padariga la'nat! Xullas, qiyin-da. Shu, Alomatxon ro'zg'orga sal munday... nima deydi... qarashib tursa-a, devdim-da, ukam.

**Olimjon:** — Bemalol. Nima ish buyursangiz, bajaraveradi.

**Qo'chqor:** — To'g'ri-yu... Lekin shu desang... (*Alomatga qarab qo'yib.*) Eshitmaydi-a? Shu desang, uy ishlarini-ku qilaveradi, gap undamas. Ishdan charchab kelganingdan keyin mundoq oyoqni uzatib, dunyoning past-balandidan suhbat qilsang-a, haligidaqa ikki og'iz shirin so'z bilan choy uzatsa, a, charchoqlar yozilib, dildagi g'uborlar forig' bo'larmidi-i, degan gap-da bizniki. Vey, yaxshi gapning gadosimiz, Olimtoy!

**Olimjon:** — Mayli, Qo'chqor aka, qaytanga ishlab turgani yaxshi, bahonada men ham u-bu kamchiliginu ko'rib olaman. (*Turmoqchi bo'ladi.*)

**Qo'chqor:** — (*Yengidan tortib.*) O'tir. Gap, Olimtoy, Alomatxonning menga ko'rsatadigan xizmatida emas, gap ko'ngilda. Bitta ovqat-u sigir sog'ish bo'lsa, qo'shniyam qilib berishi mumkin. Lekin kechqurun ishdan kelganingda peshvoz chiqib, "Yaxshi keldingizmi, dadasi", desa. Ertalab ishga ketayotganingda, "Yaxshi borib keling", desa. A? Mana bu ishni, Olimtoy, qo'shning qilib berolmaydi. (*ilmoqli.*) Tushunyapsanmi?



**Olimjon:** — (*Beparvo.*) Xo'p, dedim-ku, Qo'chqor aka. Ishdan qochmaydi, gapingizdan chiqmaydi. Bemalol. (*Turmoqchi bo'ladi.*)

**Qo'chqor:** — E, o'tir! Endi-i, Olimtoy... (*Alomatga qarab qo'yib.*) Eshitmaydi-a? Endi-i, Olimtoy, o'zingdan qolar gap yo'q. Buyog'i — qishloqchilik: birov u deydi, birov bu deydi — elning og'ziga elak tutib bo'lmaydi, xo'pmi? Yo'q, yo'liga-da, yolg'ondukamiga!.. Shu, bir-ikkita mo'ysafidni chaqirib, bir oshamgina osh bilan fotihaga o'xshagan gap qivorsak, a?

**Olimjon:** —lye, o'ylab gapiryapsizmi, Qo'chqor aka? Nima, odamlarga kulgi bo'lmoqchimisiz? Aytgan chizig'ingizdan chiqmasa, hamma ishingizni qilsa — sigir sog'ishmi, kir yuvishmi, ovqat-povqat deganday, fotihaga balo bormi! E, tavba... Xo'p, erta yo indin terim boshlanadi. Alomat sinovga chiqishi kerak, unda nima bo'ladi?

**Qo'chqor:** — E, Olimtoy, terim nima bo'pti? Ayol zotining, vey, joni toshdan bo'ladi — uyniyam eplaydi, dalaniyam. Ko'rib yurib-miz-ku.

**Olimjon:** — Birov eshitsa nima deydi, Qo'chqor aka, o'ylayapsizmi?

**Qo'chqor:** — Men ham shuni aytaman-da. "Uyingizda bir zai-fa paydo bo'pqopti, Qo'chqorvoy, kim bo'lidi u?" deyishsa, nima deyman? Ammamning qizi, deymanmi? Odamlarning qaysi biriga tu-shuntiraman, bu shunaqa, odam emas, bu Olimtoy yaratgan robot, deb? Bitta mulla chaqirib, yo'liga nikohga o'xshagan bir narsa qivorsak, bo'lidi, yuraveramiz, gap yo'q, so'z yo'q. Shu bilan bir nima bo'p qoladimi?

**Olimjon:** — Axir, bu odam emas-ku, Qo'chqor aka, temir-ku, nega tushunmaysiz?! Ichi to'la sim, plastmassa, yarimo'tkazgichlar! Bu — mashina. Ertaga sinovdan o'tolmasa-yu, buzib tashlasam nima bo'ladi? Bir uyum temir qoladi.

**Qo'chqor:** — Ha, endi, buzmang-da, Olimtoy. Shunday narsani buzsangiz, uvoli tutib, qo'lginangiz akashak bo'lib qolmaydimi, mulla?! E-e, yetganlar bor, yetmaganlar bor... Xo'p de, Olimtoy, dil ketdi-da endi. Senga nima, bu bo'lmasa boshqasini yasab olaverasan, bizga o'xshagan so'qqaboshga qiyin... (*Bechorasifat.*) Yolg'izlik yomon, Olimtoy, buni boshiga tushgan biladi...





**Olimjon:** — (*Toqati toq bo'lib.*) E, bilganingizni qilmaysizmi! (*Turib.*) Men idoraga borib kelaman. (*Chiqib ketadi.*)

(*Qo'chqor Olimjonni ruhsat berdi deb bilib, o'zida yo'q xursand.* Sekin Alomatning orqasiga o'tib, ehtiyyotkorlik bilan tugmachani bosalidi. *Alomat jonlanadi.*)

**Qo'chqor:** — Zerikmay o'tiribsizmi, Alomatxon?

**Alomat:** — (*Hech gap bo'limganday.*) Rahmat.

**Qo'chqor:** — Endi-i, Alomatxon, mana ro'zg'orning og'ir-yengili ikkovimizning bo'ynimizda. Yaxshisini oshirib, yomonini yashirib, degandey, tebrataveramiz. Birpas turib, mulla Suvonni chaqirib chiqaman, nikoh o'qib qo'yadi. Maylimi?

**Alomat:** — Nima o'qitsangiz o'qitavering, ixtiyorингиз.

## TO'RTINCHI SAHNA

*(O'sha hovli. Oradan ikki kun o'tgan. Alomat karavotda o'tiribdi. Qo'chqor tog'orada bug'i chiqib turgan qaynoq suv olib kelib, uning qarshisiga qo'yadi. Alomatning qo'llarini kaftlari orasiga olib birpas tikilib o'rnidan turib, ayvon shiftidan qizil mikrossxemani olib keladi, o'rnatadi. Alomat xuddi uyqudan turgandek ajablanib atrofni kuzatadi. So'ng Qo'chqorga boshdan oyoq razm soladi.)*

**Alomat:** — Nima qilyapsiz, Qo'chqor aka?

**Qo'chqor:** — (*Uzrli.*) Shu desangiz, ja muzday-da... Yuzimni silasangiz temirga o'xshaydi... (*Alomatning qo'lini tog'oradan chiqarib, yuziga bosib ko'radi.*) Hali bor... (*Yana suvgaga tiqib qo'yadi.*) Xafa bo'l mang-u, Alomatxon, shu, Qumrining qo'llari qadoq bosib, yorilib ketgan bo'lsayam, bir nimasি bor edi-da... O'sha nima ekan-a? Bo'lmassam, barmoqlarini ko'sak tilib, g'adir-budur qilib tashlagan. Qo'lidan doim kirsovun aralash tappi hidi kelib turadi. (*Xo'rsinib.*) Lekin nimasidir bor edi... Keyin ko'zingiz ham g'alati... Yo'q, uzoqdan qarasam, durust, yaqiningizga kelsam, shishaga o'xshaydimi-ey...

**Alomat:** — Kvars.

**Qo'chqor:** — Nima-ars?

**Alomat:** — Kvars. Kvarsdan yasalgan.

**Qo'chqor:** — Ha-a... Shishaning bir turi-da, a! Ja sovuq nar-



sa bo'larkan, lekin... Bilasizmi, xafa bo'lmang-u, Qumri bilan, de-sangiz, jim o'tirib ham gaplashaverardik. Ichimizda. Nima deyotgani-ni ko'zidan bilardim. Uyam shundoq qarardi-yu, ichimdagini topardi, qurg'ur...

**Alomat:** — Men maqsadingizni, xohish-istagingizni ko'zingiz-dan bilolmayman. Tashqi olam bilan faqat manusonik metodda aloqa qilaman.

**Qo'chqor:** — Nima-so'nik?

**Alomat:** — Manusonik. Tabiatdagi barcha tirik mavjudot — o'simlik, parranda-yu darranda, shuningdek, odam ham o'zidan elektromagnit to'lqinlari tarqatadi.

**Qo'chqor:** — Men hammi?

**Alomat:** — Siz ham.

**Qo'chqor:** — (*Ma'yus jilmayib.*) Qumri bo'lsa "sizdan faqat sol-yarka hidi taraladi", derdi. Qarang, gapi yolg'on ekan-da, a?

**Alomat:** — Sizdan tarqalayotgan elektromagnit to'lqinlarini qabul qilaman va shunga ko'ra nima kerak bo'lsa, o'sha ishni bajaraman.

**Qo'chqor:** — (*Tushunishga harakat qilib.*) Demak, biz o'zimizdan elektromagnit to'lqinlari chiqaramiz, siz uni qabul qilasiz. Bundan chiqdi, siz kelguningizgacha bekordan bekorga elektromagnit to'lqinlari chiqarib yotgan ekanmizda-a? Uni hech kim qabul qilmasa...

**Alomat:** — Mana, masalan, ikki kundan beri ishingizga ovqat olib boraman-a? Hech qaysi brigadada, qaysi kartada ishlayotgningizni so'raganmanmi? Yo'q. Ovqatni olaman-u, to'ppa-to'g'ri topib boraveraman. Elektromagnit to'lqinlari menga yo'l ko'rsatadi.

**Qo'chqor:** — (*Ma'yus.*) Qumri ham adashmay topib borardi... Unga nima yo'l ko'rsatar ekan-a? Yoki, deylik har kuni ko'chamizdan qanchadan qancha traktor o'tadi, bolalarim bo'lsa, mening traktorimi ni ovozidan taniydi, yugurib chiqishadi... Bo'lmamasam, uncha-muncha mexanik ham traktorlarni ovozidan ajrata olmaydi... E, Xudo, men tushunmaydigan jumboqlaring muncha ko'p-a!..

**Alomat:** — Tushunmagan narsalarigizni so'rang, javob bera-man.



**Qo‘chqor:** — Mana, deylik, men nimadandir xursand bo‘ldim-a? Siz ham menga qo‘silib xursand bo‘lasizmi?

**Alomat:** — Yo‘q, men unda xotirjam bo‘laman. Negaki biron joyingiz og‘riyotgani yo‘q, qorningiz to‘q, hech nima bezovta qilmayapti, demak, hammasi joyida.

**Qo‘chqor:** — E-e, unda siz ham o‘zimizning mahalliy hokimi-yatga o‘xshagan gap ekansiz-da. Ular ham na dardingga sherik bo‘la-di, na xursandchililingga. Nomi “mahalliy” bo‘lgani bilan, bilmayman, narigi mahallaga qaraydimi... (*Birdan.*) Alomatxon, siz yig‘lolasizmi?

**Alomat:** — Yo‘q.

**Qo‘chqor:** — Ayol kishining har zamonda yig‘lab turgani yaxshi... Yengil tortadi. Erkakning yo‘rig‘i boshqa — uyat bo‘la-di. Mana, men, sira yig‘lamaganman... (*O‘ychan.*) Lekin uyat bo‘limganida yig‘lardim...

**Alomat:** — Uyat bo‘lmaydi, yig‘layvering.

**Qo‘chqor:** — (*Xijolatli.*) E, qo‘ysangiz-chi, qiziqmisiz...

**Alomat:** — Chindan ham uyat bo‘lmaydi, nimaga desangiz, men uyatni tushunmayman. Elektromagnit to‘lqinlari bo‘lsa — boshqa gap. Mana, hozir siz yig‘iga ehtiyoj sezyapsiz — buni tushunaman. Bemalol yig‘layvering, Qo‘chqor aka. Men robotman-ku, temirdan ham uyaladimi odam?

**Qo‘chqor:** — (*Birpas o‘ylab turib.*) Nima deb yig‘layman.

**Alomat:** — So‘z yozib beraymi?

**Qo‘chqor:** — Yo‘g‘-e, endi yig‘lashni ham qog‘ozga qarab yig‘lasak, uyat bo‘lar?

**Alomat:** — Men odamlar haqida boshqacha tasavvurda edim. Ularning erki qo‘lida, nimani xohlasa shuni qiloladi, deb o‘ylardim. Nahotki, xulosalarim noto‘g‘ri bo‘lsa?

**Qo‘chqor:** — Haliyam erkimiz qo‘limizda.

**Alomat:** — Nega bo‘lmasa yig‘lolmayapsiz?

**Qo‘chqor:** — Endi, Alomatxon, dabdurustdan qiyin-da... Bir sabab bo‘lmasa...

**Alomat:** — Sabab topamiz.

**Qo‘chqor:** — Qanaqa qilib?

**Alomat:** — Gipnoz qilib.

**Qo‘chqor:** — Nima-pnoz?

**Alomat:** — Gipnoz. Qoida bo‘yicha, gipnoz faqat yolg‘ondan iborat bo‘ladi. Masalan, tishi og‘rib turgan odamga “tishingiz og‘rima-yapti”, deb yolg‘on gapiriladi.

**Qo‘chqor:** — Yo‘q, men yolg‘on gapga yig‘lamayman.

**Alomat:** — Axir yolg‘on xuddi rostday qilib gapiriladi-da! Hamma ishonadi, hatto gapirayotgan odamning o‘zi ham! Qani, mundoq o‘tiring-chi. Boshladik. Ko‘zimga qarang... Bo‘sashing... G‘odaymang, bo‘sashing, deyapman... Yaxshi...

**Qo‘chqor:** — Qo‘ying, nima keragi bor, baribir yig‘lamayman...

**Alomat:** — Yig‘laysiz... (*Qo‘llarini Qo‘chqorning boshi uzra harakatlantirib.*) Yig‘laysiz... Chunki, juda ezilgansiz... Yuragingizga qil sig‘maydi... Ich-ichingizdan bir nima toshib kelyapti... Hech kimning rahmi kelmaydi, birov dardingizga sherik ham bo‘lmaydi... O‘z yog‘ingizga o‘zingiz qovrilib yashayapsiz... Aft-angoringizga bir qarang, qirqa kirgan qirchillama yigitsiz-u, ko‘rgan odam sizni ellikka kirgan deb o‘ylaydi. Qurib-qaqshab boryapsiz... Esingizni tanibsizki, tinmay mehnat qilasiz, lekin hech biringiz ikki bo‘lmaydi. Ro‘zg‘or, bola-chaqa tashvishi deysiz, afsuski, bu tashvishlarning cheki yo‘q. Ertalabdan kechgacha chumoliday g‘imir-g‘imir qilasiz-u, rohatini ko‘rmaysiz. Kiyib olgan kiyimingizga qarang, yengil sanoat yetishtirayotgan hamma brak mahsulot siz va sizga o‘xshaganlarga nasib qiladi. Bu nima? Shu issiqda kim neylon ko‘ylak kiyadi?

**Qo‘chqor:** — Magazinga kelgan ekan, arzongina deb...

**Alomat:** — O‘zingizga bir tashqaridan qarang, qaysi zamonda yashayapsiz, o‘zi? Kimga o‘xshaysiz? (*Eski ko‘rpachalarni ko‘rsatib.*) “Paxtakorman” deb ko‘kragingizga urasiz-u, ko‘rpangizga paxta topolmaysiz! Oyog‘ingizga ilib olgan kalishingiz qayerdan chiqqan? Yangiyo‘ldanmi, Toshkentdanmi?

**Qo‘chqor:** — (*Oyog‘ini yig‘ishtirib.*) Kalishmas, patinka...

**Alomat:** — Bu dunyoga kelib, nima ko‘rdingiz, Qo‘chqor aka? “Ikki marta Toshkentga borganman” deb maqtanasiz, odamlar “Oq dengiz-u Qora dengiz” qilib yurishipti! “Ha, endi ular boshqacha odamlarda” deysiz. Qanaqa boshqacha? Nimasi boshqacha? Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga havas ham qilmay qo‘ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib charchagansiz, holdan toygansiz!



**Qo'chqor:** — Nima qipti, el qatori yashayapmiz...

**Alomat:** — Shunday deb o'zingizni ovutasiz. G'urur, qadr-qimmattingiz-chi? Mundoq o'ylab ko'ring, biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Yo'q, axir! To'y-ma'rakalarda poygakda o'tirasiz. "Ulug'lar"ga tayyorlangan dasturxonga yaqinlasholmaysiz, iloji boricha o'sha tomonga qaramaslikka tirishasiz. Chunki "mehnatkash" degan mansab bilan to'rga chiqolmasligingizni yaxshi bilasiz! Shlyapa kiyib, galstuk taqqan ketmondasta ham sizni haqoratlashi, tahqirlashi mumkin! Alam qilmaydimi?

**Qo'chqor:** — Ha, endi, rahbar bo'lgandan keyin koyiydi-da...

**Alomat:** — Bayram kunlari rayondagi namoyishdan bayroq-cha ko'tarib o'tganingizga xursand bo'lib yuraverasiz. Majlislarda qo'l ko'tarish-u, chapak chalishni bilasiz, boshqa baloni ham bilmaysiz! Ko'pincha o'sha majlisda nima hal bo'layotganini tushunmaysiz!

**Qo'chqor:** — (*Ta'sirlanib.*) Gapingiz noto'g'ri, Alomatxon. "Hurmat taxta" sida suratimiz turipti...

**Alomat:** — Endi bor umidingiz bolalaringizdan. Ularni o'qitib, "katta odam" qilmoqchisiz. Lekin ularingizdan "katta odam" chiqmaydi. Daladan beri kelmaydigan, chalasavod bolalardan nimaniyam kutib bo'lardi? Buni bilasiz. Yana "ko'pga kelgan to'y", — deb yuraverasiz. Axir umr o'tib ketayapti-ku, Qo'chqor aka!

Qo'chqor. (*Ko'ngli to'lib.*) Baribir yig'lamayman... Yaxshi yashayapmiz, bildingizmi!..

**Alomat:** — Yig'laysiz... Ana, ko'nglingiz to'lib turibdi... Labingizni tishlamang, Qo'chqor aka, foydasi yo'q. Axir, yosh ko'zdan chiqadi, og'izdan emas...

**Qo'chqor:** — (*Yig'lagudek bo'lib.*) Birov sizga hayotidan noli-yaptimi?

**Alomat:** — Hamma gap shunda-da, nolimaysiz! Ko'nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan — og'riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku, qo'lingizdan kelmas, hech qursa ingrab qo'yishga ham qodir emasmisiz, Qo'chqor aka?! Qalbingizning unutilib ketgan, o'zingiz ham bilmaydigan burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo'rqasiz, uni sezmaslikka olasiz! To'g'ri, qadr-qimmattingiz oshkora haqoratlanganda o'sha miltillayotgan cho'g' alanga olganday bo'ladi



va siz uni aroq bilan o'chirishga urinasiz. Dunyoga shirakayf ko'zlar bilan qarab, taskin topasiz, lekin ertasi kuni kayfingiz tarqab, dunyo yana asl holiga qaytadi! Shunda yig'lamoqdan o'zga chorangiz qolmaydi... Keyin o'ksib-o'ksib yig'laysiz...

**Qo'chqor:** — (*Ko'zlarida yosh o'ynab.*) Yolg'on!.. Hech qachon yig'lamaganman!..

**Alomat:** — Yig'lagansiz. Faqat, ko'zingizni nariji tomoni bilan yig'lagansiz. Ko'z yoshlaringiz tashqariga emas, ichkariga oqqan. Mana, mening ichim to'la temir-tersak, sizning vujudingiz esa faqat ko'z yoshidan iborat. Lim-lim yosh...

**Qo'chqor:** — (*Baralla yig'laganicha oyoq ostidagi yashikni zarb bilan tepib.*) E, padariga la'nat hammasining!!!

**Alomat:** — (*Gipnozni to'xtatib.*) Nega unaqa qilasiz, Qo'chqor aka? Aytdim-ku, gaplarimning hammasi yolg'on deb. Bu gaplarga ishonish uchun juda go'l, kaltafahm bo'lish kerak. Nahotki, siz shunaqa odam bo'lsangiz?

**Qo'chqor:** — E, yolg'oningizning ham padariga la'nat! (*Yosh bolaga o'xshash g'ingshib yig'laydi. Alomatning yelkasida-gi qizil mikrosxemani oladi-da, qo'shni hovli tomonga otib yuboradi.*) Bozortoy!.. Ho', Bozortoy! Bir qarab yubor, og'ayni, juda kerak bo'p qolding!.. Bozortoy, jon do'stim, bir qaragin, ikki og'izgina gapim bor! Senga aytmasam, kimga aytaman, Bozortoy!.. Bozortoy, qadrdonim!..

**Sharofat:** — (*Devor osha mo'ralab.*) Bozorvoy akam ikki qopgina baqlajon olib, bozorga ketuvdilar. Nima edi?

**Qo'chqor:** — (*O'sha ko'yи yig'lab.*) Zerikib ketdim... Kartasini olib chiqsa, bir-ikki qo'l "durrak" o'ynardik...

**Sharofat:** — Ha-a... Mayli, kelsalar, aytib qo'yaman.

(*Qo'chqor hamon g'ingshib yig'laydi, shu ko'yи yig'laganicha Alomatga boshqa mikrosxema o'rnatadi.*)

**Alomat:** — (*Kuylab*) "Yana o'ynaylik, yana kuylaylik, iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik". (*To'xtovsiz aytaveradi.*)

(*Qo'chqor ancha vaqt hovlida bemaqsad sang'ib yuradi. Astasekin, o'zi ham sezmagan holda, uning yig'isi Alomatning "Davron suraylik" ashulasi bilan uyg'unlashib ketadi.*)

## Parda



## Savol va topshiriqlar:

1. Qo'chqorning Olimjonga aytgan: "**Bir qarasang, qo'y larga qarab "ko'p tug'" deydi, bir qarasang, o'zbekka qarab "kam tug'" deydi,**" — gapi zamiridagi tagma'noga diqqat qarating. Qo'y bilan o'zbek timsollari yonma-yon keltirilayotganini tushuntirishga urining.
2. Komediya qahramonining Olimtoyga qarata: "**Xotinlarning qorniga osilguncha paxta teradigan mashinani to'g'rila**", — degan noroziligiga munosabat bildiring.
3. Qo'chqorning: "**Iye, unda chindan ham odamga o'xshar ekan. Mana, biz ham "paxta terimiga" degan gapni eshitishimiz bilan hamma ishimizni yig'ishtirib qo'yib, dalaga chiqib ketamiz. Bolalarimiz o'qishini tashlaydi, xotinlarimiz emizikli bolasini...**" degan so'zlarini hayot haqiqatiga muvofiqligi jihatidan izohlang?
4. Olimjonning robotni maqtab: "**U faqat ishlaydi! Ishlayveradi, ishlayveradi, ishlayveradi!**" deganida Qo'chqor: "**Biz ham ishlayveramiz...**", deyishida qanday yashirin ma'no bor deb o'ylaysiz?
5. Qo'chqorning Alomat bilan dastlab suhbatlashgandagi: "**Ha endi, gap-da...**" tarzidagi javobi o'zbek ruhiyatiga xos qanday jihatlarni aks ettirishini aytинг.
6. Qo'chqor tilidan asar voqealari mobaynida bir necha bor ishlatilgan "Rakatopsin" so'zining ma'nosini izohlang.
7. Asarda Qo'chqor tilidan aytilan: "**Iye, o'chib qopti, deganing nimasi?.. Men shuncha gapni kimga gapirdim bo'imasam? Butun o'zbekning dardini dasturxon qilib o'tiribman. Doim shu, bizga o'xshagan odam gapirsa, yo hech kim eshitmaydi, yo eshitadigani temir chiqadi...**" degan noroziligi qanday ma'noga ega?
8. Alomat bilan nikohdan o'tish borasidagi taklifni Qo'chqor nega bu qadar xijolatlik bilan aytди deb o'ylaysiz?
9. Alomat obrazi sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning o'ziga xos jihatlarini topishga urinib ko'ring. Dramaturg qishloqdagi haqiqiy holatni aks ettirishda "temir xotin" obrazidan qanday foydalandi?
10. Qo'chqorning: "**Qumri bilan desangiz, jim o'tirib ham gaplashaverardik. Ichimizda**", degan gapini qanday tushunish mumkin? Bu holni izohlang.

11. Qo'chqorning Alomatga qarata aytgan: “***Qumrining qo'llari qadoq bosib, yorilib ketgan bo'lsayam, bir nimasi bor edi-da... O'sha nima ekan-a? Bo'imasam, barmoqlarini ko'sak tilib, g'adir-budur qilib tashlagan. Qo'lidan doim kirsovun aralash tappi hidi kelib turadi. Lekin nimasidir bor edi...***” iqrоридаги “нимадир”ни топинг-чи?
12. Nega Qo'chqor Alomatdan “***...siz yig'lolasizmi***”, деб со'ради? Айолнинг yig'lolmasligи nimадан dalолат berади?
13. Qo'chqorning Alomatga qarata “***Yo'g'-e, endi yig'lashni ham qog'ozga qarab yig'lasak, uyat bo'lar?***” so'zlари tagida qanday ma'no yotganligini anglating.
14. Alomatning Qo'chqorga qarata: “***Shu darajaga yetgansizki, bora-bora undaylarga havas ham qilmay qo'ygansiz! Havas qilaverib, orzu qilaverib, charchagansiz, holdan toygansiz!***”, — degan so'zlари zamirидаги ma'noni топинг.
15. Asardagi: “***G'urur, qadr-qimmattingiz-chi? Mundoq o'ylab ko'ring, biron tirik jon siz bilan hisoblashadimi? Yo'q, axir! To'y-ma'raka-larda poygakda o'tirasiz***” singari achchiq gaplar faqat Qo'chqorga tegishli деб o'ylaysizmi?

## BESHINCHI SAHNA

**(Uchinchi kun. Ertalab. Qo'chqor yana ustunga bog'lab tashlangan. Hovlida boshqa hech kim yo'q. U o'ziga kelib, atrofga razm soladi. Nega bu ahvolda turganini fahmlaguncha ancha vaqt o'tadi.)**

**Qo'chqor:** — (Qiynalib.) Voy, jоним-ey... Кеча yana bo'ptida, padariga la'nat!.. (Chaqirib.) Alomat! Alomat, deyapman! (Xo'rлиgi kelib.) Buyam bog'lab tashlapti... Bu xotin zotining hammasi bir go'r ekan. Men ahmoq, bu robot-ku, odam emas-ku, esi bordir, деб o'ylabman! (Baqirib.) Alomat! Kimga aytyapman, buyoqqa qara! Voy-ey, ichim yonib ketyapti... Qumri hech bo'lмагanda suv-puv berib turardi... E-e, kecha terim boshlangan-ku, dalaga ketgan... (Chiranib ko'rib.) Voy-voy-voy, bu Qumridan ham qattiq bog'labdi...

*(Eshikdan og'ir sumkani sudraganicha Turobjon keladi.)*

**Turobjon:** — (Sumkani tashlab, yugurib keladi.) Dada! Biz yana qaytib ko'chib kelyapmiz!



**Qo‘chqor:** — O‘g‘iltoy!.. Keldingmi?.. Sog‘intirib qo‘yding-ku, o‘g‘iltoy!

**Turobjon:** — Siz nega bormadingiz, dada? Kutaverdik, kuta-verdik...

**Qo‘chqor:** — Kim? Menmi? (*Tepaga iztirobli qarab qo‘yib.*) Yelkamni bosib turgan yuk og‘irlik qildi-da, o‘g‘iltoy!

(*Tugun ko‘tarib olgan Qumri hovliga kirishi bilan erini ko‘rib, qo‘rqib ketadi.*)

**Qumri:** — (*Yugurib kelib.*) Voy, sho‘rim... Voy, o‘lib qo‘ya qolay!.. Haliyam bog‘liq turibsizmi, dadasi?

**Qo‘chqor:** — Turibmiz — biz bir so‘zli odammiz.

**Qumri:** — (*Shosha-pisha arqonni yecha boshlaydi.*) Odamlardayam insof qomabdi, o‘lib qoladiyam deyishmaydi!.. (*Yig‘lamsirab.*) Bunaqaligini bilganimda o‘zim yechib ketardim. Voy, sho‘rginam qursin-a! Belingiz ham qotib qolgandir, dadasi!

**Qo‘chqor:** — Qotmay-chi! Uch kundan beri Iso payg‘ambarga o‘xshab turibman!

**Qumri:** — Qishloqning oqsoqollari kap-katta odamlar-ku, deb men esini yegan, o‘shalarga ishonibman-da! Infosizlar!.. (*Erining belidan olib.*) Keling, yelkamdan ushlab oling... (*Suyab karavotga o‘tqizadi.*) Qo‘rqtib qo‘yay, deb bir-ikki kunga ketuvdim-da, dadasi, bunaqa bo‘lishini kim bilibdi, deysiz...

**Qo‘chqor:** — Bolalaring qani?

**Qumri:** — Maktabda. Chiqib to‘g‘ri shu yoqqa kelishadi. Turobingiz ko‘chaga chiqib olib, faqat sizni kutadi. Qolganlariyam “dadam-chi dadam” deyverishib odamni qon qilib yuborishdi. Ularga qarab turib, jahl qilmay men o‘lay, dedim-u, yugurib kelaverdim. Uch kun — ming kun bo‘pketdi... (*Yig‘laydi.*)

**Qo‘chqor:** — (*Xotiniga g‘alati sinchkovlik bilan tikilib.*) Ayol kishining har zamonda yig‘lab turgani yaxshi... Menga qara-chi.

**Qumri:** — Ha?

**Qo‘chqor:** — Ko‘zlaring nimadan yasalgan, Qumri?

**Qumri:** — Voy, u nima deganingiz?

**Qo‘chqor:** — Dalaga ovqat olib borganingda meni qanaqa qilib toparding?



**Qumri:** — (Yelka qisib.) Bilmasam... (Erining qarshisiga cho'kib.) Biron nima bo'ldimi, dadasi?

**Qo'chqor:** — Bo'ldi-da, Qumri, bo'ldi... (Xotinining qo'llarini olib, birpas tikilib turadi, so'ng yuziga bosib ko'zlarini yumadi.)

**Qumri:** — Voy, nima qilganingiz bu, Qo'chqor aka, boladan uyalsangiz-chi... Uch kun o'tib ham kayfingiz tarqamadimi? Turobjon, bor bolam, ko'chaga chiqib qara-chi, akalaring kelayaptimikan?

**Turobjon:** — Xo'p. (Yugurib chiqib ketadi.)

**Qumri:** — Nima bo'ldi o'zi, dadasi?

**Qo'chqor:** — Shu, Qumri, o'qigan yaxshi ekan-da, mana, masalan, men ko'p o'qiyman.

**Qumri:** — (Kulimsirab.) Rostan-a? Qachondan beri?

**Qo'chqor:** — Bilasanmi, dunyoda tirik jon borki, o'zidan elektromagnit to'lqinlari tarqatadi. Odam ham tarqatadi. Sen bilan men ham. Bola-chaqamiz ham.

**Qumri:** — (Jilmayib.) Xo'sh, keyin-chi?

**Qo'chqor:** — Nima keyin? Tarqatadi, tamom.

**Qumri:** — Ha, ko'p o'qibsiz. Yaxshi ekan, qisqagina.

**Qo'chqor:** — Elektromagnit to'lqinlarini-ku tarqatyapmiz, lekin uni qabul qiladigan boshqa apparat ham bo'lishi kerak, Qumri. Bo'limasa nima foydasi bor, tarqatsak tarqatib yotaveramiz-da. O'sha apparat... Nomi nima edi?.. Haligi, kattakon... Olimtoy bir balo devdi-ya... Lokat... Lokator. Lokator! Ana o'sha bo'lishi kerak! Mana, masalan, idoraning tepasida nima bor?

**Qumri:** — Kolxozning idorasini aftyapsizmi? Yovvoyi kaptarlar bor, gala-gala bo'lib uchib yurishipti.

**Qo'chqor:** — Bayroq bor! O'qimagan. Ana o'sha bayroqning yoniga bitta lokator ham o'rnatish kerak. Bo'limasa, o'zing o'ylagin, men elektromagnit to'lqinlari tarqatyapman... qirq yildan beri. Sen elektromagnit to'lqinlari tarqatayapsan... tug'ilganingdan beri. Eshmat tarqatyapti, Abdurayim, Mamarayim tarqatyapti — qabul qiladigan apparat yo'q! Shuning uchun, Qumri, har bir idoraning tepasida lokator bo'lishi kerak. Bitta bayroq, bitta lokator! Bitta bayroq, bitta lokator. Hozir-chi... Faqat bitta bayroqning o'zi turipti... E-e, dunyo ko'rgan odammiz-da, Qumri, bilamiz. Ikki marta o'sha Toshkentinggayam borganman, kerak bo'lsa!



**Qumri:** — Xo‘p, siz aytganday bo‘ldi deylik, keyin-chi?

**Qo‘chqor:** — Keyin... Keyin hech adashmay ishlayotgan joying-ga ovqat oborib berishadi. Undan-bundan yo‘l so‘rab o‘tirmaydi. Eshmatvoy qaysi kartada ishlayapti, deb... O‘qimaysan-da, Qumri, o‘qimaysan. O‘qishda gap ko‘p. Men o‘qiyman...

**Qumri:** — (*Soxta jiddiylik bilan.*) Rost, hech qo‘lingizdan kitob tushmaydi. Voy, siz bilan gap sotib o‘tirishimni qarang. Shuncha kundan beri tuz totganingiz yo‘q... Hozir bir narsa qivoraman. (*Oshxonaga kirib ketadi.*)

(*Hovliqqancha Olimjon yugurib kiradi, rangi o‘chgan, hovlini gir aylanadi, dovdirab kimnidir qidiradi.*)

**Olimjon:** — Qo‘chqor aka!.. Tamom, tamom!.. Hammasi tugadi!

**Qo‘chqor:** — Nima tugadi, Olimtoy?

**Olimjon:** — Sho‘rim qurib qoldi, Qo‘chqor aka, sho‘rim qurib qoldi!..

**Qo‘chqor:** — Mundoq tushuntiribroq gapir, Olimtoy, unaqa ko‘kragingga mushtlaganing bilan biz tushunavermaymiz, bir omi odam bo‘lsak.

**Olimjon:** — (*Qo‘chqorning yelkasiga bosh qo‘yib.*) Qo‘chqor aka, Alomatdan ajrab qoldik!..

**Qo‘chqor:** — Yopiray!.. (Sal o‘ziga kelib.) Nega?.. Qachon?..

**Olimjon:** — Hozir... Borsam, kartaning boshida tutab yotibti. Kuyib ketipti!..

**Qo‘chqor:** — (*Yuziga fotiha tortib.*) Voy, bechora-yey... Umri qisqa ekan.

**Olimjon:** — Yetti yillik mehnatim, yetti yillik umrim barbod bo‘ldi, havoga uchdi!..

**Qo‘chqor:** — Qo‘y, endi, bo‘lar ish bo‘pti. Hammaning boshida bor savdo. Qo‘limizdan nimayam kelardi (*Birozdan so‘ng.*) Endi nima qilasan, Olimtoy?

**Olimjon:** — (*Piqillaganicha.*) Nima qillardim, sog‘ qolgan qismini olib, zapchast qilaman...

**Qo‘chqor:** — (*Turib.*) Bo‘lmasa men odamlarga xabar qilay.

**Olimjon:** — Nimasini xabar qilasiz?

**Qo‘chqor:** — Ha, endi, janaza degani ko‘pchilik bilan-da...



**Olimjon:** — (Portlab.) Vey, siz sal jinniroqmisiz-a, jinniroqmisiz?! Hali nikoh o'qitasiz, hali janaza deysiz!

**Qo'chqor:** — Endi, tirik odamday bo'lib qoluvdi-da...

**Olimjon:** — Alomatning nimadan o'lganini bilasizmi?

**Qo'chqor:** — Yo'q.

**Olimjon:** — Zo'riqib o'ldi! Uni siz o'ldirdingiz!

**Qo'chqor:** — (Yoga ushlab.) Yopiray!..

**Olimjon:** — Ha, siz o'ldirdingiz! Kennoyim ketib, juda to'g'ri qilganlar, sizning changalingizga tushgan har qanday ayol ham, albatta, nobud bo'ladi! Siz uchiga chiqqan feodalsiz!

**Qo'chqor:** — Nima-dal?

**Olimjon:** — Feodal! Mana shu uch kun ichida Alomat sho'rlikning boshiga nimalar yog'ilmadil! Nima azoblarni ko'rmadi! Beayov ekspluatatsiya qildingiz!

**Qo'chqor:** — Nima-platatsiya?

**Olimjon:** — Ekspluatatsiya! Ertalabdan kechgacha tindirmadingiz-a! Bir minut dam olgani yo'q, bechora! Yuv, tozala, tik, yama, supur! Bir chaqirim naridan suv olib kelib, kir yuvadi! Manavi tezak yoqiladigan la'nati o'chog'ingizda ovqat qiladi! Yeb to'ymaydigan ochofat mollaringiz bor: ertalabdan kechgacha o't ber, suv ber, yem ber! Xamir qoradi, sigir sog'adi, kuvi pishadi! E, bu uyingizning ishi tuyaydimi, o'zi! Bundan tashqari, dalaga chiqadi! Ming chanoqqa ming egilib, paxta teradi! Qirq-ellik kilo narsani ko'tarib, xirmonga olib bora-di! Shunaqayam qiyaydimi, Qo'chqor aka?! Bu do'zax azoblariga qanday dosh bersin, qanday chidasin?! (Mehr bilan.) Axir u temir-ku, Qo'chqor aka, temir. Uni ehtirot qilish kerak, avaylash kerak. U o'zini o'ylamaydi, "qiynalib ketdim" deydigan tili yo'q. Indamas ekan, deb eshakday ishlataveradimi axir! "Paq" etib joni chiqib ketguncha eza-verish kerakmi?! Yo'q, yuragi tosh odamsiz, Qo'chqor aka!

**Qo'chqor:** — Hech kim mehnatdan o'lmaydi, Olimtoy...

**Olimjon:** — E, ana o'ldi-ku! Yana nima kerak sizga! Shundayam ko'zingiz ochilmadimi, qanaqa Xudo qarg'agan odamsiz?! Siz, Qo'chqor aka, inkvizitorsiz!

**Qo'chqor:** — Nima-zitor?

**Olimjon:** — Inkvizitor!



**Qo‘chqor:** — Yo‘g‘-e, Olimtoy, inkvizitormas, mexanizator, de...

**Olimjon:** — Hamma zamonlardayam inson aql-u zakovatining mahsuli — buyuk kashfiyotlar sizga o‘xshagan johillar tufayli barbob bo‘lgan! Siz taraqqiyotning dushmanisiz! (*Butun dunyo, jahondan norozi bo‘lib ketadi.*)

**(Sukut. Qo‘chqor nima qilarini bilmay, o‘rtada turib qoladi. Keyin asta-sekin yurib, sahna oldiga keladi.)**

**Qo‘chqor:** — (*Tomoshabin uzra uzoq-uzoqlarga tikilganicha.*) Tavba... Alomatni men o‘ldirgan emishman, unga biron-bir ortiqcha yumush buyurganim yo‘q, o‘lib ketay agar. Xo‘s, nima ish qilipti! Hali qatorlashtirib bola tuqqani yo‘q, kechalari uyqudan qolib, beshik quchoqlab chiqqani yo‘q, har bir farzandi bilan ming bor kasal bo‘lib, ming bor sog‘aygani ham yo‘q. (*Hayron.*) Bitta o‘zbek ayoli nima ish qilsa, shuning yarmini qildi, xolos...

*(Kattakon tog‘orani arang ko‘tarib Qumri chiqadi.)*


**Qumri:** — G‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir qilib kim bilan gaplashyapsiz, dadasi?

**Qo‘chqor:** — (*Tomoshabin tomonga qaraganicha, o‘ta jiddiy.*) Menmi? Xudo bilan gaplashyapman.

**Qumri:** — (*Erining bu gapini hazil tushunib.*) Rostdan-a? Xo‘s, Xudo sizga nima dedi?

**Qo‘chqor:** — (*Tomog‘iga allanarsa kelib tiqilganday, yutinib olib.*) Ey, esi yo‘q bandam, dedi, shukronalar keltirki, xotiningni odam qilib yaratganman, yo‘qsa u allaqachon zapchast bo‘lib ketardi, dedi...

*(Qumri bu gapga kulib qo‘ya qoladi, so‘ng odatdagiday uy yumushlariga sho‘ng‘ib ketadi. U to parda yopilgunga qadar u-bu ish bilan band bo‘ladi. Qo‘chqor xayolga botganicha o‘sha ko‘yi tomoshabinga tikilib turaveradi. Qayerdandir, boshqa hovlidan bo‘lsa kerak, bizga tanish o‘sha baxt-u iqbol haqidagi qo‘shiq eshitiladi: “Yana o‘ynaylik, yana kuylaylik, iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik. Iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik...”)*



### Savol va topshiriqlar:

1. Qumri obrazini tavsiflab bering. Asar matnidan uning odam, ayol, xotin va ona sifatidagi xususiyatlari ifodasini toping.

2. Qo'chqor yuziga Qumrining qo'llarini bosganda ayol tushgan holat sababini izohlang.
3. Olimjonning: "*Axir u temir-ku, Qo'chqor aka, temir. Uni ehtiyyot qilish kerak, avaylash kerak. U o'zini o'ylamaydi, "qiynalib ketdim" deydigan tili yo'q. Indamas ekan, deb eshakday ish-lataveradimi axir!*" shaklidagi noroziligiga diqqat qiling. Alomat bilan o'zbek ayollari hayotini solishtiring.
4. Alomatning halokati sabablari borasida o'ylayotgan Qo'chqorning: "*Xo'sh, nima ish qilipti! Hali qatorlashtirib bola tuqqani yo'q, kechalari uyqudan qolib, beshik quchoqlab chiqqani yo'q, har bir farzandi bilan ming bor kasal bo'lib, ming bor sog'aygani ham yo'q. Bitta o'zbek ayoli nima ish qilsa, shuning yarmini qildi, xolos...*" tarzidagi mulohazasiga e'tibor qiling. Qahramoning shu fikrlariga asoslanib, onangiz, opangiz, yaqinlaringiz bo'lmish o'zbek ayollari hayoti haqida fikr qiling.
5. Asarning: "*Yana o'ynaylik, yana kuylaylik, iqbolimiz porloq ekan, davron suraylik*" qo'shig'i bilan yakunlanishini qanday izohlaysiz? O'z ahvolini taftish va tahlil qilmaslik, o'zining aslida qanday yashayotganini bilmaslikni fazilat deb bilasizmi yoki ayb?
6. Komediyada muallifning ijodiy topildig'i hisoblasa bo'ladigan qanday tasvirlarni ko'rsata olasiz?
7. Muallifning tildan foydalanish mahorati haqida fikr bildiring. Qo'chqor tilini Olimjonning so'zlash yo'sini bilan, Alomatning nutqini Qumrining so'zlarini bilan solishtiring.

### “TEMIR XOTIN” KOMEDIYASI HAQIDA

“Temir xotin” komediyası badiiy saviyasi va estetik qimmati jihatidan nafaqat Sharof Boshbekov ijodi, balki o'zbek dramaturgiyida betakror hodisa hisoblanadi. Bu pyesa oldin respublika teatr festivala bosh sovringa loyiq topildi. So'ngra O'rta Osiyo respublikaları orasida o'tkazilgan teatr festivalining mutlaq g'olibi bo'ldi. Ushbu asar asosida badiiy film, operetta ishlandi. Asarda muallifning xalq hayotini puxta bilishi, millatga xos ruhiy belgilarni o'ta nozik ilg'ashi yorqin namoyon bo'lgan. “Temir xotin” asari chinakam iste'dod istagan hayot hodisasidan tengsiz badiiy asar yarata olishi mumkinligini ko'rsatdi.



O'zbek adabiyotida bu komediya singari xalq hayotini butun murakkabligi bilan aks ettirgan boshqa bir asarni ko'rsatish qiyin. Millat tirikligining fojiali manzarasini kulgili yo'sinda ko'rsatishi jihatidan esa pyesa tengsizdir.

Muallif asar boshidayoq Qo'chqorning ro'zg'oridagi barcha narsada nimadir yetishmasligini aks ettiradi. Tasvirning shundayligi sababini anglagan kishigina komediyaning hayotiy asosi va badiiy o'ziga xosligini tushuna oladi. Qo'chqorning uyidagi derazaning bir ko'zi yo'qligi, romlardan biri bo'yalgan bo'lса, boshqasi bo'yalmagani, so'rining bir oyog'i yetishmasligi, choynakning jo'mragi singani, piyolaning labi uchgani kabi kemtikliklar tasviri qahramonning g'arib turmush tarziga ko'nikkan va boshqacha yashashni xayoliga ham keltirmaydigan odam ekanini namoyish etishga xizmat qilgan.

Qo'chqorning ayoliga qilayotgan muomala yo'sini tasviri o'zbek oilasidagi o'zaro munosabatlarni hayotiy aks ettirishning go'zal namunasidir. Qo'chqor ko'pchilik o'zbek erkaklari singari ayoliga tepadan kelib muomala qiladi. Ayni shu jihat bu timsolning milliyligi va hayotiyligini ta'minlagan. Qo'chqorning sodda, dovdir, ayni vaqtida, topqir, chapani, so'zamol, hazilkash va maqtanishga moyil odamligi uni o'quvchiga yoqimliroq ko'rsatadi. Ichib to'polon qilgani uchun bog'lab tashlanganini bilgan Qo'chqorning ayoli Qumriga: "Bo'pti, kechirdim, qo'lni yech", — degani ham, uning o'sha paytdagi holatiga mutlaqo mos kelmasligi ham qahramon shaxsiyatiga xos jihatlarni ko'rsatishi bilan e'tiborni tortadi. O'zi tushgan har qanday holatga ko'nikaveradigan, ayni vaqtida, o'zini vaziyatning egasi sanaydigan Qo'chqor siyراتи shu tarzda namoyon bo'ladi. Komediyadagi: "Qo'chqor ekan deb bog'lab tashlayveradimi?" tarzidagi e'tirozida qahramonning gapga chechanligi ko'rindi.

O'zbekcha o'ylash, milliy ruhni namoyon etish asar qahramonlarining har bir gapi va xatti-harakatida ko'zga tashlanadi. Chunonchi, Qumrining: "Aytadiganingizni aytdingiz...", — degan birgina gapining tagida ulkan ko'ngilsizlik yotganligini payqash mumkin. Ehtimol, qahramon mastlik bilan ayolini "ket" degandir. Ma'lumki, o'zbek oilasida ayolni "ket" deyish – taloq qilishga yaqin bir holat. Shu bois bobolar bu so'zni qo'llashdan saqlanganlar. Fikrini zo'riqtirgan o'quvchi



Qo'chqorning qiliqlariga shu vaqtgacha chidab kelgan Qumrini onasini kiga ketishga majbur qilgan sabab nimaligini taxmin qilishi mumkin. Asarda Qumri tilidan uning aynan onasini kiga ketayotgani ta'kidlanshi ham beziz emas. Nega "otasiniki"ga emas, "onasiniki"ga? Chunki turmushga chiqqan o'zbek qizi uchun otaning oldiga qaytib borish – juda ham og'ir. Ortiga qaytmaydigan holdagina ernikidan otanikiga ketiladi. Ota qizining qaytib kelishini og'ir qabul qiladi. Isnod, nomus deb biladi. Shu bois otasi bor qizlarning kuyovinikidan qaytib kelishi unchalar oson emas. Ona esa haq-nohaqligidan qat'i nazar, hamisha farzandi yonini oladi, uni tushunadi va kechiradi. Shu bois onanining oldiga ko'z yosh to'kib borish osonroq.

Asarda o'zbek tilining ma'no jilvalari to'la namoyon bo'lgan. Qo'chqorning nutqidagi o'ziga xoslik timsolning ichki dunyosini anglatishga xizmat qiladi. Chunonchi, Qo'chqor tilidan ko'p ishlatalilgan "rakatopsin" so'zi, uning sal narsaga lovullab ketaverishi tasviri o'quvchida qahramon shaxsi haqida aniq tasavvur uyg'otadi.

Qumri timsolida o'zbek ayoliga xos jihatlar ulkan mahorat bilan aks ettirilgan. Bu obrazda ayollarimizdag'i eng yuksak insoniy fazilatlar ustalik bilan tasvirlangan. Komediya nihoyasiga yaqin Qo'chqor Qumrining qo'llarini yuziga bosganda ayol qanday holatga tushganligi ifodasi milliy ruhni aks ettirish borasida ham, o'quvchida o'zbek ayolini anglash tuyg'usini shakllantirish bobida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Komediyada o'zbek ayoli ruhiyati o'zining cheksiz ko'lami va yuksak e兹guliklari bilan yorqin aks ettirilgan. O'zbek ayolining qudrati ojizligida, o'z kuch-u imkoniyatini namoyish qilavermasligi, hatto, buni bilmasligida ekani mislsiz bir mahorat bilan ko'rsatiladi. Qo'chqor ayliga "ko'p o'qishi" bilan maqtanganda Qumri erining aslida o'qimishlilik darajasi qandayligini juda yaxshi bilgani holda uni fosh etmaydi, uyaltirmaydi. Erni yolg'onchi qilishga o'zbek ayolining ichki odobi yo'l qo'ymasligini muallif sezdirmay ko'rsatgan. Bu holat tasviri asarni tushunishda ham, qahramonlar tabiatini izohlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## JAHON ADABIYOTI

**UILYAM SHEKSPIR**  
(1564—1616)



Ingliz shoiri, dramaturgi, aktyori Uilyam Shekspir 1564- yilning 23- aprelida Yorkshir grafligidagi Stratford shahrida dunyoga keldi. Otasi — Jon Shekspir shaharning taniqli kishilaridan bo'lib, shahar boshqaruvining turli lavozimlarida ishlagan edi. Onasi — Meri kambag'allashgan dvoryan Robert Ardenning qizi edi. O'smir Uilyam Shekspir Stratforddagи shaharliklarning o'g'llari bepul tahsil ko'radigan hamda, asosan, til va adabiyot o'rgatiladigan maktabda ta'lim ol-gan. Bo'lajak adib cho'qintirilgani haqida cherkov daftaridagi qayddan so'ng uning hayoti haqida deyarli hech qanday ma'lumot uchramaydi. Cherkov daftarida uning 1582- yilning 27- noyabrida stratfordlik Enn Xatauey ismli qizga uylangani hamda to'ng'ich farzandlari Syuzen 1583- yilning 26- mayida, egizaklari: Hamlet va Judit 1585- yilning 2- fevralida cho'qintirilgani bitilgan.

Shekspir 1592- yilda Londonga boradi va teatrda aktyorlik qiladi. U 1593- yilga qadar birorta asar e'lon qilgan emas. Shekspir 1593- yilda "Venera va Adonis" deb nomlangan dostonni chop ettirdi. Adabiyotning homiysi bo'lmish yosh gersog Sautgemptona bag'ishlangan bu asar kutilmaganda katta muvaffaqiyat qozondi va ketma-ket sakkiz marta nashr qilindi. 1594- yilda birinchi asariga izma-iz



“Lukresiya” nomli katta dostonni e’lon qildi. Shu yilning 28- dekabrida “Greyz Inn” teatrida Shekspirning “Xatolar komediyasi” asari o’ynaldi. 1595- yilning martida Shekspir yozgan va sahnalashtirgan pyesalari uchun kattagina mablag’ oldi. Teatrda Sautgempton homiyligidagi faoliyat Shekspirga ham shuhrat, ham boylik keltirdi. Bunga otasi Jon Shekspirning bir necha yillik urinishlardan keyin 1596- yilda Geraldik palatadan “jentelman”lik martabasini beradigan gerbni sotib olganligi birinchi dalil bo’lsa, Shekspirning 1597- yilda Stratforddan bog’i bor katta uy olganligi ikkinchi dalildir. Adib London sahnalarini tark etgach, bu uyga ayoli va qizlari bilan (o’g’li 1596- yilda vafot etgandi) ko’chib keladi.

1598- yilda londonlik tanqidchi F. Meres tomonidan chiqarilgan “Aql xazinasi” kitobining “Ingliz shoirlari haqida mulohazalar” qisimida shunday fikr bitilgan: “Plavt va Seneka rimliklar uchun komeдиya va tragediya borasida tengsiz bo’lgani singari Shekspir inglizlar uchun pyesaning har ikki turida ham beqiyosdir”. 1597–1598- yillarda Shekspir dramalari katta shuhrat qozondi. Bu davrgacha uning “Tit Andronik” nomli birgina pyesasi muqovasida muallifning nomi ko’rsatilmagan holda nashr etilgan edi. Aytilgan davrda esa adibning asarlariiga bo’lgan talabni qondirish uchun uning besh pyesasi chop etildi. Tadbirkor noshir Jaggard Shekspir asarlarini nashr etish hisobiga boylik orttirmoqchi bo’ldi. U 1599- yilda turli shoirlarning bitiklaridan iborat to’plamga Shekspirning ham to’rt sonetini kiritib, “Otashin ziyo-ratchi” nomli kitob chiqardi va undagi asarlarni Shekspir qalamiga mansub deb e’lon qildi. Bu Shekspir ijodini qalbakilashtirib, foyda to-pish yo’lidagi birinchi urinish edi.

1598- yilda aka-uka Berbejilar Londonning chetidagi eski teatrni buzib, uning uskunalaridan Temza daryosining janubiy qirg’og’ida “Globus” teatrini tikladilar. Shekspir ham yangi teatrning hissadorlari dan biri, ham o’z ijodiy guruhiga ega aktyor edi. 1608- yilda u katta foyda keltiradigan “Blekfrayerz” teatrining ham hissadorlariidan biriga aylandi. 1603- yilda qirol Yakov Shekspir truppasini o’z himoyati-ga oldi. Guruh a’zolari “Qirol hazratlarining xizmatkorlari” deb atalib, kamerdinerlar<sup>1</sup> singari saroy xodimlari hisoblanishardi. Truppa sa-

<sup>1</sup>kamerdinerlar – uy xizmatchisi.



royda tez-tez tomoshalar ko'rsatib turar, saroy a'yonlari va aslzodalar aktyorlarni yaxshigina siylardilar. Shekspirning moddiy ahvoli yaxshilanib, Londondan ham, Stratforddan ham bir qancha mulk sotib oldi. Shu tariqa mashhur aktyor asta-sekin adabiy ijoddan chetlashdi, teatr dan ham uzoqlashdi va 1612- yilda ota yurtiga butunlay ko'chib keladi.

1616- yilning 23- aprelida buyuk dramaturg, iste'dodli shoir, tengsiz aktyor Shekspir olamdan o'tdi. O'shandan buyon uning qabri ni har yili minglab odamlar ziyorat qilishadi.

Shekspirning ijodiy taqdiri juda g'alati kechgan. Qanchalik mashhur bo'lmasin, hayotlik chog'ida biron ta pyesasi risoladagi day nashr qilinmagan edi. Ularning aksariyati 1623- yilga kelib, adib o'limidan yetti yil o'tgach, dunyo yuzini ko'rdi. Shekspirning aktyorlik faoliyati bo'yicha ham juda kam ma'lumot saqlanib qolgan. Aktyor sifatida ko'proq qirollarning rollarini o'ynaganligi qayd etilgan. "Hamlet"da Arvoh, "Sizga bu yoqadimi?" spektaklida Odam rollarini iじro etgani ba'zi hujjatlar orqali yetib kelgan. Ben Jonsonning "O'ziga yetguncha", "Seyan" pyesalarida Shekspir o'zining so'nggi rollarini o'ynagan. Ehtimol, aynan aktyorlik tajribasi buyuk adibga dramatik asarlarida sahna imkoniyatlarini to'g'ri hisobga olish, obrazlarning tabiatini yorqin namoyon etadigan jihatlarni bexato ko'rish va tasvirlashda qo'l kelgan bo'lishi mumkin.

1592- yildayoq London shahriga kelib, tez orada teatr ahli orasida aktyor va dramaturg sifatida tanilgan Shekspirning ilk pyesalari qachon yaratilgani aniq emas. To'g'ri, zamondoshlari ingliz-fransuz urushi haqida Shekspir tomonidan 1592- yilning martida yozilgan va katta muvaffaqiyat bilan o'ynalgan bir pyesa bo'lganligini qayd etishgan. Lekin keyinchalik bu asarning katta qismi o'zgalar tomonidan yaratilib, Shekspir ularni sahnaga moslab qayta ishlagani aniqlangan. Ijodiy umri mobaynida V. Shekspir o'ttiz olti dramatik asar, 154 sonet va bir necha doston yozgan. Lekin bulardan birortasi ham muallif hayotligida chop etilmagan.

"Qirol Lir", "Romeo va Juletta" (1594–1595), "Hamlet" (1601), "Otello" (1604), "Makbet" (1606) singari tragediyalar, "Yoz kechasida-gi tush", "Venetsiya savdogari", "O'n ikkinchi kecha" kabi komediyalar



to'rt yuz yildan buyon dunyodagi eng dovrqli teatrlar sahnasidan tushmay kelmoqda. Jahon dramaturgiyasining bu yetuk namunalari badiiy mahorat cho'qqilari sanaladi. Shekspir asarlari inson tuyg'ularining murakkab, chigal va qarama-qarshi qirralarini ta'sirchan aks etirishi bilan ajralib turadi.

Inson aqli va tuyg'ularining eng nozik, chigal jihatlari yuksak san'atkorlik bilan tasvirlangan "Hamlet" fojiasi juda mashhur. Bu asar ilk bor XX asrning 30- yillarida Cho'lpon tomonidan o'zbekchaga o'gilgan. O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ushbu tragediyani asliyatdan tilimizga tarjima qilgan. Quyida shu asar bilan tanishamiz.



### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Shekspirning hayot yo'li, oilasi, olgan tarbiyasi, ijoddagi yutuqlariga e'tibor qiling.
2. Shekspir shaxsiyati va uning nomidan taqdim etilayotgan asarlar atrofidagi bahs-mulohazalarga munosabat bildiring.
3. Adibning dramaturgiysi haqida to'xtaling. Ular orasida mualif nomini dunyoga mashhur qilgan asarlarini aniqlang.
4. Shekspir ijodida "Hamlet" fojiasi tutgan o'r'in haqida to'xtaling.

## **HAMLET**

(qisqartirib olindi)

### **Ishtirok etuvchilar:**

**Hamlet** — Avvalgi qirolning o'g'li, hozirgi qirolning jiyani.

**Klavdiy** — Daniya qiroli.

**Horatsio** — Hamletning do'sti.

**Marsell** — Askar.

**Poloniy** — Saroy noziri.

**Laert** — Poloniyning o'g'li.

**Rozenkrans**

**Gildenstern**

Aktyorlar, ikki masxaraboz – go'rkov.

**Gertruda** — Daniya qirolichasi, Hamletning onasi.

**Ofeliya** — Poloniyning qizi.

Hamlet otasining arvohi.



## BIRINCHI PARDA

### IV SAHNA

**Qasr oldidagi maydoncha. Hamlet, Horatsio va Marsell kirishadi.**

**Hamlet:** Soat necha bo'ldi ekan?

**Horatsio:** Sal kam o'n ikki.

**Marsell:** O'n ikkidan oshdi. Boya zang urdi.

**Horatsio:** Qarang, shahzodam!

**(Arvoh kiradi).**

**Hamlet:** Panoh bo'ling bizga, osmon farishtalari!  
Kimsan, ruhi Yazdonmisan yo zilli shayton?  
Jannat nafasimi yoki do'zax hovuri,  
Niyatingda savobmi yo kufrmi pinhon?  
Ne bo'lmasin, larza solding tashrifing bilan,  
Shu sababdan yolvoraman, sendan so'rayman.  
Men so'rayman sendan, aziz padarim Hamlet,  
Hukmdorim, podshohim, javob bergaysan!  
G'aflat aro qolib ketmay. Javob ber menga,  
Nechun zulmat makoningni bundoq tark etib,  
Kafaningni yulib-yulqib otibsan nega?  
Biz jasading qo'yib kelgan o'sha sag'ana  
Tosh jag'larin yirib ming bir mashaqqat ila,  
Nechun ozod qo'ymish seni? Nечун, izoh ber?  
Jonsiz jasad yarog' taqib, nechun musallah<sup>1</sup>?  
Tun qo'ynini asoratga to'ldirib bundoq,  
Oy nurida yoyib haryon qo'rqinch, vahima,  
Nechun bizning tomirlarga larza solursen?  
So'ngsiz muammolar bilan o'rab olursen?  
Nечун?  
Ne sababdan?  
Gapir, farmoning nima?  
**Arvoh Hamletni imlaydi.**

---

<sup>1</sup>Musallah – qurollangan.



**Horatsio:** Birga yur, deb imlayapti, nazarimda u  
Nimanidir yolg'iz sizga aytmoq istaydi, yolg'iz sizga.

**Marsell:** Qarang, qanday nazokat ila  
Sizni da'vat etayotir, yur, deb yiroqqa,  
Ammo bora ko'rmanq.

**Horatsio:** Balli, bormang sira ham.

**Hamlet:** Bu yerda u og'iz ochmas.  
Qo'ying, boraman.

**Horatsio:** Yo'q-yo'q, bormang, shahzodam.

**Hamlet:** Xo'sh, nimadan qo'rqay?  
Hayotimni bir chaqaga ko'raman qimmat.  
Axir, nechuk yetkazolsin ruhimga zahmat.  
Ruhim uning o'zi kabi boqiy emasmi?  
Tag'in imlayapti meni.  
Qo'ying, boraman.

**Horatsio:** Ha, mabodo suv bo'yiga boshlab borsa-chi,  
Yoki dengiz uzra shundoq osilib turgan  
Dahshatli bir qoya toshga – jar yoqasiga,  
Unda mudhish bir falokat ro'y bera qolsa,  
Aqlingizni olib, sizni jununga solsa,  
Nima bo'lur? Bu to'g'rida o'ylab ko'ring-a?  
O'sha cho'ng qoyada turib, qaragan kishi  
Shusiz ham es-hushdan tamom ayrib qolar...

**Hamlet:** Yana imlayapti. Boshla! Boraman!

**Marsell:** To'xtang!

**Hamlet:** Qo'lingni tort!

**Horatsio:** Esingizni yig'ing, shahzodam.

**Hamlet:** Qismatimning ovozidir axir, bu ovoz,  
Menga arslon qudratini baxsh etgani rost.

### ***Arvoх imlaydi.***

Hamon imlar, yo'l bo'shating, menga, janoblar!  
*Ularning qo'lidan yulqinib chiqadi.*

Yo'l to'sganni naq arvoхga aylantiraman!

Qoch, nari tur, dedim!

Qani, boshla, boraman.

### ***Arvoх va Hamlet ketadilar.***

## V SAHNA

**Maydonchaning uzoq bir chekkasi. Arvoх va Hamlet kiradilar.**

**Hamlet:** Hey, qayoqqa boshlayapsan? Boshqa bormayman.

**Arvoх:** Menden ko'zing uzma.

**Hamlet:** Ko'zim senda.

**Arvoх:** Keldi payt

Ki, hademay men o'zimni otishim kerak  
Jahannamning oloviga.

**Hamlet:** Bechora arvoх!

**Arvoх:** Qo'y, achinma menga, lekin aytganlarimni  
Jon qulog'ing bilan tingla...

Hammasini eshit avval...

**Hamlet:** Nima deding?

**Arvoх:** Men otangning arvohidirman,  
Kechalari hayron-sarson kezib yurmoqqa,  
Kunduzlari jahannamda yonmoqqa mahkum.  
Gunohlarim yonib ado bo'limguncha to  
Davom etar bu mazallat, bu qora savdo.  
Zindonimning sirlarini aytta olmayman,  
Ammo kichik bir hikoya so'zlasammi, bas,  
Joning halqumingga kelib, qotar qonlaring,  
Yulduzlar o'z mehvaridan otilgan kabi,  
Ko'zlarining naq xonasidan chiqar shu nafas.  
Soching tikka turib, unda har bitta mo'ying  
Quturgan jayraning o'tkir nayzalariday,  
Tikkayardi, xuddi sachrab otilmoqqa shay.  
...Ammo, eshit, eshitib ol, eshitgil, evoh,  
Sen otangni chindan sevar bo'lsang mabodo...

**Hamlet:** Yo Rabbiy!

**Arvoх:** Shum qotillikning qasosini ol.

**Hamlet:** Qotillikning?

**Arvoх:** Ha, qotillik o'zi – qabohat,

Ammo mash'um qabohatning qabohati bu!

**Hamlet:** So'zla, toki men shu zamon chiqazib qanot,



Tasavvur va tafakkurning tezligi bilan qasos sari uchay.

**Arvoх:**

Shaysan, ko'rib turibman.

Kim bo'larding, agar shunday tug'yon urmasang?

O'lik daryo suvlarida bujmayib o'sgan,

Baqa to'ni, sassiq alaf bo'larding balkim.

Eshit, Hamlet, meni bog'da uxbab yotganda

Ilon chaqib o'ldirdi, deb etishdi e'lon.

Elni amal-taqal qilib aldashdi shundoq,

Ammo, o'sha – meni chaqib o'ldirgan ilon

Tojim kiyib o'ltiribdi.

**Hamlet:**

Amakim!..

**Arvoх:**

Ha, o'sha fosiq, riyokor banda,

Makr bilan xushomadga qobil sharmanda.

...Xullas, turfa nayrang bilan, xushomad bilan

Malikani xiyonatga boshladi bezbet.

Qanday og'ir bir razolat ro'y berdi, Hamlet!

...Chamamda, tong nasimi g'irillab qoldi.

Oshiqaman. O'shanda men bog' ichra tanho

Tushki ibodatdan keyin uxbab yotarkan,

Men tomonga pisib kirmish amaking – qotil,

Qo'llarida la'nati u zahri halohil<sup>1</sup>

Va o'shani quymish mening qulog'imga u,

Bilasanmi, u simobdek yovuz bir og'u,

Qonning kushandas, qonga chovut soladi,

Yuguradi, bir nafasda chirmab oladi.

Sutga sirka solinganday, qoningni shu dam

Uvitadi. Shu baloga yo'liqdim men ham.

Bir nafasda xuddi moxov ochgandek Lazar<sup>2</sup>,

Badanimni bosib ketdi yiring-yaralar.

Ukam qo'li bilan uyqu qo'ynida shu zum,

Mol-u mulkim, malikamdan etildim mahrum,

Osiy umrim cho'rt kesildi tomiridan to,

Na tazarru ayta oldim, na bir alvido.

<sup>1</sup>Zahri halohil — o'tkir, o'ldiruvchi zahar; <sup>2</sup>"Injil"da keltirilgan rivoyatga ko'ra qarg'ish tekkan Lazar bir nafasda moxov bo'lib qolgan.



O, bu dahshat, dahshat, dahshat! Nomus ila or  
Yuragingni yondirmasa, urinma bekor.  
Daniyaning podsholari uxlagan to'shak  
Fisq-u razolatga xizmat etmasin, qo'yma.  
Qodir qasos qanday qoyim bo'lmasin, faqat  
Sen ruhingni musaffo tut, onangga tegma.  
Unga odil hakam, uning loyiq javobi –  
Tangri taolo-yu, yana vijdon azobi.  
Xayr, endi fursat yetdi! Yaltiroq qurtlar  
Tongga peshvoz chiqib, asta so'nayotirlar.  
Alvido, alvido, unutma meni!

***Ketadi.***

**Hamlet:** Ey, osmon! Ey, zamin! Qay bir qiblagoh  
Yana tinglar meni? Balki, qora jahannam?  
Yurak, chiqib ketma, to'xta! Yurak, ber chidam!  
Oyoqlarim bukilmangiz! Tutingiz raso!  
U: "Unutma" — dedi. Sira unutarmanmi?  
Bechora ruh, shu shikasta kallada chindan  
Bir xotira yashar ekan, unutarmanmi?  
Men xotiram ko'zgusidan o'chirgum tamom  
Taassurotlarimning butkul alomatlarin,  
Kitoblardan olgan so'zlar, hikoyatlarim,  
Bolalikdan mushohada lavhiga tushgan  
Tasavvurlarim-u sir-u sinoatlarim,  
Xotiramning butun daftar, butun kitobin  
Olaquroq qilmay, yaksar yozib chiqarman –  
Yolg'iz sening so'zing, sening farmoning bilan,  
Xuddi Tangri qarshisida tikka turganday!

**Horatsio:** (*Sahna ortidan*)

Eh-he-ey, shahzodam, qayoqdasiz?

**Hamlet:** Eh-he-ey, jo'ralar, bu yoqqa!

***Horatsio bilan Marsell kirishadi.***

**Horatsio:** Nima gap, shahzodam!

**Hamlet:** O, koni mo'jiza!

**Horatsio:** Ayting, shahzodam!..

**Hamlet:** Mayli, aytsam ayta qolay: shundoq bo'lishi

Kimning xayoliga kelmish? Ammo bu gaplar  
Oramizda qoladi-ya?

- Horatsio:** Bajon-u dil qabul qilgaymiz.
- Hamlet:** Bo'lgan gapdan hech kimsaga og'iz ochmaysiz.
- Horatsio** va **Marsell:**
- Churq etmaymiz, shahzodam.
- Hamlet:** Bas, qasamyod qiling.
- Horatsio:** Nomusimga qasamyodki, og'iz ochmayman.
- Marsell:** Men ham shundoq, nomusimga qasam ichaman.
- Hamlet:** Mana qilich, qasam iching.
- Marsell:** Biz qasam ichdik.
- Hamlet:** Yo'q, siz mening qilichimga qasamyod qiling.
- Arvoh:** (*Sahna ostidan*) Qasamyod qiling!
- Hamlet:** Darvoqe, chol, sen ham shundoq fikrdamisan?  
U nimalar deydi sizga, tinglayapsizmi?  
Ha, qasamyod qiling tezroq.  
...Bo'lgan gapni hech kimsaga aytmaymiz, deya  
Qasam iching, qo'lingizni qilichga qo'yib.
- Arvoh:** (*Sahna ortidan*) Qasamyod qiling!
- Hamlet:** ...Horatsio, dunyoda ko'p narsalar borki,  
Falsafangiz tushiga ham kirmagan hali.  
Ammo ishga unnaylik. Boz qasamyod qiling,  
Shafqatingiz darig' tutmang yana men toki  
Majhul tutsam o'zimni yo bir oz g'alati,  
Bir oz boshqacharoq bo'lib ko'rinsam yoki  
Siz holimga nazar tashlab hech vaqt, hech qachon  
Qo'lingizni chalishtirib ko'krakka bundoq,  
Boshingizni chayqab bundoq, dono tur bilan  
Lab uchida demangizki – "Ha, biz bilamiz,  
Boshqalarga qorong'i-yu, bizlarga ravshan...  
Bilamiz-ku, lekin aytib nima qilamiz".  
Men to'g'rimda biror narsa ma'lum deb zarra,  
Na bir imo qila ko'rmanq, na bir ishora,  
Shu to'g'rida qasam iching, Tangri taolo  
O'zi sizga madad bergay.
- Ketishadi.**



### Savol va topshiriqlar:

1. Asardagi arvoх timsolining badiiy vazifasini izohlang.
2. Hamletning: “**Xo’sh, nimadan qo’rqay? Hayotimni bir chaqaga ko’raman qimmat. Axir, nechuk yetkazolsin ruhimga zahmat**” iqrori uning tabiatidagi qanday jihatni ko’rsatadi?
3. Arvohning: “**Kim bo‘larding, agar shunday tug‘yon urmasang? O’lik daryo suvlarida bujmayib o’sgan, Baqa to’ni, sassiq alaf bo‘larding balkim**” so’zlari ma’nosini izohlang.
4. Otasidan: “**O, bu dahshat, dahshat, dahshat! Nomus ila or Yuragingni yondirmasa, urinma bekor**” tarzida topshiriq olgan Hamlet tuyg’ularini sharhlang.
5. “**Qodir qasos qanday qoyim bo‘lmasin, faqat Sen ruhingni musaffo tut, onangga tegma. Unga odil hakam, uning loyiq javobi – Tangri taolo-yu, yana vijdon azobi**” so’zlariga tayanib, marhum qirol tabiatini sharhlang.

## II SAHNA

### Qasrda bir xona.

**Qirol, Malika, Rozenkrans, Gildenstern va xos mahramlar kirishadi.**

**Qirol:** Salom, aziz Rozenkrans, Gildenstern!  
Sizni ko’rish ishtivoqi bilan barobar  
Chaqirmoqqa majbur qildi ma’lum sabablar.  
Xabardorsiz deyman balki yangi gaplardan,  
Hamletdagи turlanish-u tuslanishlardan;  
Men boshqacha aytolmayman, negakim o’sha  
Ham zohiran, ham botinan o’zgardi ancha.  
Otasining o’limidan bo’lak ne firoq  
Bilolmadim, uni yana qaqshatdi shundoq.  
Ikkingizdan o’tinchim shul, tengdoshsiz unga  
Tag’in maktabdoshlsiz, o’sib-ungansiz birga.  
Xo’p bilasiz uning xulqi-tabiatini

Baski, bunda qolib, bizga fido etsangiz  
Ta'til vaqtingizning rohat-farog'atini.  
Shahzodani davrangizga torting, toki ul,  
Hushyor tortib, xalos bo'lzin balodan butkul,  
Fursat topib, surishtirib sekin bilingkim,  
Nechuk asror uni bundoq qiydar beomon.  
Nechuk doru bo'lur uning dardiga darmon.

**Malika:** Ha, janoblar, sizni tez-tez eslar edi u.  
Men bilmayman, sizdan bo'lak qay bir kimsaga  
Yana shundoq sodiq bo'lzin samimi tuyg'u.  
Agar darig' tutmasangiz marhamatingiz,  
Agar tutmasangiz bizdan vaqtingiz darig',  
Bizning orzu-umidlarga madad bersangiz,  
Madadkorligingizni hech qo'ymasdik quruq,  
Ehsonlarga ko'mar edik.

**Rozenkrans:** Malikam, qulluq,  
Sizga buyruq yarashadi, o'tinish emas...  
**Malika:** Rahmat sizga, Gildenstern, Rozenkrans.  
O'g'lim Hamlet huzuriga boring shu nafas.

*Rozenkrans, Gildenstern va bir necha mahramlar chiqishadi. Poloniy kiradi.*

**Poloniy:** Shohim, Norvegiya tomon ketgan elchilar  
Xizmatlarin ado etib, qaytib keldilar.

**Qirol:** Xushxabarlar darakchisi eding hamisha.

**Poloniy:** Shohim, "eding" dedingizmi? Men o'sha-o'sha,  
O'z jonimni asragandek Xudo oldida,  
O'z burchimga safarbarman qirol oldida.  
Bilasizmi, ne ajoyib yangiligidir?

Yoki boshqa qodirmasman iztoparlilikka,  
Yoki Hamlet asrорidan bo'ldim xabardor.

**Qirol:** O, cho'zmasdan ayta qolgin. Menda yo'q chidam.  
Eshitdingmi, Gertruda, o'g'ling yo'liqqan  
Devonalik sababini bilib olmish u.

**Malika:** Taassufki, bu savdoning sababi bitta:



Qirol o'limi-yu, bizning shoshilinch nikoh.

**Qirol:** Xo'p, ko'ramiz...

**Poloniy:** Taqsirlarim, bilasizmi, bahsga tushmoq –  
Masalankim, podsho kim-u mulozim kimir,  
Yoki fursat degani bu – fursat degani,  
Yoki kun degani kun-u tun degani tun...  
Bular – o'sha fursatni-yu kun-u tunlarni  
Sovurishdir, balki zoye etishdir butun.

**Malika:** Ayta qoling bo'yab-bejamay.

**Poloniy:** Bunda bo'yoq nima qilsin, mening Malikam,  
U aqldan ozgani – chin. Yana chindan ham  
Bu taassuf bir ahvoldir va bu ahvolning  
Chini bilan ko'p taassuf ekanligi chin.  
...U aqldan ozmish deylik. Sababi nima?  
Sababini topish kerak bu fazilatning  
Yoki deylik bu illatning, chunki fazilat  
Zamirida sabab bo'lib yotadi illat.  
Mening qizim bor,  
Mening qizim, dedimmi, bas, demak, meniki,  
Mana o'sha itoatkor qizim bergen xat,  
Men o'qiyman, siz eshitib, hukm chiqaring.

*(O'qiydi)*

*"O, azizim Ofeliya! Men she'riyatga oshno emasman. Qofiyaga solib xo'rshinish qo'limdan kelmaydi, ammo seni jondan sevishimga ishon, sanamim. Xayr. Shu tani kelbatimdan jonim chiqqunga qadar senikiman, bebaho gavharim. Hamlet".*

Mana, itoatkor qizim menga bergen xat.

Yana qizim aytib berdi qayerda, qachon

Hamlet izhor etmish unga ishq-u muhabbat.

**Qirol:** Xo'sh, siz bunga nima deysiz, aziz malikam?  
Haqiqatga yaqin gap bu.

**Poloniy:** Aytingiz qachon –  
Men "shundoq" deb aytganimda, shundoq bo'Imagan.

**Qirol:** Eslolmayman.



**Poloniy:** (*O'zining boshi va yelkalariga ishora qilib*)  
Mayli, kesing, tayyorman bu dam,  
Haq bo'lmasam. Kalavani qo'ymay qo'limdan,  
Yer ostidan haqiqatga bir kun yetmasam.

**Qirol:** Buni qanday tekshiramiz?

**Poloniy:** Bu juda oson.

U soatlab tentiraydi bunda uzzukun,  
Men ro'para etgum unga qizimni, shu dam,  
Biz ikkimiz kuzatamiz parda ortidan.  
Qizimni u sevadi va shu sevgi bilan  
Jinni bo'lib qolgan, yo'qsa, a'yon emasman,  
Bor-yo'g'i bir eshikbon malayman, xolos.

**Qirol:** Xayr, mayli, bir kuzatib ko'raylik qani.

**Malika:** Ana, sho'rlik o'zi kelar, qo'lida kitob.

**Poloniy:** Qani, keting! Ikkingiz ham keting, so'rayman.  
Bir gaplashib ko'rmoqchiman hozir u bilan.

**Qirol, Malika va xos mahramlar chiqishadi. Kitob o'qigan ko'yi Hamlet kiradi.**

Ahvolingiz nechuk taqsirim, Hamlet?

**Hamlet:** Durust. Xudoga shukur.

**Poloniy:** Siz meni taniyapsizmi, milord.

**Hamlet:** Taniganda qandoq. Siz baliq sotasiz.

**Poloniy:** Yo'g'-ey, nimalar deyapsiz, milord.

**Hamlet:** Ha, qizingiz bor-a?

**Poloniy:** Bor, milord.

**Hamlet:** Quyoshga chiqara ko'rmang. Homiladorlik – dunyo ne'mati, ammo sizning qizingizga chiqarmagan uni. Tag'in g'aflatda qolib yurmang, oshnam.

**Poloniy:** (*Chetga*) Aytmadimmi? Qulay keldi deguncha, gapni qizimga buraveradi. Avval meni tanimadi. Baliqfurush dedi. Aynabdi, qattiq aynabdi. Sirasini aytganda, yoshligimda men ham ishq-muhabbatdan rosa ta'zirimni yeganman. Xuddi mana shunga o'xshab. Yana bir unnab ko'ray-chi. Bu yerda shamol esayapti, bir oz nari-ga o'tsakmikin, milord?



- Hamlet:** Qayoqqa, go'rgami?
- Poloniy:** Darvoqe, undan nariga o'tib bo'lmaydi. (*Chetga*) Ba'zi javoblarining zukkoligiga qarang! Ajabo, hozirjavoblik degani ko'pincha tentaklar kaftiga shundoq qo'nadi-qo'yadi, aqli butunlarga esa, ha deganda, qorasini ko'r-satavermaydi. Tezroq borib qizimni u bilan uchrashadirish chorasini ko'ray. Muhtaram shahzodam, ketishimga ijozat bersalar.
- Hamlet:** Men jon deb sizga biror nima berardim-u, lekin hech vaqoyim yo'q, jonimdan o'zga, jonimdan o'zga, jonimdan o'zga...
- Rozenkrans va Gildenstern kirishadi.***
- Hamlet:** Mening qadrdon do'stlarim! O'zingmisan, Gildenstern? O'zingmisan, Rozenkrans? Ahvollar nechuk?
- Rozenkrans:** Ahvolimiz ko'p qatori, ziyoda emas.
- Gildenstern:** Baxtimizga, haddan ziyod emas baxtimiz, Qismat qalpog'ida zarrin jilg'a emasmiz.
- Hamlet:** Ammo uning tovoni ham emassiz? Demak, siz uning qandaydir beliga yaqinroq bir yerida shafqat-muruvvatlar maskanining xuddi o'zagidasiz?
- Gildenstern:** Topdingiz, shahzodam, biz o'sha joyning mahramlarimiz.
- Hamlet:** Qismat asrорxonasining mahrami-ya? Bajonidil ishonaman. Qismat – ko'pni ko'rgan xotin. Xo'sh, ne yangiliklar bor?
- Rozenkrans:** Aytarlik hech nima, faqat dunyoda insof, vijdon degan matoh paydo bo'libdi.
- Hamlet:** Demak, qiyomat yaqinlashibdi-da. Har qalay olgan ma'lumotlaringiz noto'g'ri. Qani, bir boshdan tushinglar-chi: siz, azizlarim, ne gunoh qilib qo'ydingizki, o'sha qismat sizni bu zindonga ro'para qildi?
- Gildenstern:** Zindon, deysizmi, shahzodam?
- Hamlet:** Ha, Daniya – zindon.
- Rozenkrans:** Unda butun dunyo – zindon.



**Hamlet:** Balli, ko'plab qamoqxonalari, shohlari bo'lgan g'aroyib bir zindon, lekin eng quling o'rgilsini – shu Daniya.

**Rozenkrans:** Biz bundoq deb o'ylamaymiz, shahzodam.

**Hamlet:** Unda sizlarga zindon emas, zero, narsalar o'z-o'zichamas, bizning nazarimizcha, yaxshi yoki yomon bo'ladi. Menga u – zindon.

**Rozenkrans:** Demak, uni zindonga aylantirgan narsa sizning shon-shuhuratga bo'lgan tashnaligingiz. Sizning talablarlingizga u torlik qiladi.

**Hamlet:** Yo Tangrim! Meni pista po'chog'iga joylang, o'shanda ham o'zimni sarvari koinot deb his qilaman. Faqat bu bosiriq xayollardan xalos qiling meni. ...Xo'sh, insof bilan ayting-chi, nechun Elsinordasiz?

**Rozenkrans:** Sizga mehmonmiz, shahzodam, bo'lak gap yo'q.

**Hamlet:** Shunday faqir, shunday haqirmanki, rahmat aytishga ham ojizman. Ammo minnatdorman. Lekin ana shu minnatdorlik ham sizga hayf. Xo'sh, chaqirib olishdimi? Yoki bu o'zingizdan chiqqan tashabbusmi? O'z ixtiyororingiz bilan keldingizmi? A? Marhamat qilib, rostini ayting. Xo'sh? Qani?

**Gildenstern:** Sizga nima desak ekan, milord?

**Hamlet:** E, og'izga kelganini aytavering, faqat rostini aytmasangiz, bas. Sizni chaqirib olishdi. Ko'zingiz aytib turibdi, har qancha urinsangiz ham yashirolmaysiz. Men bila-man, marhamatli qirol va malika sizni chaqirib olishgan.

**Rozenkrans:** Qanday maqsadda, milord?

**Hamlet:** Bu yog'i o'zingizga ayon. Lekin o'rtoqlik hurmati, avvalgi yakdilligimiz, mehr-u oqibatimizning buzilmas ahd-u paymonlari hurmati, o'tradagi tamom ezgulik hurmati, sizdan o'tinaman, gapni chalg'itmay, ayta qoling: sizni chaqirib olishdimi yoki yo'qmi?

**Gildenstern:** Milord, bizni chaqirib olishdi.

*Rozenkrans va Gildenstern Hamletning ko'nglini ovlash uchun o'zlari bilan sayyor aktyorlarni ham olib kelgan bo'lishadi. Hamlet aktyorlarning ijrochilik mahoratini sinab ko'rib,*



*ularga otasi halokati manzarasini tomosha sifatida sahnalash-tirishni topshiradi. Arvoh aytgan bo'lishiga qaramay, Hamlet otasini amakisi Klavdiy o'ldirganini aniq bilib olishni istaydi. Gunohsiz odamning jazolanishini xohlamaydi.*

**Hamlet:** Juda soz. Kechgacha xayr, do'stlarim.  
Yana bir bor aytamanki, Elsinorga xush kelibsiz.

***Rozenkrans va Gildenstern ketishadi.***

Yop-yolg'izman, mana, nihoyat.  
Oh, naqadar yaramasman, noshud bir banda.  
Men qanchalik ahmoq, ayanch, aynigan bir jon,  
Mudroq bosib, uyqu ichra yurganim-yurgan.  
O'z haqimda na tadbir, na tadorikim bor,  
Na jonidan qabihlarcha mahrum etilgan  
Marhum qirol uchun biror harakat, a'mol.  
Xo'sh, men nima, qo'rqoqmanmi?! Qani, kim aytar?  
Kim yuzimga otar achchiq ta'na-malomat?  
Kim betimga ayamasdan shapaloq tortar?  
Kim bolaga uqtirgandek aylar nasihat?  
Kim burnimdan tortib meni kazzob, deb atar?  
Qani, kim bor? Kela qoling! Mana men tayyor!  
Kabutarning jigaridir jigarim mening,  
Shuning uchun zardasi kam, yetishmas safro.  
Bo'lmasam-chi, o'zni ishga shaylamasmidim,  
U yovuzning murdasini allaqachonlar  
Qarg'a-quzg'unlarga yemish aylamasmidim.  
O, badkirdor. O, yaramas, qonxo'r, muttaham,  
O, la'nati makkor!  
O, qasos, intiqom!  
Gapning po'skallasi shuki, eshakman, eshak!  
Axir kimman, o'ldirilgan otaning o'g'li,  
...Samo intiqomga chorlab tursa-yu,  
Men bu yoqda ko'zyoshi to'ksam  
Va qarg'asam bir cho'ri-yu chuvrindi kabi!  
Tuf-ey, la'nat! Uyg'on, mening idrokim, uyg'on!  
Eshitgandim, kirdikori qora kimsalar

Tomoshaga tushib, monand savdoni ko'rib,  
Tamom erk-u ixtiyor ni qo'ldan boy berib,  
Qilmishlari uchun iqror bo'lur ekanlar.  
Ha, qotillik jim tursa-da, so'zsiz-sadosiz  
Oshkor etar o'z-o'zini. Buyuraman to:  
Aktyorlar amakimning ko'zi o'ngida  
Otam qatli sahnasini etsinlar ijro.  
O'zim undan ko'z uzmayman. Ko'raman qani  
Qanday ta'sir etar ekan. Agar mabodo  
Ta'sir etar bo'lsa, unda o'zim bilaman,  
Ne qilishim lozim bo'lsa, keyin qilaman.  
Ehtimolki, o'sha arvoh iblisdir, ya'ni  
Atay kirib olib otam qiyofasiga  
Istifoda etib charchoq, ma'yusligimdan,  
Meni halokatga duchor etmadimikan?!  
Ha, dalillar kerak yana, dalillar ko'proq.  
Tomoshada gap ko'p, endi tomosha qo'yib,  
Men Qirolning yuragiga solaman ilmoq...



### **Savol va topshiriqlar:**

1. Poloniyning: "***Yoki fursat degani bu – fursat degani, Yoki kun degani kun-u tun degani tun...***" tarzidagi fikrlashida uning shaxsiyatiga xos qanday jihat ko'zga tashlanadi?
2. "***Mana, itoatkor qizim menga bergen xat. Yana qizim aytib berdi qayerda, qachon Hamlet izhor etmish unga ishq-u muhabbat***", — deya uyalmay, qizining ichki sirlariga aralashadigan kimsaning tutumlariga baho bering.
3. Oldin Rozenkrans bilan Gildensternga rostini aytishni so'ragan Hamletning saldan keyin: "***E, og'izga kelganini aytavering, faqat rostini aytmasangiz, bas***" deyishi sababini tushuntiring.
4. Shahzodaning Daniya to'g'risidagi: "***Menga u — zindon***", — degan fikrini qanday tushunish mumkin?
5. Hamletning: "***Men bo'lsam-chi: Ahmoq, ayanch, aynagan bir jon, Mudroq bosib, uyqu ichra yurganim-yurgan***" tarzida o'ziga malomat qilishi sababini izohlang.

- 
6. Yigitning: “*Xo’sh, men nima, qo’rqoqmanmi?! Qani, kim aytar? Kim yuzimga otar achchiq ta’na-malomat? Kim betimga ayamasdan shapaloq tortar?*” yo’sinidagi nidolarida uning qaysi jihatlari ko‘rinadi?
  7. Matnga tayanib, shahzodaning soxta qiroldan o‘ch olishga darhol kirishmayotgani sababini tushuntiring.

## UCHINCHI PARDA

### I SAHNA

**Qasrda bir xona.**

***Qirol, Malika, Poloniy, Ofeliya, Rozenkrans va Gildenstern kira dilar.***

**Qirol:** Xullasi kalom, ochiq-oydin bilolmadingiz  
Jinniligi sababi-yu sinoatini?  
Nechun asabiydir, qo’rqmay oqibatidan  
Telbalikka qurban etar farog’atini?

**Rozenkrans:** Es-hushim o’zimda yo‘q, majhulman, deydi,  
Ne sababdan ekanini ammo aytmadni.

**Gildenstern:** Qancha so’rab-surishtirdik, barisi bekor.  
Sog’ligidan so’z ochildi deguncha nuql  
Devonaning ayyorligi bilan chap berar.

**Malika:** Sizni nechuk qarshi oldi?

**Rozenkrans:** Tanti, mardona.

**Gildenstern:** O’zni bir oz zo’rlaganday tuyuldi yana.

**Malika:** Ko’ngil ochmoqqa siz taklif etmadingizmi?

**Rozenkrans:** Ha, albatta.  
Fursat o’zi qo’l kelib qoldi.  
Yo’lda aktyorlar bizga uchradi alhol.  
Bu to’g’rida eshitdi-yu, sevinib qoldi.  
Aktyorlar qasrdadir hozir baharhol.  
Ular bugun o’ynamoqqa buyruq ham oldi.

**Poloniy:** Chin haqiqat, kaminangiz tasdiq etadi.



Zoti oliylari, zoti oliyalarni  
Hamlet tomoshaga bugun taklif etadi.

**Qirol:** Bajon-u dil.  
Men mammunman eshitib, magar  
Topilibdi unga shundoq ermak-mayllar.  
Toki yana qo'l bermasin oshuftalikka,  
Havasini o'stiringlar, ko'shish<sup>1</sup> qilinglar.

**Rozekrans:** Sarf etgaymiz tamom kuch-u g'ayratimizni.

**Rozekrans va Gildenstern ketadilar.**

**Qirol:** Gertrudam, sen ham chiqib turgaysan endi.  
Biz Hamletni chaqirtirdik bu yoqqa sekin:  
O'zi bundan bexabardir. Kutmagan mahal  
Bunda Ofeliyaga u duch kelib qolar.  
Biz samimi hakam bo'lib Polony bilan  
Kuzatamiz, shahzodani qiynagan balo –  
Chindan ishq-u muhabbatmi yo bo'lak savdo?

**Malika:** Xo'p, bo'ladi, shohim.  
Sizga, o, Ofeliya,  
Tilagim shu: shahzodaning jinniligiga  
Yolg'iz husni-jamolingiz sababchi bo'lsin;  
Sharofatingizdan to'g'ri yo'lga kirsin u,  
Ikkingiz ham obro' toping.

**Ofeliya:** Qulluq, malikam.

**Malika ketadi.**

**Polony:** Ofeliya, sen shu yerda sayr qilib tur,  
Marhamatli shohim, siz ham bu yoqqa o'ting.  
Qizim, sen-chi, kitob qarab turganing ma'qul,  
Yakka-yolg'izlikka bu bir nishona bo'lur.  
Ha, to'g'risi, biz ham jilla chakki emasmiz:  
Munis chehra, mutavoze qiyofa bilan  
O'rni kelsa, shaytonga ham saboq beramiz.  
**Qirol:** (Chetga) Sirasini aytdi, xuddi nishonga urdi,  
Kamar bilan shatillatib urganday bo'ldi.

---

<sup>1</sup>Ko'shish — tirishish, urinish, harakat qilish.



...Ammo mening kirdikorim bundan ham qo'rqinch,  
Chiroyli so'z ostida ham. O, qanday og'ir!

**Polony:** U biz tomon yaqinlashib kelmoqda, shohim,  
Qani, yuring, bir chekkaga o'zni olaylik.

***Qirol va Polony ketadilar. Hamlet kiradi.***

**Hamlet:** Yo hayot, yo mamot: masala shundoq.  
Joizmikin ul jobir-u jabbor falakning  
Jafosiga har daqiqqa chidasa yurak?  
Yo balolar dengiziga ko'ndalang bo'lib,  
Koyishlar-u tashvishlarga chek qo'yemoq kerak?  
O'lish. O'zni unutish. Bas, tamom – vassalom.  
Ruhiy iztiroblar, tanning azoblariga  
Bilamizki, chegaradir shu og'ir uyqu.  
Zotan, asl bir muddao emasmidir bu?  
Ado bo'lmoq. Va adoqsiz uyquga cho'mmoq.  
Keyin tushlar ko'rmoq. Mana, jumboqqa javob.  
O'lim uyqusida – o'sha xokiy libosdan  
Qutulganlar, qanday tushlar ko'rishar ekan?  
...Kim chidardi bularga, bu sho'rishi savdo  
Bitta xanjar zarbasi-la toparkan ado?  
Kim ko'nardi, tiriklikning yuki ostida  
Bukchaygancha yo'l bosishga inqillab, agar  
O'lim ortidagi o'sha qora mavhumot.  
Azmi safar qilib birov qaytib kelmagan  
O'sha mulki mavhumotdan qo'rquv muqarrar  
Irodani qayirmasa, bosib, egmasa?  
Va belgisiz sohillarga o'zni urgandan,  
O'sha tanish qabohatni afzal demasa?  
Hammamizni qo'rkoq qilib qo'yar tafakkur.  
Noqis aql sochgan o'sha xira shu'ladan  
Azm-u qaror rangi o'chib, bo'zrayib qolur.  
Ko'lami va zalvori zo'r niyatlar ham to  
To'g'ri yo'ldan chiqib maqsad ostonasida  
To'zon bo'lib ketar, tamom topar tanazzul.  
Bas, kifoya! Ofeliya! Ey, go'zal pari,  
Bir osiyman, duoingda yod ayla meni.



- Ofeliya:** Shu kunlarda tuzukmisiz bir oz, shahzodam?
- Hamlet:** O, tashakkur, juda tuzuk, juda tuzukman.
- Ofeliya:** Shahzodam, siz menga hadya bergen edingiz.
- Hamlet:** O'shalarni qaytib berish tilagim edi. Mana, oling.
- Hamlet:** Qo'ysangiz-chi, adashyapsiz,
- Ofeliya:** Men umrimda sizga hadya bergen emasman.
- Ofeliya:** Hadya bergandingiz, buni yaxshi bilasiz,
- Hamlet:** Har biriga shirin so'zni omuxta aylab:
- Ofeliya:** Bu – ularning bahosini oshirgan edi,
- Hamlet:** U so'zlarning atri uchib – taralib ketdi,
- Ofeliya:** Endi ola qoling, chunki nomusli qizlar
- Hamlet:** Bevafoning sovg'asiga nazar solmaslar.
- Hamlet:** O, siz nomusli qizmisiz?
- Ofeliya:** Milord?
- Hamlet:** Yana latofatlisiz?
- Ofeliya:** Nima demoqchi bo'lasiz, shahzodam?
- Hamlet:** Demoqchimanki...
- Ofeliya:** Shahzodam...
- Hamlet:** Men bir paytlar sizni sevar edim.
- Ofeliya:** Darvoqe, shahzodam, men ham ishonar edim.
- Hamlet:** Chakki qilibsiz. Ishonmaslik kerak edi. Biz bandayi osiy-larga qancha surkamang, baribir oliyjanoblik yuqmaydi.
- Ofeliya:** Men sizni sevmaganman.
- Hamlet:** Demak, ko'proq aldanibman.
- Ofeliya:** Uzlatga chekin... Men har holda or-nomus egasiman.
- Hamlet:** Lekin o'zimga shu qadar ta'na-dashnomlar yog'dira ola-manki, bundan ko'ra, meni onam tug'magani afzal edi.
- Ofeliya:** Men g'oyat takabbur, kekchi, xudbin bir kimsaman.
- Hamlet:** Qabohatlarim shu qadar behisobki, ularni o'ylab ko'risha-ga o'y, amalga oshirishga fursat yetishmaydi. Menga o'xshagan bandalar yer-u osmon oralig'ida o'ralashib,
- Ofeliya:** nima qilib yuribdi o'zi? Hammamiz munofiqlarmiz. Hech birimizga ishonma. Yaxshisi uzlatga chekin, uzlatga?
- Hamlet:** Ha, otang qayerda?
- Ofeliya:** Uyda, milord.



- Hamlet:** Ustidan mahkam bekitib qo'yan ma'qul, toki yolg'iz  
uydagilarni laqillatsin. Xo'p, xayr endi.
- Ofeliya:** Aziz avliyolar, unga madad bering!
- Hamlet:** Erga tegadigan bo'lsang, boshingga la'nat toshlari yog'il-sin. Qordek oq, muzdek musaffo bo'lsang ham, tuhmat-dan qochib qutulomaysan. Uzlatga chekin, uzlatga.  
Xo'p, xayr endi. Agarda judayam erga tekking kelsa, ahmojni tanla. Oqillar ularni ne ko'y larga solishingizni yaxshi bilishadi. Uzlatga chekin, uzlatga. Paysalga sol-ma. Xo'p, xayr endi.
- Ketadi.**
- Ofeliya:** Halok bo'lmish qanday asl, noyob bir aql!  
A'yon edi, askar edi, olim edi ul,  
Ko'zga, so'zga va shamshirga sohib edi ul,  
Davlat, saltanatning umid guli edi ul,  
Nazokat-u nafosatning timsoli edi,  
Hammasinga ko'zgu edi... Hammasi butkul  
Chil-chil bo'lib sindi, to'zib, tugadi endi,  
Xo'sh, men-chi?  
Men kimman endi, badbaxt bir xotin,  
Yuragimda va'dalarning asali toti.  
U azamat tafakkurga yetibdi shikast,  
Darz ketgan bir jomdek ingrab, chiqarar sado.  
Uning yigit jamolini endi har nafas  
Burishtirib turar shunday oshubi savdo.  
Bu ne lutf-u karamingdir, ey Parvardigor,  
Nelar ko'rdim! Yana qanday ko'rgiligidim bor?
- Qirol va Poloniq qaytib kirishadi.**
- Qirol:** Muhabbat!  
Yo'q, bu savdoi muhabbat emas;  
Garchi yo'qdir so'zlarida tayin robita.  
Lekin yo'qdir telbalikdan asar ham unda.  
U qayg'uning tim qorong'i burchaklarida  
Halokatli bir qarorga kelmoqdadir, bas.

Falokatni raddi badal aylamoq uchun  
Shundayin bir xulosaga keldim men bugun:  
Uni darhol jo'naturmiz Angliyaga,  
Boj undirish vazifasi yuklanur unga.  
Ehtimolki, dengiz sayri, yangi o'lkalar  
Va xorijiy odamlar-la suhbat, muloqot  
Yuragini bosib yotgan qora mavhumot  
G'ashlik balosidan uni musaffo etar.  
Xo'sh, siz nima deysiz?

**Poloniy:**

Shohim, bu yaxshi tadbir.  
Valekin men ishonaman, taxminim o'sha:  
Savdoyiligiga sabab – ishq-u muhabbat.  
Ha, aytganday, qizalog'im, ne deysan? Faqat  
Hamlet aytganlarin yana takror aylama.  
Biz eshitdik.  
Siz sohibi tadbirsiz, Hazrat.  
Sizning o'rningizda bo'lsam, tomoshadan so'ng  
Malikani Hamlet bilan uchrashadirdim.  
Toki bekam surishtirib qarasin obdon,  
Istasangiz, suhbatlarin eshitay pinhon.  
Malika ham etolmasa bu jumboqni hal,  
Mayli, jo'natingiz uni Angliyaga,  
Yo zindonga tashlang.

**Qirol:**

Shunday qilinur beshak,  
Jinnilarni nazoratda saqlamoq kerak.

*Ketadi.*

### III SAHNA

**Qasrda bir xona.**

***Qirol, Rozenkrans va Gildenstern kiradilar.***

**Qirol:**

Uni xush ko'rmayman, uning jinniligiga  
Bardosh berib, papalashga yo'q menda toqat.  
Farmoyishga imzo chekib, Angliyaga



Jo'naturmiz sizni unga aylab rafoqat<sup>1</sup>.  
Axir ko'tarmagay bizning rutbayi oliy  
Tasodiflar ortimizdan yursa izma-iz  
Devonalik niqobida.

**Rozenkrans:** Tangri ato etgan aql-u zakovat bilan  
Falokatdan o'zni asrash bizga farzi ayn.  
Shundoq ekan, ayon gap-ku, ko'pning hayoti –  
Bog'liq bo'lgan zotga qancha zarur ehtiyyot.  
Oddiy o'lim emas axir shohning vafoti.  
U ko'plarni olib ketar adamga, hayhot,  
U jar yoqasida turgan g'ildirakdirki,  
Oz emasdир kegaylori<sup>2</sup> bilan tishlari,  
Ag'darilsa, yakson bo'lur, sochilur bari.  
Hukmdorning yuragidan oh ucharkan bot –  
Xaloyiqning yuragidan yuksalur faryod.

**Qirol:** Xo'p, marhamat qilib,  
Tezda yo'lga tushingiz.  
O'z erkicha yurgan balo-ofatga endi  
Kishan solish payti yetdi.

***Rozenkrans va Gildenstern ketishadi. Poloniy kiradi.***

**Poloniy:** U onasi tomon o'tdi.  
Eshitmoqchiman –  
Uning so'zlarini gilam ortida turib.  
O'ylaymanki, onasidan ta'zirin yeydi.  
Lekin sizning so'zingiz haq: ona bokaram,  
Ona rahmdildir, ziyon yetmasa kerak  
Birov chetdan eshitsa-yu, kuzatib tursa,  
Ketayapman hukmdorim, hozircha xayr,  
Yangi ma'lumotlar bilan uyqu oldidan  
Yana sizga yo'liqaman.

**Qirol:** Do'stim, tashakkur.

***Poloniy ketadi.***

Meni bo'g'ar qabohatim qo'lansa dudi,

---

<sup>1</sup>Rafoqat — o'rtoqlar, jo'ralar; <sup>2</sup>Kegay — g'ildirakning qismi.

Manglayimda qadim kufr-u malomat muhri:  
Birodarkushligim! Yonib-o'rtanib faqat,  
Talpinaman, etolmayman lekin ibodat.  
Bilamanki, bu gunohni kechirib bo'lmas,  
Xunobdirman, bilolmayman qaydan boshlashim,  
Shundoq mash'um arosatda yashashdir ishim.  
Magar boshdan-oyoq og'am qoniga botsam,  
O'shanda ham qonga botgan shu qo'llarimni  
Qodirmasmi yuvib, shaffof aylasa falak?  
Ne qilardi yovuzliksiz ezgulik zoti,  
Zulm bo'lmas ekan, shafqat nimaga kerak?  
Biz ibodat etarmiz, to safolat<sup>1</sup> qadar –  
Qulamaylik, bizni qo'lla, kushod ayla, deb,  
Yo safolat cho'nqiridan ozod ayla deb.  
O'ksinishga hali erta. Boshingni ko'tar!  
Men yiqildim, turmoq uchun yiqildim, ammo,  
Xo'sh, bu yerda joiz turur nechuk tavallo.  
“Qotilligim ma'zur ayla...” desammi ekan,  
Yo'q, bu sira mumkin emas, sira, mutlaqo.  
Qaytarmadim, axir, olgan o'ljalariimni,  
Qotil bo'lib olganman-ku, axir ularni,  
Qo'limdadir toj-u taxt-u mulk-u malika.  
Najot bormi osiy bo'lib turgan Kimsaga?  
Oz emasdир bizda rosti shum jinoyatchi,  
Oltin taqqan barmog'i-la dag'dag'a qilar.  
Uning qonlar to'kib, yiqqan mol-u davlati  
Jazoga chap bermoqqa bir vosita bo'lar,  
Yo'q, bu falak dargohiga o'xshamaydi hech,  
Unda bizning kirdikorlar yotar yalang'och.  
Biz yuzma-yuz turib qilmish-kirdikor bilan  
Javob berajakmiz unda. Ammo ne iloj?  
Nima qildim? Magar tavba-tazarru etay?  
Deydilarki, ijobatdir tavbaning kuchi,  
Lekin tavba yo'li tamom yopiq bo'lsa-chi?

---

<sup>1</sup>Safolat — yomonliklar, yovuzliklar.



Azob, azob! O'lim yanglig' yuragim qora.  
Ruhim loyga botib borar, cho'kib tobora!  
Farishtalar imdod eting! Tizzalarim tez  
Bukilingiz! Yurakdag'i qo'rg'oshinim, sen,  
Chaqaloqning paylaridek mayin tortgaysan!  
Yo tavakkal!

***Ichkariroq yurib, tiz cho'kadi. Hamlet kiradi.***

**Hamlet:**

U ibodat etayotir. Paytidir, ana,  
Bir zarb ursam, ruhi ko'kka bo'lur ravona.  
Qasos qoyim bo'lur. To'xta, o'ylagin bir dam,  
Padarimdan judo etdi meni muttaham.  
Buning uchun jannat sari yo'l olsinmi u,  
Axir qodir qasos emas, mukofot-ku bu.  
Otam sho'rlik qorni shishib bergen edi jon,  
Zahar-zaqqumlardan xuddi xamirdek ko'pchib.  
Kim biladi, nelar kutar uni buning-chun?  
Ne bo'lsa ham mushkul bo'lur, bo'Imagay oson.  
Qasosmi bu, qotil jonni bersa jabborga  
Sajda chog'i, gunohlardan forig' bir mahal,  
Olis yo'Iga hozir-nozir turar ekan?  
Yo'q!  
Qayt shamshirim, dahshatli bir fursatga qadar.  
Yo jahlga mingan yoki mast-alast chog'i,  
Uyquda yo harom huzur, ishrat qo'ynida,  
Yoki jazavasi qo'zib, quturgan asno,  
Xullas, ko'kda najot yo'li bekilgan palla  
Oyog'ini keltirarsan osmondan xuddi.  
To umbaloq oshib, jurmi savdosi toshib,  
Qulab tushsin jahannamning qora qa'riga.

***Ketadi.***



***Savol va topshiriqlar:***

1. Hamletning jahonga mashhur: “***Yo hayot, yo mamot: masala shundoq. Joizmikin ul jobir-u jabbor falakning Jafosiga har***

*daqqa chidasa yurak? Yo balolar dengiziga ko'ndalang bo'lib, Koyishlar tashvishlarga chek qo'ymoq kerak?" tarzida boshlanadigan monologiga tayanib, uning shaxsini baholang.*

2. Shahzodaning: "*O'lim uyqusida – o'sha xokiy libosdan Qutul-ganlar, qanday tushlar ko'rishar ekan?*" tarzidagi iqrorini sharhlang.
4. Yigitning: "*Hammamizni qo'rkoq qilib qo'yar tafakkur. Noqis aql sochgan o'sha xira shu'ladan, Azm-u qaror rangi o'chib, bo'zrayib qolur*" so'zlari zamirida qanday ma'no bor?
5. Ofeliyaning Hamletga "*Halok bo'lmish qanday asl, noyob bir aql!*" yo'sinida bergen bahosiga tayanib, yigitni tavsiflang.
6. Soxta qirolning: "*Meni bo'g'ar qabohatim qo'lansa dudi, Manglayimda qadim kufr-u malomat muhri: Birodarkushligim!*" tarzidagi iqrorida qanday ruhiy holat aks etgan?
7. Hamletning: "*Xullas, ko'kda najot yo'li bekilgan palla, Oyog'ini keltirarsan osmondan xuddi*", — deya ibodat qilayotgan Klavdiyni o'ldirmagani sababini izohlang.
8. Hamlet nima uchun qirolni gunoh ustida o'ldirishga ahd qildi?

#### IV SAHNA

*Malika xonasi. Malika va Poloniy kiradilar.*

**Poloniy:** U siz tomon kelayotir. Ogohlantiring:  
O'zni tiyib, qilmishlarga xotima bersin.  
Ayting, qalqon bo'lib, uni joiz jazodan  
Olib qolganingizni. Men burchakda turgum.  
Ha, siquvga oling uni.

**Malika:** Siz cho'chimang va bemalol menga ishoning,  
U kelmoqda magar.  
Tezroq bekinib oling.

*Poloniy o'zini devorga osig'liq gilam orqasiga oladi.  
Hamlet kiradi.*

**Hamlet.** Xo'sh, onajon, menga nechuk xizmatingiz bor?  
**Malika:** Sen otangni nega tahqir etasan, Hamlet?  
**Hamlet:** Siz otamni nega tahqir etdingiz, onam?  
**Malika:** Sen men bilan bir avomdek gaplashmoqdasan?



- Hamlet:** Siz-chi, savol bermoqdasiz munofiqona.
- Malika:** Bu niması, Hamlet?
- Hamlet:** Ayting, sizga ne darkor?
- Malika:** Eslaysanmi, kimman?
- Hamlet:** Xudo haqqi, eslayman.
- Malikasiz, o'z erining ukasiga yor,  
Nadomatlar bo'lzin, menga onasiz yana.
- Malika:** Bas, boshqalar gapirishsin endi sen bilan.
- Hamlet:** Qimirlamang. O'tiring. Men sizni qo'ymasman.  
Onajon, deb yuzingizga tutarman ko'zgu.
- Malika:** Nima qilmoqchisan! Meni o'ldirmoqchi u!  
Hoy, yordam beringlar! Yordam!
- Poloniy:** (*Gilam orqasidan*) Yordam beringlar!
- Hamlet:** (*Qilichini yalang'ochlab*) Bu niması?  
Kalamushmi? O'lganing afzal!  
(*Gilamga qilich tiqadi.*)
- Poloniy:** (*Gilam ortidan*) Oh, o'ldim!  
(*Yiqilib o'ladi.*)
- Malika:** Voy, Xudoyim-ey! Ne qilib qo'yding!
- Hamlet:** Kimligini bilmadim men: qirolmidi u?
- Malika:** Bir mislsiz qabohatdir hozir qilganing!
- Hamlet:** Bu – qirolni makr ila o'ldirishdan va  
Qayni bilan topishishdan ortiqmas, xonim.
- Malika:** A, qirolni o'ldirishdan?
- Hamlet:** Ha, xonim, shundoq.
- (*Gilamni yulqib, Poloniyya ko'zi tushadi.*)
- Alvido, ey chopqillagan, telba, jonsarak!  
Seni adashtiribman-ku – mana nadomat.  
Ko'ryapsan, hovliqishning oxiri yomon.  
Siz o'ltiring. Qayg'u chekib, qaqshamang muncha.  
Zero, qaqshatarman hali yuragingizni.
- Malika:** Xo'sh, men nima qilibmanki,  
Sen menga bu qadar  
Qo'rs va qo'pol gapirasan?
- Hamlet:** Qilmishlaringiz

Axloq, uyat, diyonatni yerga uradi,  
Haqiqatni sharmanda-yu sharmisor aylab,  
Ma'sum muhabbatning oppoq peshonasiga  
Toshma bo'lib toshadi-yu, shundoq turadi.  
Va muqaddas nikoh ahdi paymonlarini  
Qimorbozning savdosiga aylantiradi.  
Siz shundoq bir kirdikorlar etdingizki, to  
Bekor bo'lib qoldi butkul va'da-yu vafo.

**Malika:** Shuncha daromaddan keyin, mumkinmi bilsak,  
Gapning asl indallosi nimadir beshak?

**Hamlet:** Mana, sizga ikki suvrat: mana va mana.  
Qo'sh suvratda turar og'a-ini siymosi.  
Qarang, qancha jozibalar jamdir birida.  
Zevs manglayidek xuddi manglayi ochiq.  
Sochi Appolonning barra sochidek quyuq.  
Marsning nazaridek uning nigohi mag'rur.  
Turishida bulut osha tuproqqa tushgan  
Elchi Merkuriyning so'nmas salobati bor.  
Bu – birinchi eringizdir. Mana bu esa –  
Ikkinchisi. Kasal tekkan boshoqqa o'xshar –  
Toza boshoq yonida. Hoy, ko'zingiz qayda?  
Sevgi demang. Sizning yoshiba bo'ron bilanmas,  
Kalla bilan yashagaylar. Aitingiz o'sha –  
Tafovutni taniydigan kalla qayoqda?  
Bas, qaysi bir iblis sizni kuppa-kunduzi  
Yo'ldan ozdirdi-yu, shundoq ko'ylarga soldi?  
Ko'zлari ko'r, quloqlari kar bo'lganda ham  
Shuuriga bir ozgina suyangan odam  
Bundoq adashmasdi, bo'yla qo'ymasdi qadam.

**Malika:** Hamlet, rahm qil!  
Har bir so'zing menga xuddi xanjar tig'idir,  
Qulog'imni teshayotir...

**Hamlet:** Yana kim bilan –  
Qotil bilan, hayvon bilan, bir murtad bilan.  
Padarimning tirnog'iga arzimaydigan



Qirol kiyimini kiygan qo'g'irchoq bilan,  
SALTANATGA chovut solgan qaroqchi bilan.  
Tojni tokchada ko'riboq, qo'lтиqqa urgan,  
Uni etak ostida so'ng o'g'irlab chiqqan –  
O'g'ri bilan.

**Malika:** Ayasang-chi!  
**Hamlet:** Bir olchoq bilan!

***Arvoх kiradi.***

Menga panoh bo'ling osmon farishtalari!  
Oliy hazratlari, ayting, sizga ne darkor?

**Malika:** EVOH, uning tutqanog'i tutdi!  
**Hamlet:** Ehtimol, koyigani kelgandirsiz yalqov o'g'ilni,  
Kunlar o'tib borar, qo'rqinch farmoningizni  
U orqaga surib, hamon aylamas bajo?  
O, gapiring!

**Arvoх:** Maqsad – sening miltirab turgan  
Azm-u qaroringni yana yoqishdir, illo.  
Ammo hozir onangga boq! U xuddi qoqshol.  
Uni xalos ayla bundoq qo'rquv-vahmdan.  
Ojiz ruhlar bo'lur qo'rquv-vahm qurbanzi.  
Unga biror narsa degil.

**Hamlet:** Ne bo'ldi, xonim?

**Malika:** Hay, o'zingga nima qildi? Bo'shliqqa boqib,  
Nimalarni so'zlashasan bo'sh havo bilan?  
Ko'zlaringni ola-kula chaqchaytirasani.  
Nogahonda uyqu ichra eshitib farmon,  
Sakrab turgan soqchilardek, sochlaring tikka.  
Bolaginam, o'zingni sen qo'lga olgaysan,  
Bosiq bo'lib, ko'zlaringga ko'ringan nima?

**Hamlet:** Ana u-chi, ana u! Ha, qarang, u oppoq!  
Uning sarguzashti, uning rangpar chehrasi  
Hatto toshni eritadi. Yuzingni o'gir.  
Yuragimni parchalaydi nigohing sening.  
Senga boqsam holsizlanar yuragim mening,  
Qon o'rniga yosh to'kmoqqa shaylanar xuddi.



- Malika:** Hay, kim bilan gaplashasan?
- Hamlet:** Qarang, ajabo,  
Anuv yoqda siz hech nima ko'rmayapsizmi?
- Malika:** Yo'q, hech narsa. Ko'rmoqdaman borini faqat.
- Hamlet:** Eshitmaysiz?
- Malika:** Eshitganim faqat ovozim.
- Hamlet:** Ana o'zi, turibdi-ku! U yoqqa qarang,  
Qarang, xuddi tirigiday turibdi otam.  
Sirg'algancha eshik tomon yurmoqdadir u,  
Ko'rdingizmi?
- Malika:** Xasta ruhning samarasи bu  
Arvochlarnи ko'rsatishga mohir jazava!
- Hamlet:** Jazavamish! Tomiringiz kabi tomirim  
Urmoqdadir har zarbasi aniq va bardam.  
So'zlarimda ma'no tayin, robita mahkam,  
Istasangiz, so'rang, boshdan aytib berayin.  
Jinni bundoq qilolmagay. Siz topgan malham  
Behudadir, uloqtiring. O'ylamang illat –  
Qilmishingizdamas, mening kasalimda, deb.  
Bundoq malham chandiq etar yarani faqat,  
Lekin yiring ado qilur ichdan yemirib.  
Tavba qiling, qilmishlarga eting tazarru.  
Bundan keyin hazir bo'ling, gunohga botmang.  
Yomon o'tni ildizidan yulib oturlar,  
Haq so'zlarim uchun sizdan so'rayman afu.  
Xuddi bizning zamonada sohib fazilat  
Illat egasiga aylab karam, inoyat,  
Yana undan uzri ma'zur so'raganiday.
- Malika:** Hamlet, qalbim qoq ikkiga bo'linar xuddi.
- Hamlet:** Yaxshi bo'lagini asrab – e'zozlash uchun  
Yomon bo'lagini oting, voz keching butun.  
Xayrli tun. Amakimga bormangiz endi.  
Ne qilsa ham, o'zni sohib vijdonday tuting.  
Odat – jonli his-tuyg'uning dushmanidir, bas,  
Lekin ba'zan do'stligi bor, dushmanligimas.  
Yangi to'ndek kiyib axloq qoidasini,



Biz yaxshilik niqobida yurarkanmiz bot,  
Turgan gapki, yaxshilikka eturmiz odat.  
Bugun o'zni tutolsangiz, ertaga oson,  
Tun o'tarkan, oson bo'lur yana begumon.  
Takror degan har narsani o'zgartiradi,  
Belgilarni nari urib, beri suradi.  
Yana bir bor, xayrli tun. Ha, mabodo, siz  
Chindan tavba-tavfiq yo'lin tutar ekansiz,  
Meni ham bir duo qiling...  
Yana bir bor, xayrli tun! Meni kechiring,  
Shafqat yuzasidan bir oz bo'ldim beshafqat.  
Balo keldi, yangisiga shaylanib turing,  
Yana bir gap.

- Malika:** Endi nima qilishim kerak?  
**Hamlet:** Ne qilsangiz qiling, faqat aytganimnimas.  
Mehri karamingiz toshib, siz aytningizki,  
Men aqldan ozganmasman, o'zimni-o'zim  
Jinnilikka solgandirman.  
Shundoq deb aytинг.  
Malikayi mohitobon bo'lib bevafo,  
Shundoq maxluq, shundoq mushuk,  
shundoq baqadan  
Sir saqlashi joizmikin?!  
Joizmas aslo.
- Malika:** So'zda – nafas, nafasda – jon jo ekan, ishon,  
Xo'rsinmasman, to bo'g'ilib o'lsam ham mayli,  
Ammo sening asroringni sotmasman.
- Hamlet:** Meni  
Angliyaga jo'naturalar, eshitdingizmi?
- Malika:** Ha, afsuski, unutibman. Bu masala hal.
- Hamlet:** Yorliq yozilmoqda. Ikki maktabdosh do'stim,  
Sadoqatda ikki qora ilondan battar,  
Maxsus maktub ila ravon eturlar yo'lim,  
Meni to'r-u tuzoq sari boshlab borurlar,  
Ha, mayliga. Uchirmoqni o'ylagan kimsa,  
Ajab emas, o'zi birdan havoga uchsa.

Men qaziyman oyoqlari ostini shundoq,  
Ki muqarrar qulataman, etaman tuproq.  
Ha, tomosha bo'lur deyman unda chindanam  
Ahmoq qiluvchilar o'zi bo'larkan ahmoq!

*Ikkovi ikki yoqqa ketadi.*

*Xiyonatkor Klavdiy Hamletdan qutulish uchun Poloniyning o'g'li mohir qilichboz Laertni shahzoda bilan duelga gijgijlaydi. Hamlet sal yaralansa ham o'lishi uchun Laert o'z qilichiga zahar surtib oladi. Klavdiy esa Hamletga atalgan sharobga zahar qo'shadi. Hayajonlangan malika Hamletning sharobini ichib, halok bo'ladi. Buni ko'rgan shahzoda amakisini zaharli qilich bilan yarador qiladi. Qizg'in jang davomida qurollar almashinib, Hamlet ham, Laert ham zaharlangan qilichdan yaralanishadi va halok bo'lishadi.*



#### *Savol va topshiriqlar:*

1. Malika bilan so'zlashayotgan Hamletning ayovsizligi boisini tushuntirib bering.
2. Shahzodaning onasiga aytgan: "***Qilmishlaringiz axloq, uyat, diyonatni yerga uradi***" tarzidagi ayblovini izohlang.
3. Matnga tayanib, Klavdiya xos xususiyatlar haqida o'ylab ko'ring. Uni nima boshqaradi deb o'ylaysiz? Ona-bola suhbati payti o'g'ilga ko'ringan arvohning: "***Maqsad – sening miltirab turgan Azm-u qaroringni yana yoqishdir***", – deya qasosga undagani holda malikaga rahm qilishni tayinlashi sababini izohlang.
5. Shahzodaning onasiga achchiq gaplar aytib: "***Haq so'zlarim uchun sizdan so'rayman afu. Xuddi bizning zamонада sohib fazilat illat egasiga aylab karam, inoyat, Yana undan uzri ma'-zur so'raganiday***" tarzida onasidan kechirim so'rashi sababini izohlang.
6. Hamletning onasiga: "***Meni kechiring, Shafqat yuzasidan bir oz bo'ldim beshafqat***", – degan gaplaridagi ichki qarama-qarshilikni izohlashga urining.

- 
7. Hamletning: “**Yangi to’ndek kiyib axloq qoidasini, Biz yaxshilik niqobida yurarkanmiz bot, Turgan gapki, yaxshilikka eturmiz odat**” gaplari zamiridagi ma’noni sharhlang.
  8. “**Ha, mayliga. Uchirmoqni o’ylagan kimsa, Ajab emas, o’zi birdan havoga uchsa**” shaklidagi fikrida nimaga ishora bor?
  9. Hamletning: “**Ha, tomosha bo’lur deyman unda chindanam Ahmoq qiluvchilar o’zi bo’larkan ahmoq!**” tarzidagi to’xtamida nima ko’zda tutilgan?
  10. Hamletning mashhur monologini yod oling.

## “HAMLET” FOJIASI TO‘G‘RISIDA

“Hamlet” fojiasida insoniyat paydo bo’lgandan beri yonma-yon kelayotgan ezgulik va yovuzlik, xiyonat va sadoqat, jinoyat va jazo singari sifatlar o’rtasidagi kurash tasvirlangan. O’sha davrning barcha gumanistlari singari Shekspir ham insonni har jihatdan yetuk, kam-chiliklardan xoli, odam degan mukarram nomga munosib ko’rishni istaydi. Asarda ezgulikka intilgan zotlar va hokimiyatga erishish yo’lda yovuzlik qilgan kimsalar taqdirining o’zaro kesishgan nuqtalari tasvir etilgan.

Manfaatparastlik, xudbinlik shunday illatki, unga yo’liqqa kim-sa o’zgalarga zug’um qilmasligi, zarar yetkazmasligi mumkin emas. Munofiq va shuhratparast Klavdiy tug’ishgan akasi bo’lmish qonuniy qirolni xiyonatkorlarcha o’ldirib, mamlakat taxtini egallaydi. Manfaatparastlik shunday kasallikki, istaklari qondirilgani sayin tabablari ortib boraverdi. Shu bois yolg’on qirol Klavdiyga taxtning o’zi kamlik qiladi. Qirolning o’limidan bir oy o’tib-o’tmay, u akasining bevasi bo’lmish malikaga ham uylanadi.

Yovuzlik ham o’rgimchakning to’ri kabidir. O’rgimchakning to’ri-ga pashsha ham, uni quvlab kelgan ari ham ilinib qolavergani singari, yovuzlik mazlumni mahv etgani kabi zolimni ham domiga tortadi. Yomonlik hech qachon yolg’iz yurmaydi. Biri boshqasini keltirib chiqa-



radi, biri ikkinchisini boshlab keladi. Faqat saroyni emas, balki butun Daniyani qamrab olgan izohsiz besaranjomlik, tushunarsiz qo'rquvning va Hamlet qalbini o'rtagan alamlar, tunganmas nadomatning sababi — shu.

Tragediyadagi voqealar rivoji davomida asardagi har bir personaj o'ziga xos tabiatini namoyish etadi, obrazlarning fe'li ularning taqdirlarini belgilaydigan omil bo'ladi. Fojiada halollik va aldov, aql va shumlik, yovuzlik va mardlik o'rtasidagi kurash hamda hayotning evaziga bo'lsa-da, yorug' kuchlarning g'alabasi mahorat bilan tasvir etiladi.

Asarning bosh qahramoni shahzoda Hamlet o'ylar, gumonlar, iztiroblar girdobida tasvirlanadi. Xato qilishdan cho'chiydigan, adolatsizlikdan qo'rqaqidigan, nohaq qon to'kilishini istamaydigan shahzoda har bir qadamini o'lchab bosadi, har bir gapini o'ylab gapirodi. Shuning uchun ham uning gaplari deyarli hamisha tagma'noga ega, doimo "kosa tagida nimkosa" yashiringan.

Hamlet — samimiy odam. U turlanishni, kishilar ko'ziga o'zini boshqacha ko'rsatishni istamaydi. Mehribon o'g'il, oriyatli yigit bo'lgani uchun ham otasi o'limini juda og'ir kechiradi, yo'qotish dahshatidan qutulolmaydi, hamisha shuning ta'sirida yuradi. Hamlet dardini bozorga solmaydi, odamlarga tomosha ko'rsatishni, baxtsizligi bilan ularning rahmini keltirishni istamaydi. U g'amlarini ko'z-ko'z qilib xayriyohlar topishni xohlamaydi va har qanday sharoitda ham samimiy odam bo'lib qolishga erishadi.

Hamlet — inson hayoti, umr mazmuni haqida ko'p o'laydigan va uni to'g'ri baholashga urinadigan o'ychil yigit. Hamma insofli odamlar singari o'ziga nisbatan talabchan. Shuning uchun ham: "Hayotimni bir chaqaga ko'raman qimmat", — deb ayta ola-di. Yigit ezgu va toza ruhning o'imasligini, manguligini yaxshi biladi. Ruhi pokiza bo'lgani uchun ham hali qirol o'limining sababini bilmay, ota arvohi bilan uchrashmay turib, nimadandir bezovta, onasi va amakisining harakatlaridan norozi yuradi. Arvohning Hamletga aytgan gaplari yigitni qasosga undaydi. Lekin u shoshqaloqlik qilmaydi. Garchi ota arvohi bilan shaxsan o'zi gaplashgan bo'lsa-da, xato qilishdan, kimnidir begunoh jazolashdan cho'chiyi.



Hamlet o'zini tinimsiz taftish qiladi. Xatti-harakatlari, o'ylari, tuyg'ulariga baho beradi. Shahzoda o'zining sustligi, jur'atsizligidan qiynaladi. Har qanday oriyatli yosh yigit singari dushmanlariga tez-roq jazo bergisi keladi. Lekin fikr kishisi, mulohazalar odami bo'lgani uchun tavakkaliga tig' tortmaydi, arvohning gapi bilangina qon to'kmaydi. Ayni chog'da, o'zini sustkashlikda, qo'rroqlikda ayblaydi. Qasos muddati cho'zilgani sayin yigitning o'zidan yozg'irishi, nafrati kuchayib boraveradi.

Hamlet — tavakkalchi jangchi emas. U — o'ychil faylasuf, fikr odami. Shuning uchun ham xato qilib, begunoh kishilar qotiliga aylanishdan qo'rqaadi. Ayni vaqtda, o'zining ana shu qo'rqihsidan nafratlanadi. Axir ota arvohi undan qasos olishni talab etayotgandi! Fojiaadolatsizlikdan qo'rqaadigan o'y odamining ikkilish-u iztiroblarini shu tarzda hayotiy ko'rsatganligi bilan ahamiyatli. Asarda kuchli iztirob og'ushida qolgan, hal qiluvchi qarorni qabul qilishga qiynalayotgan, birov bilan maslahatlashishi mumkin bo'limgan bo'z yigit holati juda ta'sirli aks etgan.

Asarda Hamletning harakatlari to'kilgan qon uchun xun olishgina bo'lmay,adolatsizlikni bartaraf etish, haqiqatni qaror toptirish yo'llidagi kurash ekani tasvirlangan. Qotilni fosh qilishning oqilona yo'llini o'ylab topishi Hamletning qanchalik dono va fikrli yigitligini ko'rsatadi. Shahzoda o'tkir aql va yugurik xayol egasi bo'lgani uchun ham Gildenstern va Rozenkranslar qirol tomonidan uning ortidan qo'yilgan ayg'oqchilar ekanini osongina bilib oladi. Xiyonatkor bu kishilar o'zlarini Hamletga yaqin va g'amdosh qilib ko'rsatishga qanchalik urinishmasin, yigit mantiqli xulosalari va teran tahlillari bilan ularning manfaatparast va xiyonatkor kimsalar ekanini ochib tashlaydi. Ikkiyuzlamachi Gildenstern bilan suhbatda Hamlet Daniyani: "Men uchun — zindon", — der ekan mamlakatda adolatsizlik, xiyonat avj olganligini ochiq aytadi. Taxtga loyiq bo'limgan nopol odam davlatdorlik qilar ekan, u el-u yurtga faqat baxtsizlik keltirishini ta'kidlaydi.

Hamlet faqat o'z tashvishlari qobig'iga o'ralib qolgan kishi emas. U o'limdan qo'rqaadi, fikr kishisi sifatida o'limning mohiyatini bilmoqchi bo'ladi. Hayot qanchalar qiyin bo'lishiga qaramay, odamzotning yashashga intilishi sabablari borasida o'ylanadi. U



dunyoga shunchaki kelib ketadigan o'tkinchi emas, balki ezgulik manzilini mo'ljallab borayotgan yo'lovchidir.

Shuning uchun ham o'limning mohiyati va hayotning ma'nisi haqida teran o'ylarga cho'madi. Yigitga xos asl sifatlar uning ishti-bohlari, o'ylari, mulohazalarida yorqin aks etadi. Tinimsiz o'ylar unga o'limning sirliligi insoniyatni azoblar girdobida tutib kelayotganini, odamning erkin bo'lishiga, ko'ngil da'vatlariga qulqutib yashashiga qo'ymayotganini anglash imkonini beradi.

Hamlet odam uchun yashash o'lishdan mushkul ekanini anglab yetadi. Chindan ham, o'limga yetib borish uchun juda uzun yo'l bosish shart emas. Xanjarning birgina zarbi bilan inson o'z hayotiga nuqta qo'yishi mumkin. Lekin Hamlet biladiki, o'lim ba'zan yechim berish, aniqlik kiritish, masalani hal etish o'rniغا uni yanada chigal-lashtirishi mumkin.


U aql kishisi, uyg'onish davrining insonparvar bir vakili sifatida eng muhim masalalarning yechimini topishga urinadi.





## CHINGIZ AYTMATOV

(1928—2008)



Turkiy xalqlarning iftixori bo'lmish Chingiz Aytmatov jahon adabiyotining yorqin namoyandasi edi. Uning asarlari dunyodagi 191 tilga tarjima qilingan.

Chingiz Aytmatov 1928- yilning 12- dekabrida Qirg'izistonning Talas vodiysidagi Shakar ovulida tug'ilgan. Bolaligidanoq hayot qiyinchiliklarini tatigan. Bobosi Aytmat qo'li gul hunarmand va ajoyib qo'bizchi bo'lgan. Otasi To'raqul Aytmatov rus-tuzem maktabida tahlisil ko'rgan, o'qimishli, fikri tiniq tashkilotchi odam edi. Respublika miqyosidagi katta lavozimlarda turib, Qirg'izistonda savodsizlikni tugatish, yurtga zamonaviy madaniyatni olib kirish yo'lida astoydil mehnat qiladi. 1937- yilda sho'ro hukumati tomonidan qamalib, yo'q qilin-gach, oila boshiga ko'p og'ir savdolar tushadi. Bo'lajak adibning onasi Naima Aytmatova ham o'qimishli, oqlila ayol bo'lganini aytishadi.

Oilaning to'ng'ich farzandi Chingiz oldin rus maktabida o'qidi. Otasi qamalib, qishloqqa qaytishga majbur bo'lishgach, qirg'iz maktabida ta'llim oldi. Yoshlik chog'lari Ikkinci jahon urushi yillariga to'g'ri kelgani bois xilma-xil yumushlarni bajaradi. Qishloqdagagi eng savodli erkak sifatida endigina o'n to'rt yoshga to'lganiga qaramay qishloq kengashi kotibi, so'ng soliq yig'uvchi, traktorchilar brigadasida hisobchi bo'lib ishladi.

Chingiz hayot mashaqqatlariga bardosh berib, yaxshi ta'llim ola-di. Rus va qirg'iz tillaridagi adabiyotlarni o'qishdan charchamaydigan yigit mакtab davridayoq juda bilimdon kishiga aylangandi. Shakar



qishlog'idiagi buvisi, ammalari uni milliy odat va unutilmas an'analaridan bahramand etganlar, onasi Naima zamonaviy madaniyat bilan oshno qilgan.

Aytishlaricha, Ch. Aytmatov bolaligida haydovchi bo'lishni orzu qilgan. Ammo turmush uni o'zga yo'llardan yurishga majbur etdi. O'rta maktabni bitirgan yigitcha zooveterinariya texnikumiga kirib o'qiydi. So'ng Qishloq xo'jalik institutiga o'qishga kirib, uni 1953- yilda tugatdi. Tajriba fermasida zootexnik bo'lib ham ishladi. O'spirin yoshidan unda yozishga havas bor edi. U texnikum va institutda o'qib yurganida ham badiiy adabiyotdan uzoqlashmadı. Tinimsiz o'qir, qirg'iz adiblarining asarlarini ruschaga, rus yozuvchilarining bitganlarini qirg'izchaga tarjima qilar, o'z sohasiga doir voqealar haqida maqola va ocherklar yozardi.

Adabiyotga ishtiyoqi tufayli bora-bora u kasbini o'zgartirishga qaror qildi. 1956—1958- yillarda Moskvadagi Oliy adabiyot kursida tahsil ko'rди. Bu yerda chinakam adabiy jarayon bilan yuzlashdi. Badiiy adabiyot, adabiy qahramon, yozuvchi uslubi haqida tushuncha paydo bo'ldi. Oldin ham o'qigan asl adabiyot namunalariga ijodkor ko'zi bilan qaraydigan bo'ldi. Keyinchalik u: "Agar men bu yerda o'qimaganimda o'z qissalarimni yoza olmagan bo'lardim", — deb aytadi. 1957- yilda "Yuzma-yuz", 1958- yilda "Jamila" qissalari chop etildi.

Ch. Aytmatov 1958—1960- yillarda "Literaturniy Kirgizstan" jurnalida muharrir, 1961- yilda "Pravda" gazetasining O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'yicha maxsus muxbirini bo'lib ishladi. 1962- yilda Qirg'iziston Kinematografiya kengashi raisi bo'ldi. 1988—1990- yillarda butunittifoq "Inostrannaya literatura" jurnalining Bosh muharriri bo'ldi. 1991- yildan boshlab, Qirg'iziston va Rossiya Federatsiyasining Lyuksemburg va Belgiyadagi elchisi bo'lib ishladi.

Ch. Aytmatov 2008- yilning 10- iyunida sakson yoshida og'ir kasallikdan vafot etdi.

Yozuvchining "Birinchi muallim", "Yuzma-yuz", "Jamila", "Alvido, Gulsari", "Oq kema" singari asarlari uning nomini jahonga tanitdi. Adibning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat", "Kassandra tamg'asi", "Tog'lar qulaganda" romanlarida nafaqat bir millat va mamlakat, balki





butun insoniyatga daxldor ma'naviy-axloqiy muammolar aks ettirildi. Shuning uchun ham Chingiz Aytmatov asarlari jahonning 191 tiliga o'girilib, yetmish millionga yaqin nusxada chop etilgan. Albatta, bu raqamlar to'xtovsiz ko'payib boraveradi.

Ch. Aytmatovning deyarli barcha badiiy asarlari o'zbekchaga o'girilgan. Chunki uning qalamidan chiqqan obrazlar — millatidan qat'i nazar har bir kishiga yaqin va tushunarli. Siz quyida tanishadigan "Asrga tatigulik kun" romanidan olingen parcha ham ko'pchilikka tanish ruhiy holatlarni aks ettirgani bilan e'tiborga loyiq. Asarni mashhur tarjimon Asil Rashidov o'zbek tiliga o'girgan.

## ASRGA TATIGULIK KUN

(romandan parcha)

\* \* \*

Temir yo'lning ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dashtlik — Sario'zak, o'rtacho'l yastanib yotadi.

Bo'ronli bekatidan to Naymandagi xesh-ajdodlar qabristoni Ona Bayitgacha temir yo'ldan hisoblaganda, kamida o'ttiz chaqirim keladi. Sario'zak dashti orqali to'ppa-to'g'ri kesib chiqilganda ham shuncha masofa. Mabodo, cho'lda adashib qolmay, yaxshisi, temir yo'l bo'ylab boraveray, degan odam qabristonga hali ancha uzoq yurishi kerak. Shunday qilganda, Qiyshiqliq soy jarligidan o'tib, Ona Bayitga borguncha ancha-muncha aylanishga to'g'ri keladi. Boshqa yo'l yo'q edi. Shunday qilib, eng yaqin yo'ldan yurilganda ham borishi-yu kelishi oltmischa chaqirim kelardi.

Baribir Edigey o'z gapida turib oldi: — Qo'ysalaring-chi, yigitning sha'niga to'g'ri kelmaydigan gaplarni, — deb tinchlantirdi u yoshlarni. — Bunday odamni ajdodlari yotgan joyga, Ona Bayitga qo'yishimiz kerak. Rahmatli o'zi shunday vasiyat qilgan. Kelinglar, gap sotib o'tirmay ishga o'taylik, dafnga tayyorlanaylik. Yo'limiz olis. Ertaga azonlab yo'lga tushamiz...

Edigeyning aytgani aytgan, buni hamma tushunardi. Shuning uchun ham hammalari rozi bo'lishdi. To'g'ri, Sobitjon biroz tixirlik qil-



di. U shu kuni yuk poyezdida (passajir poyezdlari bu yerda to'xtamay o'tib ketadi) yetib keldi. Sobitjon bu yoqqa kelayotganida otasining tirikligini ham, o'lganini ham bilmasdi. Shunga qaramay, dafn marosimiga yetib kelgani Edigeyning ko'nglini yumshatib, quvontirib yubordi. Boshlariga tushgan og'ir musibatdan ikkalasi bir lahma quchoqlashib, yig'i-sig'i qilib olishdi. Edigey keyinroq o'zining nega bunday qilganiga ajablandi. Ikkalasi hovli sahnida — Kazangapning egasiz qolgan paxsa devorli kulbasi eshigi oldida uzoq yig'lab turishi. Edigey nimadandir qattiq ta'sirlanganday bo'ldi. Sobitjonning yoshlik chog'lari esiga tushdi: u mushtday bola edi, otasining suyanchig'i edi. Temiryo'chilarning bolalari uchun Qumbelda ochilgan mакtab-internatga olib borib joylashtirganlari yodida. Qo'llari bo'shadi deguncha, goh yo'lovchi poyezdda, goh tuyada ko'rgani borishardi. Sobitjon yotoqda qanday yashayapti, birov xafa qilmadimikin, o'zi biror nojo'ya ish qilib qo'ymadimikin, o'qishlari qalay ekan, o'qituvchilari u haqda nima derkin, deb xavotirlanib borishardi. Ta'til tugagan paytlari o'qishta kechikib qolmasin, deb ayozli kunda necha martalab po'stinlarga o'rabi, tuyada qalin qor bosgan Sario'zak dashtligi orqali olib borib qo'yishardi.

Ko'zyoshi qilib olishgach, hol-ahvol so'rashga o'tishdi, ishdan gap ochishdi. Shu lahzada ma'lum bo'lib qoldiki, arzanda, bilag'on o'g'il otasini izzat-ikrom bilan ko'ngildagidek dafn etishga emas, balki qarzdan qutilish uchun naridan beri ustiga tuproq tortib, tezroq qaytib ketishga kelgan ekan. U g'alati-g'alati gaplarni ayta boshladi: marhumni uzundan uzoq Ona Bayitga olib borib nima qilamiz, shunday ulkan Sario'zak cho'lida bir qabrga joy topilmaydimi? Ostonadan boshlab dunyoning narigi chekkasigacha joy degan narsa to'lib-toshib yotgan bo'lsa? Qabrni shu yaqin o'rtadan, o'zi umr bo'yi ishlab kelgan temir yo'l bo'yidagi biror do'nglikdan qazish kerak. Marhum o'tgan-ketgan poyezdlarning taraqa-turuqini eshitib yotadi... Sobitjon, hatto shu xususda aytildigan qadimiy maqolni ham eslab qo'ydi: o'ladigan odamning o'lGANI yaxshi, ketadigan odamning ketgani yaxshi. Munchalik cho'zib, bosh qotirib o'tirishning kimga keragi bor? O'lGAN odamga qayerga ko'milishining nima ahamiyati bor? Bunday mahalda ish qancha tez bitirilsa, shuncha yaxshi!





...Edigey, qariganimda ham ahmoq ekanman, deb o'zini ko'yiy boshladi ichida. Mana shu laqma bilan sal avval quchoqlashib, ho'ngrab yig'lab yuborganidan nomus qilib, afsuslandi. Kazangapning o'g'li bo'lsa ham ablak ekan. Edigey o'rnidan turdi. Devor tagiga o'rindiq qilib yog'och shpal qo'yilgan bo'lib, o'rindiqda besh kishi maslahatga yig'ilishgan edi. Edigey ko'pchilikning oldida bir nima deb yubormaslik uchun o'zini arang tiyib turardi. Shunday qayg'uli bir kunda odamlar ichida haqorat gap aytsa, yaxshi bo'lmaydi. Kazangapning xotirasi hurmatini qildi. Shuning uchun u yotig'i bilan tushuntirdi:

— Atrofda yer ko'p, albatta, istaganingcha topiladi. Faqat odamlar nimagadir yaqinlarini duch kelgan yerga ko'mib ketaverishmaydi. Har holda, bejiz bo'lmasa kerak. Axir, o'likka yer qahatmi? — U jimb qoldi, Bo'ronli ahli ham uning gaplarini jimgina tinglashdi. — O'zlarining hal qilinglar, o'ylab ko'ringlar, men u yoqda nima bo'layotganini bilib kelayin-chi.

Edigey avzoyi buzilib rangi-quti o'chgancha, nariga odimlab ketdi, gunohdan uzoqroq bo'layin, deb o'yladi, shekilli. Qoshlari chimirilib, qansharidagi ajini bo'rtib chiqdi. Tabiatan qo'rsroq, qiziqqonroq edi u — shuning uchun ham uni "Bo'ron" deb atashadi-da. Mana, hozir ham odamlar bo'Imaganida Sobitjonning hayosiz ko'zlariga tikilib turib, aytadiganini aytib olardi-ya. Umr bo'yи esidan chiqmaydigan qilardi.

Edigey Sobitjon bilan bo'lgan suhbatdan so'ng ta'bi xira tortib, Qoranor oldiga bordi. Shunday bo'lismeni u oldindan sezgan edi. Sobitjon otasining o'limiga kelganini minnat qilayotgan bo'lsa, jini qo'zimay nima ham qilsin. Unga otaning o'limi ortiqcha yunday, bu yukdan tezroq qutulishga harakat qilardi. Edigey ortiqcha gapirishni lozim ko'rmadi, baribir hamma og'irlik o'zining gardaniga tushardi. Har holda, qo'ni-qo'shni ham o'zlarini chetga olishmadi. Ko'pchilikning sadag'asi ketsang arziydi. Temir yo'lida zarur ishi bo'Imagan kishilarning hammasi shu yerda, ertangi dafn marosimiga va ma'raka oshiga tayyorgarlik ko'rish uchun yordamga tutinishdi. Xotin-xalaj uyma-uy yurib idish-tovoq yig'ishdi, samovarlar ni tozalashdi, xamir qorib, non yopa boshlashdi. Erkaklar suv tashib



keltirishdi, ishdan chiqqan eski shpallarni arralab, o'tin tayyorlashdi. Dashtda o'tin-cho'p xuddi suvday aziz.

Bu ishlarga faqat Sobitjongina xalal berardi. Oblastda kim qaysi vazifada ishlaydi, kimni ishdan olib, kimning amalini oshirishgani to'g'risida gap sotib, odamlarni ishdan chalg'itardi. Qaynotasining o'limiga kelin bola kelmaganidan u zarracha ham hijolat tortmasdi. Ajabo, deya yoqasini ushlardi Edigey, emishki, kelin allaqanday konferensiyada qatnasharmish, ana shu yig'inga qandaydir chet ellik mehmonlar tashrif buyurarmish. Cholning neveralarini olib kelish to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Ular o'zlashtirish va davomat uchun kurashar ekanlar, institutga kirmoqchi bo'Igan odamning attestati toza bo'lishi kerak ekan. "Odamlarga nima bo'Igan o'zi? — deya xunob bo'ldi Edigey. — Ularga o'limdan boshqa hamma narsa muhim! — Bu fikr Edigeyning ich-etini tirnardi. — Modomiki, ularga o'lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?"

Qoranor Bo'ronga jabduq urib bo'Igach, Edigey o'rnidan turg'azdi va kelbatini ko'rib mammun bo'ldi. Hatto, o'z ishidan g'ururlanib ham qo'ydi. Ustiga rango-rang gajimli yopqich tashlangan, o'rkachlari o'rtasiga qoyilmaqom qilib egar urilgan Qoranor salobatli va mahobatlari ko'rinardi. Ha, yoshlari ko'rib havas qilishsin, ayniqsa, Sobitjon ko'rib qo'ysin: munosib yashab o'tgan odamning o'limi ham hech kimga malol kelmaydi, tashvishi tushmaydi, aksincha, qayg'uli voqeя bo'lsa-da, juda katta voqeя ekanini, shu boisdan ham so'nggi manziliga izzat-hurmat bilan uzatilayotganini bilib qo'yishsin. Ba'zi xalqlarda dafn marosimida muzika chalishadi, bayroq ko'tarib borishadi, ba'zi xalqlarda osmonga o'q uzishadi, boshqa xalqlarda esa gul-chambarlar qo'yib, marhumni gulgashadi...

Edigey Bo'ron bo'lsa, ertaga tongdayoq popukli yopqich tashlangan Qoranorda Kazangapni so'nggi abadiy manziliga — Ona Bayit mozoriga olib boradi... Poyonsiz, hayhotday Sario'zak dashtini kesib o'tishar ekan, u yo'l bo'yi faqat Kazangapni o'ylab boradi. Xeshajdodlar qabristonida do'stini tuproqqa uzatayotganida ham xayoli faqat marhumda bo'ladi. Ha, shart shundoq bo'Igan. Yo'Ining uzoq-



ligi yoki yaqinligidan qat'i nazar, hech kim, hatto, marhumning o'z o'g'li ham uning so'nggi xohish-irodasini bajarishdan bo'yin tovlay olmaydi...

Edigey jabduq ishlari bilan ovora bo'lib turgan vaqtida Edilboy daroz payt topib, Sobitjonnini bir chekkaga chaqirib oldi:

— Qani, bu yoqqa soyaga kel, gaplashib olaylik.

Gap uzoqqa cho'zilmadi. Edilboy ortiqcha tushuntirib o'tirmay, gapning po'stkallasini aytdi-qo'ydi:

— Xudoga ming qatla shukur qilgin, yaxshiyamki, olamda otangning Edigey Bo'ron degan do'sti bor ekan. Rasm-rusmini o'rninga qo'yib, dafn etishga sen xalal berma. Shoshilayotgan bo'lsang, ushlab turganimiz yo'q. Men sening o'rningga bir hovuch tuproq tashlab qo'ya qolaman!

— Mening otam, nima qilsam o'zim... — deb Sobitjon chaynala boshlagan edi, Edilboy gapini shartta kesdi:

— Ota-ku seniki, biroq sening o'zing o'zingniki bo'lmay qolibsan.

— Ja, unchalik emas, — Sobitjon biroz yon berganday bo'ldi.

— Bo'pti, shunday kunda janjal chiqarmaylik. Ona Bayit bo'lsa bo'laqolsin, menga nima, faqat uzoqlik qilarmikin, deb o'ylagan edim...

Gapga nuqta qo'yildi. Edigey Qoranorni hammaga ko'z-ko'z qilib keltirib qo'yib, bo'ronliliklarga qarata: "Qo'ysanglar-chi, erkak kishining gapini qilaylik, bunday odamni Ona Bayit mozoriga qo'ymiz", — deganida hech kim e'tiroz bildirmadi, hamma jimgina rozi bo'ldi...



### ***Savol va topshiriqlar:***

1. Sobitjonning ota jasadini shu yerning o'ziga ko'mib qo'ya qolishga urinishi sababini izohlang. Uning marhum vasiyatiga beparvoligi nimadan deb o'ylaysiz?
2. Edigeyning jasadni Ona Bayit mozoriga qo'yishga astoydil urinishi zamirida qanday ma'naviy-axloqiy asos bor deb o'ylaysiz?
3. Sobitjon bilan ko'rishib yig'lagan Edigeyning keyinroq o'zini ahmoq deb yozg'irishi sababini izohlang.

- 
4. Edigeyning: “***Modomiki, ularga o'lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo'lsa, yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?***” — degan o'ylari xususida mulohaza yuriting.
  5. Edilboy bilan Sobitjon suhbatini qayta o'qib, izohlang. Suhbatdoshlar ma'naviyatini baholang.
  6. Ko'mish marosimida ayoli va bolalarining qatnashmayotganidan Sobitjon nega xijolat bo'lmayapti, deb o'ylaysiz?
  7. Odatda tili achchiq Edigeyning Sobitjonga qattiq gapirib yuboramani sababi haqida o'ylab ko'ring.

*Bu voqeа jungjanglar Sario'zak dashtlarini egallab olish va aholini qullikka solish maqsadida tub xalqlar bilan tinimsiz urush olib borgan zamonlarda yuz bergen edi. O'z yerlariдан ayrilishni istamagan mahalliy qabilalar tinimsiz kurash olib borishar, katta-kichik janglar orasida tinch damlar ham bo'lardi. Nayman ona fojasi ayni shunday tinch kunlarning birida bo'lgandi...*

Ona Bayit qabristonining o'z tarixi bor. Rivoyatga ko'ra, o'tgan zamonlarda Sario'zakni bosib olgan jungjanglar asirga tushgan jangchilarga nisbatan behad shafqatsizlik qilishar ekanlar. Ular kezi kelib bunday tutqunlarni qo'shni o'lkalarga qul qilib sotib yuborishar ekan. Bu tutqunning omadi kelgan hisoblanar ekan. Chunki sotib yuborilgan qul ertami-kechmi, bir kuni o'z vataniga qochib ketishi mumkin ekan-da. Jungjanglarning qo'l ostida tutqun bo'lib qolganlarning esa sho'ri qurir ekan. Ular mahkumning boshiga teri qalpoq tortish yo'li bilan dahshatli bir tarzda qiy nab, uning xotirasini yo'qotar ekanlar. Odatda bunday jazoga jangda asir tushgan yosh yigitlar giriftor bo'lishardi. Avvaliga jungjanglar tutqunning sochini dastlab o'ngidan, so'ngra teskarisidan taqir qirib tashlashadi. Sartaroshlik marosimi tugagach, jungjanglarning chapdast qassoblari kattakon bir tuyani so'yib, terisini shila boshlaydilar. Ularni birinchi navbatda, eng qalin va eng og'ir bo'lgan bo'yin terisini ajratib bo'laklarga bo'lishar, hovuri



chiqib turgan yopishqoq terisini shu zahotiyoy hozirda suzuvchilar kiyadigan qalpoqcha singari tutqunning yangi qirilgan taqir boshiga kiygizib qo'yishardi. Mana shu teri qoplash deyiladi. Bunday qynoqqa duchor etilgan qul yo dahshatli azoblarga bardosh berolmay o'lib ketar, yo xotirasidan umrbod mahkum etilib, o'tmishini eslay olmaydigan qulga – manqurtga aylanib qolar edi. Bitta tuyaning bo'yin terisi besh-oltita qalpoqqa yetadi. Qalpoq qoplanguandan so'ng halokatga mahkum etilgan har bir qul qynalganda boshini yerga tegiza olmasin uchun bo'yniga yog'och bo'yinturuq bog'lashardi. Shu alfovza ularning yurakni ezuvchi, qulogni qomatga keltiruvchi dod-faryodlari eshitilib qolmasin, deb odamlardan yiroqqa, suvsiz, yemishsiz, kimsasiz yaydoq dalaga oyoq-qo'llarini bog'liq holda jazirama oftob tig'iga eltib tashlar edilar. Bu qynoqlar bir necha kun davom etardi. Kerakli joylarga soqchilar qalin qo'yilib, asirlarning qabiladoshlari ularni qutqarishga kelib qolishsa, o'tkazmaslik uchun chora-tadbir ko'rib qo'yilgan edi. Biroq qutqarishga urinishlar juda kam bo'lardi, chunki ochiq da'lada qilt etgan sharpa darhol sezilib qolardi. Buning ustiga jungjanglar falonchini manqurt qilishibdi degan xabar tarqalgan taqdirda tutqunning eng yaqin birodarları ham uni qutqazishga yoki pul evaziga qaytarib olishga urinmayoq qo'yardilar, chunki bu o'sha odamning quruq jasadinigina qaytarish degan so'z edi. Faqat rivoyatlarda Nayman ona nomi bilan mashhur bo'lib ketgan ayolgina o'z o'g'lining bu taxlit achchiq qismati bilan murosa qila olmadidi. Sario'zak afsonasi shu haqda. Ona Bayit – Onayizor makoni qabristonining nomi shundan kelib chiqqan.

Dalaga tashlangan asirlarning ko'pi Sario'zak quyoshi tig'ida dahshatli qynoqlarga bardosh berolmay halok bo'lgan. Besh-oltita manqurtdan bitta yoki ikkitasigina tirik qolgan. Boshqalari ochlikdan emas, hatto tashnalikdan ham emas, kallaga qoplangan terining quyosh issig'ida qovjirab, qoq miyani chidab bo'lmas darajada siqishi natijasida jon taslim qilar edilar. Olov purkab turgan quyosh ostida teri qalpoq shafqatsiz ravishda torayib, qulning qirilgan boshini temir chambarak singari jingirtob qilib qisardi. Oradan bir kun o'tishi bilan jabrdiydalarning taqir boshida soch nish ura boshlaydi. Osiyoliklarga xos tikanday tik dag'al sochlari ba'zida xom terini teshib chiqardi, ko'p



hollarda esa chiqishga yo'l topolmay yana qaytadan qayrilib, bosh terisiga qarab o'sardi va avvalgidan ham battar azob berardi. So'nggi sinov davomida tutqunlar es-hushlarini butunlay yo'qtardilar. Oradan besh kun o'tgachgina jungjanglar kelib tutqunlardan qay biri tirik qolganini ko'zdan kechirardi. Aqalli bitta tutqun tirik qolgan bo'lsa ham, maqsadga erishilgan hisoblanardi.

Bunday qulni qiynoqdan bo'shatib, suv berib, asta-sekin kuchga kiritib, oyoqqa turg'izishardi. Biroq u endi baribir odam sanog'idan chiqardi, zo'r lab es-hushidan judo etilgan qul – manqurtga aylanardi, xuddi shuning uchun ham bunday qul o'nta sog'lom tutqun quldan ko'ra qimmatroq turardi. Hatto shunday qonun-qoida ham bor edi-ki, o'zaro to'qnashuvda o'ldirilgan bitta manqurt uchun boshqa erkin tutqunga nisbatan uch baravar ortiq haq undirib olinardi.

Manqurt o'zining kim ekanini, qaysi urug'-aymoqdan ekani ni, ismini, bolalik kezlarini, ota-onasining kimligini butunlay yoddan chiqargan bo'lib, o'zining odamligini ham unutib yuboradi. O'zining insoniy qadr-qimmatini idrok etolmagan manqurt xo'jalik ishlari nuqtayi nazaridan bir qancha fazilatlarga ega edi. U notavon va zabonsiz bir maxluq bo'lgani uchun ham mutlaqo itoatkor va beozor. Qochaman-qo'yaman degan xayol uning tushiga ham kirmaydi. Quldar uchun eng dahshatli narsa – qulning isyoni. Har bir qul siymosida isyonkor ruh yashiringan. Yolg'iz manqurtgina bundan mustasno, isyon ko'tarish, bo'yin tovslash unga butunlay yot. Bunday tushunchalar unga begona! Unga soqchi qo'yishga, ayniqsa, buzuq niyatli kishi sifatida undan gumonsirashga hojat yo'q, manqurt xuddi it kabi faqat o'z egasini taniydi. Boshqalar bilan ishi yo'q. Uning fikri-zikri qorin to'yg'azishda, shundan boshqa tashvishi yo'q. Ammo o'ziga topshirilgan ishni o'ylamay-netmay, o'lar-tirilariga qaramay muqarrar bajo keltiradi. Manqurtlar, odatda, eng past, eng og'ir ishlarni bajarishga majbur etiladilar yoki bo'lmasa, ularga eng zerikarli, eng mashaqqatli, ovsarlar-chi sabr-toqat talab etiladigan mashg'ulotlar topshirilar edi. Kimsasiz Sario'zak yaylovlaridagi tuyalar podasidan bir qadam ham nariga jilmasdan yakka-yu yolg'iz yashashga mahkum etiladigan manqurtgina azob-uqubatlarga chiday olishi mumkin edi! Birgina manqurtning o'zi bunday olis joylarda bir qancha tuyachining o'rnini bosa olardi. Bor-



yo'g'i niyati — qorni to'ysa. Shunda u qishin-yozin demay, yolg'izlik azobiga ham, boshqa har qanday mahrumliklarga ham parvo qilmay, tinimsiz ishlayveradi. Xo'jayinning amri manqurt uchun farz ham qarz. Uning o'ziga esa xo'rak-u dashti biyobonda muzlab qotib qolmaslik uchun kifoya qiladigan ust-bosh bo'lsa bas. Bo'lak hech narsani talab qilmaydi.

Insonning insonlik fazilati, yaratilganda birga yaratilib, o'lganda yana bir o'zi bilan birga ketadigan va boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan birdan-bir noyob fazilati — xotirasi, aql-idroki bo'lsa-yu, uni tag-tomiri bilan yulib olsalar, axir bu qanday bedodlik!? Undan ko'ra tutqunning qalbini poralab, istagancha ziyon-zahmat yetkazib, o'limga mahkum etishlari yoki bo'Imasa, bir yo'la boshidan judo etsa, yuz chandon yaxshi emasmi? O'zlarining mudhish tarixida xiyonatkor si-fatida shuhrat qozongan ko'chmanchi jungjanglar eng muqaddas narsa – insonning muqaddas insoniylik mohiyatiga ham chang soldilar. Ular qullarni jonli xotiradan mahrum etish yo'lini o'ylab topdilar, shu bilan bani odam zotiga aql bovar qiladigan va bovar qilmaydigan yovuzliklar orasida eng qabih jinoyatga qo'l urdilar.

Balki, shu boisdandir, manqurtga aylantirilgan o'g'lining g'am-g'uussasi olovida qovurilgan Nayman ona shunday zikr qildi: "Bo'talog'im, seni xotirangdan judo etayotganlarida, boshingga ko'rinnmas teriqalpoq o'rnatib es-hushingdan ajratayotganlarida, yong'oq chaqadigan qisqichdek boshingga kiydirilgan tuyateri asta-sekin qu'rib qovjirab, bosh chanog'ingni jingirtob qilib siqayotganida, dahshatli qo'rquvdan ko'zlarining kosasidan irg'ib chiqqanida, Sario'zak dashtining dudsiz otashi o'lim talvasasi bilan olishib, labingni ho'llashga ham yer-u ko'kdan bir tomchi suv topolmay tashnalik azobida qovrilayotganiningda, hatto borliqqa hayot baxsh etuvchi xurshidi olam senga so'qir, balo-qazo bo'lib, dunyodagi jamiki yulduzlar qaro zulmat bo'lib ko'ringandir?..."

Tulporim, qiynoqlardan mayib-majruh bo'lgan aql-idrokingga mangu tun choyshabi yopilayotganda, xotirang rishtalari zo'rlik bilan yulib-sitib olinib, o'tgan umring bilan seni bog'lab turuvchi halqalaridan, jon talvasasida o'zingni har yon urib ona nigohini, yoz kunlari qirg'og'ida sen o'ynab yurgan tog' jilg'asining shovullashini unutayot-



ganingda, shuuringni parchalab, xotirangdan o'z nomingni, otangning nomini o'chirib tashlayotganlarida, atrofingdagi sen bilan unib-o'sgan odamlarning chehralari so'nayotganida va senga uyalib, iymanib ta-bassum qilayotgan mahbubaning jamoli qorong'ulashayotganida xotirasizlik jariga qular ekansan, o'z vujudida homila paydo etishga jur'at etib va shu mudhish kun uchun seni yorug' dunyoga tavallud toptirgan onayizoringga la'natlar yog'dirgandirsan?..”



### **Savol va topshiriqlar:**



1. Boshqa fanlardan olgan bilimlaringizga tayanib javob bering: bugungi kun jungjanglari kimlar? Ularning ko'zlagan maqsadlari nima? Kimlarni manqurtlashtirmoqchi bo'lishyapti?
2. Boshga teri qoplash jarayoni tasvirlangan lavhani qayta o'qing. Zamonamiz jungjanglarining teri qoplash usullari haqida mulohaza yuriting.
3. O'zining milliy qadriyatları, diniy e'tiqodidan begona bugungi manqurtlar qiyofasi, xatti-harakati, umuman, ularning namoyon bo'lish shakllari to'g'risida o'rtoqlaringiz bilan fikr almashing.
4. Yozuvchining quyidagi fikriga munosabat bildiring: “*O'zlarining mudhish tarixida xiyonatkor sifatida shuhrat qozongan ko'chman-chi jungjanglar eng muqaddas narsa – insонning muqaddas insoniylik mohiyatiga ham chang soldilar. Ular qullarni jonli xotiradan mahrum etish yo'lini o'ylab topdilar, shu bilan bani odam zotiga aql bovar qiladigan va bovar qilmaydigan yovuzliklar orasida eng qabih jinoyatga qo'l urdilar.*”

Bu voqealarda Osiyoning ko'chmanchi janubiy sarhadlaridan siqib chiqarilgan jungjanglar shimal sari yopirilib kelib, Sario'zak dashtlarini uzoq vaqtgacha egallab, bosib olgan yerlarni kengaytirish va aholini qullikka solish maqsadida tub xalqlar bilan tinimsiz urush olib bor-gan zamonlarda yuz bergan edi. Dastlabki paytlarda ular tinch aholi ustiga to'satdan bostirib kelganlari tufayli Sario'zak atrofida yashovchi ko'p sonli kishilarni, shu jumladan, ayollarni va bolalarni asir tushiradi-



lar. Qo'lga tushgan tutqunlarning hammasini qullikka mahkum etadilar. Biroq kelgindilarning bosqinchilik harakatiga qarshi kurash tobora kuchaya boradi. Ayovsiz to'qnashuvlar boshlanadi. Jungjanglarning Sario'zakdan ketadigan siyoqlari sezilmasdi, bil'aks ular chorva uchun keng-mo'l yaylovlari bo'lgan bu manzilga tish-tirnoqlari bilan yopishib oldilar. Mahalliy qabilalar esa o'z yerlarini yo'qotishni istamas, ertami-kechmi bosqinchilarni bu yerdan haydab chiqarishga o'zlarini haqli va burchli hisoblashardi. Alqissa, bunday katta-kichik janglarda goh u tomonning, goh bu tomonning qo'li ustun kelib turdi. Ammo bunday urushlar orasida osoyishta damlar ham bo'lardi.

Osoyishta damlarning birida naymanlarning yurtiga karvonda mol ortib kelib qolgan savdogarlar choy ichib, gurunglashib o'tirarkan, o'zları ko'rib shohidi bo'lgan bir voqeani gapirib berishadi. Aytishlaricha, Sario'zak dashtining jungjanglar tomonidagi quduqlar yonidan bamaylixotir o'tib borayotganlarida yo'lda kattakon tuyalar podasini o'tlatib yurgan bir navqiron cho'ponga ko'zları tushib qoladi. Savdogarlar u bilan gaplashmoqchi bo'lib og'iz ochganlarida cho'ponning manqurt ekanini payqab qoladilar. Sirtdan qaraganda, cho'pon sog'lom yigitga o'xshar, boshidan nimalar kechgani hech kimning xayoliga kelmas edi. Balki, u ham qachonlardir boshqalar singari esli-hushli, so'zamol bo'lgandir. O'n gulidan bir guli ochilmagan, mo'yla bi endigina sabza ura boshlagan, kelbati kelishgan, ammo ikki og'iz gaplashmoqchi bo'lsang, xuddi kecha tug'ilganga o'xshaydi, boyaqish na o'zining, na ota-onasining ismini biladi: jungjanglar uni qanday ko'yga solishganini, urug'-aymoqlari kimligini ham unutib yuborgan. Biron narsa so'rasang lom-mim demaydi, faqat "ha" yoki "yo'q" degan javobni beradi, doim boshiga bostirib kiyilgan telpagidan qo'lini tushirmaydi.

Gunoh ekanini bilishsa-da, jismoniy mayib-majruhlarni ham odamlar mazax qilishadi. Shunday manqurtlar ham bo'lar emishi, ularning boshiga kiydirilgan tuya terisi ba'zan bosh terisi bilan birga qo'shilib o'sar emish va h.k., h.k. xususida so'z yuritib kulishadi. Bunday manqurtlarni, kel, boshingni bug'lab yumshatamiz, deb qo'rqitishsa, go'yo bundan ortiq jazo yo'qdek, ko'zları qinidan chiqib ketar ekan. Asov ot singari depsinib, birovning qo'lini boshiga yaqinlashtir-



mas ekan. Bu xil manqurtlar kun-u tun, hatto, uxlaganda ham telpagini yechmas ekan... Ammo-lekin, suhbatni davom ettirishardi mehmonlar, manqurt g'irt ahmoq bo'lsa ham, ishiga puxta ekan — toki biz uning tuyalaridan uzab ketmaganimizcha ko'z-qulqoq bo'lib turdi. Karvonchilardan biri o'sha manqurtni mazax qilmoqchi bo'lib so'rabi:

— Borar yerimiz olis. Sendan kimga, qaysi suluvg'a, qaysi yurtlarga salom aytaylik? Aytaver, yashirmay. Eshityapsanmi? Balki nomingdan ro'mol tortiq qilaylikmi?

Manqurt yo'lovchiga tikilganicha uzoq vaqt indamay turdi-da, so'ng:

— Men har kuni oyga tikilaman, oy esa menga tikiladi. Ammo biz bir-birimizning ovozimizni eshitmaymiz... U yoqda kimdir o'tiribdi..., — dedi g'uldirab.

Gurung payti o'tovda savdogarlarga choy quyib o'tirgan bir ayol ham bor edi. Bu Nayman ona edi. Sario'zak afsonasida u shunday nom bilan qoldi. Nayman ona yo'lovchi mehmonlarga sir boy bermadidi. Bu xabarni eshitib, nogoh dahshatga tushganini, rangi-ro'yi o'zgarib ketganini hech kim sezmadidi. U savdogarlardan yosh manqurt to'g'risida yana nimalarnidir so'rab-surishtirgisi kelar, ammo xuddi mana shu narsa — yana ham ko'proq narsani bilishdan vahimaga tushardi. Nayman ona tilini tiydi. Yaralangan qushning chinqirig'i singari qalb tug'yonini ichiga yutdi... Bu orada suhbat mavzusi o'zgarib, turmushda nimalar bo'lmaydi deganlaridek, bechora manqurt haqidagi hozirgina o'tirishgan voqeani butunlay unutishdi. Nayman ona bo'lsa butun vujudini qamrab olgan qo'rquvdan o'zini tinchitishga, qo'llarining titrog'ini bosishga harakat qilardi. U endi ko'pdan beri oqara boshlagan sochlariga tashlab yuradigan qaro ro'molini manglayi uzra yuziga tushirib olgan edi.

Savdogarlarning karvoni ko'p o'tmay o'z yo'liga ravona bo'ldi. O'sha kecha tong otgunga qadar turli o'y-xayollar og'ushiga cho'mgan Nayman ona Sario'zak dashtidagi o'sha manqurt-cho'ponni topib, uning o'g'limi, yo'qmi ekaniga ishonch hosil qilmaguncha ko'ngli tinchimasligini angladi. Ona ko'nglini allaqachonlardan beri jang maydonida qolgan o'g'lining bedarak ketgani g'ash qilib kelar edi, endi o'sha sezgi, o'sha gumon qayta qo'zg'alib, uni dahshatga





sola boshladi... Bunday qynoqlar-u azob-uqubatlardan bir umr g'am chekib, gumonsirab, xavotirlanib yurgandan ko'ra, albatta, o'g'lini bir emas, ikki bor ko'mgani yaxshi emasmi?

Uning o'g'li Sario'zak tomonlarda jungjanglar bilan bo'lgan jangda shahid bo'lgan edi. Eri undan bir yil muqaddam halok bo'lgan edi. Nayman elida ma'lum va mashhur kishi edi u. Keyin o'g'il otasining o'chini olish uchun birinchilardan bo'lib jangga otlandi. Bu elat odati-da halok bo'lganlarni jang maydonida qoldirib ketish nomus sanalardi. Qarindosh-urug'lari jangchining jasadini olib kelishlari lozim. Biroq uning iloji bo'lmadi. O'sha katta jangda qatnashganlardan ko'pgina kishi dushman bilan ro'baro' kelib jangga kirishganida Nayman onaning o'g'li ot yolini quchoqlaganicha yiqliganini, jang suronidan cho'chigan ot uni olib qochganini ko'rishgan ekan. Shunda yigit egardon qulaydi-yu, bir oyog'i uzangidan chiqmay o'zi otning uzangiga osilib qoladi, bundan battar hurkib ketgan ot jon-jahdi bilan uning jonsiz tanasini cho'l ichkarisiga sudrab ketadi. Olatasir qiyomat qo'pganiga, har bir jangchi kurash maydonida bo'lishi lozimligiga qaramay, qochib borayotgan otni va marhumning jasadini zudlik bilan qo'lga kiritish uchun qabiladoshlaridan ikki kishi otlarini yo'rttirib ketishadi. Ammo shu payt jungjangchilarning soy ichida pistirmada turgan bir necha haydar kokilli suvorilari qiyqirishganicha yo'lni kesib chiqishadi. Naymanlardan biri shu zahotiyoy kamon o'qiga uchib halok bo'ladi, ikkinchisi esa og'ir yaralanib orqasiga qaytadi, safdoshlari yoniga arang yetib kelib shu yerda qulaydi. Shu voqeа sabab bo'lib, urushning hal etuvchi eng qulay payti jungjanglarning yon tomondan zarba berishga shaylanib turgan guruhlari pistirmada yashirinib yotganini vaqtida sezib qolishadi. Naymanlar qayta saf tuzib, yana jangga kirish uchun shoshilinch ravishda chekinishadi. Albatta, bunday qizg'in jang ichida Nayman onaning o'g'li – yosh jangchining nima bo'lganini surishtirib o'tirishga kim ham fursat topibdi, deysiz. Otida chopib kelib, o'z safiga arang qo'shilgan haligi yarador nayman yigitning keyinchalik onaga aytib berishicha, o'g'lini sudrab ketayotgan otni quvlab borayotganlarida ot noma'lum tomonga burilib ketib, darhol ko'zdan g'oyib bo'lgan...



\* \* \*

Jangchining jasadini izlab naymanlar necha kunlab dala yo'llarini kezib chiqdilar. Biroq na jasad, na oti, na tushirib qoldirgan qurol-yarog'ini, na boshqa biron belgi-alomatni topa oldilar. Uning halok bo'lGANI hech kimda shubha qoldirmagan edi. Boringki, yarador bo'lGAN taqdirda ham oradan o'tgan kunlar orasida cho'lida suvsizlik-dan yoki bo'lmasa, qon ketishidan halok bo'lishi muqarrar. Yosh bi-rodarlarining kimsasiz Sario'zak cho'lida dafn etilmay qolib ketgani alamidan hasrat-nadomat chekdilar. Bu hammaga isnod edi. Nayman ona o'tovida ovoz chiqarib yig'lashgan xotin-xalajlar erlari va og'a-inilari sha'niga ta'na toshlarini yog'dirdilar:

— Uning ko'zlarini quzg'unlar cho'qidi, shoqollar go'shtini bur-dalab ketdi, endi sizlar qaysi yuz bilan el orasida bosh ko'tarib yura-sizlar?!..

O'sha kundan boshlab Nayman ona uchun yer-u ko'k hu-villab qoldi. To'g'ri, urush qurbonsiz bo'lmaydi, buni ona ham yax-shi tushunadi, biroq o'g'lining jasadi ko'milmasdan jang maydonida qolib ketgani unga sira ham tinchlik bermasdi. Achchiq qayg'u, ponyi yo'q o'y-xayollar ona qalbini poralar edi. Cheksiz dard-anduhini yengillashtirish uchun parvardigordan bo'lak kimga ham iltijo qilsin... O'g'lining o'limini o'z ko'zi bilan ko'rib ishonch hosil qilmaguncha bunday mudhish xayollardan qutulib, joni joy topmas edi onaning. O'shanda taqdirga tan berishdan bo'lak chora qolmagan bo'lardi. O'g'lining oti ham dom-daraksiz ketgani ko'nglini battar xijil qilardi. Ot halok bo'limgan, balki hurkib qochgan. U uyurdagi otlar singari ertami-kechmi, bir kun uzangiga osilib qolgan chavandoz jasadini sudrab qadrdon joyiga qaytishi kerak edi. Shunda qanchalik dahshat-li bo'lmasin, ona o'g'lining jasadini ustida dod-faryod, o'pkasi to'Iguncha yig'lab, ko'nglini biroz bo'shatib olgan bo'lardi. U o'z qismatidan, baxtiqaroligidan nolib, yuzlarini tirnoqlari bilan yumdalab qarg'anardi. O'g'lining daragi chiqqanida-ku, erta-yu kech ich-etini yeb, gumonsi-rab, ko'nglida sovuq shubhani ko'tarib yurmagan bo'lardi. Xudodan uzoq umr bergen, deb iltijo qilib o'tirmasdan, orzu-umidlardan bir yo'la mahrum bo'lGAN holda o'limga tayyor turib bergen bo'lardi. Biroq



o'g'lining jasadi topilmadi, oti qaytib kelmadi. Har qanday yo'qotish bora-bora esdan chiqarilgani singari bu voqeal ham vaqt o'tishi bilan urug'-aymoqlari xotirasidan ko'tarila boshladi... faqat u — yolg'iz onayizorgina besar-u somon, betoqat kutardi. O'y-xayollar girdobida onaning fikri chuvalgani chuvalgan. Axir, jungjanglar Sario'zak dashtining biron yerida holdan toygan otni ushlab olgan bo'lislari mumkin. Yaxshigina egar-jabduqli, yana buning ustiga o'z oyog'i bilan kelgan tulpor naqd o'lja-ku. Unday bo'lsa uzangida oyog'i ilinib kelgan o'g'lining jasadini g'animlar nima qilishdi — yerga ko'mishdimi yo cho'l darrandalariga yemish bo'ldimi u? Bordi-yu hali o'Imagan, falakning gardishi bilan tirik qolgan bo'lsa-chi? Chala o'lik yigitni ular urib halok qilishgan yoinki yaydoq dalaga quruq jasadini tashlab ketishgan bo'lishsa-chi? Yo... agar...

Gumon-shubhalarning cheki yo'q edi. Sayyooh savdogarlar choy ichishib o'tirishganda, Sario'zakda uchragan yosh manqurt haqida gap ochib Nayman onaning o'rtangan yuragini battar o'rtab, yarasiga tuz sepishganini o'zlari ham payqashmagan edi. Ona qandaydir falokatni sezib, yuragi orqasiga tortib ketdi. O'sha manqurt mening o'g'lim bo'lib chiqsa-ya, degan hadik borgan sari kuchayib, uning aql-u hushini, butun vujudini tobora chuqurroq, tobora kuchli-roq chirmab ola boshladi. O'sha manqurtni izlab topib, o'z ko'zi bilan ko'rib, uning o'z pushtikamaridan bo'lgan o'g'li emasligiga ishonch hosil qilmaguncha ko'ngli tinchimasligiga ko'zi yetgan edi.

Nayman ona kecha oqshomdayoq safar jabduqlarini but qildi. Yegulik va ichguligini g'amladi. Ayniqsa, suvni mo'lroq oldi. Sario'zakning cho'lida quduq topilmay qolguday bo'lsa deganday, har ehtimolga qarshi, ikki meshni to'ldirdi... Kecha oqshomdayoq urg'ochi tuya Oqmoyani shay qilib, qoziqqa bog'lab qo'ygan edi. Umidi-ishonchi ham, birdan bir hamrohi ham o'sha. Oqmoyanining kuch-quvvatiga-yu yo'rg'asiga ishonmaganda Sario'zakdek soqov cho'lga yo'l olishga jur'at eta olarmidi?! Oqmoya ikki bor bolalagan-dan so'ng o'sha yili qisir qolib obdon dam olgan. Uning avji kuchga to'lib, minishga qo'l kelib turgan kezlari edi. Ozg'in, chayir oyoqlari uzundan kelgan, tovonlari yumshoqqina, qarilig-u og'ir yukdan hali toliqmagan, qo'sh o'rakachli, kamondek egilib kelgan baquvvat bo'yni-



yu boshi kelishimli, kapalakning qo'sh qanotiday dirillab, yengil yelib, yo'l-yo'lakay havoni sipqarib borayotgan Oqmoya bebaho tuya bo'lib, uning bir o'ziga butun bir uyurni alishtirsa arzir edi.

Nayman ona erta tongda o'tovdan chiqdi. "Ashhadu alla ilaha illallahu", — deb pichirlagancha kalima qaytardi. So'ng tuyasi tomon shaxdam odimlab borib, uni cho'ktirdi. Oqmoya jahli chiqqanidan emas, balki shunchaki, odatga ko'ra sekin baqirib qo'ydi-da, bemalol ko'kragini yerga berib cho'kdi. Tuya u yon-bu yon qo'zg'alib tura boshlaganda Nayman ona go'yo qanot bog'lab zamindan uchib ketganday bo'ldi. Uzoq safarga yo'l olayotganlarini Oqmoya endi tu-shundi...

\* \* \*

...Oqmoya necha kundan beri buyuk Sario'zak dashtining qir-adirlari-yu soyliklari bo'ylab pishqirganicha, bir maromda yo'rtib borardi. Ular yo'lda duch kelib qolgan birorta quduq boshida kechalari-gina to'xtashardi. Tong otishi bilan yana oyoqqa turib qat-qat yastanib ketgan Sario'zak adirlarini kezib, katta tuyalar to'dasini izlashardi. Haligi savdogarlarning aytishlariga qaraganda, ular tuyachi manqurtni Sario'zak cho'lining xuddi mana shu qismida — olis-olislarga cho'zilib ketgan Malaqum dichop jarligi etagida ko'rishgan. Nayman ona xuddi mana shu manqurtni izlayotgan edi. Mana ikki kundirki, ona jungjanglarga yo'liqib qolishdan qo'rqib, atrofga olazarak bo'lib qarab, Malaqum dichop jarligining u yoq-bu yog'ini aylanib yurar, ammo u qayoqqa ko'z yogurtmasin, qayerni izlamasin, faqat cheksiz dasht-u biyobonlarga, aldoqchi sarooblarga duch kelardi, xolos.

Vaqt o'tgan sari Nayman ona xavotirlana boshladi, uyurni boshqa tomonlarga haydab ketishmaganmikin, yoki jungjanglar bu tuyalar ni ko'tarasiga sotish uchun Xiva yoki Buxoro bozorlariga haydab ketishmaganmikin? Agar ular shunchalik olis yerga ketishgan bo'lsa, haligi tuyachi yana qaytib kelarmikin yoinki tuya bilan qo'sha sotilib nom-nishonsiz ketarmikin?.. O'g'ilimni tirik ko'rsam, manqurt bo'lsa ham, aqldan ozib hech nimani eslay olmaydigan merov bo'lib qolgan bo'lsa ham mayli, o'sha cho'pon o'g'ilim ishqilib joni omon bo'lsa,



bas... Shunga ham ming qatla shukur — sog'inch-u gumonlardan joni bo'g'ziga kelgan onaning ovuldan chiqish oldidagi birgina umidi shu edi.

Biroq ona Sario'zak sari ichkarilab, haligi karvon tortgan sav-dogarlar biz tuyachi manqurt ni shu yerda ko'rdik, degan mo'ljalga yaqinlashib borar ekan, o'g'limning o'rniga ovsar va majruh bir kim-saga duch kelib qolsam, holim ne kechadi, deb dili xufton bo'laverdi. Shunda u yana xudodan yolvorib so'radiki, agar unday bo'lsa, o'sha manqurtning o'g'lim bo'b chiqmasdan boshqa bir baxtiqaro gumroh bo'b chiqqani ma'qul, o'shanda men ham: "O'g'lim endi yo'q, u o'lgan ekan", — deb taqdirga tan bergen bo'lardim.

Mana shunday ming xil o'y-xayollar va shubhalar og'ushida bo-rarkan, ona yassi qum tepaliklaridan oshayotib nogahon ko'p sonli tuyalar uyurini ko'rib qoldi: qo'ng'ir tusga kirib, semirib ketgan yuzlab tuyalar mayda butalar-u yantoqlarning uchlarini kemirib, keng may-donda bemalol o'tlab yurishardi. Nayman ona Oqmoyasiga qam-chi bosib, choptirib ketdi. Uyurni izlab topganidan quvonchi ichiga sig'may nafasi bo'g'ziga tizildi. Ammo shu zahotiyoy manqurt qilib qo'yilgan o'g'lini ko'rishini eslab, qo'rqqanidan a'zoyi badani muzlab ketdi. So'ng yuragi yana quvonchga to'ldi va shu bilan ne ahvol-ga tushganini o'zi ham anglamay qoldi. Mana, tuyalar o'tlab yuribdi, ammo tuyachi qayerda ekan? Har holda, shu atrofda yurgandir. Shu payt yayloving narigi chekkasida odamning qorasi ko'rindi. Olisdan uning kimligini tanib bo'lmashdi. Tuyachi uzun tayog'iga suyangan holda ortidagi yuk ortilgan tuyasining tizginini ushlab, qosh ustiga bostirib kiygan telpagi ostidan onaning yaqinlashib kelayotganini ba-maylixotir kuzatib turdi.

Nayman ona tuyachiga yaqin kelib uni tanidi-yu tuyasidan qan-day tushganini bilmay qoldi. Yiqilib tushdimi, surilib tushdimi — shu topda onaga buning ahamiyati yo'q edi!

— O'g'ilginam, qarog'im! Seni izlamagan joyim qolmad! — deya o'g'li tomon talpindi. — Men sening onangman!

Birdan ona ahvolni tushundi. Tushundi-yu, depsinib qichqir-gancha yig'lab yubordi. Alam va dahshatdan lablari dirillab, shun-cha urinsa ham o'zini qo'lga ololmasdi. Yiqilib tushmaslik uchun lo-



qayd o'g'lining yelkasiga yopishib olib, qachonlardan beri xavf solib turgan, endi esa uni bosib tushgan tog'day g'am yuki ostida ezilib faryod chekar, ko'z yoshlari selday oqardi. Ona bo'zlab yig'lar ekan, ko'z yoshlari orasidan, ho'l bo'lib chakkalariga yopishib qolgan burul soch tolalari orasidan, yuzlarini chang bilan bulagan qaltiroq barmoqlari orasidan farzandining tanish qiyofasiga boqar, uning o'ziga nigoh tashlashini orziqib kutar va meni tanib qolar, deb umid qilardi. Axir tuqqan onasini tanib olish qiyin emas-ku!

Biroq onaning kelgani unga go'yo har doim yonida yurganday, zarracha ta'sir qilmadi. U, hatto onadan kimsan, nega yig'layapsan, deb so'ramadi ham. Ma'lum lahzalardan so'ng tuyachi onaning qo'lini yelkasidan surib tashlab, ustida yuk bor tuyasini yetaklagancha odimlab ketdi: u sho'xlik qilib bir-birlari bilan o'ynashayotgan bo'taloqlar uyurdan uzoqlashib ajralib ketmasin, deb tuyalar to'dasining narigi chekkasi tomon yo'l olgan edi.

Nayman ona bukchayib o'tirib qoldi, xo'rsinib-xo'rsinib yig'ladi va shu o'tirishda yuzini changallagancha bosh ko'tarmay uzoq qolib ketdi. So'ng bor kuchini to'plab, o'zini xotirjam ko'rsatishga urinib, o'g'li tomon yura boshladi. Manqurt o'g'il hech nimani ko'rмагандай-бilmaganday, pinagini buzmasdan, bostirib kiyib olgan telpagi os-tidan ma'nosiz va loqaydlik bilan qarab turardi. Cho'l shamolida qora-yib, dag'allashib ketgan yuzida xiyol jilmayish paydo bo'ldi. Ammo ko'zlar dunyoni tark etgan kishining ko'zlariday loqayd boqardi.

— O'tir, gaplashamiz, — dedi og'ir xo'rsinib Nayman ona.

Ular yerga cho'kdilar.

— Meni taniyapsanmi? — so'radi ona.

Manqurt yo'q deganday bosh chayqadi.

— Oting nima?

— Manqurt, — dedi u.

— Seni hozir shunday deb atashadi. Avvalgi oting esingdami? Asli ismingni eslab ko'r-chi.

Manqurt jim qoldi. U haqiqiy ismini eslashga harakat qilayotgani, qynalganidan qanshari ustida munchoqdek ter tomchilari paydo bo'lib, ko'z o'ngini tuman qoplaganini ona ko'rib turdi. Ammo qarshisida qandaydir to'siq paydo bo'ldi-yu uni yengib o'tishga qurbi yetmadi...



— Otangning otini bilasanmi? O'zing kimsan? Eli-yurting qayerda? Qayerda tug'ilganiningni bilarsan, axir?

Yo'q, manqurt hech nimani tushunmasdi, hech narsani eslay olmasdi.

— Hali, shunchalik ahvolga solishdimi seni! — deya pichirladi ona.

U najotsizlikdan lablari titrab, g'am-g'ussa-yu qahr-g'azabdan o'zini tuta olmay yana qaytadan o'ksinib-o'ksinib yig'ladi, tinchlanishga behuda urinar edi, xolos. Onaning ohu-fig'oniga manqurt pinagini ham buzmadi.

— Yerdan mahrum etish mumkin, mol-dunyodan mahrum etish mumkin, hatto, insonni yashashdan mahrum etish ham mumkin, — derdi ona o'z-o'zicha gapirib, — biroq odamni xotirasidan mahrum etishni kim o'ylab topdi ekan, bunga kimning qo'li bordi ekan?! Yo rabbim, agar olamda bor bo'lsang, bandalaringga bu yovuzlikni qanday ravo ko'rding. Yer yuzida usiz ham yovuzlik kammidi?

Ona manqurt o'g'liga qarab turib, quyosh, Xudo va o'zi to'g'risida to'qigan mashhur marsiyasini aytdi. Sario'zak voqealari haqida gap ochilib qolganda bilgan kishilar hanuzga qadar Nayman onaning o'sha so'zlarini bir-biriga rivoyat qilib aytib yurishadi...

Shunda ona mashhur marsiya boshladi, bilgan kishilar bu so'zlarni hozirga qadar eslab yurishadi:

Tulubin<sup>1</sup> kelib iskagan,

Bo'tasi o'lgan bo'z moyaman...

Ona qalbidan otilib chiqqan dod-faryod ohangi kimsasiz, had-hududsiz Sario'zak cho'lini larzaga solganday yangrab turdi.

Biroq bu nola-faryod manqurtning to'pig'iga ham chiqmadi.

Shunda Nayman ona so'rab-surishtirishlar bilan emas, balki aqlini kovlash, qitiqlash bilan es-hushini o'ziga keltirmoqchi bo'ldi.

— Sening oting Jo'lomon. Eshitdingmi? Sen Jo'lomonsan, otangning oti — Do'naboy. Otangni eslay olmaysanmi? Axir, u seni bolalik chog'ingdan kamon otishga o'rgatgan. Men sening onang-

---

<sup>1</sup>Tulub — o'lgan bo'taloqning somon tiqilgan jasadi.



man. Sen esa mening o'g'limsan. Sen nayman urug'idansan, tushuningmi? Sen naymansan...

Onasining hamma gaplarini o'g'il avvalgiday mutlaqo loqaydlik bilan eshitdi. Ona go'yo devorga gapiroayotganday edi. Onaning so'zлari karning qulog'iga azon aytganday gap edi. Nayman ona manqurt o'g'ildan so'radi:

— Bu yerga kelganingga qadar nimalar bo'ldi?  
— Hech narsa bo'lгani yo'q, — dedi o'g'il.  
— Kim bilan gaplashging keladi?  
— Oy bilan. Biroq, bir-birimizning gapimizni eshitmaymiz. U yerda kimdir o'tiribdi.

— Yana nimani istaging keladi?  
— Xo'jayinimning boshidagi singari kokil qo'yishni.  
— Qani, beri kel-chi, boshingni bir ko'rib qo'yay, ular nima qilib qo'yishganini — deb ona unga tomon talpindi.

Manqurt shartta tisarilib, o'zini olib qochdi, boshidagi telpagini changallagan bo'yicha qaytib onaga boqmadi. Bosh haqida hech qachon so'z ochish mumkin emasligini ona endi tushundi.

Shu payt olisdan tuya mingan kishining qorasi ko'rindi. U shu yoqqa tomon kelayotgan edi.

— Bu kelayotgan kim? — so'radi ona.  
— U menga ovqat olib kelyapti, — dedi o'g'il.

Nayman ona tashvishga tushdi. Bevaqt paydo bo'lib qolgan bu jungjangning ko'ziga chalinmaslik uchun tezroq g'o'yib bo'lish kerak edi. U tuyasini cho'ktirib, darhol minib oldi.

— Sen unga hech narsa aytmagin. Men tezda qaytib kelaman,  
— dedi Nayman ona.

O'g'li lom-mim demadi. Uning parvoyi palak edi. O'tlab yurgan tuyalar orasidan qochib borayotgan Nayman ona xato ish qilib qo'yiganini tushundi. Biroq vaqt o'tgan edi. Oq tuyaga minib borayotgan onani jungjang ko'rib qolishi mumkin edi. Oqmoyasini yetaklab, o'tlab yurgan tuyalar orasidan berkinib yayov jo'nagan ma'qul edi.

Yaylovdan xiyla olislab ketgach, Nayman ona chetlarida erman-shuvоqlar o'sib yotgan chuqur jarlikka kirib bordi-da, Oqmoyani cho'ktirib kuzata boshladi. Gumoni to'g'ri chiqdi, payqab qolgan ekan.



Ko'p o'tmay tuyasini yo'rttirib kelayotgan haligi jungjangning qorasi ko'rindi. U nayza va o'q-yoy bilan quollangan edi. Jungjang, haligi oq tuya minib olgan odam qayoqqa g'oyib bo'ldi, deganday atrofga alanglab qarar edi hayratlanib. U qaysi tomonga qarab yurishini bilmay, gangib qolgan edi. Goh u yoqqa, goh bu yoqqa tuya choptirib o'tdi. Nihoyat, jarlikka juda yaqinlab keldi. Yaxshiyamki, Oqmoyaning tumshug'ini ro'mol bilan bog'lab qo'yish esiga kelgan ekan. Aks holda u bo'kirib yoki pishqirib yuborishi mumkin edi. Nayman ona jarlik yoqasidagi erman orasiga yashirinib olgan joyidan jungjangni endi aniq ko'ra boshladi. U baroq tuya ustida atrofga olazarak bo'lib qarardi, ko'pchib ketgan yuzlari jiddiy tusda, boshidagi qora qalpog'inining ikkala uchi tepaga qayrilib ketgan, go'yo qayiqni eslatardi. Boshining orqa tomonida esa bir o'rim qop-qora haydar kokili yaltirab, osilib turardi. Jungjang uzangida tik turib, nayzasini o'qtalgancha ko'zlarini chaqchaytirib atrofga nazar tashlardi. Bu odam Sario'zakni bosib olib, qanchalab aholini qul qilib haydab ketgan, onaning oilasiga ham cheksiz kulfatlar keltirgan g'animplardan biri emasmi? Mana shu qu-turgan yirtqich yovga qarshi yolg'iz ona – qurol-yarog'siz ayol nima ham qila olardi? Insonni xotirasidan mahrum etishdek shafqatsizlik-u vahshiylikka ularni qaysi turmush, qaysi voqea-hodisalar majbur etdi, deb o'ylar edi ojiz qolgan ona o'zicha...

Jungjang u yoq-bu yoqqa zir yugurib hech nimani uchratmagan dan so'ng tezda ortga, tuyalar to'dasi tomon qaytdi.

Nayman ona bu tunni tanho o'zi bechora manqurt o'g'li yaqinida — dashtda tunab o'tkazdi. O'g'lining yoniga borishga cho'chidi, haligi xavfsirab qolgan jungjang kechasi uyur oldida qolishi ham mumkin.

O'g'lini qullikda tashlab ketmay, bir amallab birga olib ketishga qaror qildi ona. O'g'li manqurt bo'lsa ham, mayli, hech nimani tushunib, anglab yetmasa ham mayli, kimsasiz cho'lda, jungjanglarning tuyasini boqib xor bo'lib yurganidan ko'ra o'z uyida, o'z odamlari orasida yashagani yaxshi emasmi? Ona qalbi shuni istardi. Boshqalar taqdirga tan berib ketishi mumkin bo'lgan holga ona sira ham ko'na olmasdi. U o'z qoni va jonini, ko'z qorachig'ini qullikda qoldirib ketishni sira-sira istamasdi. Balki bolasi o'z yerida hushi-



ga kelib, bolalik kezlarini eslab, barcha ko'rgan-kechirganlarini qayta tiklab olar, deya umid qilardi.

Ertasiga ertalab Nayman ona Oqmoyaga minib yana yo'lga tushdi. Uyur bu yerdan xiyla uzoqlashib ketgan edi. Izlab, aylanma yo'llardan ehtiyotkorona o'tib, uzoq yo'l bosdi. Tuyalarni ko'rgandan keyin ham jungjanglardan birontasi ko'rinish qolmasin, deb uzoq vaqt kuzatib turdi. Hech kimning yo'qligiga ko'zi yetgach, o'g'lining otini aytib chaqirdi.

— Jo'lomon! Jo'lomon! Omonmisan?

O'g'li burilib qaragan edi, ona quvonchidan baqirib yubordi, ammo shu zahotiyooq, o'g'li shunchaki, ovoz chiqqan tomonga qaraganini payqab qoldi. Nayman ona o'g'lining xotirasini tiklashga yana urinib ko'rdi.

— Oting nima, eslab ko'r-chi! — deb yalinib-yolborib inontirishga harakat qilardi u. — Otangning oti Do'nанboy, bilmaysanmi uni? Sening isming manqurt emas, Jo'lomon. Naymanlarning yayloviga ko'chib borayotganimizda yo'lda tug'ilgansan. Shuning uchun otingni Jo'lomon qo'yganmiz. Sen tug'ilganingda biz o'sha yerda qolib uch kecha-kunduz to'y-tomosha qilganmiz. — Bu gaplar manqurt o'g'ilga zarracha ta'sir etmayotganini bilsa ham, baribir ona uning so'ngan xotirasida nimadir yilt etib ko'rinish qolar, degan umidda behuda urinardi. Ammo u devorga gapi rayotganday edi. Shunga qaramay, o'tgan-ketganlardan gapirib, hadeb o'zinikini takrorlayverdi:

— Oting nima, eslab ko'r! Otangning oti Do'nанboy!

So'ng ona o'zi bilan olib kelgan taomlaridan yedirib-ichirib bo'lgandan so'ng, alla ayta boshladi. Alla manqurtga ma'qul kelganday bo'ldi shekilli, qulq solib tinglab o'tirdi. Qorayib, uniqib ketgan yuziga qandaydir iliqlik yugurganday bo'ldi. Shunda ona o'g'lini bu yerdan — jungjanglarning izmidan o'z tug'ilib o'sgan qadrdon yeriga birga olib ketishga ko'ndirishga kirishdi. Manqurt esa tuyalarni qoldirib, qayoqqadir bosh olib ketishni miyasiga singdira olmadi: yo'q, xo'jayinim tuyalardan bir qadam ham jilmaysan deb buyurgan, shuning uchun uyurni tashlab biron yoqqa ketmayman...

Chiqmagan jondan umid deganlariday, Nayman ona barbos etilgan xotira eshigini ochib kirishga qayta-qayta harakat qilardi:



— Eslab ko'r-chi, kimning o'g'lisan? Oting nima? Otangning oti Do'naboy!

O'g'lini hushiga keltirish uchun behuda urinayotgan ona oradan qancha vaqt o'tganini ham payqamay qoldi, shu mahal uyur chekkasidan yana o'sha jungjang tuya minib kelayotganini ko'rib esi chiqib ketdi. Bu safar jungjang juda yaqin kelib qolgandi, yurishi ham juda ildam. Nayman ona tezda Oqmoyaga mina solib, qochib qoldi. Biroq, yayloving narigi tomonidan yana bir jungjang tuya yo'rttirib onaning yo'lini kesib chiqdi, shunda Nayman ona tuyasini ularning o'rtasiga qarab soldi. Bedov tuya olg'a tomon yelday uchib ketdi, ortidan ta'qib ostiga olgan jungjanglar baqirishib-qiyqirishib, nayzalarini siltab, dag'dag'a qilgancha uni quvlab borishardi. Biroq Oqmoyaga yetmoq qayoqda?! G'azablangan jungjanglar qaytib kelgandan so'ng manqurtni rosa do'pposlashganini ona bilmasdi. Ammo do'pposlashgani bilan manqurt nimani ham bilardi. U hadeb bir gapni takrorlardi:

— U sening onang bo'laman, deb aytyapti.

— Hech qanaqa onang emas u! Senda ona yo'q! Bu yoqqa nima uchun kelganini bilasanmi? Bilasanmi?! Telpagingni sidirib olib, boshingni qaynoq suvga solgani kelgan! — deb battar qo'rqita boshlashdi jungjanglar sho'rlik manqurtni.

Bu so'zlarni eshitib, manqurtning qoramtilr yuzlari bo'zday oqarib-ko'karib ketdi, qo'llari bilan telpagini changallab, bo'ynini yelkalari orasiga qisib, xuddi yirtqichday ola-kula atrofga qaray boshladi.

— Sen qo'rqmagin! Mana buni ushla! — deb jungjangning kat-tasi manqurtga o'q-yoy tutqazdi.

— Qani, mo'ljalga ol-chi! — kichik jungjang qalpog'ini osmonga otdi. O'q qalpoqni teshib o'tdi.

— O'h-o', — ajablandi qalpoq egasi. — Qo'lida xotira saqlanib qolibdi!

Uyasidan cho'chitib uchirib yuborilgan qush kabi Nayman ona Sario'zak cho'llarida oyog'i kuygan tovuqday yelib-yugurardi. Endi nima qilarini, nimaga umid bog'lashni bilmasdi. Jungjanglar endi nima qilisharkin? O'tovdag'i tuyalarni, manqurt o'g'lini ona yetib bora olmaydigan boshqa yerlarga, o'zlarining katta o'rdalariga yaqin joyga haydab ketisharmikin yoki uni qo'lga tushirish uchun payt poy-





lab yotisharmikin? Ming xil xayollarga g'arq bo'lgan ona boshi qotib, pastqam yo'llardan o'tib borib, yaylovni sinchkovlik bilan kuzatarkan, haligi ikkita jungjang uyurni tashlab ketib borayotganini ko'rdi-da, quvonib ketdi. Ular o'ng-u so'liga qaramasdan yonma-yon ketib bori-shardi.

Nayman ona uzoq vaqt ko'z uzmay turdi, ularning qorasasi ko'rinxay qolgach, o'g'li tomon yo'l solib qanday bo'lmasin, uni o'zi bilan birga olib ketmoqchi bo'ldi. U kim bo'lsa ham mayli, taqdir boshiga shunday qora kunlarni solib, dushmanlar shunchalik tahqir etgan ekan, bu — uning aybi emas. Mayli, ovsar bo'lsa ham o'g'lini qullikda, asoratda qoldirib ketmaydi. Bosqinchilar tutqun etilgan farzandlarimizni mayib-majruh qilganlarini, xo'r lab, aqldan ozdirib, notavon bir ahvolga solib qo'yganlarini naymanlar ko'rib qo'ysin-da, g'azabdan, or-nomusdan qo'lga qurol-yarog' olsin. Gap bosib olin-gan yerda emas. Yer hammaga yetib ortadi. Ammo-lekin, jungjang-larning yovuzligini sira ham kechirib bo'lmaydi, ularning xiyonatkorigi yetti yot qo'shni bo'lib ham yashash mumkin emasligini ko'rsatib turibdi...

Ona o'g'li tomon borar ekan, shu kechasiyoq bu yerdan ketish zarurligini unga qanday qilib tushuntirsam ekan, deb yo'l-yo'lakay o'ylar edi.

Qosh qoraya boshladi. Qanchalab o'tgan va o'tishi lozim bo'lgan son-sanoqsiz tunlar singari lojuvard-qizg'ish shu'laga chulg'angan tag'in bir tun soyliklar-u vodiyalar uzra buyuk Sario'zak sahrosini bosib kela boshladi. Oqmoya katta uyur tomon bekasini yeldirib borardi. Botayotgan quyosh shu'lalari qo'sh o'rkach o'rtasida o'tirib olgan ona qiyofasini baralla ko'rsatardi. U jiddiy tusda, yuzlarning qoni qochgan holda hushyor tortib, xavotirlanib o'tirardi. Sochlari oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, g'am-g'ussali ko'zlariga esa Sario'zak xuftoni singari g'am-tashvish cho'kkani edi... Mana, u uyurga ham yetib borib, o'tlab yurgan tuyalar orasidan o'tib kuzata boshladi, biroq o'g'li ko'rinxasdi. Tuyasi esa tizginini chuvalantirib sudraganicha bemalol o'tlab yurardi... Nima bo'ldi ekan unga?

— Jo'lomon! Qulunim Jo'lomon, qanisan? — deb chaqira boshladi Nayman ona.



Qilt etgan jon ko'rinnadi, hech qanday ovoz eshitilmadi.

... — Jo'lomon! Bolaginam! — deb chaqirdi ona o'g'lini, biron hodisa yuz bermadimikan deb tashvishlanib. So'ng egarda o'tir-gancha o'girilib qaragan edi, o'zini mo'ljalga olib turgan o'g'liga ko'zi tushib qoldi. Shu zahotyoq Oqmoyani burib chap bermoqchi bo'lgan ham ediki, vizillab kelgan o'q uning chap qo'lting'ining ostiga sanchildi. Ona: "Otma!" deyishga ulgurdi, xolos.

Bu o'lim zarbasi edi. Nayman ona ikki bukildi va Oqmoyaning bo'yniga yopishgancha "shilq" etib tushdi. Lekin undan oldinroq boshidan oq ro'mol uchib ketib, havoda qushga aylanib chirqiray boshladi: "Kimning farzandisan, eslab ko'r! Oting nima? Otangning oti Do'nанboy! Do'nанboy! Do'nанboy!.."

O'shandan beri Sario'zak dashti tepasida har kuni kechasi Do'nанboy degan qush uchib yuradi, deyishadi. O'sha qush yo'lovchiga duch kelib qolsa: "Kimning farzandisan, eslab ko'r! Eslab ko'r! Oting nima? Otangning oti Do'nанboy, Do'nанboy, Do'nанboy!.." deb sado chiqarar ekan.

***Shundan beri Nayman ona dafn etilgan o'sha joy Sario'zak muzofotida Ona Bayit qabristoni — Onayizor makoni deb ataladi...***

Oqmoya tuyasidan ko'p nasllar qoldi. Urg'ochilar o'ziga tortib, oqbosh tug'ilib, nayman eliga ma'lum va mashhur, norlari esa, aksincha, hozirgi Qoranor Bo'ron singari qoradan kelgan, juda baquvvat bo'ladi.

Rahmatli Kazangap Qoranor bo'ron oddiy tuyalardan emas, balki Nayman ona o'Igandan so'ng Sario'zak dashtida qolgan mashhur Oqmoyaning naslidan tarqagan, deb har doim gapirib yurardi va buni doimo isbotlab berardi. Mana, endi uning jasadini Ona Bayit qabristoniga olib borishyapti...



### Savol va topshiriqlar:

1. Jangchining o'ligini ham yog'iy qo'lida qoldirmaslik odatlariga qarab, naymanlar ma'naviyatiga baho bering.
2. Nayman onaning o'g'lini o'ylab chekkan iztiroblari tasvirini sinchiklab o'qing. Bag'ri qon ona tuyg'ularini ilg'ashga intiling. Bugungi kunda Nayman ona va manqurt o'g'il voqeligi qayerlarda va qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lyapti?
3. Ona o'g'lining manqurt bo'lguncha o'lgani ma'qul deb o'yla-gani holda uni topgisi kelaverGANINI tushunishga urining.
4. Marsiyadagi "**Tulubin kelib iskagan, Bo'tasi o'Igan bo'z moyaman...**" misralarida ifodalangan Nayman ona ruhiy holati va fojiaviy qismatini sharhlashga harakat qiling.
5. Jungjanglardan birining: "**O'h-o! Qo'lida xotira saqlanib qolibdi!**" — degan xitobi mazmunini tushuntiring.
6. Matndan manqurt o'g'il oldiga qaytayotgan ona tasviri berilgan o'rirlarni qayta o'qing. Onaning kechinmalarini izohlang.

## “ASRGA TATIGULIK KUN” ROMANI TO‘G‘RISIDA

Chingiz Aytmatovning bu romani 1980- yilda yozilgan. Asar chop etilishi bilan butun kitobxonlar tafakkuri va ruhiyatini larzaga keltirdi. Chunki unda odamning insoniy qiyofasini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlar: o'zlikni anglash, o'zgani tushunish, tarixiy ildizlarni bilish, undan faxrlanish singari tushunchalar ekanligi va bulardan ayrılish, mohiyatiga ko'ra, odamlik qiyofasini yo'qotish ekani ko'rsatilgandi. Asarda bu masalalar konkret odamlar taqdiri misolida badiiy ifoda etilgandi. Holbuki, bunday xususiyat o'sha davr adabiyoti uchun begona hisoblanardi.

Yozuvchi bu romaniga X asrda yashab o'tgan arman yozuvchisi Grigor Narikatsining “Musibatnoma” kitobidan “Bu kitob jismufig'onimdir mening, Bu kalom jon-u jahonimdir mening” satrlarining



epigraf qilib olinishida ham teran ma'no bor. Ch. Aytmatov uchun ham bu roman "jon-u jahon"ning o'zi edi. Asar chindan-da jahonga mashhur yozuvchining dilidagi oh-u fig'oni, jonini o'rtagan dardlari, alamlari bayoni sifatida yuzaga keldi. Kitobda odam degan yaratiqning azizligi, uni tarixiy ildizlaridan, tilidan, elidan, g'ururidan mahrum qilish joniga qasd etishdan ham dahshatli jinoyat ekanı yovqur Nayman onaning tengsiz fojiasi tasviri asnosida aks ettirilgan.

Ch. Aytmatovning buyuk yozuvchiligi shundaki, u Bo'ronli Edigey taqdiri misolida siyosatdan tamomila chetda turuvchi, bunday muammolar hal qilinadigan joylardan minglab chaqirim yiroqda umr kechiruvchi kamtargina odam ham, aslida siyosatning ta'siridan xoli bo'lolmasligini juda ishonarli aks ettirgan. Edigey kechagi kunini unutmagan, bobolar amal qilgan yuksak udumlar asosida yashashga o'zida kuch topa oladigan chin insondir.

Ma'lumotli bo'lsa-da, ezgu insoniy tuyg'ulardan mahrum, odamning ko'nglini his etmaydigan, bobolarning udumlarini mensimaydigan Sobitjon manqurtning zamonaviy va xavfli nusxasi ekanligi asarda juda ta'sirli ko'rsatilgan.

Kazangapni dafn etish jarayonida, marhum bilan vidolashuv onlarida Allohga munojot qilgan o'rirlari tasvirida Edigey tabiatiga xos yuksak insoniy xususiyatlar namoyon bo'lgan. Xullas, bu roman odamning odamligini ta'minlab turadigan asosiy qadriyatlar haqida dard bilan bitilgan o'lmas asardir.



## **Nazariy ma'lumot**

### **BADIIY ASAR PAFOSI HAQIDA**

Pafos yunoncha “ehtiros”, “hissiyot”, “iztirob” ma’nolarini anglatuvchi “**pathos**” so’zidan olingan. Adabiy atama sifatida esa **asarga singib ketgan, undagi badiiy tasvirning yo‘nalishini belgilab beradigan jo‘shqin tuyg‘u va ko‘tarinki ruhni anglatadi**. Bu tuyg‘u va ruh ijobjiy xarakterda bo‘lganda xayrixohlikni, salbiy tabiatga ega bo‘lganda inkorni bildirishi mumkin.

Pafos bilan yozilgan asarda adib o‘z nuqtayi nazari va qarashlarini berkitmaydi. Aksincha, o‘zi ilgari surgan va o’tkazmoqchi bo‘lgan hayotiy-estetik fikrni kuchli hayajon hamda jo‘shqin ehtiros bilan yoqlaydi. Shu tariqa, pafos bilan yozilgan asarning o‘quvchisi ko‘pincha yozuvchi qarashlarining tarafdoriga aylanadi. Chunki asarning pafosi uni xolis kuzatuvchi emas, balki astoydil tarafdar bo‘lishga undaydi.

Pafos badiiy asarning ifoda tarzinigina emas, balki uning ma’no-mohiyatini ham belgilab beradi. Chunonchi, “Asrga tatigulik kun” romanida oddiy temiryo‘lchi Edigey va Nayman onanining o‘ylari, so‘zlari, qilgan ishlari kuchli pafos bilan tasvirlangani uchun ham kitobxонни о‘зига rom etadi. Ayni paytda, jungjanglar, Jo‘lomon va Sobitjonning xatti-harakatlari, gaplari, tutumlari adib tomonidan jo‘shqinlik bilan inkor etilgani sababli o‘quvchi bu timsollarni qabul qilolmay qoladi. Shu tariqa asarning pafosi uning o‘quvchisiga o‘z nuqtayi nazarini aniq belgilab olishda yordam beradi.

Asar pafosi, ayniqsa, Nayman ona timsoli tasvirida yaqqol bo‘y ko‘rsatgan. Manqurt haqidagi afsonada insonning asosiy belgisi bo‘lmish o‘zlikdan ayirish, xotirasidan mahrum qilish cheksiz nafrat bilan tasvirlanganki, o‘quvchi beixtiyor Ch. Aytmatovning qizg‘in tarafdoriga aylanganini bilmay ham qoladi.



## O'LJAS SULAYMONOV

(1936- yilda tug'ilgan)

Taniqli qozoq adibi O'ljas Sulaymonov 1936- yilning 18- may oyida Qozog'istonning Olmaota shahrida tug'ildi. Otasi Umar harbiy xizmatchi edi. 1937- yilda qatag'on qurban ni bo'ldi. O'ljas rus maktabida o'rta ma'lumot oldi. So'ng Qozog'iston Davlat universitetining Geologiya fakultetini bitirdi. Yoshligidan adabiyotga mehr-muhabbat qo'yan O'ljas Sulaymonov universitetni bitirgan yili Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti institutiga kiradi.

O'ljas Sulaymonov badiiy ijodga doir turli vazifalarda ishladi. 1962—1971- yillarda "Qozog'iston haqiqati" gazetasi muxbiri, "Qozoqfilm" studiyasida muharrir, "Простор" jurnali bo'lim mudiri, 1971- yildan 1981- yilgacha Qozog'iston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvi kotibi lavozimida ishladi. 1981—1984- yillarda Qozog'iston Kinematografiya davlat qo'mitasi raisi, 1984- yildan 1992- yilgacha Qozog'iston Yozuvchilar uyushmasining birinchi kotibi vazifalarida ishlagan. 1995—2001- yillarda Qozog'istonning Italiya, Yunoniston va Maltadagi elchisi sifatida faoliyat ko'rsatdi.

O'ljas Sulaymonov rus tilida ijod qiladi. Lekin qozoq xalqiga xos milliy xususiyatlar, urf-odatlari, millatning hayotidagi shonli va og'-riqli nuqtalarni yaxshi biladi va ishonarli aks ettiradi. Shu bois uning asarlari qozoq xalqining milliy ruhini teran ifodalashi bilan diqqatga sazovordir. Shoiring birinchi asari — "Arg'umoqlar" 1961- yilda dunyo yuzini ko'rди. Shundan keyin uning "Quyoshli tunlar", "Ajoyib tun", "Sharofatli vaqtlar", "Maymun yili", "Loy kitob", "Olovning ko'chishi", "Yumaloq yulduz" va "Az i Ya" kabi ko'plab she'riy, nasriy, ilmiy kitoblari chop etildi.



O'ljas Sulaymonovning badiiy asarlarida qozoqlarning o'ziga xos turmush tarzi, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari aks ettirilsa, ilmiy asarlari da turkiy xalqlarning dunyo madaniyati taraqqiyotidagi ulkan o'rni tarixiy dalillar asosida yorqin ko'rsatib berilgan. O'. Sulaymonov "Az i Ya" asarida, yevropaparastlar aytganlariday, turkiylar yovvoyi va madaniyatsiz qavm emas, balki dunyoning eng qadimiy madaniyatli millatlardan ekanligini asosladi.

O'. Sulaymonov "Qoyilmisan insonga, zamin" deb ataluvchi dostoni bilan dunyoga mashhur bo'ldi. Inson imkoniyatlari va irodasi ga bitilgan madhiya bo'lgan mazkur asarda koinotni zabit etib, dunyo tarixida yangi bosqichni boshlab bergan inson haqidagi mushohadalar g'oyat ta'sirchan ifodalanadi. Shoir she'riyatidagi qahramonlar — g'ururli, o'z qadrini biladigan, ayni vaqtida, o'zganing ham qadriga yetadigan shaxslar. Ular fe'li keng, tanti, falsafiy mushohadalarga moyil, chapani va jo'mard kishilar sifatida tasvirlangan. Ularda turkiy qavmlarning tarixiy o'tmishi ta'sirli lavhalarda o'z aksini topgan.

## ARG'UMOQ

(*Azim Suyun tarjiması*)

Yilqisi bilan mashhur,  
Qadim qipchoq yerida  
Oqib boradi uyur,  
Kuygan o'tlar selida.

Tomirimda qaynar qon,  
Tulporidan saylab ber.  
Yeldiray misli bo'ron  
Ostin-ustin bo'lsin yer.

Yellar alanga olsin  
Arg'umoqning qonida.  
Qiyoq, alaflar qolsin  
Tuyoqlar to'zonida.



Yashash, kurash nimadir,  
Bilib qo'ysin arg'umoq.  
Jasorat bizga taqdir,  
Guldurab ketsin so'qmoq!



### Savol va topshiriqlar:

1. **“Yilqisi bilan mashhur, Qadim qipchoq yerida”** satrlarida qaysi yurt ko‘zda tutilayotganini ayting.
2. **“Oqib boradi uyur, Kuygan o’tlar selida”** tashbihini izohlang. Nega o’tlar kuygan va ular ne bois selga o’xhatilayotir deb o’lay siz?
3. **“Yeldiray misli bo’ron, Ostin-ustin bo’lsin yer”** ifodasini izohlashga urining.
4. **“Yellar alanga olsin Arg’umoqning qonida”** tasvirini tushuntirib bering.
5. **“Qiyoq, alaflar qolsin Tuyoqlar to’zonida”** satrlari zamiridagi hayotiy va badiiy ma’no haqida mulohaza yuriting.
6. **“Yashash, kurash nimadir, Bilib qo'ysin arg'umoq”** satrlarining mazmunini izohlang.
7. **“Jasorat bizga taqdir, Guldirab ketsin so'qmoq!”** satrlaridan qanday badiiy ma’no angladingiz?
8. Sizningcha, she’rdagi arg’umoq timsoli nimani anglatadi?
9. She’rga chopayotgan arg’umoqlar shiddatini ko‘chirishda qanday vositalardan foydalanilganini aniqlang.
10. She’rni yod oling.

## MAMBET BOTIRNING QATL OLDIDAN AYTGANLARI (Shavkat Rahmon tarjimas)

“Bismilloh!  
O’zimni unutgayman olis yo’lga tushganda,  
Jang-jadaldan to’yanman,  
Aytsam, ko’pdir ozorim,  
Egarda tug’ilgandim,



O'Imoqdaman kishanda,  
Tongda meni it kabi qiladilar sazoyi.  
Horib terlagen otning hidini unutgayman,  
So'g'ishlar urhosini unutgayman zindonda.  
Tongda jismim bурдалаб, алнага тутгaylor,  
Shon-shuhratin yo'qtogay boshim bunday vidoda.  
Unutgayman xotinlarning titrab-qaqshab tурганин,  
Yalang'och qilichdaydim,  
Zang bosadi tig'imni.  
Chalajon bir ilonday tomog'imda yuragim.

E, yo'q,  
Mening yuragim — pati yulingan shunqor.  
Unutgayman,  
Yagona najotkorim — Xudoni,  
Unutgayman yong'inlar, qирг'inlar ham duoni".

Hayhot, dashtda oy suzar  
Barxanlarni qiyalab,  
Moyalarga iliqib yuradir nortuyalar.  
Qozoqning qozonida vishillab sut toshadi,  
Itlar zerikkanidan bir-birin qonga bo'yar,  
Mambet botir zindonda ko'kka qarab yotadi,  
To'lin oy-chi botirning qo'liga nonday qo'nar.



### Savol va topshiriqlar:

1. "**O'zimni unutgayman olis yo'lga tushganda**" shaklidagi e'tirof tabiatan kurashchan qahramonning qaysi jihatlarini aks ettiradi deb o'ylaysiz?
2. "**Egarda tug'ilgandim, O'Imoqdaman kishanda**" satrlari zamiridagi hayotiy va badiiy ma'nolarni ifodalashga urining.
3. "**Tongda meni it kabi qiladilar sazoyi**" deyilishi sababini izohlang.
4. "**Horib terlagen otning hidini unutgayman, So'g'ishlar urhosini**



- unutgayman zindonda***” misralariga asoslanib qahramon hayot tarzi haqida so‘zlang.
5. “***Yalang‘och qilichdaydim, Zang bosadi tig‘imni***” satrlari zamiridagi ulkan anduhni izohlang va uning ifodalanish tarziga e’tibor qarating. “Yalang‘och qilich”, “zang bosgan tig“ tashbih-larining ildizlarini toping.
  6. “***Chalajon bir ilonday tomog‘imda yuragim***” satrida aks etgan ruhiy holat haqida o‘ylang. Chalajon ilon bilan bezovta yurak timsollarini qiyoslang.
  7. Lirik qahramonning: “***E, yo‘q, Mening yuragim pati yulingan shunqor***”, degan e’tirofini sharhlang.
  8. “***Hayhot, dashtda oy suzar Barxanlarni qiyalab***” tasviri qaysi yurt manzaralarini ko‘z oldingizga keltirganini aytib, bu tasvirning vazifasini tushuntiring.
  9. She’rning so‘nggi bandidagi tasvirni izohlang. Tutqun dardining miqyosi, fojiasining balandligi bilan turmushning shafqatsiz oddiyligi o‘rtasidagi ziddiyatga e’tibor qiling.
  10. Botir qo‘liga “***nonday qo‘ngan oy***” tasviri sizda qanday tuyg‘ular uyg‘otganini aytинг.

## TUNGI TAQQOSLAR

*(Sirojiddin Sayyid tarjimas)*

Sen — asalsan go‘yo,  
esladimmi — tishlar sirqirar,  
Sen — bir hazil,  
ki dastingdan yurak zirqirar.  
Men faqirman, kim ham xafa qilardi!  
Do‘zax ko‘rdim, endi jannat istar dil.  
Eh, nechun boshqalar seni sevadir,  
sevmagin, o‘, ular odammas axir.  
Kishnaydi, kishnab yo‘q qilar,  
ular odam emas, ular – ayg‘irlar!  
Tillarim tishlarni sindirganida,  
ko‘zim kipriklarni kuydirganida,

Ayt, barchasin ko'rib turib, dosh berib,  
tag'in  
odam deya sanalmoqqa qolurmi haqqim?  
Tunlar qurbaqalardek bo'zlamaslikning  
aytgin chorasin.

Men seni sevaman  
beva — faryodni,  
baliq — daryoni,  
tulpor — keng yaylovn sevs qanchalik.  
Men seni sevaman  
noshud — shuhrat-shonni,  
quyosh — sof osmonni sevgani yanglig'.  
Sen — ziqnasan, senga yashash oson,  
menga rizqin tutdi hatto gado ham,  
go'yoki go'dakka sut bergen kabi.  
O', men nomard, Xayyom bo'lsaydim agar,  
O', men nokas, Hofiz bo'lsaydim agar,  
O', Mahambet bo'lsaydim agar  
murodimga yetardim balki!..  
Faqat, barcha she'rlar yozib bitilgan.  
Shunday sevgandilar tog'-u dashtda ham,  
Shunday sevgandilar quvnab, qon yutib,  
O'zgacha sevish ham mumkinmi yoki?..  
Men seni sevaman,  
O'zim sevganday!



#### Savol va topshiriqlar:

1. She'rdagi "...ular odam emas, ular – ayg'irlar!" qatori ma'nosini anglating.
2. "Tillarim tishlarni sindirganida, ko'zim kipriklarni kuydirganda" tarzidagi iqrorda shoirning qanday holati ifoda etilgan?
3. She'rda shoir sevgisi darajasi aks etgan tasvirlarni sharhlang.
4. Unda shoirning badiiy mahorati aks etgan o'rnlarni ko'rsating.
5. She'rning nomini izohlashga urining.
6. She'rni yod oling.



## MUNDARIJA

Ruhiy kamolot vositasi ..... 3

### I BOB. XALQ OG'ZAKI IJODI

Alpomish ..... 8  
“Alpomish” dostoni to‘g’risida ..... 45

### II BOB. O‘ZBEK ADABIYOTI TARIXI

**Alisher Navoiy** ..... 47  
Farhod va Shirin ..... 53  
“Farhod va Shirin” dostoni haqida ..... 80  
Komil inson ..... 85  
**Xoja** ..... 87  
Hikoyat ..... 90  
Hikoyat ..... 91  
Hikoyat ..... 92  
G‘azal ..... 92  
Hikoyat ..... 93  
**Muhammad Rizo Ogahiy** ..... 95  
Ogahiy lirikasidan. G‘azallar ..... 99  
“Ustina” radifli g‘azal tahlili ..... 105  
Lirika haqida ..... 109  
**Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat** ..... 111  
G‘azallar ..... 115  
Musaddas ..... 121  
Kashmirda ..... 123  
G‘azalda badiiy tasvir vositasining o‘rni ..... 125

### III BOB. O‘ZBEK ADABIYOTI — RUHIY TARBIYA VOSITASI

**Imom al-Buxoriy** ..... 129  
Hadislardan namunalar ..... 132  
Hadislar haqida ..... 139  
**Oybek** ..... 145  
Navoiy ..... 147  
“Navoiy” romani to‘g’risida ..... 181

|                                      |     |
|--------------------------------------|-----|
| <b>Odil Yoqubov</b>                  | 183 |
| Ulug'bek xazinasi                    | 185 |
| Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili    | 207 |
| <b>Abdulla Oripov</b>                | 209 |
| Sohibqiron                           | 211 |
| “Sohibqiron” asari to‘g‘risida       | 225 |
| Abdulla Oripov she‘riyati            | 227 |
| <b>Omon Matjon</b>                   | 229 |
| Vatan mehri                          | 231 |
| Avvalgilarg‘a o‘xshamas              | 232 |
| Eng so‘nggi xazina                   | 233 |
| Omon Matjon she‘rlari haqida         | 237 |
| <b>Halima Xudoyberdiyeva</b>         | 239 |
| Dorilomon kunlar keldi               | 241 |
| Begin, sizni tabiat                  | 243 |
| Shunchaki                            | 245 |
| <b>Shavkat Rahmon</b>                | 247 |
| Tong ochar ko‘zlarin                 | 250 |
| Turkiylar                            | 251 |
| Jangda o‘lgan emas biror bahodir     | 254 |
| Baxt so‘zi                           | 255 |
| Shavkat Rahmon she‘rlari to‘g‘risida | 256 |
| <b>Sharof Boshbekov</b>              | 257 |
| O‘zim haqimda                        | 257 |
| Temir xotin                          | 259 |
| “Temir xotin” komedyasi haqida       | 288 |

#### IV BOB. JAHON ADABIYOTI

|  |     |
|--|-----|
| <b>Uilyam Shekspir</b>                   | 291 |
| Hamlet                                   | 294 |
| “Hamlet” fojiasi to‘g‘risida             | 325 |
| <b>Chingiz Aytmatov</b>                  | 329 |
| Asrga tatigulik kun                      | 331 |
| “Asrga tatigulik kun” romani to‘g‘risida | 356 |
| Badiiy asar pafosi haqida                | 358 |
| <b>O‘ljas Sulaymon</b>                   | 359 |
| Arg‘umoq                                 | 360 |
| Mambet botirning qatl oldidan aytganlari | 361 |
| Tungi taqqoslar                          | 363 |

QOZOQBOY YO'LDOSHEV, VALIJON QODIROV,  
JALOLBEK YO'LDOSHBEKOV

## ADABIYOT

Umumiy o'rta ta'llim mакtablarining 9- sinfi uchun darslik  
(*O'zbek tilida*)

TOSHKENT — “MITTI YULDUZ” — 2019

Muharrirlar — A.Nurmatov, O.Musurmonqulova  
Rassom — Sh.Xodjayev  
Texnik muharrir — L.Tolochko  
Musahhiha — N.Kabirova  
Sahifalovchi — H.Xo'jayeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 158 14.08.2009.

Bosishga ruxsat etildi 25. 02. 2019. Bichimi 70 x 90  $\frac{1}{16}$ . Kegli 11. Arial garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 26,91. Nashr b.t. 23,0. Nusxasi 494 082 dona. Buyurtma № 19-166.

Darslikning qayta ishlangan va to'ldirilgan orginal-maketi  
“Mitti Yulduz” MCHJ ga tegishli bo'lib, uning kompyuter bazasida nashrga  
tayyorlandi. Navoiy ko'chasi, 30.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-84-20, 244-87-55

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)

### **Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval**

| Nº | O'quvchining ismi, familiyasi | O'quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbarining imzosi | Darslikning topshirilgandagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|----|-------------------------------|------------|--------------------------------|-------------------------|-------------------------------------|-------------------------|
| 1  |                               |            |                                |                         |                                     |                         |
| 2  |                               |            |                                |                         |                                     |                         |
| 3  |                               |            |                                |                         |                                     |                         |
| 4  |                               |            |                                |                         |                                     |                         |
| 5  |                               |            |                                |                         |                                     |                         |
| 6  |                               |            |                                |                         |                                     |                         |

**Darslik ijara berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

|            |  |
|------------|--|
| Yangi      | Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati  |
| Yaxshi     | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqqlari mayjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.  |
| Qoniqarli  | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan. |
| Qoniqarsiz | Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan.<br>Darslikni tiklab bo'lmaydi.                    |